

ADABIYOT

O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va
o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining
o‘quvchilari uchun darslik-majmua

Birinchi nashr

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan

I QISM



«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent–2017

UO‘K: 821=512.133(075.3)

KBK: 83.3(5O‘)ya721

A 29

**Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov,
Komila Usmonova**

Taqrizchilar:

N. Rahmonov – *filologiya fanlari doktori, professor;*

M. Valiyeva – *Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 274-maktab-ning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.*

A 29 Adabiyot [Matn]: darslik-majmua / B. To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.

ISBN 978-9943-07-535-1

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi
mablag‘lari hisobidan chop etildi.**

UO‘K: 821=512.133(075.3)

KBK: 83.3(5O‘)ya721

ISBN 978-9943-07-535-1

© B. To‘xliyev va boshq.

© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti, 2017

ADABIYOT – MA’ NAVIYATNI YUKSALTIRISH VOSITASI

Sen bu kun sinfda shod yurak bilan
Sinov navbatini kutib turasan.
A’lo mamlakatning a’lo farzandi,
Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!

G‘afur G‘ulom

ASSALOMU ALAYKUM, HURMATLI O‘QUVCHI!

Bugun o‘ninchи sinf ostonasida turibsiz. Yosh qalbingizda orzular jo‘sh urib, xayolingizda ezgu niyatlar kezib yuribdi. Siz kunlar, oylar va yil o‘tgan sari jamiyat hayotiga aralashib, turli tanish va notanish odamlar bilan suhbatsiz bo‘lishingiz tabiiy. Insonning ko‘ngliga yo‘l topish, hayotdan zavqlanib yashash, sodiq do‘sstar orttirish, so‘zlash odobi, kattaga hurmat, kichiklarga izzatda bo‘lish kabi kundalik turmush hodisalarini ma’lum bir andoza va me’yorga solishingizda, albatta, badiiy adabiyot sizga beminnat yordamchi bo‘ladi.

Zero, badiiy adabiyotning ijtimoiy-madaniy hayotda, insonlardagi o‘zaro go‘zal muomala va munosabatlarning shakllanishida tutgan o‘rni nihoyatda katta. U kishilarga, xususan, yoshlarga olam va odamlarga bog‘liq hodisalar mohiyatini anglash, insonga xos tuyg‘ularning rangin qirralarini his etish, insoniy fazilatlar va nuqsonlar mohiyati haqida o‘ylash imkonini beradi.

Adabiyot qadim zamonlardan hozirga qadar «jamiyat», «ma’naviyat», «madaniyat» va «san’at» tushunchalari bilan birgalikda yashab keldi. Badiiy adabiyot har bir inson ma’naviy dunyosini beba ho insoniy fazilatlar, o‘limas milliy qadriyatlar bilan boyitadi. Ma’naviyati yuksak inson chinakam shaxs darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Odamning Vataniga sodiq fuqaro, ota-onasiga munosib farzand, yaqinlariga oqibatli do‘sst bo‘lishi ma’naviy kamolotining darajasidan darak

beradi. Shunday komillik yo‘lida badiiy adabiyot Siz azizlarga beqiyos xizmat qiladi. Adabiyot xazinasidagi tilla sandiq be-baho dur-u javohir – injular bilan to‘la; unda bitmas-tuganmas milliy-ma’naviy qadriyatlar zaxirasi jamlangan. Bu ma’naviyat xazinasidan bahramandlik ulkan hayot ostonasiga qadam qo‘yayotgan siz kabi oqil-u dono yosh avlodning tafakkuriga qanot bag‘ishlaydi, tasavvurini kengaytiradi.

Sharqda qadim-qadimdan shaxsnинг jamiyat va davlat bilan uyg‘unlik darajasi e’tiborda turgan. Aytish mumkinki, har bir shaxs tabiatidagi o‘ziga xos xislatlari inkor etilmagani holda, uning jamiyat bilan muvofiq bo‘lishi rag‘batlantirilgan. Badiiy adabiyot shaxsnинг jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘makhshadi. Bu jarayon o‘qilgan asarlarni uqish, ulardan o‘rinni xulosalar chiqarish, badiiy so‘zdan ta’sirlanish, ko‘ngilni poklash, o‘ziga ma’qul kelgan ezguliklarni yaqinlariga ham ravo ko‘rish, eng muhimi, badiiy asarlar vositasida odam o‘z-o‘zini kamol toptirishi orqali sodir bo‘ladi.

Yoshlarni ozod ruhli, erkin fikrli, adolatli, xolis, sabr-qanoatli qilib kamolga yetkazishdek tabarruk vazifani badiiy adabiyot o‘z so‘zining quvvati va sehri bilan bajaradi. Hazrat Alisher Navoiy aytadi: «Qone’ (qanoatli) darveshning quruq noni tome’ (ta’magir, birovning narsasiga ko‘z tikuvchi) shohning xitoyi xoni (dasturxoni)din xo‘broqdur». «Nazm ul-javohir»da shoir «Har kimsadaki bo‘lsa qanoat, g‘am yo‘q» degan xulosani bildiradi.

Navoiy yaratgan qahramonlarning asosiy qismi ma’naviy jihatdan boy insonlardir. «Hayrat ul-abror»dagi qator hikoyatlar, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ayi sayyor», «Saddi Iskandariy» va boshqa asarlarning qahramonlari shunday xislatga ega.

Bobur g‘azallarida, «Boburnoma»da aks etgan hayot hodisalari ham kishini o‘yga toldiradi, insonning kuch va qudratiga, e’tiqodiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi, kishining o‘zida o‘shanday xislatlar paydo qilishi uchun rag‘bat uyg‘otadi.

Ushbu darslikka kiritilgan barcha adiblarning ijodini o‘qigan har bir o‘quvchi ulardagи so‘z sehriga, qahramonlarning jur’at va jasoratiga, insoniy mehr va muhabbatni tasvirlashdagi takrorlanmas mahoratiga tan berishlari shubhasiz.

ESLAB QOLING. Mahmudxo‘ja Behbudiyning hurlikka, inson haq-huquqini tanishga undaydigan «Haq berilmas, olinur» yoki Abdulla Qodiriyning so‘zlash va yozish odobiga doir «So‘z so‘zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak» degan hikmatlari ham inson ma’naviyatining qaysidir jihatini tarbiyalash uchun xizmat qiladi, albatta.

Adabiyotda har bir xalqning ona Vatani, tuprog‘i, o‘ziga xos milliy xarakteri, marosim va urf-odatlari tasvirlanib ulug‘lanadi; barcha uchun birdek ardoqli bo‘lgan umuminsoniy his-tuyg‘ular tarannum etiladi. Shu ma’noda, turli millatlarni o‘zaro birdamlikka chorlaydigan badiiy adabiyot geografik chegara bilmaydi. Bir millat adabiyotidagi go‘zal asar boshqa bir xalqning ma’naviy mulkiga aylanishi mumkin. Shunga ko‘ra, mazkur darslikda xalq og‘zaki ijodi, qadimiy turkiy adabiyot, o‘zbek mumtoz adabiyoti, yangi o‘zbek adabiyoti hamda jahon adabiyotining eng sara namunalari tanlab olindi va siz azizlar hukmiga havola qilindi.

MUHTARAM O‘QUVCHI, E’TIBOR BERING! O‘z vaqtida respublikamizning Birinchi Prezidenti: «Chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin»¹, – deb ta’kidlagan edi. Buning uchun esa, albatta, badiiy adabiyot, xususan, qadimiy va boy og‘zaki ijod namunalari, takrorlanmas sehr va jozibaga ega bo‘lgan adabiyotimiz tarixi, zamondoshlarimiz obrazlarining o‘ziga xos olamini inkishof etishga yordam beradigan zamonaviy adabiyotimiz, olam va odam munosabatlarining turfa qirralarini

¹ Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 6-bet.

bir-birini takrorlamagan holda tasvirlab beradigan jahon ada-biyotining nodir namunalari bilan yaqindan va jiddiy tanishmog‘imiz talab etiladi.

Ma’naviyat tushunchasini barcha milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yuksak yaxlitligi tarzida talqin etish mumkin. Bu xislat odamning olamdagi moddiy va ma’naviy hodisalarga yaxlit munosabati tarzida namoyon bo‘ladi.

Har bir insonning o‘z ongi, tasavvuri, tafakkur tarzi, dunyoqarashi bilan belgilanadigan ichki dunyosi bor. Uning «yaxshi» yoki «yomon» deb nom olishi mana shu ichki dunyoning mazmun va mohiyatiga bog‘liq. Agar u jamiyatning tegishli bosqichdagi talablariga, jamiyat a’zolarining umumiy axloqiy-madaniy qarashlariga uyg‘un bo‘lsa, yaxshi, aksincha holatda esa yomon degan nom olishi mumkin. Har bir inson jamiyat a’zolari bilan birga yashaydi. Demak, u atrofdagilar ta’sirini ham his qilib turadi. Badiiy adabiyot ana shunday ta’sir ko‘rsatishda katta ahamiyat kasb etadi.

Badiiy adabiyotning din bilan aloqasi, xususan, tasavvufning badiiy adabiyotga ko‘rsatgan ta’siri tufayli undagi inson-parvarlik g‘oyalarining yanada kuchli, jozibali va yorqinroq tarzda namoyon bo‘lganini ta’kidlash joiz.

Unda insonning faqat o‘ziga xos xususiyatlari emas, balki butun insoniyatga, jamiyatga, tabiatga, olam va odam munosabatlariga daxldorligi ham alohida e’tibor bilan tasvirlangan.

Bu tasvirlarning birortasi kishini befarq qoldirmaydi. Ular insondagi yaxshi fazilatlarning ko‘payishiga va, aksincha, yomon xususiyatlarning bartaraf etilishi, yo‘qotilishiga undab turadi.

Inson ma’naviyatini boyitish uchun har qanday adabiyot emas, balki yuksak badiiyat talablariga javob bera oladigan asarlar zarur bo‘ladi. Badiiy asar ta’sirli va yaxshi bo‘lishi, u har qanday kitobxon qalbiga zavq-shavq bag‘ishlashi bilan birga ezgu o‘y hamda orzular yo‘liga yaqinlashtirishi shart.

Savol va topshiriqlar

1. Ushbu mavzu epigrafida keltirilgan she'rni qanday izohlaysiz?
2. Badiiy adabiyotning hayotingizda tutgan o'rnini tushuntirib bering.
3. «Jamiyat», «ma'naviyat», «madaniyat» va «san'at» tushunchalarini o'tgan sinflarda o'qilgan asarlarga bog'lab tushuntira olasizmi?
4. Nega adabiyot chegara bilmaydi?
5. Alisher Navoiyning inson fazilatlari haqida aytgan yana qanday hikmatlarini bilasiz?
6. Behbudiy va Abdulla Qodiriy fikrlarini kengroq tushuntirib bering.
7. Respublikamizning Birinchi Prezidenti aytgan fikrga e'tibor bering. Uni qanday izohlagan bo'lar edingiz?
8. Adabiyot tarixidan «ma'naviyati yuksak» hamda «ma'naviyati past» qahramonlar tasvirini eslang. Ularning asosiy belgilari qanday namoyon bo'lganini izohlab yozing.



XALQ OG‘ZAKI IJODI

RUSTAMXON¹

(Dostondan parcha)

Qadim zamonda Oqtosh viloyatida Sultonxon degan o‘tdi. Sultonxonning uch xotini bor edi, tug‘maydigan aybi bor edi. Necha vaqt Oqtosh mamlakatida podsholik qildi. Yoshi ulg‘ayib soqoli oqarib qoldi.

Huroyim degan o‘rtancha xotini homilador bo‘lib, oydan oy, kundan kun o‘tib, oyi-kuni yaqin yetib kelaberdi.

Sultonxon Huroyim yoriga aytdi: «Dunyoda bir qo‘rqqan yomon, bir quvongan yomon» degan gap bor. Mening qariganda ko‘rgan farzandim. Men shu yerda yursam, sen bir kun tug‘ib qo‘yarsan. Men quvonganidan yuragim yorilib o‘lib qolarman. Qurudum mamlakatiga safar qilayin, oldimga suyunchi deb chiqqan kishiga ayamasdan tanga-tilla berarman, qulog‘idan dunyoga ko‘marman, balki qo‘rg‘onbegi qilarman.

Shunda ketmoqqa ixtiyor qilib, taxti-baxtini kimga topshirarining hisobini topmay, amalini, davlatini hech kimga ishonmay, hayron bo‘lib, qozikalonlardan so‘radi. Qozikalonlar turib aytdi: «Gumonaning tufaylidan mamlakatni Huroyimni so‘ramog‘i to‘g‘ri keladi».

Shunda Sultonxon taxt-baxtini Huroyimga topshirib, kar-nay-surnay qo‘ydirib, odamlarni yig‘dirib, jo‘namoq harakatida bo‘ldi. Huroyim Sultonxonga qarab bir so‘z aytib turgan ekan:

Xonim, eshit menday oyim arzini,
So‘ldirmagin bunda gulday tarzini,
Mergan otar dayrobotning g‘ozini,
Xonim, ongla Huroyimning so‘zini.

¹ Dostonni 1937-yilda baxshi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tilidan Hodi Zarif yozib olgan.

El ko‘chirib Olatog‘dan oshirding,
Ulug‘ bilib nechovlarga bosh urding.
Bir necha dushmandan siring yashirding,
Toj-u davlatingni menga topshirding.
Necha yillar surib bu elda davron,
Qurudum deb, xonim, ketib borasan.
Davlatim bor, ponza ro‘mol o‘rayin,
Sarg‘ayib tarzingga, xonim, qarayin.
Kelar mo‘ljalingni, to‘ram, so‘rayin:
Necha vaqtda Oqtosh qaytib kelasan?
Bizga tashlab ketib mamlakatingni,
Obod qilib so‘rab turay yurtingni.
Men bilmayman sening qaytar vaqtingni,
Aytgin, to‘ram, necha vaqtda kelasan?
Sen ketgan so‘ng, men ham xafa bo‘larman,
Ko‘z tutib yo‘lingga qarab yurarman.
Kelar mo‘ljalingni aytsang, xonzoda,
Men yo‘lingga peshvoz chiqib turarman.
Ochilar bahorda, bilsang, gulg‘uncha,
Yurt egasi bo‘ldim o‘zing kelguncha.
Senday xizmat qilar menga ham necha,
Bir kelar mo‘ljaling aytgin, xonzoda.

Bu so‘zni eshitib, Sultonxon dimog‘i chog‘ bo‘lib otlanib,
Huroyimga qarab, murtini¹ burab, uzangiga oyog‘ini tirab:
«O‘n to‘rt yilda kelaman», – deb bir so‘z aytib turgan ekan:

Men ketgan so‘ng uydan chiqib o‘tirma,
Do‘st yig‘latib, dushmaningni kuldirma.
Toj-u davlat, mol-u mulkim topshirdim,
Bir yetar-yetmasga sirim bildirma.
Men qanday so‘rasam, shundayin bo‘lgan,
Oqtoshga ega bo‘p, podsholik qilgin.
Obod qilib, endi yurtimni so‘rab,
Podsho bo‘lib sen Oqtoshda turgan.

¹ Murt – mo‘ylov.

Men ketgan so‘ng nodon ko‘ngling bo‘limagin,
Ko‘p yashagin, ko‘p yilgacha o‘limagin.
Yaxshilik ko‘r, yomonlikni ko‘rmagin,
Nodonlarman aslo sirdosh bo‘limagin.
Ayollik qib nodon so‘zlab turmagin,
Toj-u davlatimni senga topshirdim.

Bu so‘zni Sultonxondan eshitib, Huroyim yori Sultonxonga qarab, tag‘i¹ bir-ikki og‘iz so‘z aytib turgan ekan:

Tog‘lar-tog‘ning boshini chalgan tuman-a,
Har kim yig‘lab tursa oxir zamon-a,
Bo‘yimda qolgandir biror gumon-a.
Bizlarga topshirsang Oqtosh yurtingni,
Qo‘yib ketgin farzandingning otini,
So‘rab tursa bunda mamlakatini,
Podsho bo‘lib sizday xonning xotini.
Xizmat qilsa bunda necha sipoyi,
Obod bo‘lar sizday xonimning joyi.
Mana eldan o‘zing ketib borasan,
Bolangning otini nima qo‘ysan?
Eshitgin dilbarning aytgan dodini,
O‘zing qo‘ysang farzandingning otini,
Nima deb amr etsang, ani qilarman,
Aytsang, farzandingga otin qo‘yarman,
Shu sababdan ko‘nglingdагин so‘rarman.

Bu so‘zni Huroyimdan eshitib, Sultonxon bir so‘z aytib turgan ekan:

Sen o‘zingdan gap qolarmi, Huroyim,
Cho‘p-xasdan ko‘pdir qilgan gunohim,
O‘g‘il tug‘sang, otin qo‘ygin Rustamxon,
Qiz tug‘sang, gul yuzli, o‘zing bilasan.
Men ko‘rayin Qurudumning yurtini,
Cho‘li, dashti, necha mamlakatini.

¹ Tag‘i – tag‘in, yana.

Bu so‘zlarni endi Sultonxon aytti,
Xo‘splashib Huroyim bunda qolipti,
Sultonxonni kuzatib yo‘lga solipti.
Sultonxon jo‘nadi shahardan chiqib,
Qancha odam mahramlari jam bo‘lib,
Qurudumdek mamlakatni axtarib.
Shunday qilib ketti ko‘rmagan yurtga,
Qamchi bosib haydar cho‘llarda otga,
Gohda tup-tup bo‘lar, gohlarda yakka,
Cho‘llarning to‘zoni chiqib falakka.
To‘p-u to‘pxonaman lashkarin olib,
Borayotir Qurudumni axtarib.
Sayr etib men necha vaqtlar yursam deb,
El-u xalqni shunday qilib ko‘rsam deb,
Oqtoshning yurtiman birga qilsam deb¹,
Elni ko‘rib, yurtga katta bo‘lsam deb,
Oqshom yotib, kunduz jo‘nab boradi,
Dunyoning ayshini shunday sursam deb.
Cho‘llarda ostiga mingani tulpor,
Xizmatda olti yuz mahrami tayyor,
Qancha sipoyi ham adadsiz lashkar,
Shavkati olamni bosib boradi.

Sultonxon yo‘l yurib, Qurudum mamlakatini yoqalab, chodir-chaman tikib qo‘ndi. Bu yerlar tevaragidagi ellar, necha qo‘rg‘on so‘rab turgan beklar ilgaridan ham bir-biriga ma’lum. Goh Sultonxonga boj berib, goh bermay qaytib turar edi. Bular Urganch, Xorazm, Xeva beklari, Dinkaman xonlari edi. Bular Sultonxonning kelishini ko‘rib, shunday maslahatda bo‘ldi: «Biz bu podshoning ixtiyoriga goh kirib, goh kirmay qolganimizga, bu adadsiz lashkar, qancha to‘p-u anjomlar bilan yomon niyatda kelgan. Bo‘lak o‘yda kelsa, bunday shavkat bilan chiqmas edi. Bizda bekor odam ko‘p, lashkar yo‘q. Biz har qaysimiz bitta-bitta qo‘rg‘onning egasimiz. Xalqdan yig‘ilgan to‘sat-to‘sat, dasta-dasta lashkar tarqab ket-

¹ Oqtosh yurtiga qo‘shsam demoqchi.

gan. El-u xalq och-yalang‘och, bari tentirab qolgan. Bularni otlantirib, Sultonxonning ustiga bosib bormoq bizning qo‘limizdan kelmas. Ustimirizga keldi, endi biz qancha mol-hol olib borib ko‘rmog‘imiz darkor».

Bu mamlakatdagi amaldorlar maslahatni qilib, Sultonxonga borishli-kelishli bo‘lib yotdi.

* * *

Oqtosh mamlakatida Huroyim podsholik qilib, ichkarida arz so‘raydi. Ximcha degan kanizi bor. Ximcha – tillari bulbulcha, kimki yaxshi desa, shuncha, ikki yuzi ochilgan gulcha, bellari xipcha, o‘zi suluv oyimcha. Ximcha oyim tashqarida arz so‘radi. Huroyim Oqtosh mamlakatida Sultonxonidan zi-yoda ish tutuviqiga ikki kundosh bezovtalik qilaberdi. Vaqt yetib, oyi bitib, Huroyim o‘g‘il tug‘di, otini Rustam qo‘ydi.

Rustam birga, ikkiga, uchga kirdi. Tilga enganida madrasadan bir mulla olib kelib, o‘qitib yotaberdi.

«Zamon Huroyimniki bo‘ldi», – deb ikki kundosh nima qilarini bilmay o‘y o‘ylar edi. Oqtosh viloyatida daftari mastondan uch yuz oltmishest mastoni bor edi, boshlig‘ini Momogul maston der edi, mazgili¹ shahardan tashqari bir g‘orda edi.

G‘orda yotar edi, xurrakni baland tortar edi, botmon nosvoyni to‘rt bo‘lib otar edi, yurish-turishi odamlarga xatar edi, ne er yigitlarni ikki pulga sotar edi, yaxshilikni uch pulga olmay, qayerda yomonlik bo‘lsa, izlab yetar edi, qanday odam ko‘rsa, bu kampirdan hazar qilib uzoqqa ketar edi, yomonlik izlab borgan odamning ishi mastondan bitar edi.

Ikki oyim Momogulni ko‘ngliga olib, so‘roqlab borib qoldi. Huroyimning ustidan bir so‘z aytib turgan ekan:

– Eshit, momo, oyimlarning tilini,
Vayron qilsang bunda Oqtosh elini,
Xazon qilgin tar ochilgan gulini,
O‘lsin deymiz Huroyim ham ulini².

¹ Mazgil – manzil.

² Ulini – o‘g‘lini.

O‘zgalardan sizni yaxshi bilaman,
Xizmatingga bir qop tilla beraman,
Vayron qilgin Oqtosh mamlakatini,
Nima desang, xizmatkoring bo‘lamан.
Bizga dushman bilmaganin bildirgin,
Xanjar urmay bag‘rin qonga to‘ldirgin,
Mamlakatdan buni benasib qilib,
Huroyim ham yolg‘iz ulin o‘ldirgin.

Ikki kundosh Huroyimdan qutulish uchun Momogul maston bilan til biriktiradilar. Maston tilla tangalar evaziga Huroyim ustidan fitna-g‘iybat to‘la arznama yozdiradi, firib bilan Oqtosh ahliga tasdiqlatadi va Sultonxonga olib boradi. Sultonxon g‘azabga minib, o‘zi safardan qaytguncha Huroyimni shahardan haydab, dorga osishga buyuradi. Jallodlar Huroyimni dorga osmoqchi bo‘layotganlarida, Rustam jallodlarning dodini berib, onasini qutqaradi. Rustam boradigan yerining tayini yo‘q; enasini otga mindirib, tozilarini ergashtirib: «Adashganning oldi yo‘l», – deya yo‘lga tushadi. Ular yo‘l yursa ham mo‘l yurib, Hukumu tog‘iga yetib boradilar, shu yerda qo‘nim topadilar.

Rustam tog‘-toshda ov qilib keladigan, enasi esa pishirib beradigan bo‘ldi.

Bir kuni Rustam enasi va tozilarini qoldirib, zarur anjomlar topish uchun yo‘l tortdi. Ko‘zi tog‘ bag‘ridagi o‘tovga tushdi.

Ot ustida o‘tovning bo‘sag‘asidan qaradi. Ko‘rdi: ajab suratlari bir qiz, jamoli kunni xira qilguday, har kim husnini ko‘rsa, aqli ketib, otdan yiqilib qolguday. Ikki qo‘li orqasiiga boylangan, sochidan uyning keragasiga¹ boylovli turibdi. Rustam ko‘rib hayron qoldi. «Shunday odamni ham ovloq bir cho‘lda, ko‘z ko‘rmagan yerda boylab tashlaydigan ham gaplar bor ekan-da! Kel-e, o‘ylab turguncha so‘ylab bila-yin», – deb Rustam bir so‘z aytib turgan ekan:

– Alifday qomating, xipcha belingdan,
Menga bayon ayla o‘sgan elingdan,

¹ Keraga – o‘tovning chetanga (to‘qima devor) o‘xshatib ishlangan devori.

Xabar olmay hech kim sening holingdan,
Bu yerlarga qanday nomard boyladi?
Boylaganni menga bayon aylagin!
Qanday odam qildi qayg‘u-zulmni,
Xafa qipti senday toza gulimni,
Otdan tushib yechayinmi qo‘lingni?
Boylaganni menga xabar ber endi.
Maloyik suratli, gul yuzli dilbar,
Seni ko‘rgan odam bo‘lar beqaror.
Oy-u kundan ziyod sening husning bor,
Ne qildi seni boylab giriftor?
O‘z yurtingda biror ishni qildingmi?
O‘lim ishga duchor bo‘lib qoldingmi?
Bir tuhmatga sen giriftor bo‘ldingmi?
Xabar bergen, qanday nodon boyladi?
Menga aytsang o‘ynab-o‘sgan yurtingni,
Nima deydi sening ismi-zotingni?
Menga aytsang sen ham sir-u holingni,
Javob bersang, yechib qo‘yay qo‘lingni.

Qiz bu so‘zni eshitib, Rustamga javob berib, boylovli turgan yerida bir so‘z ayтиб турган екан:

– Meni so‘rab bexos bo‘lib turmagin,
Hayallama, ketgin, yo‘ldan qolmagin,
Vaqtি zamон mening kunim bitgandir,
Ketgin, menday bo‘lib bunda o‘lماғин!
Dam-badam yetib kelar ajdahor,
So‘ngra qochib qutulolmassan undan,
Hayallamay bundan ketmog‘инг darkor!
Kelsa, mamlakatni to‘zon qiladi,
Ishqirib damiga tortib oladi,
Kim yaqinda bo‘lsa, tayin o‘лади,
Sendayin yo‘lbarsni nobud qiladi,
Hayallama, ketgin, bu yerda turma!
Bizning shahrimizni ajdahor olgan,
Uy boshiga bir qizdan soliq solgan,

Men boylandim – bugun navbatim kelgan,
Ko‘p turmagin, ketgin bundan, beginjon.
Xayolingni bunda turib bo‘l magin,
Yaxshilik ko‘r, yomonlikni ko‘r magin,
Sen mening husnimga hayron qolmagin,
O‘lib ketib ajdahorning damida,
Sen meni qoningga zomin qilmagin!

Bu so‘zni qizdan eshitib, Rustam o‘z boshini qutqarib, qizni tashlab ketgani ko‘zi qiymay, ajdahorga bir begunohni bergisi kelmay, qizga qarab bir so‘z aytib turgan ekan:

– Oh ursam, to‘kilar ko‘zimning yoshi,
O‘limdan qaytarmi, bilgin, mard kishi,
Bundan qo‘rqib ketmoq nomardning ishi!
Ushbu damdir, o‘zga damni dam dema,
Ajdahordan sira meni kam dema,
Mushtiparsan, o‘ladi deb g‘am yema.
Qay tarafdan munda kelar ajdahor?
Ajdahor yo‘lini ko‘rsatgin, dilbar,
Ajdahor deganing bitta ilon-da,
Bir ilonning nima ham quvvati bor?!

Elingning zaxirasin toza olibdi,
Zaharini butun elga solibdi,
Elingda yo‘q ekan daf etgich odam,
Bir ilonga seni duchor qilibdi.

Hech zamonda shunday ishlar bo‘larmi?
Ajdahor deb seni boylab berarmi?!
Meni o‘ladi deb, munglig‘, g‘am yema,
Ko‘rsatgin ajdahor kelar yo‘lini.

Ajdahorga ko‘rsatayin ishimni,
Yo‘lingda berayin aziz boshimni,
Omon-eson ajdahordan qutulsang,
So‘ngra borib ko‘rgin qarindoshingni.

Qiz ilgari ajdahorni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani yo‘q, ajdahorning siyosati xalqning qilgan ta’rificha, Rustamning qaddi-

jasadiga qarab, «yaxshi yigit ekan, o'lmasin» deb, yana ham ko'proq qaytardi. Shunda ham Rustam:

— «Mard so'zidan, yo'lbars izidan burilmaydi» degan gap bor. Ajdahor domiga tortadi, meni yutadi deb vahm qilmayman. Qayishmay ajdahorning yo'lini aytgin, — dedi.

Unda qiz aytdi:

— Harchand zo'r urindim, bo'ljadi, sening ham ajaling yetgan ekan, kuning bitgan ekan, — deb bir qirni ko'rsatdi. — Ajdahor shu tarafdan keladi, — dedi.

Shunda Rustam qizning gapi bilan otiga qamchi urib, boyagi ko'ndalang qirning ustiga chiqdi. Qarasa, ajdahor ko'zi olovdek yonib, ishqirib, har tarafga o't sochib, tog' ustidan Charxin degan ko'lga tushib kelayotgan ekan.

Haybat bilan kelayotir ajdahor,
Yaqinladi Rustambekday zo'rabor.
Ajdahor chopinib damga tortganda,
Langar to'kib Rustam o'zin to'xtatar.
Hech narsani pisand qilmas ajdahor,
Chiday olmay endi Rustam zo'rabor,
Bir-biriga endi yaqinlab qolar.
Na'ra tortib bunda Rustamday qaysar,
Quvvatiman Rustam na'ra urganda,
Rustamning tovushi ajdarga yetdi,
Bu tovushdan uning qulog'i bitdi.
Ko'targan boshini yerga tashladi,
Jiyirib quyrug'in o'ziga tortdi.
Ajdahor behushdi, Rustambek bildi,
Qilichni chiqarib qo'liga oldi,
Haybatli ilonning qoshiga bordi,
Ilonning boshiga qilichni soldi.
Haybatidan qo'rqlay Rustam ish qildi,
Ajdahorni qaysar Rustam o'ldirdi.
Dushmanni o'ldirib ko'nglin xushladi,
Qirq bir g'o'la qilib kesib tashladi.
Bir g'o'ladan oldi uzun bir tasma,
«Ajdahor belgisi», — dedi, jo'nadi.

Rustamning zarbidan ajdahor o‘tdi,
Tog‘ning jondoriga yemish bo‘p yotdi.
Rustam qaytdi ajdahorni o‘ldirib,
O‘tovdag‘i qizning qoshiga yetdi.
U qiz ko‘rди: Rustam keladi omon,
«Ajdahorni ko‘rmabdi», – deb mushtipar
Ko‘nglidan kechirdi ana shu zamon.

Rustam qizning oldiga borib, ishonar belgisi deb ajdahordan olgan tasmani tashladi. Qiz ajdahorning terisidan olingan tasmani ko‘rib, ajdahor o‘lib, o‘zining omon qolganini bilib quvondi.

Ajdahor zulmidan qutulgan Bujul shahri va uning shohi Rustamni shohlikka ko‘taradilar va Oftoboyimni unga to‘y qilib olib beradilar.

Rustam Bujulda uch kun podsho bo‘lib turadi. So‘ngra enasi va tozi itlari yoniga qaytadi...

Oqtosh mamlakatidagi ikki kundoshi Rustam va Huroyimning tirik ekanligi daragini eshitgach, yana shum kampirni ishga soladilar. Shum kampir Bahra tog‘iga kelib, Oqrabotga kiradi. Huroyimni zindonband qilib, uning qiyofasiga kiradi va dev yordami bilan Rustamni o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Qizil dev shunday yigit bu shum kampirning o‘g‘li emasligiga aqli yetib, kampirning o‘zini o‘ldirib, Rustamni qutqaradi. Rustamni Oftoboyim parvarish qiladi, Huroyimni zindondan qutqaradi. Ular Bahra tog‘ida baxtli yashay boshlaydilar. Rustam va Huroyim haqidagi haqiqatni bilgan Sultonxon o‘z gunohini yuvish va ulardan avf so‘rash ilinjida qalandar qiyofasiga kirib, yurt kezadi, qirq qalandarga qo‘shiladi, o‘g‘li va Huroyimni qidiradi...

Ka’ba izlab bundan ketib boradi,
Kamxarj qolgan yerda gadoylik qildi.
Xarjili bo‘lganda qichab yo‘l yurdi...
Sultonning dardini ular bilmaydi,
Ka’ba deydi, yurar yo‘ldan qolmaydi.
Shunday qilib necha shaharni ko‘rdi,

Ulfatlarman har yerlarda o‘tirdi,
Sultonxon dardini endi gapirdi:
– Yaproqday titraydi qalandar joni,
Men qalandar, biling, Oqtoshning xoni,
Izza qildi debon zinhor koyinmang,
Mendayin gadoning yolg‘iz o‘g‘loni.
Shularning ishqida bo‘ldim xor-zor,
Daragini bilib bo‘ldik, qalandar.
Ka’ba bilan ishim yo‘qdir, ulfatlar!
Mening Ka’bam, ko‘rdim, u yerda tayyor!
Mendan, bilsang, ko‘p xatolik o‘tgandir,
So‘zlaganim yo sizlarga botgandir,
Sizlar ko‘nglingizga og‘ir olmangiz,
U gaplarni asli menga aytgandir.
Oti Rustam, o‘zi nor kalla qo‘chqor,
Men shuning ishqida bo‘ldim qalandar;
Ka’ba ketsang, borabergin, ulfatlar,
Qaytib borsam, mening Ka’bam topilar.
Necha kunlar bo‘ldik birga ham yo‘ldosh,
Bir-birimiz bilan bo‘lganmiz sirdosh.
Men qaytaman endi kelgan yo‘limga,
Qayga borsang borabergin, qarindosh!..
Bu so‘zni aytib, bir-biriman xo‘splashdi.
Qirq qalandar ketdi Ka’baga qarab,
Sulton yurdi bir shaharni oralab.
– Qani mening borsam joni-dilim? – deb,
Chamanda sayragan u bulbulim, – deb,
O‘ldirsra o‘ldirsin yolg‘iz ulim, – deb,
Tag‘i qaytib, Bahra toqqa jo‘nadi...

Shunda yo‘l yursa ham mo‘l yurib, bir o‘zi telpagi qay-qayib, tag‘i bir kun Oqrabotga borib qoldi.

Rustam ovda edi. Sultanxon eshagini bog‘lab, sarhovuzning bo‘yiga tushib edi, Oftoboy hovuzga suvgaga chiqdi. Bu qalandarni ko‘rdi: belida kamarlari tilladan: qaddi-jasadi kelbati Rustamga keladi. Shunda qalandarga qarab, Oftoboy bir so‘z aytib turgan ekan:

– G‘am bilan sarg‘aydi guldayin diydar,
Bir nechalar ahvoldidan bexabar,
Bu manzilga kelib qo‘ngan, qalandar,
Xabar bergil, kimda sening ishing bor?
Beliga yarashgan zarrin po‘tasi,
Ko‘p bo‘ladi aytgan so‘zning xatosi,
Siz bo‘p yurmang bizning xonning otasi,
Xabar ber, qalandar, qaydan kelasan?
Qora zulfim eshilgandir tol-tol,
Qalandar, bu aytgan so‘zga quloq sol,
Dushman kelsa, bunda bo‘ladi poymol,
Bir qalandar, bobo, qaydin kelasan?..

Bu so‘zni eshitib, Oftoboyga qarab, boshini ko‘tarib, Sul-tonxon bir-ikki og‘iz so‘z aytib turgan ekan:

– Dardim ko‘pdir, kim biladi ishimni?
Qo‘limdan qochirdim olg‘ir qushimni.
Ko‘p yurdim, yetmadi bemahal o‘lim,
Qaysi bir gulshanga ketdi bulbulim?
Shu ko‘ylarga soldi qodir Xudoyim,
Xarob bo‘lib qoldi u manzil-joyim,
Havoga davr olib bo‘z qarchig‘ayim,
Shu gulshanga qo‘ndimi deb so‘rayin.

Bu so‘zni eshitib, Oftoboy bildi – Rustamning otasi ekan:

– Maydon bo‘lsa bedov otlar chopilar,
Chopib kelsa banot jullar¹ yopilar,
Men ham bildim yo‘qchi bo‘lib kelibsan,
G‘am yema, begijon, yo‘g‘ing topilar.
Ko‘tar yuragingdan qayg‘u-vahmni,
Ko‘rsan izlagan qarchig‘ayingni,
Qayta boshdan obod qilsang joyingni,
G‘am yema, begijon, yo‘g‘ing topilar.
Ko‘rib sizni ketdi ko‘nglim jo‘sib,

¹ Jul – ot yopig‘i.

Bir-biringdan necha vaqtlar adashib,
Endi kepsan bunda izlab yonashib,
Adashganning barin qo'ysam bir qo'shib,
G'am yemagin, izlaganing topilar.

Oftoboy ko'zasini to'ldirib, uyga qaytib Huroyimning qoshiga bordi. Oftob aytdi: «Bular – bir-biridan ko'ngli qolishib yurgan odam. Agar aytSAM, sira ham: «Bundan ergashtirib kel», – deb aytmaydi. Agar shu vaqtda Rustam ovdan kelib qolsa, men unday-bundayman deganiga qulq solmaydi, chopib tashlaydi. Nima bo'lsa, enasining qoshida ko'rsa, enasini hurmat qilib zarar yetkazmas», – deb bu gaplarni ko'ngliga olib, uyni supirib-sidirib to'shanchi¹ solaberdi.

«Bu nimaga sertaraddud bo'lib yuribdi», – deb Huroyim qarasa, Sultonxonni iyartib² kelyapti.

Huroyim ko'nglida aytdi: «Bu birga yurgan yor edi, biz-larga ko'p zulmni qildi, oxiri pushaymon bo'lib, bosh egib keldi. Rustamga tavba qildi. Oradan necha vaqtlar o'tdi. Oftoboyning bu yelib-yugurishiga qaraganda, Rustam otasini tog'dami, ovdamni ko'rib, tag'i qaytib kelsa, jo'natmay xizmat qilib turasan degan ekan-da; Rustamdan bexabar bunday ishni qilmasa kerak edi».

Sultonxon Huroyimga salom berib, bosh egib turdi. Oftoboy uni ichkariga kirgizdi, ko'rpaChaga o'tqizdi. Huroyim ham kirib o'tirdi. Ikkovi hol-ahvol so'rab, boshidan o'tgan kulfatni gapirib, bir-biridan o'pka qilib, Huroyim Sultonxonni uyaltirib, Oftobxon xizmatda bo'lib turib edi, Rustam ovdan kelib qoldi. Rustam Oftoboya qarayman deb ichkariga ko'zi tushdi.

Rustamning hushi boshidan uchib, xayoli qochib, qilichga qo'l uzatib, ... ichkari kiraberdi...

Qalandarni ko'rib g'ayrati keldi,
G'ilofdan sug'urib qilichni oldi.

¹ To'shanchi – ko'rpaChha.

² Iyartib – ergashtirib.

Yaqinladi qalandarning qoshiga,
Xanjar solmoq bo‘ldi uning boshiga.
Huroyim shu zamon o‘rnidan turdi:
– Bolam! – deb qaytardi Rustamday uldi,
– Tavba qilib o‘zi axtarib keldi,
Chopib tashlab, bolam, senga ne bo‘ldi?
Qanday bo‘lsa, qo‘zim, manmanlik qilma,
«Rustam otasini chopibdi» degan
Lanqa¹ gapni, qo‘zim, o‘zingga olma.
Xazon bo‘lib, bog‘da gullar so‘lgandi,
So‘lgan gulga bulbul kelib qo‘ngandi.
Buncha ham darqahr bo‘lma, Rustamjon,
Qurudumga ketgan otang kelgandi(r).
Qanday farzand otasiga tig‘ tortar?
Egilgan bo‘yinni kesmaydi xanjar,
Enasi Rustamga nasihat aytar.
Shu zamon Rustamning bo‘g‘ni bo‘shadi,
Enasining so‘zi bilan bek Rustam,
Qo‘lidan qilichni yerga tashladi.
Turib edi ong-tong bo‘lib Rustamxon,
Boshidan ketganday qorong‘i tuman,
Ingranib o‘rnidan turib shu zamon:
– Bolam, – deb bag‘riga bosdi Sultonxon,
Omon-eson endi o‘g‘lini ko‘rib,
Yuragidan ketdi qancha g‘am-armon.
Adashganlar bir-birimani topishdi,
Necha kun, necha tun orada o‘tdi,
Rustamga Sultonxon bu so‘zni aytди:
– Qulоq solgin xon otangning tiliga,
Qo‘zim, ketayik-da Oqtosh eliga,
Bundayin sen yolg‘iz joyda yurmagin,
Bu yolg‘iz makonda, qo‘zim, qolmagin.
Borib ko‘rgin Oqtosh mamlakatingni,
Bino bo‘lib, o‘ynab-kulgan yurtingni.

¹ Lanqa – ta’na.

Necha so‘z Sultonxon bunga aytadi,
Qayta-qayta ko‘p va’dalar beradi.
O‘z ishiga tavba qildi Sultonxon,
Oqtosh elga bormoq bo‘ldi Rustamxon.
Oqtosh ketmoq taraddudin qiladi,
Ot-ulovin bu abzallab minadi,
Yov-yaroq, darkorlisini olib,
Hammasi ham Oqtosh qarab jo‘nadi.
Chiqib ketdi bundayin Oqrabotdan,
Yo‘l boshlab boradi endi Rustamxon;
Bahra tog‘dan o‘tib yo‘l yurib ketdi,
Adadsiz cho‘llarni ko‘p bosib o‘tdi...
Oqtoshga yaqinlab, yetib boradi,
Borayotgan xabar Oqtoshga yetdi.
«O‘g‘li bilan keldi Sultonxon», – deydi,
Qancha amaldorlar peshvoz chiqibdi.
Qancha xaloyiqlar ko‘nglini xushlab,
Rustamni kirgizdi shaharga boshlab.
Shunday qilib keldi Oqtosh shahriga,
Kelib tushdi shohning o‘rdalariga.
Rustam bilan, ko‘ring endi, enasi
Ega bo‘ldi qolgan kirdikoriga.
Kanizlarman qolgan u Ximchaoyim
Zolimlar dastidan yig‘lagan doim,
Turib manzilida bular eshitdi:
«O‘g‘li bilan kelgan emish Huroyim».
Rustam Huroyimni ko‘rmoqqa keldi,
Qancha xaloyiqlar bunda yig‘ildi.
Bir-birining ahvolini so‘radi,
Bunda bo‘lgan ishni Rustam bilmadi.
Huroyim nazar sop shunday qaradi,
Hamma keldi, ikki kundosh kelmadi.
Sultonxon ikkovicin shunday o‘yladi:
Bulardan o‘zgani dushman bilmadi,
Amaldorlar bilan maslahat qilib,
Bir nechaga sir bilgin deb so‘yladi.
So‘ragandan bir qip anig‘in bildi,

G‘aznavonlar so‘ragancha gapirdi:

– To‘rt qop tilla ikki kundoshga bergan,
Ikki kundosh olib, mastonga bergan,
Mastonman birikib shu ishni qilgan.

Endi Sultonxon ikki xotinini chaqirtib oldi.

– Bularning qilgan ishi mamlakatni buzib, qancha sarsonlikni soldi, – deb ikki xotinni haydatib, mirg‘azablarga shunday buyurdi, deydi:

– Gunohkor ikkovi, qo‘lin boylanglar,
Turmasin, shahardan darrov haydanglar;
Kim yomonlik qilsa, jazosin ko‘rsin,
Hech tirik qolmasin, ikkovi o‘lsin.
Xaloyiqni yig‘ib endi Sultonxon,
Omon-eson Rustam elga keldi deb,
Yurtimga farzandim ega bo‘ldi deb,
Xaloyiqni xabar qilib yig‘dirdi,
Qancha so‘qim, qancha qo‘yni so‘ydirdi,
Necha yerdan endi o‘choq o‘ydirdi.
Vaqti xush bo‘p Oqtosh elda Sultonxon
O‘g‘li uchun el-u xalqqa to‘y berdi.
Rustam bolam yurtga ega bo‘lsin deb,
Podsholik navbatin Rustam olsin deb,
Elni endi Rustam so‘rab tursin deb,
El-u xalqqa shunday xabar bildirdi.
Podsholikni Rustam qabul qilmadi,
Zo‘rlagan gaplarga qulq solmadi.
– Ovda-dovda, ko‘p yuraman dalada,
Podsholik sultanat menga nima-da.
O‘z yurganim menga endi bo‘ladi,
Podsholiking menga ma’qul bo‘lmadi:
Otam tirik, so‘raybersin yurtini.
Cho‘l-u ko‘lni kezib o‘zim yuraman,
Yurishimni shohdin ziyod bilaman.
Otam zo‘rlamasin, ko‘nglim bilar-da,
Otam o‘lsa, bir yo‘rig‘i bo‘lar-da,

Podsholik ishlari bir og‘ir yuk-da,
Meni qo‘ysin, o‘zi so‘rab turar-da.
Besh qip unda, o‘n qip bunda yuraman,
Mening ko‘nglim: bahodirlilik qilaman,
Yomon topsam, jazosini beraman...

Sultonxon qancha gapirdi, Rustam: «Men podsho bo‘lmayman», – dedi. Sultanxonning o‘zi tag‘in o‘z yurtida podsholikda qoldi. Rustam o‘z yori Oftoboy bilan o‘ynab-kulib, bu ikkovi Huroyimning duosini olib, Rustambek: «Men botirman», – deb polvonlik, botirlikni mashq qilib yuraberdi. Shunday qilib, Huroyim ham, Rustamxon ham murod-maqsadiga yetdi.

«RUSTAMXON» DOSTONI HAQIDA

Hurmatli o‘quvchi! Quyi sinflarda ham siz «Ravshan», «Kuntug‘mish», «Alpomish» singari dostonlar bilan tanishgansiz. O‘ylaymizki, «Rustamxon» dostonidan olingan parchani o‘qigach sizda asarni to‘liq o‘qish ishtiyoqi paydo bo‘lsa, ajabmas.

Dostonning bosh qahramoni Rustam yoshligidan baqvuvvat, mard va jasur bo‘lib ulg‘aydi. Doston voqealari rivojida Rustamning qo‘rmas va dovyurakligini, chin insoniylik sifatlarini ko‘rish mumkin. Kundoshlari tuhmat bilan onasini yurtdan haydab, dorga osdirmoqchi bo‘lganida, Rustam sarosimaga tushmadi. Onasini jallodlar qo‘lidan qutqarib: «Adashganning oldi yo‘l», – deya yo‘lga tushadi va Hukumu tog‘ida qo‘nim topib, ovchilik bilan kun ko‘ra boshlaydi.

Rustam ov kunlarining birida o‘tovga bog‘lab qo‘yilgan xushsurat qizni ko‘rib qoladi va uning ajdarga yemish uchun turganligidan xabar topadi. Xabarni eshitgan Rustam ajdar bilan jangga otlanadi. Oftoboy yalinib-yolvorib Rustamni o‘z ahdidan qaytarishga urinadi, biroq dovyurak Rustam: «Mard so‘zidan, yo‘lbars izidan burilmaydi» degan gap bor, ajdahor domiga tortadi, meni yutadi deb vahm qilmayman, qayishmay ajdahorning yo‘lini aytgin», – deydi. Ajdar bilan mar-

donavor kurashib, uni yengadi va qizni o'limdan qutqaradi. Ajdar zulmidan xalos bo'lgan Bujul yurti Rustamni shohlikka ko'taradi va Oftoboyim bilan to'yini qilib uylantirib qo'yadi. Erkin va oddiy hayot yo'lini tanlagan Rustam uch kundan so'ng shohlikdan voz kechib, suyukli yorini olib, onasi oldiga qaytadi. Shu tariqa dostonda Rustam obrazi soddadil, mard va qo'rmas, jismonan baquvvat inson, mehribon farzand va sadoqatlari yor sifatida gavdalananadi.

Dostonda bir qancha ayol obrazlari ham gavdalantirilgan. Ayniqsa, Huroyim va Oftoboyim obrazlari alohida ajralib turadi. Ularga xos go'zallik, oqilalik, sadoqat va mehribonlik fazilatlari doston voqealari rivojida ishonarli tasvirlangan. Xususan, Oftoboy – tengsiz go'zal qiz. Uni birinchi ko'rgan Rustam unga shunday murojaat qiladi:

Maloyik suratli, gul yuzli dilbar,
Seni ko'rgan odam bo'lar beqaror.
Oy-u kundan ziyod sening husning bor
Ne qildi seni boylab giriftor?

Oftoboyda mana shu go'zallikka teng fahm-farosat, zukkobilik ham mavjud. Uning bu fazilatlari Sultonxon o'z qilmishlariga tavba qilib, o'g'li va xotinidan kechirim so'rash uchun darvesh qiyofasida kelgan paytda ham ko'rindi. Oftoboy dostonda oqila kelin, suyukli yor sifatida gavdalananadi.

Dostondagi asosiy qahramonlardan biri Huroyimdir. Huroyim Sultonxonga o'g'il farzand ato etadi, biroq evaziga qanchadan qancha jabr-u sitamlar ko'radi. Kundoshlari yurtidan quvganida ham, ajal ko'lanka solganida ham, o'zga yurtda qiyinchilikda yashasa ham, u o'zligidan kechmaydi. Undagi go'zal xulq, oqilalik barcha sitamlardan qutulishida yordam berdi. Rustam darvesh sifatida kelgan Sultonxonni qilich bilan chopmoqchi bo'lganida, Huroyimning o'ziga xos mulohazali ayol, oqila ona, kechirimli yor ekanligi ko'zga tashlanadi:

- Bolam! – deb qaytardi Rustamday uldi,
- Tavba qilib o'zi axtarib keldi,

Chopib tashlab, bolam, senga ne bo‘ldi?
Qanday bo‘lsa, qo‘zim, manmanlik qilma,
«Rustam otasini chopibdi» degan
Lanqa gapni, qo‘zim, o‘zingga olma.

Dostonda Sultonxon o‘ylamay qaror qabul qiladigan, o‘zgalarning gapiga ishonuvchan laqma, podsho bo‘lsa-da, zaif shaxs sifatida tasvirlanadi. Doston voqealari davomida Sultonxon juda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadi. Momogul maston fitnasiga aldanib, oilasidan, xotini va farzandidan ajraydi, ularsiz yashashga mahkum bo‘ladi. Doston so‘ngida Sultonxon o‘z xatolarini tushunib yetadi hamda xotini va o‘g‘lidan kechirim so‘raydi. Oиласини qaytadan tiklaydi, yo‘l qo‘yган xatolarini tuzatishga kirishadi. Yomonlarni jazolaydi.

Dostondagi boshqa bir qator obrazlar ham voqealarning ishonarli chiqishida xizmat qiladi.

DOSTON VA UNING TURLARI

Doston – xalq og‘zaki ijodining eng yirik janri bo‘lib, u qahramonlik, ishqiy-sarguzasht, fantastik mazmunga ega bo‘lgan voqealarni bayon qiluvchi asar.

Qahramonlarning sarguzashtlari, o‘zaro munosabatlari va kechinmalarini keng ko‘lamda tasvirlovchi yirik hajmli liro-epik asar doston deyiladi.

Doston davr, tuzumdagi xalq ruhiyatini, xususiyatlarini aks ettiradi. Zamonalr o‘tishi bilan ular yangi-yangi mavzular va g‘oyaviy mazmun bilan boyib boradi. Dostonlar xalq tomonidan yaratilgach, ijodkor xalq ular orqali o‘z maqsadlari, orzu-istiklari, his-tuyg‘ularini ifodalaydi.

Odatda, dostonlarning birinchi ijodkori unutilib, ular nasldan naslga, avloddan avlodga o‘tishi natijasida xalq mulkiga aylanadi.

Dostonlar mavzu jihatidan rang-barang, mazmunan xilmashil bo‘lganligi bois ularning quyidagi turlari mavjud: qahramonlik dostonlari, romantik – ishqiy-sarguzasht dostonlar, tarixiy dostonlar.

Dostonlardagi asosiy qahramonlar qiyofasida insonparvarlik, vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, do'stlik, vafodorlik, sa-doqat kabi olijanob fazilatlar umumlashtiriladi.

Xalq og'zaki ijodidagi «Alpomish» qahramonlik dostoni bo'lsa, «Go'ro'g'li», «Ravshan», «Rustamxon», «Oshiq G'arib va Shohsanam» kabilar ishqiy-sarguzasht dostonlaridir.

«Rustamxon»da o'z davrining ijtimoiy-siyosiy munosabatlari, ishq-muhabbat sarguzashtlari, turli fantastik uydirmalar, ertaklarga xos voqealarning yuksak badiiyati bilan yo'g'rilgan tasvirlar kishini hayajonga soladi. Asar matnida xalqimizning qadimiy, boy tiliga xos fazilatlar, xalqona ibora va ifodalar, shu tilning imkoniyati, nafosati, kuchi va qudrati ham yorqin namoyon bo'lgan.

Shu til vositasida asar qahramonlarining har biriga xos fazilatlar, o'rni bilan esa, ayrim qusurlar ham yorqin bo'-yoqlarda ko'rsatib berilgan.

Aziz o'quvchi! Xalq dostonlarini baxshilar ijrosida eshitganmisiz? Agar baxshilarning dostonni ichki ovoz bilan kuylashini, ming-ming misrani yoddan, ohangga solib ijro qilishini eshitsangiz, sizni, albatta, hayajonga soladi, tuyg'ularingizni junbushga keltiradi, to'lqinlantiradi. Ayniqsa, bu siz bilgan, siz o'qigan dostonlarning ijrosi bo'lsa, uning ta'sir kuchi yanada ortiq bo'ladi. Shunda xalq o'z dostonlarini necha ming-ming yillardan beri nega saqlab, asrab-avaylab kelayotganining sabablarini anglaysiz.

Savol va topshiriqlar

1. Dostondan berilgan parchani ifodali o'qing, mazmunini o'zlashtiring.
2. Matnda Sultonxonning obro'si qanday ko'rsatilganini topping. Ularni izohlang.
3. Sultonxon nima uchun safarga otlandi, safar chog'ida uning qanday fazilatlari namoyon bo'ldi. Fikrlaringizni matnga tayangan holda asoslang.

4. Huroyimning kundoshlari qilmishlariga qanday baho berasiz? Ularning o‘ziga xos sifatlarini misollar assosida izohlang.
5. Dostondagi Momogul maston kim va unga xos bo‘lgan sifatlarni tavsiflang?
6. Huroyim bilan Oftoboyga xos sifatlarni ko‘rsatuvchi o‘rinlar ni matndan topib o‘qing va ularni sharhlang.
7. Rustamning mard va jasurligini namoyon qiluvchi misralarni matndan toping va ularga munosabat bildiring.
8. Rustam nima uchun podsholikni rad etdi?
9. Sultonxonni hukmdor, turmush o‘rtoq va ota sifatidagi xarakterlarini matnga tayangan holda tushuntiring.
10. Matndan misollar keltirgan holda Huroyimga ona sifatida tavsif bering.
11. Matndan Rustam bilan Huroyimning Oqtoshga qaytgan o‘rinlarini toping va uni izohlang.
12. Ximcha va Momogul maston portretlari tasvirlarini qayta o‘qing. Ularni qiyoslang.
13. Kundoshlar xarakteri ularning nutqi orqali ham yoritilgan. Shunday o‘rinlarni toping va izohlang.
14. Dostonda hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi shaklidan biror farqli tarzda qo‘llanadigan so‘zlarni ko‘rsating. Ularni daftari ngizga ko‘chiring. Bunday so‘zlarning qo‘llanish sabablarini izohlashga urinib ko‘ring.
15. Xalqimizda «Ko‘r ko‘rni qorong‘ida topadi» degan maqolga mos keladigan obrazlar mavjud. Ularni toping va izohlang.
16. Dostonda bir qator xalq maqollari ham qo‘llangan. Ularni toping va matnda qanday vazifa bajarayotganini tushuntirib bering.
17. «Dostondan olgan taassurotlarim» mavzusida insho yozing.



O'RXUN-ENASOY OBIDALARI

Mazkur obidalarning topilishi O'r-xun hamda Enasoy daryolarining havzalari bilan bog'liq. Garchi bunday qadimiy obidalar keyinchalik Sibir va Mo'g'ulistonning boshqa joylaridan, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Kav-kaz, Volgabo'y, hatto Sharqiy Yevropadan ham topilgan bo'lsa-da, tarixda bu nom muqim o'rnashib qoldi.

O'rxun-Enasoy yodgorliklari dastlab, O'rxun, Selenga va To'li daryolari atrofidan Shimoliy Mo'g'ulistonдан toshga bitilgan obidalar shaklida topildi.

O'rxun-Enasoy obidalari «toshbitiklari» deb ham yuritiladi. Buning sababi ko'pgina yodgorliklarning qabr toshlariga o'yib yozilganidir. Ularning eng yiriklari «To'nyuquq» hamda «Kul Tegin» yodgorliklaridir.

Qadimgi turkiy obidalarning asl manbalari topilgan va saqlanayotgan joylar: O'rxun va Enasoy daryolari atroflari, Turfon (Sharqiy Turkiston), shuningdek, Mo'g'uliston, Germaniya (Berlin, Marburg, Mayns), Rossiya (Sankt-Peterburg, Qizil, Minusinsk), Xitoy (Turfon, Urumchi, Miran Suchjoy, Pekin), Buyuk Britaniya (London), Fransiya (Parij), Shvetsiya (Stokholm), O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqalar.

«To'nyuquq» bitiktoshi 2 ta ustunga yozilgan. Ularning biri 170, ikkinchisi 160 sm dan iborat. Bu yodgorlikni Yelizaveta Klemens 1897-yili Shimoliy Mo'g'ulistonda turmush o'rtog'i Dmitriy Klemens bilan birgalikda izlab topgan. Bitiktosh Ulan-Batordan 66 km janubi-sharqdagi Bain Sokto manzilida bo'lgan va hozir ham shu yerda saqlanadi.



Kul Tigin bitiktoshi
(Mo'g'uliston)

TO‘NYUQUQ BITIKTOSHI¹

- [1]² Bilga To‘nyuquq³ – ban. O‘zum Tabg‘ach alinga qilintim.
Turk bo‘dun Tabg‘achqa ko‘rur arti.
[(Men) Bilga To‘nyuquqman. O‘zim Tabg‘ach elida voyaga yetdim. (O‘scha kezlar) turk xalqi Tabg‘achga qaram edi.]⁴
- [2] Turk bo‘dun qanin bulmayin Tabg‘achda adrilti, qanlanti.
Qanin qo‘dub, Tabg‘achqa yana ichikdi. Tangri⁵ ancha tamis arinch: Qan bartim,
[Turk xalqi xonini topolmay (ko‘p sarson bo‘ldi. Avvaliga) Tabg‘achdan ayrildi, o‘z xoniga ega bo‘ldi (keyin yana) xonini qo‘yib, Tabg‘achga qayta qo‘sildi. Tangri shunday degan, shekilli: Xon berdim,]
- [3] qanining qo‘dub ichikding, ichikduk uchun tangri «o‘l» tamis arinch, turk bo‘dun o‘lti, alqinti, yoq bo‘lti. Turk sir bo‘dun yarinta
[«Xoningni qo‘yib taslim bo‘lding». Taslim bo‘lgani uchun tangri o‘l, degan [ya’ni qarg‘agan] shekilli, turk xalqi o‘ldi, tugadi, yo‘q bo‘ldi, turk sir xalqi yerida]
- [4] bo‘d qalmadi, ida tashda qalmisi qo‘branib, yati yuz bo‘lti: aki ulugi atlig‘ arti, bir ulugi yadag‘ ardi. Yati yuz kishig
[birorta ham urug‘ qolmadi, to‘qayda, tog‘-u toshda qolgan to‘planib, yetti yuz kishi bo‘ldi, uning ikki qismi otliq, bir qismi yayov edi. Yetti yuz kishini]
- [5] uduzug‘ma ulug‘i shad arti. Yig‘il tadi, yig‘masi ban artim – Bilga To‘nyuquq. Qag‘an-mu qisayin tadim, saqintim, turuq buqali samiz buqali arqda
[uyushtiradigan ulug‘i shad edi. «Yig‘il», dedi. Yig‘uvchi si men edim – Bilga To‘nyuquq. Xoqonni ham qistayin,

¹ Matn M. Is‘hoqov, Q. Sodiqov va Q. Omonovning «Mangu bitiglar» (Toshkent, 2009) nomli kitobidan olindi.

² To‘g‘ri burchakli qavs ichidagi raqamlar yodgorlikdagi satr qatorini bildiradi.

³ To‘n y u q u q – shaxs nomi.

⁴ To‘g‘ri burchakli qavs ichida asl matnning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi tabdillari berildi.

⁵ Tangri – tosh bitiklardagi «ko‘k tangri», ya’ni osmon tangrisini anglatadi.

dedim, so‘ng o‘ylab qoldim: (birov) oriq buqa bilan semiz buqani tezagidan]

- [6] bilsar, samiz buqa, turuq buqa tayin bilmaz armis, tayin ancha saqintim. Anta kisra tangri bilig bartuk uchun o‘zum-o‘k qag‘an qisdim. Bilga To‘nyuquq bo‘yla Bag‘a tarqan [bilsa, (birov bu) semiz buqa, (bu) oriq buqa deb bilmas (ya’ni ajrata olmas) emish, deb o‘yladim. O‘shandan so‘ng, tangri bilim bergani uchun, faqat o‘zim xoqonni qistadim. Bilga To‘nyuquq bo‘yla Bag‘a tarxan]
- [7] birla Altaris¹ qag‘an bulayin, bariya tabg‘achig‘, o‘ngra Qitangig‘, yiraya O‘g‘uzug‘ o‘kushak o‘lurti. Bilgasi, chabisi ban-o‘k artim. Chug‘ay quzin Qara qumug‘ o‘lurur artimiz.
[bilan Eltarish xoqon topishib [birlashib], janubda Tabg‘achni, Sharqda Qitanni, shimolda o‘guzni ko‘plab o‘ldirdi. Bilimdoni, chabusi² mening o‘zim edim. Chug‘ay quzini, Qoraqumni manzil qilib turar edik.]
- [8] Kayik yayu, tabisg‘an yayu o‘lurur artimiz. Bo‘dun bo‘g‘zi to‘q arti. Yag‘imiz tagra uchuq tagirti, biz shag artimiz. Ancha o‘lurur ark ali. O‘g‘uzda antan ko‘rug kalti.
[Kiyik yeb, tovushqon yeb kun kechirar edik. Xalqning qorni to‘q edi. Dushmanimiz atrofga qanotini yoydi, biz shay edik. Shunday yashar erk eli. O‘g‘uzdan (sir bilish uchun jo‘natilgan) kuzatuvchi (qaytib) keldi.]
- [9] Ko‘rug sabi antag‘: To‘quz o‘g‘uz bo‘dun uza qag‘an o‘lurti, tir, Tabg‘achg‘aru Qo‘ni Sangunug³ idmis, Qitangg‘aru To‘ngra Samig⁴ idmis, sab ancha idmis: Azqingga turk bo‘dun
[Kuzatuvchining xabari shunday: «To‘qquz o‘g‘uz xalqi ustidan bir xoqon taxtga o‘tirdi, – der. Tabg‘achga Qo‘ni Sangunni yuboribdi, Qitanga To‘ngra Semni yuboribdi. (Ulardan) shunday xabar aytib yuboribdi: «Ozgina turk xalqi】


¹ Altaris (Eltarish) – qadimgi turk xoqonining nomi.

² Chabusi – obro’si, mashhuri.

³ Qo‘ni Sangun – shaxs nomi.

⁴ To‘ngra Sam – shaxs nomi.

- [10] yo‘riyur armis, qag‘ani alp armis, ayg‘uchisi bilga armis.
 O‘l aki kishi bar arsar, sani Tabg‘achig‘ o‘lurtachi tirman,
 o‘ngra qitangig‘ o‘lurtachi tirman bani o‘g‘uzug‘
 [yurgan emish, xoqoni alp ekan, kengashchisi dono ekan.
 O‘sha ikki kishi bor bo‘lsa, seni – Tabg‘achni o‘ldirajak,
 derman, shimolda qitanni o‘ldirajak, derman, meni –
 o‘g‘uzni]
- [11] o‘lurtachi-o‘k tirman. Tabg‘ach, birdanayin tag, Qitany,
 o‘ndanayin tag. Ban yirdanayin tagayin. Turk sir bo‘dun
 yo‘rinta idi yarimazun, usar, idi yo‘q qisalim,
 [ham o‘ldiradi, deyman. Tabg‘ach, sen o‘ngdan hujum
 qil! Qitan, sen oldindan hujum qil! Men chapdan hujum
 qilay. Turk sir xalqi yerida ega yurmasin. Uddalansa,
 egasini yo‘q qilaylik,]
- [12] tirman. Ul sabig‘ asidib tun udisiqim kalmadi, kuntuz
 o‘lursiqim kalmadi. Anta o‘tru qag‘anima o‘tuntum.
 Ancha o‘tuntim: Tabg‘ach, O‘g‘uz, Qitany, bu uchagu
 qabasar,
 [derman. O‘sha xabarni eshitib, tun uyqum kelmadi, kun-
 duz o‘tirgim kelmadi. Shundan keyin xoqonimga o‘tin-
 dim. Shunday o‘tindim: «Tabg‘ach, O‘g‘uz, Qitan – bu
 uchchovi qamal qilsa,】
- [13] qaltachi biz, o‘z ichi-tashin tutmistag biz. Yuyqa arklig
 to‘pulg‘ali uchuz armis, yinchga arklig uzgali uchuz, yuy-
 qa qalin bo‘lsar, to‘pulg‘uluq alp armis, yinchga
 [(qurshovda) qolajakmiz, (xuddi) vujudining ich-u tashi-
 ni tutgandek bo‘lamiz. Yupqa narsa yengishga arzimas
 emish, ingichka narsa uzishga arzimas, ingichka]
- [14] yo‘g‘an bo‘lsar, uzguluk alp armis. O‘ngra Qitandyda, biri-
 ya Tabg‘achda, quriya Qurdanta, yiraya O‘g‘uzda aki-uch
 bing sumuz, kaltachimiz barmu na? Ancha o‘tuntim.
 [yo‘g‘on tortsa, uzadigan alp emish. Sharqda Qitan-
 dan, janubda Tabg‘achdan, g‘arbda Qurdandan, shimolda
 O‘g‘uzdan ikki-uch ming urush qilib keladigan qo‘sini-
 miz bormidi, nima?» – shunday o‘tindim.]



To‘nyuquq bitiktoshi (Mo‘g‘uliston)

- [15] Qag‘anim ban o‘zum bilga To‘nyuquq o‘tuntuk o‘tun-chumin asidu barti, ko‘nglungcha uduz – tadi. Ko‘k o‘ngug yo‘g‘aru O‘tukan yishg‘aru uduztum. Inigak ko‘lukum To‘g‘lada O‘g‘uz kalti.
 [Xoqonim men o‘zim Bilga To‘nyuquqning o‘tin mish o‘tinchimini eshitib turdi, (keyin): «Ko‘nglingga qarab ish tut», – dedi.]
- Ko‘k o‘ngni yuqorilab (lashkarni) O‘tukan yishga sol-dim. Inigak ko‘lini kechib To‘g‘ladan o‘g‘uz keldi.]
- [16] Susi uch bing armis, biz aki bing artimiz, sungushdimiz, tangri yarliqadi, yanydimiz, o‘kuzka tushdi. Yangduq yo‘lta yama o‘lti kuk, anta o‘tru o‘g‘uz qo‘pan kalti.
 [Qo‘ishini uch ming ekan, biz ikki ming edik, urush-dik. Tangri yorliqadi, qochirdik, daryoga tushdi. Qochgan yo‘lida yana o‘ldi, chog‘i. Shundan so‘ng o‘g‘uz butunlay (taslim bo‘lib) keldi.]
- [17] Kalurtum-o‘k Turk bo‘dunug‘ O‘tukan yerka: ban o‘zum bilga to‘nyuquq O‘tukan yarig qo‘nmis tayin asidib biri-yaki bo‘dun, Quriyaqi, yirayaqi, o‘ngraki bo‘dun kalti.
 [Men o‘zim Bilga To‘nyuquq turk xalqini ham O‘tu-kan yerga keltirdim. O‘tukan yerga qo‘nibdi, deb eshitib, janubdagagi xalq, g‘arbdagi, shimoldagi, sharqdagagi xalq kel-di.]
- [18] Aki bing artimiz biz aki su bo‘lti. Turk bo‘dun o‘lurg‘ali, Turk qag‘an o‘lurg‘ali, Shantung baliq(q)a, taluy o‘guzka tagmis yo‘q armis. Qag‘anima o‘tunup, su altdim.
 [Biz ikki ming edik, ikki (to‘da) qo‘shin bo‘ldi. Turk xalqi el bo‘libdiki, Turk xoqoni taxtga kelibdiki, Shan-tung shahriga, dengiz-u daryolarga (katta suvlarga) yet-magan edi. Xoqonimga o‘tinib, lashkar tortdim.]
- [19] Shantung baliqqa, taluy o‘guza tagurtum, uch o‘tuz baliq sidi, usin buntatu yo‘rtda yatu qalur arti. Tabg‘ach qag‘an yag‘imiz arti. O‘n o‘q qag‘ani yag‘imiz arti.
 [Shantung shahriga, dengiz-u daryolar (katta suvlar)gacha yetkazib bordim. Yigirma uch shahar mag‘lub bo‘ldi. Uy-qusini buzib, yurtida yengilib qolar edi. Tabg‘ach xoqon yovimiz edi.]

- [20] Artuq Qirqiz kuchlug‘ qag‘an yag‘imiz bo‘lti. O‘l uch qag‘an o‘glashib Altun yish¹ uza qabasalim, timis, ancha o‘glashmis, O‘ngra Turk qag‘ang‘aru sulalim, temis, ancha o‘glashmis, O‘ngra Turk qag‘ang‘aru sulalim, temis, an-garu sulamasar, qachan angirsar o‘l bizni.
- [Buning ustiga, qirg‘izning qudratli xoqoni ham yovimiz bo‘ldi. O‘sha uch xoqon maslahatlashib, «Altun yish ustiga bostirib boraylik, – debti, shunday maslahat qilishibdi. – Sharqqa, Turk xoqoniga qo‘sishin tortaylik, – dedi. Unga qo‘sishin lashkar tortilmasa, g‘azablangan chog‘da, u bizni yengadi,]
- [21] Qag‘ani alp armis, ayg‘uchisi bilga armis, qachan angirsar, o‘lurtachi kuk. Uchagun qabsap sulalim, ani yo‘q qisalim, tamis. Turgas qag‘an ancha tamis. Baning bo‘dunum anta arir, tamis.
- [xoqoni alp ekan, kengashchisi dono ekan, g‘azablangudek bo‘lsa, o‘ldiradigan ko‘rinadi. Uchovlon yopirilib, qo‘sishin tortaylik, uni yo‘q qilaylik», debdi. Turgash xoqoni shunday debdi: «Mening xalqim u yerda, – debdi.]
- [22] Turk bo‘dun yama bulg‘anch o‘l, tamis. O‘g‘uzi yama tarqanch o‘l, tamis. O‘l sabin asidip, tun yama udusiqim kalmaz arti, o‘lursiqim kalmaz arti, ancha saqintim a... [Turk xalqi ham sarosimadadir, – debdi. – O‘g‘uzi ham tarqoqdir», – debdi.
- O‘sha xabarini eshitib, tunlari uyqum kelmas edi, kunduzlari o‘tirgim kelmas edi. Shunday o‘yladim: «A...]
- [23] ... a sulalim tadim. Ko‘gman² yo‘li bir armis, tumis tayin, asidip, bu yo‘lun yo‘risar yaramachi tadim... Yarchi tiladim, cho‘lgi Az ari, bultum.
- [... a qo‘sishin tortaylik..., – dedim.
- Ko‘gman yo‘li bitta ekan, bekilgan [qor bosgan], deb eshitib: Bu yo‘ldan yursak yaramaydi», – dedim. Yerchi (bu yerlarni biladigan kishi) surishtirdim. Cho‘llik az kishini topdim.]

¹ Altun yish – turkiylarning muqaddas poytaxti nomi.

² Ko‘gman – joy nomi.

- [24] O‘zum Az yirim, ani bil ... armis, bir turuqi armis. Anin barmis angar yatip, bir atlig‘ barmis tayin o‘l yo‘lin yo‘risar, unch tadim, saqintim, qag‘anima
 [«O‘zim az, yerim...», uni bil... ekan, bir turarjoyi bor ekan. «Ani (daryosi) bilan borgan, o‘sha yerda tunab, bir otlig‘ (yo‘l) bosadi», – deganda: «O‘sha yo‘l bilan yurilsa, ma’qul», – dedim, shunday xayol qildim. Xoqonimga]
- [25] o‘tuntum, su yo‘ritdim, atlat, tadim. Aq tarmal¹ kacha, o‘g‘raqlatdim, at uza bintura, qarig‘ so‘kdum, yo‘qaru at yata, yadag‘in, ig‘ach tutunu ag‘turtum o‘ngraki ar
 [«o‘tindim, cherikni ishga soldim, ot sol!» – dedim. Oq tarmal (hozirgi Xua Kem) daryosini kechib ildam yo‘lladim, otga mindirib qorni kechdim. Yuqoriga otni yetaklab, yayov, yog‘ochga tayanib tepalikka chiqardim. Oldindagi er (yigit)lar]
- [26] yo‘g‘aru tagurup, i bar art ashdimiz. Yo‘balu intimiz o‘n tunka yantaqi tug‘ biru bardimiz. Yarchi yar yangilip, bo‘g‘uzlanti, bungadip qag‘an yalu ko‘r, tamis.
 [yuqori ko‘tarilib butalar bor dovondan oshdik. Qiynalib indik. O‘n kecha deganda yondagi to‘sinqi aylanib o‘tdik. Yershi yo‘lda yanglishib, bo‘g‘izlandi. Xafa bo‘lib xoqon: «Yelib ko‘r, – dedi. –】
- [27] Ani subug‘ baralim. O‘l sub qo‘di bardimiz, sanag‘ali tushurtimiz, atig‘ iqa bayur artimiz... kun yama, tun yama yalu bardimiz. Qirqizig‘ uqa basdimiz.
 [Ani suvidan boraylik].
 O‘sha suvning quyi tomoniga bordik, (qo‘shinni) sanagani tushirdik, ot(lar)ni butalarga boylar edik. Kun-u tun yelib bordik. Qirg‘izni (uyquda) qo‘qqisdan bosdik.]
- [28] Su angagin achdimiz. Qani susi tarilmish, sungushdimiz, sanchdimiz, qanin o‘lurtumiz. Qag‘anqa qirg‘iz bo‘duni ichikdi, yukunti, yantimiz. Ko‘gman yishig‘ abiru kaltimiz.
 [Lashkar engag (jag‘)ini ochdik (hayyo-hayt soldik). Xoni, lashkari yig‘ildi, jang qildik, sanchdik, xonini o‘ldirdik.

¹ Aq tarmal – joy nomi.

Xoqonga qirg‘iz xalqi taslim bo‘ldi, ta’zim qildi. Qaytdik.
Ko‘gman yishni aylanib keldik.]

- [29] Qirqizda yantimiz. Turgas qag‘anta ko‘rug‘ kalti, sabi antag: O‘ngdan qag‘ang‘aru su yo‘rilim, tamis, yo‘rimasar, bizni, qag‘ani alp armish, ayguchisi bilga armish, qachan angirsar,

[Qirg‘izdan qaytdik. Turgash xoqondan (sir bilish uchun jo‘natilgan) kuzatuvchi (qaytib) keldi. Keltirgan xabari shunday: «Sharqdan xoqonga qo‘sishin yo‘llaylik, – debdi. – Yo‘llanmasa, u bizni (yengadi). Xoqoni alp ekan, kengashchisi dono ekan, g‘azablangudek bo‘lsa,]

- [30] bizni o‘lurtachi kuk, tamis. Turgis qag‘ani tashiqmish, tadi. O‘n o‘q bo‘duni qalisiz tashiqmish, tar. Tabg‘ach susi bar armish. O‘l sabig‘ asidip, qag‘anim: Ban abgaru tushayin, tadi.

[bizni o‘ldiradigan ko‘rinadi, – debdi. – Turgash xoqoni maydonga chiqibdi, – debdi. O‘n o‘q xalqning hammasi bekam-u ko‘st chiqibdi, – debdi. Tabg‘ach lashkari (ham) bor ekan». O‘sha gapni eshitib, xoqonim men uyga tu-shayin, – dedi.]

- [31] Qatun yo‘q bo‘lmis arti, ani yo‘g‘latayin, tadi. Su baring, tadi. Altun yishda o‘lurung, tadi. Su bashi Inal qag‘an, Tardush shad barzun, tadi. Bilga To‘nyuquqa – banga aydi:

[Xotun vafot etgan edi. Uning marosimini o‘tkazayin, – dedi. Qo‘sishin bilan boring, – dedi. Altun yishda o‘rnashing, – dedi. Lashkarboshi Inal xoqon, Tardush shadi borsin, – dedi. Bilga To‘nyuquqa – menga aytdi:]

- [32] Bu sug alt, tadi, aqi yanig‘ ko‘nglungcha ay, ban sanga na ayayin, tadi. Kalir arsar ku ar o‘kulur, kalmaz arsar, tilig‘, sabig‘ ali o‘lur, tadi. Altun yishda o‘lurtimiz.

[«Bu qo‘sinni elt, – dedi. Karam-u g‘azabni ko‘ngling-dagiday qil, men senga nima ham deyin, – dedi. (Yov) keladigan bo‘lsa, nomdor er (yigit)larni yig‘ (va dushmanni o‘ldir), kelmaydigan bo‘lsa, til tutib ma’lumot olib tur, – dedi. Altun yishda o‘rnashdik.】

- [33] Uch ko‘rug kishi kalti, sabi bir: qag‘ani su tashiqdi, O‘n o‘q susi qalisiz tashiqdi, tar. Yaris yazida tarilalim, tamis, o‘l sabig‘ asidib, qag‘ang‘aru o‘l sabig‘ ittim: Qantayin sabig‘ yana
 [Uch kuzatuvchi kishi keldi, so‘zi bir: «Xoqoni qo‘shin bilan maydonga chiqdi, o‘n o‘q qo‘shini bekam-u ko‘st maydonga chiqdi, – der. Yaris dashtida yig‘ilamiz», – debdi. O‘sha xabarni eshitib, xoqonga o‘sha xabarni aytib yubordim, «nima o‘ylay?» degan xabarni yetkazib, (javobini olib) qaytib]
- [34] kalti: o‘lurung, tayin tamis. Yalma, qarg‘u adguti urg‘il, basitma, tamis. Bo‘gu qag‘an¹ bangaru ancha ayidmis, apa tarqang‘aru ichra sab idmish: Bilga To‘nyuquq angig‘-o‘l, o‘z-o‘l anglar.
 [keldi: «Tek turing! – degan emish. – Borma, pistirmani yaxshilab mustahkamla, (yovga) bostirib qo‘yma!», – debdi. Bo‘gu xoqon menga shunday aytib yuboribdi, apatarxon (bosh lashkarboshi)ga maxfiy xabar yuboribdi: «Bilga To‘nyuquq hushyor, u o‘zi biladi.]
- [35] Su yo‘rilm tadachi, unamang. O‘l sabig‘ asidip, su yo‘ritdim. Altun yishig‘ yo‘lsuzun ashdim. Artish o‘guzug kachigsizin kachdimiz, tun aqitdimiz. Bo‘luchuqa tang o‘ngturu tagdimiz.
 [Lashkar bilan yo‘lga chiqmoqchi bo‘lsa, unamang». O‘sha xabarni eshitib, qo‘shinni yo‘lga soldim. Altin yishni yo‘lsiz oshdim, Ertish daryosini kechiksiz kechdik, tunda to‘xtamadik. Bo‘luchuga tong otganda yetib bordik.]
- [36] Tilig‘ kalurti, sabi antag‘: Yaris yazida o‘n tuman su tarilti, tar. O‘l sabig‘ asidip, baglar qo‘pun
 [(Kuzatuvchilarimiz tutib keltirgan) «til» xabari shunday: «Yaris dashtida o‘n tuman (yuz ming) lashkar yig‘ildi», – der. O‘sha xabarni eshitib, beklar yoppasiga:]
- [37] yanalim, arig‘ o‘buti yig, tadi. Ban ancha tarman, ban bilga To‘nyuquq: Altun yishig‘ asha kaltimiz, Artish o‘guzug

¹ Bo‘gu qag‘an – qadimgi turk xoqonlaridan birining nomi.

- [«Qaytaylik, halol (kishining) uyati (or-nomusini saqlagani) yaxshi», – dedi. Men shunday derman, men bilga To‘nyuquq: Altun yishni oshib keldik, Ertish daryosini]
- [38] kacha kaltimiz, kalmishi alp tadi, tuymadi. Tangri Umay¹ iduq yarsub basa barti arinch, naka tazarbiz, [kechib keldik. Kelgani alp, deganlar. (Yov bizni) sezma(y qol)di. Tangri Umay, muqaddas yer-suv bosib bergen, shekilli, nega chekinamiz,]
- [39] o‘kish tayin, naga qo‘rqurbiz, az tayin, na basinalim, tagalim, tadir. Tagdimiz, yayidimiz, akinti kun kalti, [(yovni) ko‘p deb, nega qo‘rqamiz, (o‘zimizni) oz deb. Qani, bosaylik, hujum qilaylik», – dedim. Hujum qildik, tor-mor qildik. Ikkinchi kun keldi,]
- [40] o‘rtcha qizip kalti, sungushdimiz. Bizinta aki uchi singarcha artuq arti. Tangri yarliqaduq uchun, o‘kush tayin, biz [yong‘inday qizib keldi, urushdik. Biznikidan ikki qanoti yarmicha ortiq edi. Tangri yorlaqagani uchun, ko‘p deya, biz]
- [41] qo‘rqmadimiz, sungushdumuz. Tardush shad ara badi. Yaydimiz, qag‘anin tutdimiz, yabg‘usin, shadin [qo‘rqmadik, urushdik. Tardush shadi aralashdi. Tor-mor qildik, xoqonini tutdik, yabg‘usi, shadi]
- [42] anta o‘lurti, aligcha ar tutdumiz, o‘l-o‘q tun bo‘dunin sayu ittimiz. O‘l sabig‘ asidip, O‘n o‘q baglari bo‘duni qo‘p [o‘sha yerda o‘ldirildi. Elliktacha yigitni tutdik, o‘sha kechasiyoq ularni xoqoni tomon jo‘natib yubordik. O‘sha xabarni eshitib, o‘n o‘q beklari, xalqi, yoppasiga]
- [43] kalti, yukunti. Kaligma baglarin bo‘dunin itip, yig‘ip azcha bo‘dun tazmis arti. O‘n o‘q susin suladim, [keldi, bosh egdi. Kelgan beklarini, xalqini tartibga solib, yig‘ib, ozgina xalq qochgan edi, o‘n o‘q lashkarini jangga yubordim.]

¹ Umay – qadimgi turklarda onalik, hosildorlik ma’budining nomi.

- [44] Biz yama suladimiz, ani irtimiz. Yinchu o‘guzug kacha, Tinsi o‘g‘li yatig‘ma Bangligak¹ tag‘ig‘...
 [Biz ham lashkar tortdik, uni quvdik. Yinju o‘g‘uzni kechib Tinsi o‘g‘li yotadigan Bangligak tog‘ini (oshib o‘tib)...]
- [45] Tamir qapig‘qa tagi irtimiz, anta yanturtimiz. Inal qag‘anqa... tazik, to‘qrisin...
 [Temir qopiq (darvoza)gacha quvib bordik. O‘sha yerdan qaytardik.
 Inal xoqonga arab, to‘xri (arablarining ittifoqdoshi) (hujum qildi).]
- [46] anta yarukiasuq bashlig‘ So‘g‘daq bo‘dun qo‘p kalti, o‘l kunta tagti. Turk bo‘dun Tamir qapig‘qa...
 [O‘shanda boshiga yoriq dubulg‘a kiygan So‘g‘daq xalqi yoppasiga keldi, o‘sha kuni urush qildi. Turk xalqi Temir qopiqqa,]
- [47] Tinsi o‘g‘li yatig‘ma tag‘qa tagmish, idi yo‘q armis. O‘l yarka ban – bilga To‘nyuquq, tagurtuk uchun
 [Tinsi o‘g‘li yotadigan toqqa yetdi, egasi yo‘q ekan.
 O‘sha yerga men bilga To‘nyuquq yetkazib borganim uchun]
- [48] sarig‘ altun, urung kumush, qiz quduz, agri tabi, ag‘i bungsiz kalurti. Altaris qag‘an bilgasin uchun,
 [sariq oltin, oq kumush, qiz-juvon, egri tuya, ipaklik hadsiz keltirdi.
 Eltarish xoqon dono maslahatchisi bilan bo‘lgani uchun,]
- [49] alpin uchun Tabg‘achqa yati yigirmi sungushdi, Qitanyaqa yati sungushdi. O‘g‘uzqa bash sungushdi. Anta ayg‘uchi [alpi bilan bo‘lgani uchun Tabg‘achga o‘n yetti marta jang qildi, Qitanga yetti marta jang qildi, O‘g‘uzga besh marta jang qildi. O‘shanda kengashchi]
- [50] yama ban-o‘k artim, yag‘ichisi yama ban artim. Altaris qag‘anqa... Turk Bo‘gu qag‘anqa, Turk Bilga qag‘anqa...
 [ham mening o‘zum edim, urushuvchisi ham men edim.
 Eltarish xoqonga..., Turk Bo‘gu xoqonga, turk Bilga xoqonga (xizmat qildim).]

¹ Bangligak – tog‘ nomi.

- [51] Qapag‘an¹ qag‘an... tun udumati,
 [Qapag‘an xoqon ... tun uxlamadi,]
- [52] kuntuz o‘lurmati, qizil qanim tukati, qara tarim yogurtti,
 isig, kuchug bartim-o‘k, ban o‘zum uzun yalmag yama
 ittim-o‘q.
 [kunduz o‘turmadi, qizil qonimni tugatib, qora terim
 yogurtib, mehnatimni, kuchimni berdim-ku, axir. Men
 o‘zim uzoqlarga bosqinni ham uyshtirdim-ku, axir.]
- [53] ar qo‘y, aq arg‘ug‘ ulg‘artdim, basinig‘ma yag‘ig‘ kalurur
 artim, qag‘animin su altdimiz, tangri yarliqazu.
 [qo‘ng‘ir qo‘y, oq otni ulg‘aytirdim. Bosadigan yovni
 poymol qilguvchi edim. Xoqonim bilan lashkar tortdik,
 tangri yorlaqasin!]
- [54] Bu turk bo‘dunqa yaraqlig‘ yag‘ig‘ kalturmadim, to‘gun-
 lig atig‘ yo‘gurtmadim. Altaris qag‘an qazg‘anmasar,
 [Bu turk xalqiga qurolli yovni keltirmadim, yalovli otini
 yogurtirmadim.
 Eltarish xoqon muvaffaqiyat qozonmasa,]
- [55] udu ban o‘zum qazg‘anmasar, al yama, bo‘dun yama
 yo‘q artachi arti, qazg‘antuqin uchun, udug‘uzum, qaz-
 g‘antuqum uchun
 [uning bilan mening o‘zim zafar qozonmaganimda, yurt
 ham, xalq ham yo‘q bo‘lar edi. (Xoqon) zafar qozongani
 uchun, men o‘zim zafar qozonganim uchun]
- [56] al yama al bo‘lti, bo‘dun yama bodun bo‘lti. O‘zum qari
 bo‘ltim, ulug‘ bo‘ltim. Nang yardaki qag‘anlig‘ bo‘dunqa
 [davlat ham davlat bo‘ldi, xalq ham xalq bo‘ldi. O‘zim
 qaridim, ulg‘aydim. Har yerdagi xoqonli xalqqa]
- [57] abun tugi bar arsar, na bungi bar artachi armis.
 [don-duni bor bo‘lsa, nima g‘ami bo‘ladi?!]
- [58] Turk Bilga qag‘an alinga bititdim ban bilga To‘ngyuquq.
 [(Ushbu bitigni) Turk Bilga xoqon elida yozdirdim men
 Bilga To‘nyuquq.]
- [59] Altaris qag‘an qazg‘anmasar, yo‘q arti arsar, ban o‘zum,
 bilga To‘ngyuquq, qazg‘anmasar, ban yo‘q arti arsar,

¹ Q a p a g ‘ a n – qadimgi turk xoqonlaridan birining nomi.

[Eltarish xoqon zafar qozonmaganida, yo‘q bo‘lganida, men o‘zim, bilga To‘nyuquq zafar qozonmaganimda, men bo‘lmanimda,]

- [60] Qapag‘an qag‘an Turk sir bo‘dun yarinta bo‘d yama, bo‘dun yama, kishi yama idi yo‘q artachi arti.
[Qapag‘an xoqon turk sir xalqi yerida bo‘y ham, xalq ham, kishi ham ega bo‘lmas edi.]

- [61] Altarish qag‘an, bilga To‘nyuquq qazg‘antuq uchun Qapag‘an qag‘an Turk sir bo‘dun yo‘riduqi bu
[Eltarish xoqon, bilga To‘nyuquq zafar qozongani uchun Qapag‘an xoqon turk sir xalqi yurgan bu...]

- [62] Turk Bilga qag‘an turk sir bo‘dunug‘ og‘uz bo‘dunug‘ igitdu olurur.
[Turk Bilga xoqon turk sir xalqini, o‘g‘uz xalqini boshqarib turibdi.]

O‘RXUN-ENASOY OBIDALARI HAQIDA

O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi va o‘rganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqda dastlabki xabarni beradi. Shved zobiti Iogann Strallenberg, olim Messershmidt yodgorliklarni Yevropa ilm ahliga ilk marta taqdim qilgan edilar.

Dastlab, O‘rxun, Selenga va To‘li daryolari atrofidan – Shimoliy Mo‘g‘ulistondan toshga bitilgan obidalar topildi. Enasoy daryosi qirg‘oqlaridan ham shunday yodgorliklar topilgan. Ular keyinchalik O‘rxun-Enasoy yodgorliklari nomini oldi.

Ma’lumki, turkiy xalqlar o‘z davlatiga ega bo‘lgan eng qadimgi dunyo qavmlaridan biridir. O‘rxun-Enasoy obidalari ana shu tarixni badiiy tarzda hikoya qiladi. Ular O‘rta Osiyodan boshlab Dunaygacha bo‘lgan ulkan hududda o‘z davlatlarini idora qilishgan. Yodgorliklar, asosan, VI–VIII asr voqealarini aks ettiradi.

V–VI asr o‘rtalarida dunyo xaritasida Turk xoqonligi degan mamlakat yuzaga kelgan. Bu mamlakat O‘rta Osiyo, Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Olttoy o‘lkalaridagi turli qabila va xalqlarni birlashtirgan edi. Bu yerlar geografik jihatdan nihoyatda qulay,

buning ustiga Yevropa va Sharqiy Osiyonи bog'lab turuvchi, «Buyuk ipak yo'li» ning ustida edi. Shuning uchun ham turkiylar yashaydigan manzillarga qiziqish katta bo'lgan.

Turli qabila va elatlarning doimiy hukmronlikka intiliishi odatdagи hol edi. Bundan dushmanlar ham foydalanishga harakat qiladilar. Tashqi dushmanga qarshi hamkorlikda kurashish qabila va elatlarning birlashishiga olib keldi va 545-yilda Turk xoqonligi yuzaga keldi. Bu xoqonlik VIII asrgacha hukmronlik qildi.

Toshbitiklarning katta qismi ana shu xoqonlikning o'ziga xos badiiy solnomasidir.

Yodgorliklarni butun dunyo turkiyshunoslari ilmiy jihatdan o'rganmoqda. V. Tomson va V. Radlovdan keyin S. E. Malov, S. G. Klyashtorniy, I. V. Stebleva, H. O'rxun, T. Tekin, Najib Osim, G. Aydarov, o'zbek olimlaridan A. Qayumov, A. Rustamov, G'. Abdurahmonov, N. Rahmonov, Q. Sodiqovlar o'rganishgan.

Yodgorliklar hozirgi o'zbek tiliga bir necha marotaba tabdil qilingan. Runiy yozuvdagи yodgorliklar faqat toshga bitilgan emas. Ularning qog'ozga, turli buyumlar (kumush ko'zachalar, yog'och, teri, oyna, qayish to'qasi)ga yozilgan namunalari ham bor. Masalan, «Irq bitigi» («Ta'birnoma») qog'ozda yozilgan.

So'zni «To'nyuquq» bitiktoshidan boshlaylik. To'nyuquq – shaxs nomi. U ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonining maslahatchisi va sarkardasi bo'lgan.

To'nyuquq «Turk Bilga xoqon davlatida bu bitigni yozdirdim» deydi. Bilga xoqon Eltarish xoqonning o'g'li edi.

Bitiktoshdagи voqealar To'nyuquq tilidan hikoya qilinadi: «Men – Dono To'nyuquqman. O'zim Tabg'ach davlatida voyaga yetdim. Turk xalqi Tabg'ach davlatiga bo'ysunar edi...»

So'ng ana shu dahshatning – turkiylarning o'z erkini qo'lдан berib qo'yishlarining sababi aytildi: «Turk xalqi boshboshoqlikka, o'zibo'larchilikka, beparvolikka yo'l qo'ydi... o'zining xoni bilan birga bo'lmadi».

Mustamlaka azobi, o'zga xalq tahqiri yodgorlikda qisqa va lo'nda, ammo nihoyatda ta'sirchan tarzda ifodalanadi:

«... Tabg‘achga taslim bo‘lganligi uchun tangri, o‘l degan, shekilli, turk xalqi o‘ldi, yo‘q bo‘ldi, tugadi. Turk Sir xalqi yerida birorta ham urug‘ qolmadi».

To‘nyuquq yetti yuz kishini birlashtirib, «shad» degan unvon oladi. Bu turk xoqonligidagi eng oliy darajadagi harbiy unvonlardan biri edi.

To‘nyuquq Bo‘gu tarxon hamda Eltarish xoqon (Kul tigin va Bilga xoqonning otasi) bilan birga mamlakat mustaqilligi, el-yurt farovonligi, yurt osoyishtaligi, chegaralar daxlsizligi uchun tinimsiz kurash olib bordi. U bu kurashlarning oldin-gi safida edi. Ammo dushmanlar ham tinch o‘tirmadi. Ular kuchlarni birlashtirish payiga tushishdi.

Tasvir davomida vaziyatning keskinlashib borishi, buning natijasida To‘nyuquq shaxsiyatidagi kuchli nuqtalarning tobora kengroq ochilishini kuzatish mumkin. Xususan, buyuk sarkardalarga xos bo‘lgan tavakkalchilik, dovyuraklik, jasorat, jur’at, ba’zan nihoyatda keskinlik, cho‘rtkesarlik, ayni vaqtida bosilik, vazminlik xislatlari bu tasvirlarda aniq ko‘rinib turadi. U katta tajriba egasi sifatida namoyon bo‘ladi.

To‘nyuquq buyuk vatanparvar shaxs timsolidir. Uning o‘z vatani, xoqoni, qo‘smini, xalqi bilan faxrlanishi, ularning borligidan o‘zini baxtiyor sezishi yodgorlik matniga puxta singdirilgan.

Hatto dushmanning «xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan» degan bahosida ham shu ruh mavjud. To‘nyuquqning xotirjamligi esa «xalqning tomog‘i to‘q edi» jumlesi orqali ifodalangan.

Dushmanning turkiylar ustiga hujum uyushtirish haqidagi yovuz niyatini eshitgan To‘nyuquqning «tun uxlagim kelmadi, kunduz o‘tirgim kelmadi» deyishi uning o‘z taqdirini xalq va yurt taqdiri bilan naqadar yaxlit holda tasavvur qilishini ko‘rsatib turibdi.

To‘nyuquq iftixoridagi eng asosiy nuqta shunday ifodalandadi: «Bu turk xalqiga qurolli dushmanni keltirmadim, yalovli otni yogurtirmadim».

To‘nyuquq obidasi vatan haqidagi madhiyadir. U voqeiy yoki badiiy asar bo‘lishidan qat‘i nazar, unda hayot haqiqati ham, tarixiy haqiqat ham badiiy tarzda o‘z aksini topgan.

Turkiy qabila va elatlarning o‘zaro talashib-tortishishlari ham, tashqi dushman bilan bo‘lgan ayovsiz kurashlar ham, aslida, tarixiy haqiqatdir.

Eltarish, Bo‘g‘u, Bilga xoqonlar ham tarixiy shaxslardir. Asarda tilga olingan ko‘plab qabila, urug‘lar tarixda mavjud bo‘lgan, ularning bir qismi hozir ham alohida xalqlar va millatlar tarkibida yashab kelmoqda.

Yodgorlikda murojaat, undov, chaqiriq, yetakchilik qiladi. To‘nyuquq tabiatida tushkunlik, ikkilanish mutlaqo ko‘rinmaydi. Uning harakatlarida, so‘zlarida o‘ziga ham, butun xalqiga ham buyuk ishonch balqib turadi. Xuddi shu holat uning g‘alabalarida asosiy omil bo‘ladi.

«To‘nyuquq» bitiktoshi kompozitsion jihatdan yetuk asar. Unda o‘ziga xos boshlanma, voqealar rivoji, xotima mavjud. Shu kompozitsiyaning o‘zida ham katta badiiylik bor. Bu maqsad to‘laligicha amalga oshgan.

Yodgorlikning til xususiyatlari ham e’tiborga loyiq. U VIII asrdagi adabiy til namunasidir. Asar tilidagi ko‘plab so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida aynan qo‘llaniladi. Bir qism so‘zlarda ozgina tovush o‘zgarishlari yuzaga kelgan, yana bir toifa so‘zlar esa bugungi iste’moldan chiqib ketgan.

Yodgorlikda o‘rni-o‘rni bilan so‘zlarining ko‘chma ma’nlarda qo‘llanishi seziladi. Shuningdek, majoz, matal, maqollardan foydalanish kuchli:

«Tabg‘ach, O‘g‘uz, Qitan – bu uchovi qamal qilsa, qamalda qolajakmiz. Unda vujudining ich-u tashini – mol-u jonini topshirgan kishiday bo‘lamiz. Yupqa yig‘in tor-mor qilishga oson emish, ingichka yig‘in uzishga oson emish. Yupqa qalin bo‘lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish, ingichka yo‘g‘on bo‘lsa, uzadigan bahodir emish».

Asarda oltinga «sariq», kumushga «oq», tuyaga «egri» singari epitetlar – sifatlashlar qo‘llangan.

Undagi asosiy tasvir vositasi alliteratsiyadir. Alliteratsiya – tovushlar ohangdorligi, asosan, bir xil tovushlarning takrorla-

nishi natijasida yuzaga keladigan ohangdorlikdir. Unda unli va undosh takrorlanishi mumkin.

O‘ngra qitaynyig‘ o‘lurtachi terman,
Bani o‘g‘uzug‘ o‘lurtachi – o‘q terman.

So‘z takrori ham yodgorlikda ko‘p uchraydi.

Tabg‘ach qag‘an *yag‘imiz erti*
O‘n o‘q qag‘ani *yag‘imiz erti*.

Undagi o‘ziga xos tasvir usullaridan yana biri voqeа-ho-disalarga muayyan yondashish bilan izohlanadi. Ko‘pincha bir necha voqeа-hodisalar yoki ular bilan bog‘liq detallar ketma-ket sanaladi:

«Turk budun o‘lti, alqinti, yo‘q bo‘ldi». Bu yerdagi ketma-ket sanoq voqeа zamiridagi dahshatli musibatni, kuchli fojiani juda yorqin namoyon etadi. Yoki:

«Tabg‘ach, bardanayin teg. Qitany, o‘ngdalayin teg. Ban yirdantayin tegayin». (Tabg‘ach, sen o‘ngdan hujum qil! Qitan, oldindan hujum qil! Men chapdan hujum qilay!).

Bu o‘g‘uzlar orasidan kelgan kuzatuvchi nutqidan parcha. U o‘g‘uzlar fikrini ifodalamoqda. Bu yerdagi sanoq dushman tomonidan solinayotgan tahdid va xavf-xatar doirasining nechog‘li kattaligini tasavvur etishga imkon beradi.

Bularning hammasi To‘nyuquq bitiktoshining yuksak vatan-parvarlik ruhi bilan sug‘orilgan qadimiylardan badiiy asar ekanligini yana bir marta tasdiqlab turadi.

Yodgorliklarda inson shaxsi va, ayniqsa, uning erki bilan bog‘liq masalalar teran badiiy tahlil qilingan.

So‘zlar takrori yodgorlikdagi asosiy tasvir vositalaridan biridir. Ammo ular matnda g‘alizlik tug‘dirmagan, aksincha, muallif fikrining ta‘kidlanishiga, alohida urg‘u bilan ko‘rinishiga yordam bergen. Bularning barchasi yodgorliklarning juda katta ma‘rifiy hamda badiiy-estetik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Turkiy xalqlarning badiiy ijodi moziyning juda qadim qatlamlariga tutashadi. Eramizdan oldingi davrlardayoq yunon tarixchilari ajdodlarimiz orasida mavjud bo‘lgan og‘zaki ijod namunalari: ertak, rivoyat va afsonalar haqida ayrim ma’lumotlarni yozib qoldirishgan. Shuningdek, eramizdan oldingi Xitoy tarixchilari ham turkiylarning o‘ziga xos qo‘sishq va dostonlari bo‘lganini manbalarda qayd etishgan.

Shu o‘rinda qadimgi davrlarda yashab ijod etgan ayrim adiblarning nomlarini eslatib o‘tish joiz. Bizgacha Aprinchur Tegin, Kul Tarxon, Singku Seli Tutung, Pratyaya-Shiri, Asig Tutung, Chusuya Tutung, Kalim Keysi, Chuchu, Yo‘llug‘ Teginlarning nomlari yetib kelgan.

Turli-tuman tarixiy ma’lumotlarga tayanib O‘rta Osiyoni eposlar beshigi deb nomlash mumkin bo‘ladi. Eramizgacha bo‘lgan V asrda yashagan Herodot To‘maris bilan bog‘liq voqealar tafsilotini keltirgan. Yana bir yunon tarixchisi Polien esa Shiroq haqidagi afsona mazmunini yozib qoldirgan.

Savol va topshiriqlar

1. Toshbitiklar nima uchun O‘rxun-Enasoy obidalari nomini olgan?
2. Ular qachon topilgan?
3. Ularni o‘rganish bilan shug‘ullangan olimlar nomini bilsizmi?
4. Yodgorliklar qanday mavzularda yaratilgan?
5. To‘nyuquq siymosiga tavsif bering. U qanday obraz?
6. To‘nyuquqning buyuk shaxsga xos xislatlarini ko‘rsatuvchi matn parchalarini belgilang. Ularni daftaringizga ko‘chiring.
7. To‘nyuquqning kuyunchakligi, o‘z o‘yini boshqalarga xavotir bilan yetkaza olishi matnda qay tarzda ifodalangan?
8. To‘nyuquqning o‘z vatani, qo‘smini, xalqi bilan faxrlanishi, iftixori matnda qaysi so‘zlar bilan tasvirlangan?
9. «Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan» degan baho kimlarga nisbatan qo‘llangan? Uning dushmanga nis-

- batan qo'llanishida qanday ma'no bor?
10. «To'nyuquq» bitktoshi matniga xos qiyin so'zlar lug'atini tuzing.
 11. Matndagi asosiy qismlarni ajratishga harakat qiling. Har bir qismga sarlavha toping.
 12. Yodgorlikdagi xalq mustaqilligi, ona yurt daxlsizligi, shaxs va erk g'oyasi ifodalangan o'rirlarni belgilang. Ularning qanday so'zlar bilan tasvirlanganiga e'tibor bering.
 13. Matnda uchraydig'an badiiy tasvir vositalarini aniqlang.
 14. Uyda «To'nyuquq – buyuk vatanparvar shaxs» mavzusida qisqa ijodiy matn yozing.
 15. Eng qadimgi ijodkorlardan kimlarning nomlari saqlanib qolgan? Ular qanday asarlarni yaratishgan?
 16. Bizgacha yetib kelgan eng qadimgi adabiy atamalardan qaysilarini bilasiz? Ularning hozirda muqobillari qaysilar?
 17. To'nyuquq yodgorligi matni asosida quyidagi jadvalni to'ldiring:

№	Hozirgi o'zbek adabiy tilida aynan qo'llanadigan so'zlar	Biroz o'zgarishlar bilan qo'llanadigan so'zlar	Hozir iste'moldan chiqqan so'zlar
1			
2			
3...			

18. Jadvalning oxirgi ustunidagi so'zlarning qisqacha izohli lug'atini tuzing.
19. Yodgorlikning tarixiy, ma'rifiy hamda adabiy ahamiyati haqida gapirib bering.
20. «To'nyuquq» bitktoshi matni asosida avval sodda, keyin murakkab reja tuzing. Mazkur reja asosida «O'rxun-Enasoy obidalarida qahramonlik madhi» mavzusida insho yozing.



AHMAD YASSAVIY

(1166-yilda vafot etgan)



Ahmad Yassaviyning hayoti haqida ma'lumotlar yetarli emas. U Yassi yaqinidagi Sayram shahrida tug'ilgan. Uning otasi Ibrohim Turkistonning taniqli shayxlaridan bo'lgan. Onasi Qorasoch momo nomi bilan mashhur.

Ahmadning yoshligi ancha qiyin kechadi: juda erta yoshligida otasi vafot etadi.

Ahmad Yassaviy yirik mutasavvif olim Arslonbobo qo'lida tarbiyalanadi, so'ng Buxoroga borib Yusuf Hamadoniq qo'lida tahsil oladi.

Ahmad Yassaviy tasavvuf ilmini shu qadar chuqur egallaydiki, xalq orasida «Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad» degan naql paydo bo'ladi.

Ahmad Yassaviy 1166-yilda vafot etadi. Uning shuhrati vafotidan keyin ham pasaymagan. Amir Temur unga alohida hurmat bilan qarab, 1395–1397-yillarda Turkistonda Ahmad Yassaviyning qabri o'rnida muhtasham maqbara qurdiradi. U hozir ham mavjud.

Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida Ahmad Yassaviya shunday ta'rif beradi: «Xoja Ahmad Yassaviy – Turkiston mulkinining shayx ul-mashoyixidur. Maqomati oliy

va mashhur, karomoti matavoliy (hayratlanarli) va nomahsur (chegarasiz) ermish. Imom Yusuf Hamadoniyning as’hobidin-dur (suhbatdoshi)».

«Hikmat»lar Ahmad Yassaviy merosini jamlagan asardir. Unda 240 ga yaqin she’r bor. Asar xalq orasida «Devoni hikmat» nomi bilan mashhur bo’lgan. Hikmatlarga «Qul Xoja Ahmad», «Xoja Ahmad Yassaviy», «Ahmad ibn Ibrohim», «Sulton Xoja Ahmad Yassaviy», «Yassaviy miskin Ahmad», «Miskin Yassaviy», «Xoja Ahmad», «Ahmad», «Ahmadiy», «Qul Ahmad», «Miskin Ahmad» kabi taxalluslar qo‘yilgan.

Ahmad Yassaviy – mutasavvuf shoir. Tasavvufdag'i to‘rt asosiy bosqich: shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat mohiyatini she’riy misralariga singdirgan Ahmad Yassaviy shu yo‘nalishda katta shuhrat qozondi. Bu bejiz emas. Adib tasavvufni inson ma’naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida bila-di. Bundan maqsad insoniyatni to‘g‘ri yo‘lga da’vat etishdir. To‘g‘ri yo‘l haqiqatni anglashga olib kelmoq kerak. Haqiqatni anglash o‘zlikni anglashdir. Bunga erishmoq uchun kishining hidoyat yo‘liga kirmog‘i, butun kuch va vujudini shu yo‘lga qaratmog‘i kerak.

Ahmad Yassaviy she’riyatidagi obrazlar tuzilishi ham tasavvuf ta’limoti bilan, ham og‘zaki ijod an’analari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Pir, darvish, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, iymon kabi obrazlar bevosita tasavvuf bilan bog‘lansa, yo‘l, rabot, karvon, o‘q kabilar og‘zaki ijod an’analari bilan aloqador holda yuzaga kelgan.

Ahmad Yassaviy hikmatlari xalqona ruhi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi.

HIKMATLAR

Ishq da’vosin manga qilma, yolg‘on oshiq,
Oshiq bo‘lsang bag‘ring ichra ko‘z qoni yo‘q,
Muhabbatni shavqi birla jon bermasa,
Zoye kechar umri oni, yolg‘oni yo‘q.



Ahmad Yassaviy maqbarasi (Turkiston shahri)

Ishq bog‘ini mehnat tortib ko‘kartmasang,
Xorlik tortib shum nafsingni o‘ldirmasang.
Olloh debon ichga nurni to‘ldirmasang,
Valloh-billoh senda ishqni nishoni yo‘q.

Haq zikrini mag‘zi jondin chiqarmasang,
Uch yuz oltmish tomirlaring tebratmasang,
To‘rt yuz qirq to‘rt so‘ngaklaring qul qilmasang,
Yolg‘onchidir, Haqqa oshiq bo‘lg‘oni yo‘q.

Nafsdin kechib, qanoatni pesha qilg‘on,
Har kim topsa, rozi bo‘lib, bo‘yin sung‘on,
Yaxshilarga xizmat qilib duo olg‘on,
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo‘q.

Rohat tashlab jon mehnatin xushlaganlar,
Saharlarda jonin qiy nab oshlaganlar,
Ho-yu havas moumanni¹ tashlaganlar,
Chin oshiqdir, hargiz oni yolg‘oni yo‘q.

¹ Moumann – manmanlik.

Ishq dardini bedardlarga aytib bo‘lmas,
Bu yo‘llarni uqbosi ko‘p, o‘tib bo‘lmas,
Ishq gavharin har nomardga sotib bo‘lmas,
Bexabarlar ishq qadrini bilgoni yo‘q.

Ishqqqa tushding, o‘tga tushding, kuyib o‘lding,
Parvonadek jondin kechib axgar bo‘lding,
Dardga to‘lding, g‘amga to‘lding, telba bo‘lding,
Ishq dardini so‘rsang hargiz darmoni yo‘q.

Boshing ketar bu yo‘llarda hozir bo‘lg‘il,
Ishq yo‘lida o‘lmas burun zinhor o‘lg‘il,
Pir etagin mahkam tutib, xizmat qilgilib,
Xizmat qilg‘on hargiz yo‘lda qolgoni yo‘q.

Oshiq ermas jononiga jon bermasa,
Dehqon ermas ketmon chopib non bermasa.
Munda yig‘lab oxiratda jon bermasa,
Yo‘lda qolq‘on bo‘yi xudo olg‘oni yo‘q...

Zohid bo‘lma, obid bo‘lma, oshiq bo‘lg‘il,
Mehnat tortib ishq yo‘lida sodiq bo‘lg‘il,
Nafsni tepib dargohiga loyiq bo‘lgil,
Ishqsizlarni ham joni yo‘q, imoni yo‘q.

Ishq savdosi kimga tushsa rasvo qilur,
Partav solib Haq o‘ziga shaydo qilur,
Majnunsifat aqlin olib Laylo qilur,
Ollohaqqi bu so‘zlarni yolg‘oni yo‘q.

Qul Xoja Ahmad, jondin kechib yo‘lga kirgil,
Andin so‘ngra eranlarni yo‘lin so‘rg‘il,
Olloha debon haq yo‘lida joning bergil,
Bu yo‘llarda jon bermasang imkon yo‘q.

* * *

Rabbim yodi ulug‘ yoddur aytur bo‘lsam,
Asal yanglig‘ suchuk bo‘lur tilim mening.

O‘zim faqir, qildim muqir¹, bo‘ldim haqir,
Qanot qoqar uchar qushdek ko‘nglim mening.

Turlik ayshim, turlik ishim, munglig‘ boshim,
Irdi² jonim, ketdi hushim, oqdi yoshim,
Yozuq³ bilan to‘ldi tugal, ichim-toshim,
Beniyozim ocha bersun yo‘lim mening.

Ko‘zim tushdi, ko‘nglim uchdi, arshqa oshdi,
Umrim kechdi, nafsim qochdi, bahrim toshdi.
Karvon ko‘chdi, manzil oshdi, horib tushdi,
Sir ularshdi nedek bo‘lg‘ay holim mening...

Ichdim sharob, bo‘ldum xarob, aslim turob,
Keldim ko‘rib, ko‘nglim sarob, ishqqa purob,
Haqdin xitob qilsa ko‘rmas qullar azob,
Buloq yanglig‘ oqar ko‘zdin yoshim mening.

Tushim uzor, Buroq to‘zor, ketsa bozor,
Dunyo bozor ichra kirib, qullar ozar,
Boshim bezor, yoshim sizor, qonim to‘zor,
Otim Ahmad, Turkistondur elim mening.

YASSAVIY HIKMATLARI HAQIDA

O‘zbek mumtoz adabiyotida ishq talqinlari ko‘p uchraydi. Jumladan, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ishq va oshiq mavzusi boshqa mumtoz adabiyot namoyandalardan farqli – o‘ziga xos tarzda tasvir etiladi. Ahmad Yassaviy Allohogha bo‘lgan ishqni haqiqiy sanaydi. Chin oshiqning sifatlariga diqqat qaratadi. Xo‘sish, chin oshiq kim? Shoir nazdida chin oshiq bo‘lish uchun «Alloh debon ichga nur»ni to‘ldirish, butun tanadagi tomir-u suyaklar larzaga kelgan holda «Haq zikri»ni qilish, rohat farog‘atdan kechish lozim bo‘ladi. Shoir

¹ Muqir – iqror bo‘lmoq, bo‘yniga olmoq.

² Irdi – eridi.

³ Yozuq – gunoh, ayb, xato.

ishqni bebaho dur-gavharga o'xshatadi. Biroq bunday gavhar-ni ishqisiz, nafs qutqusiga uchragan «har nomardga sotib» bo'lmaydi.

Shu o'rinda Ahmad Yassaviyning barcha hikmatlariga xos yana bir xususiyatni ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Bu – nafsga qarshi kurash masalasi. Shoir hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsini jilovlagan odam sabr-qanoatga erishadi. Agar oshiq bo'lsa, bunday sabrli ishq egasining «mahshar kunida armoni» bo'lmaydi. Ishq muhokamasiga doir ushbu hikmatning boshqa bir bandida «Nafsni tepib dargohiga loyiq bo'lg'il» deb ta'kidlanadi. Bu ham nafsnini yenggan va uning istaklarini bartaraf etgan odamgina chin oshiqlik martabasiga ko'tarila olishiga doir mulohazadir.

Ishqqqa tushding, o'tga tushding, kuyib o'lding,
Parvonadek jondin kechib axgar bo'lding,
Dardga to'lding, g'amga to'lding, telba bo'lding,
Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q.

Ushbu bandda chin oshiqning holi yana ham kuchay-tirib ko'rsatiladi. Ishq dardiga uchragan odamda juda katta ruhiy o'zgarishlar bo'ladi. Ahmad Yassaviy uni bamisol o'tga tushgan odam holiga qiyoslaydi. Ikkinchidan, sham tegrasida aylanib kuygan, axgar (laxcha cho'g') bo'lgan kapalakka o'xshatadi. Eng muhimi, ishq o'tida dard, g'am hamda telbalik bor. Ammo bu dardning darmoni topilgan emas. Boshqa bir mumtoz va oshiq shoir ta'biri balan aytganda «bu dardni bedavo derlar» (Mashrab). Ishqning bunday xususiyatlarini ta'riflab Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida yozadi: «buni ko'rmagan kishi bilmas va bunga yetmagan kishi bovar (ishonch) qilmaskim, hijron-u firoq mundin iboratduru...» Shu ishq tavsifiga bag'ishlab Navoiy «Layli va Majun» dostonini yozgani sizga ma'lum. Ahmad Yassaviy ta'kidlaydiki, ishq odamning «Majnun sifat aqlin olib Laylo qilur», yana davomidan ta'kidlaydi – «Olloh haqqi bu so'zlarni yolg'oni yo'q». Demak, Yassaviy hikmatlaridagi ishq mavzusini, oshiq holini bilish uchun nisbatan kengroq tushunchalar, sharq mumtoz

adabiyotidagi o‘ziga xos tasavvuf falsafasini ham anglash kerak bo‘ladi. Ahmad Yassaviy hikmatlari fikrni kengaytirish uchun vosita, uni o‘qib, anglash orqali hikmatgo‘y shoir ruhi ni, dardini, qalbini, so‘zini anglash mumkin, albatta.

Ahmad Yassaviyning «Rabbim yodi ulug‘ yoddur aytur bo‘lsam» deb boshlanadigan hikmati unchalik murakkab emas. Birinchi misradayoq she‘r mavzu yo‘nalishini anglab olish mumkin. Zotan, Yaratguvchini yodlash odamni xotirjam qila di, achchiq tili shirin tilga aylanadi.

Rabbim yodi ulug‘ yoddur aytur bo‘lsam,
Asal yanglig‘ suchuk bo‘lur tilim mening.
O‘zim faqir, qildim muqir, bo‘ldim haqir,
Qanon qoqar uchar qushdek ko‘nglim mening.

Shoir o‘zini juda kamtar tutadi va shu kamtarligi ortidan ko‘ngli yuksaklikka parvoz qiladi. «Muqir» arabcha so‘z bo‘lib «iqror bo‘lmoq, bo‘yniga olmoq» ma’nolarini anglatadi. Shoir faqatgina faqir-u haqirligini emas, balki Yaratguvchiga banda ekaniga iqror bo‘ladi. Adib hikmatning har bandida ichki qofiyalarни qo‘llab, o‘z ichki kayfiyati, holini o‘ynoqi bir uslubda bayon qilar ekan, shu mamuniyat sabablarini ham «nafsim qochdi» deb o‘z nafsini yengganiga olib borib bog‘laydi; o‘zini tuproqqa tenglashtiradi.

Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsga «shum» sifati beriladi. Shuningdek, shoir «nafsi bad», «nafs yo‘li», «nafs ilgi» singari istioralarni ham qo‘llaydi. Adib to‘g‘ridan to‘g‘ri nafsga qarshi kurashni, uning yo‘rig‘iga yurmaslikni targ‘ib qiladi. Nafsning domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko‘rsatib beradi.

Boshqa bir she’rida shunga urg‘u berib yozadi:

Nafs yo‘lig‘a kirgan kishi rasvo bo‘lur,
Yo‘ldan ozib, toyib, to‘zib gumroh bo‘lur.
Yotsa, qo‘psa shayton bilan hamroh bo‘lur,
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.

Ahmad Yassaviy she’riyatining keng tarqalishi va xalq orasida sevib o‘qilishining asosiy sabablaridan biri uning xalq og‘zaki ijodiga nihoyatda yaqinligidadir. Hikmatlar, asosan, to‘rtlik va murabba’ shaklida bitilgan.

Rohat tashlab, jon mehnatim xushlag‘anlar,
Saharlarda jonin qiyab ishlag‘anlar,
Ho-yu havas, moumonni tashlag‘anlar
Chin oshiqdir, hargiz oni yolg‘oni yo‘q.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari ustida mulohaza yuritganda, oshiqning shariat, tariqat, ma’rifat bosqichlaridan o‘tib haqiqat martabasiga yetishini eslash o‘rinli bo‘ladi. Shoir bu bosqichlarda islom dini hukmlarini o‘zida mujassam etgan shariatni yaxshi bilish zarurligini o‘qtiradi. Shuning uchun ham «Shariatsiz tariqatga kirib bo‘lmas», «Tariqatga shariatsiz kirganlarni, Shayton kelib imonini olur ermisht» yoki «So‘finaqsh bo‘lding valek hargiz musulmon bo‘lmading» kabi misralarni yozadi. Insonning so‘zi amaliga, tashqi ko‘rinishi ichki olamiga mos kelishi lozim. Tashqaridan qaraganda odam taqvodor so‘figa o‘xhash – so‘finaqsh bo‘lishi, lekin u amalsiz bo‘lishi mumkin, bundaylarga Yassaviy tanbeh berib «hargiz musulmon» bo‘lmading deydi.

Ahmad Yassaviy tasavvufga inson ma’naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida qaraydi. Tasavvuf negizida ruhiy tarbiya turadi. Ruhiy tarbiya bashariyatning to‘g‘ri yo‘ldan yurishiga yordam beradi. To‘g‘ri yo‘l esa haqiqatni anglashga olib kelishi lozim. Haqiqatni anglash o‘zlikni anglashdir. Bunga erishish uchun odam shariat hukmlarini to‘la bajarishi va qalbida Yaratguvchiga muhabbat bo‘lishi kerak.

Ahmad Yassaviy she’riyatidagi obrazlar tizimi ham tasavvuf ta’limoti hamda xalq og‘zaki ijod an’analari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. *Pir, darvish, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, iyomon* kabi obrazlar bevosita sharq diniy-islomiy falsafasi, yo‘l, rabot, karvon, o‘q kabilalar esa og‘zaki ijod an’analari bilan aloqadordir.

Zohid bo'lma, obid bo'lma, oshiq bo'lg'il,
Mehnat tortib ishq yo'lida sodiq bo'lg'il,
Nafsni tepib, dargohiga loyiq bo'lg'il,
Ishqsizlarni imoni yo'q ham joni yo'q.

Ahmad Yassaviy bunday she'rlarida so'zlar takrori ohangdoshlikni nihoyatda kuchaytiradi va o'quvchiga estetik zavq beradi. Adib hikmatlarining barmoq vaznida yozilgani ham ularni og'zaki ijodga yaqinlashtiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilsiz?
2. «Devoni hikmat» qanday yaratilgan?
3. Ahmad Yassaviy she'rlarida qanday taxalluslar qo'llagan?
4. «Hikmatlar»dagi qaysi axloqiy-ma'rifiy masalalar talqini sizga ko'proq yoqdi? Nima uchun?
5. «Hikmatlar»da ulug'langan insoniy fazilatlar va qoralangan xususiyatlar qanday ifodalangan? Bunda adibning so'zdan foydalanish mahorati haqida nima deya olasiz?
6. Ahmad Yassaviy ijodidagi ishq va oshiq tushunchalariga izoh bering.
7. Adib xalq og'zaki ijodidan qanday foydalangan? Bu qaysi o'rirlarda ochiqroq ko'rindi?
8. Navoiy ta'rifida Ahmad Yassaviyning qaysi xususiyatlari e'tiborga olingan?
9. Adibning mahoratini ko'rsatuvchi badiiy tasvir vositalari haqida gapirib bering.
10. «Hikmat»larda nafs bilan bog'liq o'xshatish va sifatlashlar jadvalini tuzing.
11. «Ahmad Yassaviy o'gitlaridan olgan taassurotlarim» mavzusida ijodiy matn yaratting.
12. Yassaviy ijodining qanday ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati bor?



ATOYI

(XV asr)



Atoyi XV asrda Balxda¹ tug‘ilgan. Atoyining hayot yo‘li, shaxsiyati haqida ma’lumotlar juda kam. U asli Ahmad Yasaviyilar nasabiga mansub bo‘lgan Ismoil Ota avlodlaridan. Samarqand, Buxoro va Balxda yashagan. Mirzo Ulug‘bek saroyida xizmat qilgan.

Atoyi turkiy, fors va arab adabiyotlarini chuqur o‘rgangan. Turkiy va fors tillarida ijod qilgan. Taxallusini mashhur shayx ota-bobolariga ishora qilib, «Ato» («Ota») deb olgan.

Hozirgi Qozog‘istonning Turbat qishlog‘ida unga nisbat berilgan qabr bor.

Navoiy («Majolis un-nafois») Atoyi hayoti va ijodi haqidagi to‘xtalib: «Mavlono Atoyi Balxda bo‘lur erdi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvash va xushxulq, munbasit (ochiq chehrali) kishi erdi. O‘z zamonida she’ri atrok (turkiy tilda so‘zlovchilar) orasida ko‘p shuhrat tutti. Bu matla’ aning-durkim:

Ul sanamkim suv yaqosinda paritek o‘lturur,
G‘oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo‘lur.

¹ B a l x – hozirda Shimoliy Afg‘onistonidagi ko‘hna shahar.

... Mavlono ko‘p turkona (sodda, ravon) aytur erdi...» – deydi. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadalari») asarida Ismoil ota Ahmad Yassaviyning inisi Ibrohim otaning o‘g‘li ekanini aytadi. Atoyi devoni qo‘lyozmasining oxirida «Devoni Shayxzoda Atoyi» degan qayd Atoyining shayxlar oilasidan kelib chiqqaniga qo‘sishimcha dalolat bo‘ladi.

Atoyi g‘azallarida muhabbat bilan bir qatorda boshqa hajotiy mavzular ham kuylangan. Atoyi ijodida Umar Xayyom ruboilylari va Hofiz g‘azallaridagi kabi hayot zavqi, uning barcha go‘zalliklari va lazzatlari may timsolida vasf etiladi.

Atoyi lirikasida xalq iboralari, ta‘birlar, maqol va matalar, og‘zaki nutqqa oid so‘zlar ko‘p. G‘azallarini, asosan, aruzning turli bahrlarida yozgan, ular orasida ramalda yozilganlari ko‘proq; vazni yengil, misralari qisqa, so‘zlari oddiy, uslubi sodda va ravon. Shuning uchun ham uning she’rlari xalq qo‘shiqlariga aylanib ketgan. Atoyi tajohil ul-orif, laff va nashr kabi o‘ziga xos tasvir vosita va usullaridan ham unumli foydalangan. Shoир ijodi bizgacha to‘la yetib kelmagan. Devonining taxminan XVI asrda ko‘chirilgan, 260 g‘azalni o‘z ichiga olgan qo‘lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanadi.

G‘AZALLAR

Ul sanamkim su(v) yaqosinda paritek o‘lturur,
G‘oyati nozukligidin suv bila yutsa bo‘lur.

To magarkim salsabil obina javloni qila,
Keldi jannat ravzasindin obi Kavsar sori hur.

Ul ilikkim suvdin oriqtur, yumas oni suda,
Balki suvni pok bo‘lsun deb iligi birla yur.

Emdi bildim rost ermish, balki ko‘rdim ko‘z bila,
Ulki derlar suv qizi goh-goh ko‘zga ko‘runur.

Qoshlaring yosin Atoyi ko‘rgali husn ichra toq,
Subhidam mehroblarda surayi yosin o‘qir.

— V — / — V — / — V — / — V —
foilotun / foilotun / foilotun / foilun
Ramali musammani mahzuf

* * *

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda.

Tamanno qilg‘ali la’lingni ko‘nglum,
Kishi bilmas oni kim qoldi qanda.

Chu jonimdin aziz jonona sensan,
Kerakmas jon manga sensiz badanda.

Manga ul dunyoda jannat ne hojat,
Eshiging tuprog‘i basdur kafanda.

Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bukun Ya’qubtek bayt ul-hazanda.

Uzun sochingdin uzmasmen ko‘ngulni,
Ayog‘ing qanda bo‘lsa boshim anda.

Tilar el mansabi oliv, va lekin
Atoyi sarvi ozodingg‘a banda.

V — / V — / V —
mafoilun / mafoilun / mafoil
Hazaji musaddasi mahzuf

* * *

Sensiz bu jahon ayshi alamdur manga, ey do‘sst,
Shodlig‘i ham mehnat-u g‘amdur manga, ey do‘sst.

Lutf-u karamingni sen agar mendin ayasang,
Javr-u sitaming lutf-u karamdur manga, ey do‘sst.

Diydor ila qoni' emas erdim esa, hajring
Bisyor jafo ayladi, kamdur manga, ey do'st.

Ko'nglum yuzini javr ila chun sendin uyurmon,
Oxir necha bu javr-u sitamdur manga, ey do'st.

Odamg'a seni o'xshata bilmonki, parisen,
Nortek yanoqing bog'i Iramdur manga, ey do'st.

Qo'y qissayi Jamshedni jomi ilgingdin,
Gar bo'lsa dame mulkati Jamdur manga, ey do'st.

Og'zingg'a fido jonki, tabassum qilib aytur:
«Har lahza Atoyi ne adamdur manga, ey do'st».

– – V / V – – V / V – – V / V – ~
maf'uvlu / mafoiylu / mafoiylu / mafoiyl
Hazaji musammani axrabi makfufi maqsur

SHOIR LIRIKASI HAQIDA

Atoyi – lirik shoir. U o'z she'rlarida nozik xayol, sinch-kov nigoh, baland did egasi ekanligini namoyish etadi. Go'zal, esda qoladigan o'xshatishlar, kutilmagan mubolag'ali tas-virlar yaratadi. Bir g'azalida go'zal yor xokisor oshiqning yuziga oyoq bosar ekan, oyog'i og'riydi, «yuzing buncha bo'yradek dag'al bo'lmasa» deb nozlanadi. «Bo'yra» – qamishdan sholchaga o'xshatib to'qiladigan bir ashyo. U gilam tagidan to'shaladi, tom ustiga yopiladi. Yorning oyog'i shu qadar nozik va go'zalki, uning oldida oshiqning yuzi bo'yraga o'xshaydi. Ikkinchি bir she'rida esa, yorini sog'ingan oshiqning ko'zidan yosh emas, daryo oqayotgani, u kipriklaridan sol yasab, shu daryoda suzayotgani manzarasi chiziladi. Shoir yorini ulug'lovchi, fidoyilikni ko'rsatuvchi betakror satrlar bitaldi. Masalan, «Begim» radifli she'rida u kipriklarini supurgi («jorub»), yuzini xokandoz qilishga tayyor, yor xizmatiga olinsa bo'lgani. Hatto yor u yoqda tursin, uning farroshligiga – «qul»likka qabul qilsa ham o'zini baxtli hisoblaydi. Atoyi yorni mana shunday yuksaklikka ko'taradi.

Shoir yorning qaddi-qomati, yuzi, ko'zi, qoshi, sochi, kipriklari, og'zi, labi, xolini ta'rif-tavsif etadi. Ularni sifatlash orqali yorning go'zallikda tengsiz timsolini chizadi. Har daqiqada o'zining ma'shuqaga bo'lgan sevgi-sadoqatini izhor etib boradi. O'zini «qul», yorni «shoh» ko'rsatish orqali bir tomondan, go'zal yorga sevgi-sadoqatini bildirsa, ikkinchi tomonidan, bu sevgining tengsizligini («shoh» – «qul») ta'kidlab turadi. Ma'shuqa go'zallikda nuqsonisz, har jihatdan mukammal bir siymo sifatida namoyon bo'ladi.

Ha, ma'shuqa go'zalligiga chek-u chegara yo'q. Hatto, ko'plab qissalarda go'zallik timsoli sifatida tasvirlangan Yusuf ham unga teng kelolmaydi:

Gar husn budurkim, sanga bor, kes bu tilimni,
Yusuf so'zidin qilsam agar zarra hikoyat.

Shoirning qator she'rlarida real yor, dunyoviy ishq, ya'ni insonning insonga bo'lgan muhabbatini ko'rish mumkin.

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o'lturur,
G'oyati nozikligindin suv bila yutsa bo'lur, –

baytida noziknihol qiz tasvir etilayotganiga shubha yo'q. She'rda ma'shuqa shu qadar nozik, shunchalar go'zal qiz sifatida tasvirlanadiki, go'yo uni bir qoshiq suv bilan yutib yuborish mumkinday. Atoyi xalq iboralarini g'oyat yaxshi biladi va undan o'rinli foydalana oladi. G'azalning matla'sida ham shu hol sezilib turibdi.

Shoir navbatdagi o'xshatishni keltiradi. Ma'shuqaning bog' ichidagi ariq bo'yiga kelishi go'yo jannat bog'idagi Kavsar suvi (hovuzi) yoniga hur-u parining kelishiga o'xshaydi:

To magarkim salsabil obina javloni qila,
Keldi jannat ravzasindin obi Kavsar sori hur.

Qizning go'zalligi, tiniqligi, pokizaligi shunchalikki, u qo'lini suvda yuvib tozalamaydi, balki qo'lini yuvib suvni poklaydi:

Ul ilikkim suvdin oriqtur, yumas oni suvda,
Balki suvni pok bo‘lsin deb iligi birla yur.

Oshiq suv yoqasida paridek o‘ltirgan tengsiz go‘zalga qarab, hayrat bilan «suv qizi», ya’ni suv parisining «goh-goh ko‘zga ko‘rinishi»ga imon keltiradi. G‘azal maqta’sida shoir o‘zining ibodati ham yor husnini ko‘rishning tavallosidan iboratligini bildiradi. Atoyining ushbu g‘azaligacha yor ko‘ngliga g‘ulg‘ula solgan sanam timsoli bu qadar jonli, ta’sirchan va ayni vaqtida ilohiy yo‘sinda tasvirlanmagan edi.

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizardi gul uyottin anjumanda, –

matla’li g‘azali – shoirning badiiy yetuk asarlaridan biri. Birinchi baytda ajoyib bir manzara chizilgan: lirk qahramon – shoir gulzorga kiradi. Anvoysi gullar ochilib yotibdi. Yo‘q-yo‘q, bu shunchaki gulzor emas, gullarning anjumani – yig‘ilishi, har bir gul o‘zini namoyish etadi, ko‘z-ko‘z qiladi. Shoir ushbu anjumanda yorning go‘zalligini ta’riflagan ekan. Gullar xijolatdan – uyatdan qizarib ketibdi. Aslida, ular qizil emas edi, ma’shuqaga qaraganda xunukroq ekanliklari dan uyalib qizardilar. She’rda qizarishning o‘z va ko‘chma ma’nolaridan samarali foydalaniqgan. Ikkinchidan, gulga insoniy sifatlar beriladi, shaxslantiriladi. Chunonchi, gulzorning anjumanga o‘xhatilishi, gulning uyatdan qizarishi kabi. Bu tashxis san’atiga xos xususiyatdir. Birinchi bayt yorning jamoli ta’rifida edi. Ikkinchi bayt yorning labi va og‘zi ta’rifida:

Tamanno qilg‘ali la’lingni ko‘nglum,
Kishi bilmas oni kim, qoldi qanda.

Bu baytda ko‘nglim sening la’li labingni orzu qilgan edi, istab topolmadi, degan mazmun ifodalangan. «La’l», ayni paytda, yor labidan chiqadigan iliq so‘zni ham anglatadi. Yorning labi qon kabi qip-qizil bo‘lgani uchun ham qizil qimmatbahoh tosh – la’lga o‘xhatiladi. Mumtoz adabiyotda o‘ymoqdakkina, kichik og‘izli qizlar go‘zal hisoblangan. Oshiq o‘zicha yorning og‘zini ko‘rmoqchi edi. Lekin u shunchalar

kichik ekanki, qayerdaligini hech kim bilmadi! Keyingi bayt-larda tasvir o‘zgaradi. Ta’rif e’tirof va shikoyat bilan alma-shadi. Lirik qahramon dil izhoriga o‘tadi, ishq va sadoqatini bildirishga tushib ketadi:

Chu jonimdin aziz jonona sensen,
Kerakmas jon manga sensiz badanda.

Manga ul dunyoda jannat ne hojat,
Eshiging tuprog‘i basdur kafanda.

Lirik qahramon yorini jonidan aziz tutmoqda. U dunyodagi jannatdan yor eshigining tufrog‘ini afzal bilmoqda. Beshinchi baytda talmeh bor. Shoир yorini «Yusufi husn» deb ta’riflab, Ya’qubning ahvoliga tushib qolishdan xavotir olmoqda. Yusuf haqidagi rivoyatlarga ko‘ra, u – Ya’qubning sevikli o‘g‘li. Akalari bunga hasad qilib, otasi oldidan aldab dalaga olib chiqadilar va quduqqa tashlaydilar. So‘ng «Bo‘ri yedi!» – deb yolg‘on ovoza tarqatadilar. O‘g‘lining hajrida yig‘layvergandan Ya’qubning ko‘zлari ko‘r bo‘lib qoladi. Mumtoz adabiyo-timizda Ya’qubning ayriliqdagi hayoti «Bayt ul-hazan» (g‘am uyi) sifatida tilga olinadi. Yusuf tashlangan quduq esa, uning husni tufayli yorishib turar edi. Mumtoz she’riyatimizda ko‘p ishlatiladigan «chohi zaqan» (iyak ostidagi chuqurcha) shunga ishora qiladi:

Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bukun Ya’qubtek bayt ul-hazanda.

Oltinchi baytda «uzun» va «uzmasman» so‘zlaridagi o‘zak-dosh «uz» takrorida ham xislat bor. Buni ishtiqoq san’ati deydilar. Buning ustiga, sochdan qilingan qilto‘r oshiqni o‘z tuzog‘iga olgani ham anglashiladi. Oshiq shu qadar xoksor va yalinchoqki, ma’shuqaning «ayog‘i qanda bo‘lsa, oshiqning boshi anda». Ya’ni u suyuklisi tashlagan qadamga bosh uradi. Bu o‘rinda zidlik – tazod san’atidan foydalanadi:

Uzun sochingdin uzmasmen ko‘ngulni,
Ayog‘ing qanda bo‘lsa boshim anda.

She’rning maqta’si g‘oyat samimiy bir tuyg‘u ifodasi bilan yakun topgan: odamlar oshiqqa yuksak mansab-martabalar tilaydilar, lekin Atoyi – «sarvi ozod»ga banda, ya’ni qul. Buni u o‘zi istaydi. Shu o‘rinda qizning go‘zal qaddi-qomati «sarvi ozod» orqali berilganini ko‘rish mumkin. Mumtoz adabiyotda qad hamisha sarvga o‘xshatilib kelingan. «Ozod» so‘zi lug‘atlarda tik, chiroyli o‘sgan sarvga aniqlovchi sifatida qo‘llanilgan. Umumiy ma’nosi xushqomat go‘zalga to‘g‘ri keladi. Lekin bu muhim emas, muhimi sarvning «ozod»ligi bilan oshiqning «banda», ya’ni qul ekani qarshilantirib tashylanayotganida:

Tilar el mansabi oliv va lekin
Atoyi sarvi ozodingg‘a banda.

Atoyi she’rlarida tazod – qarshilantirish san’atidan mahorat bilan foydalanadi. Chunonchi, «Soching chun laylat ul-qadr-u yuzing chun subhi sodiqdur» misrasi bilan boshlanadigan g‘azalida ham shu san’atni ustalik bilan qo‘llab, ta’sirli badiiy samaraga erishganligini ko‘rish mumkin. Shoир yorning qop-qora sochini laylat ul-qadrga, oppoq yuzini esa subhi sodiqqa o‘xshatadi. Bir-birini inkor etuvchi ikki tushuncha ustalik bilan qo‘llangani uchun ham sanamning tengsiz chiroyini to‘ldirishga xizmat qiladi.

Manga sensiz tirilgandin o‘lim yuz qatla ortuqdur,
Bu so‘zda, haq bilur, ko‘nglum tilim birla muvofiqtur, –

deydi shoир shu g‘azalning uchinchi baytida. Samimiy iqror she’rning ta’sir darajasini oshirgan. Shoирning oshiqligi shu darajadaki, u ma’shuqasiz hayotdan o‘limni afzal biladi va bu gapni chin dildan izhor etadi. G‘azalning:

Bu kun vaslingni tark aylab, tilar jannatni zohidlar,
Berurlar nasyag‘a naqdni, bu ne nodon xaloyiqtur?

satrlarida so‘fiyona ruh yaqqol seziladi. Chunki tariqat ahli, ya’ni mutasavviflar Alloho ni jannatga kirish uchun emas, balki o’n sakkiz ming olamning yaratuvchisi, butun borliqning

moyasi bo‘lgani uchun, jamolini ko‘rish uchun sevish lozim deb hisoblaydilar. Ular qiyomatda yaxshi qismatga ega bo‘lish uchun toat-ibodat qilish pora evaziga ish bitirishga o‘xshash narsadir, chin muhabbat beg‘araz bo‘lishi, ya’ni oshiq hech narsa ta’mal qilmay, Yaratganga ko‘ngil bog‘lashi lozim deb hisoblashadi. Atoyining nazdida jannatga kirish uchun Allohga muhabbat qo‘ygan kimsa naqdni nasiyaga almashgan nodon kabidir. Allohning jamoli, go‘zalligi oldida jannatning chiroyi hechdir. Shu baytning o‘zini majoziy nuqtayi nazardan talqin qilish ham mumkin. Mumtoz shoirlarimizning mumtozligi ham shundaki, bir so‘z bilan bir necha ma’noni ifodalay olganlar.

Atoyining «Hajringda, begin, oh degumdur dag‘i o‘lgum» deb boshlanadigan g‘azali ham oshiqona bo‘lib, suyuklisiga muhabbatni olamdagи hamma narsadan ortiq ko‘radigan oshiq holati ifoda etilgan. Shoир uchun ma’shuqa shunchaki qiz emas, balki imon ham. Negaki, lirk qahramon: «Imonim o‘shal moh degumdur dag‘i o‘lgum» deydi. Shu o‘rinda islomda har bir musulmon o‘limi oldidan kalimayi shahodatni qaytarishi kerakligi ham hisobga olingan. U o‘limiga rozi. Shu bois imon keltirishga ham tayyor. U: «Lo iloha illalloh» («Allohdan o‘zga iloh yo‘q»), – deb emas, balki «Imonim o’sha Moh (Alloh)», – deya kalima qaytarmoqchi. Lekin sanamdan ajralishga toqati yetmaydi. Chunki inson abadiy rohatda bo‘ladigan jannat ham ma’shuqsiz «g‘amgoh»dir. Buni shoир shunday ifodalaydi:

Jannatdakim, el onda bo‘lur zindai jovid,
Sensiz oni g‘amgoh degumdur dag‘i o‘lgum.

Oshiqning muhabbati shu qadar teran va azaliyki, u yor ko‘yida o‘lib ketsa ham uning ruhi qiyomatga qadar ma’shuqa ga hamroh bo‘ladi.

Atoyining «Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu?» misrasi bilan boshlanadigan g‘azalida ham muhabbat tuyg‘usi tasvir etiladi. Bunda shoир malaksiymo qizning chiroyidan hayratga tushadi. U shu qadar barkamolki, undagi fazilatlar sanalgan va ularga e’tibor qaratilgan sari oshiqning muhabbati kuchayib boraveradi. Ma’shuqaning yuzi (mengiz) jannat bog‘ini esga

tushirsa, og‘zi «g‘unchayi xandon»ni yodga soladi. Qora ko‘z-lari qaroqchini, chiroyi esa Turkiston parisini xotirga keltiradi:

Qaroqchi ko‘zlarin kim ko‘rsa aytur:
«Ajab, ayyori Turkistonimdur bu?»

Qaroqchi ham molni, ham jonni olgani kabi ma’shuqa ham o‘ynoqi ko‘zlar bilan oshiqning jonini oladi. Yor o‘zini turfa holatlarda ko‘rsatishga mohir. Shu bois farishta sifatli bo‘lib ham ko‘rinadi. Malohatda tengsiz sanamning xati – labi ustidagi mayin tuklar rayhon singari xush bo‘y taratadi. Xullas, g‘azal to‘lig‘icha parichehraning portretini chizishga bag‘ishlangan. Lekin shoir qizning sirtini ko‘rsatish bilangina kifoyalanmagan. U oxirgi baytda o‘zining miskin va sargardon holatini bir og‘izgina qayd etish bilan ma’shuqaning shafqat bilmaydigan siyratini ham chizib berishga erishgan.

Atoyi ma’shuqani turli holatlarda ko‘rsatishga, uning jabri-ni har xil nuqtalardan turib tasvirlashga mohir shoirdir. Buni:

Qon bo‘ldi ko‘ngul firoqi birla,
Kuydi jonim ishtiyoqi birla

matla’li g‘azali tahlili misolida ham ko‘rish mumkin. Nihoyat-da sodda va o‘ynoqi bu g‘azalda qizning o‘xhashi yo‘q zulfi, yuraklarni o‘rtaguvchi ko‘zlar, o‘qday kipriklari o‘z holicha vasf etilmay, tabiatdagi eng nodir va go‘zal narsalar bilan yonma-yon qo‘yib tasvirlanishi orqali katta badiiy ta’sirchanlikka erishiladi:

G‘uncha sevunub to‘nig‘a sig‘mas,
O‘xshatsam, o‘qing bashoqi birla.

Shoir nazarida, yorning kiprigi kamon o‘qining uchiga o‘xshaydi. Chunki kiprik o‘qqa ikki jihat bilan o‘xshaydi: avvalo, kiprik ham o‘qday tik. Ikkinchidan, o‘q yovni yarala-sa, yor kiprigi oshiq yuragini nishonga oladi. Shu bois ochilmagan gulg‘uncha o‘zining yor kiprigiga o‘xshash ekanini eshitib, «to‘nig‘a sig‘may» ketdi, ya’ni ochildi.

Atoyi «Netti, ne bo'ldi?» radifli g'azalida ma'shuqa achchiq-tiziqlaridan, nozlaridan hayratga tushgan oshiq holatini ifoda etadi. U yor g'azabiga duchor bo'ldi, lekin aybi ne ekanini bilmaydi. Shu bois uni savollar qiyinaydi. Atoyi mumtoz she'riyatimizga alohida olingan inson ruhiyati tasviri kirlita bilgan shoirdir:

Ey orazi shams-u qamarim, netti, ne bo'ldi?
V-ey tishlari durr-u guharim, netti, ne bo'ldi?

Oshiq o'zini gunohkor sanaydi. Ammo aybi nimadaligidan xabari yo'q. U ma'shuqa meni rashk etayotirmikan degan o'yga boradi:

Sen bor ekan o'zga kishiga nazar etsam,
Chiqsun bu mening diydalarim, netti, ne bo'ldi?

Lirik qahramon – chorasisiz, u ishq yo'lida qurbon bo'lishga tayyor. Shu bois qay tarzda, qanday yo'l bilan o'ldirilishi uni ko'pda qiziqtirmaydi. Uning jon saqlash uchun yor qoshidan ketgisi yo'q:

Gah javr bilan o'ltur meni, gah noz ila sendin,
Haqqoki, mening yo'q guzarim, netti, ne bo'ldi?

— — V / V — — V / V — — V / V — —
maf'uvlu / mafoiylu / mafoiylu / fauvlun
Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf

Atoyi ko'ngil nolishlari, ruh to'lg'onishlari, qalb iztiroblari tasvirini turkiy she'riyatga go'zal va ta'sirchan yo'sinda olib kirgan shoirdir. Unda samimi tuyg'ular yuksak san'atkorlik bilan ko'rsatilgani uchun ham hanuzgacha she'rxonlar qalbiga ta'sir etib kelmoqda.

«Ey do'st» radifli g'azal ko'p ma'noliligi bilan diqqatga sazovordir. Undagi «do'st»ni xilma-xil ma'nolarda tavsif va talqin qilish mumkin.

Sensiz bu jahon ayshi alamdur manga, ey do'st,
Shodlig'i ham mehnat-u g'amdur manga, ey do'st.

G‘azal boshdan oyoq do‘stga murojaat tarzida davom etgan. Dastlabki baytda lirik qahramon – oshiqning do‘stga izhori dili mujassamlashgan. U o‘zining do‘stga nihoyatda qattiq bog‘lanib qolgani, hayotni usiz tasavvur eta olmasligini ifodalashga harakat qilgan. Oddiygina bir zid ma’noli so‘zlar aysh va alamning keltirilishi oshiq iztiroblarining mohiyatini ham, darajasini ham ko‘rsatib turibdi. Ana shu tasvir usuli baytning keyingi misrasida ham takrorlangan. Natijada oshiq timsolidagi shaxs iztiroblari o‘quvchi ko‘z oldida ancha yorqin va ta’sirli tarzda namoyon bo‘lgan.

Lutf-u karamingni sen agar mendin ayasang,
Javr-u sitaming lutf-u karamdur manga, ey do‘st.

Keyingi baytda ham tazod faol tasvir vositasi sifatida qo‘llangan. Faqat bu yerda birinchi misradagi birdaniga ikkita so‘zning ziddi keyingi misradagi yana bir juftlikka zid holda qo‘llangan. Ayni paytda, oldingi misradagi so‘zlarning takrori shoir ko‘zda tutgan ma’noning yanada kuchaytirilishi uchun ham xizmat qilgan.

Diydor ila qoni’ emas erdim esa, hajring
Bisyor jafo ayladi, kamdur manga, ey do‘st.

Tazodlar silsilasini istifoda etish keyingi bandda ham davom etadi. Bu yerda «bisyor» va «kam» so‘zlari shu vazifani ado etadi. Zehn solib qarasak, baytning birinchi misrasida ham zid ma’noli so‘zlar ishtirokini ilg‘ashimiz mumkin. Bu diydor va hajr so‘zları orqali amalga oshgan. Aslida, «hajr», «hijron» degan so‘zlar «vasl», «visol» degan so‘zlar bilan zid ma’nolilikni tashkil etadi. Bu yerdagi «diydor» o‘sha «visol» so‘zining ma’nodoshidir. Demak, bu yerda ham sal yashirin-roq tarzdagi tazod qo‘llanmoqda ekan.

Ko‘nglum yuzini javr ila chun sendin uyurmon,
Oxir necha bu javr-u sitamdur manga, ey do‘st.

To‘rtinchi baytdagi tazod sen va men olmoshlari orqali namoyon bo‘lgan. Ammo asosiy urg‘u oshiqning yorga sa-

doqatini izhor qilish hamda buning evaziga yana oxiri yo‘q jabr va sitamlarga duch kelayotganidan shikoyat etishga tu-shayotgani ko‘rinib turibdi.

Odamg‘a seni o‘xshata bilmonki, parisen,
Nortek yanoqing bog‘i Iramdur manga, ey do‘st.

Bularning hammasi yorning chiroyi, go‘zalligi, o‘ziga xos-ligini ko‘rsatishga qaratilgan.

Navbatdagi bayt ham shu ruhni davom ettiradi. Bu niyatga odam va pari ziddiyatini keltirish orqali erishiladi. Endi tanosib san’ati ishga solinadi. Bu san’atning mohiyatini matnda o‘zaro mantiqiy aloqador bo‘lgan so‘zlardan foydalaniш tashkil etadi. E’tibor bering: yuz (yanoq) odamda bo‘ladi. Bu yuzning rangi anorga o‘xhash. Demak, yorning yuzida bog‘ning alomatlari mavjud. Ammo shoir yorni odamlar toifasidan emas, balki pari demoqda. Parining yashaydigan joyi esa Eramda, aniqrog‘i Eram bog‘idadir. Shoir yor go‘zalligini uning yuzidayoq mujassam ekanligini aytish uchun mana shu mantiqiy silsilalardan foydalangan.

Qo‘y qissayi Jamshedni jomi ilgingdin,
Gar bo‘lsa dame mulkati Jamdur manga, ey do‘st.

Oltinchi bandda tazod yo‘qlik va mavjudlikning ramziy tasviri orqali yuzaga chiqarilgan. Yo‘q narsa – «Qissayi Jamshed», ya’ni ertak va afsonalar olami, mavjudlik esa yorning qo‘li orqali tasavvur etilayotgan «Mulkati Jam», ya’ni mavjud hayotdir.

Og‘zingg‘a fido jonki, tabassum qilib aytur:
«Har lahza Atoyi ne adamdur manga, ey do‘st».

Oxirgi baytda so‘zlash navbati ma’shuqaga beriladi. Yorning har qanday gapi, oshiqqa murojaati lirik qahramon uchun mammunlik va qanoat hissining paydo bo‘lishi uchun kifoya qiladi. Vaholanki, bu so‘zlarda maqtov emas, ko‘proq kinoya va istehzo mujassamlashgan. E’tibor bering: «ne adam»ni

«mavjud emas, yo‘q» degan ma’noda ham, «qanday odam», «odam emas» degan ma’noda ham tushuntirish mumkin.

Bularning barchasi Atoyining o‘zbekcha so‘z kuchi va qudratini teran his etgani, uning latofatini ko‘rsatish uchun katta kuch va mehnat sarflaganini ko‘rsatadi. Xuddi shu narsalar adibdagi badiiy mahoratning nihoyatda yuksak darajasi haqida ham to‘la tasavvur berib turibdi.

Savol va topshiriqlar

1. Atoyi qachon, qayerda yashab o‘tgan? Uning hayoti va faoliyati haqidagi ma’lumotlarning manbasini ko‘rsating.
2. Atoyining boshqa bir she’rida shoir gulzorga kirib, yori sifatlarini aytganda, davradagi gullarning uyatdan qizariishi sababini tushuntiring. «Qizarishi»ning o‘z va ko‘chma ma’nolarini aiting.
3. Shoир g‘azallaridan biridagi: «Bu kun vaslingni tark aylab, tilar jannatni zohidlar, Berurlar nasyag‘a naqdni, bu ne nodon xaloyiqtur?» tasvirini sharhlashga urinib ko‘ring.
4. Shoirning: «Ishqinda qaro boshim oqardi, Bir boqmadi ko‘z qarog‘i birla» misralaridagi she’r san’atlarini aniqlang, ularning badiiy vazifasini ko‘rsating.
5. Atoyining: «Umrumni sening qullug‘ingga sarf qilibmen, Ey o‘z qulidin bexabarim, netti, ne bo‘ldi?» tarzidagi hayrati va so‘rog‘i zamiridagi ma’noni izohlang. Unda qo‘llangan nido san’atining mohiyatini izohlang.
6. Nido she’riy asarda shoirning murojaat qilgan obyektidir. Atoiy she’rlarini o‘qib, bu san’atning qo‘llanishiga e’tibor bering. Ular bajarayotgan vazifalarini aniqlashga harakat qiling.
7. She’rda ayrim istioralar qo‘llangan. Ularni toping va badiiy vazifalarini ko‘rsatishga harakat qiling.
8. «Atoyi lirkasini sevib o‘qiyman» mavzusida ijodiy matn yozing.



ALISHER NAVOIY

(1441–1501)



XV asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy-siyosiy hayotdagi nisbiy ko‘tarilishlar yuz beradi. Bu davrda Temuriylar siyosatining o‘ziga xos qirralari yanada ko‘proq namoyon bo‘la boshlaydi. Amir Temur boshlab bergen buyuk rivojlanish davom ettilidi. Endilikda hokimiyat tepasida Temurning farzandlari, nabiralari hukmronlik qilishardi.

Andijon, Toshkent, Xo‘jand, Sayram, Turkiston, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Hisor, Qunduz, Marv shaharlari rivojlandi. Ayniqsa, Husayn Boyqaro zamonida Hirot gullab-yashnaydi.

Ulug‘bek zamonida Samarqandda ilm-fan nihoyatda yuksaldi, o‘zbek fanining dunyoga yoyilishida bu davr o‘ziga xos o‘rin tutadi. Xususan, aniq fanlar rivoji, ayniqsa, matematika, astronomiyadagi yutuqlar salmoqli bo‘ldi. Birgina Ulug‘bek observatoriyasining yutuqlari natijasida 1018 ta yulduzning holati o‘rganildi. Ma’lum bo‘lishicha, yulduzlarning o‘rnini belgilashdagi aniqlik hozirgi zamon yutuqlari bilan deyarli uyg‘un keladi. Ulug‘bekning otasi Shohruh mirzo qurdirgan kutubxona salmog‘i va boyligiga ko‘ra ham o‘z zamonasida tengsiz edi.

Samarqandda Bibixonim, Shohizinda, Ulug‘bek madrasasi, Amir Temur maqbarasi, Ulug‘bek rasadxonasi o‘sha



Alisher Navoiy maqbarasi (Hirot)

davr me'morchiligining go'zal obidalari sifatida bugun ham xalqimizning faxr-u iftixoriga sabab bo'lib kelmoqda.

Hirotda Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning tashabbus va rahbarliklarida ko'plab binolar, madrasa va xonaqohlar, shifoxona, hammom va karvonsaroylar qurilgani, ariq va kanallar qazilgani, bog'-rog'lar barpo qilingani yaxshi ma'lum.

Temuriylarning o'zaro nifoq va kurashlari Shayboniyxonning (1451–1510) tarix maydoniga kirib kelishi va bu maydonda barqaror turib qolishi uchun imkon beradi. Shayboniyxon ko'chmanchi o'zbeklarning xoni Abulxayrxonning (1428–1468) nabirasi edi. U 1499-yilda temuriylarga dastlabki zarbalarni bera boshlagan bo'lsa, ko'p o'tmay ularning o'rnnini deyarli egallab oladi. Shayboniyxonning o'zi ham katta iqtidor egasi, yirik salohiyatli ijodkor edi.

Bu davrda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar ijodi jahon adabiyotining eng porloq namunalari sifatida e'tirof etildi.

Badiiy ijodning ikki tilda yaratilishi ham shu davrning muhim xususiyatlaridan edi. Navoiy, Bobur mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Ahmad mirzo (1451–1494) singari ijodkorlar ikki tilda she'rlar yaratgan. Zullisonaynlik an'anasi ham Navoiy timsolida o'zining oliy cho'qqisiga ko'tarildi. Alisher Navoiy boshchiligidagi adabiy harakat turkiy til mavqeyi uchun qattiq kurash olib bordi va bu borada olamshumul g'alabalarni qo'lga kiritdi.

Alisher Navoiy faqat o'zbek emas, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti, jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng noyob hodisalar silsilasiga mansub bo'lgan buyuk shaxsdir. U qoldirgan merosning soni va hajmigagina emas, balki ularning mazmun va yuksak badiiyatiga ko'ra ham tengsiz adibdir. Navoiyning kichik zamondoshi Zahiriddin Muhammad Bobur buni juda muxtasar tarzda ifodalab bergan: «Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r ayribturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi «Xamsa» javobida, yana biri «Mantiq ut-tayr» vaznida «Lison ut-tayr» otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur: «G'aroyib us-sig'ar», «Navodir ush-shabob», «Badoyi ul-vasat», «Favoyid ul-kibar» otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana «Mezon ul-avzon» otliq aruz bitibtur... Forsiy nazmda «Foniy» taxallus qilibtur. Yana musiqiyda yaxshi nimalar bog'labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur».

Navoiy adabiyotshunos sifatida o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga xizmat qiladigan ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. Xususan, uning o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixi uchun noyob manba sifatida katta ahamiyatga ega «Majolis un-nafois» asarida 459 ta shoir, yozuvchi, ijodkor haqidagi ma'lumotlar jamlangan. «Bu aziz kitob hazrati xoqon Shohruh mirzo podshohligi davridan boshlab, shu zamonga qadar yer yuzini ravshan vujudlari bilan bezagan va bezab turgan olim va

shoirlardan ko‘plarining ba’zi sifatlaridan va ahvollaridan bayon qiladi»¹, – deb bildiradi Xondamir.

Asar 8 majlisdan iborat: dastlabki majlislar xronologik tartibda, ya’ni vaqtning qadimdan shoirning zamonasigacha bo‘lgan yo‘nalishi qamrovida olingan. Keyingi majlislarda ijodkorlarning yashash joylariga ko‘ra tuzilgan, ya’ni bunda mintaqaviy (geografik) tamoyil amal qilgan. Yettinchi majlis Temur va temuriylarga, sakkizinchchi majlis esa birgina Husayn Boyqaroga atalgan.

Asar faqat adiblarning hayoti va ijodiga oid materiallar bilan cheklanib qolmagan. Unda adabiyot nazariyasi, she’r san’atlari, madaniy hayot voqealarini ham o‘ziga xos tarzda aks etgan. Ayrim maqolalarda adiblarning shaxsiy fazilatlari, alohida xususiyatlari ham ochib berilgan. Masalan, mashhur shoir Yahyo Sebak haqida shunday deydi: «Xuroson mulkinning rangin fozili erdi, ko‘p ulum va fununda mohir erdi. Sanoe’ va aruz fanida barcha el ani musallam tutar erdi... Bu faqir aruz fanida vosita bila Mavlononing shogirdimen». Biz Navoiyning aruz ilmini Darvesh Mansurdan o‘rganganligini yaxshi bilamiz. Darvesh Mansur esa Yahyo Sebakdan tahsil oлган. Bu yerda mana shu «vosita» nazarga olingan.

Asarda Navoiyning shaxsiy hayotiga, tarjimayi holiga aloqador ko‘plab fakt va voqealarini ham aks etgan. Jumladan, ikkinchi majlisda Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiy haqida gapirib turib, o‘zi bilan bevosita bog‘liq bir hodisani ham qayd etadi. Taqdir taqozosi bilan (Xurosondagi nomunosib shart-sharoit tufayli) Alisherlarning oilasi ham o‘z yaqinlari bilan Iroqqa yo‘l olishadi. Ular Taft shahrida bir muddat dam olish uchun to‘xtashadi. Bu shaharda mashhur tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy yashar erdi. Tasodifan, jamoa shu olim yashaydigan joy yaqinida to‘xtagan ekan. U kishi o‘ynab yurgan bolalardan birini chaqiradi. Bu bola yosh Alisher edi. «Faqir alar sari borurg‘a muvaffaq bo‘ldum. Har neki so‘radilar javob ayttim. Tabassum qilib tahsin qildilar, dag‘i so‘rdilarkim, maktabg‘a boribmusen? Dedimkim: borib-

¹ Xondamir, Makorim ul-axloq. – Toshkent: Fan, 1967. 58-bet.

men. Dedilarki, ne yergacha o‘qibsen? Dedimkim, «taborak» surasig‘acha. Dedilarkim: bu jamoa atfoli (bolalari)din biz tilaganda, sen kelib biz bila oshno bo‘ldung. Sening uchun fotiha o‘quli (o‘qiylik) deb o‘z fotihalarig‘a musharraf qildilar. Hamul zamon faqirning validi (otasi) va ul xayl ulug‘lari kelib, Mavlono xizmatida anvoyi niyozmandlig‘lar (iltijo va iltifotlar) qilg‘ondin so‘ngra, faqirg‘a andoq shuur hosil bo‘ldi angakim, «ne kishi erkandurlar».

Navoiy aruz ilmiga bag‘ishlab «Mezon ul-avzon» degan asar ham yozgan. Unda aruz vazning mohiyati, tuzilishi, bu vaznning turlari, juzv va ruknlari, bahrular haqida ma’lumot beradi. Bu asarida *tuyuq*, *qo’shiq*, *chinga* (yor-yor), *muhabbat-noma*, *aruzvoriy*, *turkiy* singari she’riy shakl va janrlar haqida ham ma’lumot beradi.

Xondamir qayd etganiday: «Haqiqatan, ul hazratning she’r nozikliklari to‘g‘risida mahoratlarining ko‘pligi bu risoladan anglanadi. Chunki o‘tmishdagi shoirlar sezgilarining nuri tushmagan bir qancha maqbul bahrni aruz doirasiga qo‘sghanlarki, u qimmatli nusxa mutolaa qilinsa, bu nukta ma’lum bo‘ladi».

Navoiy muammo haqida «Mufradot» nomli bir asar ham yozgan.

Alisher Navoiy yirik va hassos tilshunos olim hamdir. Uning 1498-yilda yaratilgan «Muhokamat ul-lug‘atayn» asari tilshunosligimiz xazinasidagi beba ho gavhardir. Unda alloma adib, o‘z tili bilan aytganda «nazm gulistonining andalibi nag‘masaroyi» sifatida eski o‘zbek tilini, uning badiiy uslubini ilmiy-nazariy jihatdan har tomonlama assosladi, turkiy til imkoniyatlarini amaliy jihatdan isbotlab ko‘rsata oldi.

Alisher Navoiy tilning ijtimoiy hodisa ekanligiga alohida urg‘u qaratadi. O‘zbek tilidagi ifoda imkoniyatlarining boyligini namoyish qiladi. Har bir so‘zdagi ma’no nozikliklarini juda ishonchli tarzda, mantiqiy dalillar bilan ko‘rsatib beradi. U arab, fors, hindiy tillari qatorida o‘zbek tilining ham eng qadimiy tillardan biri ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Fikrlarini qiyoslash usulidan foydalangan holda bayon etadi. Buning uchun u fors-tojik tilini jalb etadi. Biroq biror

o'rinda ham u xolislikdan chekinmaydi. Adib turkiy tildagi yuzta fe'lni keltirib, ularning ma'nosini anglatadigan so'zlarning fors tilida mavjud emasligini ko'rsatadi. Yoki so'z ma'nolari orasidagi tafovutlarga alohida urg'u beradi.

Asarda *yig'lamoq* fe'lining eng baland va doimiy ma'nosi qayd etiladi. Uning yonidagi *yig'lamsinmoq* fe'lida esa ma'noning ozayishi hisobiga yangilanishi aks etadi. *Ingramoq* va *singramak* ham *yig'lash* ma'nosini beradi. Faqat ularda «dard bila yashurun ohista *yig'lamoq*» ma'nosи ustunroq. *Siqtamoq* esa «*yig'lamoqda mubolag'adur*». Turkiylarda «biyik un bila», ya'ni qattiq tovush chiqarib *yig'lash* ham bor. Bunga o'kurmak deyiladi. Adib fikrini davom ettirib shunday yozadi: «Chun o'kurmak muqobalasida forsiy tilda lafz yo'qtur».

Bunday fikrlar keltirilar ekan, adib ularni ko'pincha she'riy misralar vositasida tasdiqlaydigan misollarni ham keltiradi. Jumladan, *qabog'* so'zining ma'nosи ko'z va qoshlar orasini bildirishi bilan izohlanib, bu ma'noni ifodalaydigan alohi-da so'zning fors tilida mavjud emasligini aytarkan, quyidagi baytni dalillovchi misol sifatida keltiradi.

Mengizlari gul-gul, mijalari xor,
Qaboqlari keng-keng, og'izlari tor.

Alisher Navoiy ona tilidagi so'zlarning barcha imkoniyat-laridan imkonи boricha to'liqroq foydalanishga harakat qildi. Zamondoshlari tilidagi faol va nofaol so'zlarni o'z asarlari-ga kiritib, ularning bizning zamonamizgacha yetib kelishi-ni ta'minladi. O'zi ko'plab yangi so'zlarni yaratdi, oldindan qo'llanib kelayotgan so'zlarning yangicha ma'no tovlanishla-rini kashf qildi, tilning ifoda imkoniyatlarini amaliy jihatdan ham juda kengaytirdi.

Olimning sinonimlar, omonimlar, atamashunoslik borasida-gi fikrlari ham qadrlidir. Asarda *it*, *tush*, *yoq*, *bor*, *sog'in*, *tuz* singari so'zlarning bir necha ma'nolarni ifodalay olish imkonini ko'rsatuvchi misollar keltirilgan. Jumladan, *ko'k* so'zining *osmon*, *kuy*, *kuylamoq*, *qadoq*, *sabza* – o't-o'lan ma'nolarida

qo'llanilishi ko'rsatiladi. Ayrim so'zlarning to'rt, besh, olti ma'noda qo'llanishiga misollar keltiradi.

Alisher Navoiy hasso tilshunos sifatida forsiy til amaliyotida turkiy tildan o'tgan so'zlarga ham e'tibor qaratadi. Masa-lan, *tubichoq*, *arg'umoq*, *yaka*, *yobu*, *totu* singari ot turlarini, *dastor*, *qalpoq*, *to'ppi*, *shirdog'*, *yog'lig'* singari bosh kiyimlarini, *qo'rchi*, *suvchi*, *qushchi*, *qo'ruqchi*, *kiyikchi*, *kemachi*, *qo'ychi* singari kasb va hunarlarning nomlarini forsiylar ham turkiycha so'zlar bilan yuritishi ko'rsatiladi.

Shundan so'ng adib «bu xalq orasida paydo bo'lg'on tab' ahli salohiyat va tab'lari o'z tillari turg'och o'zga til bila zohir qilmasa erdi» degan istakni bildiradi. Yana qo'shib qo'yadiki, «agar ikala til bila aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari bila ko'prak aytsalar erdi... agar mubolag'a qilsalar, ikala til bila teng aytsalar erdi».

Garchi asar ona tilining imkoniyatlari va qonuniyatları borasida bahs yuritsa-da, unda adabiyotshunoslilikka oid ko'plab fikr va mulohazalarni ham ko'rish mumkin. Xususan, so'z ma'nolari orasidagi tafovutlar, qofiya, vazn, she'r tuzilishiga oid qaydlar shular jumlasiga kiradi. Unda Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy singari ko'plab buyuk so'z ustalarining ijodlariga oid qaydlar ham mavjud.

Asarda Husayn Boyqaroning turkiy tilga alohida e'tibor bergani, uning rivojini ko'zda tutib maxsus farmonlar chiqargani ham aytib o'tiladi: «Va iltifot va ehtimom¹ yuzidin ba'zi ma'nilar topib, nazm qilurg'a hukmlar ham joriy bo'ldi».

Olim «Sab'at abhur» («Yetti dengiz») nomli bir lug'at ham tuzgan. U arab tilining izohli lug'atidir.

Navoiy 1485–1488-yillarda «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg'ambarlar va hakimlar tarixi») kitobini yozadi. Bu kitobda payg'ambarlar tarixi Odam Atodan boshlab yoritilgan. Ikkinci qism obidlar (Allohga toat-ibodat qiluvchilar), uchinchi qism esa hakimlar haqida. Bu qismda Luqmoni hakim, Fishog'urs (Pifagor), Jomosb, Buqrot (Gippokrat), Suqrot, Jolinus (Galen), Batlimus (Ptolemey), Buzurjmehr va boshqalar

¹ E h t i m o m – g'amxo'rlik, muhofaza qilish, asrab-avaylash.

haqida ma'lumotlar berilgan. Muhimi, ular haqida o'quvchilarda dastlabki tasavvurni uyg'otish uchun ularga xos bo'lgan eng muhim fazilatlar, xususiyatlar sanab o'tiladi.

1488-yilda «Tarixi muluki ajam» («Ajam shohlari tarixi») yaratiladi. Bu asarlar adibning tarix ilmini juda chuqur bilganligining yorqin nishonasi. Unda tarixiy shaxslarning, hakimlarning hikmatlaridan namunalar ham keltiriladi: Buqrot hakim «debturkim, umr qisqadur, ish uzun. Oqil uldurkim, bu qisqa umrni bir nimaga sarf qilg'aykim, zaruratroqdur, ya'ni oxirat maslahati va Tengri taolo rizosi». Yoki, «Aristotilis hakim Aflatunning shogirdidur, Iskandarning vaziri erdi. Aning so'zlaridin budurkim, podshoh ulug' rud (soy, daryo)ga o'xshar va atboi (tobelari, tarafдорлари, izdoshлари) arig'larg'akim, ul ruddin ayrildilarkim, ud rud suyig'a har hol bo'lsa, arig'larg'a hamul holdur. Ul chuchuk bo'lsa, bular chuchuk; ul achig' bo'lsa, bular achig'; ul sof bo'lsa, bular sof; ul loy bo'lsa, bular loy. Pas, podshohg'a vojibdur – g'oyat hikmat va e'tidol (o'rtachalik, yarashiqlilik, to'g'rilik) bila, to mulk barqaror bo'lg'ay. Yo'qki, barchag'a nima bergay bee'tidolliq (nomavzunlik, yarashiqsizlik) bila, to mulk buzulg'ay».

Navoiyning diniy mavzularda qalam tebratgani ham yaxshi ma'lum. «Siroj ul-muslimin» («Musulmonlik chirog'i»), «Arba'in» («Qirq hadis»), «Munojot» («Tavba-tazarru») shular jumlasidan. Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat min shamyim ul-futuvvat» («Ulug'lik xushbo'yliklarini taratuvchi muhabbat shabbodalar») asari tasavvuf tarixiga bag'ishlangan. Bu kitob, aslida, Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds» («Pok zotlar huzuridan esgan do'stlikning xush islari») kitobining erkin tarjimasidir. Bu kitobda tasavvuf tarixi, uning nazariyasi, buyuk so'fiylarning hayoti va faoliyati yoritib berilgan. Xoja Ahmad Yassaviy, Adib Ahmad (Yugnakiy), Shayx Fariduddin Attor, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Shayx Kamol Xo'jandiy, Nosir Xusrav, Mavlono Lutfiy, Mavlono Ashraf, Sayyid Nasimi, Shamsuddin Muhammad Hofiz Sheroziy singari buyuk adiblarning hayoti va ijodiga oid lavhalar ham shu kitobdan o'rin olgan. Kitob tasavvufga

oid hikmatli so‘z va o‘gitlarni ham jamlagan. Ularning ayrim namunalari bilan tanishishimiz mumkin:

«Har bir narsaning zangi bo‘ladi, qalb nurining zangi esa, to‘yib ovqatlanishdir». (*Abu Sulaymon Doroniy*)

«Ign a bila tog‘ni qozmoq takabburni ko‘ngullardin chiqarmoqdin osonroqdur». (*Abuhoshim So‘fiy*)

«Nazm ul-javohir» (*«Gavharlar tizmasi»*) ham axloqiy-didaktik g‘oyalar targ‘ibiga bag‘ishlangan. U ayrim hadisi shariflarning she’riy talqinidir. Unda hadislardagi asosiy tu-shuncha va tamoyillar nihoyatda sodda va tushunarli, ta’sirchan tilda, she’riy shaklda talqin qilinadi.

Navoiy – tarixiy-memuar ruhidagi qator asarlarning ham muallifi. Bu silsilaga «Vaqfiya», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardashev», «Holoti Pahlavon Muhammad» asarlari kiradi.

Alisher Navoiy ichki intizomga muntazam rioxalari qilar edi. Shuning uchun u hatto o‘z maktublarini ham tartib bilan saqlab qo‘ygan. Natijada 1499-yilda «Munshaot» (*«Maktablar»*) degan kitobi tuzilgan edi. Maktublar turli kishilarga yozilgan. Xususan, Husayn Boyqaroning katta o‘g‘li Badiuzzamon mirzoga, o‘g‘ilxoni Mir Ibrohimga yozilgan maktublar yuksak saviyasi, go‘zal badiiyati va katta tarbiyaviy jihatlari bilan e’tiborlidir.

Alisher Navoiy haqida uning zamondoshlari

Abdurahmon Jomiy: «Kel, Jomiy, umr bo‘yi mashaqqat tortib, ko‘nglingdan shu «besh ganj»ni dunyoga chiqarding. Sening bu «Besh»ing (*«Xamsa»ng*) shunday kuchli panja bo‘ldiki, daryokaflar qo‘li buralib ketdi... Biroq har xazina o‘lchovchi (ya’ni yetuk shoir) qalamidan bu o‘tar dunyo «Besh xazina» bilan boyigandir. U «Besh»liklarga sening «Besh»ing qachon tenglashardi? Ularning bir xazinasi sening yuz xazinangdan yaxshidir. Xususan, u panjaki, ganjadan sarpanja urganda Sher kabi o‘z sarpanjasini urdi, turkiy tilda bir ajoyib qo‘sish quyladiki, jodu nafaslilar og‘zi muhrlandi. Bu qalamga falakdan ofarinlar yog‘ilsin! Chunki bu yoqimli naqshni o‘sha qalam yarattdi va forsiy til egalari, forscha

nazm durlarini tuzuvchilarga rahm qildi: u ham shu forsiy tilda yozganda boshqalarga so‘z aytishga majol qolmasdi. Bu mo‘jizakor nazm tarozisi qarshisida Nizomiy kim-u, Xusrav kim bo‘ldi? U boshqa tilda so‘z yuritganidan aqlga oradagi farqni ajratish uchun yo‘l qolmadidi. Ey (Navoiy), sening tab’ing so‘z ustodidir. Qalaming ochqichi bilan so‘z eshigini ochding. Ravnaqdan qolib ketgan va xorlik burchagidan o‘rin olgan (turkiy) so‘zga sen yangidan obro‘ berding. Uni ijod maydoniga olib chiqding. U sening ra‘ying nuridan safoli bo‘ldi, lutfing navosi (boyligi)dan navoli (bahramand) bo‘ldi».

Rashidiy: «U (Alisher Navoiy)ning kelib chiqishi baxshilarga borib taqaladi. Otasini «Kichkina baxshi» deyishgan, u saroyda amaldor bo‘lgan. Mir Alisher bolalikdan Sulton Husayn mirzo bilan do’stlashgan. Sulton Husayn mirzo podshoh bo‘lgach, Alisher Navoiy uning xizmatiga kelgan, mirzo uni behad qadrlab, g‘amxo‘rliklar ko‘rsatgan, Mir Alisher esa xalqqa xuddi shunday g‘amxo‘rlik qilgan».

Hakimshoh Qazviniy: «Hech kim turkiy she’rni undan yaxshiroq ayta olmagan va nazm durlarini undan yaxshiroq socha olmagan».

Xondamir: «874-yilning boshlarida Mirzo Yodgor Muhammad Hasanbek turkman yordami bilan Xurosonni qo‘lga kiritish payiga tushdi. Sulton Sohibqiron (Husayn Boyqaro) esa bir to‘da amir va qo‘sinni dushmanqa qarshi yuborib, ular orqasidan o‘zi ham jo‘nadi. Nusrat nishonli bayroqlar Mash-haddan o‘tganda, dushmanning yaqinlashgan xabari ilg‘or askar boshliqlariga ketma-ket eshitildi. Shu sababdan zafar bayroqli podsho dushman tomonga tezlik bilan harakat qilish xohishini bildirdi. Ammo uning muborak tiliga vaqt belgilash uchun munajjim chaqirilsin degan so‘z keldi. Bu vaqtida ulug‘ martaba egasi va hazrat sultonning yaqin do‘sti (Alisher Navoiy) arz qildiki, munajjim chaqirib, paytning yaxshi-yomonligini hozirda tekshirishning foydasi yo‘q. Chunki payt muvofiq bo‘lsa yo bo‘lmasa ham ishini kechiktirish mumkin emas va tezlik bilan harakat qilish lozim»... Biroz yurilgan dan keyin ishni boshlash uchun otlanib chiqishning maqsadga g‘oyatda muvofiq ekanligi aniq ma’lum bo‘ldi».

«Garchi oliv hazratga o‘zidagi tab’ quvvati va qobiliyati ko‘pligi jihatidan har ikki nav, ya’ni turkiy va forsiy she’rlar muyassar bo‘lsa-da, uning o‘tkir tab’i (ning moyilligi) forsiy-chadan ko‘ra turkiychaga ortiqroq edi».

G‘AZALLAR

«Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur...»

Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur
Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubtur.

Majmu‘i davoni dard qildi,
Dardingki, manga davo bo‘lubtur.

Ishq ichra oning fidosi yuz jon,
Har jonki, sango fido bo‘lubtur.

Begona bo‘lubtur oshnodin,
Begonag‘a oshno bo‘lubtur.

To qildi yuzung havosi jonim,
Yuz sari anga havo bo‘lubtur.

Boqiy topar ulki, bo‘ldi fonyi,
Rahravg‘a baqo fano bo‘lubtur.

To tuzdi Navoyi oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo‘lubtur.

— — V / V — V — / V — —
maf’uvlu / mafoilun / faiylun
Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf

Navoiyning qalami ostidan chiqqan so‘z shunchalik ma’no tovlanishlari bilan namoyon bo‘ladiki, ularni o‘qib hayratingiz ortadi, qalbingiz huzur topadi. «Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur» deb boshlanadigan g‘azaldagi so‘zlar ham shu xilda:

Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur
Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubtur.

Oddiygina ko‘z tasviriga bag‘ishlangan shu misralarda so‘zlarning jilvasini ko‘rish mumkin. Gap birinchi misrada ko‘zning qoraligi haqida, keyingisida shu qoralikdan ko‘ngilga (aniqrog‘i, jonga) tushgan g‘ulg‘ula ustida ketmoqda. «Ne balo», «ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan», «hayrat va taajjub uyg‘otadigan darajada» degan ma’nolarga ega. Keyingi misrada «balo» va «qora» so‘zlarining o‘rnii almashib qo‘llangan. Shu almashish natijasida esa mutlaqo boshqa – yangi ma’no yuzaga chiqqan. «Qaro balo» balolarning haddi a’losidir. Ko‘rinib turibdiki, birinchi misradagi ikki so‘z keyingi misrada o‘rnlari almashingan holda qo‘llanmoqda. Mazkur g‘azal boshdan oyoq shu san’atga tayanadi. Uning nomi tardi aksdir.

Ayni paytda, keyingi «qaro»ning fe’l so‘z turkumiga oid «qara» o‘rnida qo‘llangani ham seziladi (Bunday holatda iyhom san’ati yuzaga keladi). Bunda u «qaragin», «ko‘rgin» ma’nolarini anglatadi («qaragin, jonga balo bo‘lubdi»).

Majmu’i davoni dard qildi,
Dardingki, manga davo bo‘lubtur.

Bu yerda so‘zlarning o‘rnii oddiygina tarzda almashib ke layotgani yo‘q. Bu almashishlar natijasida yangi so‘z o‘yinlari hosil bo‘lmoqda. Dastlabki misrada «davo» va «dard» so‘zları shu ketma-ketlikda qo‘llangan edi. Dard qilmoq, qiyinchilikka ro‘para kelmoq, qiyinchilikni ro‘para qilmoq ma’nolarini beradi. Bunda muayyan qiyinchilikning kuchayishi nazarda tutiladi. «Dard ustiga dard bo‘ldi», «Dard ustiga chipqon» singari iboralarni ham esga olish mumkin. Ularda shu ma’no yanada kuchaytirilgan holda namoyon bo‘ladi. Keyingi misrada ularning o‘rnii almashgan holda kelmoqda. Garchi shaklan «dard» so‘zi o‘zgarishsiz qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, bu yerda u ishq, o‘y, orzu singari ma’nolarni anglatib turibdi.

Ishq ichra oning fidosi yuz jon,
Har jonki, sango fido bo‘lubtur.

Baytda yana so‘z o‘yinlari ko‘zni qamashtiradi. Ayniqsa, «yuz jon» ifodasiga e’tibor bering. U metonimiya sifatida yuzta odam, ya’ni oshiqni anglatadi. Albatta, uning «oshiqning barcha joni» shakli ifodalaydigan ma’nosi ham mavjud.

Begona bo‘lubtur oshnodin,
Begonag‘a oshno bo‘lubtur.

Mumtoz adabiyotdagi ma’shuqa qahri qattiqligi va vafo-sizligi bilan «mashhur». Baytda shu ma’noga urg‘u berilgan. Ular ham yana o‘sha so‘zlarning o‘rnini almashtirish evaziga hosil qilingan.

To qildi yuzung havosi jonim,
Yuz sari anga havo bo‘lubtur.

Birinchi misra ma’shuqa ishqiga mubtalolik dardining e’tirofidan iborat. Buning uchun «yuzung havosi» ifodasi imkon bergen. Ayni paytda u «yuzungning havasi» tarzida ham tushunilishi mumkin. Keyingi misrada esa «yuz»ning «havo» so‘zidan oldinga o‘tkazilishi bilan yangi-yangi ma’nolar paydo bo‘lgan. Unda «yorning yuzi tomon», «yanada» («borgan sari» degan ifodani eslang) kabi ma’nolar ko‘zga tashlanadi.

Boqiy topar ulki, bo‘ldi foni,
Rahravg‘a baqo fano bo‘lubtur.

Endi gal zid ma’noli so‘zlarni qo‘llashga keladi. «Boqiy» va «foni» so‘zлari sof tasavvufiy ma’noga ega. Moddiy dunyo orzu havasidan ustun kelsagina, inson haqiqiy olam sirlarini anglash imkoniga ega bo‘ladi. Bu yerdagi «rahrav» obrazni ham e’tiborlidir. U «yo‘l yuruvchi», ya’ni «solik» demakdir. Solikning asl maqsadi baqo-boqiylik, mangulikdir. Mangulik esa fanoda, ya’ni yo‘qlikdadir. Bu, albatta, moddiy olam hoyu havaslarini emas, ma’naviyatning o‘ziga xos qadriyatlarini nazarda tutadi.

To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo‘lubtur.

Yakunlovchi bayt ham tardi aksni saqlab qolgan. Endi navo va ishq so‘zlariga urg‘u beriladi. Keyingi misradagi so‘zlarning ma’no tovlanishi diqqatga sazovor. «Ishq ahli aro navo bo‘lubtur» degandagi «navo» ko‘p ma’noli. Uning «ovoza», «shon-shuhrat», «boylik», «navo bo‘lmoq» – ovozasi yoyilmoq, «Navo» kuyi vositasida kuylamoq» singari ma’nolari ko‘zga tashlanadi.

«Meni men istagan...»

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand¹ etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum pisand etmas.

Ne baha topqamen andinki, mendin istagay baha,
Chu ulkim, bahrayı andin tilarmen, bahramand etmas.

Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo hayotimg‘a
Ayon ul zahr chashm² aylab, nihon bu no‘shxand³ etmas.

Kerakmas oy ila kun shaklikim, husn-u malohatdin
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Kerak o‘z chobuki qotilvashi Majnunshiorimkim,
Buzug‘ ko‘nglumdin o‘zga yerda javloni samand⁴ etmas.

Ko‘ngul uz charx zolidin, firibin yemakim, oxir
Ajal sarishtasidin o‘zga bo‘ynung‘a kamand etmas.

Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko‘z,
Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand⁵ etmas.

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun
Hazaji musammani solim

¹ Arjumand – aziz, izzatli, qadrli.

² Chashm – ko‘z.

³ No‘shxand – shirin va chiroqli kulgi.

⁴ Samand – saman ot, tezyurar va chiroqli ot.

⁵ Sipand – isiriq, isiriq urug‘i.

Ushbu g‘azal «Badoye’ ul-vasat» devoniga kiritilgan bo‘lib, Navoiyning falsafiy-didaktik qarashlarini ancha yorqin ifodalashi bilan ajralib turadi. Olam turfa hodisotlarga boy. Shulardan biri kishi ko‘nglining nozikligi bilan bog‘liq. Jumladan, hammaga hamma har doim yoqavermaydi, ma’qul kelavermaydi.

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum pisand etmas.

Navoiy nihoyatda hayotiy muammoni, yechimi og‘ir, qiyin masalalarni kun tartibiga qo‘yar ekan, ularning poetik ifodasi ni juda sodda va yengil tarzda hal qiladi. Mazkur baytda biz so‘zlar takrori zimmasidagi vazifalarni ko‘rib turibmiz. Baytda «men» olmoshi uch marta, «istamoq» fe‘li ikki marta, ot so‘z turkumidagi «suhbat» ikki marta, «etmas» yordamchi fe‘li ikki marta qo‘llangan. Ammo bu yerda so‘zlar takrori emas, balki ma’nolarning ajoyib tovlanishi kishini mahliyo etadi. So‘zlar takrori ma’nolar jilvasinig yuzaga chiqishi uchun imkon hozirlab beradi. A hamda *i* unlilarining faolligi, radifning ishtiroki bayt ohangdorligiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib turibdi.

Nega kishi o‘ziga ma’qul kishilar bilan hamsuhbat bo‘lish uchun ham ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishi kerak? Buning sabablari ko‘p. Shulardan biri, inson o‘ziga ma’naviy oziq berishi mumkin bo‘lganlarga intiladi. Ammo intiltiruvchining imkoniyatlari intiluvchi istagan darajada bo‘lmasligi mumkin:

Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahrayi andin tilarmen, bahramand etmas.

Boshqalarga bahra yetkazish imkoniga ega bo‘lmagan kishiga ko‘z tutish o‘rinli bo‘lmaydi, imkonи borning esa menga nisbatan rag‘bati mavjud emas, demoqda shoir. So‘zlar takrori bu yerda ham asosiy mavqeni egallab turibdi.

Shunga ko‘ra, lirik qahramonni hur-u parilarning bazmlari ham o‘ziga tortmaydi, qiziqtirmaydi.

وَلَمْ يَضْعَ

ای قلپ نشکنندی احتی صحرایی سیده یوزین فنا دایم جون کی شیده اصیه	یوق گنبد هادا دایم جونی خود صیده عابد
طرف بود رکم قلپ شیرین پالایا صیه چن ایلا غانی صیدلی لبک شیرین آیی صیه	و د بونی صیاد لبک و در کم پارکم بر رارا
بللم قرقی پایان بشته تاغقا صیه یوز تو مان قری طولکش خنچ ای صیه	کو کوز روی نام زلف دار خال المان
او آن و دلکش اول طا و دیز من آیی پلایا صیاد قاتیج ملایل ملکان بو لور	دام لعنی سن پر چپ ته عاق پر قلپ

وَزْ وَارِدَاتِهِ

یوق گنجای پل داول جوشمه هرسون در کجا هری خ دیوق لکیعه لطاف سریلار الماعت	بول پس هر سوز در کا حاول هم بولو رو قلکا
طرف آن کیم قلپ ب عالمی جایم دشنی شک دیکا پت تر ب لو غوسید و باره لاری	کیم خلایق طانیه حصه ایلا کانه ای پس
د و پستون اهلی بر عالم پاس المانی جد سرقا جایی آیله ایخی بول میت	دو پستون اهلی بر عالم پاس المانی جد

Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo hayotimg‘a
Ayon ul zahr chashm aylab, nihon bu no‘shxand etmas.

Bu yerda jam’u taqsim degan she’riy san’atning san’atkorona tatbiqi ko‘zga tashlanadi. U «hur-u pari» so‘zları hamda «ul» va «bu» olmoshlari ishtirotkida sodir bo‘lmoqda. Olmoshlar ularning barchasiga ham daxldor. Buni shunday ifodala-shimiz ham mumkin:

Ayon ul (hur) zahr chashm aylab,
nihon bu (pari) no‘shxand etmas.

Yoki:

Ayon ul (pari) zahr chashm aylab,
nihon bu (hur) no‘shxand etmas.

Ayni paytda «qatlim yo hayotimg‘a»ning hurga ham, pari-ga ham bir xil darajada aloqadorligini e’tirof etish joiz.

Jam’u taqsim san’ati navbatdagi bayt uchun ham xosdir.

Kerakmas oy ila kun shaklikim, husn-u malohatdin
Ichim ul choc-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Bu yerda istiora, jam’u taqsim, ta’did va takroriy so‘zlar shoir ko‘zda tutgan ma’nolarning yuzaga chiqishida asosiy vosita vazifasini ado etmoqda.

Demak, hozirgacha mavjud sharoit va shaxslar orasida munosib do‘sit topilmadi. Yoki bunday do‘sning o‘zi yo‘qmi? Bunday emas, bunday shaxs bor. U – yordir. Ammo u ham ancha-muncha «xislatlarga» ega. Xususan, u qotilvash, maj-nunshior, shuning uchun ham uning joyi lirik qahramonning «buzug‘ ko‘ngli»dir:

Kerak o‘z chobuki qotilvashi majnunshiorimkim,
Buzug‘ ko‘nglumdin o‘zga yerda javloni samand etmas.

Bularning barchasi ko‘ngil tufayli sodir bo‘ladi.

Ko‘ngul uz charx zolidin, firibin yema kim, oxir
Ajal sarishtasidin o‘zga bo‘ynung‘a kamand etmas.

Kunlardan bir kun yorning iliq mehr ko'rsatib qolishi ehtimoli («Ul oy o'tlug' yuzin ochsa») ham yo'q emas. Ana shunda ko'z tegmasligi uchun lirik qaramon isiriq solishga tayyor. Ammo bu isiriq donachalari muhabbat urug'lari bo'lishi shart:

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.

Ushbu g'azal faqat mazmuni bilangina emas, balki shu mazmunga xos va muvofiq bo'lgan shakliy jihatlari, tasvir vositalari bilan ham e'tiborga molik. Xuddi shuning uchun ham mazkur g'azal hozir ham barchamizning e'tiborimizni tortadi, ko'ngillarga zavq-u huzur beraveradi.

«Ey sabo...»

Ey sabo¹, holim borib sarvi xiromonimg'a² ayt,
Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a³ ayt.

Buki aning ahd-u paymonida men o'lsam dag'i⁴
Yaxshi fursat topsang, ul bad⁵ ahd-u paymonimg'a ayt.

Buki aning zulfi⁶ zunnorida⁷ dinim hosili
Kufr⁸ ila bo'lmish mubaddal⁹, nomusulmonimg'a ayt.

¹ S a b o – mayin, yoqimli, sahar paytida esadigan shabada.

² Sarvi xiromon – sарв – to'g'ri, tik o'sadigan, qishin-yozin ko'karib turadigan, hidi va ko'rinishi yoqimli bo'lgan daraxt; xiromon – o'zini har tomonga tashlab noz bilan yuruvchi; ko'chma ma'noda go'zal yurishli nozanin, ma'shuqa.

³ Gul bargi xandon – ochilib turgan atirgul; ko'chma ma'noda shod-xurram yuruvchi ma'shuqa

⁴ D a g' i – yana, tag'in; ham, hamda.

⁵ B a d – yomon.

⁶ Z u l f – soch, soch o'rimi.

⁷ Z u n n o r – but, sanam; xristian diniga mansub bo'lganlarning beliga bog'lanadigan chilviri, belbog'i; zulfi zunnor – ko'chma ma'noda ma'shuqaning soch o'rimlari.

⁸ K u f r – kofirlilik, islomni tanimaslik.

⁹ M u b a d d a l – almashingan, o'zgartirilgan.

Buki qilmishmen jahon-u jonni aning sadqasi,
Yuz tuman jon-u jahondin yaxshi jononimg‘a ayt.

Buki yuz jon sadqasi qilsam pushaymon bo‘lmag‘um,
Vaslig‘a bir va’da qilg‘andin pushaymonimg‘a ayt.

Buki yuz ming fitnako‘zluk bo‘lsa paydo onsizin¹,
Qilmag‘um nazzora² hargiz ko‘zi fattonimg‘a³ ayt.

Buki chok aylab yoqa, usruk⁴ chiqar el qasdig‘a,
Men o‘lub el jon topar, beboki⁵ nodonimg‘a ayt.

Dahr bog‘i⁶ gullari husnin vafosiz erkanin,
Yuzi gul, jismi suman⁷, ko‘yi⁸ gulistonimg‘a ayt.

Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo
Bulbuli yo‘q erkanin shohi sxandonimg‘a⁹ ayt.

– V – – / – V – – / – V – – / – V –
foilotun / foilotun / foilotun / foilon
Ramali musammani maqsur

Alisher Navoiyning «Ey sabo, ...» g‘azalida bir qarashda oshiqning dil izhoriga oid tuyg‘ular ifodasi aks etayotganday ko‘rinsa-da, aslida, obyektiv voqelikka bo‘lgan estetik munosabat ifodasi bosh o‘rinda turaganligini payqash qiyin emas. Oshiq saboga murojaat qiladi:

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt.

¹ Onsiz – usiz, uning yo‘qligida.

² Nazzora – qarash, nazar tashlash, ko‘z solish.

³ Fatton – fitna qiluvchi, maftunkor.

⁴ Usruk – mast, sarkush.

⁵ Bebok – qo‘rqmaydigan, hayiqmaydigan, tortinmaydigan; hayosiz, parvosiz, bevosh.

⁶ Dahr – dunyo, olam, zamon, davr; dahr bog‘i – ko‘chma ma’noda olam, dunyo, tabiat.

⁷ Suman – yasmin so‘zining qissqargani: oq, sariq rangli xush isli gul.

⁸ Ko‘y – ko‘cha, yo‘l; qishloq, mahalla.

⁹ Suxandon – so‘z ustasi, go‘zal va o‘rinli so‘zlashni uddalay oladigan.

Saboden kutilayotgan iltifot bitta: oshiqning holatini, chekayotgan iztiroblarini ma'shuqaga yetkazish. Ammo ma'shuqa oddiyalar qatorida turmaydi. Uning birinchi belgisi – «sarvi xiromon»ligida. Oshiqning «holi» uning «yig'larimning shiddati» ifodasida ochiq ko'rsatilgan. Ma'shuqa – «gulbargi xandon» sifatida buni anglasa, oshiq ko'ngli tasalli topadi.

Yorning ezgu xislatlar bilan yodga olinishi tasodifiy emas. Buning real asoslari bor. Eng muhimi, dastlab yorning o'zi ham oshiqqa beparvo va loqayd munosabatda bo'lgan emas, balki ahd-u paymon qilishga imkon yaratgan. Faqat bugun bu ahddan qaytgan holda namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun ham yor «bad ahd-u paymon» sifatiga «musharraf» bo'lgan:

Buki aning ahd-u paymonida men o'lsam dag'i

Yaxshi fursat topsang, ul bad ahd-u paymonimg'a ayt.

Yorning-ku ahd-u paymondan qaytganligi aniq. Oshiqda o'lmaidan boshqa imkon yo'q. Bu xabarni yorga yetkazish lozim bo'ladi. Saboning yelkasiga yuklanayotgan vazifalardan biri ham shu. Ammo buni bajarish uchun istagan harakatni qilish mumkin emas. Buning uchun tegishli fursat topilishi kerak. Bu fursatning esa, albatta, «yaxshi» bo'lishi shartdir. Shundagina yomon («bad») ahd-u paymon egasining ko'ngliga ozor yetmaydi. Shaxs kayfiyatidagi foje holatning bunday tiniq ifodasi, albatta, o'quvchiga ta'sirsiz qolmaydi.

Buki aning zulfi zunnorida dinim hosili

Kufr ila bo'l mish mubaddal, nomusulmonimg'a ayt.

Ya'ni «Ey sabo, yorning zulfi zunnorida dinim hosili kufriga almashganini nomusulmonimga ayt». Oshiq aytmochchiki, yor ko'yida men beliga zunnor bog'lab but (xoch)ga topinuvchi (nasroniy)lar kabi ishlar qilgani bois savoblarim kufr (noshar'iy ish)ga aylandi. Mazkur bayt irfoniy ma'nolarga ham ega.

Baribir, ma'shuqa uchun oshiqning joni ham, jahoni ham sadaqa bo'ladi. Zero, oshiq uchun ma'shuqadan ko'ra «yaxshi jonon» mavjud emas:

Buki qilmishmen jahon-u jonni aning sadqasi,
Yuz tuman jon-u jahondin yaxshi jononimg‘a ayt.

Oshiqning dil iztiroblari so‘ngsiz, adoqsiz. U ma’shuqa uchun «yuz jon sadqa» qilsa ham achinmaydi, pushaymon bo‘lmaydi. Ammo yorning subutsizligi, so‘zining ustidan chiqmasligi unga aziyat yetkazadi, pushaymonliklar beradi:

Buki yuz jon sadqasi qilsam pushaymon bo‘lmag‘um,
Vaslig‘a bir va’da qilg‘andin pushaymonimg‘a ayt.

Mazkur g‘azaldagi oshiq mumtoz adabiyotimizdagи boshqa oshiqlar bilan bir nuqtada hamfikr va o‘xhash: u o‘z yordan boshqa go‘zallarni tan olmaydi. Buning sababi ham yana yorning o‘zi – u go‘zallikda tengsiz, qiyossiz:

Buki yuz ming fitnako‘zlug bo‘lsa paydo onsizin,
Qilmag‘um nazzora hargiz ko‘zi fattonimg‘a ayt.

Ko‘z tasviri keyingi baytda yana davom etadi. Endi u an‘anaviy tarzda «usruk» deyiladi. Bu suzilgan ko‘zning poetik ifodasi. Aslida, u lug‘aviy jihatdan «mast, sарxush» ma’nosiga ega. Bu ko‘z egasi «el qasdiga», demakki, boshqaga qaragan ko‘zdir. Oshiq uchun ham eng iztirobli jihat shu: bu usruk ko‘zning oshiqqa emas, boshqalarga – «el»ga qarashidir:

Buki chok aylab yoqa, usruk chiqar el qasdig‘a,
Men o‘lub el jon topar, beboki nodonimg‘a ayt.

Ma’shuqaning sharofati bilan oshiq, o‘z nazarida, «jon topishi», ya’ni hayot ma’nosini bilishga intilishi, hayot shodliklaridan, zavq-u sururidan bahra topishi lozim edi. Amalda bunday bo‘lib chiqmadi. «Men o‘lub el jon topar» degan ifoda «beboki nodon» ma’shuqani «fosh etish»ga qaratilgan. Ammo bu yerda tahdid ham, tahqir ham yo‘q. Faqat, yumshoqqina e’tiroz mavjud, xolos. Bu yumshoqlik va, ta’bir joiz bo‘lsa, oshiqning ma’shuqa oldidagi erkaligi -im egalik qo‘shimchasining ishtiroki bilan yanada ta’kidlanibroq yuzaga chiqmoqda.

Ma'shuqani insofga chaqirish mumkin. Shunday yo'llardan biri umrning o'tkinchi ekanligini, husnning abadiy qolmasligini eslatish. Buning uchun olamdag'i, tabiatdag'i boshqa bir hodisalar esga olinadi, qiyoslanadi:

Dahr bog'i gullari husnin vafosiz erkanin,
Yuzi gul, jismi suman, ko'yi gulistonimg'a ayt.

Bu yerda «dahr bog'i gullari»ning ham o'z, ham ko'chma ma'noda qo'llanganini qayd etish kerak. U o'z ma'nosida olamdag'i gul – o'simliklarni anglatadi hamda ularning go'zalligi muvaqqatligini ta'kidlashga xizmat qiladi. Ko'chma ma'noda esa u go'zallarni, umuman, tirik jonlarning barchasini ham anglatayotgani ko'rinish turibdi.

Nihoyat, oshiq ko'ngil yorning ta'rifini yana bir pog'onaga ko'taradi. Endi u «shohi suxandon» sifatida ta'riflanadi. Birinchi marotaba shu o'rinda oshiq ham o'zining asl qiyofasini oshkor etishga jazm etadi, o'zining «xushnavo bulbul» ekanligini bildirib o'tishni lozim topadi:

Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo
Bulbuli yo'q erkanin shohi suxandonimg'a ayt.

Ushbu g'azalda qo'llangan so'zlar oshiq va ma'shuqa holatining o'ziga xosligi va darajasini baholashning mezoni bo'lib xizmat qilmoqda. Bu yerda ma'shuqaning oshiq uchun naqadar aziz va qadrli ekanligi obrazli tarzda aks etgan.

QIT'ALAR

Qit'a Navoiy lirikasida alohida mavqega ega bo'lган janrlardan biridir. U shakliga ko'ra g'azalga yaqin turadi. Undan faqat dastlabki bayt qofiyasining erkinligi bilan farqlanadi. Uning qofiyalanish tartibi $a : a, d : a, e : a, f : a, \dots$ ko'rinishida bo'ladi. Odatda, qit'aning eng kichik shakli ikki baytdan iborat bo'ladi. Qit'aga aniq chegara qo'yilmagan. U ko'proq falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma'naviy masalalar-

ni tilga olishi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, mumtoz ada-biyotda ayrim janrlar (masalan, ruboiy, tuyuq) uchun qat'iy vaznlar belgilab qo'yilgan. Qit'a bu jihatdan ham erkindir. U aruzning istalgan vaznida yaratilishi mumkin.

Haq taolo xoni in'omi-yu karami omi borida o'zgadin nima tilagonning tamayi xomi-yu zoti nofarjomni

Tengri xonin ochuq aqida qilib,
Xalqdin ro'ziy istagan gumroh
Uyladurkim tengiz qirog'inda
Ro'za ochmoqqa kimsa qozg'oy choh.

Eng avval sarlavha mohiyatini anglab olishga harakat qilamiz. Uni «yaratganning dasturxoni tuhfalari-yu umumiylar, bar-chaga barobar karami bo'la turib, boshqa (kishi)lardan biror narsa tilagan (kishi)ning xom tamasi-yu oxiri yaxshilik bilan tugamagan zoti» haqida deb tabdil qilishimiz mumkin. Demak, qit'a ayrim bandalarning noshukurligi hamda behuda ta'magirligi haqida.

Qit'a mazmunini aniqroq tasavvur etish uchun har bir misra, har bir so'z ustida bosh qotirishga to'g'ri keladi. Bir qarashda unda begona, notanish va tushunarsiz so'z yo'qqa o'xshaydi. Ammo Navoiy qo'llagan so'zlarning barchasi ham lug'atlardagi izohlar doirasiga sig'avermasligini, qolaversa, she'riyatda so'zlarning o'z lug'aviy ma'nolaridan ko'ra ancha kengroq mazmun qamroviga ega bo'lishini ham nazarda tutish lozim bo'ladi.

Agar shu nuqtayi nazardan «aqida» so'ziga e'tibor qarat-sak, uning «ishonch», «e'tiqod», «ixlos»; «tushuncha», «fikr», «bilim» ma'nolariga egaligi ma'lum bo'ladi. O'z-o'zidan «aqi-da qilmoq» ham «ishonch hosil qilmoq», «e'tiqodli bo'lmoq» ma'nolarini mujassamlashtiradi. Shu ma'nolarnigina nazarda tutib birinchi baytni o'qisak, ma'noning yaxlit va butun tasavvur qilish qiyinroq ekanligi ayonlashadi. Agar iboraning «gu-mon qilmoq» ma'nosiga ham egaligini e'tiborga olsak, vaziyat o'zgaradi. «Olloh dasturxonining har doim ochiqligiga gumon

keltirib (ya'niki, yaratganning har doim marhamatli ekanligiga shubhalanib)» tarzidagi talqin mazkur misraning keyingi misra bilan uzviy yaxlitligini ko'z oldimizga keltirishga ko'maklashadi. Ya'ni haqning marhamatiga emas, balki o'z rizq-u ro'zi o'rniga xalq (boshqa bir inson)ning qo'li bilan beradigan narsalariga umidvor bo'lgan, ta'magir, yo'lini yo'qotgan odam («gumroh») obrazini tasavvur qilish qiyin kechmaydi.

Ana shunday yaramas qiyofali kimsani kitobxonning ko'z oldiga yanada aniqroq keltirishi uchun bir qiyos tavsiya etiladi, uning o'xhashi ko'rsatiladi: dengizning qirg'og'ida bo'la turib, og'iz ochish uchun lozim bo'ladigan suvni topishga intilayotgan, shu miqdordagi suvni topish ilinjida ayni mana shu yerdan quduq qaziyotgan odam timsoli shu vazifani ado etadi.

Uning gumrohligi shu darajadaki, o'zi dengiz qirg'og'ida turibdi, ya'ni yaratganning dasturxonni uning uchun ochiq. Buni Allohning chek-u chegara bilmaydigan inoyati, shafqat va marhamati sifatida tushunmoq joiz ko'rindi. Agar u yo'lini yo'qotgan bo'lmasa, oyog'i ostidagi shuncha narsalarni ko'rmasdan, ularga shukronalar qilmasdan o'tib ketarmidi?!

Uning ustiga qit'ada bilinar-bilinmas kinoya ham mavjud: ro'zadorning og'zini ochishi uchun qancha suv kerak bo'лади? Bu bir tomondan, ikkinchidan esa, ro'zador bo'la turib shunchalik og'ir va mashaaqqatli, buning ustiga keraksiz ishga mashg'ul bo'lish oqil-u donolikka kiradimi? Faqat va faqat gumroh – yo'lini tom ma'noda yo'qotgan bechoragina shunday qilishi mumkin.

Qit'aning go'zal shakli, teran ma'nosи, mutafakkir adib qalamidan chiqqan ifoda yo'sini kishini o'y va mushohadaga chorlaydi. Bu o'y va mushohadalarning esa yanada yangi va munosib kuzatish va xulosalar sari yetaklashi shubhasizdir.

Saxo-vu buxl bobida nukta surmak va arolarida ikki vosita kelturmak

Debon bergen kishi erdur, va lekin
Demay berganga erlik bil musallam.

Ne deb, ne bersa bilgil ani xotun,
Debon bermasni xotundin dag‘i kam.

Bu yerda ham sarlavha asar haqidagi tasavvurlar uchun asos vazifasini ado etadi. Qit‘a mavzusi sarlavhada o‘z aksini topgan. Unda gap «saxo» va «buxl» haqida boradi. «Saxo» – saxovat, saxiylik, qo‘li ochiqlikni, «buxl» esa baxillik, xasislik, qurumsoqlikni anglatadi. Shu yerda «musallam» so‘ziga ham izoh berish zarurati bor. U qarshilik qilmay, inkor etmay ma’qullangan degan ma’noni bildiradi. Demak, muddao qo‘li ochiqlik va qurumsoqlik haqida mulohaza yuritishdan iborat.

Adib ikki xil xususiyatga ikki xil asos (vosita, ya’ni sabab) ni keltiradi. Ulardan birinchisi – saxovat. Dastlabki ikki misra shu fazilat tavsifi uchun xizmat qiladi.

Agar kishi bir so‘zni aytsa, so‘ng unga amal qilsa, masalan, boshqalarga biror narsani berish haqidagi so‘zining ustidan chiqsa uni haqiqiy er, erkak deyish mumkin. Bu misrada xalqimizning ma’naviy bisotidagi «Yigit so‘zidan qaytmas, arslon izidan» maqolining mazmuni mujassamlashgan. Agar mulohaza shu bilan tugasa, albatta, katta bir poetik kashfiyot haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi. Shuning uchun ham Navoiy avval shu misrani keltiradi, keyingi misrada undan-da kuchliroq va muhimroq mulohazani o‘rtaga chiqaradi («Demay berganga erlik bil musallam»). Demak, aytmasdan (yoki ayttirmasdan) turib berish imkoniyati ham mavjud. Ali-sher Navoiy ayni mana shu imkoniyat haqida gapirmoqchi.

Muhtoj odamning biror narsa umidida kelganida, uning ehtiyojini qondirishning o‘zi ham insoniylik taomiliga to‘la mos va muvofiq keladi. Ammo muhtojning muhtojligini bila turib (eng muhimi, yordam berish imkoniyatiga ega bo‘lib turib), unga nisbatan beparvo va loqayd bo‘lish ham bor. Adib masalaning bu tomoniga daxl qilayotgani yo‘q. Aksincha, bu boradagi saxovat uchun yana bir boshqa imkoniyatni esga olmoqda. Muhtoj kishi so‘ramasdan turib ham unga mol beradiganlar bor. Adib mana shu toifa haqida gapirmoqchi. Ular esa haqiqiy mard, haqiqiy saxovat egalaridir.

Qit’aning birinchi qismi shu bilan yakunlanadi. Demak, endi gap sarlavhada va’da berilgan ikkinchi qism ustida boshishi kerak. Xuddi shunday bo’ladi ham.

Jamiyat ahli orasida biror himmat ko’rsatishdan oldin uni ta’kidlab, urg’ulab, «yaxshiligin pesh qilib» ko’rsatadiganlar ham topiladi. Alisher Navoiy nazarida bu xususiyat maqtovga loyiq emas. U qoralanishi kerak. Shunga ko’ra, bu toifaga mansublarni erkaklar qatorida sanab bo’lmaydi. Ular ayollar qatorida sanalishga mahkumdir. Lekin bu ham hali hammasi emas ekan. Bundan ham pastkashroq toifalar mavjud: ular aytadilar-u, lekin bermaydilar, ya’ni va’da berishadi-yu, briroq ishlari va’dalariga xilof bo’ladi. Ularni xotindan ham pastroq darajada baholash maqsadga muvofiq bo’ladi. Har holda xalqimizda «xotindan xarob», «xotindan ham xarob» degan ifodalar bejiz paydo bo’lmagan ekan. Buning zamirida ayol kishini yerga urish ma’nosи yo’q, aksincha, erkak (yigit) kishining bir so’zli, mard bo’lishiga undov turibdi, xolos.

Mazkur qit’aning hajmi to’rt misradan iborat. Qit’aning har bir misrasi bitta mulohaza ifodasiga bag’ishlangan. Ammo gap qo’ylgan masalaning axloqiy-ma’naviy jihatlarigina emas, balki mana shu dolzarb va jiddiy mavzuning go’zal badiiy ifoda tarzi ustida ham bormoqda. «Demoq» so’zining barcha misralarda ishtirok etishi iltizomni yuzaga keltirgan. «Ilitzom» – bir so’zning ketma-ket kelgan bir necha misra yoki baytlarda ongli ravishda takrorlanishiga asoslanadi.

Uchta misraning bir xil tovush bilan boshlanishi alliteratsiyani hosil qiladi. Uning asosiy vazifasi bir xildagi tovushlar vositasida ohangdorlikni kuchaytirishdan iborat. *D* tovushining birinchi, ikkinchi hamda to’rtinchi misralar boshida takrorlanib kelishi qofiya va vazn tufayli hosil bo’lgan ohangdorlikni kuchaytirishga xizmat qilgan. «Debon» bilan «demay»; «demoq» bilan «bermoq» ma’nolariga ko’ra matn ichidagi mazmuniy ziddiyatni hosil qilmoqda. Bularning barchasi Hazrat Navoiy ko’zda tutgan ma’nolarning chiroyli va ta’sirchan tarzda shakllanishiga imkon tug’dirgan. Demak, bu qit’aning hozirgacha ham elimiz ardog’ida yashab kelayotgani bejiz emas ekan.

UI boddakim jahon ahli bevafodur va alardin vafo ko‘z tutmoq xatodur

Alisher Navoiyning qit’alarida g‘azalchilikdagi an’analar-ning yangi bir janr imkoniyati doirasidagi davomini ko‘rish mumkin. Adib qit’alarining mavzu doirasi nihoyatda rang-barang. Adib bu yerda ham falsafiy, ijtimoiy, ma’naviy, axloq va odob yo‘nalishlariga ustuvorlik beradi. Qit’alardan biriga «UI boddakim jahon ahli bevafodur va alardin vafo ko‘z tutmoq xatodur» sarlavhasi berilgan.

Qit’ a matni quyidagicha:


Agar oqil esang, uzgil jahon ahlidin ulfatkim,
Alardin juz jafo kelmas, agar yuz yil vafo qilsang.

Biriga yuz Xito mulki xirojin aylasang isor,
Xatosiz qasdi joning qilg‘usidur, gar xato qilsang.

Ko‘rinadiki, sarlavha matn mazmuni bilan nihoyatda uyg‘un. She’rning hajmi ham ixcham; bor-yo‘g‘i to‘rt misradan tashkil topgan. Tegishli talablarga ko‘ra, mazkur ikki baytning toq misralari ochiq qolgan hamda juft misralari o‘zaro qofiyangan. Qofiyada «vafo» hamda «xato» so‘zlari ishtirot etgan. Bu qofiyalar radif («qilsang») bilan birga qo‘llangan. Agar radiflarda takrorlanayotgan so‘zning poetik mantiqni ta’kidlash vazifasiga egaligini nazarga oladigan bo‘lsak, shoirning mud-daosini anglesh oson kechadi.

Albatta, she’rning inson hayotidagi oniy lahzalarning has-sos ko‘ngillarga yetkazadigan beado zarblari, hayajon va iz-tiroblarining o‘ziga xos ifodalari, aks-sadolari ekanligi ham bor haqiqat. Ammo har qanday oniy lahzalar emas, balki inson qalbiga muntazam huzur yoki og‘riq berib turadigan hodisalarning favqulodda holatlardagi kuchli ta’sirigina shunday tuyg‘ular po‘rtanasiga sabab bo‘lishi mumkin.

Eng avvalo, she’rning mavjud ijtimoiy muhitdagи alohida kishilarga mo‘ljallanganini e’tirof etish kerak. Bunday mo‘ljal tasodifiy emas. Gap olam va undagi odamlar ustida bormoqda.



Kitobxona. Alisher Navoiy «Devon»iga ishlangan miniatyura

Bu olamdagi odamlarning aksariyati bir xil xususiyatga ega. Ularni farqlash, ajratish uchun esa insondan boshqacharoq xislat va fazilatlar talab etiladi. Mutafakkir adabining nazarida bu «oqillik» bilan belgilanadi. Mutafakkir nazarida bu narsa «oqillik» sifati bilan belgilanadi. «Oqil» so‘zining kelib chi-qishi «aql» bilan aloqador. Demak, uni «aql egasi», «aqli bor» deb tushunishimiz mumkin. Shuning uchun ham adib aynan mana shu toifadagi kishilarga murojaat etayotir.

Albatta, qit’ada shoirning o‘ziga xos bir kayfiyati, ozurda qalbning iztirob chekayotgan lahzalari aks etgan. Shuning uchun ham u ko‘ngilga ozor yetkazadigan ulfatlarning biri yoki ko‘prog’i tufayli barchadan ham ko‘ngli qolgan holatni tasvirga tortgan. Jahon ahli bilan ulfatchilikdan ko‘ngil uzish kerakligi haqidagi xulosa jiddiy, qat’iy va shafqatsiz bir tus olgan.

Muayyan fikr va mulohaza tegishli tasdiq va asosga ega bo‘lmas ekan, unga ishonish qiyin. Buni yaxshi bilgan shoir shu yerning o‘zidayoq «dalil»ini ham keltiradi: «Alardin juz jafo kelmas, agar yuz yil vafo qilsang». «Juz» – «bo‘lak», «boshqa» degani, shunda misra mazmunini «yuz yil vafo qilganingda ham ulardan jafodan boshqa narsani ko‘rmaysan» degan hukmni ifodalayotgani oshkor bo‘ladi. Dalilning kuchi shoirning o‘zi uchun pastroq ko‘rinadi.

Eng yomoni, bu toifadagi zotlar yolg‘iz emas. Matnda uchinchi shaxs ko‘plikdagi olmoshning qo‘llanayotgani bejiz emas.

Shuning uchun uni yana bir pog‘ona yuqoriga ko‘taradi: ularning ko‘nglini olish uchun bisotingdagi ayrim narsalarni berish bilan cheklanish mumkin emas, undan rozi bo‘lishmaydi. Bu haqda gapirib o‘tirishning o‘zi ortiqcha. Adibning taklifi esa ularning faqat bittasiga «yuz Xito mulki»ning xirojini «isor ayla»mak. Ajabmaski, bunday peshkashlar bir emas, yuz, ming marta ham bo‘lgandir. Matndan ularning ko‘pligi, ularning har biriga shunday peshkashlar, sovg‘a va tuhfalar qilinganini ilg‘ash mumkin. Ammo natija har doim bir xil bo‘lgan, ya’ni ularning asl muddaosi kishiga ozor

berishdan, uni qiyashdan, hatto «qasdi jon qilish»dan iborat, xolos. Bularning barchasi hali sen ularga yaxshilik va vafo qoidalariga to‘la rioya etib kelayotgan holatingda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hodisalar. Agar inson sifatida biror xatoga yo‘l qo‘ysang, nimalar bo‘lishi mumkin?!

Bu yerda gap, albatta, jahon ahlining «nooqil» guruhi us-tida borayotganini esda tutishimiz kerak.

Qit’adagi umumiy mazmunning poetik ifodasi ham go‘zal. Eng avvalo, baytdagi so‘z va tovushlarning alohida poetik jarang berishiga e’tibor berilgani diqqatni tortadi. «Agar», «xato», «qilmoq» so‘zlarining takrori baytdagi ma’no ta’kidi uchun tegishli «xizmat»larni ado etmoqda. Ayrim unli (*a*) va undoshlar (*x*) takrori esa uning vazni, qofiya va radiflari yuzaga keltirayotgan musiqiylikni oshirgan.

«Vafo», «jafo» so‘zлari tufayli yuzaga kelayotgan tazod san’ati zimmasiga esa baytdagi umumiy kontrast holat, ichki mantiqiy ziddiyatni bo‘rttirib ko‘rsatib berish yuklangan. «Juz» bilan «yuz» ham misradagi ohangdoshlikni kuchayti-rishga hissa qo‘shgan. Ular orasida ko‘zga ko‘rinmas mantiqiy ziddiyat ham mavjud. «Juz» ayrimlikni, yakkalikni, kamlikni anglatadi, «yuz»da esa jamlik ko‘plik, butunlik ma’nolari mu-jassamlashgan.

Xuddi shu hodisa keyingi baytdagi «biriga» hamda «yuz» so‘zлari bilan bog‘liq holda ham maydonga kelgan. «Xito» va «xato» so‘zlarining yozuvdagi yaqinliklari ularning tajnis sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlagan. Ular ma’noning tovlanishiga, yarq etib ko‘rinishiga imkon hozirlagan.

Bularning barchasi «oqil» odamlarga nisbatan bir chaqiriq, da’vat yo‘sinda yuzaga kelgan. Mutafakkir adibning asl mud-daosi shuki, oqillar nooqillardan o‘zini chetga olmog‘i, ta’ma va hirs domida yashaydiganlardan o‘zini asramog‘i lozim.

Buning natijasida esa o‘zi bildirmoqchi bo‘lgan poetik fikrning takrorlanmas jarang va kuchli ta’siri hosil bo‘lgan.

Navoiy qit’alari mavzu va shakliga ko‘ra rang-barang. Qu-yidagi qit’a komil inson haqidagi tasavvurlarga aniqlik kiritishi bilan e’tiborlidir:

Tavozu' yaxshi, ammo yaxshiroqdur
Agar da'b etsa ani ahli davlat.

Erur ham afv xo'b-u, xo'broq ul –
Ki, zohir bo'lg'ay el topqonda qudrat.

Ato ham turfa ishdur, turfaroq bil,
Agar yo'qdur aning yonida minnat.

Hakim insoni komil debtur ani
Ki, bo'lg'ay zotida bu necha xislat.

Tavozu' – adablilik, o'zini past va kamtar tutish degani.
U, Navoiy talqinicha, hamma uchun ham yaxshi, ammo «ahli davlat», ya'ni qo'li uzun kishilarning bu xususiyatni o'zlarining doimiy fazilatiga aylantirishi yanada «yaxshiroqdir» («da'b»ning ma'nosi «odat», «qiliq», «xislat» demakdir).

Ikkinchisi xislat kechirimlilik. Navoiy uni «afv» so'zi bilan ifodalaydi. Bu xislat ham barchaga birdek taalluqli. Ammo kishining mavqeい baland, imkonni ko'p bo'lganda («qudrat topqonda») shu xislatni ko'rsata olsa yanada yaxshiroq («xo'broq») bo'ladi.

Boshqalarga xayr-ehson, tuhfalar qilish ham inson kamolotidan nishona bo'la oladi. Ammo himmat qilgandan keyin uni yuzga solmaslik, minnat qilmaslik lozim. Beruniy aytganidek, «minnat himmatni yo'q qiladi».

Alisher Navoiyning xulosasi shu: kimda mazkur xislatlar mavjud bo'lsa, u «insoni komil»dir!

Shohni ajdahoga nisbat qilib tururkim, ganj umidi ham andin boru ranj biymi (xavfi, vahimasi) ham

«Jahon ganjig'a shoh erur ajdaho»
Ki, o'tlar sochar qahri hangomida.
Aning komi birla tirilmak erur,
Maosh aylamak ajdaho komida.

Afsonalarga ko‘ra katta boylik va xazinalarni ajdaholar qo‘riqlar ekan. Xazina ilinjidagi odam, albatta, ajdahoga ro‘para keladi. Navoiy shu asosga tayanib, ajdahoni qahrga kirgan paytida og‘zidan o‘t sochishini, ya’ni vahshatga aylanishi ni tasvirlaydi. Xulosa shuki, kimdakim ajdahoning yaqinida bo‘lsa, uning tirikchiligi ajdaho sochgan o‘tlar, olovlar ichida yashashdan iborat bo‘ladi. Albatta, bu ramziy tasvirdir. Uning kaliti esa qit‘aga qo‘yilgan sarlavhada berilgan: «Shohni ajdahoga nisbat qilib tururkim, ganj umidi ham andin boru ranj biymi (xavfi, vahimasi) ham».

Navoiy she’ri to‘qquz bayt-u, o‘n bir bayt, o‘n uch bayt
Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin¹.
Bukim, albatta, yetti baytdin o‘ksuk emas, ya’ni
Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin.

Mazkur qit’ani shoirning faxriyalaridan biri deyish mumkin. Unda, birinchidan, shoirning barcha g‘azallariga ixcham baho berilgan. Haqiqatda ham, shoir devonlaridan o‘rin olgan g‘azallardagi baytlarning barchasi adib ko‘rsatgan son bilan uyg‘un keladi.

Shoir o‘z she’rlarini «durri maknun» deb baholaydi. Bu «yashirin dur», «yaxshi saqlangan dur» demakdir.

Yozuv taxtasi ustida(gi qog‘ozda) yurayotgan qalam shu yashirin sirlardan xabar beradi. Demak, shoirning ko‘plab g‘azallari to‘qqiz, o‘n bir va o‘n uch baytdan iborat. Ammo ular yetti baytdan kam («o‘ksuk») emas. Buni shoir boshqa bir hodisa bilan qiyoslaydi. Modomiki, osmon (gardun) yetti qavatdan iborat ekan, ularning har bir qavati uchun shoirning g‘azallari o‘sha martabaga mos va munosibdir. Zero, ularning hozirgacha ham butun insoniyatni maftun etib kelayotgani buning isbotidir.

¹ Maknun – yashirilgan, maxfiy.

ALISHER NAVOIY RUBOYLARI HAQIDA

Shayx Ahmad bin Xudoydod Taroziy «Funun al-balog‘a» asarida (hijriy 840 – milodiy 1436–1437-yillar) o‘z davridagi o‘nta she’riy janrlarga tavsif beradi (qasida, g‘azal, qit‘a, ruboiy, masnaviy, tarje’, musammat, mustazod, mutavval, fard). Biz yaxshi bilamizki, Navoiy ijodida – «Xazoyin ulma’oniy»da she’riy janrlarning 16 ta xili mavjud. Ularning orasida eng barakalilaridan biri ruboiy ekanligini mutaxassislar ko‘p marta ta’kidlashgan.

«Nazm ul-javohir» («Gavharlar tizmasi») asari, asosan, tasavvuf g‘oyalari targ‘ibiga bag‘ishlangan. Unda tasavvufdag‘i asosiy tushuncha va tamoyillar nihoyatda sodda va tushunarli tilda talqin qilinadi. Masalan, «Ro‘a aboka yuro’uka» («Otangga rioyat qil – bolangdan qaytadi») hadisi uchun quyidagi ruboiy keltirilgan:

Farzand ato qullig‘in chu odat qilg‘ay,
Ul odat ila kasbi saodat qilg‘ay,
Har kimki atog‘a ko‘p rioyat qilg‘ay,
O‘g‘lidin anga bu ish siroyat¹ qilg‘ay.

Adib otaga xizmat qilishning sharofatini birinchi ikki misrada ko‘rsatib bermoqda. Keyingi misrada esa yana shu fikrga qaytilgandek ko‘rinadi, ammo endi natijada ayirma bor. Har kim ekkanini o‘radi, deganlaridek, otaga qilingan hurmat va ehtirom, albatta, qaytadi, ammo uni qaytaruvchi odam mutlaqo boshqa bo‘ladi. Mana shu boshqa odam esa keyingi avlod vakili – otasiga yaxshi munosabatda bo‘lgan o‘g‘ilning farzandlaridir.

Yoki insoniy fazilatlar mavzusida boshqa bir to‘rtlik yaratildi:

El qochsa birovdin, el yomoni bil oni,
Ahvolida idbor nishoni bil oni,

¹ Siroyat – ichiga o‘tish, ta’sir; yuqish.

Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,
Olam elining yamon yamoni bil oni.

Demak, ko'pchilik («el») bir fikr bildirar ekan, bu tasodify bo'lmaydi. Ular bir kishidan o'zini olib qochsa, o'sha odam elning yomoni bo'ladi. Buning sababi esa o'sha kishining fe'l-atvoridir («ahvolida idbor nishoni»). Bunday odamning yomonligi faqat o'zi uchun emas, balki barcha uchun ham zararlidir. Adib uni «ulus baloyi joni», ya'ni «elning joniga bitgan balo» sifatida ta'riflamoqda. Tugal xulosa esa oxirgi misrada ifodalangan. Bunday odam o'zining yoki o'zi mansub bo'lgan elninggina emas, balki butun «olam elining yomoni»dir. Shoirning «yamon» so'zini ikki marta qo'llashi orqali aytmoqchi bo'lgan fikri alohida ta'kidlanyapti.

Navoiy lirikasida odam va olam, hayot va uning go'zaliliklari madh etiladi. Adib lirikasida yuksak insonparvarlik, ezgulik g'oyalari ruboiy orqali ham aks etgan. Navoiyning «Xazoyin ul-ma'oniy» asari, aslida, to'rtta mustaqil devondan tashkil topgan. Shuning uchun ham u xalq orasida «Chor devon» – «To'rt devon» nomi bilan mashhur bo'lgan edi. Navoiy ijodini uzoq yillar davomida jiddiy o'rgangan taniqli adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetov shunday deb yozgan edi: «Mabodo Navoiy boshqa asar yozmasdan faqat «Xazoyin ul-ma'oniy»ni, hatto uning tarkibidagi bitta devon – «G'aro'yib us-sig'ar» yoki «Navodir ush-shabob», yoxud «Favoyid ul-kibar»ni yaratganda ham adabiyotimiz tarixida eng ulug' shoirlarimizdan biri bo'lib qola berar edi».

Bunga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, agar Navoiy boshqa janrlarda ijod qilmasdan, faqat ruboiylari tufayli ham mana shunday ulkan obro' va martabaga ega bo'laverar edi.

«Xazoyin ul-ma'oniy»da Navoiy o'z zamonasidagi deyarli barcha lirik janrlar namunasini bergan. Ular orasida g'azal, qasida, ruboiy, tuyuq, qit'a, muxammas, musamman, tarji'band, tarkibband, mustahzod, masnaviy, soqiynoma, muammo, sevgi

va sadoqat ulug‘lanadi. Ayni paytdaadolatsizlik, jaholat, lo-qaydlik, e’tiqodsizlik qoralanadi.

Adib she’riyatining mavzu qamrovi nihoyatda keng. Ularda falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy fikr va mulohazalar yuksak badiylik bilan ifoda etilgan.

Navoiy she’riyati bilan muloqot kitobxonlarning ichki ola-mi, ma’naviyatining boyishiga katta hissa qo’shamdi.

Navoiyning vatan va vatanparvarlik haqidagi she’rlari faqat o’sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki bugungi avlod, xususan, yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo‘lishi tabiiydir.

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulg‘a tikandek oshiyon bo‘lmas emish.

Navoiy ruboilylari tuyg‘ular va fikrlarning yetukligi, ta-biyyligi, favqulodda go‘zal va ta’sirchanligi, so‘z ma’nolari-ning kamalakdek tovlanishi bilan ajralib turadi.

Navoiy she’riyati bilan muloqot kitobxonlarning ichki ola-mi, ma’naviyatining boyishiga katta hissa qo’shamdi.

Navoiyning vatan va vatanparvarlik haqidagi she’rlari faqat o’sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki bugungi avlod, xususan, yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo‘lishi tabiiydir.

Ko‘z bila qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi,
Yuz bila so‘zing yaxshi, dudog‘ing yaxshi,
Eng bila menging yaxshi, saqog‘ing yaxshi.
Bir-bir ne deyin, boshdin ayog‘ing yaxshi.

Mazkur ruboil turkiy tilning ichki imkoniyatlarini, har qan-day hol va holatning, narsa va predmetning, hodisaning tasvi-ri ni ona tilida yaratib bera olish imkoniyatini yaqqol ko‘rsatib

berishi bilan ham e'tiborga molik. Unda ma'shuqa portretini chizib ko'rsatish asosiy maqsad sifatida namoyon bo'lgan.

Dastlab yuzning yuqori qismidagi uzvlar ko'z, qosh va qabiq qalamga olinadi. Ularning barchasi yor uchun mos va munosib. Bu hukm «yaxshi» so'zi orqali ravshanlashadi. Bu so'zning misra oxirida kelishi uning gapdagi vazifasi kesim ekanligini ko'rsatib turibdi. Odatda, gapdagi hukmning asosiy mazmun va mohiyati kesimda o'z ifodasini topadi.

Keyingi qismda yuzning navbatdagi uzvlar: yuz bilan dudoq qo'yiladi. Ayni paytda ro'yxatga yuz bilan bevosita bog'lanmagan yana bir jumla («so'z») ham jalg etiladi. Demak, shoир ma'shuqaning faqat tashqi ko'rinishini emas, balki uning ma'naviy olamini ham nazarda tutadi. Zero, inson ma'naviyati uning nima deyishida, nimani qanday aytishida ham o'z aksini topadi.

So'ng yana zohiriylar belgilarga o'tiladi: yuz, yuzdag'i xol, iyaklarning mos va mutanosibligi qayd etiladi.

Oxirgi bayt ruboiyga yakun yasaydi. Bu yerda yana bir yangi so'z o'yiniga duch kelamiz. U «boshdin oyog'ing yaxshi» tarzida shakllantirilgan. Bu yerda ham so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari mujassamlashgan. Ya'ni, «boshing ham, oyog'ing ham yaxshi» degan sanoq va boshingdan oyog'ing-gacha bo'lган hamma uzvlaring go'zal degan mulohaza o'z ifodasini topgan.

Savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiy zamondagi tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayot haqida nimalarni ayta olasiz?
2. «Alisher Navoiy qomusiy bilimlar egasi» degan hukmni qanday izohlaysiz?
3. Alisher Navoiyning adabiyot faniga qo'shgan hissalari nimalarda o'z aksini topgan?
4. Alisher Navoiy nima uchun tilshunos olim deyiladi?

5. Alisher Navoiy qo'llagan adabiy janrlar sanog'ini aytib bera olasizmi?
6. Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asari qanday asar? Uning qanday tarixiy va ma'rifiy ahamiyati bor deb o'ylaysiz?
7. Ruboiy va qit'aning qanday o'xshash va farqli jihatlari mavjud? Ularni ixcham tarzda izohlab bering.
8. Sizga Alisher Navoiy qit'a va ruboilyaridan qaysi biri ko'proq yoqdi? Buning sababini izohlay olasizmi?
9. «Ko'zing ne qaro balo bo'lubtur...» g'azalidagi asosiy she'r san'atlarini ko'rsatib, ularning badiiy vazifalarini izohlab bering.
10. Internetdan mazkur she'r matniga bastalab ijro etilgan qo'shiqni toping. Uni tinglang va qo'shiq haqidagi mulohazalaringiz bilan o'rtoqlashing.
11. She'rni ifodali o'qish uchun nimalar qilish kerak deb o'ylaysiz? Uni amalda ko'rsatib berishga harakat qiling.
12. «Meni men istagan...» g'azalida ifoda etilgan mazmunni tahlil qiling. Unda ifoda etilgan hodisaga siz o'z hayotingizda duch kelganmisiz?
13. Navoiyni shu she'rni yozishga majbur qilgan narsa nima ekanligi haqida o'z farazlaringizni ayta olasizmi?
14. She'rda Navoiy asosiy fikr-mulohazalari va tuyg'ularini ifodalash uchun qanday tasvir vositalaridan foydalangan?
15. She'rda Alisher Navoiyning mahorati qanday namoyon bo'lganini o'z so'zlarining bilan aytib bera olasizmi?
16. She'riyatda lirik qahramonning tabiat hodisalariga, jonivorlarga, har xil jonli va jonsiz narsalarga murojaati tez-tez uchrab turadigan hodisa. Siz Navoiy ijodidan shunday misollarni keltira olasizmi?
17. She'rda mahbubaning qanday ijobiy fazilatlari ko'rsatilgan?
18. Unda yorning salbiy xususiyatlari ham ko'rsatilganmi? Bunday xususiyatlar qanday ifodalangan?
19. G'azalda saboni ehtiyyotkorlikka chorlagan o'rin ham mavjud. Uni toping va izohlashga harakat qiling.
20. Navoiy qit'asidagi «gumroh» obraziga kengroq tavsif bering.

21. Alisher Navoiyning lirik merosi asosida «Navoiyning tas-virlash mahorati» mavzusida ixcham ijodiy ish yozing. Unda adib asarlaridan olingan fakt va ko‘chirmalardan foydalanishga harakat qiling.
22. Qit’adagi «odam bo‘lmoq» iborasi ikki ma’noda qo‘llangan. Ushbu ma’nolarni toping va izohlab berishga harakat qiling.
23. To‘rtlikdagi ta’did san’atiga oid misollarni toping va izohlab bering.
24. Unda tazod uchraydimi? Agar uchrasa, uning qanday vazifa bajarayotganini izohlab bering.
25. Ruboiyda so‘z takrorlari ham uchraydi. Bu yaxshimi yoki yomonmi? Uni qanday izohlay olasiz?
26. Berilgan ruboilylarning qaysi turga mansubligini toping; filkringizni asoslang.
27. Ruboilyarda ifodalangan tuyg‘ular tavsifini izohlang.
28. Ruboiy mavzusi haqida so‘zlang.
29. Ruboiydagi ohangdorlikni ta’minlovchi so‘zlarni aniqlang.
30. «Navoiyning ilmiy merosi» mavzuida ixcham taqdimot tay-yorlang.
31. Xuddi shunday taqdimotni adibning lirik merosi haqida ham tayyorlang.





ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

(1483–1530)



Temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug‘ildi. Bobur Vatanimiz tarixidagi takrorlanmas siyolardan biridir. U nafaqat yirik adib, buyuk tarixchi, ulkan olim, balki mohir sarkarda va davlat arbobi ham edi. Uning ijodi mana shu sohalar bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga keldi.

Uning mustaqil siyosiy faoliyati juda erta – otasi Umarshayx mirzoning kutilmaganda vafot etishi munosabati bilan boshlandi. O’shanda u bor-yo‘g‘i 12 yoshda edi.

Bobur bobosi Amir Temur davlatining poytaxti – Samarqand shahrini ishg‘ol qilish uchun bir necha marta urinib ko‘rdi. Dastlabki muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdi. Shunga qaramay, uni qo‘lda tutib turishning imkonini topa olmadi. Keyinchalik u o‘z she’rlaridan birida shunday deydi:

Davron meni o‘tkardi sari somondin,
Oyirdi meni bir yo‘li xonumondin,
Gah boshima toj, gah baloyi ta’ma,
Nelarki, boshima kelmadi davrondin.

Boburning yagona maqsadi yirik va mustahkam markazlashgan davlat tuzishdan iborat edi. Bu maqsad amalga oshdi.

Biroq u o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtda – Movarounnahrda emas, balki undan ancha olisda – Hindistonda amalga oshdi. Adibning o‘zi bu hodisadan doimo iztirobda bo‘lganligi asarlarida juda yorqin tarzda aks etgan:

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yub Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Boburdan bizga uning devonlari, «Boburnoma»si, bir qator ilmiy, tarixiy, diniy-falsafiy va axloqiy-ta’limiy ruhdagi asarlaridan iborat meros qoldi. U Xoja Ubaydullohning «Risolayı validiya»sini o‘zbekchalashtirdi, musulmon axloqiga oid «Mubayyin» nomli masnaviyini yaratdi, «Xatti Boburiy»ni ixtiro qildi.

Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 1530-yil 26-dekabrda, 47 yoshida o‘zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o‘sha yerda dafn etildi. Keyinchalik, 1539-yil, vasiyatiga muvofiq, xoki Kobulga keltililib, o‘zi bunyod ettirgan «Bog‘i Bobur»ga qo‘yildi.

Bobur O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. Andijon shahrida Bobur nomida universitet, teatr, kutubxona, milliy bog‘ («Bog‘i Bobur») bor. Bobur milliy bog‘i majmuasida «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi, shoiringning ramziy qabr-maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuyida shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek, Toshkentdagи istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta’sis etildi.



**Boburning Kobuldağı
maqbarası**



«Bobur va jahon madaniyati» muzeyi (Andijon)

1993-yil 23-dekabrda tashkil etilgan Xalqaro Bobur jamg'armasi Bobur ijodini o'rghanishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg'armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo'ylab ilmiy safarlar uyuştirib, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma'lumotlar to'plab, ularni ilmiy iste'molga kiritdi. Mazkur ma'lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar, 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar yaratildi. Jamg'armaning Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (BAA), Moskva (RF), O'sh (Qirg'iziston), Toshkent, Namangan shaharlarida bo'limlari mavjud.

Mashhur kishilarning Bobur haqidagi fikrlari

«*Tarixi Rashidiy*»dan: «U turli go'zal fazilatlar, maqtovga loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichida shijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelar edi».

Hasanxo'ja Nisoriy: «Chig'atoy sultonlarining eng sarasi va zo'r shijoatlisi edi».

Javoharla'l Neru: «Bobur dilbar shaxs, Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan, u san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur olishni yaxshi ko'rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo'lib, ko'p yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan».

Monstyuart Elfinston: «Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o'z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlari va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir».

Rumer Goden: «Bobur bunyod etgan davlat garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo'lsa-da, u o'z sultanatining sultoni, buyuk imperatori darajasiga ko'tarildi. O'z mulkida boshqaruв tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi. Bu o'lkani 332 yil davomida mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi».

Pirimqul Qodirov: «Bobur mirzo so'z bilan jonli tasvir yaratish mahoratini mukammal egallagan adib edi. Buni o'zi ham sezardi. Shuning uchun umrining oxirida o'g'li Humoyunga «Boburnoma»ni tugallab taqdim etganida unga bir ruboiy ilova qiladi:

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum,
Har kim bu «Vaqoyi»ni o'qir, bilgaykim,
Ne ranj-u ne mashaqqat-u ne g'amlar ko'rdum.

«Vaqoyi» – «Boburnoma»ning dastlabki nomi edi. Bobur o'z zamonasida boshdan kechirgan barcha ko'rguliklarni haqqoniy tasvirlashga intilganining sababi bu ruboiyda aniq ko'rsatiladi. Uning eng zo'r istagi: «Vaqoyi»ni o'qiganlar haqiqatni bilsinlar, u qilgan xatolarni takrorlamasinlar.

«Boburnoma» ham «Temur tuzuklari» kabi avlodlarga ulkan hayotiy tajriba, saboq va qisman vasiyat tarzida yozilgan edi».

BOBURNOMA

(Asardan parcha)¹

To‘qqiz yuz o‘n ikkinchi (1506–1507) yil voqealari

Muharram oyi o‘zbakni² daf qilish maqsadida Xurosonga³ jo‘nadik. G‘urband⁴ va Shibartu⁵ yo‘li bilan ravona bo‘ldik. Jahongir mirzo⁶ u viloyatdan noxushlik bilan chiqqan edi. «U aymoqni o‘ziga qo‘sib olsa, yana ne yomonliklar-u fitnalar sodir bo‘lishi mumkin», deb o‘yladim. Shuning uchun Ushtur⁷ shahrida, uruqdan ayrilib, unga Vali xazinachini va Davlat Qadam qarovalni qo‘yib, aymoqni tezroq qo‘lga olaylik, deya shoshilinch jo‘nadik. O‘sha kuni Zahhok⁸ qal’asiga yetib keldik. Undan Gunbazak⁹ dovonidan oshib, Soyqon¹⁰ orqali tushib, Dandonshikan¹¹ dovonidan o‘tib, Kohmard¹² sayxonligiga tushildi.

Sayyid Afzal ta’birchiga Sulton Muhammad do‘ldoyni qo‘sib, Kobuldan¹³ yo‘lga tushganimiz haqida Sulton Husayn mirzoga¹⁴ maktub yuborildi. Jahongir mirzo keyinroq qolgan ekan. Bomiyon¹⁵ to‘g‘risiga yetgan chog‘imiz ular

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.

² O‘zbaklar – Bobur bu yerda Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi o‘zbek ulusi, ya’ni Dashti Qipchoqning sharqi qismidan XVI asr boshida Mavarounahr hududiga kirib kelgan ko‘chmanchi urug‘-qabilalarini nazarda tutmoqda.

³ Xuroson – jug‘rofij jihatdan nisbatan umumlashgan nom bo‘lib, turli davrlarda Hirotdan G‘arbiy Erongacha bo‘lgan hududlarni qamrab olgan. Hozirgi paytda u poytaxti Mashhad bo‘lgan shimoli-sharqidagi viloyat bo‘lib, Turkmaniston bilan chegaradosh.

⁴ G‘urband – Kobuldagisi tumanlardan biri.

⁵ Shibartu – Hindukush tog‘idagi dovonlardan birining nomi.

⁶ Jahongir mirzo – Umarshayx mirzoning o‘g‘li, Boburning ukasi.

⁷ Ushtur – Kobulda joylashgan shaharlardan birining nomi.

⁸ Zahhok – Bomiyondagi qal‘a nomi.

⁹ Gunbazak – Xurosonda joylashgan dovon.

¹⁰ Soyqon – Xurosonda joylashgan yer.

¹¹ Dandonshikan – Xurosonda joylashgan dovon.

¹² Kohmard – Kobul bilan Balx oralig‘ida joylashgan manzil nomi.

¹³ Kobul – Xuroson (hozirgi Afg‘oniston)dagagi viloyat va shahar nomi.

¹⁴ Sulton Husayn mirzo – temuriy hukmdor Husayn Boyqaro.

¹⁵ Bomiyon – hozirgi Afg‘onistonning markaziy qismidagi qadimiy shahar va viloyat nomi.

yigirma-o'ttiz kishi bilan Bomiyonga qarab kelayotgan ekan. Bomiyonga yaqin yetganlarida bizning ortda qolgan uruq chodirlarini ko'radilar. Ularni biz deb xayol qilib tezda, qaytadilar. O'rdalariga borib, hech narsaga qaramay ko'chadilar. Orqalariga qaramay o'zlarini Yakka o'lang yerlariga tortishadi.

Shayboniyxon¹ Balxni² qamal qilgan edi. Balxda Sulton Qulichoq qo'rg'onbegi edi. Shayboniyxon ikki-uch sultonni uch-to'rt ming kishi bilan Badaxshonga³ hujum qilish uchun yubordi. U payti Muborakshoh va Zubayr⁴ kelib yana Nosir mirzoga⁵ qo'shilgan edilar. Burunroq qasos va keklari bor edi. Kishmning pastida Shohidonda Kishm daryosining sharqiy tarafida lashkar tortib o'tirganlarida o'zbaklar tong otmayoq tungi qirg'inga yopirilib kelib, Kishm daryosini kechib o'tib, Nosir mirzoning ustiga yurdi. Nosir mirzo darhol o'zini qirga tortdi. Qirdagi odamlarini yig'ishtirib, karnay chaldirib, olg'a siljigancha o'zbaklarni surib qochirdi. Kishm daryosi katta edi. O'zbaklar shu suvdan kechib kelgandilar. Ularning ko'pchiligi o'q yedi, qilich ostida qoldi. Juda ko'p kishisi qo'lga tushdi. Suvda ham ko'p kishi o'ldi.

Muborakshoh va Zubayr (Nosir) mirzodan yuqoriroqda – Kishm tarafida edilar. Ularning ustiga yuborilgan o'zbaklar ularni qirga qochirdi. Nosir mirzo yovni qochirayotganida bundan xabar topib, o'sha odamlar ustiga yurdi. Yuqoridan Ko'histon⁶ beklari (Muborakshoh va Zubayr) ham otliq-yayovini yig'ib jangga kirishlari bilan, o'zbaklar turish bera olmadilar, qochdilar. Bu jamoatdan ham ko'p kishi qo'lga tushdi, ko'p kishi o'q yedi, qilichda chopildi va suvda oqdi. Chamasi ming-ming besh yuz o'zbak o'ldi. Nosir mirzoning bir yaxshi zafari mana shu edi. Bu xabarni Kohmard sayxonligida ekanligimizda Nosir mirzoning kishisi keltirdi.

¹ Shayboniyxon – shayboniylar sulolasini asoschisi.

² Balx – Shimoliy Afg'onistonidagi ko'hna shahar, hozirgi Mozori Sharif shahrining g'arbida joylashgan.

³ Badaxshon – Amudaryoning yuqori oqimida, daryoning har ikkala sohili bo'ylab joylashgan tog'li o'lka.

⁴ Muborakshoh va Zubayr – Ko'histon beklari.

⁵ Nosir mirzo – Umarshayx mirzoning o'g'li, Boburning ukasi.

⁶ Ko'histon – Kishm daryosining yuqori qismidagi joy nomi.

Ushbu yurtda ekanda bizning lashkar borib, O‘g‘riy va Da-honadan¹ don-dun olib keldilar. Bu yerda Xurosonga yuborilgan Sayyid Afzal bilan Sulton Muhammad do‘ldoydan xatlar keldi. Bu – Sulton Husayn mirzo vafotining xabari edi. Ushbu xonadonning nomusini o‘ylab Xurosonga qarab jo‘nadik. Bu yurishda boshqa maqsadlar ham bor edi. Ajar darasining ichi bilan o‘tib, To‘p Mandag‘on va Balxob bilan quyi tushib, Ko‘hi Sofga² chiqildi. O‘zbaklarning Son va Chahoryakni talon-toroj qilganidan xabar topib, Qosimbekni lashkar bilan talonchi o‘zbaklar ustiga yubordik. Borib, uchratib, yaxshi yengib, ko‘p bosh kesib keltirdilar. Jahongir mirzoga va aymoqlarga kishilar yubordik. Ulardan xabar olguncha bir necha kun Ko‘hi Sof yaylovida o‘tirdik.

Bu yerlarda kiyik juda ko‘p bo‘ladi. Bir marotaba ovladik. Bir-ikki kundan so‘ng aymoqlarning hammasi kelib mulo-zamat qildilar. Aymoqlarga Jahongir mirzo bir necha martaba kishilar yubordi. Bir safar Imodiddin Mas‘udni yubordi. Bor-madilar. Mening qoshimga keldilar. Oxiri Jahongir mirzoga zarurat bo‘ldiki, Ko‘hi Sofdan Darayi Boyga tushganida kelib meni ko‘rdi. Bizning niyatimiz Xurosonga borish bo‘lganidan mirzoga qaramay, aymoqqa parvo qilmay, Gurzivon, Almor va Qaysor, Chechaktu bilan yurib, Faxriddin O‘lo‘midan o‘tib, Bodg‘isga qarashli Darayi Bom degan yerga keldik.

Olam serg‘avg‘o edi. Shu sababli har kim viloyat va xalqdan iloji boricha biror narsa tortib olishga, nimadir un-dirishga harakat qilardi. Biz ham bir yoqdan u yerlardagi aymoq va turklarga soliq solib, narsalar olishga kirishdik. Shu bir-ikki oyning ichida uch yuz tuman³ kepakiy (pul) olindi, chamasi. Bizzdan bir necha kun burunroq o‘zbakning talon-chisini Xuroson ilg‘ori (hujumchi qismi) va Zunnunbekning kishilari Pandi, Dah va Marvchoqda yengib, ko‘p o‘zbakni o‘ldiribdilar.

Badiuzzamon mirzo, Muzaffar mirzo, Muhammad Bu-runduq barlos, Zunnun arg‘un o‘g‘li Shohbek Balxda Sul-

¹ O‘g‘riy va Da hona – Xurosondagi joy nomlari.

² Ko‘hi Sof – tog‘ nomi.

³ Tuman – o‘n ming.

ton Qulichoqni qamal qilgan Shayboniyxonning ustiga yurish maqsadida Sulton Husayn mirzoning barcha o‘g‘illariga kishilar yuborib chaqirtirdilar. Ushbu harakat bilan Hirotdan¹ ham chiqdilar. Ular Bodg‘isga yetganlarida, Childuxtaronda Abulmuhsin mirzo Marvdan² kelib qo‘sildi. Undan so‘ng Ibn Husayn mirzo³ ham To‘n va Qoyindan keldi. Kepak mirzo Mashhadda⁴ edi. Bir necha marta kishilar yuborsalarda, noma’qul so‘zlar aytib, nomardlik qilib kelmadi. Uning gina-kudurati Muzaffar mirzodan⁵ edi, ya’ni: «U podshoh bo‘lganda, men qanday qilib uning qoshiga boraman?!» – derdi. Shunday bir paytda barcha og‘a-ini bir yerda yig‘ilib, ittifoq bo‘lib, Shayboniyxondek g‘anim ustiga azm-u jazm qilib yurayotganida ana shunday bemaza ginaxonligini qilib kelmadi. Uning bu kelmaganini hozircha ginaxonlikka yo‘yarlар, holbuki, barcha buni nomardlik deb o‘yladi.

Bundan maqsad shuki, bu dunyoda kishidan ana shunday narsalar esda qoladi. Aql egasi bo‘lgan har qanday odam ortidan yomon so‘z bilan eslanadigan ishlarga nega qo‘l urarkin, es-hushi joyida bo‘lgan har bir kishi dunyodan o‘tgach tahsinlar bilan eslanadigan ishlarni qilishga nega urinmas ekan? Ismning yodga olinishini hakimlar ikkinchi umr deganlar.

Menga ham elchilar keldi. So‘ngra Muhammad Burunduq barlos ham keldi. Men nega bormayin?! Yuz-ikki yuz yig‘och⁶ yo‘lni shu maslahat uchun bosib o‘tibman. Men Muhammadbek bilanoq yo‘lga tushdim. U fursatda Badiuzzamon mirzo⁷ va Muzaffar mirzo Murg‘obga⁸ kelishgan edi. Dushanba kuni jumod ul-oxir oyining sakkizinchisida⁹ mirzolar bilan muloqot

¹ Hirot – Movarounnahr (hozirgi Afg‘oniston)dagi shahar va viloyat nomi.

² Marv – O‘rta Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri. Bayramali shahri (Turkmaniston) yaqinida joylashgan.

³ Ibn Husayn mirzo – Husayn Boyqaroning o‘g‘illaridan biri.

⁴ Mashhad – Eronning shimoli-sharqiyl qismidagi shahar.

⁵ Muzaffar mirzo – Husayn Boyqaroning oltinchi o‘g‘li.

⁶ Yig‘och – uzunlik o‘lchovi. 1 yig‘och – 6 km atrofida.

⁷ Badiuzzamon mirzo – Husayn Boyqaroning to‘ng‘ich o‘g‘li.

⁸ Murg‘ob – hozirgi Afg‘oniston va Turkmanistondagi daryo nomi.

⁹ Jumod ul-oxir oyining sakkizinchisi – 1506-yil 26-oktyabr.

bo‘ldi. Abulmuhsin mirzo¹ yarim kuro‘h² yo‘l bosib, mening istiqbolimga kelgandi, uchrashdik. Men bu tarafdan otdan tushdim, Abulmuhsin mirzo u tarafdan otdan tushdi. Borib, ko‘rishib, yana otga chiqdik. Ilgari siljiganimizda o‘rdaning yaqiniga Muzaffar mirzo va Ibni Husayn mirzo keldilar. Ular Abulmuhsin mirzodan kichik edilar. Istiqbolimizga burunroq chiqishlari kerak edi. Chamasi, ular kechroq yo‘lga chiqishgan. Bu kechikish takabburlikdan emas, balki xumor tufayli ekan, bu gunoh quduratdan emas, aysh-ishrat sababidan ekan.

Muzaffar mirzo mubolag‘a qildi, ot ustida ko‘rishdik. Ibni Husayn mirzo bilan ham ushbu nav ko‘rishildi. Kelib Badiuzzamon mirzoning eshigiga tushdik. Odam behad ko‘p to‘plangan, shunchalik to‘polon ediki, tinqilinchda ba’zi kishining uch-to‘rt qadam yo‘lda oyog‘i yerga tegmas edi. Ba’zi birov ish-kuch uchun qaytmoqni xayol qilsa, beixtiyor to‘rt-besh qadam ortga surib borishar edi. Badiuzzamon mirzoning mahkama uyiga yetdik. Shunga qaror qilingan ediki, men uyga kirgach, ta’zim qilaman. Badiuzzamon mirzo o‘rnidan turib, poygakka keladi va ko‘rishamiz. Men uyga kirgach, bir ta’zim qildim va to‘xtamay unga qarab yura boshladim. Badiuzzamon mirzo shoshilmay o‘rnidan turib, sustroq yurdi.

Qosimbek mening xayrixohim, mening nomusim uning nomusi edi, belbog‘imdan bir tortdi, hushyor tortdim. Sekinroq yurib, belgilangan yerda ko‘rishildi. Bu katta oq uyda to‘rt to‘sak solgan edilar. Badiuzzamon mirzoning oq uylari (oq kigizdan ishlangan katta o‘tov, chodir), albatta, yon eshiklik bo‘lardi. Mirzo doim shu eshikning yonida o‘tirardi. Bir to‘sakni shu eshik yoniga solgandilar. Badiuzzamon mirzo va Muzaffar mirzo shu to‘sakka o‘tirdilar. Yana bir to‘sakni o‘ng tarafga solishgan edilar. Abulmuhsin mirzo va men o‘sha to‘sakda o‘tirdik. Badiuzzamon mirzoning to‘sagidan quyi chap yonda yana bir to‘sak solingan edi. O‘zbak Shayboniy sultonlaridan Qosim Sulton (mirzoning kuyovi, Qosim Husayn Sultonning otasi edi) va Ibni Husayn mirzo ana shu to‘sakda o‘tirdilar. Menga solgan to‘sakdan quyi o‘ng qo‘limda

¹ Abulmuhsin mirzo – Husayn Boyqaroning o‘g‘illaridan biri.

² Kuro‘x – uzunlik o‘lchovi. 1 kuro‘x = 2 km ga yaqin.

yana bir to'shak solgandilar. Jahongir mirzo bilan Abdurazzoq mirzo¹ o'sha to'shakda o'tirdi. Muhammad Burundubek, Zunnunbek va Qosimbek o'ng yonda Qosim Sulton bilan Ibni Husayn mirzodan biroz quyiroq o'tirdilar.

Osh tortildi. Suhbat mavridi bo'lmasa-da, osh tortiladigan yerga xontaxta qo'yib, oltin va kumush may ko'zachalarini uning ustiga terdilar. Burunlari bizning ota-bobolar Chingiz² odatini juda hurmat qilardilar. Bazm va mahkamada, to'y va oshda, o'tirish va turishda odatga xilof ish qilmasdilar. Chingizxonning odati oliy qat'iy hujjat emasdirki, albatta, kishi unga amal qilsin! Har kimdan yaxshi qoida qolgan bo'lsa, unga amal qilmoq kerak. Agar ota yomon ish qilgan bo'lsa, yaxshi ish bilan almashtirmoq kerak.

Oshdan so'ng otlanib, tushgan yerga keldim. Bizning o'rda bilan mirzolar o'rdasining orasi bir shar'iy kelardi. Ikkinchisafar kelganida Badiuzzamon mirzo burungidek ta'zim qilmadi. Muhammad Burundubekka va Zunnunbek orqali: «Garchi yoshim kichik bo'lsa-da, martabam ulug'dir. Ota taxti, Samarqandni, ikki bora jang bilan olib o'tiribman. Bu xonadon uchun yot-dushman bo'lganlar bilan qancha jang-u jadal qilganman, shu bois mening ta'zimimda bo'lmaslik asossizdir», – deb ayttirdim. Bu so'z yetkazilgach, ma'qul bo'Igani uchun e'tirof etib, ta'zimni ko'ngildagidek qildi.

Yana bir navbat Badiuzzamon qoshiga borganda peshin namozidan so'ng may bazmi bo'ldi. Men u paytlari ichmasdim. Ajab orasta bazm edi. Dasturxonlarga turli-tuman gazaklar qo'yilgan edi: tovuq kabobi, g'oz kabobi, har xil taomlardan tortdilar. Badiuzzamon mirzoning bazmini ko'p ta'rif qilar edilar. Darhaqiqat, beg'ash-u tashvishsiz, sokin bazm edi. Murg'ob yoqasida ekanda ikki-uch marotaba mirzoning may bazmida hozir bo'ldim. Ichmasligimni bilganliklari uchun may taklif qilmadilar.

Muzaffar mirzoning bazmiga ham bir navbat bordim. Hусayn Ali Jaloyir va Mir Badr Muzaffar mirzo qoshida edilar.

¹ Abdurazzoq mirzo – Barlos urug'iga mansub Ulug'bek Kobuliyning o'g'li.

² Chingiz – Mo'g'ullar davlati asoschisi, sarkarda.

U bazmda ham qatnashdilar. Kayf bo‘lganida Mir Badr raqs tushdi, yaxshi raqs tushdi. Aftidan, u nav raqs Mir Badrning ixtirosidir. Mirzolar Hirotdan chiqib, ittifoq qilib, yig‘ilib Murg‘obga kelgunlaricha uch-to‘rt oy o‘tdi.

Sulton Qulichoq tang qolib Balx qal’asini o‘zbakka berdi. O‘zbak Balxni olganidan so‘ng bu jamiyatning xabarini eshitib, Samarqandga qaytib ketdi. Bu mirzolar garchi suhbat va suhbatorolikda, munosabat va mulozamatda mohir bo‘lsalar-da, lekin sipohiylik rang-u bo‘yog‘idan yiroq, mardonilik va jang-u jadaldan chetda edilar. Murg‘obda o‘tirgan paytlarimiz Haqnazar chapani to‘rt-besh yuz kishi bilan kelib, Chechaktu yerlarini talon-toroj qildi degan xabar keldi. Barcha mirzolar hozir bo‘lib, ko‘p urinib bu talonchilarning ustiga hujumchi lashkar yubora olmadilar. Murg‘ob bilan Chechaktuning orasi o‘n yig‘och yo‘ldir, bu ishni men qilmoqchi bo‘ldim. Nomus qilib, menga ham ruxsat bermadilar. Shayboniyxon qaytgani-da, yil ham oxirlab qolgandi. Shunday qarorga kelindi: bu qish mirzolar har qaysisi o‘ziga munosib yerda qishlab, erta bahor yig‘ilishib g‘animni daf etishga yo‘l oladilar. Menga ham Xuroson yerlarida qishlashni taklif qildilar.

Kobul va G‘azni¹ to‘polonchi va janjalkashlar makoni edi, turk, mo‘g‘ul, aymoq, afg‘on va hazoradan tashkil topgan xilma-xil el va ulus shu yerlarda yig‘ilgan edilar. Yana Xuroson bilan Kobul orasida yaqinroq tog‘ yo‘li bor edi, agar qor va muz kabi narsalar to‘sinq bo‘lmasa, bir oychalik, tekis yo‘l bilan esa qirq-ellik kunlik yo‘l edi. Viloyatdan ham hanuz ko‘ngil xotirjam emasdi. Xayrixohlardan hech kim bizning u yerda qishlashimizni ma’qul ko‘rishmadi. Mirzolarga uzr aytdik. Qabul qilmadilar, ko‘proq taklif qildilar. Har qancha uzr aytsak-da, taklifni qat’iyroq qo‘ydilar. Oxiri Badiuzzamon mirzo, Abulmuhsin mirzo² va Muzaffar mirzo otlanib, mening uyimga kelib, Xurosonda qishlamoq taklifini qildilar. Mirzolar yuzi uchun yo‘q deyolmadik. Bunday podshohlarning o‘zлari kelib, turmoq taklifini qildilar. Buning ustiga, dunyoda Hirot-dek shahar yo‘qdir va Sulton Husayn mirzo zamonida uning

¹ G‘azni – hozirgi Afg‘onistonning janubi-sharqiy qismidagi shahar.

² Abulmuhsin mirzo – Husayn Boyqaroning o‘g‘illaridan biri.



**Boburning toj kiyib Farg‘ona taxtiga chiqishi.
«Boburnoma»ga ishlangan miniatyura**

tasarrufi va takallufidan Hirotning zeb-ziynati birga o'n, balki yigirma baravar taraqqiy qilgan edi, uni ko'rmoq orzusi ham ancha edi. Bu sabablarga ko'ra taklifni qabul qildik.

Abulmuhsin mirzo o'z viloyatiga, Marvga ketdi. Ibn Hu-sayn mirzo ham To'n va Qoyinga jo'nadi. Badiuzzamon mirzo va Muzaffar mirzo Hirotg'a jo'nab ketedilar. Ikki-uch kun keyinroq Childuxtaron va Toshrobot yo'li bilan men ham Hirotg'a yo'l oldim.

Barcha begimlar, mening ammam Poyanda Sultonbegim, Xadichabegim, Ofoqbegim, yana Sulton Abusaid mirzoning¹ qizlari – amma begimlar hammasi Sulton Husayn mirzoning madrasasida yig'ildilar. Barcha begimlarni Sulton Husayn mirzoning maqbarasida ekanliklarida borib ko'rdim. Avval Poyanda Sultonbegim bilan ta'zim qilib ko'rishdim. Undan so'ng Ofoqbegim bilan ta'zimsiz ko'rishdim. Keyin Xadichabegim bilan ta'zim qilib ko'rishdim. Bir zamon bunda o'tirib, qorilar Qur'on o'qiganlaridan so'ng, Xadichabeginning chodiri tikilgan janubiy madrasaga bordik. Xadichabegim nomidan osh tortdilar. Osh tortilganidan so'ng Poyanda Sultonbeginning uyiga bordim. O'sha kecha u yerda bo'ldim. Avval menga Bog'i Navda (yangi bog') qo'nimjoy tayin qilgan edilar. Ertasi ertalab kelib Bog'i Navda tushdim. Bog'i Navda bir kecha bo'ldim. Uni munosib ko'rmay, Alisherbekning uylarini tayin qildilar. Hirotdan ketguncha Alisherbekning uylarida edim...

Tarabxona bog'chaning o'rtasida bunyod topgan. Ixcham-roq imoratdir. Ikki qavatlik. Lekin yoqimli imoratdir. Yuqorigi qavatiga ko'p bezak beribdilar. To'rt burchagida to'rt hujrasi bor. Bu to'rt hujraga olib kiradigan uy istirohat xonasidir. Bir uydırki, hujralarning oralig'i to'rt shahnishin² yo'sinlik edi. Bu uyning har tomoniga suratlar solingan. Bu imoratni Bobur mirzo qurgan bo'lsa-da, lekin bu tasvirlarni Sulton Abusaid mirzo buyurgandir. Unda o'zining saf tortishlari-yu janglari tasvirlangan. Shimol tarafdag'i shahnishinga bir-biriga qaratib ikkita to'shak soldilar, to'shaklarning yonlari shimolga qara-

¹ Sulton Abusaid mirzo – temuriylardan, Amir Temurning o'g'li Mironshoh mirzoning nabirasi.

² Shahnishin – uylarning to'ridagi supasimon balandroq qismi.

gan edi. Bir to'shakda Muzaffar mirzo va men o'tirdik. Yana bir to'shakda Sulton Mas'ud mirzo¹ va Jahongir mirzo o'tirdilar. Muzaffar mirzoning uyida mehmon bo'lqanimiz uchun Muzaffar mirzo meni o'zidan yuqoriga o'tkazdi.

May qadahlarini to'ldirib, soqiylar yurib bazm ahliga tuta boshladilar. Tiniq sharoblarni bazm ahli obi hayotdek yuta boshladilar. Bazm qizidi. May boshga chiqdi. Menga ham may ichirish fikriga bordilar. Meni ham bu davraga kiritmoq-chi bo'ldilar. Men bu choqqacha kayf bo'lqunimcha sharob ichmas, mastlik va sarxushlik kayfiyati va holatini tegishli-cha bilmasdim. Lekin may ichmoqqa maylim bor edi va bu vodiyni bosib o'tishni ko'nglim istardi. Yoshlikda maylim yo'q edi, mayning nash'a va kayfini bilmas edim. Otam gohi may taklifi qilsalar ham, uzrlar aytib ichmasdim. Otamdan so'ng Xoja Qozining qadami sharofatidan zohid va taqvodor bo'ldim. Nafaqat may ichish, shubhali taomdan ham hazar qilardim. So'ngralar yigitlik havasi va nafs taqozosidan mayga mayl paydo bo'ldi, taklif qiladigan kishi yo'q edi, balki mayga maylimni biladigan kishi yo'q edi. Ko'nglim moyil bo'lsa-da, bunday qilmagan ishni o'zimcha qilishim mushkil edi. Xayolimdan kechdiki, shuncha taklif qilyaptilar, yana Hirotdek orasta shaharga kelib turibmiz, barcha aysh-ishrat asbob va uskunasi mukammal va muhayyo, bori takalluf va ne'matlar ashyo va asbobi tayyor va paydo bo'lsa, hozir ichmasam qachon ichaman deb ichmoqqa azm qildim va bu vodiyni bosib o'tmoqqa jazm etdim.

Biroq ko'nglimdan o'tdiki, Badiuzzamon mirzo og'adir, uning qo'lidan va uning uyida ichmay, inisining qo'lidan va inisining uyida ichsam, xotiriga nima kelgay deb, bu ikkinal-nishimni aytdim. Bu uzrimni ma'qul deb, bu suhbatda may taklifi qilmadilar.

... Bazmda san'atkorlardan Hofiz hoji, Jaloliddin Mahmud noyi, G'ulom Shodiyning inisi Shodibacha bor edi. Chang chalardi. Hofiz hoji yaxshi qo'shiq aytardi. Hirot xalqi past ovozda, nozik va muloyim qilib (hamvor) aytadilar. Jahongir

¹ Sulton Mas'ud mirzo – Sulton Mahmud mirzoning o'g'illaridan biri.

mirzoning bir xonandasi bor edi. Mirjon ismli. Samarqandlik edi. Qo'shiqni baland, qo'pol va notekis aytardi. Jahongir mirzo kayf ustida unga ashula aytishni buyurdi. U g'alati, baland, dag'al va bemaza qilib aytdi. Xuroson eli hazil bilan tirik el. Uning bu qo'shiq aytishidan birisi qulog'ini tutadimi, yana biri aftini bujmaytiradimi, mirzo tufayli hech kim man qilolmaydi. Shom namozidan so'ng Tarabxonadan Muzaffar mirzo solgan yangi qishloq uyiga keldik. Ushbu uyga kelgan-da, mast bo'lib qolgan Yusuf Ali ko'kaldosh turib raqqoslik qildi. Bu uyga kelganda suhbat ancha qizidi. Muzaffar mirzo menga bir kamar shamshir, bir qo'zi po'stin, bir bo'z toychoq berdi. Bu uyga kelganda Jonak o'zbekcha qo'shiq aytdi...

... Yigirma kundan beri Hirotda edim, har kuni otlanib ko'rmagan yerlarni sayr qilardim. Bu sayrlarda boshlovchimiz Yusuf Ali ko'kaldosh edi. Har qaysi sayrgohga tushilganida, Yusuf Ali ko'kaldosh bir nav osh tortardi. Bu yigirma kunda mashhur sayrgohlardan birgina Sulton Husayn mirzoning xo-naqohidan o'zga ko'rilmagan yer qolmadni, shekilli. Gozurgo, Alisherbekning bog'chasi va Juvozi Kog'az va Taxti Ostona, Pulikoh, Kahdiston, Bog'i Nazargoh, Ne'matobod va Gozurgo xiyoboni, Sulton Ahmad mirzoning hazirasi (maqbarasi) va Taxti Safar, Taxti Navoiy va Taxti Bargar, Taxti Hojibek va Shayx Bahovuddin Umar, Shayx Zayniddin, Mavlono Abdurahmon Jomiyning mozorot va maqbarasini, Namozgohi Muxtor va Havzi Mohiyon, Soqi Salmon va asli ismi Abdulvalid bo'lgan Billuriy, Imom Faxr va Bog'i Xiyobon, mirzoning madrasa va maqbarasini, Gavharshodbegimning madrasa va maqbarasini, Masjidi Jomeni, Bog'i Zog'on va Bog'i Nav, Bog'i Zubayda va Abusaid mirzo solgan Darvozayi Iroqning tashqarisidagi Oqsaroy, Puron va Sufayi Tirandozon (o'q otuvchilar supasi), Charg'olong va Mirvohid, Puli Molon va Xoja Toq, Bog'i Safid va Tarabxona, Bog'i Jahonor va Ko'shk, Muqavviyxona va Savsaniyxona, Duvozdah burj va Jahonoroning shimal tarafidagi katta hovuz, to'rt tarafidagi to'rt imorat va qal'aning besh darvozasi: Malik, Iroq, Feruzobod, Xush va Qipchoq, Bozori Malik va Chorsu darvozalari, shayxulislon madrasasi va Maliklarning jome masjidi,

Bog‘shahr va Badiuzzamon mirzoning Injil daryosi yoqasi-dagi madrasasi, Alisherbekning «Unsiya» atalmish yashay-digan uylarini, «Qudsiya» nomli maqbara va Masjidi Jomeni, «Xalosiya» va «Ixlosiya» nomli hammomlarini, madrasa va xonaqohni, «Safoiya» va «Shifoiya» atalmish shifoxonalarini oz fursatda aylanib chiqdim.

Sulton Ahmad mirzoning¹ kichik qizi Ma’suma Sultonbegimni onasi Habiba Sultonbegim bu to‘polonlardan burunroq Xurosonga olib kelgan ekan. Bir kun akamni ko‘rgani kel-ganimda onasi bilan kelib meni ko‘rdi. Ko‘rgan zahotiyoy qenda xiyla mayl paydo bo‘ldi. Maxfiy kishilar borib akam va yangam bilan (Poyanda Sultonbegimni «aka», Habiba Sultonbegimni «yanga» der edim) so‘zlashib, shunga kelishildiki, yanga mening ortimdan qizini olib Kobulga boradigan bo‘ldi.

Menga shu yerda qishlang deb Muhammad Burundubek va Zunnunbek astoydil harakat qilar, lekin qishlov yeri va qishlamoq asbobini yaxshi ta’minlab bermas edilar. Qish bo‘ldi va oradagi tog‘larga qor yog‘di. Kobul tarafidan hanuz xavotirlik ko‘proq bo‘ldi. Bular na qishlovlik yerni muhayyo qildilar, na bir epaqadagi qishlov yerni ko‘rsata oldilar. Oxiri zarurat bo‘ldi, ochiq ayta olmadik. Qishlov bahonasi bilan Hirotdan sha’bon oyining yettinchisida chiqib, Bodg‘is yerlari, toki viloyatlarga narsa yig‘ish va ish-kuch to‘plash uchun ketganlar kelib qo‘shilsinlar deb, har yurtda bir kun-ikki kun to‘xtab ko‘char edik. To‘xtash va kutish shu darajada bo‘ldiki, Langari Mirg‘iyosdan ikki-uch ko‘ch o‘tganda ramazon oyi ko‘rindi. Viloyatlarga ish-kuch uchun ketgan yigit-yalangdan ba’zisi kelib qo‘shildi, ba’zisi yigirma kun, bir oydan so‘ng Kobulga keldilar. Ba’zilari qolib mirzolarga navkar bo‘ldilar. Shulardan biri Saydim Ali darbon edi, qolib Badiuzzamon mirzoga navkar bo‘ldi.

Xisravshoh navkarlaridan hech kimga uningdek hurmat-e’tibor qilmasdim. Jahongir mirzo G‘aznini tashlab chiqqanida, G‘azni Saydimga berilgandi. O‘zining qaynisi Do‘s’t esa Angu Shayxni G‘azniga qo‘yib, o‘zi kelib lashkarga qo‘shilgan edi.

¹ Sul ton Ah mad mir zo – Samarqand hokimi (1469–94), temuriylardan Abu Said mirzoning katta o‘g‘li.

Haqiqatan, Xisravshoh navkarlari orasida Saydim Ali darbon bilan Muhib Ali qo‘rchidan o‘zga yaxshiroq kishi yo‘q edi. Saydim yaxshi axloq va atvorlik kishi edi. Qilichni zo‘r chopardi. Uyida yig‘insiz va suhbatsiz o‘tirmasdi, ancha saxovatli edi. Ajab kifoyatli va himmatli, zarofat va latofati go‘zal, munosabat va suhbat shirin, xushxulq, so‘zamol va hazilkash kishi edi. Aybi shu ediki, o‘ta fosiq va mazhabida biroz chetga og‘ish bor ekan. Biroz ikkiyuzlamachi edi. Ba’zilar uning bu fe’lini hazilga yo‘yardilar, biroq uni bejiz ayblamas ekanlar. Badiuzzamon mirzo Hirotni Shayboqqa oldirib, Shohbekka kelganida, mirzo bilan Shohbekning orasiga nifoq solgani uchun uni o‘ldirib, Hirmand daryosiga tashlatadi. Muhib Alining voqealarini «Vaqoye» davomida zikr etiladi.

Langari Mirg‘iyosdan o‘tib, Garjistonning¹ chekka kentlarni bosib, Chaxcharonga kelindi. Langardan o‘tib, Garjiston tuprog‘iga yetganda hammayoq qor edi. Qor borgan sari kattalashardi. Chaxcharonda ham qor otning tizzasidan yuqoriroqqa chiqardi. Chaxcharon yerlari Zunnunbekka tegishli edi. Uning o‘rnida Mirakjon Irdi ismli navkari turardi. Zunnunbekning g‘allalarini pul berib oldik. Chaxcharondan ikki-uch ko‘ch o‘tgach, qor juda ko‘paydi, uzangidan yuqoriroqqa chiqardi. Ko‘p yerda otning oyog‘i yerga tegmasdi. Yana tinimsiz qor yog‘ardi. Charoqdondan o‘tgach ham qor ko‘p katta bo‘ldi. Yo‘limiz ham noma'lum bo‘ldi. Langari Mirg‘iyos yerida Kobulga qaysi yo‘l bilan borishimizni kengashdik. Men va aksar odamlar shunday mulohazada edikki, hozir qish, tog‘ yo‘li ko‘p xavotirli, qiyinchiliklar bo‘ladi. Qandahor² yo‘li biroz yiroqroq bo‘lsa-da, lekin betashvish va bexavotir borilardi. Qosimbek: «U yo‘l yiroq, mana shu yo‘l bilan boramiz», – deb turib oldi. Shu yo‘lga tushdik. Pir Sulton peshoyi³ yo‘l boshlovchi edi, qariligidanmi yo gangiradimi, yo qorning kattaligidanmi, yo‘lni yo‘qotdi, boshlay olmadidi.

¹ Garjiston – Xurosodagi viloyat nomi.

² Qandahor – hozirgi Afghonistonning janubiy qismidagi shahar va viloyatning nomi.

³ Peshoyi – urug‘-elat nomi.

Qosimbekning harakati bilan bu yo'lga tushgandik. Qosimbek uyalganidan o'zi va o'z o'g'illari qor tepib, yo'l topib, oldinda yurardilar. Keyingi kun ham qor ko'paydi. Yo'l ham noma'lum. Har qancha harakat qildik, yurolmadik. Chora topolmay qaytib, bir o'tinlik yerga tushib, yetmish-sakson sara yigtlarni kelgan izimiz bilan qaytib, pastroqda qishlagan hazora-mazoradan topib, yo'l boshlovchi keltirsinlar deb tayin qildik. U ketganlar kelguncha uch-to'rt kun bu yurtdan ko'chilmadi. Borganlar ham yaxshi yo'l boshlaydigan kishi olib kelmadilar. Tavakkal qilib, Sulton peshoyini ilgari solib, yo'l topolmay qaytgan yo'limizga yana tushib jo'nadik. Bir necha kun ko'p tashvish va mashaqqatlar tortildi. Umr bo'yи buncha mashaqqat tortmagan edik. Bu matla' o'sha fursatda aytildi:

Charxning men ko'rmagan javr-u jafosi qoldimu?
Xasta ko'nglim chekmagan dard-u balosi qoldimu?

Bir haftaga yaqin qor tepib, kunda bir-bir yarim shar'iydan ortiq ko'chilmas edi. Qor tepar kishi men edim, o'n-o'n besh ichki yaqinlar va Qosimbek edi. Ikki o'g'li – Tangriberdi va Qanbar Ali bilan yana ikki-uch navkari ham bor edi. Ushbu kishilar yayov yurib, qor tepar edik. Har kishi yetti-sakkiz-o'n qari¹ ilgari yurib qor tepardi. Har qadam qo'yganda beligacha, ko'ksigacha bota-bota qor tepar edi. Bir necha qadam borgan-dan so'ng ilgarigi kishi holdan toyib to'xtar, yana bir kishi oldinga o'tardi. Bu o'n, o'n besh-yigirma kishi yayov borib qorni tepgach, bo'sh otni tortish imkonni bo'lardi. Bo'sh ot tortilar, uzangisigacha, qornigacha bota-bota bu bo'sh ot ham o'n-o'n besh qadamcha yo'l yurib toliqar edi. Bu otni chetga tortib, boshqa bir bo'sh ot ilgari tortilardi. Ushbu yo'sin bilan biz o'n, o'n besh-yigirma kishining otlarigina ilgari tortildi. Qolgan barcha yigitlar va bek atalganlar otlaridan ham tushmay, tayyor tepilgan va bosilgan yo'lga kirib, boshlarini quyi solib kelishardilar. Kishiga biror narsa taklif qiladigan yoki

¹ Qari – uzunlik o'lchovi. Taxminan 1 m ga teng.

zo'rlik qilish payti emas edi. Har kimning himmat va jur'ati bo'lsa, bunday ishlarni o'zi tilab qiladi.

Shu usul bilan qor tepib, yo'l qilib Injukon degan yerdan uch-to'rt kunda Zarrin dovonining tubiga – Havoli Qutiy degan g'orga keldik. Ana shu kuni qattiq bo'ron bo'lib qor yog'ardi. Barcha o'lim vahimasiga tushdi. U el tog'dagi g'or va kovaklarni havol deydi. Shu g'orga yetganda, qor quyuni tezlashdi. Ushbu g'or qoshida to'xtadik. Qor – ko'p, yo'l – so'qmoq, tepilgan-bosilgan yo'l bilan ham ot zo'rg'a yuradi. Kunlar g'oyat qisqaligidan oldindagilar yorug' payti g'or oldiga keldilar, namozshom, xuhton namozigacha boshqalar yetib keldi. Ulardan keyingilar to'xtagan yeridayoq tushdi. Ko'plar ot ustida tong ottirdi, g'or torroq ko'rindi. Men g'orning og'zida kurak olib, qor kuradim, qorni ko'ksimgacha qazidim, sira yerga yetmasdi. Biroz shamoldan pana bo'ldi, o'sha yerda o'tirdim. Har qancha: «G'orga kiring» deyishsa ham kirmadim. Barcha el qorda va bo'ronda, men issiq uyda va istirohatda o'tiramanmi deb o'yladim. Munda barcha el tashvish bilan mashaqqatda, men munda uyqu bilan farog'atda bo'laymi?! Bu muruvvat va hamjihatlikdan yiroq ishdir. Men ham har tashvish va mashaqqat bo'lsa ko'rayin, har nechuk el toqat qilib tursa, turayin. Bir forsiy maqol bor: «Do'stlar bilan birga bo'lgan o'lim to'ydir». O'shanday qor quyunida o'zim qazigan – yasagan chuqurda o'tirdim. Xuhton namozigacha qor shunday tez yog'diki, men engashib o'tirgan edim, orqam, boshim va quloqlarim ustiga to'rt enlik qor yog'di.

O'sha kecha qulog'imga sovuq ta'sir qildi. Xuhton namoz payti g'or ichini yaxshi kuzatganlar «G'or juda kengdir. Bunda hammaga yetarli joy bor», – deb qichqirishdi. Buni eshitishim bilan, ustimidagi qor-morni silkib g'orga kirdim. G'or yaqinidagi yigitlarni ham taklif qildim. Qirq-ellik kishiga yetadigan farog'atli joy bor ekan. Yeguliklar: quritilgan et, qovurdoq, kimda nima bo'lsa borini keltirdilar. Shunday sovuq, qor va bo'ronda ajab issiq, bexatar va farog'atli yerga keldik.

Ertasi saharlab qor va bo'ron turdi. Ertasiga ko'chib o'sha yo'sin bilan qor tepib, yo'l yasab, dovon ustiga chiqdik. Yo'l ham qirlab yuqoriga chiqarkan. Ko'tali Zarrin (Zarrin dovoni)

der ekanlar. Biz yuqoriga chiqmay dara ichi bilan pastga yo'naldik. Dovonning tubiga yetgunimizcha kun kech bo'ldi. Dara og'zidayoq qo'ndik. O'sha kecha juda qattiq sovuq bo'ldi. Ko'p mashaqqat va uqubat bilan u tunni o'tkazdik. Ko'p kishining qo'l-oyog'ini sovuq urdi. Kepakning oyog'ini, Suyunduk turkmanning qo'lini, yana Axiyning oyog'ini o'sha kecha sovuq oldi. Ertasiga dara quysisidan yurdik. Yo'lning bu emasligini bilib, ko'rib, tavakkal qilib, dara quysisidan yurildi. Yomon uchma, sekirtma yerlardan tushildi. Namozshom paytida daraning og'ziga chiqdik.

Bu dovonda buncha katta qor bor payti kishi undan o'tgani ni, bu dovondan oshib o'tmoq kishining ko'ngliga kelganini bironta qari-yoshi ulug' eslayolmaydi. Garchi katta qordan bir necha kun anchagina tashvish ko'rgan bo'lsak-da, lekin oxiri ushbu katta qor tufayli o'zimizni manzilga yetkizdik. Chunki bunday katta qor bo'lmasa, o'shanday yo'lsiz uchma va sekirtmadan kim o'ta olardi?! Ehtimol, katta qor bo'lmasa, avvalgi uchmadayoq barchaning ot va tuyasi batamom qolib ketgan bo'lardi.

Har nek-u badeki dar shumorast,
To darnigari salohi korast.

(Mazmuni. *Har bir yaxshi-yomonlikni mulohaza qilib ko'r-sang, hayot uchun xayrli ishlarga sabab bo'ladi.*)

Xufton payti Yakka O'langga¹ kelib tushdik. Yakka O'lang eli biz kelib tushgandayoq xabar topdilar. Issiq uylar, semiz qo'ylar, otga o't va pichan benihoya, o't yoqmoqqa o'tin va tezak behad hisobsiz edi. O'shanday sovuq va qordan qutulib, bunday keng va issiq uylar topmoq, unday mashaqqat va balodan xalos bo'lib, buncha ko'p non va semiz qo'ylar topmoq bir huzurdirkim, buni bunday mashaqqatlarni ko'rganlar biladi, shunday bir farog'atdirki, buni o'shanday balolarni boshdan kechirganlar fahm qiladi. Xotirjam va ko'ngil tinch holda bir kun Yakka O'langda turdik...

¹ Ya kka O'la ng – Bomiyondagi joy nomi.

... Ertasi ertalab Langardan otlanib, Ushturshahr¹ to‘g‘risida tushdik. Undan sahar otlanib, tushga yaqin G‘urband tor tog‘ oralig‘idan chiqib, ko‘prik boshida tushdik. Ot sug‘orib, otni tindirib, peshin namozi chog‘i ko‘prik boshidan otlandik. Tutqovulgacha qor yo‘q edi. Tutqovuldan o‘tib borganimiz sari qor kattaroq bo‘ldi. Zimma Yaxshi bilan Manor orasida shunday sovuq ediki, umr bo‘yi muncha sovuqni ko‘rmangan edik. Ahmad yasovul bilan Qora Ahmad yurtchi yana Kobuldag'i beklarga yuborildi. O‘scha va‘da muddati o‘tib, tog‘ etagida to‘xtab, sovuqdan betoqat bo‘lib, o‘tlar yondirib isindik.

O‘t yondirar vaqtি bo‘lmasa-da, sovuq zarbidan betoqat bo‘lib, o‘t yondirildi. Tongga yaqin Manor tog‘i etagidan otlandik. Manor bilan Kobulning orasida qor otning tizzasigacha kelardi. Qatqaloq bo‘lgandi, yo‘ldan chetga chiqqan kishi qiyinalib yurar edi. Bu oraliqdan tizilishib keldik. Shu bois farz vaqtida Kobulga zo‘rg‘a yetdik. Bibimohro‘yga yetishimizdan burunroq arkdan katta o‘t chiqdi. Ma’lum bo‘ldiki, xabar topishibdi. Sayyid Qosimning ko‘prigiga yeta solib, Shirim tag‘oyi bila hujumchi qism kishisini Mullo Boboning ko‘prigi tomonga yubordik. So‘l qanot va markaz Bobo Lo‘li yo‘liga tushdik. U mahallar Xalifa bog‘ining o‘rnida bir kichikroq bog‘cha bo‘lardi. Ulug‘bek mirzo (Kobuliy) solgan edi. Langar yo‘sinlik. Daraxt-yog‘ochi qolmagan bo‘lsa-da, ihotalangan edi. U yerga Mirzoxon egalik qilardi.

Muhammad Husayn mirzo² Ulug‘bek mirzo solgan Bog‘i Bihishtda edi. Men Mullo Bobo bog‘ining ko‘cha tarafidagi qabristonga yetib edimki, shoshilib, ilgarilab ketganlarni urib, qaytarib bizga tomon haydadilar. Ilgari borib Mirzoxon o‘tirgan hovliga kirganlar to‘rt kishi edi. Biri – Sayyid Qosim eshikog‘a, ikkinchisi – Qanbar Ali Qosimbek, uchinchisi – Sherquli qorovul mo‘g‘ul, to‘rtinchisi Sherqulining jamoatidan Sulton Ahmad mo‘g‘ul edi.

¹ U s h t u r s h a h r – Kobul yaqinidagi shahar nomi.

² M u h a m m a d H u s a y n m i r z o – Husayn Boyqaroning o‘g‘illaridan biri.

Bu to‘rt kishi boriboq, tortinmasdan Mirzoxon o‘tirgan hovliga kiradilar, to‘s-to‘polon boshlanadi. Mirzoxon bir otga minib qochib chiqadi. Abulhasan qo‘rbegining inisi Muhammad Husayn ham Mirzoxonga navkar bo‘lgan edi. Bu to‘rt kishidan Sherqulini chopib yiqitishadi. Boshini kesish payti-da qutulib ketadi. Bu to‘rt kishi qilich yeb, o‘q yeb, yadar bo‘lib, o‘sha yerda bizga qo‘sildilar. Ko‘chada otlik el tqliib, to‘xtab qoldi, na ilgari yura olardilar, na keyinga qayta oladilar. Men yaqinimdagи yigitlarga: «Otdan tushinglar, tashlaninglar!» – dedim. Do‘s’t Nosir, Xoja Muhammad Ali kitobdor, Bobo Sherzod, Shoh Muhammad va yana bir necha yigit otdan tushib, borib, o‘q otdilar. Yov qochaverdi. Qo‘rg‘ondagilarga ko‘p ko‘z tutdik. Urush payti yetib kelishmadi. Yovni qochirgandan so‘ng birin-ketin chopib kela boshladilar. Hali Mirzoxon o‘tirgan chorborg‘ga kirib ulgurmagan ham edimki, qo‘rg‘ondagi eldan Ahmad Yusuf, Sayyid Yusuf keldi. Men bilan hamroh bo‘lishdi. Mirzoxon o‘tirgan bog‘ga kirdik. Ko‘rdim. Mirzoxon – yo‘q. Qochib ketibdi. Tezdanoq qaytdim. Ahmad Yusuf mening ortimda edi. Chorbog‘ning eshididan Do‘s’t Saripuliy piyoda qilich yalang‘ochlab kirib keldi. U Kobulda mardonaliqi tufayli hurmat-e’tibor topgan, o‘sha yerda Kobulda soqchi dasta boshlig‘i mansabiga qo‘ylig‘an edi. U menga tik qarab bostirib kelardi. Mensovut kiyigan edim. Kamarband bog‘lamagandim. Dubulg‘a ham kiy-magan edim. Bir necha marta: «Hay Do‘s’t, hay Do‘s’t!» – deb qichqirdim, Ahmad Yusuf ham qichqirdi. Sovuq va qorda yuraverib o‘zgarganimdanmi, yo meni tanimadi, yo urush g‘azabidan, tortinmay yalang bilagimga qilich soldi. Tangri inoyati edi. Qil uchicha ta’sir qilmadi.

Agar tig‘i olam bijunbad zi joy,
Naburrad rage to naxohad Xudoy.

(Mazmuni. *Agar olam tig‘i qo‘zg‘alsa ham, Xudo xohla-masa biror tomirni kesolmaydi.*)

Men ushbu duoni o‘qigan edim. Uning xosiyati bo‘ldi, Tangri taolo bu falokatni daf qildi va bu menga yo‘nalgan baloni bartaraf qildi...

U yerdin chiqib Muhammad Husayn mirzo o‘tirgan Bog‘i Bihishtga keldim. Muhammad Husayn mirzo qochib chiqib, yashirinibdi. Muhammad Husayn mirzo o‘tirgan bog‘channing raxnasida yetti-sakkizta o‘q-yoylik kishi turibdi. Men bu kishilarning ustiga otimni niqtab bordim, to‘xtamay qocharbdilar. Men yetib, biriga qilich soldim. Shunday yumalab ketdiki, boshi uchib ketdimikan deb o‘yladim. O‘tib ketdim, men qilich solgan kishi Mirzoxonning ko‘kaldoshi Tulak ko‘kaldosh ekan. Qilich yelkasiga tushibdi. Muhammad Husayn mirzo o‘tirgan uylarning eshigiga yetganimda tom ustidan bir mo‘g‘ul, mening navkarim edi, uni tanirdim, tik turgan holda yuzimga qarab yoy tortdi. U tarafdan, bu tarafdan: «Hay, hay, podshohdir!» – dedilar. O‘jni qaytarib sadoqqa solib qochdi. O‘q otishdan ham ish o‘tgan edi. Mirzosi va sardorlaridan qochgani qochdi, qo‘lga tushgani tushdi. Ushbu yerda kim uchun ham o‘q otardi? Men hurmat-e’tibor qilib Ningnahor¹ tumanini inoyat qilganim Sulton Sanjar barlos ham bu fitnada ular bilan sherik edi. Tutib, bo‘ynini bog‘lab keltirdilar. Iztirob bilan: «Hoy, menda ne gunoh?!» – deb qichqirardi.

«Gunoh bundan ortiq bo‘ladimi? Sulton Sanjar barlos bu jamoat bilan hamjihat va kengashdoshlardan bir ulug‘rog‘i sen bo‘lsang!

Xon dodamning validasi Shohbegimga jiyan bo‘lar edi. Bunday sharmanda qilib sazoyi qilmang, bunga o‘lim yo‘qdir!» – deb buyurdim.

Bundan chiqib qo‘rg‘onda qolgan beklardan biri Ahmad Qosim ko‘hburni² bir dasta yigitlar bilan Mirzoxonning ortidan yubordim. Ushbu Bog‘i Bihisht yonida Shohbegim va Xo‘b Nigorxonim chodirlar qurib o‘tirgan edilar. Bu bog‘dan chiqib, Shohbegimni va xonimni ko‘rgani bordim. Shahar eli va sayoq-salpilar hujum qilib, burchak-burchakda elni tutmoq-

¹ Ning nahor – Kobuldagi tumanlardan birining nomi.

² Ko‘hbur – tog‘kesar.

qa, mol talamoqqa yo'l qo'yibdilar. Kishilar qo'yib, barcha talonchilarni urib-surib chiqardik.

Shohbegim va xonim bir uyda o'tirgan edilar. Doimgi yerda tushib, borib burungidek adab va ta'zim bilan ko'rishdim. Shohbegim va xonim behad, beqiyos iztirobda, xijolatdan boshlari egik xijil edilar. Na ma'qul uzr ayta oladilar, na durustroq hol-ahvol so'rashga botina oladilar. Bulardan umidim bunday emas edi. Bu fitnachi guruh har qanday badbaxtlik niyatida bo'lsalar ham, beginning, xonimning so'zlariga qu-loq solar edilar! Mirzoxon ham, Shohbeginning tug'ishgan nevarasi, kecha va kunduz begin qoshida edi. Mirzoxon agar bularning so'zlariga kirmasa, uni qo'ymay o'zlarining qoshida saqlasa ham bo'lardi.

Necha martalab zamona notinchligidan va davron murosasizligidan, taxt va mamlakat, navkar va savdardan ayrilib, ularga iltijo etdim. Onam ham bordi, hech qanday hurmat-e'tibor va shafqat ko'rmadik. Mening ukam Mirzoxonning va onasi Sulton Nigorxonimning o'z ma'mur viloyatlari bor edi. Men va onam, hali viloyat nari tursin, bir kent va bir necha qush egasi bo'la olmadik. Mening onam – Yunusxon qizi va men – nabirasi emasmidim? U tabaqadan kim mening dargohimga tushsa, qo'limdan kelgancha qarindoshlik va yaxshilikni joyiga keltirdim. Chunonchi, Shohbegim keldilar, Kobulning a'lo yerlaridan Pamg'lonni berdim. Yana har xil farzandlik burchi va xizmat ko'rsatishda kamchilikka yo'l qo'ymadim.

Sulton Saidxon – Koshg'ar xoni besh-olti yayov-yalang bilan keldi. Tug'ishgan ukalarimdek ko'rib, Lamg'on tumanlari dan Mandirovar tumanini berdim. Shoh Ismoil Shayboniyxon ni Marvda yenggan mahali, Qunduzga o'tganimda, Andijon viloyati men tomonga boqib, ba'zi qo'rg'onbegilarini quvib, ba'zi yerlarini berkitib, menga kishi yubordilar. Men Sulton Saidxonga barcha navkarimni topshirib, ko'mak qo'shib, tug'ilib o'sgan yerim Andijon viloyatini unga bag'ishlab, xon qilib yubordim.

Hozirgacha ham u tabaqadan kim kelmasin, o'z tug'ishganlarimdek ko'rdim. Chunonchi, Chin Temur Sulton, Eson Temur Sulton, To'xta Sulton va Bobo Sulton shu paytlarda

mening qoshimdadirlar. Barchani o‘z tug‘ishganlarimdan yax-shiroq ko‘rib, hurmat-e’tibor va shafqatlar qilganman.

Bu bitilganlardan maqsad shikoyat emas, rost voqealarni yozayotirman. Bu yozilganlardan maqsad o‘zimning ta’rifim emas, haqiqiy voqeа bayonini tahrir etganman. Chunki bu paytlarda shunga qaror qilinganki, har so‘zning rosti bitilgay va har ishning haqiqiy voqeiy bayoni tahrir etilgay. Zotan, ota-og‘adan har qanday yaxshilik va yomonlik ko‘rgan bo‘lsam yozdim. Qarindosh va begonada har qanday ayb va fazilatlar sodir bo‘lgan bo‘lsa, tahrir ayladim. O‘quvchi ma’zur tutsin va eshituvchi e’tiroz qilmasin.

Bu yerdan turib Mirzoxon o‘tirgan chor bog‘ga kelib, viloyat-larga, aymoqlarga va yaqin-yiroqlarga fathnomalar – zafar maktublari yuborildi. Undan so‘ng otlanib arkka keldim. Muhammad Husayn mirzo qo‘rquvdan xonimning to‘sakxonasi-ga qochib kirib, to‘sakning bo‘g‘jamasiga o‘zini bog‘latipti. Qo‘rg‘ondagilardan Mirim devon va yana ba’zilarni bu uylar-ni axtarib, Muhammad Husayn mirzoni topib kelish uchun yubordik. U xonimning eshigiga kelib, qo‘polroq, odobsiz-roq so‘zlar aytibdi. Har holda, Muhammad Husayn mirzoni xonimning to‘sakxonasidan topib, arkda mening qoshimga keltirdilar. Men burungidek ta’zim qilib o‘rnimdan turdim, uncha qo‘pollikka bormadim. Muhammad Husayn mirzoni bunday xunuk va tuban harakatga qadam qo‘ygani, bunday g‘avg‘o va fitna ishlarga bosh qo‘shgani uchun burda-burda qilsam o‘rinli edi. Orada, har holda, qarindoshchilik bor edi: mening tug‘ishgan xolam Xo‘b Nigorxonimdan o‘g‘il-qizlari bor edi. Bu huquqni eslab, Muhammad Husayn mirzoni ozod qildim. Xuroson sari ruxsat berildi. Bu muruvvatsiz va Haqni tanimaydigan kishi mening bunday yaxshiligimni, ya’ni joni-ni omon qoldirganimni butkul unutib, Shayboniyxon qoshida mendan g‘iybat va shikoyatlar qilibdi. Oz fursat o‘tmay Shay-boniyxoning o‘ziyoq uni o‘ldirib, jazosiga yetkazdi.

Tu bad kunandayi xudro ba ro‘zgor supor,
Ki ro‘zgor turo chokarest kinaguzor.

(Mazmuni. *Sen o'zingga yomonlik qilganni hayot izmiga topshir. Bil: hayot qasoskor mulozimingdir.*)

Mirzoxonning ortidan yuborilgan Ahmad Qosim ko'hbur va yana bir necha yigitlar Qarg'abuloq qirlarida Mirzoxonga yetadilar. U qocha ham olmasdi, qo'l ko'tarishga ham quvvat va jur'ati yo'q edi, olib keldilar. Men eski devonxonaning sharqi-shimoliy tomonidagi ayvonda o'tirgandim. Men: «Kel, ko'rishaylik», – dedim.

Dovdiraganidan egilib kelguncha ikki marta yiqildi. Ko'rishganidan so'ng, yonimga o'tqazib, ko'nglini ko'tardim. Sharbat keltirdilar. Mirzoxondan vahimani ketkizish uchun sharbatni avval o'zim ichib, so'ng unga berdim. Mirzoxon tomoniga o'tgan sipohiy va el, mo'g'ul va chig'atoy vahimada, ham notinch edilar. Shu bois ehtiyyot chorasi sifatida Mirzoxonni egachisining uyidagina bo'lishini buyurdik. Ushbu fitnaga bosh qo'shgan el va ulusdan hanuz xavf va ikkilanish bor edi. Mirzoxonning Kobulda qolishini ma'qul ko'rmay, bir necha kundan so'ng u Xuroson tomonga jo'natildi.

Ularga ruxsat bergandan so'ng Boron, Choshtuba va Gulbahor tog' etaklari sayriga bordik. Bahorda Boron cho'li, Choshtuba dashti va Gulbahor etaklari juda fayzli bo'ladi. Sabzasi Kobul viloyatining o'zga yerlariga qaraganda xiyla yaxshi bo'ladi: turli-tuman lolalar ochiladi. Bir marotaba lola navlarini sanashlarini buyurdim: o'ttiz to'rt nav lola chiqdi. Chunonchi, bu yerlar ta'rifida bir bayt aytilgan edi:

Sabza-vu gullar bila jannat bo'lur Kobul bahor,
Xossa bu mavsumda Boron yozisi-yu Gulbahor.

Ushbu sayrga kelganda, bu g'azalni yozib tugatdim:

Mening ko'nglumki gulning gunchasidek tah-batah qondur.
Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur?

Darhaqiqat, bahorda sayr qilmoqqa, qush solmoqqa va qush otmoqqa bu yerlardek joylar kam uchraydi. Shuning uchun Kobul va G'azni viloyatining ta'rif va tavsifida biroz so'z yuritildi.

Ushbu yili Nosir mirzo va uning qo‘lidagilar muomalasi va ishlaridan Muhammad qo‘rchi, Muborakshoh, Zubayr va Jahongir singari Badaxshon beklari ranjidilar, hatto yov bo‘ldilar. Barcha ittifoq bo‘lib, lashkar tortib, Ko‘kcha daryosining Yaftal va Rog‘ tomonidagi tekislik orqali otliq-yayovni yig‘ib, saf tuzib qirlar bo‘ylab Hamchonning yaqiniga keldilar. Nosir mirzo va qoshidagi tajribasiz yigitlar andisha va mulo-haza qilmay, bular bilan qirlarga kelib urush qiladilar. Yeri o‘ydim-chuqur, piyodalari lashkar bir-ikki marta ot solganida to‘xtab urib qaytaradilar; biroq dosh bera olmay, qochadilar. Badaxshonliklar Nosir mirzoni yengib, bor narsalarini talon-toroj qildilar.

Nosir mirzo yaqinidagilar bilan yengilib, talanib, Ishkamish va Norin bilan Kelogoya borib, Qizilsuvning yuqorisidan o‘tib, Obdara yo‘li bilan kirib, Shibartu dovonidan oshib, Kobulga yetmish-saksonta talangan, oldirgan, och-yalang‘och navkar-savdari bilan keldi.


Qodir Ollohnning ishini qarangki, bundan burun ikki-uch yil Nosir mirzo tamom el va ulusni ko‘chirib, haydab, Kobuldan yovlashib chiqib, Badaxshonga borib, dara va qo‘rg‘onlarni berkitib, ne xayollar bilan yurardi. Burungi qilmishlaridan boshi quyi egilgan va xijil, o‘zining sotqinligidan sharmanda va xijolat bo‘libdi. Men ham hech narsani yuziga solmadim. Yaxshi so‘rashib-netib xijolatdan chiqardim.

To‘qqiz yuz o‘ttiz oltinchi (1529) yil voqealari

Muharram oyining o‘n uchinchisida, seshanba kuni Shihobiddin Xisrav bilan Shayx Muhammad G‘avs Gvaliyardan¹ Rahimdodning gunohlarini so‘rab keldi. Darveshvash va aziz inson edi. Rahimdodning gunohini u kishiga bag‘ishlab, Shayx Gur'an bilan Nurbek Gvaliyarga yuborildi. Gvaliyarni bularga topshirib...

... Bularni ko‘makka yubordik. Keyin Muhammad Ali Jang-jang jo‘natildi. Ilgari borishi tayinlangan Mullo Muhib Ali

¹ Gvaliyar – Hindistondagi joy nomi.



**Boburning «Osoyish», «Oroyish», «Gunjoyish» va «Farmoyish»
nomli qayqlari. «Boburnoma»ga ishlangan miniyaturlari**

askarlari yetib borgunicha, Abdulaziz ularni joyidan quvlab, bayrog‘ini olib, Mullo Ne’mat, Mullo Dovud, Mullo Opoqning ukasi va yana bir necha kishini qo‘lga tushirib, shahid qilibdi. Bular yetib borishgach, Muhib Alining tog‘asi Zohir Tabariy bostirib borib jang qiladi, lekin unga yordam yetib bormaydi, Zohirni o‘sha yerdayoq qo‘lga oladilar, Muhib Ali ham urush payti otdan yiqladi. Boltu yon tarafdan kirib, Muhib Alini olib chiqadi. Bir kuro‘hgacha bularning ortidan quvib keladilar. Muhammad Ali jang-jangning qorasi ko‘ringach, to‘xtaydilar. Bizga dushmanning odamlari yaqin kelib qoldi degan xabarlar ketma-ket kela boshladи. Jiba¹ kiyib, otlarga kejim² solib, qurollanib jangga otlandik. Aravalarni tortib kelishlarini buyurdim. Bir kuro‘h yo‘l bosdik. Dushman odamlari orqaga qaytgan ekan.

Daryoyi Xo‘rd kattagina ko‘l edi. Suvning tashvishini qilib shu yerda to‘xtadik. Aravalarni oldinga istehkom qilib, zanjirlar bilan ularning gir atrofini bog‘lab chiqdik. Raana Sangaa³ benihoya ko‘p jangchilari va qo‘smini bilan oldinga yurish boshladи. Hinduston odatiga ko‘ra, yuz mingni bir lak⁴ va yuz lakni bir karo‘r⁵ deb aytadilar. Uning jangchilari va lashkari ikki mingga, viloyati o‘n karo‘rga yetgan ediki, unga bir lak otliq joylashib, yashashi mumkin edi. Hech bir urushda unga yordam qilmagan, itoat etmagan va va’dalashmagan bosh va boshliqlar unga qo‘silib, uning hukm-u farmonlarini bajara boshladilar.

Uning lashkari tafsiloti mana bunday: Raay Sing va Sarangpur hukumatining egasi Salohiddinda o‘ttiz ming otliqqa yetadigan yer va suv bor edi. Raval Uday Sing Bagariy o‘n ikki ming otliqqa ega edi. Mevatning hokimligi qo‘lida bo‘lgan Hasanxon Mevatiyning o‘n ikki ming, Bahodir Hamloydariyning to‘rt ming va Satraviy Keychiyning olti ming,

¹ Jiba – metalldan to‘qib yasalgan qadimgi urush kiyimi, jeva, sovut.

² Kejim – urush vaqtida otga kiydiriladigan o‘q o‘tmas maxsus sovut.

³ Raana Sangaa – rojput, Boburning Hindistondagi eng kuchli raqibi.

⁴ Lak – yuz ming.

⁵ Karo‘r – bir million.

Jarmal Param Dev va Mevat hokimining to‘rt ming va Bir Sing Dev Chavhanning to‘rt ming otliqqa yetadigan yer-suvi bor edi. Sulton Iskandarning o‘g‘li Mahmudxonning, garchi viloyati bo‘lmasa ham, sardorlikni havas qilib, o‘n ikki ming otliq lashkarni saqlardi. Bular hisoblab chiqilsa, dushman ikki ming lak kishiga yetib qoladi.

Dushmanning kelishini sezib, o‘z qarorimizni qabul qilib, askarlarni shunday safladik. Markazga podshoh huzuridagi xos otliq askarlar qo‘yildi, markazning o‘ng qanotiga Chin Temur Sulton, Mirzo Sulaymon, Xoja Do‘sst Hovand, Yunus Ali, Shoh Mansur barlos, Darvesh Muhammad sorbon, Abdullo kitobdor va Do‘sst eshikog‘ani boshqa amirlar bilan qo‘yishga qaror qildik. Chap qanotiga sulton Bahovuddin Bahlul Lo‘diyning o‘g‘li Alovuddin, Shayx Zayn Xavofiy, Nizomiddin Ali xalifaning o‘g‘li Amir Muhib Ali, Qo‘chbekning ukasi Turdibek, Qo‘chbekning o‘g‘li Sherafgan hamda Oroyishxon, Xoja Husayn va boshqa kishilarimizni safladik. O‘ng qanotga o‘zimiz turib, Hinduston amirlaridan Xonixonon Dilovarxon, Malikdod Karaniy va Shayx Gurjan kabi kishilarni xizmatimizda ushlab turdik. O‘ng qanotga yana Qosim Husayn Sulton, Ahmad Yusuf o‘g‘loqchi, Hindubek qavchin, Xisrav ko‘kaldosh, Qivombek, O‘rdushoh, Vali xozin, Qaroqo‘zi va Marqli Siystoniy va Xoja Pahlavon Badaxshiy va Abdushukur hamda Malik Qosim Bobo Qashqa, uning ukasi boshqa mo‘g‘ul bahodirlari bilan tayinlandi. Ularning ortidan Mirhama, Muhammadiy ko‘kaldosh, Xojagi Asad bir necha yigit bilan mo‘ljallandi. Chap qanotning o‘ng qo‘li belgisi qilib Mahdiy Xoja, Muhammad Sulton mirzo, Mahdiy Sultonning o‘g‘li Odil Sulton, Abdulaziz miroxo‘r va Muhammad jangjang, Qutluqqadam qarovul, Shoh Husayn Yorakiy, Jonibek atka va Hinduston amirlaridan Sulton Alovuddinning o‘g‘illari Jalolxon va Kamolxon hamda Alixon, Shayxzoda Farmuliy, Nizomxon Bayana, Mo‘min atka, Rustam turkman saroydagagi xos amaldorlari bilan, boshqa bahodirlar, g‘oziyalar ixlos bilan saflanib, urushga bel bog‘ladilar.

Nizomiddin Ali Xalifaga Rum g‘azoti tartibida lashkarimiz oldida boradigan miltiqlilar va ra’dandozlarni¹ pana qilish uchun aravalarni keltirib zanjir bilan bog‘lashlarini buyurdik. Sulton Muhammad baxshiga yaqinimizda turish buyurildi. Zarur ish chiqib qolganida unga buyurishimizni, u esa yasovullar va tovachilarga aytishi, ular esa boshliqlariga yetkazishini tayinladik. Lashkarning yurishi tartibga solingach, boshliqlar o‘z qo‘li ostidagi askarlari bilan borib, joy-joylariga turdilar. Undan keyin biz: «Buyruq bo‘lmaqning qurʼoniga qo‘zg‘almasin va to ruxsat bermagunimizcha may-donga kirib jang boshlamasin», – deb farmon berdik.

Kunning birinchi posи² o‘tishi bilan chap va o‘ng qanotlar-da shunday urush bo‘ldiki, go‘yo zaminni zilzila va zamonni to‘polon bosdi. Dushman bizning o‘ng qanotimizdan kirib ke-lib, Xisrav ko‘kaldosh va Malik Qosim Bobo Qashqaga qarshi hujumga o‘tdi. Chin Temur Sultonga ularga ko‘mak berish uchun yetib borish buyurildi. U jasorat ko‘rsatib, dushmanni quvib, qo‘riqchilari safini buzib, ularni markaz qo‘shini ya-qiniga surib borib qo‘ydi va bu g‘alabaning mukofotini uning nomi bilan atadik. Mustafo Rumiya aravalarni markazdan oldinroqqa eltilish buyurildi. Miltiq va zarbzan bilan dushman lashkarini to‘xtovsiz o‘qqa tutdilarki, bahodirlarning ko‘ngil-lari yorishdi. Dushmanidan juda ko‘pchiligining tanasi yer bilan bitta bo‘ldi – ularni fano yeli olib ketdi.

Lekin voqeа shunday bo‘lgan ediki, Raana Sangaaning lashkari saf-saf bo‘lib kelaverardi. Men ham odamlarimdan yaxshilarini terib-terib olib, bir-birining ortidan yordamga yuborardim. Dastlab Qosim Husayn Sulton, Ahmad Yunus va Qivombekka farmon berdim. Undan keyin Hindubek qavchin-ga farmon berdim. So‘ngra Muhammad ko‘kaldosh va Xojagi Asadga hukm qildim. Undan so‘ng Yunus Ali, Shoh Mansur barlos va Abdullo kitobdor, ularning ortidan Do‘s’t eshikog‘a va Muhammad Xalil axtabegi ko‘makka yuborildi. Dushmanning o‘ng qanotidagi askarlari bizning javong‘orga hujum qil-di va har safar bizning ixlosi baland g‘oziyalarimiz dushman-

¹ Ra’ d a n d o z – олов отадиган куролни босхарувчи.

² P o s – kun (сутка)ning саккиздан бирі.

ning bir to‘dasini o‘q yomg‘iri bilan yerga sanchardi. Qolgan qismini esa qilich va xanjar chaqmog‘i bilan to‘ppa-to‘g‘ri jahannamga ravona qilardi. Mo‘min atka, Rustam turkman, Mullo Mahmud, Ali atka, Muhammad Sulton mirzo, Odil Sulton, Abdulaziz miroxo‘r, Qutluqqadam qarovul, Muhammad Ali jang-jang va Shoh Husayn Borakiy mo‘g‘ul g‘onchi qo‘l bilan urushga tushib, bir joyda qattiq olishdilar. Xoja Hasan devon devoniylar (mahkamadagilar) bilan ko‘makka ketdi. Barcha bahodirlar jon olib, jon berib kurashib, dushmanidan qasos oldilar. Chunki dushmanning ko‘pligidan urush uzoq cho‘zildi. Xos xizmatkorlar aravalor ortida xuddi zanjirdagi sherdek turishardi. Ularga markazning o‘ng va chap taraf-laridan miltiqlilarni o‘rtaga olib jang qilishlarini buyurdim. Bu yigitlar xuddi zanjirni g‘ajib, uzib chiqqan sherdek o‘z boshiga tushganini ko‘rib, o‘zlarini kofirlar to‘dasiga uring, qo‘llaridan nimaiki kelsa, qildilar. Nodir ul-asr Ali Quli qo‘li ostidagilar bilan markaz oldida turdi, uning odamlari miltiq, zarbzan va tosh otish bilan band edilar.

Qarasak, dushmanning yengilishi ancha cho‘zildi. Markaz-dagi aravalarning oldinroqqa yurishiga buyruq berdik. O‘zimiz ham uning ortidan yurdik. Qo‘riqchilarim o‘ng va so‘l taraf-dan o‘ng va chap qanotlarga qarab, oldinga intilib, dushmanغا hamla qildilar. Shunday urush-jang bo‘ldiki, bizning o‘ng va chap tomonlardagi qo‘shinimiz dushmanning o‘ng va chap taraflaridagi qo‘shinini surib borib, bir joyda to‘xtab urushdilar. Dushman qo‘lidan hech ish kelmay, hayot iplarini kuydirib, bizning o‘ng va chap qanotdagagi jangchilarimizga hujum qilib, o‘zlariga juda yaqinlashtirdilar. Oyog‘imizda mustahkam turganimiz uchun dushmanning turishga majoli qolmay, beixtiyor qocha boshladi. Ko‘pchiligi o‘sha maydonda jon berib, jahannamga ravona bo‘ldi. Qolgan oz qismi sarosimaga tushib, qum sahrosiga qochdi. Hasanxon Mevatiyga o‘q tegib, fano gardiga aylandi. G‘animning Raval Uday Sing, Manikchand Chavhan, Raay Chandarban, Dilpat Raay, Kangar va Karamsing kabi boshliqlari yo‘qlik yo‘lining g‘ubori bo‘ldilar. Bir necha ming kishi askarlarimiz otlari tuyog‘i ostida poymol bo‘ldi. Muhammad ko‘kaldosh, Abdulaziz miroxo‘r, Olam-

xon va yana bir necha amirlarga Raana Sangaaning ortidan ta'qib qilib borish buyurildi. Mening o'zim ham bir necha kuro'h quvlab bordim, Raana Sangaaning boshiga qorong'i kun tushdi.

To shu kecha kirgunicha dushmandan xotirjam bo'lib, maq-sadimizga yetib qaytdik. Bir necha soatdan keyin manzilga yetib bordik. Taqdirda bo'limgani uchunmi, u kofirni qo'lga tushirolmadik. Ortidan yuborilgan kishilar g'ayrat qilmabdilar. Bularga ishonib o'tirmay, o'zimiz ta'qib qilishimiz kerak edi deb pushaymon bo'ldik. Fozil bilimli kishilarimizdan Shayx Zayniddin bu g'alabaga «podshohi islom» degan ta'rixni topdi. Kobuldan Mir Gisu ham shu ta'rixni bitib yuboribdi. Il-garigi mana shunday g'alabalarimizdan biri Dipalpur fathiga ikki kishi «vas'ati rabi ul-avval» degan ta'rixni topdi.

Bu fath mana shunday qo'lga kirgach, Raana Sangaaning ortidan viloyatiga ta'qib qilib borishga sabab yo'q edi. Lashkarni to'xtatib, Mevatni zabit etishga himmat qildik. Muhammad Ali jang-jang, Ali Gur'an va Abdumalik qo'rchnini juda ko'p odam bilan Ilyosxonning ustiga yubordik. U ikki daryo orasida bosh ko'tarib, Ko'yil shaharchasini jang qilib egallagandi. Ko'yil shaharchasining hokimi Kichik Alini ushlab, bandi qilib qo'ygan ekan. Biz jo'natgan qo'shin yetib borganida dosh berolmay, qochibди. Bir necha kundan keyin Ograga yetib bordik. U yerga kirishimiz bilan bu baxtiqaroni bog'lab, chirmab olib keldilar. Jazosini oldi.

Undan keyin Mevat taraflarga borish kerak degan fikrga keldik. Rajab oyining oltinchisida, chorshanba kuni Mevat hokimligi joylashgan Alvarga bordik. Uning xazinasini osonlik bilan qo'lga kiritdik. Bu viloyat ham himoyamizdag'i mamlakatlar qatoriga o'tgach, biz poytaxtga qarab yo'l oldik. Muhammad Humoyunga Kobul va Badaxshonga ketishiga ruxsat berib, o'zimiz markazga boradigan bo'ldik.

To'qqiz yuz o'ttiz to'rtinchchi yili Xon mirzo olamdan o'tdi. Badaxshon hukumatini ko'zimizning nuri Muhammad Humoyunga berib edik. O'sha yili rajab oyining to'qqizinchisida Muhammad Humoyunga o'sha mamlakatga borishga ruxsat berildi. Shu paytlari Biban afg'on bosh ko'targan edi. Qosim

Husayn Sulton, Muhammad Qosim Bobo Qashqa, Abdullamuhammad nayzador, Husaynxon hamda Hinduston amirlaridan Alixon Farmuliy, Malikdod Karaniy, Tatarxon va Xonijahoni Muhammad Sulton mirzoga yo‘ldosh qilib yubordik. U badbaxt qo‘shin tayinlanganini eshitib, boshini qo‘liga olib dunyodan chiqib ketadi.

O‘zimiz o‘sha yilning oxirlarida Fathpur va Bariyni aylanib, Ograga keldik. To‘qqiz yuz o‘ttiz to‘rtinchchi yili Ko‘yilni tomosha qilishga bordik. U yerdan Sanbalga ovga chiqdik. Ko‘histonni sayr qilib, dor ul-xilofaga keldik. Safar oyining yigirma sakkizinchisida Faxrijahonbegim va Xadicha Sultonbegim bola-chaqasi bilan Kobuldan keldilar. Biz kemaga tuшиб, ularni kutib oldik va vaqt ni yaxshi o‘tkazdik.

Biroz vaqtdan so‘ng Chanderiy hokimi Mediniy Rav va Raana lashkar yig‘ayotgan emish degan xabar keldi. Bunday xabarlar yetib kelishi bilan olti-yetti ming yigitni Chin Temur Sultonga yo‘ldosh qilib, Kalpiy hududidan Chanderiyga yuborildi.

Jumod ul-avval oyining yettingchisida, chorshanba kuni Chanderiy zabit etildi. Uning ta’rixini «dor ul-harb» deb topdilar. Chanderiy qo‘lga kirkach, uni Sulton Nosiriddinning nabirasi Ahmadshohga in’om qildik.

Jumod ul-avval oyining o‘n birinchisida, yakshanba kuni qaytib dor ul-xilofa – poytaxtga kirdik. Undan ilgariroq Chanderiyga boradigan edik, Raana lashkari bilan oldinga yurib, bizning xizmatimizdagilar turgan Irijga kelib, uni qamal qilmoxchi bo‘ladi. O‘sha kecha ulug‘lardan biri uning tushiga kirib qo‘rquitadi. U uyqudan seskanib uyg‘onib ketadi, uni isitma tuta boshlaydi. O‘sha isitmada lashkarga ortga qaytishni buyuradi. Yo‘lda unga ajal hamroh bo‘lib, jahannamga yuborgani ayon bo‘ldi.

Bizning qo‘shinimiz Burhonpur daryosidan o‘tayotganda shunday xabar keldi: Ma‘ruf, Biban va Boyazid Qanno‘jdan qochib, Irijga kelib, Shamsobod qal‘asini Abulmuhammad nayzabozdan kuch bilan tortib olibdilar. Shu bois jilovni o‘sha tarafga burib, bir necha yigitni o‘zimizdan oldinroq yubordik. Bu xabarni eshitganidan so‘ng Ma‘rufning o‘gli Qanno‘jdan

ochib qoladi. Biban, Boyazid, Ma'ruf ham Gangdan o'tib Qanno'jning to'g'risida Gangning kunchiqar tomonidan borib, kechikni to'sib qo'yish niyatida o'tiradilar.

To'qqiz yuz o'ttiz beshinchi yili, muharram oyining uchinchisida, juma kuni Mirzo Askariyni Mo'lton maslahati uchun chaqirtirgandik, Kobuldan yetib kelib, Gvaliyarda iltifot ko'rsatdi. O'sha kuni Raaja Bikramajit va Man Singning imoratlarini aylanib, poytaxtga jo'nab ketdik. O'sha oyning yigirma beshinchesida, payshanba kuni u yerga kirib bordik.

Rabi ul-avval oyining o'ninchisida, dushanba kuni Muhammad Humoyundan elchilar kelib, iltifot ko'rsatdilar, xat ham olib keldilar. Unda: «Tangri taolo bizga bir o'gil bergen edi, otini Al'amon qo'ydik», – deb bitilgandi. Bu ism menga yoqmadi. Undan so'ng turk va hind amirlarini chorlatib, ziyofat berdik. Bu ziyofatda sharq tarafdagи viloyatlarga hokimiyat o'rnatish kerak degan maslahatni kengashdik. Mirzo Askariy og'ir lashkar bilan oldinda jo'nasin. Gang daryosining u tarafidagi amirlar unga yo'ldosh bo'lib, bu ishga jahd qilsinlar. Rabi ul-oxir oyining yettinchesida, dushanba kuni Mirzo Askariyga jo'nab ketishi uchun ruxsat berildi.

O'zimiz Dahpur tarafga ovga otlandik. Jumod ul-avval oyining uchinchisida Mahmud Iskandarning o'gli Biharni olib, g'avg'o-to'polon ko'tarish niyatiga tushgan, degan xabar keldi. Ovdan qaytib, dor ul-xilofaga – poytaxtga tushdik.

Shu payti Badaxshondan Muhammad Humoyunning elchilari keldi. Maktubda bitilishicha, Muhammad Humoyun qirq-ellik ming askar yig'ib, Sulton Vaysni o'ziga yo'ldosh qilib, Samarqandga borish niyatiga tushibdi. Orada sulk so'zi ham bor. Uning xatiga javobda: «Tangri taoladan umidvormizki, hademay Hinduston o'lkasi qo'lga kiradi, – deb yozdim, – xayrixoh va munosib kishilarimizni Hinduston o'lkasiga qo'yib, o'zimizga meros o'lcamizga boramiz. Bu yurishda butun xalqimiz Humoyunga yo'ldosh bo'lib, ixlos ko'rsatadilar».

O'sha oyining o'n yettinchesida, payshanba kuni Juun daryosidan o'tib, sharqqa qarab jo'nadik. O'sha kuni Bangola vorisi bo'lgan Nusratshohdan elchilar kelib, tortiqlar keltirib, qullik izhor qildilar.

Jumod ul-oxir oyining o‘n to‘qqizinchisida, dushanba kuni Mirzo Askariy kelib bizni ko‘rdi. «Siz lashkaringiz bilan Gang daryosining narigi tarafida to‘xtang», – deb farmon berdik. Ogra yaqinida Iskandar Sultonning o‘gli Mahmudxonning shikast topganligi haqida xabar yetib keldi. G‘ozipur yerlarigacha borib, Bajpo‘r va Bahatda to‘xtadik. O‘sha yerda Bihar viloyatini Mirzo Muhammad Zamonga berdik.

… Muhammad Humoyun, bir yildirki, Badaxshonda, diy-dorimizdan ayro tushgandi. Bizni sog‘inib, Badaxshonni kuyovi Mirzo Sulaymonga topshirib, bir kunda Kobulga keladi. Mirzo Komron ham Qandahordan Kobulga kelgan ekan. Iydgohda uchrashib qolib, hayron bo‘lib, kelishi sababini so‘rabdi. Muhammad Humoyun ham bizni sog‘inganini aytib, Mirzo Hindolni Kobuldan Badaxshonga yuborib, bizning tarafga ke-laveribdi. Bir necha kunda dor ul-xilofa – Ograga yetib keladi. Biz uning onasi bilan otini aytib, so‘zlashib o‘tirgan edik hamki, kelib qoldi. Ko‘ngillar gul yanglig‘ ochilib, ko‘zlar chirog‘dek yorishdi. Har kuni ziyofat berilardi. Keyin uning o‘ziga to‘y berib, xursandchilik qildik. Ancha paytgacha bir yerda bo‘lib, bir-birimiz bilan do‘stona munosabatda bo‘ldik. Haqiqatda, suhbatda tengi yo‘q edi va agar komil inson de-yish mumkin bo‘lsa, u o‘sha edi.

Muhammad Humoyun Badaxshondan kelgan vaqtvari Koshg‘ar xonlaridan va bizga qarindoshligi ham bo‘lgan Sulton Saidxon Rashidxonni Yorkentga qo‘yib, xomxayollik qilib Badaxshon tomonga jo‘nabdi. U Badaxshonga yetgunicha, undan ilgariroq Mirzo Hindol borib, Qal’ayi Zafarga kirgan ekan. Sulton Saidxon u yerni uch oy qamal qilib, qo‘lidan hech ish kelmay, ortiga qaytibdi.

Badaxshonni koshg‘ariylar egalladilar degan xabar bizga yetib keldi. Biz Xoja Xalifaga Badaxshonga borib, qo‘lidan nima kelsa qilsin deb farmon berdik. U fahmsizlikdan qabul qilmadi. Muhammad Humoyunga: «Sen borsang qanday bo‘ladi?» – deb aytdik. U: «Farmonga chora yo‘q, lekin o‘z ixtiyorim bilan diydordan ayrilmayman deb ahd qilgaman», – deya javob berdi. Shuning uchun Mirzo Sulaymonga Badaxshonga borishga ruxsat berildi. Shunday bo‘lsa-da,

Sulton Saidga: «Bizda sizning qancha haqqingiz borki, siz bunday qildingiz? Juda g‘alati bo‘ldi», – deb yozdik. Darhol Mirzo Hindolni chaqirib, Mirzo Sulaymonni yubordik. «Agar huquqni nazarda tutib, Badaxshonni farzandimiz Sulaymon mirzoga bersangiz yaxshi bo‘lardi», – dedik. Illo, biz gunohni o‘zimizdan soqit qilib, merosni merosxo‘rga topshirdik, bil-sinlar.

Mirzo Sulaymon undan ilgari Kobulga yetib boradi. Badaxshonni dushman qo‘ldan berib, u yerda omonlik bo‘lgan ekan. Mirzo Sulaymon Badaxshonga borganidan so‘ng, Mirzo Hindol Badaxshonni unga topshirib, o‘zi Hindustonga yo‘l oladi.

Muhammad Humoyunga o‘zi joylashgan yer – Sanbalga ketishi uchun ruxsat berildi. Olti oygacha o‘sha yerda turdi. Ko‘rinishicha, u joyning yer va suvi unga yoqmadi. Uni isitma tutar ekan, bora-bora uzoq cho‘ziladigan bo‘libdi. Buni eshitishim bilan Dehliga olib kelishlarini va «U yerdan kema-ga solib olib kelsinlar, bu yerda uni ziyrak hakimlar ko‘rib, dardiga da’vo qilsinlar» degan farmon berildi. Bir necha kun-da uni daryo yo‘li bilan olib keldilar va tabiblar har qancha dori-darmon bermasin, yaxshi bo‘lmadi. Ulug‘ kishilardan Mir Abdulqosim: «Bunday dardlarga biror yaxshi narsani sadaqa qilib berish kerak, shunda Tangri taolo shifo beradi», – deb aytdi. Mening ko‘nglimga keldiki, «Muhammad Humoyuning mendan boshqa yaxshi narsasi yo‘q». «Men o‘zim unga tasadduq bo‘layin, Xudo qabul qilsin», – dedim. Xoja Xalifa va boshqa yaqinlar: «Muhammad Humoyun sihat topadi, siz nega bu so‘zni tilingizga keltirasiz?» – deyishdi. «Maqsad shuki, dunyo molidan yaxshisini sadaqa qilish kerak. Bas, o‘sha Ibrohim bilan bo‘lgan urushda qo‘lga kiritilgan olmosni Muhammad Humoyunga in’om qilgan edingiz, o‘sha olmosni sadaqa qilish kerak», – deyishdi. «Uning evaziga dunyo moli-ni berish qanday bo‘ladi, men unga o‘zimni fido qilurmanki, u juda mushkul ahvolda qolibdi», – degan so‘zlar tilimga keldi. Undan nima o‘tgan bo‘lsa, o‘zimga olaman, uning kuchiga kuch, bardoshiga bardosh bo‘laman. O‘sha holatga kirib, uch qatla boshidan aylanib: «Har qanday darding bo‘lsa, men oldim», – dedim. O‘sha zamon men og‘ir bo‘ldim, u yengil

tortdi. U sog‘ayib o‘rnidan turdi. Men noxush bo‘lib yiqildim. Davlat a‘yonlari va mamlakat arboblarini chorlab, bay’at (ahd-paymon) qo‘llarini Humoyunning qo‘liga topshirib, u o‘rnimda qoladigan valiahd ekanligini tayinladim. Taxtni unga topshirdim. Xoja Xalifa, Qanbar Alibek, Turdibek, Hindubek va boshqa kishilar ham bu nasihatlarimda bor edilar, hammasi qabul qilib, hech nima deyolmadilar.

* * *

Varaqlarni qoralovchi – kotib aytadiki¹, to‘qqiz yuz o‘ttiz yettinchi yili, jumod ul-avval oyining oltinchisida o‘scha podshoh o‘z qo‘li bilan obod qilgan Chahorbog‘da ahvoli o‘zgarib, bu bevafo olamni tark etdi.

Zamonning dono kishilar ta’rix, marsiya, qasida va tarkiblar bitdilar. Shu jumladan, Mavlono Shihob Muammoyi mana bu misradan ta’rix topdi: «Humoyun bud vorisi mulki vay»².

U qobil podshohning yaxshiliklarini aytib va yozib tugatish mahol. Lekin lo‘nda qilib aytganda, uning asli zotida mana bu sakkiz sifat hamma vaqt mujassam edi: birinchisi shuki, muvaffaqiyatlari baland edi; ikkinchisi – himmati arjumand (aziz himmatli) edi; uchinchisi – viloyat olmoq; to‘rtinchisi – viloyat saqlamoq; beshinchisi – ma’murlik; oltinchisi – Tangri taolo bandalariga turmush kengchiligi (yaxshi ahvol) niyati; yettinchisi – lashkarning ko‘nglini qo‘lga olish; sakkizinchisi –adolat qilmoqlik.

Fazilat bobida kamchiligi yo‘q edi, nazm va nasrni turkiy va forsiyda aytishda tengsiz edi. Xususan, turkiy devoni bor. Unda yangi ma’nolar ham topib, she’rlar aytgan. «Mubayyin» deb nomlangan masnaviy kitobi ham bor. Til biladigan dono kishilar orasida uningdek latif (go‘zal) so‘z aytuvchi yo‘q. Xoja Ahror aytgan «Voldiyya» risolasini shu podshoh nazm qilibdi. Ushbu kitob «Boburiya»³ bo‘lib, Bayramxon-

¹ Shu joydan boshlab asarda bayon etilgan voqealar «Boburnoma»ni ko‘chirgan kotib tomonidan yozilgan.

² Humoyun bud vorisi mulki vay – Humoyun uning mulkingin vorisi edi.

³ «Boburiya» – «Boburnoma»ning nomlaridan biri.

ning o‘g‘li Mirzoxonga turkiydan forsiyga tarjima qilishni buyurdilar, toki turkiy bilmagan kishilarga oson bo‘lsin. Ul podshohning musiqa ilmidan ham xabari bor edi va mana bu ruboiyni forsiyda aytgan edilar:

Darveshonro agar na az xeshonem,
Lek az dil-u jon mu’taqidi eshonem.
Dur ast mago‘y shohi zi darveshiy,
Shohem, vale bandai darveshonem.

(Mazmuni: *Garchi darveshlar bizlarga yaqin bo‘lmasalar ham, biz ularga jon-dilimiz bilan muxlismiz. Shohlikni darveshlikdan uzoq dema, biz shoh bo‘sak ham, darveshlar ning bandasi (quli)miz*).

U podshohning aruz va qofiya ilmiga bag‘ishlangan risolalari ham bor va, shu jumladan, «Mufassal» ushbu fanning sharhi bo‘ladi, ko‘pdan ko‘p yaxshi tasniflar qilibdilar.

U podshoga Tangri taolo to‘rt o‘g‘il va uch qiz karomat qilgan edi. O‘g‘illari: Muhammad Humoyun podshoh, Mirzo Komron, Mirzo Askariy va Mirzo Hindol edilar. Qizlari: Gulrangbegim, Gulchehrabegim va Gulbadanbegim edilar. Bu uch qiz bir onadan edi.

Podshoh har doim bir necha tab’ ahllari – shoir va san’at ahlining suhbatidan uzoqlashmasdi. Ular ushbulardir: ilmi hikmat bobida tengi yo‘q Abulbaqo, yana Zayniddin Xavofiyning nabirasi Shayx Zayn sadr bo‘lib, juda o‘tkir tab’i bor edi, nazm va inshoda zavqi baland edi, Humoyun podshoh zamonida amirlik ham qildi. Yana Shayx Abulvohid Forig‘iy, u Shayx Zayn Xavofiyning otasi edi, xushtab’ kishi edi, she’rni ham yaxshi aytardi. Yana biri – Sulton Muhammad ko‘sса Mir Alisherning musohiblaridan ediki, podshoh suhbatida izzat topib, ulug‘ martabaga erishdi. Yana Mavlono Shihob Muam-moyi, u «Faqiriy» taxallusini olgandi. Fazilatli va she’rdan xabari bor kishi edi. Yana Mavlono Yusufiy tabibki, uni Xurosondon chaqirib olgan edilar, tomirdan ko‘rish va tashxis qo‘yish uning ishi edi. Yana Surx Vadoiyki, turkiy va forsiyda she’r aytardi. Yana Mullo Baqoyning zavqi baland edi,

«Maxzan ul-asror» vaznida podshohga bag‘ishlab masnaviy bitgandi...

«Vallohu bi kulli shay’in alim» («*Hamma narsani bilguchi Allohdir*»).

Omin.

«BOBURNOMA» HAQIDA

«Boburnoma» – adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o‘z davridagi ko‘plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko‘plab tog‘lari, daryolari, o‘rmon va cho‘llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar jamlangan.

«Boburnoma» – o‘zbek nasrining go‘zal namunasi. Unga-cha Yusuf xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari muqaddima-sida, Rabg‘uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Alisher Navoiy uni yuqori pog‘onaga olib chiqdi. Biroq «Boburnoma» bu borada o‘zbek nasrining o‘ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko‘rsatdi.

Asarda tarixning Bobur yashab o‘tgan davri voqealar ifodala-ghan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo‘jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo‘lgan qamrovga ega. Ya’ni unda O‘rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo‘lgan maso-fadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan.

«Boburnoma»dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo‘nda, ta’sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e’tiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning ta’riflariga jiddiy ahamiyat beradi.

Asarda o‘sha davr kishilarining haqqoniy, realistik tas-viri berilgan. Bu narsa Boburning bergen ma’lumotlaridagi ishonchlilikni ta’minlagan.

Asar bilan yaxshi tanishish Bobur xarakterini, undagi fazi-latlar manbalarni aniqlashga imkon beradi.

Bobur o‘z otasi haqida shunday yozadi: «hanafiy maz-habliq, pokiza e’tiqodliq kishi edi... Ravon savodi bor edi.

«Xamsatayn» va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o‘qub edi. Aksar «Shohnoma» o‘qur edi. Tab‘i nazmi bor edi, vale she‘rga parvo qilmas edi.

Adolati bu martaba ediki, Xitoy karvoni keladurganda, Andijonning sharqiy tarafidagi tog‘larning tubida ming o‘yluk korvonni andog‘ qor bostikim, ikki kishi qutuldi. Xabar topib, muhassillar (xiroj oluvchilar) yiborib, korvonning jam‘i jihotini (hamma yog‘ini, butun atrofini) zabt qildi... Samarcand va Xurosondon vorislarini tilab kelturub, mollarini solim (omon, sog‘-salomat) topshurdi.

Bisyor saxovati bor erdi. Xulqi dog‘i saxovaticha bor erdi, xushxulq va harrof (tez gapiradigan, so‘zamol) va fasih (yo-qimli) va shirin zabon kishi erdi, shujo‘ (shijoatli) va mardona kishi edi».

Otasidagi bu xislatlarning ko‘pi Boburning o‘zida ham mujassamlashganini qayd etish joiz.

Bobur ko‘plab hukmdorlar, mamlakat boshliqlari haqidagi tarixiy faktlarni muhrlab qoldirgan. Amir Temur, Umarshayx, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuz-zamon, Muzaffar mirzo singari davlat boshliqlarining siyosiy-ijtimoiy faoliyatlariga baho berilgan.

Boburning o‘zi har qanday holatda, hatto urush-taloshlar avj olib turganida ham adolat mezonini qattiq tutgan. Jumladan, 909 (1503–1504)-yillar voqealari bayonida shu holat kuzatiladi. Qunduz shahri atrofida Xisravshohning askarları ancha betartiblikka, zulm va zo‘ravonlikka o‘rgangan edilar. Ular Boburga qo‘shilganidan keyin ham bu odatlarini tashlamaydi. Bir navkar «birovning bir ko‘za yog‘ini tortib olg‘on uchun eshikka kelturub tayoqlattim, tayoq ostida o‘q joni chiqdi. El bu siyosattin tamom bosildilar», – deb ta’kidlaydi Boburning o‘zi.

Asarda o‘simliklar va hayvonot olami haqidagi nodir ma‘lumotlar ham jamlangan, jumladan, adib Afg‘onistonidagi Dashti Shayxda o‘ttiz uch xildagi bir-birini takrorlamaydigan lola turlari haqida gapiradi.

«Boburnoma»da adabiyot va san‘at ahli, ilm-ma’rifat kishilariiga ham munosib o‘rin berilgan. Unda Abdurahmon Jomiy,

Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Sayfiy Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Ahliy, Alisher Navoiy, Binoiy va boshqa so‘z ustalari haqida maroqli hikoyalar mavjud.

Hasan Ya’qub haqida gapira turib: «... tab’i nazmi bor edi, devon tartib qilib edi, vale she’ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she’r aytqondin aytmog‘on yaxshiroqdur», – deydi.

Kotiblardan Sulton Ali Mashhadiy, musavvirlardan Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar, musiqa ustalaridan Qul Muhammad Udiy, Shayxi Noyiy, Shohquli G‘ijjakiy va boshqalarni faxr va iftixor bilan tilga oladi.

Bu o‘rinda adibning Alisher Navoiy haqidagi ma’lumotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda Navoiy siymosiga bir necha marotaba murojaat qilinganini kuzatish mumkin.

Ular orasida Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari, Navoiyning shaxsiyati, uning ijodi, adibning badiiy ijod va ijodkorlarga bo‘lgan munosabati haqida ko‘plab qimmatli kuzatishlar mavjud.

«Boburnoma»da adibning shaxsi, uning tarjimayi holi, xarakteri, qiziqishlari, kishilarga munosabati borasidagi qarashlari tegishli tarzda o‘z aksini topgan. Biz asar sahifalaridan Bobur shaxsiyatidagi rostgo‘ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehriconlik, qattiqko‘llik, hassoslikning namoyon bo‘lish holatlari bilan tanishamiz. Asarda Boburning ajdodlari, oilasi, avlodlari haqida ham birlamchi materiallar berilgan.

Unda ayrim asarlarning yaratilish tarixi haqidagi materiallar ham keltirilgan, jumladan, 906 (1500–1501)-yillar voqealari bayonida bir hukmdorning Boburga yaxshi iltifot ko‘rsatmagani aytildi va adib quyidagi misralarini eslatadi:

Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshiliq?
Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshiliq.

907 (1501–1502)-yillar voqealari bayonida esa Toshkentga borib xon qoshida bir ruboiy o‘qigani eslanadi:

Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,
Shod etmas emish ko‘ngulni g‘urbatda kishi.
Ko‘nglum bu g‘aribliqta shod o‘lmadi hech,
G‘urbatda sevunmas emish, albatta, kishi.

Xuddi shu yil voqealari bayonida u:

Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim,
Ko‘nglumdin o‘zga mahrami asror topmadim, –

degan 7 baytli g‘azalini tugatganligini ham aytadi.

Kobul atrofidagi Gulbahor degan bir joydagি lolalarni satatganda, u yerdan 34 xil lolani keltiradilar. Mana shu asnoda shoirning quyidagi g‘azali yaratiladi:

Mening ko‘nglumki, gulning g‘unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmoqi ne imkondur.

Asarda 1508–1520, 1525, 1530-yillardagi voqealar aks etmay qolgan.

Savol va topshiriqlar

1. Boburning hayoti va ijodi haqida qanday ma’lumotlarni berasiz?
2. Bobur haqida bildirilgan fikrlarga e’tibor bering. Ularda Bobur shaxsiga xos bo‘lgan qaysi jihatlarni anglash mumkin?
3. Bobur ijodining ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida nima deya olasiz?
4. Tarix kitoblaridan Boburning Shayboniyxon bilan raqobati haqidagi ma’lumotlar bilan tanishib chiqing. Bobur Samarqandni dastlab ishg‘ol qilganida necha yoshda bo‘lgan?
5. «Bisyor saxovati bor erdi. Xulqi dog‘i saxovaticha bor erdi, xushxulq va harrof va fasih va shirin zabon kishi erdi,

shujo‘ va mardona kishi edi». Ushbu ko‘chirmadagi uslubga e’tibor bering. U hozirgi tilimizda mavjud uslublar bilan qanday o‘xhash va farqli jihatlarga ega deb o‘ylaysiz? Izohlashga harakat qiling.

6. Irving Stoun biografik qissalar haqida gapirib, jumladan, bunday deydi: «Soddalikka erishmoq va soddalikni saqlab qolmoq. Faqat ma’nodor sahnalarini sur’atni tezlashtirib tasvirlamoq kerak... Fuqarolar urushi tarixini yaxlitligicha tasvirlash kerak emas... Ortiqcha nomlarni tilga olishdan qochish kerak. Biron tomonning yonini olishdan saqlanish kerak, biryoqlamalikdan va bag’ritoshlikdan qochish kerak. Nafrat emas, xayrixohlik va dardkashlik uyg’otmoq lozim. G’ussani tasvirlaganda haddan oshib ketish yaramaydi, tuyg’ular tasvirida lofga berilmang... Muallifni bir chetga chiqarib qo‘yish kerak, hikoya o‘z-o‘zicha oqaversin». Ana shu andoza bilan «Boburnoma» orasidagi o‘xhash va farqli jihatlar haqida nimalar deya olasiz?
8. «Boburnoma»dan olingan parchani diqqat bilan o‘qib chiqdingiz. Parchada Bobur shaxsiyatiga oid qaysi fazilatlar ni qadrlaysiz?
9. Boburning otasi haqidagi qaydlardan qaysi bir fazilatlar e’tiboringizni tortdi. Ularni izohlab bering.
10. Boburning alohida shaxslar haqida fikr bildirish tarziga e’tibor bering. Uning o‘ziga xosliklari nimalarda deb o‘ylaysiz?
11. Bobur – badiiy tasvir ustasi degan fikrni qanday izohlay olasiz?
12. Bobur merosining ilmiy, adabiy va tarbiyaviy ahamiyati nimalarda?
13. «Bobur – dilbar shaxs» mavzusida insho yozing.





TURDI FAROG'İY

(XVII asr o'rталари—1699/1700)

Turdi Farog'iyning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar, asosan, o'z asarlaridir. U Buxoroda tavallud topgan. Uning tug'ilgan yili haqidagi aniq ma'lumotlar saqlanmagan, biroq ashtarkoniylardan Nodirmuhammad (1642–1645) hamda uning o'g'illari Abdulaziz (1645–1680) va Subhonqulixon (1681–1702) lar hukmronlik qilgan yillarda yashaganligi ma'lum. U Xo'jandda vafot etgan.

1681-yilda Miyonkolda xalq hukumatga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Turdi ham mana shu qo'zg'olonchilar orasida bor edi. So'ng shoir Xo'jand va O'ratega hokimi Rahimbiy otaliq panohida bo'ladi. Rahimbiy vafot etgach, uning o'g'li Oq-bo'tabiy huzurida qoladi. Biroq shoir ancha moddiy qiyinchiliklar bilan yashaydi. Adibning she'rlari shundan dalolat beradi.

Turdi ikki tilda ijod qilgan: uning o'zbekcha asarlari qatorida tojikcha she'rlaridan ham ikkitasi bizgacha yetib kelgan. Bizga hozircha adibning 18 tagina she'ri ma'lum, xolos. Ular 5 ta muxammas, 12 ta g'azal va bir dona farddan iborat. Ulardan shoirning tiyrak va bezovta ruhini, o'tkir qalamining ta'sirchan kuchini, favqulodda jasoratini ilg'ab olish qiyin emas.

Turdi o‘zi zamondosh bo‘lgan jamiyat illatlarini qattiq tanqid qildi, bu illatlarni mamlakat va millat fojiasi sifatida talqin qildi, millatdoshlarini uning oqibatlarini tezroq va to‘laroq tasavvur qilishga undadi. Turdi adabiyotimiz tarixida satirik – tanqidiy yo‘nalishni ancha baland cho‘qqilarga olib chiqqan ijodkor sifatida shuhrat qozondi.

G‘AZALLAR

«Tor ko‘ngulluk beklar...»

Tor ko‘ngulluk beklar, man-man demang, kenglik qiling,
To‘qson ikki bovli¹ o‘zbak yurtidur, tenglik qiling.

Birni Qipchoq-u Xitoy-u, birni Yuz, Nayman demang,
Qirq-u Yuz, Ming son bo‘lub, bir xon oyinlik qiling.

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to‘ng‘a kirib,
Bir o‘ngurluk, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik² qiling.

Kim qo‘yubdur, uhdayi o‘z mulkungizdin chiqmayin,
Ikki, uch, to‘rt da‘vosin etmakni ko‘tahlik³ qiling.

Mardlar maydon chekib, rangin⁴ ko‘tarib zaxmlar,
Sizga yo‘q ul javhar-u yuzga upo-englik qiling.

Turdi yashagan davrda, ya’ni XVII asrning ikkinchi yar-mida ijtimoiy hayotidagi muammolar avj nuqtasiga chiqqan, mamlakatda ichki nizolar kuchayib, amaldorlar orasida ham kin-u nifoq nihoyatda kuchayib ketgan edi. Turdi barcha amaldorlarning kibr-u havolarni yig‘ishtirib, o‘zaro ahil va hamjihat bo‘lib yashashga undaydi:

Tor ko‘ngulluk beklar, man-man demang, kenglik qiling,
To‘qson ikki bovli o‘zbak yurtidur, tenglik qiling.

¹ B o v – boylam, dasta.

² O‘n gur, t i r i z, y a q o, y e n g – to‘nning qismlari.

³ K o‘t a h – kalta, qisqa.

⁴ R a n g i n – alvon, qizil.

Shu baytning o‘zidayoq beklarning «tor ko‘ngulluk», «man-man», o‘zaro murosasiz ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuning uchun ularni biroz kengroq bo‘lishga, ahil va hamjihat bo‘lib yashashga undash ohanglari ustuvor darajaga ko‘tarilgan.

Turdi o‘zbek urug‘larini yaxshi biladi, ularning har biri alohida-alohida (92 ta) nom bilan yuritsa-da, aslida, ularni «O‘zbek» degan nom birlashtirib turishi kerak edi.

Keyingi baytda alohida-alohida urug‘ nomlarining o‘zaro ziddiyat va ayirmalarga asos bo‘lmasligigi e’tibor tortiladi:

Birni Qipchoq-u Xitoy-u, birni Yuz, Nayman demang,
Qirq-u Yuz, Ming son bo‘lub, bir xon oyinlik qiling.

Bu yerda sanalgan nomlarning barchasi o‘zbek urug‘-larining qadimgi an‘analarini ko‘rsatadi, xolos. Shoир ta‘did san’ati vositasida urug‘ nomlarining bir butun tizimini bir baytga sig‘dira oladi.

Turdi xalqona ibora va ifodalarning ustasi. Shuning uchun uning she’rlarida sodda, aniq ifodalar, ta’sirchan jumlalar juda faol iste’molda:

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to‘ng‘a kirib,
Bir o‘ngurluk, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling.

Ko‘rinib turibdiki, mazkur baytda ahillik, hamjihatlikka chorlov xalqona iboralar tufayli juda jarangdor va ta’sirli chiqqan.

«Turdiman...»

Qatrayam nochiz¹, ammo zoti qulzum² Turdiman,
Kelturan amvojg‘a³ bahri⁴ talotum⁵ Turdiman.

¹ N o c h i z – arzimas.

² Q u l z u m – dengiz.

³ A m v o j – mavjilar, to‘lqinlar.

⁴ B a h r – dengiz.

⁵ T a l o t u m – po‘rtana.

Qirq, Yuz, Ming aqrabolar etdilar mandin nufur¹,
Ne balo, baxti qaro-yu toliyi shum Turdiman.

Rishtadek ming pech-u tob² chashmi so‘zondin³ o‘tar,
Bovujudi e’tibori chashmi mardum Turdiman.

Turdi o‘zbek adabiyotining hajviy yo‘nalishini juda yuqori darajalarga ko‘targan ijodkor sifatida ajralib turadi. Uning ijtimoiy-siyosiy, maishiy, madaniy hayotdagi illatlarni ko‘radigan ko‘zlar nihoyatda o‘tkir.

Turdining she’rlari real hayot manzaralari bilan uyg‘un. Ularning asosiy qismi avtobiografik mazmun kasb etgan. «Turdiman» radifli g‘azal ham shu siraga mansub:

Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,
Kelturan amvojg‘a bahri talotum Turdiman.

Bir qatragina suvning kuch va qudratini tasavvur qila olasizmi? To‘g‘ri, u hech qanday xavf va xatar solmasligi, hech kimni cho‘chita olmasligi mumkin. Ammo uning «zoti qulzum» – dengizga taalluqli ekanligini ham unutmaslik lozim. Lirik qahramon mana shunga ishora qilmoqda. Zero, qatralarning yig‘ilgani – jami hududsiz dengizlarda ham po‘rtanalarni hosil qila oladi. Bundan murod shuki, meni nazarga ilinmaydigan birgina ushoq odam deb o‘ylash to‘g‘ri emas, men ga o‘xshaganlarning hammasi jamlansa, uyushsa, dengiz kabi olamni, ya’ni shu dunyonи, mavjud hayotni ag‘dar-to‘ntar qilib yuborishning ham uddasidan chiqadi deganidir.

Navbatdagi bandda Turdining hayotiga oid yana bir muhim hodisani ilg‘ash mumkin:

Qirq, Yuz, Ming aqrabolar etdilar mandin nufur,
Ne balo, baxti qaro-yu toliyi shum Turdiman.

¹ N u f u r – nafrat.

² P e c h - u t o b – buralgan, o‘ralgan.

³ Ch a s h m i s o‘z o n – igna ko‘zi; s o‘z o n – kuygan, yonib turgan, yolqinli; alamli.

Ya’ni, (endilikda) Qirq, Yuz, Ming urug‘ining boshliqlari mendan yuz o‘girmoqdalar, buni qarang, men qanday baxti qora va toleyi past kishiman.

Demak, oldinroq uning o‘zi sanayotgan kishilar oldidagi obro‘ va e’tibori ancha baland bo‘lgan. U o‘z umridan rozi va minnatdor bo‘lib yashagan. Faqat keyingi paytlardagina vaziyat o‘zgargan. Mana shu holat shoirning o‘ziga «baxti qaro», «toleyi shum» sifatlarini qo‘llashga majbur qilgan.

Hayot shoir uchun minglab sinovlarni, ko‘plab qiyinchiliklarni ro‘para qilgan. Hozir u hatto ignanining teshigidan ham o‘tadigan darajaga yetib kelgan:

Rishtadek ming pech-u tob chashmi so‘zandin o‘tar,
Bovujudi e’tibori chashmi mardum Turdiman.

Buni turlicha talqin qilish mumkin:

U shu darajada ozib-to‘zib ketganki, hozir ignanining teshigidan o‘tadigan ipga o‘xshab qolgan. Hayot qiyinchiliklari uni shu darajada pishitganki, u hatto hayotning har qanday to‘sinq va mashaqqatlaridan ham o‘tishni uddalay oladi.

MUXAMMAS

Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko‘rdiman,
Rind sarxayli-yu¹ xush ayshi damo-dam surdiman,
Halqayi ushshoqda² bazm-u majolis qurdiman,
Mushti xokam³ davr-u davronlar(ni lekin) ko‘rdiman,
Xush dimog‘ etgan mayi sofi – hariflar⁴, durdiman⁵.

Qilmadim shukronayi, soldurdi tufroq oshima,
Qolmadi juz⁶ dard-u g‘am hamdam, musohib⁷ qoshima,

¹ Rind sarxayli – rindlar sardori; mayparastlar davraboshisi.

² Halqayi ushshoq – oshiqlar halqasi.

³ Mushti xokam – bir siqim tuproqman.

⁴ Harif – do‘sst, ulfat.

⁵ Durd – quyqa.

⁶ Juz – bo‘lak, boshqa.

⁷ Musohib – suhbatdosh.

Haq o‘zi rahm aylag‘ay ohi sahar ko‘z yoshima,
Tafriqa toshini yog‘durdı zamona boshima,
Xonumon ovora selobi havodis¹ surdiman.

Nozili² hukmi qazo hech kim rad-u man’ etmadi,
Barcha bo‘yniga solan bu rishtani qat³ etmadi,
Ahli hole topmadim boshdin balo daf’ etmadi,
Kulfat-u g‘urbatni turluk sunnati raf’ etmadi⁴,
Xor-u beqadramki mundin ortinib, jabrandiman.

Voqife yo‘q⁵, bu musofirlig‘da mandin ne o‘tar,
Baski yuz ko‘yi bila ro‘zi⁶ kelib, ro‘zi ketar,
O‘zmag‘ay mundin balo-yu bo‘lmagay mundin batar,
Aqrabolar suhbatimdin or etar, qoshin chatar,
Salb dillarda⁷, nazarlarda karih⁸ sипrindiman.

Yaxshi vaqtlar yod etib, (undin ketib, mundin qolib),
Harza⁹ tifli¹⁰ ashkdek¹¹ ayni nazarlardin solib,
Nosara dirham sifatliq rad qilib, qo‘lga olib,
Dasta farsuda¹², yuzi qaytib, oyoqlarda qolib,
Ko‘hna tig‘i tah-batah g‘am zangi tutg‘on kundiman¹³.

Oh, bu umri kiromi¹⁴ sarfi g‘aflat ayladim,
G‘ussayi behuda asbobi nadomat ayladim,
Bilmadim o‘z aybimi, xalqqa mazammat¹⁵ ayladim.

¹ H a v o d i s – hodisalar.

² N o z i l – tushirilgan, yuborilgan.

³ Q a t ’ e t m a d i – kesmadi.

⁴ R a f ’ e t m a d i – o‘rtadan ko‘tarmadi, yo‘qotmadi.

⁵ V o q i f e y o ‘ q – xabardor yo‘q.

⁶ R o ‘ z – kunduz.

⁷ S a l b d i l – dildan tongan, inkor etgan.

⁸ K a r i h – jirkanch.

⁹ H a r z a – behuda.

¹⁰ T i f l – bola.

¹¹ A s h k – ko‘z yosh.

¹² F a r s u d a – eskirgan; horg‘in.

¹³ K u n d – o‘tmas.

¹⁴ K i r o m – aziz.

¹⁵ M a z a m m a t – yomonlash, tergash, uyaltirish.

Shukr shahdin bilmadim, kufroni ne'mat ayladim,
Zaxmi nishi ro'zgor ahlini talx-u tundiman¹.

Hukm jori², so'z qabuli, bir dun dargo'sh³ edim,
Ahli davlatlar bilan yor-u harif, hamdo'sh⁴ edim,
Hoy-hoyi bazmlarda shahd no'sho-no'sh⁵ edim,
Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarpo'sh⁶ edim,
Bu zamon yavg'on qozon ostida qolq'on yundiman⁷.

Charxi dun⁸ qildi manga javr-u jafolar behisob,
Gardishi davron berur har lahza yuz ming pech-u tob,
Har sori yeldim-yugurdim suv sonib mavji sarob,
Tashna lab, gardi kudurat⁹ zeri poyinda¹⁰ xarob,
Bahri davlatdin yiroq gardanshikasta¹¹ mo'ndiman.

Kasrati¹² yo'qluq, tama' kettirdi qadr-u qiymatim,
Yuz sarig'liq yerga urdi obro'-yu izzatim.
G'ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim¹³,
Aql zoyil¹⁴, umr kam, besh o'ldi dard-u mehnatim,
Davlat urgan pushti po, baxti (qaro suprindiman).

Man kimam, gumnom-u¹⁵ nokom-u¹⁶ jahon ovorayi,
Diyda namnok-u¹⁷ giribon chok-u¹⁸ bag'ri porayi,

¹ Talx-u tundi – achchiq.

² Jori – joriy; yuruvchi, o'tuvchi.

³ Dargo'sh – qulqoqda.

⁴ Hamdo'sh – yelkadosh.

⁵ No'sho-no'sh – ichho-ich.

⁶ Sarpo'sh – qopqoq.

⁷ Yundi – yuvindi.

⁸ Charxi dun – teskari, tuban dunyo.

⁹ Kudurat – g'am.

¹⁰ Zeri poy – oyoq osti.

¹¹ Gardanshikasta – bo'yni egik.

¹² Kasrat – mo'llik.

¹³ Fitrat – tug'ma tabiat.

¹⁴ Zoyil – so'nish.

¹⁵ Gumnom – nom-nishonsiz.

¹⁶ Nokom – nochor, baxtsiz.

¹⁷ Diyda namnok – ko'zi yoshli.

¹⁸ Giribon chok – yoqasi vayron.

Noqabuli marhami, nosur¹ bitmas yorayi,
Bekasi, mushti xasi, bir bandayi bechorayi,
Sobiram, ro'zi qazo, tiyri balog'a² ko'ndiman.

Xeshman, darvish miskin, mustahiq³ devonadin,
Bahramand et iltifot-u himmati mardonadin,
San turub loyiqlidur, qilmoq tama' begonadin,
Qiblagoho, mandin ikroh⁴ etma er mayxonadin,
Jo'sh pur xum sof maysan, man g'ubor-u durdiman.

Yuz farozidin⁵ ozib, tushdum nishibi⁶ qirqqa,
Xavf-u biym-u vahm arosinda qaribi⁷ qirqqa,
Dona⁸ deb pobast⁹ o'lub, domi¹⁰ firibi qirqqa,
Voy, yuz ming voy, yuz bo'ldim firibi qirqqa,
Hokimi Dizzax¹¹ muti'u payravi jurqundiman¹².

Turdi ijodida uning muxammaslari alohida mavqega ega.
Tanqidiy-satirik yo'nalishiga qaramasdan, ularda avtobiografik
unsurlar ham oz emas. U zamonasida sodir bo'layotgan hodisalarini o'z ko'zi bilan ko'rghan va kuzatayotgan kishi timsolida
namoyon bo'ladi.

Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko'rdiman,
Rind sarxayli-yu xush ayshi damo-dam surdiman,
Halqayı ushshoqda bazm-u majolis qurdiman,
Mushti xokam davr-u davronlar(ni lekin) ko'rdiman,
Xush dimog' etgan mayi sofi – hariflar, durdiman.

¹ Nosur – bitmaydigan yara.

² Tiyri balo – baloning o'qi.

³ Mustahiq – loyiq.

⁴ Ikroh – jirkanish.

⁵ Faroz – balandlik.

⁶ Nishib – pastlik.

⁷ Qarib – yaqin.

⁸ Dona – don, yemish.

⁹ Pobast – oyog'i bog'lanmoq.

¹⁰ Dom – tuzoq.

¹¹ Dizzax – Jizzax.

¹² Jurqundi – anqov, lallaygan; gunohkor.

U to‘g‘ridan to‘g‘ri: «... yaxshi zamonlar ko‘rdiman», – deb ta’kidlaydi. Ayni paytda, «rindlarning sarxayli», «xush aysh»larni «damo-dam» (muntazam, uzlucksiz) ko‘rganligi bilan faxr-u iftixor ham etadi. O‘ziga mehr ko‘rsatganlarning davrasida «bazm-u majlis qurgan»ligini ham ta’kidlaydi.

E’tibor berilsa, Turdining tavsifidagi hayot o‘tgan zamon bilan aloqadorligini his etish mumkin. Turdining tili xalqona, o‘tkir, shuning uchun ta’sirchan hamdir. U qiynalib ketdim demaydi, balki: «Oshimga tufroq soldirdi», – deydi. Tushkunlikka tushgan, qiyinchiliklar girdobida yashayotgan shaxs fojiasining tasviri navbatdagi baytning asosiy mohiyatini tashkil etadi:

Qilmadim shukronayi, soldurdi tufroq oshima,
Qolmadi juz dard-u g‘am hamdam, musohib qoshima,
Haq o‘zi rahm aylag‘ay ohi sahar ko‘z yoshima,
Tafriqa toshini yog‘duri zamona boshima,
Xonumon ovora selobi havodis surdiman.

Turdi o‘z zamonasining kishisi sifatida bularning barchasini taqdir hukmi deb biladi. Ayni paytda, bularning barchasini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan kishilarning mavjudligini ham inkor etmaydi. Faqat bu toifadagilarning istaklari boshqacha-roq ekanligidan afsuslanadi:

Nozili hukmi qazo hech kim rad-u man’ etmadi,
Barcha bo‘yniga solan bu rishtani qat’ etmadi,
Ahli hole topmadim boshdin balo daf’ etmadi,
Kulfat-u g‘urbatni turluk sunnati raf” etmadi,
Xor-u beqadramki mundin ortinib jabrandiman.

Turdi mazkur she’rni yozilayotgan paytda o‘z tug‘ilgan joyida emas, boshqa o‘lkalarda yashashga majbur bo‘lgan. Kunlarning qiyinligini, vaziyatning og‘irligini «bo‘limgay mundin batar» ifodasi ko‘rsatib turibdi.

Voqife yo‘q, bu musofirlig‘da mandin ne o‘tar,
Baski yuz ko‘yi bila ro‘zi kelib, ro‘zi ketar,

O‘zmag‘ay mundin balo-yu bo‘l magay mundin batar,
Aqrabolar suhbatimdin or etar, qoshin chatar,
Salb dillarda, nazarlarda karih sibirindiman.

«Yaxshi vaqtlar yod»i Turdini bezovta qiladi:

Yaxshi vaqtlar yod etib, (undin ketib, mundin qolib),
Harza tifli ashkdek ayni nazarlardan solib,
Nosara dirham sifatliq rad qilib, qo‘lga olib,
Dasta farsuda, yuzi qaytib, oyoqlarda qolib,
Ko‘hna tig‘i tah-batah g‘am zangi tutg‘on kundiman.

Ko‘rinib turganidek, «tifli ashk» – ko‘z yoshining eng kichik bo‘lagi singari nazarlardan qolmoq inson uchun mazza emas. Bu holat amaliyot uchun yaroqsiz holatga kelib qolgan tanga pulga o‘xshaydi. Hech kimga kerakli joyi qolmagan kunda ham mana shu o‘xshatishlardan birini tashkil etadi.

Lirik qahramon o‘z umrining shunday o‘tayotganidan rozi emas. Uning nazarida, «umri kiromi» g‘aflatdagilargagina sarf bo‘lib ketmoqda. «G‘ussayi behuda» afsus va nadomatlar bilan to‘lib-toshmoqda. Bularning barchasi band yakunidagi «Zaxmi nishi ro‘zgor ahlini talkx-u tundiman» degan xulosa uchun asos bo‘lmoqda:

Oh, bu umri kiromi sarfi g‘aflat ayladim,
G‘ussayi behuda asbobi nadomat ayladim,
Bilmadim o‘z aymbimi, xalqqa mazammat ayladim.
Shukr shahdin bilmadim, kufroni ne’mat ayladim,
Zaxmi nishi ro‘zgor ahlini talkx-u tundiman.

Xotiralar qa’riga kirgan sari alam va iztiroblar shiddati ham zo‘rayib, kuch olib boraveradi. Kechagi imkon va imtiyoz hamda bugungi imkonsizlik va mavhumiyat she’rxon ko‘z oldida qiyoslab beriladi:

Hukm jori, so‘z qabuli, bir dun dargo‘sh edim,
Ahli davlatlar bilan yor-u harif, hamdo‘sh edim,
Hoy-hoyi bazmlarda shahd no‘sho-no‘sh edim,

Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarpo'sh edim,
Bu zamon yavg'on qozon ostida qolg'on yundiman.

Keyingi bandda lirik qahramon iztiroblarining manbalarini kashf etish davom etadi. Ular orasida «charxi dun», «gardi-shi davron», shuningdek, taqdirning buqalamunliklari ajralib turadi. Bularning oqibati – ruhiy-ma'naviy iztiroblar ham shu banddan o'rin olgan:

Charxi dun qildi manga javr-u jafolar behisob,
Gardishi davron berur har lahza yuz ming pech-u tob,
Har sori yeldim-yugurdim suv sonib mavji sarob,
Tashna lab, gardi kudurat zeri poyinda xarob,
Bahri davlatdin yiroq gardanshikasta mo'ndiman.

Bunday balo-yu qazolarning shoir shaxsiyatiga ta'siri, bu fojialar mohiyatini tasvirlash, kitobxon ko'z oldida yanada yaqqolroq gavdalantirib berishga intilish davom etadi:

Kasrati yo'qluq, tama' kettirdi qadr-u qiymatim,
Yuz sarig'liq yerga urdi obro'-yu izzatim.
G'ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim,
Aql zoyil, umr kam, besh o'ldi dard-u mehnatim,
Davlat urgan pushti po, baxti (qaro suprindiman).

Fojia jarayonlarining inkishofi, ularning aniqroq va kuchli-roq tavsif va tasviri uchun yana yangi ranglar izlanadi. Bunda shaxs qiyofasida, ruhiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga e'tibor tortiladi:

Man kimam, gumnom-u nokom-u jahon ovorayi,
Diyda namnok-u giribon chok-u bag'ri porayi,
Noqabuli marhami, nosur bitmas yorayi,
Bekasi, mushti xasi, bir bandayi bechorayi,
Sobiram, ro'zi qazo, tiyri balog'a ko'ndiman.

Navbatdagi band Turdining iltijolari bilan boshlanadi. Aslida, uni Yaratganga murojaat deb izohlash ham mumkin:

Xeshman, darvish miskin, mustahiq devonadin,
Bahramand et iltifot-u himmati mardonadin,
San turub loyiqlidur, qilmoq tama' begonadin,
Qiblagoho, mandin ikroh etma er mayxonadin,
Jo'sh pur xum sof maysan, man g'ubor-u durdiman.

Yakunlovchi bandda hodisalarning sababi, asl mohiyati ochilgandek bo'ladi. Bu mojarolarning ostida Qirq urug'ining boshliqlari turganligi ravshanlashadi.

Yuz farozidin ozib, tushdum nishibi qirqqa,
Xavf-u biym-u vahm arosinda qaribi qirqqa,
Dona deb pobast o'lub, domi firibi qirqqa,
Voy, yuz ming voy, yuz bo'ldim firibi qirqqa,
Hokimi Dizzax muti'u payravi jurqundiman.

Aytish kerakki, Turdi yashagan davrda ijtimoiy hayotdagi vaziyat nihoyatda og'ir, inson uchun nomunosib va nomuvofiq edi. Uning qalbini larzaga solgan narsa shu ediki, bundan nomunosib hayot tarzining sababchisi ham begonalar emas, ayni bir millatga mansub bo'lgan jamiyat a'zolarining o'zaro noit-tifoqligi, boshliqlarning manmanligi-yu, ko'pchilikning boshini birlashtirishdek ulug' va mo'tabar ishga noqobilligi edi.

Savol va topshiriqlar

1. Turdi yashagan ijtimoiy-ma'naviy davr haqida nima deya olasiz?
2. Turdining ma'naviy jasorati haqida nima deya olasiz?
3. Turdigacha ikki tilda ijod qilgan qaysi adiblarni bilasiz?
Turdining ulardan qanday farqli jihatlari mavjud?
4. Turdi asarlarida jamiyatdagi qaysi illatlar tanqid qilingan?
5. «Tor ko'ngullik beklar...» g'azalining har bir baytini ifodali o'qing va izohlashga harakat qiling.
6. O'zaro hamjihatlikka undash mazmunidagi ma'nodosh so'zlar qatorini belgilang va ularni izohlang.

7. G‘azalda qaysi o‘zbek urug‘larining nomlari keltirilgan? Siz yana qaysi o‘zbek urug‘larini bilasiz?
8. G‘azaldan to‘nning alohida qismlari sanab o‘tilgan baytni toping, ularning nima maqsadda qo‘llanilgani haqida fikr yuriting.
9. G‘azalning qaysi jihatlari sizga yoqdi? Taassurotlaringizni yozma ravishda bayon qiling.
10. She’rga nima uchun «Turdiman» degan radif tanlangan?
11. Har bir baytdagi asosiy tasvir vositalarini toping va uning mohiyatini tushuntiring.
12. G‘azallar va muxammas orasida qanday bog‘liqlik va tafovutlarni his etdingiz? Mulohazalariningizni matnlarga tayangan holda bayon eting.
13. Muxammasni kirish, asosiy qism va xulosa kabi tarkibiy qismlarga ajratish mumkinmi?
14. Muxammasdagi kinoya va qochirimlarni belgilang, ularning qanday ifodalanganini izohlang.
15. Turdi Farog‘iying kuzatuvchanligi haqida nima deya olasiz, uning bu xislatlari qaysi ifodalarda yorqinroq namoyon bo‘lgan?
16. Muxammasda «Yaxshi vaqtlar yod»i haqidagi xotiralar nima uchun keltirilgan?
17. Muxammasda istiora, tazod, tashbih, ta’did singari she’riy san’atlar ko‘p qo‘llangan. Tegishli misollar asosida ularni izohlang.
18. Turdi ijodining zamonamiz uchun ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida gapirib bering.



SHE'RIY SAN'ATLARDAN NAMUNALAR

Adabiyot san'at turi sifatida insonga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir go'zallik vositasida amalga oshadi. Mazkur go'zallik esa badiiy adabiyotda so'z orqali namoyon bo'ladi. Biz badiiy adabiyot namunasi bilan tanishib o'zimiz uchun shu paytga-chaga bilgan yoki his etgan narsalarimizdan boshqacharoq bir holatga duch kelamiz, yangilikka duch kelamiz. U oldindan ma'lum bo'lmagani uchun bizda ichki bir qiziqish, ajablanish, hayratni uyg'otadi. Bular badiiy asarlarning ijodkorlari bo'lgan adib va shoirlarning mahorati tufayli sodir bo'ladi. Ularning bir qismi bevosita she'riy san'atlar bilan bog'liq. Quyida ularning ayrim namunalari bilan tanishmiz.

TASHBEH (O'XSHATISH)

Tashbeh hozirgi adabiyotshunoslikda o'xshatish deb yuritiladi. U shunday san'atki, unda so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa va hodisa, xususiyatlar o'rtasida mavjud bo'lgan o'xhashlik, sifat va belgidagi umumiylilik qiyoslanadi, o'zaro solishtiriladi, tasvirlanayotgan narsa-hodisaning ayrim xususiyati yorqin, chuqurroq va ta'sirliroq ochib beriladi.

Adiblar tashbehdan o'z g'oyalari, fikr va istaklarini badiiy ta'sirchan ifodalash uchun foydalanishadi.

Tashbehning bir necha qismlari mavjud. Bular o'xhatilgan narsa (mushabbah) o'xshagan narsa (mushabbabihi), o'xshatish sababi (vajhi shaboh) hamda o'xshatish vositasi (holati tashbeh)dan iborat.

O'xshatishlarning fazilati shundaki, ular ko'zda tutilgan har qanday fikrning aniqlashishida, shu obrazni to'liq tasavvur etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'xshatishlarning yana bir xususiyatini ta'kidlash zarur. Bu ma'lum bir o'xshatishning turli obrazlarni yoritishda qo'lla-

nishidir. Masalan, yilqi (hayvon) obrazi qora xalqqa, nodon, bilimsiz, zakovatsiz, ochko‘z va, umuman, yomon xulqli, yaramas odatli kimsaga nisbatan qo‘llanadi. Bo‘ri obrazini esa lashkarboshiga, yov-dushmanga, mard erga, o‘limga ham nisbatan qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Lekin ularning hammasida ham bo‘ri o‘xshatishi aynan bir xil ma’noda kelmaydi.

Atoyining quyidagi misralarida ham tashbehning go‘zal namunasi yaratilgan:

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o‘lturur,
G‘oyati nozukligidin suv bila yutsa bo‘lur.

Ko‘rinib turganidek, go‘zal yor (sanam) pariga o‘xshatilmoqda. Xalq tasavvurida pari suv yoqasida (daryo qirg‘og‘ida, ariq bo‘yida) bo‘ladi. Shoir ana shu xalqona tasavvurdan ham ustalik bilan foydalanmoqda.

ISTIORA

Istiora arabcha so‘z bo‘lib, «qarz olish» ma’nosida keladi. Istiora ikki narsa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Tashbehdan farqli ravishda, o‘xshatish vositasi va o‘xshatish sababi qo‘llanmaydi.

Tamanno qilg‘ali la’lingni ko‘nglum,
Kishi bilmas oni kim, qoldi qanda.

(Atoyi)

«La’l» tabiatda uchraydigan qimmatbaho qizil tosh ayni paytda, yor labidan chiqadigan iliq so‘zni ham anglatadi. Yorning labi qon kabi qip-qizil bo‘lgani uchun ham la’lga o‘xshatiladi. U ko‘chma ma’noda so‘zni ham anglatadi. Modomiki, la’l qimmatbaho tosh ekan, u so‘zni anglatganida nihoyatda mo‘tabar va qadrli so‘z nazarda tutiladi. Demak, bu yerda o‘zi ishlatilmagani holda so‘zning inson ko‘ngli uchun naqadar aziz va qadrli ekanligi ta’kidlanmoqda. Matnda lirik qahramon ayni mana shunday noyob va nodir qadr-qimmatga mushtoq kishi sifatida ko‘rsatilgan. La’l – oshiq uchun kutil-

gan so‘zning qayerga ketib qolganini hech kim bilmaydi. Eh-timolki, «so‘z»ning o‘zi qo‘llanganida bayt bunchalik ta’sirli va yoqimli bo‘limgan bo‘lar edi.

Tilar el mansabi oliv va lekin,
Atoyi sarvi ozodingg‘a banda.

Ushbu baytdagi istora «sarvi ozod» birikmasi orqali aks etgan. U yor qaddini, qomatini nazarda tutadi. Mazkur ifoda yor qaddining go‘zalligini, o‘ziga yarashib turishini to‘la va ta‘sirchan ifoda etishi bilan kitobxon uchun ham manzur va ma‘qul bo‘laveradi.

Alisher Navoiyning quyidagi misralarida qo‘llangan istiora yanada go‘zal va ta‘sirchandir:

Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin de ko‘z,
Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas.

Aslida, bu baytda bir necha istioralarning ketma-ket qo‘llanganini kuzatishimiz mumkin: «oy», «muhabbat tuxmi», «o‘t» so‘zları shu vazifani bajarib kelgan. Oy – yuzi oyga o‘xshaydigan yor timsoli. Faqat o‘xshatish qo‘shimchalari bo‘limgani uchun u dabdurustdan tushunilmasligi mumkin. Ammo «oy»ning osmon jismi emas, balki insonni, alohida shaxsni anglatib kelayotgani sezilib turibdi. Shuning uchun adabiyotshunoslar istiorani qisqartirilgan o‘xshatish deb ham aytishadi. «Muhabbat tuxmi» «muhabbat» degan abstrakt ot bilan «tuxum» («urug‘ donasi») konkret otining birikuvidan hosil bo‘lgan. U insondagi nozik va qadrli bir tuyg‘uni anglatib turibdi. Ammo shu holatida u «ishq» yoki «muhabbat» so‘zlariga qaraganda yoqimliroq va go‘zalroqdir.

«O‘t» bu yerda «olov» so‘zi bilan sinonim tarzda qo‘llanmoqda. Uning asosiy vazifasi ma’shuqa yuzidagi rangni ko‘rsatishdan iborat. Bu «olov rangi»dir. Yuzdagи qizillikning mana shu tarzdagi ifodasi go‘zallikning ham o‘ziga xos ifodasi sifatida ko‘zga tashlanadi.

TAZOD

Tazod san'ati narsa-hodisalarni zidlash orqali hosil qilinadi.

Atoyi she'rida yorning qop-qora sochini laylat ul-qadrga, oppoq yuzini esa subhi sodiqqa o'xshatadi. Bir-birini inkor etuvchi ikki tushuncha ustalik bilan qo'llangani uchun ham sanamning tengsiz chiroyini kitobxon ko'z oldida aniq va ta'sirchan tarzda tasavvur eta oladi:

Manga sensiz tirilgandin o'lim yuz qatla ortuqdur,
Bu so'zda, haq bilur, ko'nglum tilim birla muvofiqtur.

Bu yerda «tirilmoq» va «o'lmoq» so'zлari o'zaro zid qo'yilgan.

Quyidagi baytdagi tazodlar «nasya» bilan «naqd» so'zлari tufayli hosil bo'lgan:

Bu kun vaslingni tark ayla, tilar jannat zohidlar,
Berurlar nasyag'a naqdni, u ne nodon xaloyiqtur?

(Atoyi)

She'riy san'atlarni qo'llashda ham Navoiy dahosiga qoyil qolmaslikning iloji yo'q. Quyidagi misolning har ikki misrasida ham tazod mavjud:

Mengizlari gul-gul, mijalari xor,
Qabqlari keng-keng, og'izlari tor.

(Alisher Navoiy)

TALMEH

Talmeh arabcha so'z bo'lib, ma'nosи «chaqmoq chaqilishi», «bir nazar tashlash» demakdir. Badiiy san'at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir.

Xorazmiyda shunday bayt mavjud:

Sulaymon saltanatlik podshosen,
Masih anfoslik, Yusufliqosen.

Ushbu baytda uchta shaxs nomi: Sulaymon, Masih va Yusuf tilga olingan. Ularning uchalasi haqida ham faqat o‘zbeklarda emas, turli xalqlarda juda ko‘plab afsona, rivo-yat, qo‘sish, hatto dostonlar yaratilgan. Ular bilan bog‘liq rivoyatlar «Qur’on» da ham qayd etiladi. Ma'lumki, Sulay-mon – Dovud payg‘ambarning o‘g‘li edi, u o‘n to‘qqiz aka-uka orasida eng donishmandi bo‘lgan. Shu tufayli u barcha yer yuzidagi odamlarnigina emas, qurt-u qumursqaga, qushlar-ga, hatto «ins-u jinslar»ga ham hukmronlik qilgan. «Sulaymon saltanatlik podshosen» misralari ana shu afsonaviy shaxs qudratini mo‘jaz shaklda eslash orqali badiiy tasvir qahramonini tavsiflashga xizmat qilmoqda.

Masih ham payg‘ambarlar silsilasidan o‘rin olgan. Unga xos xislatlardan biri o‘likni tiriltira olish qudratidir. Masih anfoslik – Masih nafasiga ega bo‘lishlik demakdir.

Yusuf esa go‘zallik ramziga aylangan obraz. U Ya’qub payg‘ambarning o‘g‘li. «Yusuf va Zulayho» dostonidagi bosh qahramon, ko‘plab shoirlar e’tiborini tortgan:

Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bukun Ya’qubtek bayt ul-hazanda.

(Atoyi)

Bu yerdagi talmeh «Yusuf va Zulayxo» turkumidagi dos-tonlardan xabardor bo‘lishni taqazo etadi. Ma'lumki, Yusuf Ya’qub payg‘ambarning sevimli farzandi bo‘lgan. Ammo taqdir ayni mana shu farzandidan muayyan muddat ayrilib yashashini ravo ko‘radi. Natijada ota g‘am uyi (bayt ul-hazan) da yashashga majbur bo‘ladi. Yusuf o‘zining tashqi ko‘ri-nishi – go‘zalligi bilan ham boshqalardan ajralib turar edi. Demak, lirik qahramonning o‘z mahbubasiga «Yusufi husn» deb murojaat etishi bejiz emas ekan.

TAJOHIL UL-ORIF

Bu san'at mohiyatini bilib bilmaslikka olish tashkil etadi. Adib o'zi bilgan narsani yana boshqalardan so'rab turgandek bo'ladi.

Atoyining:

Mengiz yo ravzai rizvonmudur bu?
Og'iz yo g'unchai xandonmidur bu?

bayti bilan boshlanadigan g'azali boshdan-oyoq shu san'at bilan ziynatlangan.

Lutfiyning quyidagi baytida ham shu san'at qo'llangan:

Xo'blarda seningdek bir mahbub qani nozuk?
Boshdin oyoqi zebo, bel-u badani nozuk.

Aslida, bu she'r ma'shuqa madhiga bag'ishlangan. Lutfiy «mahbub» ning «xo'blar» orasidagi eng a'lo mavqe tutishini biladi. Asl maqsad ham ana shu haqiqatni ta'kidlash. Bu maqsadga erishish uchun esa bilmaslikka olish, bilib turib yana so'rash usuli qo'l kelgan.

HUSNI TA'LIL

Husni ta'lil fikrni asoslash san'atidir. Ammo bu asoslash real, hayotiy bo'lmasdan faqat shoirona asoslash bo'ladi.

Quyosh oydek yuzungning xijlatidin
Qochib, to'rtinchi ko'k uzra chiqibdur.

Lutfiy bu o'rinda yor – ma'shuqa yuzini ta'riflamoqda. Uning yuzi quyoshdan ham, oydan ham go'zal. Biz oy va quyoshning yerdan tepada – ko'kda turishini bilamiz, ammo shoir bunga boshqacha izoh bermoqda. Uning nazarida quyosh yor yuzining go'zalligi tufayli yer yuzidan qochib ketgan va to'rtinchi ko'k (osmon)dan makon topgan.

Lutfiy yana bir she'rida yozadi:

Nozuklik ichra belicha yo'q tori gesuyi,
O'z haddini bilib belidin o'lturur quyi.

Shoir yorning sochi uzunligini madh etadi, ayni paytda noziklik borasida bel va soch bahsida u (soch) mag'lub. Shuning uchun ham sochning o'rni beldan pastda bo'lishi kerak degan shoirona asos aytimoqda. Vaholanki, uzun sochning tabiiy ravishda beldan pastda bo'lishi hammaga yaxshi ma'lum.

Ibodat chog'ida boshni yerga qo'yish odatdag'i hol. Ammo shoir uni tamomila boshqacha izohlaydi.

Qutlug' oyog'ing yerga tegibdur, oning uchun,
El yerga qo'yub bosh, qilur barcha ibodat.

Ko'rinish turganiday, shoir elning yerga bosh qo'yib ibodat qilishini yorning «qutlug' oyog'i yerga tekkani» bilan asoslamоqda.

Yoki kishilarning qandni suvg'a solib eritishlari tabiiy holdir. Lutfiy esa uni shunday ta'riflaydi:

Labingdin chun suchuklik qand o'g'urlar,
Solurlar el ani suvg'a yalang'och.

Choyga qand solish hodisasi aks etayotgan bu tasvir badiiy asosning go'zalligi bilan e'tiborga molik. Adib nazarida qand shirinlikni labdan «o'g'irlab olgan». O'g'ri esa jazolanishi kerak. O'g'riga beriladigan jazo turlaridan biri uni suvg'a kiyimsiz yalang'och holda kiritishdir. Bu tasvir, albatta, kishida zavq uyg'otadi.

TAJNIS

Tajnisni «jinor» ham deyishadi. «Tajnis» ning ma'nosi «biror narsa bilan o'xshash bo'lmоq»dir. Jinos esa «hamjins» degan ma'noni bildiradi. Atama sifatida u talaffuz va shaklda

bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarni turli ma’nolarda qo‘llashni anglatadi.

Bo‘yung sarv-u sanubartek, beling qil,
Vafo qilg‘on kishilarga vafo qil.

(Xorazmiy)

Xorazmiyning «Muhabbatnoma»sidan olingan ushbu bayt misralaridagi oxirgi so‘zlar shaklan bir xil. Ammo ular har ikki misrada boshqa-boshqa ma’noni anglatmoqda. Dastlabki «qil» – «ingichka, nozik» ma’nosini bildirsa, keyingisida u «qilmoq» fe’lini anglatadi.

Ey bag‘ritosh, ko‘nglum evin aylama xarob,
Kim surating chizilmish aning ich-u toshinda.

Bu yerda «tosh» dastlab «bag‘ir» bilan bog‘lanib mehr-sizlikni ifodalasa, keyingi holatda u «ichkari» va «tashqari» ma’nosida kelmoqda.

Lutfiyning quyidagi baytida ham tajnisdan nihoyatda yuskak mahorat bilan foydalanilgan:

Yuz ochg‘il, ko‘z seni to‘yguncha ko‘rsin,
Necha bo‘lg‘ay bu ko‘zim muntazir, och.

Birinchi misradagi «och» – «ko‘rsatmoq» ma’nosini beradi. Keyingisida esa u «tashna» o‘rnida kelyapti. Shakldosh so‘zlardagi ma’no tovlanishlari baytga o‘zgacha ruh berib turibdi.

Mumtoz adabiyotimizda tajnisga tayanadigan maxsus janr ham shakllangan. U tuyuqdir. Tuyuqning to‘rt misrasidan uchtasida tajnis qo‘llanadi:

Ko‘z yoshim tuproq ila gar qotila
Kelmagayman javridin, haqqa, tila.
G‘amzası o‘ltirdi-yu, ul bexabar,
Men agar o‘lsam, ne g‘am ul qotila.

(Lutfiy)

Bu tuyuqning birinchi misrasida ko‘z yoshining tuproq bilan aralashish (qotilmoq) haqida so‘z bormoqda. Keyingi misrada esa javrning ko‘pligidan tilga kelmaslik, ya’ni ga-pirolmaslik, o‘zini yo‘qotish holati qayd etilgan. Bu yerda tajnisni hosil qilish uchun ikkita so‘zdan: «haqqo so‘zining «qo» bo‘g‘ini hamda «tila» so‘zining yondosh turgan holatidagi shaklidan foydalanilgan. Oxirgi misrada esa go‘yo qotil – odamni qatl etgan kishi to‘g‘risidagi fikr bor. Demak, bu o‘rinda tajnislardan yanada boshqacha ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Birinchi va oxirgi misralarda «qotila» yozuv shakliga ko‘ra ham bir xil. Ammo ikkinchi misrada u «haqqo» so‘zining oxirgi bo‘g‘ini bilan «tila» so‘zining qo‘shilishidan so‘ng oldingi shaklga uyg‘unlashmoqda. Ko‘rinib turganidek, bunday hollarda so‘zning talaffuz xususiyatlari asosiy o‘rin tutadi.

TA'DID

Ta’did to‘g‘risidagi ma’lumotlarni klassik poetika haqidagi manbalarning ko‘plarida uchratish mumkin. Bu ma’lumotlarda u turli nomlar bilan yuritilgan. Masalan, siyoqat-ul a‘dod («Aruzi Humoyun», «Badoye’ us-sanoe’», «Latoyif at-tavoif», «Jamoi muxtasar», «Rahnamoyi adabiyoti forsiy»), ta’zil («Badoye’ us-sanoe’»), shumur («San’athoyi bade’yi dar she’ri tojikiy»), e‘dod, ta’did, te‘dod («Ilmi bade’ dar zaboni forsiy») shular jumlasidandir.

Bu usulning go‘zal namunalarini so‘z ustalarining deyarli barchasida uchratish mumkin. Jumladan, Ahmad Yassaviy o‘zining badiiy niyatini alohida ta’kidlash uchun shu san’atdan foydalanadi:

Dardga to‘lding, g‘amga to‘lding, telba bo‘lding,
Ishq dardini so‘rsang hargiz darmoni yo‘q.

Birinchi misraga e’tibor berilsa, xuddi *birinchidan*, *ikkinchidan*, *uchinchidan* tarzidagi sanoq ohangi seziladi. Ayni mana shu tarz unga alohida ta’sirchanlik bag‘ishlaydi.

Ta'didning muhim xususiyatlaridan biri shuki, u fikriy rivojni, ketma-ketlikni, tadrijiylikni anglatadi:

O'qi bu Lutfiy munqluq niyoznomasini,
Savob-u olqish-u yuz ming duo kerak bo'lsa.

Bu o'rinda Lutfiy savob, olqish, duo so'zlarini ketma-ket sanash orqali ushbu san'atni hosil qilyapti.

Ta'didda, asosan, sanoq sonlar ishtirok etib, tartib sonlar nisbatan kam qo'llanadi, shuningdek, bu vazifani sanoq va tartibni ko'rsatuvchi son, olmosh va ravishlar ham bajaradi.

Ta'did grammatik o'zaro bog'lanishlarning bir xil turidan ketma-ket foydalanish orqali ham yuzaga chiqishi mumkin:

Ta'lim gulchehra nargis ko'zlilar bor,
Shakar dudog'li, shirin so'zlilar bor.

(Xorazmiy)

Bugina emas, bir xil grammatik o'zaro bog'lanishlar takrori ko'pincha she'riy musiqani kuchaytirib yuboradi. Hozirgi misolimizda ham bu holat kuzatiladi. Unda to'ldiruvchilar tilingni, ko'zingni, bo'g'uzni so'zлari o'ziga xos ichki qofiyalariga yaqinlashadi, kesimlar esa (ko'dazgil) radif vazifasini ado etyapti. Bu ichki qofiya va radiflar baytning ritmik ohangdorligini yoki boshqacha qilib aysak, musiqiy bo'yog'ini ta'minlayapti.

TANOSIB

Aslida, ko'plab badiiy san'atlar so'zlarning she'riyatdagi ma'naviy aloqadorligiga tayanadi. Shoiring mantiqan bir-biriga bog'liq va bir-birini taqozo etadigan so'zlardan foydalanishi tanosib deyiladi. Masalan, bir baytda «gul» so'zi ishtirok etsa, u o'z-o'zidan «tikan», «guliston», «shabnam», «bulbul» kabi so'zlarning bo'lishini taqozo etadi.

Olma yanoqing ko‘rgach, men bandi nechuk o‘lmay?
Bodom ko‘zi fitna, pista dahani nozuk.

Lutfiy bu o‘rinda yanoq, ko‘z, dahan kabi kishi tana-si qismlarini, shuningdek, olma, bodom, pista singari meva nomlarini bir baytga jamlagan. Ayni paytda olmadek yanoq, bodomdek ko‘z, pistadek dahan tasvirlari bayt mazmuniga ta’sirchanlik ham berib turibdi.

Atoyining quyidagi misralarida ham tanosib mavjud:

Uzun sochingdin uzmashmen ko‘ngulni,
Ayog‘ing qanda bo‘lsa boshim anda.

Bu yerda soch, ko‘ngil, oyog‘, bosh so‘zлari o‘rtasida mutanosiblik bor. Quyidagi baytda esa Atoyi cherik (askar), mulk (mamlakat), oldi (bosib oldi), ittifoq (ikki mamlakatning o‘zaro kelishishi) kabi so‘zlarning ma’no yaqinligidan foydalangan:

Zulfung cheriki jamol mulkin
Oldi ko‘zung ittifoqi birla,

ya’ni sening zulfing cherigi (sochlaring askarlari – qo‘shini) ko‘zing bilan ittifoq tuzib jamol mulkin egallab oldi.

SO‘ZLAR TAKRORIGA ASOSLANGAN SAN’ATLAR

So‘zlar takrori she’riyatda, ayniqsa, fikriy siqqlik omili-dir. Biroq o‘rni bilan takrorlangan so‘zlar ko‘pincha badiiy ta’sirchanlikning, g‘oyaviy baquvvatlikning ham muhim sharti bo‘la oladi. Sharq poetikasida shuning uchun ham so‘zlar takroriga oid bir qancha san’atlar vujudga kelgan. Bulardan eng muhimlari ishtiqoq, tasdir, tasbe, mukarrar (takrir), aks, tardi aks, rad san’atlaridir. Biz quyida shularning ayrimlariga to‘xtab o‘tmochimiz.

TASDIR

Tasdir – badiiy san’atning eng ko‘p tarqalgan, so‘zlar takroriga asoslangan turi. Bu san’atning mohiyati shunday: baytni boshlagan so‘z, uning oxirida ham takrorlanadi. Baytning birinchi misrasidagi birinchi rukn (yoki shu ruknning boshlanishi) sadr, keyingi misraning oxirgi rukni (yoki shu ruknning oxiri) esa ajuz deb yuritiladi. Shunga ko‘ra tasdirni mumtoz badiiylik ilmida r a d d u l - s a d r i i l a l - a j u z (sadrni ajuzda qaytarmoq) deb ham atashadi.

Bir qarashda tasdir juda sodda usul sifatida ko‘rinsa-da, shoirlar uni turli maqsadlarda qo‘llar ekan, uning xilma-xil ko‘rinishlarini va hatto aytish mumkinki, ancha murakkab turlarini ham kashf etishgan.

Tasdirlar, eng avvalo, tuzilishga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: sodda va murakkab. Sodda tasdirlar birgina so‘zning takrorlanishiga asoslanadi. Sodda tasdirlarning bir necha ko‘rinishlari mavjud: tasdir so‘zlar hech qanday o‘zgarishsiz qo‘llanadi, shakl jihatdan ham, ma’no jihatdan ham ayni so‘zning takroridangina iborat bo‘ladi:

M e n b u y u z m u s h t o q i d u r m e n , b o g ‘ - u b o ‘ s t o n k i m b o ‘ l u r ,
B o ‘ l m a s i n n a s r i n - u l o l a , a r g ‘ u v o n s i z s i z m e n g a .
(Atoyi)

Tasdir so‘zlar bir xil shaklda qo‘llansa ham, ular mazmunan farq qiladi, ya’ni ular ifodalagan ma’no ayni bir narsani emas, balki boshqa-boshqa tushunchalarni ifodalaydi. Bunday holda tajnis – shakldoshlar yuzaga keladi.

TASBE

Tasdirda birinchi misraning dastlabki so‘zi (yoki so‘zlari) ikkinchi misra oxirida takrorlansa, tasbeda birinchi misra oxi-ridagi so‘z keyingi misra boshida takrorlanadi.

Tasbening asosiy xususiyati shundaki, u kitobxon diqqatini

fikr yuritayotgan obyektga markazlashtiruvchi linza vazifasini bajaradi. Chunki birinchi misra oxiridagi so‘zning keyingi misrani boshlashi beixtiyor kitobxon ongida ta’sir qo‘zg‘atadi va bu ta’sir kitobxonni shu so‘z ustida o‘ylashga majbur qiladi. Shuning uchun ham yetuk shoirlarning deyarli barchasi tasbe uchun baytdagi eng muhim so‘zlarni tanlaydi.

Kuchum yetguncha ko‘p qildim v a f o lar,
V a f o li qulni asrar podsholar.

(Xorazmiy)

TARDI AKS

Tardi aks ham so‘z takroriga bag‘ishlangan lafziy san’atlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham so‘zlar takroriga tayangan boshqa san’atlarga – tasdir, tasbe, ishtiqoqqa yaqin turadi. Bu yaqinlik tardi aksda ham so‘zlarning takrorlanishidir. Biroq shunga qaramay bu san’at ulardan tubdan farq qiladi. «Tard»ning ma’nosi «qaytarib berish», «qochirish», «uzoqlashtirish» demakdir. Aks esa «zid», «teskari», «chappa» ma’nolarini bildiradi. Yuqorida tasdir va tasbelarning xususiyatlari bilan tanishdik, shuning uchun ham bu yerda ularning tardi aksdan farqini izohlashga o‘rin yo‘q. Faqat bir narsani ta’kidlash muhimki, so‘zlar takroriga asoslangan san’atlarning hammasida ham takrorlangan so‘zlar oldingi tartibni saqlab qoladi. Faqat tardi aks va aks san’atlaridagina so‘zlarning birinchi joylashish tartibi keyingi misrada almashib keladi. Tardi aksda takrorlangan so‘zlarning o‘rnini qat’iy emas, unda takrorlanayotgan so‘zlarning miqdori ikki yoki undan ortiq bo‘lib, ular o‘rinlarini almashtirgan holda qo‘llangan bo‘lishlari shartdir:

Menga dushvor erur sensiz tirilmoq,
Senga men bo‘lmasam, ey jon, ne g‘amdur.

(Atoyi)

Alisher Navoiyning:

Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur
Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubtur.

Misralari bilan boshlanadigan g‘azali boshdan oyoq mana shu san’atning qo‘llangani bilan ajralib turadi. «Balo» va «qaro» so‘zлari dastlabki oddiy tartibida ko‘zning qoraligini ta’kidlash uchun bo‘ysundirilgan. U «shunchalik», «nihoyatda» kabi so‘zlarning o‘rnida kelgan deyish mumkin. Ammo ularning o‘rni almashganidan keyin, ikkinchi misrada mutlaqo boshqa ma’no va mazmun yuzaga keladi. «Qaro balo» baloning rangini emas, balki uning darajasini, dahshatini ifodalaydi.

Quyidagi baytda tardi aks «davo»hamda «dard» so‘zлari vositasida yaratilgan:

Majmu‘i davoni dard qildi,
Dardingki, manga davo bo‘lubtur.
Ishq ichra oning fidosi yuz jon,
Har jonki, sango fido bo‘lubtur.

Baytda «fidosi», «jon» so‘zлari o‘rin almashtirib qo‘llangan. Shu tariqa shoир ma’noning yangi-yangi qirralarini kashf etishga muyassar bo‘lgan. Birinchi misradagi «jon» «yuz» so‘zi bilan qo‘shilgan holatda ham «yuz kishi», ham «yuzta jon» ma’nolarini anglatadi. Keyingi misrada esa «jon», asosan, «shaxs», «kishi» ma’nosini anglatib kelgan.

Begona bo‘lubtur oshnodin,
Begonag‘a oshno bo‘lubtur.

Bu baytda «bo‘lubtur» va «oshno» so‘zлari istifoda etilgan. Natijada ma’noda kutilmagan yangi bir qirra ko‘zga tashlangan. Bu shoир uchun o‘zbek tilining o‘ziga xos ifoda imkoniyatini ko‘rsatishiga ham keng maydon ochib bergen.

NIDO

Nido boshqa she’riy san’atlardan bevosita inson qalbidagi his va hayajonlarni ochiq va kuchli tasvirlab bera olish imkoniyati bilan ajralib turadi. Insonning ichki tuyg‘ulari po‘rtana misoli junbushga kelganida lirik qahramon olamdagи har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi istalgan narsaga, o‘zining qalbiga, suhbatdoshiga murojaat etishi mumkin. Masalan, «Rustamxon» dostonida Sultonxon Rustamga «qo‘zim» deb murojaat etadi:

Necha kun, necha tun orada o‘tdi,
Rustamga Sultonxon u so‘zni aytdi:
– Quloq solgin xon otangning tiliga,
Qo‘zim, ketayik-da Oqtosh eliga,

Boshqa bir g‘azalida esa lirik qahramon yorga: «Ey Yusufi husn», – deya murojaat etadi.

Atoyining «Hajringda, begin, oh degumdur dag‘i o‘lgum» deb boshlanadigan g‘azali oshiqona bo‘lib, unda suyuklisiga muhabbatni olamdagи hamma narsadan ortiq ko‘radigan oshiq holati ifoda etilgan. Shoir o‘z dil izhorlarini, hurmat va ehtiromini «begin» so‘zida mujassamlashtira olgan.

Sensiz u jahon ayshi alamdur manga, ey do‘st,
Shodlig‘i ham mehnat-u g‘amdur manga, ey do‘st.
(Atoyi)

Alisher Navoiy lirik qahramonining ichiga sig‘may ketgan ruhiy holatini aks ettirish uchun tabiatga, aniqrog‘i tabiat hodisalaridan bo‘lgan saboga murojaat etadi:

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt.



MUNDARIJA



Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltirish vositasi..... 3

Xalq og‘zaki ijodi

Rustamxon	8
«Rustamxon» dostoni haqida	24
Doston va uning turlari	26

Qadimgi turkiy adabiyot

O‘rxun-Enasoy obidalari.....	29
To‘nyuquq bitiktoshi.....	30
O‘rxun-Enasoy obidalari haqida.....	42

O‘zbek mumtoz adabiyoti

Ahmad Yassaviy	49
Hikmatlar	50
Yassaviy hikmatlari haqida.....	53
Atoyi	58
G‘azallar	59
Shoir lirikasi haqida.....	61
Alisher Navoiy	72
G‘azallar	82
Qit‘alar	93
Alisher Navoiy ruboilyari haqida	104
Zahiriddin Muhammad Bobur	110
Boburnoma	114
«Boburnoma» haqida	149
Turdi Farog‘iy	154
G‘azallar	155
Muxammas	158

Nazariy ma’lumot

She’riy san’atlardan namunalar

167

O‘quv nashri

Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova

ADABIYOT

O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va
o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining
o‘quvchilari uchun darslik-majmua

Birinchi nashr

O‘zbek tilida

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent–2017

Tahririyat mudiri *Anvar Zulfiqorov*
Muhammadiyev Muharrir *Jahongir Qo‘nishev*
Badiiy muharrir *Asqar Yoqubjonov*
Musahhihlar: *Lola Fattoyeva*
Laylo Hasanova
Sahifalovchi *Akbar Qo‘nishev*

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009-y.

Bosishga ruxsat etildi 14.08.2017. Bichimi $60 \times 90^{1/16}$.
Offset qog‘oziga bosildi. «Times New Roman» garniturası.
Shartli bosma tabog‘i 13,45. Nashr hisob-tabog‘i 12,00.
Adadi 428 121 nusxa. Buyurtma № 17-588.

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi, familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahba- rining imzosi	Darslikning topshiril- gandagi holati	Sinf rahba- rining imzosi
1						
2						
3						
4						

**Darslik ijara berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda
yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash
mezonlariga asosan to‘ldiriladi**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q
Qoniqarli	Muqova ezligan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.

ADABIYOT

O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va
o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining
o‘quvchilari uchun darslik-majmua

Birinchi nashr

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan

II QISM



«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent–2017

UO‘K: 821=512.133(075.3)

KBK: 83.3(5O‘)ya721

A 29

**Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov,
Komila Usmonova**

Taqrizchilar:

N. Rahmonov – *filologiya fanlari doktori, professor;*

M. Valiyeva – *Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 274-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.*

A 29 Adabiyot [Matn]: darslik-majmua / B. To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.

ISBN 978-9943-07-535-1

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi
mablag‘lari hisobidan chop etildi.**

UO‘K: 821=512.133(075.3)

KBK: 83.3(5O‘)ya721

ISBN 978-9943-07-535-1

© B. To‘xliyev va boshq.

© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti, 2017

YANGI O'ZBEK ADABIYOTI

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY (1875–1919)



Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Mahmudxo'ja tog‘asi Muhammad Siddiqning tarbiyasini olgan. Arab tili grammatikasini kichik tog‘asi Mulla Odildan o‘rgangan.

Behbudiy 1899–1900-yillarda hajga boradi; 1903–1904-yillarda Moskva, Peterburgga hamda 1906-yili Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod, Misr va Turkiyaga safar qiladi.

Behbudiy XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida munosib o‘ringa ega. Uning hayoti va ijodiy faoliyati jamiyat hayotidagi jiddiy o‘zgarishlar davriga to‘g‘ri keldi. Behbudiy Turkistonda maktab va maorif, matbuot va teatr, jurnalistika sohalarda ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma’rifiy faoliyat olib bordi. Qishloqlarda tashkil qilingan maktablar uchun bir qancha darsliklar yozdi.

Behbudiy o‘z zamonasi yoshlariga murojaatida bunday yozadi: «Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondirki, makotib¹ – taraqqiying boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat eng avval makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘paytirmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirib madaniyatdan foydalanmas»².

¹ Makotib – maktablar.

² Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: «Ma’naviyat» nashriyoti, 1999, 176-bet.

Turkistondagi maktablar islohoti Behbudiy nomi bilan bog‘liq. Behbudiy yangi usuldagagi maktablar tashkil etish ishida jonbozlik ko‘rsatadi. Tirikchilikka o‘zini urgan xalqni dun-yoning eng ilg‘or millatlari qatoriga qo‘shish uchun maktab-larning o‘zi kamlik qilar edi. Shu bois Behbudiy Samarqand shahrida 1913-yili «Samarqand» nomli gazeta va «Oyna» jurnalini nashr ettira boshlaydi. Ularda millat ahvoli, uning haq-huquqi, milliy til qadri, chet tillarini o‘rganish va tarix masalalariga doir maqolalar e’lon qiladi. Behbudiy o‘z davrida ziyolilarning yetakchisi, ma’rifat fidoyisi, millatparvar sifatida taniladi.

Butun umrini jaholat va zulmatni ilm-ma’rifat yog‘dusi bilan yoritishga bag‘ishlagan Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyati bugungi yoshlarga o‘rnak bo‘lishga arziydi, albatta.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1919-yil 25-martda Shahrisabzda qatl etiladi.

PADARKUSH **yoxud o‘qimagan bolaning holi¹** (Turkiston maishatidan olingan ibratnoma)

3 parda, 4 manzarali, milliy birinchi fojia.

Qatnashuvchilar:

B o y – 50 yashar.

T o sh m u r o d – boyning o‘g‘li, 15–17 yashar.

D o m l a – yangi fikrlik bir mulla, 30–40 yashar.

Z i y o l i – (ovro‘po libosida), o‘ruscha o‘qug‘on, millatchi mu-sulmon.

X a y r u l l o – boyning mirza va mahrami, 18–20 yashar.

T a n g r i q u l – boyning qotili.

D a v l a t i l a N o r (bo‘z bolalar) – kissalariga 4 so‘m qadar mayda kerak.

¹ Asar matni Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Tanlangan asarlar»i (Toshkent: «Ma’naviyat» nashriyoti, 1999) hamda filologiya fanlari nomzodi Shuhrat Riza-yevning «Jadid dramasi» (Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 1997) kitobiga kiritilgan manba asosida berildi.

L i z a – rus xotini, qabiha shaklinda.
A r t u n – armani mayxonachi.
P r i s t u f – 2 politseyskiy, 2 qorovul, boyning 3 nafar erkak hamsoyasi.
B o y b u c h c h a – boyning xotini, 35–40 yashar.

Kerak nimarsalar:

Bir la’li shiravor, non, dasturxon.
Choynak, piyola, chilim.
Mehmonxonaga keraklik gilam, ko‘rpa, yostiq.
Boyni(ng) yotoq asbobi va karavot.
Bir kaltak.
O‘n shisha suv va kivas.
Besh-olti istakon.
Bir sanduq.
Bir hamyon, ichida pulg‘a o‘xshash nimarsa.
Bir katta pichoq.
Bir tapponcha.
Sanduqni ochaturgan temir asbob.
Mukammal pristuf libosi, 2 politseyskiy mukammal libosi, 2 qorovul kaltagi.
1 hushtak, 1 kanob, 1 qo‘l kishani.

Birinchи pardа

B o y mehmonxonada o‘tirar X a y r u l l o ila.

D o m l a (*kirar*). Assalomu alaykum.
B o y. Vaalaykum assalom, marhamat qilsinlar (*turib mu-loqot qilib, domлага joy ko‘rsatib, o‘ltirur*).
D o m l a. Boy davlatini, Ollohi taolo, mundan ham ziyoda qilgin (*fotiha qilur*).
B o y. Nafas(lar)i muborak, inshoolloh, duolari qabuldir.
D o m l a. Balli, juma oqshomi duoni qabul vaqtidir.
B o y. Xush keldilar, taqsir.
D o m l a. Salomat, salomat (*qo‘lini ko‘ksiga qilib*).



Behbudiyning «Padarkush» dramasi ilk sahifasi (1915)

Б о у. Xayrullo! Choy va la’li keltur.

Х а y r u l l o. Xo‘p! (*Choy va la’li keltirar, choy suzar, alar tanovul aylar*).

T o sh m u r o d kirar, salomsiz, beadabona.

T o sh m u r o d. Ota, tomoshag‘a boraman, pul bering.

Б о у. O‘g‘lim, kim ila borasan?

T o sh m u r o d. Tursun akam ila.

Б о у (*kissasidan pul berib*). Albatta, vaqtli kelinglar va yomon yerlarga bormanglar!

T o sh m u r o d. Xayr, xayr, hay ko‘p gapirarsiz-da (*chiqib ketar*).

D o m l a B o y va T o sh m u r o d g‘a badbinona boqib, boshini solar.

B o y. So‘zlashib o‘lturing, taqsir!

D o m l a. Xo‘b, xo‘b, boyvachcha katta bo‘lubdur. Xudo umr bersin, usuli jadida maktabigami o‘qiydur yoinki eski maktabga?

B o y. Ikkisiga ham bormaydur.

D o m l a. O‘z hovlingizda o‘qutaturgansiz?

B o y. Yo‘q, yo‘q. Men o‘g‘lumni o‘qutmoqg‘a o‘ylaganim yo‘q.

D o m l a. Ajoyib, sabab nedurki, o‘qutmaysiz? Vaholanki, o‘qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdurdur.

B o y. Mani xayolimga dunyoning sababi, izzati – boylik. Oxiratga bo‘lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo‘lur. Chunonchi, biz ko‘rarmizki, odamlar boyni mulladan ziyoda izzat qiladurlar. Xususan, mana, banklar ko‘paydi. Katta boylar chilen bo‘lub, har kim chilenlarni izzat qilur, hatto ishi tushaturganlar chilen molini qimmat olur. Azbaski, chilen iltifotiga olmagan odamlarga banklar pul bermaydurki, so‘ngra muomadorlar sinib, mayda-mayda bo‘lur, bildingizmi?

D o m l a. Bu so‘zlarining hozirgi zamonaga ma’qul, lekin chilen va boylarni izzatlari vaqtinchalik va xalqni ko‘zi ochilgunchadir. Holbuki, alarni ishi tushganlar izzat qilur. Mullani bo‘lsa, barcha xalq izzat qilur, ya’ni mullani ilmi izzat qilinadur.

B o y. Bizni ham boyligimiz izzat qilinadur. Hatto musulmonlar nari tursun, o‘rus va armanlar-da izzat qilur.

D o m l a. Izzatni nari qo‘yduk. Agarda o‘g‘lingizni o‘qutsangiz, daftaringizni yozar, namozingizni va musulmonchilagini yaxshi bilar va ham sizga savob bo‘lur.

B o y. Mirzalik oson, mana, Xayrulloga oyinda yetti so‘m beraman, kunduzlari mirzalik va oqshomlari mehmonxona ishini qilar va hatto uyqum kelguncha xodimlik qilar, kitob ham o‘qub berar.

D o m l a. Shariat ilmi va zaruriyati diniyani bilmoq uchun boyvachchani o‘qutmoq, albatta, sizga lozimdir.

B o y. Shariat ilmini o‘qitmoqni lozim bilmayman, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman. Azbaski, davlatim anga yetar.

D o m l a. Zarurati diniyaga ne dersiz?

B o y. Men o‘zim besh vaqt namozni keraklik duolari ila bilurman. O‘zim o‘rgaturman.

D o m l a. Xat va savodga ne dersiz? Holbuki, savodi yo‘q odam hech nimaga yaramaydur.

B o y. Bu fikringiz g‘alat, chunki mani savodim yo‘q, bovujud, bu shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman.

D o m l a. Siz ilgari zamonda bir navi ila boy bo‘lubsiz, ammo endi boy bo‘lmoq nari tursun, faqat ro‘zg‘or o‘tkar-moq uchun ham ilm kerak. Ko‘ramizki, yigirma-o‘ttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiy-ler qo‘lig‘a o‘tdi. Muni sababi bizlarning o‘qumag‘animizdur. O‘qumagan boyvachchalarni ko‘ramizki, ota molini barbob etar va oxiri xor-u zor bo‘lur. Binobarin, o‘g‘lungizni o‘qut-moqni sizga taklif qilurman.

B o y. Hoy, domla! Siz manga tahqiqchimi? O‘g‘ul maniki, davlat maniki, sizga nima? O‘quganni biri – siz, yemoq-g‘a noningiz yo‘q. Bu holingiz ila manga nasihat qilursiz. Xayrullo! Mehmonxonani qulfla, uyqum keldi.

X a y r u l l o la’li va asboblarni jamlab, muntazir turar.

D o m l a (*odamlarga qarab*). O‘qumoq va mulla bo‘lmoq uchun pul kerak. Badavlatlarimizni holi bul. Bas, bu ketish ila nauzambilloh, dunyo va oxiratga rasvo bo‘lurmiz. O‘qumoq barcha musulmonga, erkak va yo xotin bo‘lsun, farz edi. U qayda qoldi? Oh, voy bizni holimizga! (*Boyga qarab*). Boy, man sizga amri ma‘ruf etdim va manga shariat bo‘yicha lozim bo‘lgan ishni bo‘ynumdan soqit qildim. Inshoollo, mo‘ylab chiqarib, alifni tayoq demayturgan o‘g‘lungiz holini ko‘rarmiz va o‘qutmaganingiz uchun gunohkor bo‘lursiz. (*Domla nos chekar*).

B o y. Hoy, domla! Manga nasihatchi kerag yo‘q. Bezar qildingiz. (*Odamlarga qarab*). Ishimdan, uyqumdan bu odam mani qoldiradir. Xayrullo, mehmonxonani qulfla.

D o m l a arazlab chiqib ketar, B o y ni dimog‘i kuyib o‘lturar.

Z i y o l i musulmon kirar, palto va asosini mixga qo‘yar, boy ola-ola qarar, xushlamas.

Z i y o l i. Assalomu alaykum.

B o y (*karaxtlik ila*). Vaalaykum assalom. Xayrullo, kursi keltur. Bu kishi yerga o‘lturolmaydur.

Kelturar, Z i y o l i o‘lturub, papirus chekar.

Z i y o l i. Janob boy, sizni kayfsiz ko‘raman, mumkinmi sababini bilsam?

B o y. Bir mulla kelib edi, o‘g‘lingni o‘qutmaysan deb juda jonomni oldi, quvlagandek qilib zo‘rg‘a qutuldim, faqat mushtlashmadik.

Z i y o l i. Ah-ha, qiziq va interesniy hodisa emish. (*Odamlarga qarab*). Bu shaharda boylarga amri ma’ruf qilaturgan mulla bor ekan, Xudoga shukur. Ul janobi haqqoniy domlani topib, ziyorat qilmoq kerak. Boy afandi, sizga malol kelmasun, ushbu to‘g‘ridan men ham sizga qachonlar bir necha so‘z aytmoqchi edim. Va ammo soati ushbu daqiqaga mavquf ekan, endi sizdan iltimos qilamanki, bir necha daqqa menga quloq bersangizki, ilm nafi to‘g‘risida so‘zlayin.

B o y (*ola-ola qarab*). Endi bildim, siz ham o‘g‘lungni o‘qut deb mani qisar ekansiz. (*Odamlarga qarab*). Bungun chap yonim ila turganman. O‘ylamagan ishlar oldimdan chiqar. Mazmuni – qordan qutulib, yomg‘urga uchraymiz. Xayrullo! Chilim keltur! (*Tarafayn sukut, chilim kelar. Boy chekar, yo ‘talar*).

B o y. Xayrullo!

X a y r u l l o. Labbay, taqsir!

B o y. Joyimni tashla, uyqum keldi (*homuza tortar*). Ertaga ish ko‘p, vaqtli yotmoq kerak (*yana homuza*).

X a y r u l l o. Xo‘s sh, hozir.

Z i y o l i (*jiddiyat ila*). Boy afandi! Men sizga dedimki, millatga keraklik ilmlar to‘g‘risida so‘zlamoqchiman, ammo siz mening so‘zimni eshitmoqni xohlamayturganga o‘xshaysiz. Ikkinci daf'a aytamanki, qulqoq bering va bu so‘zlar sizning va millatning naf‘idur!

B o y. So‘zingizni jabr va zo‘r ila eshittirasizmi? Va yo menga azob bermakka keldingizmi?

Z i y o l i. Yo‘q, men asli boshqa ish uchun kelib edim va lekin ilm bahsining ustidan chiqib qoldim. Ushbu sababli muddaoni tabdil qilib, ilm to‘g‘risidan sizga bayon qilmoqni qasd etdim. Shoyadki, janobingizdek boylar millat bolalarini o‘qutmoqqa sa‘y qilsalar.

B o y (*xalqqa qarab*). Koshki, domla hikoyalari yetmasa edi. Xo‘b, modomiki, qo‘ymaysiz, ertaroq so‘ylab tamom qiling, uyqum kelgan (*homuza tortadi*). «Odamlar bolasini o‘qut», – deydur-a.

Z i y o l i. Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonaga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo‘lidan ketgandek, axloq va obro‘yi ham qo‘ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo‘lur. Buning uchun biz musulmonlarni o‘qutmoqqa sa‘y qilmog‘imiz lozimdur. Vaholanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o‘qumoqni beshikdan mozorgacha bizlarga farz qilgandir. Bu hukm – hukmi shariatdir. Biz musulmonlarga, alalxusus, bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri – olimi diniy; ikkinchisi – olimi zamoniy. Olimi diniy: imom, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti bo‘lub, xaloyiqni diniy va axloqiy va ruhoniy ishlarini boshqarar, bu sinfga kiraturg‘on talabalar, avvalo, Turkistonda va Buxoroda ilmi diniy va arabiyy va biroz ruscha o‘qub, so‘ngra Makka, Madina, Misr va Istanbulga borib, ulumi diniyani xatm qilsalar kerak, toki komil mulla bo‘lsunlar. (*Boy mudrayduri*). Angladningizmi, boy?

B o y (*boshini ko‘tarib*). Ha, ha, aytaberling, qulog‘im sizga.

Z i y o l i. Olimi zamoniy bo‘lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarib, zaruriyati diniya va

o‘z millatimiz tilini bilaturgandan so‘ngra hukumatimizning nizomli maktablariga bermoq kerakdur, ya’ni gimnaziya va shahar maktablarini o‘qub tamom qilganlardan so‘ng, Peterburg, Maskav dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi tijorat, ilmi ziroat, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o‘qutmoq lozimdir. Rusiya vatanina va davlatina bilfe’l sherik bo‘lmoq kerakdir va davlat mansablariga kirmoq lozim. Toki maishati ehtiyoji zamonamiz to‘g‘risida vatan va millati islomga xizmat qilinsa va ham podshohlik mansablariga kirib, musulmonlarga naf yetkurilsa va ham davlati Rusiyaga sherik bo‘lunsa, hattoki shul tariqa o‘qugan muslimon bolalarini Farangiston, Amerika va Istanbul dorilfununlariga tarbiya uchun yubormoq kerakdur. Hazrat Payg‘ambarimiz: «Ilm Xitoya ham bo‘lsa, talab qilingiz», – demadilarmi? (*Boy uyquda*). Bul ishlar bo‘lmas, magar pul ila, sizdek katta boylar himmati ila, chunonchi, Qafkaz, Orenburg va Qozon muslimonlarini boy va ahli xayriyoti ilm yo‘liga ko‘p pullar sarf etarlar va kambag‘al bolalarini o‘qutdirarlar. (*Boyga qarab*). Albatta, so‘zlarimga tushungansiz, janobi boy. Boy bova, hoy!

B o y (*mudraydi, bosh ko‘tarib, esnab*). Ha, ha...

Z i y o l i. Al-on biz Turkiston xalqiga bir yomon odat borki, bir kishi ruscha o‘qub, podshohlik ishiga kirib, rasmiy forma kiysa, ani ayb qiladurlar. Yo bir muslimon bolasi nizomiy maktab formasida yursa, masxara qiladurlar. Agar izvoshchik va yo qora mehnatkash bo‘lub, ovro‘palilarni eski libosini kiysa va yo o‘yinchilarning libosini kiysa, hech kim bir nima demaydirki, bu kamoli nodonlik va dunyodan xabar-sizlikdir. Shunday emasmi, boy amaki?!

B o y (*o‘lturgen yeridan bir tarafga og‘ib yotib*). Hur-hur-huro-huro...

Z i y o l i. Ilaho, xudoyo! Ummati islomiyaga, xususan, biz turkistonlilarga rahming kelsun!.. (*ro‘moli ila ko‘z yoshini artib, chiqib ketar*).

Parda enar.

Ikkinchicharda

Pivaxona manzarasi. Bo'yvachchani ilachcha ilachcha uch nafar o'lturarlar.

Ta ng r i q u l. Bu oqshom, bilmayman, nima uchun ichkilik meni tishlamaydur. Namozi digardan beri bir dyujina shishani bo'shatdim. Dayusni pivosi qulog'imni qizitmadi. To'ldir, ichaylik (*Nor qadahlarni to'ldirar*).

H a m m a s i. Toshmurod boyvachchani salomatligiga ura! Ura! Ura! (*Icharlar*).

D a v l a t. Jo'ralar, manavini ichdim, endi yodimga Lizajon tushdi. Oh, Lizajon!

H a m m a s i. Oh, Lizajon, voh, Lizajon, qaydasan?!

N o r. Zolim falak firoqig'a kuydirdi mani; billohki, kelmasa, bo'miydi.

D a v l a t. Bu dod-u bedod ila hech nima bo'lmas. Xo'ja-yinni chaqirarmiz, otam o'ldi bazmi qilarmiz.

N o r. Qo'lingni ber, ey nomard, topding (*qo'lini siqar*). Bo'ldi.

D a v l a t. Ey to'taburut Tangriql! Daming chiqmaydur. Shuncha odam so'zini o'g'irlab o'lturasan. Erga navbat – sherga navbat. Gap berib o'ltur. Yo bu odamlarni pisand qilmaysanmi? Bizlarning ham yonimizga besh tangalik aqchamiz bor. Jo'ra! Bu mastlik rostlikdir. Qovog'ingni ochib o'ltur.

Ta ng r i q u l. Jo'ralar! Sizlardan yashiraturgan so'zimiz yo'q. To'g'risini desam, manuni ichdim, qulog'im qizig'an, sen Liza deding, endi o'zim shunda bo'lsam-da, hushim Li-zaga, to Lizani kelturmasang, mani gapirturolmaysan. Ammo gap kelturganingga, Davlat zo'r!

D a v l a t. G'am yema, muddaong Liza bo'lsa, shul zamon yoningga ko'rarsan, kelmasami? Boshini olarman.

N o r. Boyvachcha! Barishnaga tobингиз борми?

To sh m u r o d. Mayli, odam yuboringlar, bazm qilsun.

Ta ng r i q u l. Gap, gap ila vaqtini o'tkararsizlar, buyuraturgan bo'lsanglar, buyuringlar. Ertaroq kelsun, kayf qilayluk.

D a v l a t qo'ng'iroq chalar. Artun armani mayxonachi kirar.

A r t u n. Nima deysan?
D a v l a t. Lizaga birovni yubor, kelsun.
A r t u n. Bunda?
D a v l a t. Ha, munda kelturmasdan mozorgami keturarding?
A r t u n. Izvinit qilasan, surushdim-da.
D a v l a t. Bo'l, bo'l. Birovni yubor.
A r t u n. Bah, na vor, qilursan. Liza banga demishki, o'n besh manatsiz banga kishi go'ndarma. Ha, o'n besh manatda va faytun pulini-da ver, geyin Nikolayi go'ndarayim. Liza o'lmasa, boshqasini getirsin, kayfingni chek.
D a v l a t. Avval kelturub, so'ngra pulni olsang bo'lmasimi?
A r t u n. Davlat zo'r! Ban sana demishimki, Liza aqcha olmayincha gelmaz, bana na? San o'zing bilirsanki, u gavur qizi, banim degil. (*Mastlar bir-birlariga hayron qararlar, kissalariga qo'l soladirlar*).
T a n g r i q u l. Artun. Biroz to'xta, pul beramiz.
A r t u n. Bosh ustina, hoziram. (*Chiqar. Jo'ralari kayflari uchub, sukut etarlar*).
D a v l a t. Suz, ichaylik. (*Nor suzib, quyar*).
T a n g r i q u l. Pulni peshaki talab qilgani ishni belini sindurdi.
D a v l a t. Ish aksiga olsa, shunday bo'lur. Pullaring bormi? Hammalaring chiqaring. (*Hammasi chiqaradi, Davlat sanar, besh so'm yetmas*). Bu minan hech nima bo'lmas. Bir ilojini topmoq kerak.
N o r (*tamagirlik ila*). Ey boyvachcha, bizlar-ku kambag'al. Sizga nima, kissangizdan pul chiqmaydur? Ana boybachchaning holi (*qo'li ila ko'rsatar*).
D a v l a t. Parvo qilma, Nor! Men bir nimarsa o'yladim, agar boyvachcha ko'nsa.
T a n g r i q u l. Nima ekan? Nima?

D a v l a t. To'xta, nima ekanligini bilarsan. Avval boyvachchaning salomatligiga ichaylik. (*Tangriqul suzar, icharlар boyvachchaning salomatligiga*). Boyvachcha. Bu kechadek

chahorshanba sayri oyda-yilda bir bo‘lur va yo yo‘q, bir kecha ming kecha bo‘lmas, agar qabul qilsangiz, Tangriqulnisi zga qo‘sharman. Birga borib, otangizni sandug‘ini ko‘rsatursiz. Boshqa ishni Tangriqul bajaradur.

To sh m u r o d. Tangriqul aka, borasizmi?

T a n g r i q u l. Ulfatlar buyursa, u dunyoga boraman. U-ku sizning hovlingiz.

D a v l a t. Sen nima dersan, Nor?

N o r. Men ham ko‘pni biri, bor desang, borarman.

D a v l a t. Yo‘q, ikkov bas. Ko‘rganlar badgumon bo‘lmasin. Bukunni ertasi bor.

N o r. Boyvachcha! Otangiz sandig‘ining joyini bilasizmi?

To sh m u r o d. Otamning yotaturgan uyinda.

D a v l a t. Yotaturgan uyini necha eshigi bor?

To sh m u r o d. Uch.

D a v l a t. Qaysi eshikdan kiraszizlar?

To sh m u r o d. Eshikning biri onamning uyindan ochilur, men kirib, hovli tarafdagи eshikni ocharman, so‘ngra Tangriqul akam kirar.

D a v l a t. Barakalla! Ilgari ham o‘g‘irlik qilganga o‘xshaysiz. Nor! To‘ldur, ichaylik! (Nor to ‘ldurar, icharlar. Tangriqul va Toshmurodga qarab) Endi boradurgansizlar?

T a n g r i q u l. Albatta. Bormay nima bo‘lubdur (*Davlat to‘pponchasini boyvachchaga berar. Nor etik sog‘idan pi-choqni olib, Tangriqulga berar. Alar ehtiyyot qilib turarlar*).

D a v l a t (*ikkisiga qarab*). Yo‘l bo‘lsin, botirlar?

T a n g r i q u l. Olgani (*Davlat Tangriqulni bir chetga olib, ishorat va xufiya ma’lumot va amr berar*).

N o r. Omin, Ollo...

H a m m a s i. Ollohu akbar. (*Davlat fotiha berar*).

T a n g r i q u l va Toshmurod chiqar. D a v l a t va N o r ichar...

Parda enar.

Uchinchicharda

Odat bo'yicha Bo'y yotar karavot ustiga uyquda, uyni bir tarafiga sanduq. To sh m u r o d bir eshikdan ohistalik ila kirar, bu taraf – u tarafga qarab, boshqa bir eshikni ochar va bir chetga turar.

T a n g r i q u l kirar, qo'lida kalid va temir asbob, beliga pichoq; sandiq tarafiga borib, kalid solar, sandiq ochilmas. To sh m u - r o d ga qaraydur. Ishorat ila maslahat so'raydur. To sh m u r o d sanduqni temir asbob ila sindirmoqg'a amr berar.

T a n g r i q u l temir asbob ila sanduqni sindirar. Sanduqni ovozi ila boy uyg'onur. Bo'y cho'chib turar, kaltakni olib: «Voy, voy!» – deb T a n g r i q u l ga Yugurar. To sh m u r o d kaltakni kelib ushlar. T a n g r i q u l pichoq ila boyni qo'ltig'iga urar.

Bo'y (*taraqlab yiqilar*). Voh, jonom! (*Jon uzar, tipirlar, xirillar*).

T a n g r i q u l sandiqdan tanga xaltasini ko'tarar, pichoq va temir asbobni o'ziga berkitar, tashqaridan bir necha odam tovushi eshitilur.

O d a m l a r. Nima gap, birov dod dedi?

Bir necha erkak ila boy xotuni kirarlar, T a n g r i q u l ila To sh m u r o d ni ko'rарlar.

T a n g r i q u l. Toshmurod, ot!

To sh m u r o d havoga to'pponcha otar va hozir kishilarga siloh¹ ko'rsatib qocharlar.

Bo'y b u ch ch a. Voy, zolim dastidan! Bu qanday kundi, voy dod! (*Chapak chalar, boy ustiga o'zini tashlar, yuz va sochini yular*). He, juvonmarg Toshmurod! Qon qus! Koshki chechakda ketsayding! Voy, padarkush! Toshmurod! Voy, dod-ey!

¹ Siloh – qurol

D o m l a (*kirar*). Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo‘q. Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, bema’nilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. O‘g‘lingizni beilmlik Sibirga yuboradi. Joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan bir umrga ajratadur. Bolangizni otasi tarbiya etmadi, o‘qutmadi. Oxiri baloga uchradi, yomon rafiqlar yo‘ldan chiqardilarki, qurbanli jaholat bo‘ldingiz.

B o y b u ch ch a (*to ‘lg‘onib*). Oy, voy-voy bolam! Voy boyim, oh, voy-y-y-y!

D o m l a. Boyingiz-da nasihatga qulqoq solmadi va oxiri ushbu yomon hodisa paydo bo‘ldi. Endi sizga, ochig‘i, sabrdan boshqa iloj yo‘qdir, onajon. Olloh sizga sabr bersun.

B o y b u ch ch a (*kamoli betoqatlik bilan oh-vovaylo etar*). Dod, voy bolam! Voy boyim! Ikkisidan ham ayrıldim, erimni mozorga, bolamni Sibirga yuborarlar! Voy, voy, voy-y-y-y.

Parda enar.

To‘rtinchich manzara

Ikkinchining ayni, mayxona.

N o r, D a v l a t ichib, ashula aytilib o‘lturar. T a n g r i q u l va T o sh m u r o d pisib borib kirar, to‘pponcha va qonlik pi-choqni bir chetga yashirar, hamyonni chiqarib, stol ustiga otar; o‘lturarlar.

T a n g r i q u l. Chilim keltur-ey!

A r t u n chilim kelturur, chekarlar. A r t u n ketar. T a n g - r i q u l D a v l a t ni bir tarafga olib, xufiya bo‘lgan ishlarni so‘ylar, ishoratlar qilar. D a v l a t: «Bechora», – deb xufiya so‘ylab, ishorat ila xotirjam qiladir.

D a v l a t (*hamyonni ochib ko‘rib, suyunar, Tangriqul va Toshmurodni yelkasiga qoqar*). Barakalla, barakalla

Zang chalar, A r t u n kirar.

A r t u n. Na buyurarsiz?
D a v l a t. Ma, pulni ol, tezlik ilan Lizani keltur!
A r t u n. Bosh ustina. Hozir kelur (*pulni olar, icharlar*).
L i z a (*kirar*). Dobri vecherim! (*hammasi-la ko 'rishar*).
D a v l a t. Ispriyezdim, ispasiba, ispasibo, prixal...
L i z a. Mersi (*o 'lturar*).
D a v l a t. Suz, Lizaning salomatligiga.
N o r (*suzar, cho 'qishtirib*). Lizaning salomatligiga ura,
ura (*icharlar*).

D a v l a t, N o r ashula o'qur. Tashqaridan hushtak sadosi ke-lar. Oyoq tovushlari eshitilar. Majlisdagilar sarosima, hayron bo'lar. Silohlik p o l i t s e y s k i l a r, pristuf, qorovullar bostirib kirarlar. L i z a qochar. P o l i t s i y a to'rt nafarni ushlar, ba'zisi buyum-larini va har tarafni axtarur. Qonlik pichoq va to'pponchani topar. To'pponchani pristufga topshirar. Iskab ko'rар va o'qini bo'shatar.

T a n g r i q u l va T o sh m u r o d qochar. Qorovullar ushlar.
T o sh m u r o d ho'ngir-ho'ngir yig'lar, betoqat bo'lur.
P r i s t u f ishorat qilur. Qo'l kishanni keltirib, T a n g r i q u l
va T o sh m u r o d ga urarlar. Boshqa ikkisining qo'li bog'lanur.
P r i s t u f gunohkor va qorovullarni saf qildirur.

Z i y o l i. (*kirar, gunohkorlarga qarab afsus qilur. Odam-larga qarab*). Ilm va tarbiyasiz bolalarning oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o'qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo'lmas va bular ichkilikni bo'yla ichmas... edi. Umri boricha Sibir va bandg'a va qiyomatg'a, jahannamg'a qolmas edi. Agarda bular ichkilik ichmasa edi, dunyo va oxiratda aslo azob va mehnatda qolmas edi. Oh, haqiqatda, boyni o'ldirgan va bu yigitlarni abadiy azobga giriftor qilgan beilmlikdur. Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatilik, darbadarlik, asorat, faqr-u zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidur. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlar-da beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o'qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxthliklar oramizda doimo hukmfarmo bo'lsa kerak. Bu

ishlarni yo‘q bo‘lmog‘iga o‘qumoq va o‘qutmoqdan boshqa iloj yo‘qdur. Olloh taolo boshqalarga hamisha ibrat va sizlarga sabr bergay.

P r i s t u f (*amirona*). Hayda, turma, marsh (*yo‘naladur*).

Parda enar.

T a m o m

«PADARKUSH» DRAMASI HAQIDA

Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi 1911-yilda yozilgan bo‘lib, oradan ikki yil o‘tgach, ya’ni 1913-yilda kitob holida nashr qilinadi. Behbudiy o‘zbek adabiyoti tarixida birinchilardan bo‘lib dramatik asar yozdi va u Turkistonning barcha shaharlarida namoyish etildi. Bu bilan Behbudiy o‘zbek teatrining tamal toshini qo‘ydi.

Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma’rifat ulug‘lanadi. Muallif «o‘qimagan bolaning holi»ni, ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib oladi. Behbudiy yoshlari ta’lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o‘rin tutishini «Padarkush» dramasi negiziga joylashtiradi. Unda qahramonlardan birining tilidan o‘z g‘oyasini: «Bizlarni xonavayron... bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlilik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...», degan yo‘sinda bayon qiladi.

Eslab qoling: «padarkush» so‘zi lug‘aviy jihatdan «ota qotili» degan ma’noni anglatadi.

Dramada Boy, uning o‘g‘li Toshmurod, yangi fikrli Domla, ruscha tahsil olgan Ziyoli, boyning mirzasizi Xayrullo, boyning qotili bo‘lgan Tangriqul va boshqa obrazlar qatnashadi. Dramaturg ilgari surgan ma’rifatparvarlik g‘oyasi shu obrazlarning o‘zaro suhbatlari, babs-munozaralari jarayonida namoyon bo‘ladi. Har bir obraz tabiatiga xos fazilat, xususiyat va qu’surlar ularning gap-so‘zлari, xatti-harakati, muallif tomonidan berilgan kichik izohlar yordamida ko‘rsatiladi.

Muallif Boy obrazi orqali pul, mol-dunyoga ega bo‘lgan, ammo uni ilm yo‘li, farzand tarbiyasi uchun sarflashni o‘ylamagan kimsa qiyofasini beradi. Eng achinarlisi, Boy Domlaning ham, Ziyolining ham nasihat va maslahatlariga quloq tutmaydi; savollariga qo‘pollik bilan, beparvo va loqayd javob qaytaradi. Boy hamma narsani – inson qadrini ham, obro‘-e’tiborini ham boylik bilan o‘lchaydi; o‘z boyligi tufayli hamma-hamma ularni «izzat qilishadi» degan fikr bilan yashaydi. Dramada boyning eng katta xatosi ziyoli kishilarning so‘zlariga quloq solmasdan, quloq solsa ham, noilojlikdan, mudrab, o‘z jigarbandining taqdiriga befarq qaraganidir. Bilmizki, sharqona madaniyatimizda farzand, eng avvalo, otaga so‘zsiz itoat etishi lozim. Boy ham vaqtida insofga kelib bolasini yo‘lga solganida, bunday mudhish holat, balki yuz bermagan bo‘lar edi. Shu yerda dramaturg boyning tilidan bir narsani ta’kidlab o‘tadiki, «mani savodim yo‘q, bovujud, bu shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman» – bu o‘sha zamonga monand ayni haqiqat edi. Boyning gapida yana bir xato mavjud, u boylik topishdan o‘zga ishni bilmaydi. Inson faqatgina moddiy boylik bilan yashay olmaydi. Unda ma’naviy, jismoniy hamda ruhiy boylik ham bo‘lishi lozim.

Muhtaram o‘quvchi, agar diqqat qilgan bo‘lsangiz, avval Boy huzuriga Domla kirib boradi. Boyni ilm-ma’rifatga, o‘g‘lini o‘qitish zarurligiga urg‘u beradi. O‘z zimmasidagi amri ma’ruf va nahyi munkar, ya’ni yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarishdek bir vazifasini bajaradi. Shuning uchun ketar mahali «Boy, man sizga amri ma’ruf etdim va menga shariat bo‘yicha lozim bo‘lgan ishni bo‘ynimdan soqit qildim» degan gapni aytadi. Keyin Ziyoli Boy huzurida paydo bo‘ladi. Boy uni ham yoqtirmaydi. Shu bois «qordan qutulib, yomg‘irga uchraymiz» deb g‘udranadi. Domla aytgan fikr-mulohazaga yaqin gaplarni Ziyoli ham ta’kidlaydi. Muallif ishtiokchilariga ta’riflar ekan, Ziyoliga «millatchi musulmon» degan sifat beradi. Bu o‘rinda «millatchi» so‘zini «millatparvar» tarzida tushunish lozim. Chunki Ziyoli tabiatida musulmonchilik ham,

millatparvarlik ham jamlangan. Behbudiy millatini sevib dinini esda tutadigan, ayni damda, dinini sevib millatini ham esdan chiqarmaydigan insonlarni shu obraz vositasida ko'rsatmoq-chi bo'ladi. Ziyoli «olimi diniy» – din bilimdoni va «olimi zamoniy» – zamon bilimdoni bo'lish uchun qanday ilmlarni egallash zarurligini Boy bilan bo'lgan suhbatida bir-bir sanab chiqadi.

Dramada Domla bilan Ziyolining turmushdagi yo'l-yo'rig'i bir-biriga yaqin. Ular asardagi Boy, Toshmurod, Tangriqul, Artun kabi obrazlarga qarama-qarshi turadi. Dramatik asar voqealarini oradagi shu ziddiyat harakatga keltiradi. Bu qarama-qarshilikka ijtimoiy ma'no berib, ma'rifatlilar bilan johillar, ilmlilar bilan ilmsizlar, ogohlar bilan loqaydlar o'rtasidagi kurash tarzida tushunish o'rinali bo'ladi.

Toshmurod do'st kim, dushman kim – farqiga bormaydi. Shuning oqibatida Tangriqul bilan birga o'z uyiga o'g'rilikka borishga rozi bo'ladi. Otasining sandiqdagagi mol-mulkini o'marish yo'llarini maishatparast sheriklari bilan rejalashtiradi. Ularni o'z uyiga boshlab borganida otasi sezib qoladi; Boyni o'ldirib, pulini olib ketishadi.

E'tibor bering, Boyning arzandasasi, aynan sizning tengdoshingiz Toshmurod o'qimagani, ko'cha changitib yurgani sababli ham o'zidan yoshi kattaroq o'g'ri, muttahamlarga qo'shilib qoladi. Mavzuga diqqat qilinsa, oradan bir asrdan ortiqroq vaqt o'tgan bo'lsa-da, ayni zamonamizda ham o'qimagani bois turli aldrovlarga ishonib, yomon yo'llarga kirib qolayotgan yosollar yo'q emas. O'g'rilar ham Toshmurodning soddaligidan foydalanib, mahorat darslarining muqaddimasini aynan o'zining uyida boshlab bermoqchi bo'lishadi. Ya'ni yigitchan o'z uyiga o'g'rilikka boshlab, ustiga-ustak: «Barakalla! Ilgari ham o'g'irlik qilganga o'xshaysiz», – deb tag'in maqtab ham qo'yishadi. Toshmurodning atrofidagi shunday bema'ni, yomon odamlar bilan oshno tutinib, maishatga berilishi, buzuq yo'llarga kirib, oxir-oqibatda ota qotili – padarkushga aylanishining asosiy sababi – bu o'qimaganidir. Onasi Toshmurodni: «He, juvonmarg Toshmurod! Qon qus! Koshki chechakda ketsayding! Voy, padarkush! Toshmurod!» – deb qarg'ashga

majbur bo‘ladi. Toshmurodga otasi ta’lim-tarbiya bermadi; oqibatda ota ham, o‘g‘il ham «qurbanji jaholat» – jaholat qurbaniga aylandi. Drama oxirida Ziyoli muallif g‘oyasini «Ilm va tarbiyasiz bolalarni(ng) oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o‘qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas va bular ichkilikni bo‘yla ichmas... edi. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasida taraqqiy qiladi» degan tarzda bayon etadi.

Mulohaza qilib ko‘ring, muhtaram o‘quvchi! Ilm-fan hamma zamonlar uchun zarur va muhim bo‘lgan. Olimlar jamiyat taraqqiyoti uchun ma’naviy tayanch vazifasini bajaradi. Shu jihatdan «Padarkush» dramasida aytilgan ilmgaga doir qarashlar, jaholatga qarshi ma’rifat yo‘lidan yurish zarurligi bugun ham ahamiyatli.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ushbu dramasi XX asr boshlarida yozilgan bo‘lsa-da, hozirgi kun bilan ham chambarchas bog‘liq. Chunki uning zamirida ma’naviy-ruhiy, tarbiyaviy ma’no yotadi. Tarbiya hech qachon eskirmaydigan hamda tugal yechimi topilishi mushkul bo‘lgan masalalardandir. Insonni yoshligidan tarbiyalash lozim. Odam farzandini ham navnihol daraxtga mengzash mumkin. Uni qay tomonga yo‘naltirib tarbiyalansa, umrining oxirigacha ana shu yo‘ldan boradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiylar juda qisqa sahna asari vositasida o‘z ma’naviy dunyosini, ilm-ma’rifatning qadr-qiyomatini zo‘r mahorat bilan bayon qiladi. Aynan din ilmlaridan boxabar bo‘lgani uchun uning qahramonlari nutqida «Ilm olish barcha erkak va ayollar uchun ham farzdir», «Beshikdan mozorgacha ilm izlash lozim» yoki «Xitoyga borib bo‘lsa ham ilm talab qilinglar» kabi hadisi shariflarning mazmuni berib boriladi.

Domla va Ziyoli nutqini muallif hikmatlar, ibratli gaplariga boy tarzda beradi. Ilmdan yiroq bo‘lgan obrazlar nutqida esa ancha kambag‘al va ko‘cha-ko‘yda qo‘llanadigan so‘zlar ishlatalidi.

Aziz o‘quvchi! Siz bir narsani yodingizdan chiqarmangki, mehnat-mashaqqatsiz hech qachon biror narsaga erisha olmay siz. Qachonki o‘qib bilim olsangiz, shundagina hayot yo‘lingiz saodatli, umringiz oxirigacha rohat-farog‘atda o‘tadi. Shuni

ham unutmangki, farzandlar aynan ota-onasidan o‘rnak oladi. Bu hayotiy hikmatni Mahmudxo‘ja Behbudiy tengdoshingiz Toshmurod misolida sizlarga yetkazmoqchi bo‘lgan, albatta.

Xulosa qilib aytganda, «Padarkush» dramasi ana shunday ilm-ma’rifatga targ‘ib va tashviq qilish e’tiboridan juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy yashagan muhit xususida nimalarni bilasiz?
2. Behbudiyning hayoti va ijodi haqida qo‘srimcha ma’lumotlar topib keling.
3. «Padarkush» dramasining yozilish sabablari to‘g‘risida mu-lohaza yuriting.
4. Asarni rollarga taqsimlab o‘qing.
5. Dramani o‘qish jarayonida siz qaysi qahramon sifatida ish-tirok etdingiz? Bu sizda qanday taassurot uyg‘otdi?
6. Dramadagi asosiy obrazlarga ta’rif bering.
7. Asardan Ziyoli va Domlaning nutqlarini topib, ularga munosabat bildiring.
8. Drama matnini qayta o‘qib, sizga tushunarsiz bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tuzing va ularning izohini yozing.
9. «Padarkush» dramasini bugungi kun voqeа-hodisalari bilan bog‘lab tushuntiring.
10. «Padarkush» dramasiga tayangan holda «Jaholatga qarshi ma’rifat» mavzusida ijodiy matn yarating.



ABDULLA QODIRIY

(1894–1938)



Abdulla Qodiriy adabiy siymosi XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. U o‘zbek romanchiligining asoschisi sanaladi.

Abdulla Qodiriy 1894-yili 10-aprelda Toshkentda bog‘bon oilasida tug‘ilgan. Dastlab musulmon maktabida, keyin rus-tuzem maktabi hamda Abulqosim shayx madrasasida ta’lim olgan; Moskvadagi adabiyot kursida o‘qigan.

1917-yilgi oktabr oyidagi davlat to‘ntarishidan so‘ng Eski shahar oziqa qo‘mitasining sarkotibi, «Oziq ishlari» gazeta-sining muharriri, «Mushtum» jurnali tashkilotchilaridan biri sifatida ijtimoiy hayotga faol aralashadi. Uning asarlari vaqtli matbuotda Julqunboy, Ju-boy, Dumbulboy, Dumbulnisa, Kalvak Mahzum, Toshpo‘lat tajang, Ovsar kabi o‘nlab maxfiy imzolar bilan bosilib turadi.

Abdulla Qodiriy 1914-yili Rahbarnisa Rasulmuhammadboy qiziga uylanadi. Ulardan Nazifa (1916), Habibulla (1918), Adiba (1924), Mas’ud (1926) hamda Anisa (1928) ismli farzandlar dunyoga keladi.


Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlanishi 1910-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Dastlab millatparvarlik, ma’rifatparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan «To‘y», «Ahvolimiz», «Mil-

latimga», «Fikr aylagil» kabi she’rlar, «Baxtsiz kuyov» nomli drama hamda «Juvonboz» hikoyasini yozdi. Abdulla Qodiriy ana shunday jadidona kayfiyatdagi asarlarida millatni ichdan yemiradigan xurofotlarni tanqid qiladi; xalqni o’zligini anglashga, yangilikka chaqiradi. Yozuvchining «Baxtsiz kuyov» dramasi (1915) bevosita Behbudiyning «Padarkush» dramasi ta’sirida yozilgan. Dramada muallif hashamatli to‘y, ortiqcha sarf-xarajatlar va ularning ko’ngilsiz oqibatlarini ochiq-oydin ko’rsatadi. Uning 1916-yilda yozgan «Uloqda» hikoyasi bilan dunyo adabiyotdagi nazariy mezonlarga mos keladigan o’zbek realistik hikoyachilagini boshlab berdi.

Abdulla Qodiriy o’z ijodiy taqdirini matbuot bilan bog’ladi. Yuzlab publitsistik maqolalar, «Kalvak Mahzumning xotira daftaridan», «Toshpo’lat tajang nima deydir?» kabi hajviy asarlar yozdi. Hayotni kuzatib, voqealarga nisbatan turli yo‘sinda hajviy-tanqidiy munosabatlar bildirdi. Shu jarayonda «felyetonlar qiroli» nomini oldi.

Abdulla Qodiriyning mashhur «O’tkan kunlar» romanining ayrim fasllari dastlab 1923–1924-yillari «Inqilob» jurnalida e’lon etildi. 1925–1926-yillari romanning har bir bo’limi alohida kitob holida bosildi. «O’tkan kunlar» yaratilgan davr o’zbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi o’rni masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik edi. Adib bu roman orqali xalqning milliy ongini uyg’otmoqchi bo’ldi. «Tariximizning eng kirlik, qora kunlari» – yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi «xon zamонлари» – XIX asr miqyosidagi mudhish tarixiy jarayonlarning haqiqatidan xalqqa saboq bermoqchi bo’ladi.

«O’tkan kunlar» romanining ma’no-mundarija doirasi, aslida, ancha keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning, millatning taqdiri mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. El-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning pafosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt is-tiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo’liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir.



«O'tkan kunlar» romanining eski o'zbek yozuvidagi (1926) hamda yangi o'zbek alifbosidagi nashrlari muqovasi (2004)

«O'tkan kunlar»da Otabek bilan Kumushning ishqiy sarguzashtlari juda katta mahorat bilan tasvirlanadi. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni – Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Qodiriy ishq sarguzashtlari fonida o'lkaning tutqunlikka yuz tutishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o'zaro ichki nizolar degan fikrni g'oyat ustalik bilan bayon qiladi. Abdulla Qodiriy qalamining sehri shundaki, romanda ijtimoiy va maishiy hayot, odamlar turmushi, taqdiri, tabiatи, ular ruhiyatidagi nozik jarayonlar bor holicha butun ziddiyatlari bilan ko'rsatiladi.

Abdulla Qodiriy ijodiy merosida muhim o'rinni tutadigan, «Xudoyorxon va munshiylari hayotidan olingan» ikkinchi «Mehrobdan chayon» nomli tarixiy romanini 1928-yilda yozadi. Asarda xon zamonidagi xalqning hayoti, saroydag'i kirdikorlar bilan birga Anvar va Ra'nolar ishqining ziddiyatli visol tarixini g'oyatda ta'sirchan tasvirlaydi. Ularning mu-

habbat yo‘lidagi his-tuyg‘ularini, yo‘liga to‘g‘anoq bo‘lgan «ag‘yorlar»ga qarshi kurashlarini juda tabiiy bayon qiladi.

Yozuvchi Anvar va Ra’no timsolida chin muhabbatni, romandagi Safar bo‘zchi siyosida to‘g‘rilik va sadoqatni tarannum etsa, Solih mahdum obrazi orqali hayoti ziddiyatlarga ko‘milgan g‘aroyib bir insonni, Abdurahmon qiyofasida pokiza mehroblarni bulg‘ab yurgan munofiq kimsalarni ko‘rsatdi. Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» romanida ham, xuddi bиринчи romanidagidek, voqelikning badiiy talqinida bag‘oyat mohir ekanini namoyon qildi.

Garchand adib original asarlar yozib, o‘z xalqining ma’naviyati xazinasini bebaho durdonalar bilan boyitayotgan bo‘lsa ham, mustabid tuzum uni dushmanlikda aybladi. Abdulla Qodiriy manglayiga qatag‘on qurbanlari qatoriga tizilishdek bir qismat bitilgan ekan. Adib 1937-yil 31-dekabr kuni hibsga olinib, 1938-yil 4-oktyabrida xalq dushmani si-fatida qatl etiladi.

Faqat 1991-yilda O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilganidan so‘nggina Abdulla Qodiriyga yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatila boshlandi. Adib Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti, «Mustaqillik» ordeni bilan taqdirlandi.

O‘TKAN KUNLAR (Romandan boblar¹)

Otabek Yusufbek Hoji o‘g‘li

1264 inchi hijriy, dalv oyining o‘n yettingchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...

Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilgan bu dongdor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarları egal-laganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan bosh-qalari musofirlar ila to‘la. Saroy ahli kunduzgi ish-kuchlari dan bo‘sab hujralariga qaytganlar, ko‘p hujralar kechlik osh

¹ Asardan olingan boblar juz’iy qisqartish hamda romandagi muallif nutqi bugungi adabiy tilga biroz moslangan holda berildi. (*Mualliflar*)

pishirish ila mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qaraganda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko‘kka ko‘targudek.

Saroyning to‘rida boshqalarga qaraganda ko‘rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to‘shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, ularda bo‘z ko‘rpalar ko‘rilgan bo‘lsa, munda ipak va adres ko‘rpalar, narigilarda qora charog‘ sasiganda, bu hujrada sham’ yonadir, o‘zga hujralarda yengil tabiatlik, serchaqchaq kishilar bo‘lganida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda: og‘ir tabiatlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshlik va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog‘idan, ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb etarlik edi. Qandog‘dir bir xayol ichida o‘lturguchi bu yigit Toshkandning mashhur a‘yonlaridan bo‘lgan Yusufbek hojining o‘g‘li – Otabek.

Saroy darbozasidan ikki kishi kelib kirgach, ulardan birovi darboza yonidagi kimdandir so‘radi:

– Otabek shu saroyga tushkanmi?

Bizga tanish hujra ko‘rsatilishi bilan ular shu tomonga qarab yurdilar. Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to‘la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlар chandalik bir yigit bo‘lib, Marg‘ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otlik o‘g‘lidir; ikkinchisi uzun bo‘ylik, qora cho‘tir yuzlik, chag‘ir ko‘zlik, chuvoq soqol, o‘ttuz besh yoshlarda bo‘lgan ko‘rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshigina davlatmand bo‘lsa ham, lekin shuhratni nima uchundir boyligi bilan bo‘lmay, «Homid xotinboz» deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so‘zlashkanda uning otiga taqilgan laqabni qo‘shib aytmasalar, yolg‘iz «Homidboy» deyish ila uni tanta olmaydirlar. Homidning Otabek bilan tanishligi bo‘lmasa ham Rahmatka yaqin qarindosh – Ziyo shohichining qaynisi, Rahmatning tog‘asi.

Ular hujraga kelib kirdilar. Otabek kelguchilarni ulug‘lab qarshiladi.

– Bizni kechirasiz, bek aka, – deb Rahmat uzr aytdi, – vaqtsiz kelib, sizni tinchsizladik...

Otabek ularga yuqoridan joy ko'rsatar ekan, yoqimlik bir vaziyatda:

– Tinchsizlamadingizlar, bil'aks quvontirdingizlar, – dedi, – shahringizga bиринчи martaba kelishim bo'lg'ani uchun tanishsizliq, yolg'izliq meni juda zeriktirgan edi.

Shu orada hujraga bir chol kirib, ul ham mehmonlar bilan so'rashib chiqdi. Bu chol Hasanali otlik bo'lib, oltmis yoshlar chamasida, cho'ziq yuzlik, do'nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to'garak qora ko'zlik, oppoq uzun soqollik edi. Soqolining oqligiga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham uncha o'zgarish yo'q edi.

Otabek mehmonlarni tanchaga o'tquzib, fotihadan so'ng Hasanalidan so'radi:

– Tuzukmisiz, ota?
– Xudoya shukur, – dedi Hasanali, – boyag'idan biroz yengilladim. Masmuni is tekkan ekan.
– Ba'zi yumushlar buyursam...
– Buyuringiz, o'g'lim.
– Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.
– Xo'b, begin.

Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog'liq so'rashgandan keyin so'radi:

– Bu kishi kimingiz bo'ladir, bek aka?
Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi.
Hasanalini hujradan uzoqlatib so'ngra javob berdi:

– Qulimiz.
Bu so'zdan nima uchundir Homid ajablangan edi.
– Qulingiz?
– Shundog'.

Hasanalini bolalik vaqtida Erondan kishi o'g'irlab kelgu-chi bir turkman qo'lidan Otabekning bobosi o'n besh tillo barobariga sotib olgan edi. Hasanalining Otabeklar oilasida qulliqda bo'lganiga ellik yillar chamasi zamon o'tib, endi Otabeklar oilasining chin bir a'zosi bo'lib ketkan. Xo'jası Yusufbek hojiga, ayniqsa, xo'jazodasi Otabekka itoat va ixlosi tom bo'lib, buning evaziga ulardan ham ishonch va

hurmat ko‘rar edi. Hasanali o‘ttuz yoshlik vaqtida sotib ol-gan bir cho‘riga uylantirilgan bo‘lsa ham, ammo o‘g‘il-qizlari bo‘lman, bo‘lsalar ham yoshlikda o‘lib ketkanlar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Otabekka ixlos qo‘yib, unga o‘z bolasi kabi qarar: «O‘lganimdan keyin ruhimga bir kalima Qur‘on o‘qusa, bir vaqlar Hasanali ota ham bor edi deb yodlasa, menga shunisi kifoya», deb qaror bergen va hozirdan boshlab Otabekka bu to‘g‘rida siperishlar¹ berib, undan samimiy va‘dalar olib yurguchi oq ko‘ngil bir qul edi. Hasanali ustida bo‘lgan haligi gapdan keyin Rahmat so‘radi:

- Toshkanddan nimalar keltirdingiz, bek aka?
- Arzimagan narsalar: gazmol, qalapoy abzali² va biroz qozon.

– Marg‘ilonda gazmol bilan qalapoy abzalining bozori chaqqon, – dedi Homid. Otabek miqrozi³ bilan sham’ so‘xtasini kesib tuzatdi. Orada yotsirashga o‘xshash bir hol bor, nima uchundir bir so‘zlab ikki to‘xtar edilar. Bu o‘ng‘aysiz holatdan chiqish va so‘zga ulab yuborish uchun Rahmat tirishkandek ko‘rinar edi.

– Marg‘ilonni qanday topdingiz, bek aka, xushlandingizmi, yo?..

Bu savolning javobiga Otabek ikkilangandek va o‘ng‘aysizlang‘andek bo‘ldi.

– Nima desam ekan... Marg‘ilonni har holda... xush ko‘rdim, Marg‘ilon Turkistonimizning to‘qug‘uchiliq hunarida birinchi shahridir.

Ikkilanib berilgan bu javobdan Homid bilan Rahmat bir-birlariga qarashib oldilar. Otabek bu holatni sezdi va o‘zining so‘zini kulgulikka olib izoh berdi:

– Kelgan kunimdan Marg‘iloning‘izni xushlamay boshlag‘an edim. Chunki tanishlarim yo‘q, musofirchilik bilinib qolayozg‘an edi. Endi bu soatdan boshlab Marg‘ilondan roziman, negaki yo‘qlab kelguchi sizning kabi qadrdonlar ham bo‘lur ekan.

¹ Siperish – topshiriq.

² Qalapoy abzali – oyoq kiyimning bir turi.

³ Miqroz – qaychi.

– Kechiringiz, bek aka, – dedi Rahmat, – men sizning Marg‘ilon kelgанингизни бу кун отамдан eshitdim. Yo‘qsa, albatta, sizni zeriktirmas edim.

– Aniqmi?

– To‘g‘ri gap, – dedi Rahmat, – otam Toshkand borg‘anlarida to‘p-to‘g‘ri sizning eshikingizga tushsinlar-da, siz saroyga tushing. Bu taraf bilan sizdan o‘pkani biz qilsaq arziydir.

– Haqqingiz bor, – dedi Otabek, – ammo, birinchidan, sizning havlingizni so‘rog‘lab topish menga qiyinroq ko‘rindi, undan so‘ng molimizni ortg‘an tuyakashlar shu saroyg‘a tayinlang‘an edilar.

– Har holda bu uzr emas.

Hasanali dasturxon yozib qumg‘on kirgizdi. Odatiy takalluflar bilan dasturxon va choyga qaraldi. Homid nonni shinniga bulg‘ar ekan so‘radi:

– Yoshingiz nechada, bek?

Otabekning labi qimirlamasdan choy quyib o‘tirgan Hasanali javob berdi:

– Bekka xudo umr bersa, bu yil hamduna¹ bo‘lsa, to‘ppa-to‘g‘ri yigirma to‘rt yoshga qadam qo‘yadilar.

– Yigirma to‘rt yoshga kirdimmi, ota? – dedi bek. – Chindan ham necha yoshga kirganimni o‘zim bilmayman.

– Yigirma to‘rt yoshga kirdingiz, bek.

Homid tag‘in so‘radi:

– Uylanganmisiz?

– Yo‘q.

Hasanali Otabekning yolg‘iz «yo‘q» bilan to‘xtashiga qanoatlanmadi va bu to‘g‘rida o‘z tomonidan izohlar berishni lozim ko‘rdi:

– Bek uchun bir necha joylarga qiz aytdirmak istalingan bo‘lsa ham, – dedi, – avval taqdir bitmaganlik, undan keyin bekning uylanishka bo‘lg‘an qarshiliqlaridan bu kungacha to‘y qilolmay kelamiz. Ulug‘ xo‘jamizning qat’iy niyatları bu safardan qaytg‘ach bekni uylandirishdir.

– Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo‘qdir, – dedi Rahmat va Otabekka yuz o‘girdi. – Uylangach, xotining

¹ Hamduna – bu yerda maymun muchali nazarda tutilmoqda.

tab'ingga muvofiq kelsa bu juda yaxshi; yo'qsa, munalik og'ir gap dunyoda bo'lmas.

Otabek Rahmatning bu so'zini samimiyat bilan qarshiladi.

– So'zingizning to'g'riliq'ida shubha yo'q, – dedi, – ammo shuni ham qo'shmoq kerakki, oladirg'an xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xoting'a muvofiquqtib' bo'lzin.

– Xoting'a muvofiq bo'lish va bo'lmasliqni uncha keragi yo'q, – dedi Homid e'tirozlanib, – xotinlarga «er» degan ismning o'zi kifoya... Ammo jiyan aytkandek, xotin degan erga muvofiq bo'lsa bas.

Rahmat kulib Otabekka qaradi. Otabek ham istehzolik tabassum orasi Homidga ko'z qirini tashladi.

– Uylanishdagi ixtiyorimiz, – dedi Rahmat, – ota-onalari mizda bo'lg'anliqdan, oladirg'an kelinlari o'g'illarig'a yoqsa emas, balki uning ota-onalari o'zlariga yoqsa bas. Bu to'g'rida uylanguchi yigit bilan er qilg'uchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari bo'lmay, bu odatimiz ma'qul va mashru' ishlardan emasdir. Masalan, men ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim... Ammo xotinim ota-onamga muvofiq bo'lsa ham, menga muvofiq emas, siz aytgandek, ehtimol, men ham xotining'a muvofiq emasdirmam... So'zingiz juda to'g'ri, bek aka.

Otabek Rahmatning so'zini ixlos bilan eshitdi va «sen nima deysan?» degandek qilib Homidga qaradi.

– Jiyan, – dedi Homid Rahmatka qarab, – boshlab uylanishing, albatta, ota-onang uchun bo'lib, ulardan ranjib yurishingni o'rni yo'q. Xotining ko'nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa, uchunchisini ol. Xotinim muvofiq emas deb zorlanib, hasratlanib yurish er kishining ishi emas.

Rahmat Otabekka kulimsirab qaradi-da, tog'asig'a javob berdi.

– Xotin ko'paytirib, ular orasida azoblanishning nima hikmati bo'lzin? – dedi. – Bir xotin bilan muhabbatlik umr kechirmak, manimcha, eng ma'qul ish. Masalan, ikki xotinliqning bittasi sizmi? Uyingizda har kuni janjal, bir daqiqa tinchlig'ingiz yo'q.

– Seningdek yigitlar uchun, albatta, bitta xotin ham ortiqchaliq qiladir, – deb kului Homid. – Ko‘b xotin orasida azoblanish o‘zi nima degan so‘z? Qamchingdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan. Men bu kungacha ikki xotin o‘rtasida turib janjalg‘a to‘ygunimcha yo‘q, ammo xotinni uchta qilishg‘a ham o‘yim yo‘q emas.

– Sizga taraf yo‘q, tog‘a.

Homid mag‘rur bir tusda Otabekka qaradi. Otabek uning so‘zidan kulimsiragan edi.

Hasanali palovga urnash uchun tashqariga chiqdi. Otabek mehmonlarga choy quyib uzatdi. Homidning haligi so‘zidan keyin oradagi bahs kesilgan edi. Uchovlari ham bir narsaning xayolini surgandek ko‘rinar edilar. Bir necha vaqt shu holda qolishib, Rahmat tog‘asidan so‘radi:

– Mirzakarim aka qizini erga berdimi, eshitdingizmi?

Bu savoldan nima uchundir Homidning chehrasi buzildi va tilar-tilamas javob berdi:

– Bundan xabarim bo‘lmadi. Gumanimcha, bermagandir.

Rahmat so‘zdan chetda qoldirmas uchun Otabekni ham oraga oldi:

– Bizning Marg‘ilonda bir qiz bor, – dedi, – shundog‘ ko‘hlikki, bu o‘rtada uning o‘xhashi bo‘lmas deb o‘ylayman.

Homid bir turlik vaziyatda yer ostidan jiyaniga qaradi. Tog‘asining holidan xabarsiz Rahmat so‘zida davom etdi:

– Shahrimizda Mirzakarimboy otlig‘ bir savdogar kishi bor, bu shuning qizidir. Balki siz Mirzakarim akani tanirsiz, u bir necha vaqt Toshkandda qutidorliq qilib turg‘an ekan?

– Yo‘q... Tanimayman.

Homidning yuzidagi boyagi holat yana ham kuchlanib go‘yo toqatsizlangandek ko‘rinar edi, Rahmat davom etdi:

– Uning havlisi poyabzal rastasining burchagidagi imoratdir. O‘zi davlatmand bir kishi; Toshkand ashroflarining ko‘blari bilan aloqador bo‘lg‘anliqdan, balki otangiz bilan tanish chiqar.

– Ehtimol, – dedi Otabek va nima uchundir g‘ayriixti-yoriy bir tebrandi. Uning yuzida bir o‘zgarish va vujudida bir chayqalish bor edi. Undagi bu o‘zgarishdan Rahmat xabarsiz bo‘lsa ham, ammo Homid uni yer ostidan ta’qib etar edi. Bu

ta’qib Otabekdagisi haligi o‘zgarishni payqabmi yoki tasodifiymi edi, bu to‘g‘rida bir mulohaza aytish, albatta, mumkin emas. Yana bir necha vaqt jum qoldilar.

- Endi biznikiga qachon mehmon bo‘lasiz, bek aka?
 - Rahmatning bu so‘zi bilan Otabek xayolidan bosh ko‘tardi:
 - Xudo xohlag‘an vaqtda bo‘larmiz...
 - Yo‘q, bek aka, – dedi Rahmat, – siz aniqlab bir kunni tayin qilingiz, biz bu yerga sizni taklif qilg‘ali kelganmiz.
 - Ovora bo‘lmoqning nima zarurati bor?
 - Bunda ovora bo‘lish degan narsa yo‘q. Iloji bo‘lsa, sizni bu saroydan havlig‘a ko‘chiramiz. Hozirga bir kunni tayin qilib bizga mehmon bo‘ling-chi... Otam sizning bilan o‘lturishib, Toshkand ahvolotini so‘zlashmakka mushtoqdirlar.
 - Bu saroydan sizlarnikiga ko‘chishim og‘ir, – dedi Otabek, – ammo otangizning ziyoratlariga borishg‘a har qachon hozirman.
 - Sog‘ bo‘ling, bek aka, boradirg‘an kuningizni tayin qila olasizmi?
 - Ma‘lumingiz, kechalari bo‘sh bo‘laman, shuning bilan birga otangiz qaysi vaqtmi ixtiyor qilsalar ijobat etishdan o‘zga choram bo‘lmas.
 - Salomat bo‘lingiz, – dedi Rahmat, – shuni ham sizdan so‘rayin: o‘lturishka begona kishilar ham aytilsa mumkinmi, ozor chekmasmisiz? Chaqirilg‘anda ham o‘zimizga yaqin va ahl kishilar bo‘lur, masalan, Mirzakarim qucidor kabi.
- Bu vaqt Otabekning tusiga ham haligidek o‘zgarish chiqdi ersa-da, lekin sezdirmaslikka tirishib javob berdi:
- Manim uchun farqsiz.
- Oshdan so‘ng mehmonlar bilan xayrlashib chiqdilar.

Bek oshiq

Saroy tinch uyquda, tun yarim. Hasanali hujraning uzun burama qulufini ochib ichkariga sham’ yoqdi va bekning to‘sahagini yozib uning kirib yotishini kutib turdi. Ammo Otabek nima uchundir tez kira bermadi. Hujra eshigini ochil-

ganidan, sham' yoqilib, o'rin yozilganidan go'yo xabarsiz kabi ustunga suyalgancha qotib turar edi.

– O'rnningizni yozdim, bek.

Otabek bu so'z bilan hujraga kirdi va borib to'shami yoniga o'lturdi. Hasanali bekning yechinib yotishini kutib turar, chunki uni yotquzib, yoqilgan sham'ni o'zi bilan narigi hujraga olib chiqmoqchi edi. Biroq Otabek to'shami yonig'a o'lturdi-da, yana o'ylab qoldi... Otabek bir necha kunlardan beri Hasanaling ko'ziga boshqacha ko'rinar edi.

Hasanali Otabekda shu kungacha ko'rilmagan qiziq bir holatka besh-olti kundan beri ajabsinib yurar edi. Hasanaling ajabsindirgan holat ham bekning shuning singari xayol ichida barchani unutib qo'yishi va boshqa ishlarga e'tibor va parvosizligi edi.

Hasanali bekning hozirgi ipidan-ninasigacha bo'lган qiziq holini uzoq kuzatib turdi. Lekin Otabek xayol surishdan zekrmasa ham Hasanali kuzatishidan zerikdi.

– Menda yumushingiz yo'qmi?

Otabek bu gapni anglamadi, shekillik, Hasanaling yuziga ko'tarilib qaradi-da, yana ko'zini bir nuqtaga tikib qoldi. Bu holatdan Hasanaling andishasi ortib, bekning bunchalik angravlanishig'a qanday ma'no berishini ham bilmas edi. Otabek shu holda tag'in qanchagachadir o'lturdi, nihoyat uydanan uyg'ongan kishidek cho'chib o'zini kuzatkuchiga qaradi:

– Chiqib yotmaysizmi?

– Menda yumushingiz yo'qmi?

– Nima yumushim bo'lsin, sham'ni ham olib keting.

Hasanali sham'ni olib, o'z hujrasiga chiqdi. Uning hujrasini Otabekning bilan bir qatorda bo'lib, gazmol, poyabzal va shuning singari mollar ila to'lган va Otabekdan boshqa, alohida hujrada turishi ham shu mollarni saqlab yotish uchun edi. Hasanali o'rnini yozar ekan «tavba» deb qo'ydi.

Yuqorida so'zlanganidek, Otabekdagi bu holatni biror haftalardan beri payqasa ham, hozirgidek andishaga tushmag'an va bunchalik diqqat etmagan edi. Xo'jazodasidagi bu holat uni har turlik mulohazalarga olib keta boshladi. To'shami

ustiga o‘lturib, oq soqolini o‘ng qo‘li bilan tutamlab o‘ylar edi: savdo to‘g‘risida biror xato qildimi, Ziyo shohichinikida taomdan tuzukroq totinmadi, biror og‘rig‘i bormikan... Musofirchiliqda og‘risa... Ammo bu mulohazalarining bittasiga ham o‘zi qanoatlanmadi. Zero, savdo to‘g‘rilari undan yashirin emas, og‘riganda ham, albatta, shikoyat eshitar edi.

O‘ylab-o‘ylab bir narsaga ham aqli yetalmagach, o‘rnidan turib toqchada yonib turgan sham’ni o‘chirdi. Hujra orqa-o‘ngni ajratib bo‘lmaslik ravishda qorong‘ilandi. Qorong‘ida turtinib hujra eshigiga keldi-da, avaylab g‘ijirlatmay eshikni ochdi va sekingina tashqariga bosh chiqarib saroyni kuzatdi. Kishi yo‘qliqqa qanoat hosil etib, mahsican oyog‘ini ohista qo‘yib Otabek hujrasining yonida to‘xtadi, saroyni yana qarab chiqdi. Saroy qop-qorong‘i, tinch uyquda, ammo bu tinchlikni saroy otxonasidagi otlarning kart-kurt xashak chaynashlari va atrofdagi xo‘rozlarning qichqirishlarigina buzar edilar. Hasanali sekingina daricha ostiga yotib hujra ichiga quloq soldi. Hujra ichi tinch edi. Oradan uch-to‘rt daqiqa fursat o‘tib hujradan ship etkan tovush eshitmadi. Tag‘in bir necha daqiqa quloq uzmay turib, so‘ngra o‘rnidan qo‘zg‘almoqchi bo‘lgan edi, ichkaridan «ufff» degan ixrash eshitdi. Hasanaling quloqlari tikkayib o‘rnidan turdi, ko‘zi olalangan edi.

– Bek og‘riq, – dedi ko‘ngildan va jazmlanib hujra eshigiga yurib keldi. Eshikni ochib Otabek yoniga kirmoqchi edi. Eshikni itarishka borgan qo‘lini qoldirib: «Balki og‘riq emasdир», – deb to‘xtaldi. Yana kiraymi, yo‘qmi, deb ikkilanib turgandan keyin yurib, o‘zining hujrasiga keldi. Ammo Otabek to‘g‘risidagi tashvishi boyagidan o‘n qayta ortgan edi. Yechinib uxlarga yotgan bo‘lsa ham bekning xususi uni ko‘z yungali qo‘ymadi. Bek to‘g‘risida har turlik xayollarga bormoqda edi. Yusufbek hojining: «O‘g‘lim yosh, sen dun-yoning issiqsovug‘ini tatig‘an va manim ishongan kishimsan. O‘g‘limning har bir holidan xabar olib turish sening vazifang‘dir», – deb ta’kidlashi, Otabekning onasi – O‘zbek oyimning yoshlig‘ ko‘z bilan: «Seni xudoga, Otamni senga topshirdim!» – deb yolborishlari, zorillashlari uning quloqlari ostida takrorlangandek bo‘lar edilar. Uxlab ketolmadi. Ko‘ynakchan

egniga choponini yopinib o‘rnidan turdi, hujradan chiqib Otabek darichasi ostiga yana kelib o‘lturdi.

Tun ayoz, izg‘iriq yel to‘rt tarafka yugurib jon achitmakchi bo‘lar edi. Hasanali yarim yalang‘och holda junjayib daricha ostida, izg‘iriq quchog‘ida o‘lturar erdi. Ul yegan sovug‘iga iltifot etmas, vujudini izg‘iriqqa topshirib, fikrini hujra ichiga yuborgan edi. Hujra ichiga birmuncha qulqoq solib o‘lturgandan keyin, uzun tin olib boshini tirqishdan uzdi, Otabekning pishillab uxlagan tovushini eshitib bir darajada tinchlandi. Vasvasadan ariyozgan bo‘lsa ham o‘rnidan qo‘zg‘almadi, nima uchundir tag‘in ham sovuqqa junjib o‘ltira berdi. Oradan yana bir necha daqiqa fursat o‘tib, Hasanali tamom tinchlandi, ham turib ketmakchi bo‘ldi va shu holatda ichkaridan uyqusirash eshitdi:

- «Qora ko‘zlari, kamon qoshlari...»
- A-a-a, – dedi Hasanali va qaytadan qulog‘ini tirkishga olib bordi. Endi uning butun borlig‘i qulqoq bo‘lib aylangan, o‘zini unutib barcha diqqati hujra ichiga oqqan edi. O‘rtadan ko‘b fursat o‘tmadi, boyagi uyqusirash yana takrorlandi:
 - «Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar... Uff».

Hasanali uchun birinchida anglashilmay qolgan ma’nolar bu keyingi gap bilan yechildi. Hasanali endigi o‘lturishni ortiqcha topib o‘rnidan turdi, hujrasiga kirar ekan, boshini chayqab o‘zicha so‘zlandi:

- Bek oshiq!
- O‘rni ustiga choponini yopdi-da, ko‘rpasi ichiga kirib o‘lturdi va «chindan oshiqmi?» degan savolni ko‘nglidan kechirdi. Tanish bo‘limgan bir shaharda kimning bo‘lsa ham qiziga uchrashsin, besh-olti kun ichida bu yanglig‘ uyquda ham... masalaga bu jihat bilan qarab bekning ishqiga ishon-gisi kelmas edi. Ammo ikkinchi tomondan qulog‘i ostida bekning o‘z og‘zidan eshitilgan – «kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar...» jumlalari takrorlangandek bo‘lib xo‘jazodasidagi bir necha kunlik o‘zgarishka muhabbatdan boshqa hodisa, deb ma’no berolmas edi. Bu ikki turlik masalalarning o‘ng-tersini aylandirib muhokama qildi va o‘lchadi. Hasanaling o‘zi

tarozuning ishonmaslik pallasida bo‘lsa ham – «kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar» hamon qulqlari ostida takrorlanar edilar. Tun tong otarga yaqinlashgan, uning uyqulik miyasi hech bir turlik bu muammoni yecha bilmas edi. Ko‘b o‘ylasa ham bir qarorga kela olmadi. Ammo ertaga bekning o‘zini sinab ko‘rmakchi bo‘lib ko‘zi uyquga ketdi.

Toshkand ustida qonliq bulutlar

Bu kunlarda Marg‘ilonda shunday xabar chiqib qoldi. «Toshkand hokimi bo‘lg‘an Azizbek Qo‘qong‘a qarshi bosh ko‘targan. Xon tomonidan xiroj (zakot, soliq) uchun yuborilg‘an devon beklarini o‘ldirgan!» Ikkinchini bu xabar tag‘i ham boshqacha to‘n kiydi: «Musulmonqul Normuhammad qushbegiga besh ming sipoh qo‘sib, Toshkand ustiga jo‘natqan!»

Bu xabarlar xalq tomonidan juda oddiy, ortiqcha sovuqqonlik bilan qarshi olindilar. Bu voqeaga hech kim ajabsinmadni va bunda favquloddalik ko‘rmadi. Xalq bunga haqli edi, chunki bunday tinchsizliklarni endi ko‘ra-ko‘ra juda ham o‘rganib qolgan, bu kun bo‘lmasa ertaga o‘zining botirboshisining, oftobachisining, xullas, kim bo‘lsa ham beklaridan birining shunday tinchsizlik chiqarishiga «mumkin va bo‘ladirg‘an ish» deb qarar edi. Ammo biz Otabekni bu to‘g‘rida xalq bilan birgalashtira olmaymiz. Chunki ul bu xabarga sovuqqonlik bilan qaray olmas edi va qaray olmadi. Bu xabarni eshitara ekan, yeb turgani og‘zida, yutkani bo‘g‘zida qoldi: bunday o‘zboshimchalik orqasidan o‘zining ochiq ko‘zi, o‘tkir zehni orqalik mudhish, falokatlik manzaralar ko‘rar, millatini – xalqini – musulmonini qo‘rqunch jar, tegsiz jahannam yoqasida, yiqilish oldida topar edi-da, seskanib: «O‘zing saqla, Tangrim!» – der edi. Bu xabarni eshitkandan so‘ng gangib esini yo‘qotdi. Yarasi yangilandi: oq bilan qorani ajratolma-gan fuqaroning bir necha g‘arazgo‘y mustabidlar kayfi yo‘lida bir-birisining qoniga tashna bo‘lishlari va natijada istiqbolning vahm ko‘rinishlari!

Shunday qayg‘ular ichida bo‘kib o‘lturar ekan, Hasanali qo‘lida bir maktub bilan hujraga kirdi. Maktubni Otabekka uzatib – «Toshkanddan emish, otangizdan bo‘lsa kerak» dedi. Otabek xatni ochdi: katta qog‘ozda, yo‘g‘on qalam bilan yo‘zilgan uzun bir maktub edi. O‘qudi (aynan):

«Huvalboriy ...ko‘zimizning nuri, belimizning quvvati, ha-yotimizning mevasi o‘g‘limiz mulla Otabekka yetib ma’lum va ravshan bo‘lg‘aykim, alhamdulilloh, biz duogo‘y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do‘srlaringiz munda Haq taoloning hifzi himoyatida sihhat va salomat bo‘lib ko‘z nurimizning duoyi jonini subhi shom, balki aladdavom rabbulolamindan rajo va tamanno etmakdamiz. Janobi Haq bod fursatlarda, yaqin va sa‘id soatlarda to‘kis-tugallik birlan diy-dor ko‘rismakka nasib va ro‘zi qilsin, omin yo rabbulolamin. Ba’da so‘zimiz: o‘g‘lim, Marg‘ilong‘a sihhat va salomat yetish maktubingni olib haq taolog‘a shukurlar qildik. Bizning Toshkanddan ahvol so‘rasang, balki Marg‘ilong‘a ham eshitilgandir, munda Azizbek qandog‘dir bir kuchka tayanib Qo‘qong‘a isyon etdi. Xazina hisobini olish uchun kelg‘an devon beklarini o‘ldirib o‘rda darbozasiga osdi, bunga qarshi Qo‘qon ham tinch yotmag‘an bo‘lsa kerak. Bu kun Kirovchidan besh ming sipoh ila Normuhammad qushbegini Toshkand ustiga buyurilg‘anlig‘in eshitidik. Fuqaroning tag‘in qandog‘ ko‘rguliklari bor ekan, o‘g‘lim!

Kechagina qonliq qilichini fuqaro ustida yurguzib turg‘an Azizbekka uning tig‘i zulmi bilan qora qonig‘a belanilgan o‘g‘lining, otasining, onasining, og‘asining mazlum gavdasi tuproq ostida hali chirib bitmay turib bu kun xalq yana Azizbekka, o‘sha qonxo‘rg‘a o‘z qoni bilan yamin etdi; Azizbekni to o‘zining bir tomchi qoni qolg‘unchaliq himoya qilmoqqa ond ichdi. Azizbekning buyrug‘i bilan kecha o‘rda tegiga barcha Toshkand xalqi yig‘ilg‘an, bu yig‘inda ulamolar ham bor, fuzalo ham bor; xulosa, shaharning har bir sinfidan ham hozir edi. Azizbek o‘rda qorovulkxonasidan turib fuqarog‘a salom qildi. Azizbekning salomiga musharraf bo‘lg‘unchilarining ko‘zlaridan yoshlar oqmoqda edi. O‘g‘lim, sen bir qadar oq bilan qorani ajrata olasan, yozg‘anlarimni diqqat bilan o‘qi.



**O‘zbekiston xalq artisti Abbos Bakirov «O‘tkan kunlar» romani
asosida suratga olingan filmda Yusufbek hoji rolida**

Azizbek o‘rda darbozasig‘a osilg‘an ikki gavdani ko‘rsatib so‘radi:

«Fuqaro! Ko‘rasizmi bu ikki gunohkorni, nima uchun bu jazog‘a mustahiq bo‘ldilar?»

Xalq:

«Bilmaymiz, taqsir».

Azizbekning o‘zi javob berdi:

«Bular Musulmon cho‘loqni sarkardalaridan, qipchoqlarning yo‘lboshchilaridan va qora choponning dushmanlaridan bo‘lgan ikki to‘ng‘izning gavdalari! Men bularni siz qora chopon fuqarom tomonidan o‘ch uchun o‘ldirdim, siz qora chopon og‘aynilarning qipchoq qo‘lida shahid bo‘lg‘an qarindoshlaringizning ruhlarini shodlandirmoq uchun o‘ldirdim! Yoki bu harakatim adolatdan emasmi, fuqaro!»

Xalq javob berdi:

«Adolat! Xo‘b qilg‘ansiz, taqsir! Qipchoqlarning jazolari shunday bo‘lmog‘i kerak!»

Azizbek maqsadg‘a ko‘chdi:

«Siz qora choponliqlarg‘a xolisona qilg‘an bu xizmatimga qarshi, albatta, qipchoqlar qasdimg‘a tusharlar, meni Toshkand hokimligidan azl etmakchi va qo‘llaridan kelsa, hatto o‘ldirmakchi bo‘lurlar! Siz bu ehtimolga qandog‘ qaraysizlar?!»

Xalq o‘zining quyidag‘i javobi bilan ko‘kni ko‘tardi:

«Bir tomchi qonimiz qolg‘uncha yo‘lingizda jon beramiz! Qipchoqlarda had bo‘lg‘aymiki, biz tirik turg‘an joyda sizning bir tola mo‘yingizni xam qilsinlar!»

Azizbek xalqqa tashakkur aytib yarasini yordi:

«Rahmat fuqaro! Eshitamanki, qipchoqlar Normuhammad qushbegi qo‘l ostida Toshkand ustiga harakat boshlag‘an emishlar. Bunga qarshi bizning hozirlanishimiz kerakmi, yo‘qmi, fuqaro?!»

Xalq:

«Kerak, albatta, kerak, taqsir! Agar ruxsat bersangiz, bu kundan boshlab qo‘rg‘onlarni tuzata beramiz!»

Azizbek:

«Rahmat fuqaro! Orqamda sizningdek fuqarom turg‘anda menga hech bir qayg‘u yo‘qdir!»

Xalq: «Siz omon bo‘lib osoyish o‘ltirsangiz, qipchoqqa yo‘l bermaymiz, taqsir! Qo‘rg‘on tuzatishka fotiha beringiz, taqsir!»

Azizbek fotiha berdi. Xalq urush hozirlig‘ig‘a kirishdi. Ana, o‘g‘lim, bizning xalqning holiga yig‘lashni ham bilmaysan, kulishni ham! Har holda Toshkand ustiga yana qonliq bulutlar chiqdi, ishning oxiri nima bilan tinchlanar – bu bir xudog‘ag‘ina ma’lumdir. Boshqa so‘zlardan ham ortiqroq esingga shuni solib o‘tayki, siyosat to‘g‘rilarida o‘ylanibroq so‘zla!

Arzimagan sabablar bilan talaf bo‘lgan jonlarni hamisha ko‘z oldingda tut! Sen bilan manim ko‘ngillarimizdagи yaratg‘uchig‘ag‘ina ma’lum bo‘lib, ammo Farg‘onada meni Azizbekning sherikidir, deb o‘ylashlari va seni bir fitnachining o‘g‘li, deb tanishlari ehtimoldan yiroq emasdir, shu jihatlarni mulohaza qilib oyog‘ bos! Bu tinchsizlik vaqtida sen bilan manim hayotimizning tahlika ostida bo‘lg‘anlig‘ini unutma! Shuni ham aytib qo‘yayki, bu tinchliksiz bosilmag‘uncha Toshkandga kelmasliging maslahatdir. Toshkand tinchlangan dan keyin (agar salomat bo‘lsam) o‘zim xabar yuborurman. Munda barcha yor-u do‘s^t salomat, mendan Hasanaliga salom

ayt! Addoyi¹ otang Yusufbek hoji. Toshkand, 27-dalv oyida 1264-yilda yozildi».

Otabek maktubni tugatib, tushunmay o'tkan jumlalarini qayta ko'zdan kechirar ekan, Azizbek voqeasi ustiga kelganda ixtiyorsiz «tulki» deb yubordi...

To'y, qizlar majlisi

Qutidorning tashqarisiga er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar to'lganlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlanadirlar. Tashqarida bir qo'sha sozandalar dutor, tanbur, g'ijjak, rubob, nay va amsoli sozlar bilan dunyoga jon suvi sepib shaharning mashhur hofizlari ashula aytadirilar. To'y juda ham ruhlik...

Ichkarida xotinlar majlisi: onalarcha aytkanda, ular qumtuproqdek ko'b, biroq majlisning borishida tartib yo'q, havli yuzi va uylar xotinlar bilan to'lgan, qaysi havli yuzida bir tovoq oshni yeb o'lturadir, kim yig'lagan bolasini ovitish bilan ovora, birov yor-yor o'qub, tag'in bittasining quvonchi ichiga sig'may xaxolab dunyoni buzadi, xullas, bag'-bug' yetti qat ko'kdan oshadir...

Oftob oyim qayg'uliroq, tusi biroz siniqqansumon... Mehmon kutib charchaganidanmi, nimadan bo'lsa ham, juda kavlagan, ba'zan qiladirgan ishidan ham yanglishib ketkani, masalan, uyga kirmakchi bo'lib tavanxonaga² kirib qolgani ko'rildir. To'yga kelgan xotinlarning «To'ylar muborak, kuyav o'g'ul muborak!» deb so'rashlariga ham ishonchsiz bir ohangda «Qutlug' bo'lsin», deydir.

Oftob oyim donxonaning eshididan turib xotinlar orasidan kimnidir o'z yoniga chaqirdi. Yoshi ellidan oshgan, kulgusi ichiga to'lib toshgan bir xotinni duvurdan³ chiqib, o'ziga qarab yurganini ko'rgandan keyin donxonaga kirdi. Xotin ham ichkariga kirkach, Oftob oyim eshikni qiya bekladi-da, qayg'ulik bir boqish bilan xotinga qaradi.

¹ Addoyi – duo qiluvchi, duogo'y.

² Tavanxon – to'ydagi dasturxonchilar xonasi.

³ Duvur – davra.

– Nega qayg‘uliq ko‘rinasan, Oftob?

Oftob oyim uzoq tin olib eshikka qaradi va yarim tovush bilan:

– Shu choqda ichimga charog‘ yoqsalar ham yorimaydirda, egachi, – dedi va ko‘ziga jiq yosh oldi.

– Nega?

– Qizim to‘g‘risidan...

– Qizingga nima bo‘ldi?

– Unashilg‘anig‘a bu kun yettinchi kun, – dedi Oftob oyim, – shundan beri Kumushingiz tun ham yig‘laydi, kun ham, sababini so‘rasam sira javob bermaydir-da, do‘lonadek ko‘z yoshisini oqiza beradir. Bu kun tag‘in yig‘isi oshib tushdi. Haytovur yalinib, yalpog‘lanib arang hammomga yubordiq.

Xotin Oftob oyimning bu gapidan hayron bo‘ldi va o‘ylab so‘radi:

– Nimabalo, kuyaving ko‘rksizmi?

– O‘zim ko‘rmadim, – dedi Oftob oyim, – ammo ko‘rguchilarning so‘zlariga qarag‘anda o‘xshashsiz ko‘rkam, tengsiz aqlli bir yigit emish... Otasining o‘zi yigitni yaxshi ko‘rib kuyav qilg‘an edi.

– Kumushning o‘zi yigit to‘g‘risidan hech narsa bilmaydirmi?

– Biladir, – dedi oyim, uning oldida biz jo‘rttaga kuyavni maxtashamiz, lekin bu maxtovlarni eshitgusi kelmay, qaytag‘a yig‘isinig‘ina ortdiradir.

Xotinning ham bu gapdan hayrati ortdi va bundan qanday sir borligiga aqli yetmadi...

* * *

Qizlar majlisi – gullar, lolalar, to‘tilar, qumrilar majlisi! Bu uyda – Kumushbibining tog‘asining uyida qizlar majlisi, gullar majlisi!

Bu uyg‘a o‘ttuz-qirq chandalik qizlar yig‘ilganlar, yig‘ilishdan maqsad: qizlar o‘zlarining eng latif, eng go‘zal bir a’zolarini bu kun kuyavga uzatmoqchilar. Bu uzatish majlisini jonlik, ruhlik o‘tkazmak uchun barcha qizlar o‘zlarining eng

asil, eng nafis kiyimlarini kiyib, favqulodda yasanib, husn olamini yana bir qat, yana bir qayta bejabdirlar. Agar bu uyga kirib, bu majlis a'zolarini bir martaba ko'zdan kechir-sangiz, hozirdanoq aytib qo'yish mumkinki, albatta, esingiz chiqib ketar:

– Bu gulmi, ko'hlik? Yo'q, narigisi! Undan ko'ra bunisi! Barisidan ham o'ttasi!.. Ana shunday qilib esdan ham ajrarsiz, gul tanlashda bir qarorga kelolmay el ichida kulgiga ham qolursiz, rasvo ham bo'lursiz.

Mana, majlis a'zolari shunaqangi bir-birovidan o'toq malaklar, parilar edilar. Majlisning shoirlari, o'yinchilari, childirma va dutorchilari – barchasi ham hozir bo'lib, faqat Kumushbibigina hammomdan qaytmagan edi. Shuning uchun majlis ochilmagan, ochilsa ham ruhsizroq, Kumush kelgach, majliska ruh kirishiga barcha ishonadir va uni to'zimsizlanib kutadir.

Kimdir, oradan bittasi «kelishdi!» deb yubordi. Barcha qizlar uyning darichasi yoniga uymalashib havliga qaradilar. Chindan ham ul yonida ikki yangasi bilan kelgan edi. Shu choqda bizga Otabek kerak edi! Nega desangiz, ul kelsin edida, agar chindan ham shu qizni suygan bo'lsa – suyganini bir ko'rsin edi: hammom bilan ul... faqat jongina so'raydir, majruh ko'kslarga o'qqina otadir... Boshdag'i oq shohi ro'ymol, ichdagi oq shohi ko'ynak, ustdag'i oq kumush zarrin sirilgan po'stin, baqbaqalarni o'rab o'pib turgan yoqa qunduzlarining kelishkani, solinib tushkan qora jinggilasochlarning bo'yin tevaragiga chirmashgani, xom nuqra yuzlarning bo'g'riqqani...

Yangalar Kumushni havlidan turib qizlarga topshirdilar:

– Mana Kumushbibi – sizlarga, qizlar! Kumushning ko'nglini yaxshilab ochinglar, qizlar!

Ikki-uch qiz chopib havliga tushdilar-da, Kumushbibidan paranjini olib uyga boshladilar. Yangalar Kumushni qizlarga topshirib ketdilar. Havli er va xotindan bo'sh, yolg'iz qizlar-gagina xoslanib qoldi.

Kumushbibi boshlaguchi qizlar bilan uyga kirdi, undan anqqan atir islari bilan uy to'ldi. Qizlar o'zlarining bir turlikkina so'zlashishlari bilan Kumush ila ko'risha boshladilar:

– Esonmisiz, sarupolar muborak?

Kumushbibining qizlarga bergan javobi eshitilar-eshitilmashlik edi:

– Qutlug‘...

Kumushbibi uyning to‘riga o‘tquzildi. Qizlar uyning tevaragiga o‘lturishib olgandan keyin oraga nima uchundir bir jimjitlik kirdi...

Qizlar ipka chizilgan guldek uy tevaragini olganlar, buning ustiga yuvoshlik, o‘ychanlik ularning tuslariga ma’naviy bir husn va jiddiyat berib, birga yuz husn qo‘sghan edi. Agar biz shu kezda zarshunoslik uchun yeng shimarsak, ya’ni gulni guldan ajratadurgan bo‘lsak boyagidek esankirab, mutaraddid qolmaymiz, chunki Kumushbibi lolalar ichidagi bir gul va yo yulduzlar orasidagi to‘lgan oy edi.

Orada hamon boyagi jimjitlik hukm surar edi.

Har bir majlisning jonlandirguchi, idora qilguchi bir-ikki qahramoni bor bo‘lganidek, bu qizlar majlis ham shunday qahramonlardan holi emas edi. Majlisni bunchalik ruhsizlanib, ma’yusiyat ichida qolishiga Gulsinbibi chidab turolmadi:

– Biz nima uchun yig‘ildiq-da, nimaga yer chizishib o‘lturamiz! – dedi. – Biz bu yerga aza ochqali keldikmi?

Gulsinning yoniga Xonimbibi qo‘shilishdi:

– Tur, Savra! Havlig‘a olov yoqib childirmangni qizit! Anorgul, sen dutoringni ol! Kumushbibi, siz uncha xayol surmang, kulib o‘lturing! – dedi-da, majlisni ost-ust kuldirib yubordi. Kumushbibi ham ixtiyorlik, ixtiyorsiz bu kulgulikka tortilib, uning yuvoshkina iljayishidan yoqutdek lablari ostidagi sadaf kabi oq tishlari biroz ko‘rinib qo‘ydilar.

Shundan keyin majliska kutilmagan bir ruh kirdi. Anorgulning qo‘lidagi dutor «O‘rtoqlar» kuyini tanlarga larza berib, tarona qildi. Xonimbibi qizlarga qistatib o‘lturmay o‘rnidan sakrab turdi-da, o‘ynab ham ketdi. Dutor yoniga childirmaning chertmagi kelib qo‘shilgandan keyin bazm tag‘in ham jonlandi. Chapaklar ham ko‘tarildi. O‘yin qizib borar edi, uning daricha eshiklari beklanib toqchalarga sham’ yoqilgandan so‘ng, bazmning ruhi yana oshdi. Yel bilan o‘ynashib yongan sham’ nuri qizlarni allaqanday ajib holatka qo‘ymoq-

da, majlis ersa «Alf laylo»¹ hikoyalaridagi «parilar» bazmini xotirlatmoqda edi. Dutor «Ifor» kuyini chalib, childirma ham nozik yo'l bilan unga qo'shilisha bordi. O'yin ham bir turlik nazokat kasb etib, Gulsinbibi yo'rg'alay ketdi. Dutor ko'ngilning allaqanday ingichka joyini qitiqlaydir, childirma yurakni nimagadir oshiqdirib, Gulsin qizning yo'rg'alashi borliq a'zoni zirillatadir. Bazm juda qiziq, juda ko'ngillik edi.

Kumushbibini ham bu qiziq bazmdan boshqalardek hissa oladir, suyinib quvonadir, deb o'ylanmasin, chunki vujudi qizlar bazmi ichida bo'lsa ham xayoli allaqayoqlarda uchib yurgandek, ko'zları o'ynaguchi qizlarda bo'lsa ham, ammo haqiqatda boshqa bir narsani ko'rgandek... Ko'rinishdan natija chiqarib aytkanda, bu qiziq majlis uning uchun bazm o'rnini emas, aza joyini tutkandek...

Ikki soatlik qiziq bir bazmdan so'ng qizlar charchadilar-da, o'yinni to'xtatdilar. Gulsin bilan Xonimbibi endi dutor bilan qo'shiqqa o'lturdilar. Gulsin o'zining qo'ng'uroqdek tovushi bilan «Yig'larman» kuyidan boshladı:

O'rtoqlarim, qo'lg'a olsam torimni,
Beixtiyor yodlaydirman yorimni!

Ikkinci qaytarib aytishda unga Xonimbibi qo'shilishdi. Bir turlik, bir ohanglik nafis, musiqaviy tovushlar kishining borliq vujudiga, qon tomirlariga ajoyib bir o'zgarish bergan edilar. Shu choqqacha mo'ltayib, xayol ichida sho'ng'ib o'lturgan Kumushbibibi bir seskandi-da, qo'shiqchi qizlarga qaradi.

Qizlar ikkinchi baytka o'tdilar:

Bir ko'riniq yag'mo qilg'an ko'nglimni,
Qaytib yana ko'rolmadim norimni!

Shu vaqt kutilmagan joyda Kumushning ikki ko'zi jiq yoshga to'lgan edi. Uchunchiga o'tdilar:

Agar ko'rsam edi yana yorimni,
Bag'ishlardim hama yo'q-u borimni!

¹ «Alf laylo» – bu yerda «Ming bir kecha» ertagi nazarda tutilmogda.

To‘rtinchi:

Bilurmikin, bilmasmikin u zolim:
Kunlar-tunlar tortqan oh-u zorimni!

Kumush toqatsizlangan edi... Beshinchি:

Chindin aying, o‘rtoqlarim, menga siz,
Qayta boshdan ko‘rарmanmi yorimni?

Keyingi:

Ketdi toqat, ketdi sabrim... ketdilar...
Sindirarman urib yerga torimni!

Bu keyingi baytka qulqoq solguchi qolmadi. Chunki yoni-dagi qizga osilib yig‘lay boshlagan Kumushbibiga har kim taajjubda, har kimning ko‘zi, qulog‘i shunda edi.

- Nima bo‘ldi, Kumush?
- Nega yig‘laysiz, Kumush opa?
- Birar joying og‘riydimi, Kumush?

Kumushbibi o‘z ustiga duv yig‘ilgan qizlarga ko‘zini ochib qaradi-da, hushyor tortkanlardek bir harakat qilib qo‘ydi va tez-tez cho‘ntagidan ro‘ymolini olib ko‘zyoshisini quritdi...

Kumush juda xafa ko‘ringanlikdan uning ko‘nglini ochmoqqa to‘g‘ri kelar edi. Shuning uchun boshqa o‘yinlarni qo‘yaturib majlisning eng qiziq tarafi bo‘lib sanalgan lapar aytishka ko‘chdilar. Gulsin kuyav ro‘lini o‘ynar, Xonimbi-bi Kumush ro‘lida, ikkisining bir-birisiga qarab o‘qishgan laparlari barchani kuldirib, ichaklarni uzar darajada. Biroq Kumushning tishining oqini ko‘rish juda qiyin, uning hamma ishi faqat mungg‘ayib xayollanishgina...

Qizlarga to‘xonadan oshlar, tavانlar¹ kelib tortildi. Oshdan keyin yangalar kelib, qizlardan Kumushni so‘radilar. Qizlarning, «Yo‘q, biz Kumushbibini sizlarga bermaymiz!» deb o‘ynab aytkan so‘zlari Kumushbibiga chindek bo‘lib eshitilar, yangalar bilan uydan chiqar ekan, ko‘mak so‘ragandek qizlarga termulib qarar edi...

¹ Tavan – xotinlar to‘yga olib keladigan noz-ne’matlar.

Kutilmagan baxt

Kumushbibidan vakolat olish ham juda qiyin bo'ldi. Domlaning: «Sizkim Kumushbibi Mirzakarim qizi, o'zingizni toshkandlik, musulmon Otabek Yusufbek hoji o'g'liga bag'ishla-moq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yo'Idosh o'g'liga topshirdingizmi?» degan so'rog'i olti, yetti qaytarilgandan keyin, shunda ham yangalar qistog'i ostida arang uning rizoligi olindi.

Kechki soat beshlarda quidorning havlisi to'rt ko'z bilan kuyav kelishini kutadir. Kuyav uchun palovlar, quyuq-suyuq oshlar, necha turlik ne'matlar hozirlanib, bular ham kuyavning intizorida turadirlar. Nihoyat, soat besh yarimlarda kuyav keldi. Yigirma-o'ttiz chog'liq yosh yigitlar – Rahmatning o'rtoqlari, ular orasida Otabek – kuyav ko'rindi: boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po'stin, ichida o'zining Shamayda tiktingani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog'ida qalapoy abzali, belida Kumushbibining usta qo'li bilan tikilgan shohi qiyiq... Yuzlar qizil, og'iz irpaygan, ko'zlar o'ynab allakimni qidiradir. Oshlarini yeb bo'lsalar ham jo'rttaga kuyav ko'rish uchun o'lturgan mahlala kishilarini bir-birlarini turtishib: «Tuzuk-tuzuk, kuyavlikka arzigundek, chaki chakkiga tushmapti, olma-yu anor» deyishdilar. Tomda kuyav kutib o'lturgan xotinlar ichidan Oftob oyimning egachisi oshiqib singlisi yoniga tushdi-da: «Oftob, darrav isiriq hozirla, kuyavingni yomon ko'zdan o'zi asrasin!» dedi. Qutidor eshik ostida qo'l qovishtirib mehmonlarni kutib oladir, yer ostidan kuyaviga ko'z qirini tashlab, kishiga sezdirmay o'zicha kulimsirab qo'yadir. Mehmonxona ayvonida oq soqollik, ko'rkam siymo va og'ir tabiatlik domla bilan Ziyo shohichi, Hasanali, qiz vakili va tag'in bir necha kishilar o'lturadilar. Yigitlar kuyavni domlalar qarshisiga kelturib to'xtatgandan keyin Otabek vakili bo'lgan Ziyo shohichi bilan Kumush qiz vakili Muhammadrahim oralarida mahr masalasi ochiladir. Ko'b tortishgandan so'ng quyidagi mablag'lar mahr qilib belgulanadir: uch yuz oltin pul, mundan keyin olib berish va'dasi bilan Marg'ilondan o'radek bir havli, sog'ish

uchun sigir, asbobi ro‘zgor... Bunga Otabek ham o‘z rizoli-gini bildiradir. Domla xutba boshlaydir. Forsiycha o‘qulgan hamd, salovot va boshqalardan so‘ng xutba eng nozik bir o‘ringa kelib to‘xtaydir: «Sizkim Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li Kumushbibi Mirzakarim qizini o‘zingizga shar’iy xotinliqqa qabul qilasizmi?» – fors tilida so‘ralgan bu savol Otabekning kulgusini qistatib, ko‘nglidan kechiradir:

– Qabul qilasizmi-ya?

Ul birinchi so‘roqdayoq «uchib, qo‘nib qabul qilamiz» deb javob bermakchi bo‘lsa ham, biroq xalqning «o‘lib turg‘an ekan» deb qiladigan ta’nasidan cho‘chib, javob bermaydir. Yana bir qayta yuqoridagi «siz kim falonchi...» jumlesi domla tarafidan takrorlanadir. Kuyavlarga uchunchi so‘roqda javob berish odat hukmida bo‘lsa ham, Otabek bu takallufka chidalmaydir. Go‘yo uchinchi so‘roq o‘rniga «Endi olmas ekan-siz Kumushbibini...» deb majlis buziladirkandek seziladir-da, hamma tovushini qo‘yib, barchaga eshtadirib «Qabul qildik!» deb yuboradir.

Domla alhamdulilloh, alhamdulilloh... bilan nikohni tugatib majlis tomonidan kelin bilan kuyavning haqlariga duo boshlanadir, hamma duoga qo‘l ko‘tarib, hatto tomdagi tomoshachi xotinlargacha «omin»ga ko‘maklashadirlar va shundan keyin nikoh majlisi yopiladir. Yigitlar kuyavni mehmonxonaga olib kiradirlar, ziyofat boshlanadir.

Otabekda bir daqiqaga bo‘lsin to‘zim bo‘lmagan bir vaqtda bir necha soatlarga qarab cho‘zilgan bu tomoq majlisi bilan, albatta, ul yaxshi chiqisha olmaydir. Xuftanga yaqin bana’ji bir ishtaha bilan yeyilib bo‘shatilgan lagan, tovoqlar olinib dasturxonlar yig‘ildi. Bizningcha, bir yarim soat, Otabekcha allaqancha yil hisoblangan bir fursat o‘tib, nihoyat, yangalar kuyav so‘radilar. Ikki yoshga muhabbatlik umr so‘rab fotiha o‘qilgandan so‘ng Otabek ichkariga uzatildi.

Hasanali mehmonxona ayvonida bekni kutib turar edi:

- Endi kuyavlik muborak bo‘lsin, begin?
- Qutlug‘ bo‘lsin.

Hasanali boshdan-oyoq bekni kuzatdi, otaliq muhabbatli bilan bekning orqasini siladi va yoshli ko‘zlari bilan duo

qilib unga ruxsat berdi. Otabek yangalar kutib turgan tarafka yurdi. Ul hozir qiziq holatda edi: bu nima gap, tushimi, o'ngimi, nima gaplar o'tib, nimalar bo'lmoqda, bo'lib turgan ish haqiqatmi?

Biz ichkariga kiramiz: havlining ikki tomoni to Kumushbibining uyigacha qator kuyav kutkan xotinlar, bola-chaqalar bilan to'lgan. Ba'zan kutkuchi xotinlarning qo'lida yonib turg'an sham', kuyav tushadirgan uy to'y mollari bilan juda ham bezalgan. Yuqorida yozilib o'tilgan qutidor uyining aksar jihozlari shu uyga, Kumush qiz uyiga ko'chirilgan. Bir bulargina emas, xotin-qizlar qo'li bilan chatib ishlangan turlik ziynat chodirlari bilan ham bezalgan, shipda katta qandil, qandilda o'ttuzlab sham'lar yonib uyni sirlik bir holatka qo'yadirlar. Burchakda qizlar majlisida ko'rilgan oq kiyimlar bilan Kumushbibi turadir... Uning husni bezalgan uyning oqlari, ko'klari, sariqlari va qizillari bilan tovlanib xayoliy bir siymoda... Ko'z yoshlarini oquzib yangasining so'ziga qulqosmaydir. Tashqaridan eshitilgan «Kuyav! Kuyav!» so'zi bilan tag'in ham uning ko'z yoshisi ko'payib tusi ham o'zgaridi. Yangasi Kumushni shu holda qoldirib o'zi yugurbanicha eshikka chiqdi. Kuyav kelar edi: ikki tomonni sirib olgan xotin-qizlar o'rtasidan Otabek kelar edi. Uning ketidan Oftob oyimning egachisi isiriq tutatar edi. Xotinlar qo'llarida sham' bilan unga qarar va kuzatib qolur edilar. Kuyav uyning yoniga yetdi. Uning yuzi uyatidan juda qizargan, qochgali joy topolmas edi. Shu kezda uyning eshigi ochildi-da, yanga tomonidan qarshilandi.

– Kiringiz, bek.

Otabekning yurak urishi, ehtimol, yangasiga ham eshitilar edi... Otabek uyga kirgandan keyin yangasi tashqari chiqib, eshikni o'zi ko'rarlik qiya qilib yopdi... Uyning to'rida yonini Otabekka berib ro'ymolining uchini tugibmi, yirtibmi Kumushbibi turadir va kim keldi, deb yoniga qaramaydir. Ro'ymol tugish bilan mashg'ul latif qo'llarni chet qo'l kelib siqdi:

– Jonim!

Kumushbibi begona qo'ldan seskandi va qo'llarini qutqazmoqqa tirishib:



**O‘zbekiston xalq artisti Gulchehra Jamilova «O‘tkan kunlar» romanini
asosida suratga olingan filmda Kumush rolida**

- Ushlamangiz, – dedi ham siquvchi qo‘ldan qutulish uchun orqaga tislandi. Titragan va qovjiragan bir tovushda:
- Nega qochasiz? Nega qaramaysiz? – dedi bek. Kumushbibi shu choqqacha qaramagan va qarashni ham tilamagan edi. Majburiyat ostida, yov qarashi bilan sekingina dushmaniga qaradi... Shu qarashda birmuncha vaqt qotib qoldi. Shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlangan bir tovush bilan so‘radi:
- Siz o‘shami?
- Men o‘sha, – dedi bek. Ikkisi ham bir-birisiga beixtiyor termulishib qoldilar. Kumushbibi og‘ir tin olib:
- Ko‘zlarimga ishonmayman, – dedi. Otabek ko‘zlarini to‘ldirib qarab:
- Men ham, – dedi...
- Kumushbibi Otabekning yuziga uzoq tikilib turdi-da:
- Kutilmagan bir baxt, – dedi va o‘zining otidek bir narsanining tovushi kabi qilib kulib yubordi. Bu kulish havlilar-gacha eshitildi. Qiya ochilib turg‘an uy eshigi ham qattiqqina beklandi...

* * *

Otabek Marg‘ilon kelganning ikkinchi kuni poyabzal bozorida bo‘lgan edi. Asr namozning vaqtini o‘tib borganliqdan ul

shundagi do‘kondorlarning birisidan tahorat olish uchun suv so‘radi. Ko‘chadagi suv ariqning tegidan sayoz oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. Do‘kondor unga suvning qulay o‘rnini ko‘rsatdi: «Mana shu burchakdagi darbozadan ichkariga kirsangiz, ariqning yuza joyini topib taho- rat olursiz», dedi. Otabek do‘kondorning ko‘rsatishicha, qutidorning tashqarisiga kirdi. Shu vaqt tasodifan nima yumush bilandir mehmonxonadan chiqib kelguchi farishtaga ko‘zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasiga kelib to‘xtagan chingilin¹ yigitka beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g‘ayriixtiyoriy ikkisi ham bir-birisidan birmuncha vaqt ko‘z ololmadilar. Oxirda Kumush nimadandir cho‘chigandek bo‘ldi, yengilgina bir harakat bilan o‘zini ichkari yo‘lak tomonga burdi. Bu bu- rilishdan uning orqa-o‘ngini tutib yotgan qirq kokillari to‘lqin- landilar. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo‘l ustidan ariq-bo‘yida qotib turgan yigitga yana bir qarab qo‘ydi va bu qarashda unga yengilgina bir tabassum ham hadya qildi... Kumush ichkariga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, lekin Otabek yana bir necha daqqa yerga mixlangandek qotib turdi... Oxir- da ko‘zini katta ochib o‘tkan daqiqada uchrashgani xayoliy go‘zalni istab xayollandi. Biroq haqiqat boshqacha edi. Tahorat olmoq uchun ariq bo‘yiga o‘lturdi. Ammo ko‘zi xayol yashiringan yo‘lakda edi. Tahoratlanib bo‘ldi, yana ko‘zini o‘sha tarafdan uzolmadi. Artinib olgandan keyin yana oyoq ustida to‘xtab qoldi. Yashiringan go‘zal ikkinchi qayta ko‘rin- madi, ehtimolki, Otabekni ipsiz bog‘lab, o‘zi qaysi burchak- dan bo‘lsa ham asirini tamosha qilar edi.

Ko‘b kutdi, asr namozini qazo qilib kuch bilan qutidor uyidan chiqdi va shu daqiqadan boshlab unda muhabbat mo- jarosi tug‘ilgan edikim, bu yog‘i o‘quvchimizga ma’lumdir. Kumushbibining yuqorida «Siz o‘shami!» deb so‘rashi shunga binoan bo‘lib, ammo unga masalaning anglashilmay qolishi va chin baxtni bil’aks kutib olinishi qiziq edi. Shunday qilib ikki yoshning birinchi ham sof muhabbatlari qovishish bilan natijalandi.

¹ Chingilin – kelishgan, ko‘rkam.

Yusufbek Hoji

Rayimbek dodxohning yonidagi bizga tanish olabayroq to‘nlik kishi Hasanalini ko‘rishi hamono:

– Ha-a-a, bizning Hasanali-ku! – dedi, – kel, Hasan, ko‘ri-shaylik, Otabek esonmi?

Hasanali kelib ko‘rishdi, Yusufbek hoji ko‘rishar ekan, Azizbekka dedi:

– Bu bizning kishimiz, taqsir, Marg‘ilondan keladir.

Azizbek labini tishlab qoldi. Chunki darboza taqillatib, oti-ni hurkitkan Hasanalini jallodga topshirish niyati, albatta, yo‘q emas edi. Yusufbek hojining so‘ziga javob bermay yo‘lida davom etdi. Hasanali sipohlar orqasidan, Yusufbek hoji Azizbek ketidan o‘rdaga qarab yurdilar. O‘rda darbozasiga yetkan-dan keyin kutib turgan o‘rda begi Azizbekning qo‘ltig‘idan olib otdan tushirdi. Azizbek o‘rda ichiga kirmakda ekan, Yusufbek hoji otdan qo‘nib so‘radi:

– Menga ruxsatmi, bek?

Azizbek yo‘l ustidan hojiga qaradi:

– Ruxsat, ertaga choyni o‘rdaga kelib iching.

– Yaxshi, taqsir.

Yusufbek hoji sipohlardan birining qo‘ltiqlashi bilan otiga minib, narida kutib turgan Hasanaliga qarab yurdi. Sipohlar ham o‘rda ichiga ot yetaklashib kira boshladilar.

Yusufbek hoji Hasanaling vaqtsiz ham Otabekka qay-tishidan tashvishlangan va qanday bo‘lsa ham bir falokat yuz bergeniga ishongan edi:

– Nega vaqtsiz kelding, Otabek sog‘mi? – deb so‘radi.

Yusufbek hoji Hasanaliga yetmasdanoq bu savolni berdi, Hasanali eshitmadimi yoxud eshitsa ham eshitmaganga solin-dimi, har nechuk javob bermadi.

– Nega indamaysan?

– Otabek salomat...

– Bo‘lmasa, nega vaqtsiz kelding, Otabek qani?

Otabekning qamalishidan xabar berish Hasanali uchun juda og‘ir tuyulgan edi. Nihoyat ko‘zidagi yoshini artdi-da:

– Otabek Marg‘ilon hokimi tarafidan qamaldi, – dedi.

- Nega, nega? – dedi hoji, otidan sachrab yiqilishga yetkan edi. – Sababi nima?
- Sababi ma'lum emas.
- Astag'firulloh, – deb qo'ydi hoji, o'zini biroz to'xtatgan edi.

Hasanali Otabekning Marg'ilon borg'anidan tortib, qamalishigacha bo'lg'an hikoyalarini so'zlab ketdi. Yusufbek hoji bekning uylanishini ham oddiy gaplar qatorida eshitib o'tkardi.

– Marg'ilonda turib bir ish chiqarishg'a ko'zim yetmagan dan keyin Toshkand kelishka majbur bo'ldim, – dedi Hasanali va shu gap bilan mojaroni so'zlab tugatdi. Hoji voqeani eshitib, chuqur bir mulohaza ichida borar edi. Uning qanday kishi bo'lganini Toshkandning yetti yosharidan yetmish yosharigacha bilganlikdan guzar va mahallalarda unga duch kelgan kishilar joylaridan turib salom berarlar, hoji bo'lsa javob qaytarishni bilmas, go'yo kishilarni ham ko'rmas edi. Nihoyat shu holda ko'b yurgach, orqasida kelmakda bo'lgan Hasanaliga qarab otining boshini burdi va:

- Otabek bilan birga qamalg'anlarni necha kishi deding? – deb so'radi.
- Uch kishi: biri – Mirzakarim qutidor; ikkinchi – Ziyo shohichi; uchunchi – Rahmat.
- Yaxshi, sen bu to'rtavining o'lturishlarida bo'lg'anmiding?
- Bo'lg'an edim.
- Nima va qaysi to'g'rilarda so'zlashdilar, Otabek qipchoqlarg'a qarshi so'zlamadimi?
- So'zlamadi. Boshqalarning ham bu to'g'rida so'zları bo'lindi.
- Ularning majlislarida bo'limgan vaqting ham bo'ldimi?
- Har bir o'lturishlarida men hozir edim.
- Yaxshi, sen ular bilan qay yerlarda o'lturishding?
- Birinchi martaba Ziyo akanikida bo'ldiq, ikkinchi...
- To'xta, Ziyo akanikida mehmonlar necha kishi edilar?
- Qutidor, Otabek, andijonlik Akram hoji, men, Ziyo akaning qaynisi – Homid degan birav. Ziyo aka va uning o'g'li... Hammasi yetti kishi.

Yusufbek hoji otining yolini qamchisi bilan tarar ekan, uch-to‘rt daqiqa o‘ylab qolib, so‘ngra so‘radi:

- Ikkinchı o‘lturish qayerda bo‘ldi?
- Ikkinchı o‘lturish Ziyo akanikidan ikki kun so‘ng qutidornikida bo‘ldi. Bu majlisda ham o‘sha birinchidagi kishilar edilar. Yolg‘iz Homid yo‘q edi.
- Tag‘in qayerda o‘lturishdingiz?
- Boshqa joyda o‘lturishmadik... Mundan yigirma kundan keyin to‘y bo‘ldi. To‘yda, albatta, bunday so‘zlar gapurishil-maydir.
- Ikkinchı majlisingizda kim hali, Homid dedingmi, nega yo‘q edi?
- Bilmadim, nega yo‘q edi... Qutidor aytmagan bo‘lsa kerak.
- Qamalg‘uchilar: Otabek, qutidor, Ziyo aka, Rahmat, shundog‘mi?
- Shundog‘, hoji.
- Seni ham qo‘rboshi yigitlari qidirdilar?
- Qidirdilar.
- Akram hoji Andijon ketkan edi. Shuning uchun uni to-polmadilar, shundog‘mi?
- Shundog‘.
- Homidni-chi?
- Uni qidirmadilar, shekillik... Otabek qamalg‘andan so‘ng allaqayerda ko‘rgandek bo‘laman.
- Bizga kelin bo‘lmishni go‘zal, dedingmi?
- Ilohi Otabek salomat qutilsin, muhabbat qo‘yg‘anicha bor...
- Kelinning suluvgili Marg‘ilonda ma’lum ekanmi?
- Ma’lum ekan, tillarda doston ekan.
- Homid uylangan yigitmi, bilingmi?
- Uylangan. Bizning hujraga kelganda, ikki xotini bor-lig‘ini o‘z og‘zidan eshitkan edik.
- Homid sizning hujraga nima uchun kelgan edi? – deb so‘radi hoji, – nega buni boyta so‘zlamagan eding?
- Esimdan chiqibdir, – deb uzr aytdi Hasan, – Homid Rahmat bilan birga Otabekni Ziyo akanikiga taklif qilg‘ali

kelgan edi va biz ularga osh-suv qilib jo‘natqan edik. Ammo ularning unday-bunday so‘zlari bo‘lmaq‘an, to‘g‘rilikcha kelib ketkan edilar.

– Yaxshi, o‘sha Homidni sen qanday odam, deb o‘ylaysan?

– Qo‘lansa so‘zlik, ichi qoraroq bir yigit edi, – dedi Hasanali, biroz borgach so‘radi. – Otabekning ishini og‘ir, deb o‘ylamassiz?

Hoji javob bermadi. Ul javob bergali ham qo‘rqar edi. Uningcha, ish juda nozik, g‘oyatda qo‘rqunch edi. Chunki Marg‘ilon zindonida yotguchi qipchoq dushmani bo‘lgan Azizbek otalig‘ining o‘g‘li edi. Toshkandning isyon chiqargan bir zamonda Otabekdek bir yigitning Marg‘ilonda qanday gunoh bilan bo‘lsa-bo‘lsin ushlanishi har jihatdan ham mudhish edi.

Ul o‘g‘lining qutulishi yo‘lida har bir mulohaza ko‘chasiga kirib chiqmoqda, ammo har birisidan ham bo‘sish va umidsiz qaytmoqda edi. Eng so‘ng o‘g‘liga hujum qilgan bu falokatning tadbirdidan aqli ojiz qoldi, miyasi ishlashdan to‘xtadi va shundan so‘ng: «Parvardigoro, keksaygan kunlarimda dog‘ini ko‘rsatma», – dedi va ko‘z yoshlari bilan soqolini yuvdi.

– Hasanali, zinhor uning qamalg‘anini onasi bilmisin.

– Albatta.

Shundan so‘ng otlarini yetaklashib ichkariga kirdilar.

Hukmnoma

O‘tkir, qonsiragan xanjarini beliga osib, oyboltasini ko‘targan jallod qushbegining hukmiga muntazir edi. Qushbegining o‘ng tomonida qo‘rboshidan tortib shahar a‘yonlari, qarshisida Otabek, qutidor, Ziyo shohichi va uning o‘g‘li Rahmat – gunohkorlar va ularning orqasida muhofiz yigitlar. Otabek bilan qutidorning gunohlari ulug‘ bo‘lganlikdan qo‘llarida kishan, Ziyo aka bilan Rahmatning qo‘llarida bu narsa yo‘q edi. Qutidorning yuziga o‘lik tusi kirgan, Otabek bo‘lsa garangsigan qiyofatda. Anovilar o‘zlarini birmuncha tetik tutmoqda edilar.

Qushbegi o‘zining yozilib qo‘yilgan hukmnomasini qo‘liga olib o‘qishga hozirlandi. Hamma tip-tinch, yerga qaragan edi:

«Menkim, Marg‘ilon hokimi O‘tabboy qushbegi, o‘z hukmimni xoqon ibni xoqon janobi oliv Xudoyorxon ismi shariflaridan eshitdiraman...»

Xudoyor ismini eshitkuchi a’yon uning ta’zimi uchun o‘rinlaridan turib yana o‘lturdilar.

Qushbegi hukmini o‘qudi: «E’timodlik bir kishining shahodatiga binoan toshkandlik Yusufbek hojining o‘g‘li – Otabek, bu kunda xonimizg‘a qarshi bosh ko‘targan Aziz parvonachi va o‘z otasining vakolatlari bilan Marg‘ilon kelib, bu yer-dagi fuqarolarni ham xon janobig‘a qarshi oyoqlandirmoqchi bo‘lg‘an Otabekning bu harakati ululamir bo‘lg‘an janobga bog‘iyliq¹ bo‘lib, uni, ya’ni Otabek Yusufbek hoji o‘g‘lini o‘lim jazosi bilan jazolash taqozo etadir. Ikkinchi, Otabekka yo‘lda ko‘makchi bo‘lib yurgan Marg‘ilon fuqarosi Mirzakarim qutidor ham shu jazoga sazovor tutiladir. Ziyo shohichi bilan o‘g‘li Rahmat bu bog‘iyliqdan xabardor bo‘laturib, vaqtida hukumatka ma’lum qilmag‘anlari uchun bir yildan zindon jazosiga mahkum bo‘lurlar!»

– Haqsiz jazo, – deb Otabek kulimsirab qo‘ydi...

Qutidor bo‘lsa chin o‘lik tusiga kirgan edi.

Ziyo aka bilan o‘g‘li zindong‘a jo‘natildilar va Otabek bilan qutidor jallod qo‘liga topshirildilar-da, shuning ila hukm majlisi tamom bo‘ldi.

Oradan o‘n daqiqa chamasi fursat kechkan edi, qushbegining a’yonga so‘zlab o‘lturgan hikoyasini tezroq bitishini kutmakda bo‘lgan qo‘rboshi nihoyat chidolmay o‘rnidan turdi va:

– Dor ostig‘a borib hukm ijrosi vaqtida hozir turishimg‘a ijozatlari bo‘ladirmi? – deb so‘radi. Ul bu so‘zni tugatar-tugatmas o‘rda qorovuli Pirmat ko‘rindi-da, qushbegiga qulluq qildi:

– Bir xotin kishi arzim bor deydir, kirsinmi?

Qushbegi qo‘rboshig‘a ruxsat ishorasini berib, Pirmatga dedi:

¹ Bog‘iyliq – isyonkorlik.

– Kirsin.

O‘xshamagan yerda bir xotinning arzga kelishi qo‘rboshining ko‘ngliga shubha soldi. Majhula xotinning qanday arzi bo‘lganligini bilib ketishga tilasa ham qushbegidan ruxsat olib qo‘ygani uchun mahkamadan chiqishga majbur edi. Qo‘rboshi mahkama eshididan dahlizga chiqar ekan, eskigina paranjiga o‘ralgan bir xotin qushbegi to‘g‘risiga to‘xtab, bukilib ta’zim qildi. Xotinda hayajon va entikish holatlari bor edi. Shuning uchun qo‘rboshining boyagi shubhasi yana kuchaydi, qushbegining ko‘zidan yo‘qolib turish maqsadida o‘zini eshikning orqasiga olib ketmay to‘xtadi.

Xotin shoshilib kavshini yechdi-da, eshik ostida nimanidir paranji ichidan axtarindi. Xotinning bu harakatiga tushunolmay ajablangan qushbegi:

– Ichkariga kirib arzingizni so‘zlang, opa, – dedi.

Xotin ichkariga kirdi va qushbegi oldiga borib unga nimadir berdi-da, orqasiga qaytib eshik yoniga kelib turdi. Xotinning berib ketkan narsasi uch-to‘rt buklangan bir qog‘oz edi. Qushbegi sekin-sekin qog‘oz taxtlarini ocha boshladи...

– Xudo rizosi uchun tezroq. Yo‘qsa... ikki gunohsizning qonlariga botarsiz!

Xotinning bu so‘zidan a‘yon bir-birlariga qarashdilar. Qushbegi tez-tez qog‘oz taxlarini ochib bitirdi va yo‘g‘on qalam bilan yozilgan uzun bir maktubni o‘qimoqqa oldi. Maktubni o‘qib chiqish uzoqqa cho‘zilganlikdan nihoyatda toqatsizlashgan edi. Oxirda qushbegi maktubning so‘ngrog‘iga kelib to‘xtadi-da, chaqirdi:

– Pirmat, Pirmat!

Pirmat yugurib kirdi.

– Labbay, taqsir!

Qushbegining tovushida shu choqqacha eshitilmagan bir holat bor edi:

– Darrov haligi osilish uchun yuborilg‘an gunohkorlarning orqasidan ot bilan yugir! Dor ostidan bo‘lsa ham qaytarib kel! Buyrug‘imni qo‘rboshig‘a aytsang unar!

Pirmat qulluq qilib dahliz tomonga qaradi:

– Qo‘rboshi ham shu yerdalar, – dedi.

– Chaqir!

Dahlizdan qo‘rboshi kirib qulluq qildi.

– Xizmat, taqsir.

– Yaxshi, siz ketmagan ekansiz, – dedi qushbegi, – Pirmat bilan borib, darhol boyag‘i gunohkorlarni qaytarib kelingiz.

Shubhasini bekorga bo‘lmanini sezgan qo‘rboshi yonida tik turguchi xotinga qarab oldi:

– Sabab, taqsir?

– Sababini surishtiradigan vaqt emas, chop dedim, chop!

Qo‘rboshi qulluq qilib Pirmat bilan chiqdi. Uning keyindan qushbegi «padar la’nat» deb so‘kinib a’yonlarga qaradi. Endi xotinning hayajoni biroz bosila tushkan edi. Qushbegi qo‘lidagi xatni yana o‘qishga tutindi. A’yoni shahar bunchalik ishka yaragan qushbegining qo‘lidagi maktubga va uni keltirguchi xotinga qarashmoqda edilar. Qushbegi maktubni ikkinchi martaba o‘qib chiqib xotinga qaradi:

– O‘lturingiz, singlim, – dedi.

Xotin o‘ltirmakchi bo‘lgan edi paranji ichidan uning atlas ko‘ylaklari va nafis oq qo‘llari ko‘rinib ketdi. Qushbegi yer ostidan xotinni kuzatdi-da, qo‘lidagi maktubning orqa, o‘ngini tekshirib qaradi. Maktub anchagina uringan, qog‘ozi shaloqlangan edi. So‘ngra xotindan so‘radi:

– Qutidor bilan Otabekning kimi bo‘lasiz, singlim?

– Qutidorning qizi, Otabekning xotini.

Bu so‘zni eshitkuchi a’yon bir-birlariga qarashib qo‘ydilar.

– Buni nega ilgariroq olib kelmadingiz?

Qushbegining bu savoldidan Kumushbibi qo‘rqunch bir ma’noni angladi. Go‘yo «ish o‘tkan so‘ng kelibsan» degandek tushungan edi. Shuning uchun ul titroq bir ovoz bilan so‘radi:

– Endi yaramaydimi?

– Yo‘q, yo‘q, qizim, – dedi qushbegi, – men nega kecha va o‘tkan kunlarda olib kelmadingiz demakchiman.

Kumushbibi bir entikib qo‘ydi va o‘zini to‘xtatib:

– O‘zim ham bu maktubni shu bukun ko‘rdim, – dedi.

– Maktubni ilgari ko‘rmagan edingizmi?

– Ko‘rmagan edim.

– Maktub qayerda ekan?

- Uning eski kamzulining cho‘ntagida ekan.
- Shu gapdan keyin qushbegi maktubni o‘ziga yaqin o‘ltur-gan Azim ponsad boshiga uzatdi:
 - Siz ham o‘qub ko‘ring-chi, ponsad, – dedi va Kumush-dan so‘radi, – o‘qug‘anmisiz?
 - O‘qug‘anman.
 - Eringizning hukumatka qarshi harakatini ilgari ham bilar edingizmi?
 - Qanaqa harakatini?
 - Masalan, biz otangiz bilan eringizni nima uchun osmoq-chi bo‘ldiq?
 - Haqsiz, gunohsiz!
 - Bu maktub bilan eringizni o‘limdan qutila olishini sizga kim aytdi?
 - O‘zim bildim.
 - Bo‘lmasa ilgaridan eringizning o‘scha harakatini ham bilar ekansiz-da?
 - Yo‘q, taqsir, – dedi Kumush. Qushbegining maqsadiga endi tushunib olgan edi, – men onam bilan to shu kungacha ularning nima gunoh bilan qamalg‘anlarini bilolmay hasratda edik. Faqat bu kun kishilarning og‘zidan eshitib bildikki, siz uni Toshkanddan isyon chiqarg‘ali kelguchi, deb gunohkor qilur ekansiz. Onam bilan manim baxtimga kutmagan joydan mo‘jizadek bu maktub topildi-da, men xizmatingizga yugir-dim... – Kumush so‘zini tugata olmadi, chopishidan hallosla-gan Pirmat dahlizdan ko‘rinib, bekka qulluq qildi:

– Dor yonidan qaytishdilar!

Kumushbibi sachrab Pirmatning yuziga qaradi va uzoq tin olib qo‘ydi. Shu choqqacha xat o‘qib o‘ltur-gan ponsadboshi maktubdan yaxshi asarlangan edi. Maktubni yonidagiga berar ekan, qushbegiga dedi:

– Bu xat toshkandlik Yusufbek to‘g‘risidagi fikrimizni tamom o‘zgartadir, taqsir! Uning Azizbek tomonliq bir kishi ekanligi Farg‘onaning har bir xos va omi og‘zida naql qilinsa ham ammo hech bir kimsa uning ichiga kirib chiqmagandir. Har kimning ko‘nglidagini yolg‘iz bir xudodan boshqa kim bilsin!



O'zbekiston xalq artisti O'lmas Alixo'jayev «O'tkan kunlar» romani
asosida suratga olingan filmda Otabek rolida

«Yov qochsa botir ko'payar» qabilidan shu choqqacha lom demay o'lturgan shahar a'yonlari ham masalani anglab, so'zga aralasha ketdilar:

- Xudo haqni nohaq qilmadi, bechora yosh yigitning haqsizga qoni to'kilmadi.
- Qutidordek qo'ymizoj bir odamning bunday zo'r ishka oralashqanlig'iga aql ham bovar qilmas edi.

Go'yo bu so'zlar Kumushbibining o'chkan charog'ini qaytadan yoqarlar, umid osmonining yo'qolib, yashirinib ketkan yulduzlari yana qaytadan o'z o'rinaligaga kelib qo'ngandek bo'lurlar, uning ko'z o'ngida joy olgan qoraliqlar shu yoqila boshlagan najot sham'lari partavi bilan o'z-o'zlaridan yo'qolgandek ko'rinarlar edi.

Dahliz eshigi ostida bir durkum oyoq tovushlari eshitilib qo'rboshi ko'rindi.

- Kelishdilar, taqsir, kirsinlarmi?

Qushbegi javob berish o'rniغا maktubni olib ko'rpacha ostiga yashirdi va Kumushbibini tanbehladi: «Majlisda manim ruxsatimdan boshqa so'zлаshingiz otangiz bilan eringizning o'limlarini tilashingizdir, tushundingizmi?» Kumush qabul

ifodasini bergandan so‘ng qushbegi dahlizda qarab turgan qo‘rboshiga «Kirsinlar» dedi.

Kumushbibi ularni boya yo‘l ustida, yigitlar orasida ko‘rgan bo‘lsa ham, biroq dahshat ichida faqat o‘rdaga qarab yugira bergen edi. Endi «Kirsinlar» jumlasini eshitgach, yuragi ortiqcha shopirinib ketdi, uning istiqboliga turishni va bo‘yniga osilib yig‘lashni tilasa-da, qarhisidagi «olabo‘jilar» bunga mone’ edilar. Shu vaqt yigitlar oldida, qo‘llarida kishan bo‘lgani holda Otabek bilan qutidor kirdilar.

– Yigitlar, siz chiqingiz! Qo‘rboshi, siz kishanlarni yechingiz! – deb buyurdi qushbegi. O‘zining mundan keyingi ko‘rguliklarini fojialar vodiysida ko‘rgan qo‘rboshi boshlab kishan kalidini qutidor qo‘liga soldi. Kalidni burar ekan, uning qo‘li dir-dir qaltiramoqda edi. Homidning noma‘lum bir g‘arazi yo‘lida qurban qilinayozgan va bu g‘arazda o‘zining ham ishtirokining borligiga qoyil bo‘lgan qo‘rboshi ishni bu yanglig‘ akslanishidan sirning ochilganini muqarrar bilib, o‘zini shu soat jallod qo‘liga topshirilishini aniq kutmakda edi. Ming balo bilan qutidor qo‘lini bo‘shatib, gal Otabekka yetdi. Otabek qo‘llarini bo‘shatguchi qo‘rboshining bunalchalik titrab, qaltirashidan o‘z raqiblaridan bittasi shu kishi bo‘lganini o‘yladi. Garchi o‘zining najoti hali qorong‘i ersada, qo‘rboshini bir sinab ko‘rish uchun hamma kuchini ikki ko‘ziga yig‘di-da, unga qaradi. Favqulodda dahshat kasb etkan uning ko‘zları qarhisida qo‘rboshining gunohkor ko‘zları chiday olmadilar-da, yerga boqdilar, Otabekning bu sinashi o‘z fikrining to‘g‘ri bo‘lishi bilan natijalandi.

Qushbegining buyrug‘i bilan ikki gunohkor tiz bukib o‘lturdilar. Qo‘rboshi ham to‘rbasini yo‘qotqan gadoydek qushbegining chap yoniga, Kumushbibining yuqorisiga borib o‘lturdi. Otabek va qutidorning ko‘zları Kumushbibiga tushkan bo‘lsa ham, o‘z qayg‘ulari bilan bo‘lib unga iltifot qilmaganlar, hokim mahkamasida paranjilik xotinning nima qilib yurganligidagi favquloddalik ham eslariga kelmagan edi. Dor ostidan qaytish siri, qo‘ldan kishanlarni olinish sababi ularni juda shoshirgan, shuning uchun qushbegining og‘ziga qaragan edilar. Qushbegi bo‘lsa negadir uzoq o‘ylab o‘lturar, tezda

gap ochmas edi. Bu holda butun majlis ahli qabziyatda, qirq qulqoq bo‘lib uning og‘ziga tikilgan edilar. Ammo bu holga qo‘rboshi jon-u dildan tarafdar, shu holda bir necha kunlab emas, yillab so‘zsiz qolishni tilar edi.

– Otabek, – dedi qushbegi so‘z boshlab, – qo‘lg‘a olin-g‘an kuningiz menga o‘zingiz bilan otangizning qanday kishilar bo‘lg‘aniningizni, ya’ni maslakingizni so‘zlag‘an edingiz. Ammo biz o‘shal so‘zlariningizga dalil va isbotsiz ishona olmaymiz. Sizni dor ostidan qaytarib kelishimiz ham o‘shal da‘vongizga birar isbotingiz bormi yoki quruq bir gapmi, deb hukmnинг ijrosini biroz fursatka to‘xtatishdir. Endi siz o‘shal da‘vongizni isbot qila olasizmi?

– O‘shal kungi manim so‘zlag‘anlarim, otam bilan manim ichki sirlarimiz edi, – dedi bek, – albatta, bunga guvoh va isbot topish qiyindir. Agarda otam kelib manim so‘zimni quvvatlag‘anda ham, baribir, siz, o‘g‘lini qutqazish uchun so‘zlaydir, der edingiz-da, ig‘vogarlarning gapiga ishonib o‘z hukmingizni qilaberar edingiz.

Yashindek so‘qqan uning bu so‘zlaridan qushbegi o‘zini arang to‘xtatdi:

– Demak, o‘sha so‘zlariningizni isbot qilish uchun hujjatingiz yo‘q?

– Yo‘q... Isbot uchun vijdonimdan boshqa shohidim yo‘q.

– Yaqin orada Toshkanddan birar narsa olg‘anmidingiz?

– Ya’ni nima?

– Masalan, xat.

Otabek ko‘b o‘ylay olmadi, butun borlig‘i bilan harakat qilib qichqirdi:

– Oldim, oldim! Isbotim ham bor!

A‘yoni shahar uning bu holiga chidab turolmay ko‘zlariga yosh oldilar. Otabek yana dedi:

– Odam qo‘shsangiz men keltiray guvohimni!

– Tinchlaningiz, Otabek, – dedi qushbegi, Otabek biroz o‘zini yig‘ib olgandan keyin so‘radi, – nima olg‘an edingiz?

– Maktub.

– Kimdan?

– Otamdan.

- Qachon?
- Toshkandda isyon boshlanish oldidan.
- Undan keyin-chi?
- Olmadim.
- Otangiz o’sha xatida nimalardan bahs qilar edi?
 - Tushunmagan Toshkand xalqini Azizbekning makriga uchkanidan, eng oxirda... – asarlanib to’xtab oldi, – manim shu holga tushmog‘imni karomat qabilidan so‘zlab, menga birmuncha nasihatlar ham qilgan edi.

Otabekning bu so‘zidan keyin ponsadboshi – «endi bo‘lar» degandek qilib qushbegiga qaradi. Qo‘rboshi ersa Otabekning ustida hali bunchalik tergashlar borlig‘i uchun o‘zini biroz to‘xtatib qoldi. Qushbegi ko‘rpacha ostidan xatni olib Otabeka ko‘rsatdi.

- Bu qanaqa maktub, taniysizmi?

Otabek ko‘rguchi ko‘zlariga ishonmagandek:

- Taniyman, – dedi, ta’rifini sizga so‘zlag‘anim, otam maktubi! Taajjub, buni sizga kim keltirdi, taqsir?

Qushbegi yengilgina iljayib Kumushbibiga ishorat qildi:

- Najot farishtasi, – dedi. Outidor bilan bek yalt etib Kumushka qaradilar. Endi Kumush ortiq chidab turolmadi:

- Otajon, men qizingiz!

Otabekning qulog‘iga eshitilgan bu tovush uning yuragini ingichka yeriga borib tekkan edi. Esini yo‘qotib turgan qayin otasiga qaramay:

- Sizmi, Kumushmi? – deb so‘radi.

- Men, men!

Bu savol-javob ila ikki vujudning hamma hasratlari, alamlari bir-birlariga anglashilgan, ikki tovushning bir-birisiga kelib qo‘shilishidan ikkisiga ham til bilan anglatib bo‘lmashlik bir hol yuz bergen edi.

- Bu senmi, qizim?

- Men, otajon!

Bu o‘ringacha boshqa bir mulohazada o‘lturgan qushbegi ularning so‘zlarini bo‘lib, Otabekdan so‘radi:

- Qulingiz Hasanalinı nega shu kungacha topib bo‘lmadi?

- Qamalg‘an kunimdan beriga undan xabarim yo‘q, taq-sir, – dedi-da, Otabek Kumushka qaradi.
- Bu kun o‘n ikki kun; Hasanali ota Toshkand ketmishdir, shundan beri undan darak bo‘lmadi, – dedi Kumush.
- Toshkand ketishka uni nima majbur qildi? – deb o‘rinsiz bir savol bergan edi qushbegi, Kumushbibi uning nima uchun ketkanligini aytib qanoatlantirdi.

Masala yana xat ustiga o‘tib, Otabek qushbegidan so‘radi:

- Qo‘lingizdag‘i maktub bilan, ehtimol, biz oqlang‘an chiqarmiz? – Qushbegidan tasdiq ishorasini olib davom etdi. – Hozir biz sizningadolatlik hukmingizdan bir narsani so‘raymiz: ul shuldurkim, bizning to‘g‘rimizda yomon maqsad bilan sizga chaqimchiliq qilg‘uchi ig‘vogar va g‘arazgo‘ylar bu majliska hozirlansinlar-da, o‘zlarining mash’um kashflarini va yo ko‘rgan-eshitkanlarini isbot qilib bizni qayta boshdan dor ostig‘a yuborsinlar. Bil’aks isbot qilolmas ekanlar, bizza qazig‘an chuqurlarig‘a o‘zlarini yiqitilsinlar! Adolatingizdan bizning talabimiz shul! – dedi va qo‘rboshig‘a qaradi. Uning yuzida qo‘rqish va iztirob alomatlari ko‘rdi.

- Talabingiz o‘rinlik, – dedi qushbegi, – ammo xasminizni bu majliska hozirlash uchun vaqtimiz ozdir va lekin bu kun uni qo‘lg‘a olarmiz va birisi kun beshovingizni bir yerga jamlab o‘z hukmimizni berarmiz, – dedi. Kumushbibiga yuzini o‘girdi. – Qizim, sizning bunchalik zakovat va jasoratingizga otangiz bilan eringiz har qancha tashakkur aytsalar va o‘zlarining mundan so‘ngg‘i umrlarini sizning baxshishingiz, deb bilsalar arzir. Men ham sizning bu xizmatingiz evaziga eringiz bilan otangizni hozirdan boshlab ozod qildim. Ammo Otabek ish bir taraflik bo‘lg‘uncha o‘zining qochmaslig‘i uchun kafil berishka majburdir.

Hamma mol va mulki bilan qutidor Otabekka kafil bo‘ldi va qushbegining haqiga duo qilib, uchovlari mahkamadan birgalashib chiqdilar.

- Ziyo aka bilan o‘g‘li Rahmatni bo‘shatingiz, so‘ngra anovini qo‘lg‘a olingiz! – degan amrni olib, qo‘rboshi ham siljidi. Shuning ila bu kungi hukm majlisi tamom bo‘lib, shahar a‘yonlari taajjub ichida tarqala boshladilar.

«O'TKAN KUNLAR» ROMANIDAN OLINGAN BOBLAR HAQIDA

Aziz o'quvchi! Siz «O'tkan kunlar» romani to'g'risida ko'p eshitgansiz. Kinofilmini ham tomosha qilgansiz. Bugun esa romanning asliyatini o'qish o'zgacha zavq bag'ishlashini ham his etdingiz.

«Otabek Yusufbek hoji o'g'li» bobida yozuvchi dastlab sizga asarning markaziy qahramoni Otabekni tanishtiradi. Uni «og'ir tabiatlik, ulug' gavdalik, ko'r kam va oq yuzlik, kelistihan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit» sifatida tasvirlaydi. Bunday tashqi ko'rinish tasviri adabiyotshunoslik ilmida portret deb ataladi. Shuningdek, adib ayni bobda romanda ishtirot etadigan Homid, Hasanali kabi obrazlarning tarixi, oilaviy muhitini bayon qilib, ularga tavsif beradi.

Badiiy adabiyot insonlararo munosabatni, yaxshilik va yomonlik mohiyatini anglatishi lozim. Roman boshidayoq Otabek bilan Homidning o'zaro suhbatlaridan uylanish, oila qurishdek o'ta muhim maishiy masalalarga nisbatan ularda ikki xil qarash va ziddiyat borligi kuzatiladi. Obrazlararo bunday konflikt roman davomida ijtimoiy guruuhlar o'rtasidagi ziddiyat darajasiga ko'tariladi. Shu jihatdan «O'tkan kunlar» romani faqat Otabek bilan Kumushning ishq tarixi emas, balki tarixda beqiyos shon-shuhratga ega bo'lgan Turkistonning tanazzuli sabablari badiiy jihatdan keng yoritilgan romandir.

Darvoqe, Otabek bilan Hasanali obrazi o'rtasidagi o'zaro ma'naviy-ruhiy yaqinlikni har kim sezib turadi. «Bek oshiq» bobida Hasanaling qanchalik zukko, Otabekdagi har bir o'zgarishni naqadar teran anglashini yozuvchi juda katta mahorat bilan tasvirlaydi. Otabekdagi ruhiy-psixologik o'zgarishlar, xayol surib uzoq jimb qolishlar Hasanaling qalb prizmasi vositasida bayon etiladi. Chunki Otabekning otasi Yusufbek hoji, onasi O'zbek oyim Hasanaliga o'z farzandini ishonib topshirgan. Bu xususda maxsus topshiriqlar ham beradi.

Hasanal Marg'ilonga kelgandan keyingi Otabek tabiatida yuz bergen o'zgarishlarni avval betoblikka yo'yadi. So'ngra vaziyatni yaxshiroq bilish niyatida uning hujrasi eshigi oldida

poylashga majbur bo‘ladi. Romanda bu yashirincha kuza-tish jarayoni juda real, aniq va ishonarli chiqqanini alohida ta’kidlash lozim. Tasavvur qiling, Hasanali Otabek hujrasи оstonasida – eshigi oldida o‘tiribdi. Hamma yoq tinch, sa-roy qop-qorong‘i. Ammo tungi «tinchlikni saroy otxonasidagi otlarning kart-kurt xashak chaynashlari» buzadi. Bu tasvirda otlarning xashak chaynayotgani ko‘z oldimizga keladi, hatto «kart-kurt» tovushi quloqqa eshitiladi. Bunday nuqtalar adib-ning badiiy mahoratidan darak beradi.

Bir mahal uyquga ketgan Otabek alahsiragan holda «Qora ko‘zлари, kamон qoshлари...» deb qo‘yади. Hasanali buni eshitib, birdan taajjubga tushadi, ikkilanadi. Keyin hujradan uyqusiragan Otabekning «Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar... Uff» degани eshitiladi. Hasanali xotirjam o‘z hujrasiga ketadi. U Otabekning kimgadir oshiq bo‘lganiga, kimnidir sevib qolganiga aniq ishonadi.

Yozuvchilikda shunday bir usul bor – bu sir saqlash. Otabekning kimga oshiqligi sir saqlanadi. Hasanali ham, o‘quvchi ham hayratga tushadi, o‘ylanadi. Voqelik davomida Hasanali Otabekni o‘ziga xos imtihondan o‘tkazadi. Oshiqligining tagiga yetadi.

Aziz o‘quvchi! «O‘tkan kunlar» romanidagi voqealar Marg‘ilon va Toshkent shaharlarida bo‘lib o‘tishini eslab qolishingizni istar edik. Shu bilan birga, romanni yaxshiroq anglash uchun XIX asrdagi Turkiston xonliklari tarixini ham, xususan, romandagi voqealar yuz bergan davrni ham bilish lozim. Chunki Abdulla Qodiriy bu romanini yozishda tarixchi olimlarning asarlaridagi hujjatlarga ham tayanib ish ko‘radi.

Ma’lumki, tarixda xonlik markazi Qo‘qonda joylashgan bo‘lib, Toshkent ahli unga tobe bo‘lgan. «Toshkand ustida qonliq bulutlar» bobida yozuvchi tarixiy voqea va shaxslarga e’tibor qaratadi. «Toshkand hokimi bo‘lg‘an Azizbek Qo‘qong‘a qarshi bosh ko‘targan» degan ma’lumotdan so‘ng romanning keyingi boblarida shaharlararo, ikki hududdagi qip-choq hamda qora choponlilar orasidagi ijtimoiy konflikt bayon qilinadi. Otabek va Yusufbek hojining naqadaradolatpesha, xalqparvar inson ekanligi shu ziddiyatlar girdobida sinaladi.

Barcha zamonlarda tinchlik eng oliy ne'mat sanalgan. Adib xon zamonlarida odamlar yurting notinch holatiga o'rganib qolganini yozadi. Ammo el-yurtdagi bezovtaliklarga Otabek hamma qatori qaray olmaydi. Uning qalbida vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ulari bor. Shu bois Toshkentdagi isyon xabarini eshitib o'yga toladi. Toshkent voqealarini to'g'risida otasi Yusufbek hoji tomonidan bitilgan maktubdan batafsil ma'lumot oladi.

Yozuvchilikda asarda kechadigan voqelikni, syujet zanjirini maktub vositasida o'zaro bog'lash usuli ham bor. «O'tkan kunlar» romani matnida ko'plab maktublar beriladi. Shulardan birinchisi – Yusufbek hojining Otabekka yozgan maktubi. Bu o'rinda maktub mazmunini qayta so'zlab o'tirishga zarurat yo'q. Ammo uning tuzilishiga diqqat qaratish kerak. Barcha ma'lumot «... yetib ma'lum va ravshan bo'lg'aykim...» bilan «... duogo'y otang» degan birikmalari orasiga jamlanadi. Bu bilan «O'tkan kunlar» romani tarixdagi shaxslarning maktub yozish madaniyatidan ham xabar beradi. Yusufbek hoji yozgan maktub qahramonlarning hayot-mamot masalasida hal qiluvchi vazifani bajaradi.

Shu o'rinda, talqin taqozosiga ko'ra, romandagi Kumush obraziga to'xtalish zarurati bor. Adib Kumush obrazini «quyuq jinggila kiprak»lari ostidan «tim qora ko'zları» boqib turuvchi, «qop-qora kamom, o'tib ketkan nafis, qiyig' qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi» ko'ringuvchi, «to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuz»lik o'n yetti-o'n sakkiz yoshlaridagi qiz sifatida tasvirlaydi. «To'y, qizlar majlisi» bobida Kumush juda xomush, xayolchan, sirli va ko'zyoshlariga ko'milgan holda ko'rsatiladi. Tasvirlangan to'y jarayoni Marg'ilondagi Qutidorning hovlisida, qizlar majlisi esa Kumushbibining tog'asi uyida bo'lib o'tadi. To'yga tayyorgarlik ko'rayotgan Kumushning onasi Oftob oyim juda bezovta. Sababini yozuvchi boshqa qahramonlar bilan o'zaro suhbat jarayonida ochib beradi. Kumushning xafagarchiligi, qosh-qabog'ining ochilmagani, nuqul yig'lashlari – bulardan Oftob oyim o'yga toladi.

Qizlar majlisi – qiziyig'in degan to'y marosimi tarixda qanday bo'lganini ushbu bobda berilgan tasvirdan to'la tasavvur qilish mumkin. Yozuvchi qizlar majlisini zavq-shavq bilan

yozadi, davra qurib o‘tirgan qizlarni gullarga qiyoslaydi. Kumushbibiga: «lolalar ichidagi bir gul va yo yulduzlar orasidagi to‘lgan oy», – deb ta’rif beradi. To‘y – bu qurilayotgan yangi oilani odamlarga e’lon qilish anjumani. To‘yda xursandchilik, soz-u suhbatlar bo‘lishi, qo‘shiqlar kuylanishi lozim. Buni qarangki, qizlar aytgan qo‘shiqning har bayti Kumushga juda g‘alati ta’sir ko‘rsatadi. Uning ikki ko‘zi yoshga to‘ladi.

Qo‘shiqning «Ketdi toqat, ketdi sabrim... ketdilar... Sindirarman urib yerga torimni!» degan oxirgi baytni eshitganda esa, Kumushbibi yonidagi qizga osilib yig‘laydi. Hamma taaj-jubda. Kumushning yig‘isi – sir. Ammo to‘y to‘ydek o‘tishi kerak. Qizlar lapar aytib, sahnaga kelin va kuyov rollarida chiqib Kumushbibining ko‘nglini olmoqchi bo‘lishadi.

Qizlarning ushbu majlisida o‘ziga xos go‘zallik, quvnoqlik, latiflik – nafosat bor. Majlisdagи shu go‘zal holatlar ruhiga zid ravishda Kumushbibining xomush o‘tirishi ham, yig‘lashi va xayullanishi ham bobga – qizlar majlisiga o‘zgacha nafislik bag‘ishlagan, albatta. Shu o‘rinda bir mulohazani aytish o‘rinli: mazkur bobda ishtirok etgan epizodik obrazlar – nomlari tilga olingan qizlar romanning keyingi voqeligidagi qatnashmaydi. Ular Kumushning ruhiy kayfiyatini yuzaga chiqarishdek muhim bir adabiy vazifani bajarganidan keyin sahnadan chiqib ketadi.

«Kutilmagan baxt» bob romandagi eng qiziq va hayajon-larga to‘la epizodlardan biridir. Kumushbibidan rozilik olish juda qiyin bo‘ladi. Sababi – yana sirli. Chunki u kimga tur-mushga uzatilayotganini bilmaydi. Otabek esa, aksincha, rozi-rizolik so‘rash jarayonida shoshadi. Shar‘iy nikoh o‘qilayot-ganda imom domlaning savoliga tezda rizolik javobini beradi. Shariatga ko‘ra kelin bo‘lmish qizga kuyov tarafidan beriladigan mahr masalasi muhokama qilinadi. Bu epizod ham qiziqarli va islom dini hukmlari hamda o‘zbekona urf-odatga juda mos tasvirlardir. Adibning davrni, to‘y marosimlari qoi-dalarini, shariat hukmlarini teran anglaganini shundan ham bilib olish mumkin. Otabekning to‘yxonaga biroz iymanish va viqor bilan kirib kelishi, Kumushning unga qayrilib ham qaramasligi, kuyovga beixtiyor ko‘zi tushganida hayajon bilan: «Siz o‘shami?» – deb so‘rashlari – barcha-barchasi o‘quvchini aslo befarq qoldirmaydi.

«Yusufbek hoji», «Hukmnoma» boblarida roman voqealari rivojlanishda davom etadi. Yusufbek hojining Hasanali bilan bo‘lgan suhbatida Sharq ulamolariga xos donishmandlik, farzandi uchun qayg‘urayotgan otaning qiyofasi namoyon bo‘ladi. Tuhmat bilan hibsga olingen Otabek bilan qutidoring ruhiy ahvolini diqqat bilan o‘qishni tavsiya qilar edik. Darvoqe, «Hukmnoma» bobi o‘tgan voqealar bilan bevosita bog‘liq. Bu bog‘lanish Kumushbibining o‘rdaga olib kelgan xati va shu asosda Otabek bilan otasining o‘limdan qutulishi-ga tegishlidir. Bu Yusufbek hoji yozgan maktub bo‘lib, uning mazmuni sizga ma’lum. Romandagi eng qiziq, ta’sirli, ota va turmush o‘rtog‘ining hayot-mamot masalasi o‘rtaga qo‘yilgan bir vaziyatda «najot farishtasi»ning paydo bo‘lib, ularni nohaq hukmdan qutiltirishi o‘quvchining qalbiga farah bag‘ishlaydi.

Adib badiiyatida betakror joziba mujassam bo‘lgani bois «O‘tkan kunlar» necha qayta o‘qilsa ham, odam to‘ymaydi; qayta mutolaaga ehtiyoj seziladi. Qayta o‘qish jarayonida uning yangidan yangi qirralari kashf etiladi. Bir o‘qilganda e’tiborsiz o‘tilgan epizodlarga boshqa safar diqqat qaratiladi. Bu hol, tabiiyki, adibning badiiy tildan foydalanish, so‘z vositasida manzara, ruhiyat va obraz chizish mahorati bilan ham bog‘liq. Abdulla Qodiriy so‘zida insonni o‘ziga bog‘lab turadi-gan, o‘quvchini o‘ziga ohanrabodek tortib turgan quvvat bor.

Adib bor mahorati bilan o‘zbek adabiy tilining boyligini, o‘zbek tilining keng imkoniyatlarini namoyish qiladi. Abdulla Qodiriy maqolalaridan birida: «O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar», – degan fikrni aytadi.

Oybek Abdulla Qodiriy ijodiga baho berib: «Abdulla Qodiriy iste’dodli, qalbi butun va o‘ziga xos ravishdagi shaxs edi... Abdulla Qodiriyning prozasi, birinchi navbatda, g‘oyatda hayotiyligi bilan ajralib turadi», – degan haq gaplarni yozgan edi.

Xullas, «O‘tkan kunlar» romani to‘qima qahramonlarning hayotiylik kasb etishi va tarixiy voqealarga uyg‘unligi jihatidan ham, kompozitsion butunligi va tilidagi nafosati tara fidan ham o‘zbek adabiyoti xazinasidagi bebaho durdonalar qatorida turadi.

Abdulla Qodiriy romanlari o‘zidan keyingi o‘zbek adiblari uchun mahorat maktabi vazifasini o‘tadi. Adib hayoti va ijodini o‘rganish, «O‘tkan kunlar» romanidan bahramand bo‘lish – bu doimo davom etadigan, avlodlar nazdida yangilanib turadigan adabiy qadriyatlar sirasiga kiradi.

Bilasizki, «O‘tkan kunlar» romani asosida ikki marta film suratga olingan. Aslida, mazkur roman bir necha o‘nlab qismli film uchun adabiy manba bo‘la oladi. Bu kelgusi avlodlar zimmasidagi vazifa, albatta.

Savol va topshiriqlar

1. Romandan olingan parchani diqqat bilan o‘qib chiqing va undagi tushunarsiz so‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing.
2. Otabek Marg‘ilonga nima uchun boradi? Adib Otabek portretini qanday ko‘rsatadi?
3. Hasanali Otabekning oshiqligini qanday bilib oladi?
4. Azizbek kim? U nima sababdan isyon ko‘tardi?
5. Yusufbek hoji maktubini qayta o‘qing. Maktub yozish madaniyati deganda nimani tushunasiz?
6. Oftob oyim kim? U nega bezovta?
7. Yozuvchi majlisiga jamlangan qizlarni nimalarga o‘xshatadi? Kumushni-chi?
8. Kumushbibi nega xomush? Nega tinimsiz yig‘laydi?
9. Qizlar majlisidagi o‘zbekona urf-odatlarga munosabat bildiring.
10. Sinfdagи qizlarga savol: qizlar majlisiga hech borganmisiz? Bugungi qizlar majlisи bilan hozirgina siz o‘qib chiqqan manzaralarни qiyoslang.
11. Yusufbek hojiga xos bo‘lgan zukkolikni matndan misollar keltirib izohlang.
12. Kumush nima uchun Otabekni ko‘rganda: «Siz o‘shami?» – dedi? Otabek Kumushni qayerda va qachon uchratgan edi?
13. Otabek bilan quqidorning dor ostiga borishi va u yerdan qaytish sabablarini batafsil tushuntirib bering.
14. «O‘tkan kunlar» romanini bugungi davr bilan bog‘lab izohlang.
15. Romanni to‘liq o‘qib chiqing. «O‘tkan kunlar» filmi bilan romanni qiyoslab munosabat bildiring.

HAMID OLIMJON

(1909–1944)



Hamid Olimjon g‘oyat qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa ham, XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida o‘zining umrboqiy asarlari bilan o‘chmas iz qoldirdi. Shoirning o‘n jildlik to‘la asarlar to‘plamida jam bo‘lgan adabiy merosi she’riy asarlari bilan birga, ko‘plab hikoya va ocherklar, dramalar, publitsistik va adabiy tanqidiy maqolalar hamda tarjimalarni o‘z ichiga olgan. Bu adabiy merosda shoir she’riyatining o‘rni alohida.

Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug‘ildi. To‘rt yoshga yetar-yetmas otasidan yetim qolgan Abdulhamid Azimbobo qo‘lida tarbiya topdi. Xat-savodli Azimbobo nevarasida ham o‘qish-yozishga havas uyg‘otdi. Mashhur xalq shoiri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ahyon-ahyonda Bulung‘urdan jizzaxlik do‘s-t-yorlarini yo‘qlab kelganida, uning uyida ham to‘xtar, shunda Abdulhamid bobosi pinjida o‘tirib, ulug‘ shoirning doston va termalarini jon-u dili bilan tinglar edi. Abdulhamidning onasi Komila aya ham ko‘plab ertak va dostonlarni, maqol va matallarni yod bilar edi. Bo‘lajak shoir uzun qish kechalarida onasining Oygul bilan Baxtiyor, Tohir va Zuhra, Yoriltosh haqidagi ertaklarini tinglab, bolalik chog‘laridanoq xalq og‘zaki ijodidan bahramand bo‘lib o‘sgan.

Abdulhamidning bolalik xotirasida bir umrga saqlanib qolgan, hatto «Men bir qaro kunda tug‘ildim. Tug‘ildim-u shu on bo‘g‘ildim» satrlarining tug‘ilishiga sabab bo‘lgan voqeа 1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘olonining shafqatsiz ravishda bostirilishidir. Jazo otryadi tomonidan jazirama dashtga haydalgan jizzaxliklar orasida yetti yashar Abdulhamid ham bor edi.

Oradan ikki yil o‘tgach, bo‘lajak shoир to‘liqsiz o‘rta maktabga o‘qishga kirdi. Shundan so‘ng Abdulhamid bilim yurti va O‘zbekiston Oliy pedagogika institutida tahsil oldi. Abdulhamidning dastlabki ijodi mana shu o‘qish yillarida boshlandi. Uning «Ko‘klam» nomli ilk she’rlar to‘plami va «Tong shabadasi» hikoyalar to‘plami talabalik yillarida chop etildi. Shoир shu davrdan boshlab qaynoq ijodiy va ijtimoiy faoliyat bilan shug‘ullana boshladi. Uning «Olov sochlar», «Poyga», «O‘lim yovga», «Daryo kechasi», «She’rlar», «O‘lka», «Oygul bilan Baxtiyor», «Baxt» she’riy to‘plamlari, dostonlari, tarjima asarlari ketma-ket nashr qilindi. 1939-yilda u O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga mas‘ul kotib etib tayinlandi.

Yangi o‘zbek she’riyatining kamol topishi, lirik janrlarning rivojlanishi, lirik qahramon tuyg‘ularining badiiy mujassamnishiда Hamid Olimjonning ham munosib o‘rni bor. U tabiatan lirik shoир, nozik hissiyot va kechinmalar musavviridir.

Shoир sevgi mavzusiga murojaat qilganida ham, tabiat tasvirini chizganida ham lirik qahramon tuyg‘ulari baxt-saodat yog‘dulari bilan nurafshon bo‘ladi.

Hamid Olimjonning lirik qahramoni uchun eng muhim narsa – baxtdir. U go‘zallik bilan uchrashar ekan, baxt bilan yuzma-yuz kelgandek bo‘ladi. Shuning uchun ham shoирning sevgi va tabiat tasviriga bag‘ishlangan she’rlarida quyoshli tuyg‘ular mavjlanib turadi. Beg‘ubor insoniy tuyg‘ular, jozib kechinmalar, baxt sururidan shodon lirik qahramonning ruhiyatni shoир she’riyatida xalqona, musiqiy ravon ifoda tarziga ega.

Hamid Olimjonning urush davrigacha bo‘lgan ijodida «Ofeliyaning o‘limi», «Holbuki tun...», «Ishim bordir o‘sha ohuda», «Har yurakning bir bahori bor», «Janub kechasida»,

«Xayoling-la o‘tadi tunlar...», «Mizimta daryosi», «Daryo tiniq, osmon beg‘ubor», «Dunyo go‘zal ko‘rinur senga», «Eng gullagan yoshlik chog‘imda» singari o‘nlab lirik durdonalari borki, oradan qancha yillar o‘tmasin, ulardagি nafis tuyg‘ular shalolasi kitobxonga, she’riyat shaydolariga huzur bag‘ishlab kelmoqda. Bu she’rlarida shoir ruh musavviri sifatida namoyon bo‘lib, lirik qahramonning nozik tuyg‘u va kechinmalarini mohirona tasvirlagani yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘RIK GULLAGANDA

Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

Novdalarni bezab g‘unchalar,
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.



Har bahorda shu bo‘lar takror,
Har bahor ham shunday o‘tadi.
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli, deyman va qilmayman g‘ash,
Xayolimni gulga o‘rayman;
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi deya so‘rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor deb esadi yellar.
Etgan kabi go‘yo bir talab,
Baxting bor deb qushlar chiyillar.

Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so‘ylar roz.
Men yurganda bog‘larga to‘lar
Faqat baxtni maqtagan ovoz:

«Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha ol.
Bunda tole har narsadan mo‘l,
To o‘lguncha shu o‘lkada qol.

Umrida hech gul ko‘rmay yig‘lab
O‘tganlarning haqqi ham senda.
Har bahorni yig‘lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda...»

Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

«O‘RIK GULLAGANDA» SHE’RI HAQIDA

Hamid Olimjon ijodiy merosida tabiat lirikasiga bag‘ish-langan she’rlar ko‘plab uchraydi. Ular orasida «O‘rik gullaganda» she’ri alohida ajralib turadi. «Derazamning oldida bir tup o‘rik oppoq bo‘lib gulladi...» satrlari bilan boshlangan

she'r o'zbek diyoriga keluvchi bahor nashidasining madhi sifatida yangrab keladi.

«O'rik gullaganda» she'ri faqat bahor faslidagi tabiat tasviridan iborat emas. She'rda shoirning ruhiy kayfiyati yetak-chilik qiladi. She'rdagi hissiy oqim tabiat tasviridan shoir «men»iga ko'chadi; shoir bilan yellar orasida kichik bir ziddiyat kuzatiladi. Shoir bahorning nafis qilig'iga nisbatan o'zida g'ashlik sezmaydi va aytadi:

Mayli, deyman va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman;
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi deya so'rayman.

Ayni banddag'i «xayolni gulga o'rash» ta'biri chinakam shoirona tafakkur mahsulidir.

Shoir bu she'rda qiyosiy tasvir ba jonlantirish san'atidan foydalanadi. Natijada o'rik gullari bilan lirik qahramon o'rta-sida uyg'unlik bayon qilinadi:

Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor deb esadi yellar.
Etgan kabi go'yo bir talab
Baxting bor deb qushlar chiyillar.

Yellar, shabboda, qushlarning chug'urlashi – barcha-bar-chasi shoir nazaridan chetda qolmaydi. Quyidagi murojaa-ti ifodalangan band she'rning kulminatsiyasi va yechimidek taassurot uyg'otib, unda ziddiyatli hayot va ikki xil vaziyat kuzatiladi:

«Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha ol.
Bunda tole har narsadan mo'l,
To o'lguncha shu o'lkada qol.

Umrinda hech gul ko'rmay yig'lab
O'tganlarning haqqi ham senda.

Har bahorni yig‘lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda...»

Mazkur she’rda shoirning tuyg‘ulari shu darajada teran tas-virlanganki, har qanday vaziyatda o‘rik gullashiga doir hodisa tilga olinganida beixtiyor ushbu she’rning mazmun-mohiyati esga keladi.

Umuman olganda, Hamid Olimjonning «O‘rik gullaganda» she’rini asr oshib shu kungacha yashab kelgan va bundan keyin ham ko‘plab o‘quvchilar qalbiga bahoriy xush kayfiyat bag‘ishlab yashaydigan asarlar qatoriga kiritish o‘rinli bo‘ladi.

CHIMYON ESDALIKLARI

Tog‘da yurar ohu bir juvon,
Sochimni taraydi shabboda.
Menga bugun yaqindir osmon,
Bulutlardan teppamda poda.

Qashqa tog‘ning yarqirar qori,
Yonbag‘irda xuddi chumoli –
O‘rmalayman va borgan sari
Ochiladi bu holning foli:

Bunda gulning eng asllari,
Baxmal gilam, alvon poyandoz,
Tabiatning bor fasllari:
Bahor va yoz qarshimda peshvoz.

Qoyalarda asrlik doston,
Daralarda oppoq, mangu qor.
Cho‘qqlarda otash saraton,
Yonbag‘irlar binafsha bahor.

Go‘zallikda tunganmas buloq,
Shamolda o‘ynaydi shalola.
Bahor yurar ko‘chib tog‘ma-tog‘,
Qo‘llarida lola piyola.



Yo‘llarimda zangori ko‘llar
Oyna kabi tiniq va bejon.
Men umrimda ko‘rmagan gullar...
Nom qo‘yishda ojizdir inson.

Bu go‘zaldir, bu ajab bir hol,
Ham vahshiydir hamda osuda.
Bo‘lmasinmi shoir tili lol,
Shamol uchib o‘ynasa suvda?

Bolaligim tutdi va bir bor,
Buloq uzra yotdim uzalib
Va san’atga bermasdan ozor,
Hovuch-hovuch suv ichdim qonib.

«CHIMYON ESDALIKLARI» SHE’RI HAQIDA

Chimyonga chiqqan shoir ushbu she’rida tog‘ manzara-sini xuddi rassomdek chizib beradi. Tog‘ga chiqqan odama-ga osmon yaqin kelgandek, tunda pokiza osmonga qo‘lini cho‘wsa, yulduzlarga ham yetadigandek tuyuladi. Osmonga qarasangiz, qudratli qo‘llar bulutlardan turli shakllar yasaydi. Ayniqsa, yozning jaziramasida ham tog‘ daralarida uzoqdan oppoq yo‘l-yo‘l chiziqlar ko‘rinadi. Ha, ular qishda yog‘gan qorlar. Shunda siz bir vaqtning o‘zida ham yoz, ham qish, barq urib ochilgan gullardan esa bahor tarovatidan bahramand bo‘lasiz. Shuning uchun ham shoir «Bahor va yoz qarshimda peshvoz» deb ta’kidlaydi. Shu zaylda shoirning ko‘z oldida tabiatning bor fasllari bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladi. Shulardan zavqlanadi. Odatda, shoirlarga bahor fasli ko‘proq ilhom beradi. Bahor go‘zalligi shoir so‘ziga, iste’dodiga qanot bag‘ishlaydi va natijada:

Bahor ko‘chib yurar tog‘ma-tog‘,
Qo‘llarida lola piyola,

kabi hech kimning xayoliga kelmaydigan misralarni yozadi. Bu piyolalarni esa shoir misli bahorning qo‘lida turgandek

ta'riflaydi. Tog‘ lolaqizg‘aldoqlar bilan bezangan. Shoir yura-yura yo‘lida ko‘llarga duch keladi. Bu ko‘llarni esa toshoynaga o‘xshatadi. Ha, balki bu toshoynalarda har bir fasl o‘z aksini ko‘rsatar. Tog‘ tepasida turgan odamning ko‘ziga bir olam narsalar ko‘rinadi. Oyog‘i ostiga qaraydi. Poyida turli-tuman o‘simlik va gullar yastanib yotibdi. Shoir ularning ko‘pchilagini biladi. Ammo ayrimlariga aslo duch kelgan emas, shuning uchun ularga nom qo‘yishdan ham ojiz. Ko‘rinib turgan tabiat manzarasi ziddiyatli: vahshiy va osuda. Shoir hayron, shoirning tili lol. Shunda u tabiat qoshida bamiisol beg‘ubor bolaga aylanadi:

Bolaligim tutdi va bir bor,
Buloq uzra yotdim uzanib
Va san’atga bermasdan ozor,
Hovuch-hovuch suv ichdim qonib.

Shoir tabiatga yaqinlashadi. Uning lirik qahramoni san’atning, go‘zallikning qadriga yetadi. Ko‘z oldida namoyon bo‘lgan tengsiz san’at asari – tabiat go‘zalligi poymol bo‘lmasligini istaydi. Bunday vaziyatlarda shoirlarning naqadar tabiatga oshufta, qalblari go‘zallikka qanchalar oshno ekanini idrok qilish lozim bo‘ladi.

G‘AZAL

Na bo‘lg‘ay bir nafas men ham yanog‘ing uzra xol bo‘lsam,
Labing yaprog‘idin tomgan ki, go‘yo qatra bol bo‘lsam.

Butog‘ingga qo‘nib bulbul kabi xonish qilib tunlar,
O‘pib g‘unchangni ochmoqliqqa tong chog‘i shamol bo‘lsam.

Bo‘yingni tarqatib olamni qilsam mast-u mustag‘riq,
O‘zimning san’atimga so‘ng o‘zim hayratda lol bo‘lsam.

Sening birla qolib bu mast-u lol olamda men yolg‘iz,
O‘zimni ham topolmay, mayliga, oxir xayol bo‘lsam.

Agar bog‘ingda gul bo‘lmoq mening-chun noravo bo‘lsa,
Ki ming bor roziman qasringga, hattokim duvol bo‘lsam.

Boshim hech chiqmasa, mayli, malomat birla bo‘htondin, Raqiblar rashkiga ko‘krak keray, mayli, qamol bo‘lsam.

Kezib sahro-yu vodiylar yetishsam bir visolingga, Fido jonioymi qildim yo‘lingga, mayli, uvol bo‘lsam.

SHOIRNING «G‘AZAL»I HAQIDA

Hamid Olimjon she’riyati o‘zbek mumtoz adiblarining pokiza ijod bulog‘idan bahramand bo‘ldi. Yuqorida siz o‘qigan g‘azal shu fikrni isbot qiladi.

Bu ishqiy g‘azal yor madhiga bag‘ishlangan bo‘lib, oshiq o‘z ma’shuqasiga yetishmoqni, uning e’tibori va e’tirofiga erishmoqni istaydi.

Tasavvur qilish mumkinki, yor bag‘oyat go‘zal. Uning visoliga yetishish uchun oshiq barcha tadbirlarga rozi. Xol, qatra bol, bulbul va shamol bo‘lish oshiqning orzusi. Guldek ochilgan yor bo‘ylarini turli tomonga taratish ham mumkin. Lirik qahramon raqiblarga duch kelishdan ham qo‘rqmaydi.

Oxirida:

Kezib sahro-yu vodiylar yetishsam bir visolingga, Fido jonioymi qildim yo‘lingga, mayli, uvol bo‘lsam,

deganicha xuddi mumtoz adabiyotdagи oshiqlar kabi yor yo‘lda jon fidolikdan ham qaytmaydi. Odatda, sharq adabiyotida g‘azal janri aruz vaznining muayyan bir bahrida yoziladi. Hamid Olimjonning bu g‘azali hazaji musammani solim vaznida yozilgan. G‘azalning ruknlari va chizmasi quyidagicha:

**V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun**

Umuman, Hamid Olimjon she’rlari o‘ziga xos uslubi, go‘zalligi va ko‘plab badiiy san’atlar qo‘llagani bilan ajralib turadi.

Savol va topshiriqlar

1. Shoир o‘z bolaligini qanday eslaydi?
2. Hamid Olimjonning badiiy adabiyotga qiziqishiga nimalar turtki bo‘ldi?
3. Shoирning ijodiy merosida qanday janrdagi asarlar mavjud. Uning lirik asarlariga munosabat bildiring.
4. «O‘rik gullaganda» she’ridagi «Qancha tirishsam ham u beor Yellar meni aldab ketadi» misralari bilan «Yuzlarimi silab, siypalab, Baxting bor deb esadi yellar» misralari o‘rtasidagi ziddiyatni izohlang?
5. «O‘rik gullaganda» she’rida o‘rik guli shoирning qanday xotiralarini uyg‘otadi?
6. «O‘rik gullaganda» she’ri bilan ijro etilgan qo‘schiqni topib, tinglang va «Qo‘schiqni tinglagach...» nomli ijodiy matn yarating hamda uni taqdimot qiling.
7. «Chimyon esdaliklari» she’rida Hamid Olimjonga xos kuzatuvchanlik, ayniqsa, qaysi misralarda namoyon bo‘ladi? «O‘rik gullaganda» she’rida-chi?
8. Shoир «Va san’atga bermasdan ozor» misrasida nimani nazarda tutadi?
9. Shoирning «G‘azal»ini ifodali o‘qing va lirik qahramon tuyg‘ularini matnga tayangan holda izohlang?
10. Shoир g‘azali mumtoz o‘zbek g‘azallaridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
11. Hamid Olimjon she’rlari bilan aytildigan yana qanday qo‘schiqlarni bilasiz? Ularni tinglab, munosabat bildiring.
12. Shoир she’rlaridan birini yod oling va undagi shoирning badiiy mahoratiga baho bering.





SAID AHMAD

(1920–2007)



Said Ahmad (Husanxo'jayev) 1920-yili Toshkentning Samarkand darvoza mahallasida dunyoga keldi.

Said Ahmad dastlab «Mushtum» jurnalida, O'zbekiston radiokomitetida, «Qizil O'zbekiston», «Sharq yulduzi» jurnalida ishlagan. Uning birinchi hikoyalar to'plami «Tortiq» 1940-yilda nashr etiladi. Urush va urushdan so'nggi yillarda Said Ahmad ko'plab felyeton, ocherk va hikoyalar yozgan. Uning «Er yurak», «Farg'ona hikoyalari», «Muhabbat» kabi to'plamlari nashr etilgan. U «Xazina», «Hayqiriq», «Rahmat, azizlarim» kabi hikoyalarida ikkinchi jahon urushining dahshatli oqibatlarni hayajonli tasvirlaydi, urush qahramonlarini ulug'laydi.

Said Ahmad «Qadrdon dalalar» va «Hukm» qissalarini, keyinchalik «Ufq» trilogiyasini yozdi. «Jimjitlik» romanida ijtimoiy hayotdagi turg'unlik davri yoritilgan. Said Ahmad dramaturg sifatida «Kelinlar qo'zg'oloni», «Kuyov» kabi sahna asarlarining muallifidir.

Said Ahmad ham qatag'on davrining ikkinchi to'lqiniga duchor bo'lган, qamoq azoblarini tortgan ijodkordir. U «aksilsho'roviy millatchilar guruhi a'zosi, zararli g'oyalar targ'ibotchisi» sifatida ayblanib, Qozog'istonning Qarag'anda viloyati Jezqazg'an lagerida hibsda bo'ladi. Shu davr mahsuli o'laroq «lager turkumi» hikoyalari maydonga keldi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning ko‘pgina asarlari qardosh va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Adib 2007-yilda vafot etgan.

Said Ahmad «Buyuk xizmatlari uchun» va «Do‘stlik» ordenlari, «O‘zbekiston Qahramoni» yuksak unvoni bilan taqdirlangan.

QORAKO‘Z MAJNUN

Qur’oni karimdan:

«Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarining (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar».

(«Baqara» surasi, 217-oyat)

Hadisi sharifdan:

«Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu «As’hobi kahfning vafodor itidir».

(«Al-Jome al-Kabir»)

Saodat aya bomdod namozini o‘qib, joynamoz poyida uzoq o‘tirib qoldi. Bundan uch yil oldin olamdan o‘tgan eri usta Turobga atab Qur’on tilovat qildi. O‘ris shaharlarida daydib qolib ketgan o‘g‘li Bo‘rixonga Xudodan insof tiladi. Baxti ochilmay, guldek umri xazon bo‘layotgan qizi Qumriga achi-nib, shu farishtaganining yo‘lini och, deb Allohga iltijo qildi.

Kampir har sahar ichki bir ezginlik bilan shu gaplarni takrorlardi. U qo‘l cho‘zib, joynamozning bir burchini qayirib o‘rnidan turdi.

Sentabr oyoqlab, suvlar tiniqqan, ariq tublaridan bola-baqra tashlab yuborgan piyolami, choynak qopqog‘imi, qoshiqmi shundoqqina ko‘rinib turibdi. Qирг‘оqlar zax tortib, ekin-tikin suv so‘ramay qo‘ygan palla.

Qo‘sni hovilardan maktabga ketayotgan bolalarning in-jiqliklari, xarxashalari, onalarning yalinib-yolborishlari eshitilib



**Said Ahmad va Saida Zunnunovaning Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbekiston milliy bog‘ida o‘rnatilgan haykali**

turibdi. Kampir bu tovushlarga bir dam qulqoq tutib, boshini tebratib, kulib qo‘ydi.

Saodat yosholigida juda chiroyli qiz bo‘lgandi. Sochlari taqimini o‘pardi. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo‘llari sochining uchigacha yetmasdi. Yarmini qismlab turib, bu yog‘ini tarardi. Opasi bu sochlarni qirqta qilib o‘rganda, yana shunchasi ortib qolardi.

– E, soching qursin! – derdi opasi. – Qo‘llarim tolib ketdi, sochingni o‘rdirishga odam yollash kerak.

Ko‘chada amirkon mahsi-kovushni g‘irchillatib, sochlarni selkillatib yurganda qaragan ham qarardi, qaramagan ham. Yosh qizaloqlar orqasidan kelib, sochlarni ko‘ziga surtib ochishardi.

Mana, yillar o‘tib soch ham oqardi, siyraklashdi-yu, bari-bir, o‘sha uzunligicha qoldi. Uchiga biror narsa taqmasa, hurpayib, bo‘yni, yelkalarini tutib ketadi. Shuning uchun ham u sochingning uchiga o‘g‘ritutar sandiqning kalitini osib qo‘yadi. Sandiqni ochayotganda kalitni yechib olmaydi. Sochi uzun bo‘lganidan tizzalasa, kalit bemalol qulfga yetadi. Endi yangi

uylarga sandiq urf bo‘lmay qoldi. Hamma uyni po‘rim javonlar bosib ketdi.

Bundan tashqari, qulfni daranglatib ochadigan kalitlarni yasaydigan ustalar qolmagan.

Kampirning sochlari hamon yoshligidagidek. Faqat yarmidan ko‘pi oqarib ketgan. Orqasiga tashlab qo‘yadigan, uchi birlashtirilgan ikki o‘rim sochining uchiga erining frontdan olib kelgan og‘irgina medalini osib qo‘ygan. Tayyor ilgagi ham bor, sochni pastga tortib turadi.

Hovlining yarmiga yaqin joyga tangadek oftob tushirmaydigan qari tut barglari sarg‘aya boshlagan. Qurigan shoxiga bahorda ilinib qolgan varrakning qamish qovurg‘alari skeledek bo‘lib turibdi. Faqat uzun latta dumi shamolda ilondek to‘lg‘onadi.

Shu tut tagida bir oppoq it supurgi ustida uxbab yotibdi. Kichkinagina, belida belbog‘dek ikkita – biri qora, biri jigarang chizig‘i bor. Xuddi kimdir ataylab bo‘yab qo‘yganga o‘xshab ko‘rinadi. Tumshug‘i bilan ikki ko‘zi qop-qora. Bir ko‘zining tepasida to‘mtoq qoshi ham bor. U kampirning oyoq tovushidan bir ko‘zini erinibgina ochdi-yu, chala yarim kerishib, yana uyquga ketdi.

– Ha-a, joningni huzurini bilmay o‘l-a! Supurginiyam hamrom qilding.

– Qo‘y, urishma, opasi, Qorako‘z hali bola-da!

– Nima deyapsiz, oyijon! Bu it o‘lgurga men nega opa bo‘larkanman?! – dedi Qumrixon nolib.

– Agar Qorako‘zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, bilib qo‘y, ukalariningnikiga ketib qolaman.

– Voy, oyijon-ey, it o‘lsin, odamdan aziz bo‘lmay! Shu itni deb bizni tashlab ketmoqchimisiz? Qo‘ying-e!

– Shu bilan ovunib yuribman. Qayoqqa borsam, yonimda. Bir qadam nari ketmaydi. Menga ayt-chi, ukalarining, singillaring haftada bir xabar olsa oladi, olmasa yo‘q. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko‘kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Senlar qo‘ni-qo‘shnining qistovi bilan bir-ikki xabar oldilaring, xolos.

– Oyijon, qo‘ying endi... – dedi Qumri norozi bo‘lib.

Itning bir qulog‘ida, bo‘ynida, oyoqlarida qon qotib qolgan edi.

– Ahmoq! – dedi kampir. – Qayoqlarda sanqib yurganding?! Yana marjabozlikka bordingmi? Majnun bo‘lmay ketkur! Ahvolingni qara, xotin talashib rosa ta’ziringni yebsan-ku! E o‘limagin-a, shilinmagan joying qolmapti... Endi o‘zingdan ko‘r. Majnun, yaralaringga dori surtaman. Illo, dod demaysan!

Qumrixon itning bo‘ynidan bosib turdi, kampir yaralariga yod surta boshladi. It g‘ingshiydi, ingillaydi. Qumrixonning qo‘llarini tishlamoqchi bo‘ladi.

– Ana, bo‘ldi. Endi ovqatingni beramiz.

Bir oydan beri o‘g‘li surunkasiga kampirning tushiga kira-di. Na yotishida, na turishida halovat bor. O‘g‘lini o‘ylagani-o‘ylagan. Yoshi saksonga yaqinlashib, kuch-quvvatdan qola boshlagan, bolamni ko‘rmay o‘lib ketamanmi deb kuyib-yo-nadi.

O‘g‘li Bo‘rixon oltmish yettinchi yili armiyaga ketgan. Harbiy xizmati tugadi hamki, uyga qaytmadi. O‘sha yoqlarda uylanib, bola-chaqali bo‘lib, qolib ketdi. Ba’zi-ba’zida undan «Ya zedorov» degan ikki enlikkina xat kelardi. Yaqin o‘n besh yildirki, adresni unutib qo‘yanmi, ishqilib, shu o‘rischagina xat ham kelmay qo‘yan.

Kampir qo‘ni-qo‘snilarnikiga ham chiqmaydi. Uyda o‘ti-raverib qon bo‘lib ketadi. Ba’zan kiyimboshlarini apil-tapil tugib – o‘g‘illari yo qizlaridan birinikiga otlanib qoladi.

Baribir, borgan joyida ham halovat topmaydi. Qizi Qumrixonni o‘ylab qaytib keladi. Qumrixonning baxti chopmadi. Ikki bor turmush qildi, farzand ko‘rmadi, qaytib keldi. Biron joyda ishlab ovunay desa, hayhotdek hovliga, munkillab qol-gan onasiga kim qaraydi. Aka-ukalari, singillari: «Opa, qo‘y, ishlama, tirikchililing bizning bo‘ynimizda, onamga qara», deb qo‘yishmadi.

Kampirning o‘g‘illari, biznikida turing, oyi, deb xudoning zorini qilishsa ham, otang chiqqan uyni tashlab ketolmayman, men ham shu uydan chiqazilaman, deb ko‘nmadi.

Kampir juda dono xotin edi. Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to‘ladi, albatta, ular quruq kelishmaydi, shu bahona Qumrining ham kuni o‘tadi, deya qadrdon uyidan jilmasdi. Onalar shunaqa – baxti chopmagan bolasi bilan birga bo‘ladi.

O‘tgan yili o‘tli-shudli, har ish qo‘lidan keladigan nevarasi Anvarjon, tog‘amni topib kelaman, deb chiqib ketdi. Shu ketgancha yigirma kun deganda daragini topib keldi.

Bu gapdan xabar topgan qo‘shni xotinlar kampirni qutlagani kirdilar.

– Buvijon, tashvishlanmang, tog‘amning ishlari «besh». Ro‘zg‘ori but, tirikchilikdan kami yo‘q. Uchta bolasi bor. O‘zi o‘zbekchani esidan chiqarib yuboribdi. Men bilan o‘rischa gaplashdi. Bitta sog‘in echkisi, to‘rtta qanor qopdek cho‘chqasi, o‘ntacha cho‘chqachalari bor ekan. Qish zabitiga olganda shu mollarini ham uyiga opkirib olisharkan. Bo‘chka-bo‘chka samogon-aroq yasab, qishi bilan ichisharkan. Qishloqdagilar tog‘amni «Bo‘rixon» demay, «dyadya Borya» deb chaqirishar ekan.

Bu gaplarni eshitib, kampir yer yorilmadi-yu, kirib ketmadi. Bolasi tushmagur-ey, qo‘shni xotinlarning oldida shu gaplarni aytib o‘tiribdi-ya! Birovga so‘zini bermaydigan er-rayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o‘tirib qoldi.

Qachongacha chilla o‘tiraman, deb kampir bugun qizinikiga otlanib qoldi. Kampirning niyatini sezgan Qorako‘z ostonaga borib o‘tirib oldi. Yaqin bir oydan beri hech qayoqqa bor-magan Qorako‘z o‘zida yo‘q shod edi. Boshini bir tomonga egib irg‘ishlar, tezroq chiqmaysizmi, degandek, har xil ovoz chiqarib g‘ingshirdi.

Kampir shoshilmasdi. O‘sma ekilgan bir bo‘yra yer oldida cho‘nqayib, o‘smalarning sersuv, bo‘liq barglarini tagidan kertib uzardi. Oxiri kafti o‘smaga to‘lgach, rayhonning gul ot-magan shoxlaridan sindirib olib, o‘smaga qo‘shib dastro‘moli-ga o‘radi. U qiz nevaralariga, kelin-u qizlariga, albatta, o‘sma olib borardi. Nihoyat, kampir tugunni qo‘ltiqlab chiqdi. Qorako‘z o‘tirgan joyidan bir sapchib ko‘cha tomon otildi. Kam-

pir uning ketidan borarkan: «Hoy, muncha shoshasan, sekin-roq», – deb javrardi.

Qorako‘z uning gapiga tushungandek, ko‘cha o‘rtasida to‘xtab orqasiga qaraydi. Kampir yetib kelguncha yayrab qu-log‘ini qashlaydi. Bir qulog‘ini dikkaytirib, bittasini shalpay-tirib erkalik qiladi. Orqa oyog‘ida turib bir-ikki aylanadi. Kampir yetib kelishi bilan yana o‘ynoqlab yugurib ketadi. Yo‘lda uchragan mushuklarni tiraqaylatib quvib, nim qizil tilini osiltirgancha hansirab qaytib keladi. Daraxtlardagi mu-sichalarga irg‘ishlab akillaydi. Ariqdan shapillatib suv ichadi. Ba’zan yo‘l chetiga chiqib, paxsa devor tagini ho‘l qilib qaytadi. Velosiped minib o‘tgan bolalarga ergashib uzoqlarga ketib qoladi.

Kampir uning qiliqlariga andarmon bo‘lib yo‘l yurgani-ni sezmaydi. Qorako‘z donlab yurgan tovuqlarni qaqqag‘latib, to‘rt tarafga to‘zg‘itib yuboradi. Yo‘lda uchragan itlar bilan iskashib, quvlashmachoq o‘ynaydi. Ko‘cha betidagi uy os-tonasida tinmay akillayotgan kalamushdek kuchukni tuproq-qa qorishtirib bulg‘aladi. Ariq bo‘yidan qo‘porib tashlangan to‘ngak soyasida yotgan bo‘ribosar itga ham zo‘rlik qilmoqchi bo‘lgandi, ta’zirini yedi. Bo‘ribosar uning gardanidan tishlab, uloqtirib tashladi. Yo‘l o‘rtasiga borib tushdi, tuproqqa qo-rishdi.

Kampir boshini sarak-sarak qildi.

– Hoy, jinni, senga kim qo‘yibdi otang tengi it bilan oli-shishni!

Qorako‘z unga qaray olmadi. Yo‘Ining bu yog‘iga ma’yus alpozda, yugurmay, ohista ketdi. Baribir, Qorako‘z it-da, itli-gini qiladi. Bir qora itning dumini hidlab, ochiq turgan eshik-dan kirib ketdi. Birozdan keyin uning vangillagani eshitildi. Eshikdan chiqayotganda ichkaridan otilgan eski tufli qoq be-liga tushdi.

Katta yo‘lga chiqishdi. Bu yo‘Ining o‘ng yog‘i Chirchiqqa, chap yog‘i Toshkentga olib boradi. Oldinlab ketgan Qorako‘z, qayyoqqa yuraylik, degandek, kampirga qaradi.

– Abdumalik akangnikiga boramizmi, Dilbar opangniki-gami? Dilbar opang domda turadi. Itdan hazar qiladi. Seni

uyiga kiritmaydi. Endi nima qilamiz? Mayli, shunikiga boraylik. Yotib qolmaymiz. Chiqqunimcha hovlida bolalar bilan o'ynab turasan.

Qorako'z bu gaplarga tushunadi. Har gal ko'cha boshiga kelganda, albatta, kampir shu gaplarni takrorlaydi.

Olisdan baland imoratlarning qorasi ko'rindi. Qorako'zning sabri chidamadi. Ildamlab ketdi. Kampir unga yetolmay halloslab qoldi. Qorako'z yugurib emas, g'ildirab ketayotganga o'xshaydi. Bir zumda ko'rinxmay ketdi. Uchinchi qavatning boloxonasida o'ynayotgan bolalar Qorako'zni ko'rib, buvim kelyapti, deb qiyqirishdi. Tapir-tupur qilib zinaning ikki poyasini bitta qilib, pastga yugurib tushishdi. Bittasi Qorako'zga konfet, bittasi sergo'sht suyak berdi. Birpasda hovli bolalarga to'lib ketdi. Qorako'zning boshini, orqasini silashdi. U erkanlib turib berdi. Boloxonada Dilbarxon ko'rindi. Onangiz kelyapti, degan xushxabar olib kelgan Qorako'zga mehr bilan boqdi. Unga qand tashladi.

Nihoyat, hansirab kampir yetib keldi. Bolalarga qurt, yong'oq, turshak ulashdi. Qorako'z ham umidvor bo'lib qo'liga qaradi.

– Senga yo'q, bevafo! Meni yo'lga tashlab ketgansan. Orqangdan halloslab yugurib, tilim og'zimga sig'may qoldi.

Qorako'z gunohkorona bosh egib turdi. Kampir konfet tashladi. Qorako'z ilib oldi-yu, quvonchdan hovlini shamoldek aylanib chiqdi. Kampir qizi bilan kechgacha ezilib gaplashdi. O'g'lini eslab ko'z yosh ham qilib oldi. Qumrining betoleligidan, men bir balo bo'lib ketsam, u sho'rlik nima bo'ladidi, deb afsus-nadomatlar qildi. Gap orasida Qorako'z esiga tushib, ovqat-povqat berdingmi, deb so'rab qo'yardi. Kampir asr namozini o'qib, ketishga shoshildi.

– Endi ketay, shom namozini uyginamda o'qirman.

– Ovqat qilyapman, oyijon, yeb keting. Bir kechagina yotib ketsangiz nima bo'ladidi. Uyingizni bo'ri yeb ketarmidi!

Kampir tugunni qo'ltinglab pastga tushdi. Hovlida bolalar bilan yayrayotgan Qorako'zning ketgisi kelmaydi. Bolalar tuflab uloqtirgan kaltakni o'tlar orasidan topib keladi.

Kampir yo‘lga tushdi. Qorako‘z erkalanib, irg‘ishlab goh undan o‘zib, goh orqada qolib qulog‘ini qashlaydi. Uyda Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g‘uborlarini tarqatadigan, ko‘ksidan tog‘dek bosib yotgan armonlarni ushatadigan olamshumul bir yangilik kutib turardi.

U uyiga yaqinlashganda eshigi oldida u yoqdan-bu yoqqqa shoshib yurayotgan odamlarni ko‘rib, yuragi hapqirib ketdi. Qadamini tezlatdi. Eshik oldida turganlar unga, qulluq bo‘lsin, sevinib qoldingizmi, qariganingizda dilingizga yorug‘lik tushgani muborak bo‘lsin, deyishardi.

Kampir hajga ketayotganlarga pensiyadan yiqqan pullarini «Hoji badal» uchun berib yuborgan edi. Haj qabul bo‘ldi, degan xushxabar kelgan bo‘lsa kerak, o‘zingga shukr, Allohim, deb ostona hatladi.

Shoxiga katta lampochka osilgan tut tagidagi supada yoshi oltmishlardan oshgan bir notanish odam o‘tirardi. Uning ko‘zlar... bundan o‘ttiz ikki yil oldingi Bo‘rixonning ko‘zlar edi. Kampir, voy bolam, deb unga talpindi. Supaga yugurib bordimi, uchib bordimi, bilmaydi. Bag‘rida o‘g‘lini ko‘rdi. Undan aroq va sham yoqilgan uyning hidi kelardi. Kampir buni sezmasdi. G‘oyibining hozir bo‘lganidan mast-alast edi. Karaxt edi, baxtiyor edi. O‘g‘lining boshlariga, yelkalariga ko‘z yoshlari to‘kilardi.

O‘g‘li uning bag‘ridan chiqishga urinar, ammo kampirning qoq suyak, chayir qo‘llari uni bo‘shatmasdi.

– Ну зачем, зачем плачешь, мама, вот и приехал, хватит, хватит, – derdi o‘g‘li.

Ona bu gaplarni eshitmasdi. Eshitganda ham, baribir, tu-shunmasdi.

Kampir hushini yig‘ib, bolasini bag‘ridan bo‘shatdi. Ser-rayib turgan Qumriga:

– Nega baqrayib turibsan, Rahmon qassobni chaqir, bolamning oyog‘i tagiga og‘ildagi qo‘yni so‘ysin! Qo‘shnisini-kida telefon bor, aka-ukalaringga, singillaringga, akam keldi, deb xabar qil! – dedi.

Qorako‘z kampirning oyog‘i tagiga o‘tirib olgan. Bu nota-nish odamga g‘ashlik qilib tinmay irillardи.

– Qayoqlarda yurganding? – dedi kampir o‘g‘liga. O‘g‘li onasi nima deyayotganini tushunmay yelka qisdi. – Tushunmadingmi? Sen boshqa odam bo‘lib ketibsan.

Kampir uning yuzlariga qarab ezilib ketdi. Qarib, adoyi tamom bo‘pti. Basharasiga ham o‘scha tomonlarning nuqsi urib, o‘zbekligi qolmabdi. Ellik bir yoshda yetmish yashar chol bo‘lib qo‘ya qopti.

Rahmon qassob allaqayoqqa ketib qolgan ekan, topib kelishdi. Ko‘cha tomonda qo‘sht mashinaning gurillagani, o‘g‘il-qizlarining ovozlari eshitildi.

Abdumalik qo‘y yetaklab kirdi. Qizlari, kuyovlari karton qutilarda, xaltalarda meva-cheva, olma-uzum ko‘tarib kirishdi. Bir zumda hovli gavjum bo‘lib qoldi.

Bo‘rixon ukalarini ham, singillarini ham tanimadi. Ular ham buni tanishmadidi.

Bo‘rixon begona uyg‘a kirib qolgan odamdek qovushmay turardi. U ukalariga, singillariga nima deyishni bilmassi. To‘g‘ri, nima deyishni bilardi. Ammo til bilmasa nima qilsin? O‘ylab-o‘ylab, «Salyam!» dedi. Jigarlari kulishni ham, yig‘lashni ham bilmay hayron turib qolishdi.

Qassob og‘ildan kattakon, boquvdagi qo‘yni sudrab chiqdi. Bo‘rixonning oyog‘i tagiga yotqizib: «Ukam, qani, bir fotiha bering, – dedi. – E, darvoqe, o‘zbekcha bilmasligingizni esimdan chiqaribman. Qani, omin denglar, kampir enamizning umralari uzun bo‘lsin, g‘oyiblari hozir bo‘lgani rost chiqsin, omin!»

Qassob shunday deb qo‘yning bo‘g‘ziga pichoq tortdi.

– Ну зачем, зачем? – dedi Bo‘rixon. – Ведь барана жалько, все равно я столько мясо не ем! У нас баранина не едят.

To yarim kechagacha kampirning hovlisi to‘yxonaga aylanib ketdi. Tarqash paytida Abdumalik akasini mehmonga taklif qildi.

Hovli jimb qoldi. Qumri ona-bolaga supaga joy solib berdi. Kampir bolasiga tikilib mijja qoqmadidi. Bo‘rixon to‘ygunicha ichgan edi. Og‘zidan gup-gup aroq hidi kelib turibdi. Kampir ro‘molining uchi bilan burnini berkitgancha o‘tiribdi. Rostdan ham shu odam mening bolammi, deb o‘ylardi kampir. Qa-

rib ketibdi, sochlari to'kilib, boshining yarmi yalang'ochlanib qopti. Ko'p ichadigan odamlardagina bo'ladigan zaxil bir befayzlik zohir edi uning yuzlarida. Ko'zlarining tagi salqigan, tishlari tamakidan jigarrang tusga kirgan. U otasi o'tgan uyda, tuqqan onasiga, jigarlariga begona bo'lib beparvo yotibdi.

Saodat kampir uni chaqaloqligida xuddi shu supada beshikka belab tebratardi. Uch yoshga kirguncha shu supada bag'rida olib yotgan edi. Bo'rixon do'mboqqina bola bo'lgandi. Uni yomon ko'zdan asrasin, deb kiyimlariga tumor-u ko'zmunchoqlar taqib qo'yardi. Sultonimga atab unga kokil qo'ygandi. Olti yoshga to'lganda uni er-xotin Turkistonga olib borib hazrat Yassaviy maqbarasining shayxiga ataganlarini berib, kokilini kestirishgan, qo'y so'yib xudoyi qilishgan edi.

Bo'rixon u yonboshidan bu yonboshiga ag'darildi. Shunda... shunda uning ustidagi oq choyshab sirg'alib yelkalari, ko'ksi ochilib qoldi. Kampir badanidan chayon o'rmalagandek seskandi. O'zini orqaga tashladi.

Bo'rixonning bo'ynidagi zanjir uchida but yaltiradi. Kampilning ko'zları tindi. Bir dam uni shuur tark qildi. Telbadek sapchib o'rnidan turdi-yu, ayvon tomonga chekindi...

Bo'rixon armiya xizmatini o'tagandan keyin ham uyg'a qaytmadi. O'rmon ichkarisidagi qishloq butxonasi qo'ng'iroqchisining erdan qolgan qiziga oshiq-u beqaror bo'lib qoldi. Qallig'ining otasi, boshqa dindagi odamga qizimni bermayman, deb turib oldi. Qiz Bo'rixonni xristian diniga kirishga undadi. Ishq-muhabbatdan ko'zini parda bosgan Bo'rixon hech ikkilanmay rozi bo'ldi. Uni cherkovda cho'qintirishdi. Keyin cherkov oqsoqoli kelin bilan kuyovga toj kiydirib, nikoh o'qidi.

Ana shundan keyin Bo'rixon xotini, qaynonasi bilan har kuni cherkovga borib cho'qinadigan bo'ldi. Qaynotasi o'lidan so'ng uning o'rniga cherkov qo'ng'iroqchisi qilib qo'yishdi. Nimaiki ish bo'lsa, barini u bajaradigan bo'ldi. Piligi so'xta bo'lган shamlarning uchini qaychilaydi, yonib tamom bo'lганlarini almashtiradi.

1970-yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi...

Oh, otaginiasi tirik bo‘lganda shu supa ustida bolta bilan chopib tashlardi-ya! Kampir ayvonga yetolmay hushidan ketib yiqildi. Qorako‘z uning atrofida ulib aylanardi. Qumri yotgan uyning eshigini timdalab, uni uyg‘otmoqchi bo‘ldi. Qumri uyqusini buzgan itni qarg‘ay-qarg‘ay hovliga chiqdi. Qorako‘z uning etagidan tortib, kampir yotgan joyga sudradi. Qumri onasining behush yotganini ko‘rib qo‘rqib ketdi. Qarib, mushtdekkina bo‘lib qolgan onasini dast ko‘tarib ayvonga olib chiqdi. Boshi ostiga yostiq qo‘yib, suv ichirdi. Yelkalarini uqaladi. Kampir ko‘zini ochdi. Hali tong yorishmay turib, Abdumalik mashinada kelib akasini olib ketdi. Unga Toshkentning mustaqillikdan keyingi manzarasini ko‘rsatmoqchi, Chorsu bozoridan uning bolalariga sovg‘a-salomlar olib bermoqchi edi.

Bo‘rixon uchun O‘zbekistonda mustaqillik bo‘ldimi, bo‘lmadimi baribir edi. U o‘zga yurtning fuqarosi, o‘zga e’tiqodning sig‘indisi edi. Tug‘ilgan yurtga muhabbat tuyg‘usi uni tark qilganiga ko‘p yillar bo‘lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayoq unutilib ketgan shumer tili qatori tumanlar orasida qolib ketgandi.

Ertalab kampir hech narsa bo‘limgandek o‘rnidan turdi. Qumri qarasa, onasining qolgan qora sochlari ham bir kechada oqarib, ajinlari ko‘payib ketibdi.

Qumri onasining nega bunaqa bo‘layotganini bilib turardi. Boya akasi tong yorishmay hovli etagidagi yong‘oq tagida devorga qarab cho‘qinayotganini ko‘rib hayron-u lol qolgandi. Ayollar, umuman, titimsak xalq bo‘ladi. Akasi Abdumalik bilan hovlidan chiqib ketgach, ichkari uyda turgan chemodanini titkiladi. Shunda sariq baxmalga o‘ralgan bir narsaga ko‘zi tushdi. Ushlab ko‘rdi. Qutichaga solingan narsa to‘pponcha emasmikan, deb baxmal tugunni yechib qaradi. U xristianlarning muqaddas kitobi Injil edi. Uni ushlagan qo‘llari kuyayotgandek shoshib yana baxmalga o‘rab qo‘ydi.

Kampir bomdod namozini o‘qiyotib, har sajdaga bosh qo‘yganida joynamozga ko‘z yoshlari tomardi. U joynamoz

burchagini qayirib, eriga atab Qur'on tilovat qildi. Baxti chopmagan Qumriga bag'ishlab shu farishtaganining yo'lini och, deb Allohg'a iltijolar qildi. G'oyibdan hozir bo'lgan o'g'lining nomini tilga ham olmadi.

Saodat aya shu bolasiga to'lg'oq tutayotganda oftob charaqlab turardi-yu, yomg'ir sharros quyayotgan edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: «Bo'ri bolalayapti», degandi. Shuning uchun ham o'g'liga u Bo'rixon deb ism qo'ygandi. Oradan ellik bir yil o'tib, bu bolani men emas, bo'ri tuqqan ekan, degan xayolga bordi.

– Oyi, kiyinasizmi? Abdumalikning mashinasi hozir kelib qoladi. O'g'lingiz tayinlab ketgan.

– O'zing boraver, men shu yerda qolaman, – dedi kampir.

– Axir, akam kechqurun poyezdga chiqadi. Xayrashmay sizmi?

– O'zi kelgan, o'zi ketaveradi. Mashina kelsa, chemodanini tashlab qo'y. Bu uyga endi qaytib kelmasin, – dedi kampir qat'iy qilib.

– Oyijon-ey, juda qahringiz qattiq-da! Bugun ketadi, qaytib ko'ramizmi-yo'qmi, bolam-bo'tam, deb kuzatib qo'ya qolsangiz nima qiladi-ya! – dedi zorlanib Qumri.

– Bu bolani men emas, bo'ri tuqqan... Bir marta dadam qani, deb so'ramadi-ya! Qandoq ota edi-ya rahmatli.

Ko'chadan mashina ovozi keldi. Qorako'z o'qdek otilib chiqib ketdi. Birozdan keyin kampirning nevarasi Abdunabining atrofida gir aylanib kirib keldi.

– Iya, hali ham kiyinmay o'tiribsizmi? Uyimiz qarindoshurug'larga to'lib ketdi. Dadamning o'rtoqlari ham kelishgan. Qani, bo'la qolinglar!

– Men bormayman, – dedi kampir. – Qumri boradi. Chemodan o'lgurni ola ketinglar.

– Iya, qiziq bo'ldi-ku! Amakim bugun ketadilar-ku!

Kampir indamay uyga kirib ketdi, keyin derazadan boshini chiqarib:

– Sen boraver, bolam. Men bilan o'tirib qon bo'lib ketding. Jigarlaring bilan birpas yozilib kelasan, – dedi Qumriga.

Mashina ketdi. Kampir hayhotdek hovlida bir o‘zi qoldi. Uning ko‘ksiga allaqaydan kelib tushgan bir parcha muz kechadan beri erimay, vujud-vujudini qaqshtardi.

U uyga kirib tugun ko‘tarib chiqdi. Undan Bo‘rixonning go‘dakligida, bolaligida kiygan kiyimlarini olib qaradi.

Ilgari kampir ba’zi-ba’zida bu kiyimlarni hidlab yig‘lardi. Endi ko‘ksidagi muz uni yig‘lashga qo‘ymadi. U hovli o‘rtasi-ga xazon to‘plab gugurt chaqdi. Gurillab yonayotgan gulxanga Bo‘rixonning kiyimlarini birma-bir tashlay boshladи. Gulxanda Bo‘rixonning bolaligi yonardi. Qorako‘z gulxan atrofida aylanar, goh alanga taftiga chidolmay nari ketardi. Bir bo‘xcha kiyim zum o‘tmay yonib kulga aylandi. Shamol kuyindilarni hovlining to‘rt tarafiga uchirib ketdi.

Qumrining ko‘ngli bir nimani sezdimi, ko‘cha boshiga yetmay mashinadan tushib qoldi. Uyga kelganda, onasi kaftini iyagiga tirab, qimirlamay o‘tiribdi. Qorako‘z uning xayollariga sherik bo‘lgandek, u ham old oyoqlariga dahanini qo‘ygancha ko‘zlarini yumib, qimirlamay yotibdi. Qumri u yoq-bu yoqqa qaradi. Hovlidan kuygan latta hidi kelyapti. Qo‘snilardan birortasi eski-tuskilarni yondiryapti, shekilli, deb o‘yladi. Hovlining supradek joyi qorayib qolganini ko‘rib hayron bo‘ldi. Yaqin borib qarasa, qoraygan yerda bolalar ko‘ylagiga qadaladigan o‘n-o‘n beshta qovjiragan tugma sochilib yotibdi. Qumri nima bo‘lganini bildi. Ichidan zil ketdi.

– Oyi, – dedi u, – nima ovqat qilib beray? Ertalab ham hech narsa tatimadingiz. Bunaqada toliqib qolasiz-ku.

Kampir boshini sarak-sarak qildi.

– Ishtaham yo‘q, bolam. Ichim to‘la muz. Tanamga asta tarqalyapti.

Qumri qo‘rqib ketdi.

– Ko‘p kuyinmang endi, bo‘lar ish bo‘ldi. Xudoning irodasi bu.

– E, qizim-a, bola tug‘magansan-da, bilmaysan!

Kampir qiziga hech qachon «tug‘magansan» deb aytma-gan. Aytsa, ta’na qilayotgandek bo‘lardi. Qizining shundoq ham dardi ichida. Bu gapni begona aytsa chidash mumkindir.

Ammo o‘z onang aytса, yuragingni kimga ochasan? Qumri onasining gapini malol olmadi.

- Farzand dog‘i yomon bo‘ladi, bolam.
- Axir akam tirik-ku, shukr qilmaysizmi?
- Kampir uning gapini cho‘rt kesdi:
- U yo‘q endi!

Kampir so‘zini oxiriga yetkaza olmay yonboshiga behush yiqildi. Qorako‘z bezovtalanib sapchib turib ketdi. Qumri onasini ko‘tarib, ko‘rpacha ustiga yotqizdi.

Eshik taqilladi. Qorako‘z darvoza tomon yugurdi. Qumri onasi bilan ovora edi. Hovliga mahalla machitining imom-xatibi bilan mutavallisi kirdi. Kampirning ahvolini ko‘rib, bir-biriga qarab olishdi.

- Qizim, – dedi mutavalli, – bemavrid kelib qopmiz. Onaxondan suyunchi olmoqchi edik.

Ular ayvon oldiga kelishdi. So‘nggi nafasini olayotgan kampirga:

- Onajon, kecha muborak haj safaridan qaytdik. Sizning hajingiz qabul bo‘ldi, – deyishdi.

Imom-xatib Saodat ayaning «Hoji badal» bo‘lgani to‘g‘risi-dagi hujjatni uzatdi. Kampir qo‘lini ko‘tara olmadi. Ko‘zini arang ochib: «O‘zingga shukur, Allohim», – deya oldi, xolos. U qiziga bir nima demoqchi bo‘lgan edi, tili kalimaga kelmadi.

Qumri uning nima demoqchilagini bildi. Yugurib uygа kirdi-yu, ikkita ohorli to‘n ko‘tarib chiqdi.

- Oyim shu kunga atab saqlab yurgan edilar.

U shunday deb ikkovining yelkasiga to‘n tashladi.

Kampir ikki kun shu alpozda yotib, sal o‘ziga kelgandek bo‘ldi. Tilga kirdi.

Aslini olganda, uning umri tugagan edi. Bu xushxabar uning tugab borayotgan umriga umr ulagan edi. Bu hol shamning o‘chish oldidan bir lop etishiga o‘xshardi.

- Ukalarining, singillaringni chaqir! Vasiyat qilib qo‘yay. Sen qo‘rqma, qizim. O‘lim haq. Bu jon degani Allohnинг tandagi omonati. Undan qochib qutulib bo‘lmaydi. Puf etadi-yu, chiqadi-ketadi.

Kampirning bolalari yetib kelishdi. Qumri onasining orqasiga yostiq qo'yib berdi. Qator o'tirgan bolalariga, nevaralariga qarar ekan, kampir mammunlik bilan:

– Xudoga shukr, tobutim oldida boradigan hassakashlarim ko'p ekan, – dedi. – Eshitinglar, bolalarim. Abdumalik, endi bularga sen ota o'rnila otalik qilasan. Qumri, qizim, endi sen mening o'rnimga qolasan. Abdunabini shu hovlida uylan-tiringlar. Yilimni kutib o'tirmay to'y qilaveringlar. Shundoq qilsalaring, arvohim shod bo'ladi. Abdunabi kelin bilan Qumrining oldida qolsin. Shu uy uniki. Onam go'rida tinch yotsin desanglar, Qumrini aslo yolg'izlatib qo'ymanglar.

Kampirning lablari quruqshadi. Qumri piyoladagi suvgaga paxta botirib og'ziga tomizdi.

– Shoshib turibman, bolalarim. Meni otalaring oldiga olib ketishga kelishyapti. Endi buyog'ini eshitinglar. Hamma tadorigimni ko'rib qo'yganman. Yilim o'tguncha bo'ladigan masosimlarga yetarli pulni Qumriga berib qo'yganman. Qizim, qulog'imdagiziragimni, mahsi-kovushimni g'assolga bergin. – U endigi aytmoqchi bo'lgan gapidan iymandi, shekilli, jilmaydi. – Azaga kelgan xotinlar oldida xunugim chiqib yotmayin, qoshimga o'sma...

Kampir shu jilmaygancha ichidagi muz erimay osongina jon berdi.

Hovliga tumonat yig'ildi. Unga «Hoji ona» deb janzoza o'qishdi. Tobutni ko'tarishayotganda Qorako'zni qabristonga bormasin, yomon bo'ladi, deb qo'shnining hujrasiga qamab ketishdi.

Kampirning qirqi o'tgandan keyingina hovlidan odam oyog'i tovsildi. Egasi ketib fayzi yo'qolgan hovlida Qumri va Qorako'z mung'ayib qolishdi.

Bir kun Qorako'zning mijjalarida yosh ko'rib Qumrining yuraklari ezilib ketdi. Qorako'zga qo'shilib u ham yig'ladi. Asta qo'l yuborib, uning boshlaridan siladi. Oldin bu itni jinidan ham yomon ko'rardi. Necha marta kosov bilan urgan. Oyog'i ostida o'ralashganda tepib yuborgan. Qorako'z ham uni unchalik suymasdi.

Ana endi ikki munglig‘ bir-biriga qarab yum-yum yosh to‘kishyapti.

Qorako‘z endi kechalari daydib ketmay qo‘ydi. Har kuni hali tong yorishmay turib (kampir bomdodga turgan-da) uyg‘onib ketardi.

Kampirning bolalaridan ikkitasi Toshkentda, bittasi Chirchiqda, ikkitasi Qibrayda yashaydi. U tong otgandan to kun botguncha hammasining uyiga borardi. Kampirni topolmay, horib-charchab qaytib keladi.

Bugun ham tong sahardan Qorako‘z chiqib ketdi. Pil-diragancha Chirchiq tomonga yo‘l oldi. Kimyogarlar shaharchasida kampirning kenja qizi turadi. O‘g‘li magnitofon jinnisi. Hammaning ovozini tasmaga yozib yuradi. Shu yil bahorda buvisining ovozini ham bildirmay yozibdi. O‘sanda kampir supada o‘tirib, allaqayoqlarda daydib kelgan Qorako‘zga tanbeh berayotgan edi.

Qorako‘z Kimyogarlar shaharchasining eng chekkadagi «dom»iga yetib kelganda kampirning nevarasi shisha bankada sut olib kelayotgan edi. Qorako‘z unga dumini likillatib yaldoqlandi. Unga ergashib uchinchi qavatga chiqdi. Uyga kirmay qaytib tushdi. Birozdan keyin kampirning ovozi eshitila boshladni. Qorako‘zning qulog‘i ding bo‘ldi. Yaqin ikki oydan beri yo‘qotgan qadrdon kishisining ovozini eshitib yig‘layotgandek g‘ingshidi. Qorako‘z uchinchi qavatga otilib chiqdi. Eshikni timdalab vovulladi. Yana qaytib tushdi. Boloxonaga qarab vovullayverdi, vovullayverdi...

Magnitofondan kampirning ovozi kelardi.

«Qorako‘zgina, qayoqlarda sanqib yuribsan? Hech uyda o‘tirasanmiyo‘qmi? Qorning ham ochgandir? Tentakkina.

Gapimga quloq sol, nega beozor musichani quvasan?...»

Qorako‘z akillar, yerni timdalab orqasiga tuproq otardi. Shu hovlida kecha to‘y bo‘lgandi. Shirakayf yigitlar mikrofonni baland qo‘yib, hech kimni uxlatmagan edi. Uyquga to‘ymagan odamlarga tong mahali akillayotgan itning bu qilig‘i malol kelardi. Quturgan bu it qayoqdan paydo bo‘ldi, uni yo‘qotish kerak, deb o‘ylashardi.

Qorako‘z odamlarni jonidan bezor qilib, tinmay vovullar, u yoqdan bu yoqqa yugurib, akillagani akillagan edi.

– Daydi itlarni tutadiganlarni chaqirish kerak, – dedi birinchi qavat boloxonasiga choyshab yopinib chiqqan kasalmand bir kishi.

– Quturgan bu, bolalarni tishlab olmasin-da! Uni otib tashlash kerak! Hoy, kimning miltig‘i bor? – deb asabiy qichqirdi uchinchi qavatdan bittasi.

Kampirning ovozi hamon eshitilib turibdi. Qorako‘z akillashini qo‘ymaydi.

Shu payt to‘rtinchi qavatdan kimdir varanglatib o‘q uzdi.

Qorako‘z vangillab yonboshiga ag‘darildi. Orqa oyog‘ini bir-ikki silkitib jimib qoldi.

Magnitofon tasmasi hamon aylanardi.

«... Qorako‘z o‘lmagur, Majnungina, yana qayoqqa ketyapsan? Ma’shuqalaring oldigami? Kelinni qachon ko‘rsatasan? Laylingni bir olib kel, ko‘ray...»

Qorako‘z kampirning ovozi kelayotgan boloxona tomonga yuzini burgancha jonsiz yotardi.

1999-yil, yanvar

«QORAKO‘Z MAJNUN» HIKOYASI HAQIDA

San’atkor yozuvchining nigohi oddiy odamlar nazaridan farq qiladi. Insonlar tabiatidagi juda nozik qirralarni, nafaqat insonlar, balki hayvonlarga xos xususiyatlarni ham aniq va ravshan ko‘radi.

Muhtaram o‘quvchi! Agar yodingizda bo‘lsa, siz yozuvchi Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasidan parcha bilan o‘tgan sinflarda tanishgan edingiz. Parcha «Qochoq» deb nomlangan edi. O‘scha parcha siz o‘qigan ushbu «Qorako‘z majnun» hikoyasiga qaysi bir tomondan o‘xshab ketadi. Ona va bola munosabati, ular o‘rtasidagi mehr-muruvvat ildizlari. Agar shu insoniy fazilat va ildizlar qurisa, oradagi ko‘ngil yaqinligi ham barham topadi.

«Qorako‘z majnun» Said Ahmadning mustaqillik yillarida yozgan eng yaxshi hikoyalari sirasiga kiradi. Hikoya voqeasi juda murakkab emas. Keksayib qolgan Saodat aya bir necha o‘n yillardan beri harbiyga ketib, o‘sha tomonalarda uylanib, bola-chaqali bo‘lgan o‘g‘li Bo‘rixonni kutadi. Xudoning bergen kuni sahar namozida uni eslaydi.

Saodat aya tabiatida o‘zbekning chin muslima buvilariga xos bu dunyosini ham, u dunyosini ham o‘ylashdek mulo-hazakorlik mujassam. O‘g‘lining xabarini neverasi Anvardan eshitgan kampir mulzam bo‘ladi. Adib kampirdagi bu o‘zgarishni: «Birovga so‘zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o‘tirib qoldi», de gan tarzda bayon qiladi.

Kunlarning birida Saodat aya iti Qorako‘z bilan qizining uyiga qarab yo‘lga chiqadi. Ularning borish va kelish jarayoniga diqqat qarating. Yo‘l bo‘yi adib itning har bir harakati, qiliqlari, sakrashi, shamoldek yelishi, xursandlig-u xafagar-chiligi, deylik, «bir qulog‘ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik» qilishlarini, yo‘lda uchragan mushuklarni «tiraqaylatib quvishi», «daraxtlardagi musichalarga irg‘ishlab» akillashi kabi holatlarni – barcha-barchasini mahorat bilan tasvirlaydi. Kampir itini o‘z uyining bir a’zosidek e’zozlaydi. Shuning uchun ham u itiga qarab: «Abdumalik akangnikiga boramizmi, Dilbar opangnikigami? Dilbar opang domda turadi. Itdan ha-zar qiladi. Seni uyiga kiritmaydi. Endi nima qilamiz? Mayli, shunikiga boraylik. Yotib qolmaymiz. Chiqqunimcha hovlida bolalar bilan o‘ynab turasan», – deb bemalol gapiradi. Yo‘l bo‘yi Saodat kampir iti bilan shu zaylda suhbatlashib boradi va suhbatlashib iziga qaytadi.

Qaytsa, uyida uni g‘aroyib bir yangilik kutib turadi. Bo‘rixon kelibdi, ya’ni kampirning «g‘oyiblari hozir» bo‘libdi. Bu yangilik «Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g‘uborlarini» tarqatishi, «ko‘ksidan tog‘dek bosib yotgan armonlarni» ushatishi lozim edi. Biroq voqelik o‘zgacha tus oladi. Ona va bola uchrashuvi... Qiziq, bu jarayonda it negadir bezovta, u nimanidir sezadi; shu bois «notanish odam-

ga g‘ashlik qilib tinmay irillaydi». Ona bag‘rida Bo‘rixon begonaga o‘xshaydi. Chunki «undan aroq va sham yoqilgan uyning hidi kelardi». Xursandchilikdagi ona avval bunga e’tibor bermaydi. Sekin-asta o‘g‘li Bo‘rixonning ota-bobolari e’tiqod qilgan islom dinidan qaytib, boshqa dinni qabul qilgani ma’lum bo‘ladi.

Ona uchun din-diyonat, milliy-diniy qadriyatlar, el-yurt-chilik har narsadan ustun turadi. Shuning uchun Bo‘rixondan ko‘ngli soviydi, uni yo‘qlikka topshiradi; ketar mahali undan yuz o‘giradi. Endi ona sahar namozida o‘g‘lini eslamay qo‘yadi.

Hikoyada Saodat ayaning go‘zal yoshlik pallalari, Bo‘rixonning tug‘ilishi va uning boshqa yurtlarda yurib onasi ko‘nglini o‘ksitgan noxush qilmishlarining mo‘jaz tarixi bayon qilinadi.

Vafot etar mahalida ham Saodat ayaning hayot mazmunini, bu dunyoga kelish va ketish hodisasini juda tabiiy – muslimona anglagani farzandlari hamda nevaralarini chaqirib, ularga qilgan vasiyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Albatta, hikoyani o‘qish mobaynida sarlavhadagi Qorako‘z majnun nima ekanini bilib oldingiz. Ha, bu o‘sha, yozuvchi mehr bilan ta’riflagan «kichkinagina, belida belbog‘dek ikkitat – biri qora, biri jigarrang chizig‘i bor», «tumshug‘i bilan ikki ko‘zi qop-qora, bir ko‘zining tepasida to‘mtoq qoshi bor» it. Agar e’tibor bergen bo‘lsangiz, hikoyaning boshidan oxirigacha yozuvchi Qorako‘zni Saodat kampirga doimiy ham-rohlikda tasvirlaydi. Vafodor it Saodat kampir bilan deyarli bir xil kayfiyatda: xafa bo‘lsa xafa, xursand bo‘lsa xursand, kampir o‘yga cho‘msa, u ham o‘y surgandek bir nafas tinchiydi. Garchand kampirni sog‘intirgan bo‘lsa ham, Bo‘rixon itdan ko‘ra Saodat ayaga begonaroqdir.

Hikoyada Saodat kampir vafotidan so‘ng yozuvchi ham Qorako‘zning ruhiyatini siz o‘quvchilarga anglatish maqsadida o‘tkir qalami bilan uning qora ko‘zlariga ikki tomchi yoshni chizib qo‘yadi. Hikoya oxiridagi Qorako‘z majnunning o‘limi o‘quvchini mahzun qiladi.

Hikoya boshida Qur’oni karimning «Baqara» surasidan oyat epigraf sifatida keltiriladi. Bu ko‘chirmalar aynan hikoyadagi Bo‘rixon obraziga taalluqli ekanini hech qiynalmasdan ilg‘ab olish mumkin. As’hobi kahf to‘g‘risidagi hadisi sharif esa hikoyada xuddi ongli va oqil insondek tasvirlangan Qorako‘z majnunga taalluqli, albatta.

Hikoyada juda katta ma’no-mazmun jamlangan. O‘zbekona urf-odatlar qadri noloyiq bir farzandning qilmishlarini ko‘rsatish orqali ta’kidlanadi. To‘g‘risi, itning vafosi bir o‘g‘ilning ona ko‘nglini vayron qilishiga nisbatan yuksak ma’naviy martabalarda turishi hamma vaqt ulug‘vorlik kasb etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Hikoya nima uchun «Qorako‘z majnun» deb nomlangan?
2. Hikoyadagi Saodat aya obraziga tavsif bering. Saodat ayaning yoshligi qanday tasvirlangan?
3. Nima uchun Saodat kampir o‘z namozlarida o‘g‘lini tilga olmay qo‘yadi?
4. Hikoyadagi Bo‘rixon obraziga tavsif bering.
5. Bo‘rixon nima uchun o‘zbekka o‘xshamay qolgan? Uning e’tiqodida qanday bo‘shliq bor deb hisoblaysiz?
6. Saodat aya nima sababdan Bo‘rixonning go‘daklikdagi kiyimlarini olovga tashlaydi?
7. Hikoyadagi «... Kampir shu jilmaygancha ichidagi muz erimay osongina jon berdi» degan gapga e’tibor bering. Saodat ayaning nima uchun ichidagi muzi erimay vafot etdi?
8. Hikoyadagi ona obrazini boshqa asarlardagi ona obrazlari bilan solishtiring. Farqli tomonlarini aytинг.
9. Itning o‘limiga kim aybdor?
10. Hayvonot olamiga doir qanday g‘aroyib voqealar sizni hayratga solgan? Bir eslab ko‘ring.
11. Inson va hayvonlar tabiatи xususida gapiring.
12. Ushbu hikoyaga o‘xshaydigan yana qanday badiiy asarlarni bilasiz? Ularning o‘xhash va farqli jihatlarini taqqoslang.

ABDULLA ORIPOV

(1941–2016)



KO'RGAN-BILGANLARIM

(Parcha)

Mening tug'ilib o'sgan, bolaligim o'tgan joylar Qarshi (qadimgi Nasaf) shahridan besh-o'n chaqirim shimolroq tomonagi Qo'ng'irtov etaklaridir. Qishlog'imizning nomini Neko'z deydilar. Har holda u qadimiylar uzbek urug'larining bir shoxobchasi bo'lishi mumkin.

O'sha Qo'ng'irtovda bizning bolalik yillarimiz o'tgan. Bahor kelganda havoni o't-o'lanning yoqimli xushbo'y hidi qoplar, sharros yomg'ir quyganda biz tog' cho'qqisi unguridagi kichik-kichik g'orlarga bekinib olardik. O'sha yuksaklikdan shimol tarafagini yam-yashil bepoyon kengliklarni tomosha qilar edim, to'yib-to'yib nafas olar edim. Ayniqsa, bu joylarda janub kechalari, yulduzli osmon nihoyatda go'zal bo'lar edi. Tim qora osmonda qo'l cho'zsang yetgudek ulkan-ulkan novvotrang yulduzlar charaqlab turadi. Hayotimda bunday go'zal manzaralarini keyin uchrata olmadim...

Akalarim Buxoro, Toshkent oliy o'quv yurtlarida til-adabiyot fakultetlarida o'qishardi. Tabiiyki, ular ko'tarib yurgan kitoblarning aksariyati badiiy adabiyot namunalari edi. Mening allaqachon savodim chiqqan, kitoblarni sharillatib

o‘qiy olardim... Bu kitoblar orasida xalq dostonlari ham, Navoiy bobomiz-u Pushkindan tarjimalar ham, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon she’riyati va yana boshqa ko‘p ro‘mon-u qissalar bo‘lardi. Darvoqe, qish kunlarida to‘ylarga qo‘shti tumanlardan nomdor baxshilar kelib, tong otguncha doston aytishardi. Biz bolalar baxshini tinglay-tinglay bir-birimizga biqinishib uqlab ham qolar edik. Yanglishmasam, o’shanda Umur shoir degan baxshining dostonlarini ko‘p eshitganman...

Menden katta akam, hozir u qishloq xo‘jaligi sohasida professor, she’r yozib, muttasil bolalar gazetasiga jo‘natib turardi. Gazetadan kelgan javob xatini akamga bildirmay o‘qirdim. Xatda, jumladan, bunday gaplar yozilgan bo‘lardi: «Abdurazzoqjon, she’ringizning mavzusi yaxshi, lekin qofiya-turoqlari chatoq va hokazo». Keyin men qofiya-turoqni o‘rganish uchun rosa kitob titardim. Akam bo‘lsa, unga kelgan javobni o‘qiganidan bexabar, men qayta yelimlab qo‘ygan konvertni ochib o‘qir, «nima yozibdi» deb so‘rasam, jahl bilan «ishing bo‘lmasin» deb xatni burda-burda qilib yirtib tashlar yo bo‘lmasa yoqib yuborardi...

She’rlarim avval tuman, viloyat gazetalarida bosilib turgan bo‘lsa-da, birinchi marta respublika bolalar gazetasida «Qushcha» degan she’rim bosilib chiqqan. Men she’rim chiqqan kun bu gazetani «To‘qimachilar saroyi» kinoteatrining «Qizil burchagi»da ko‘rib qolganman. Bu orada qanchadan-qancha she’rlarim, to‘plamlarim chop etildi. Biroq ilk she’rim bosilib chiqqan o‘sha daqiqalar, uning quvonchi sira-sira esimdan chiqmaydi. Balki bu ham adabiyotdagι birinchi muhabbat nash’asidir.

* * *

Mening deyarli har bir she’rim hayotdagi ma’lum bir voqeа, hodisa bilan bog‘liq, jo‘nroq qilib aytganda, har birining turkisi bor. Masalan, «Ayol» degan she’rim urushdan qaytmagan amakilarimning bevalariga bag‘ishlangan. Men ularning iztiroblarini ko‘rib, kuzatib ulg‘ayganman. Yoxud «O‘zbekiston» qasidasining yozilishi-chi? Vataning butun Sovet Ittifoqi, deb uqtirib turilgan bir paytda, O‘zbekiston nima bo‘ldi ekan, degan savol yuragimning tubida paydo bo‘lib, hoyna-

hoy, «Vatanim – O‘zbekiston» deb she’r yozgan bo‘lsam, tilimizning har qadamda yerga urilayotganini ko‘rib «Ona tilimga» nomli she’rni yozganman.

O‘sha yillari mening yosh idrokimni ikki-uch savol qat-tiq qiyndardi. Birinchisi, nega mening xalqim ikkinchi sort, ikkinchisi, nega mening tilim beobro‘, nega mening Vatanim mavhum, nega tabiat ato etgan his-tuyg‘ularni ham oshkora izhor qilish mumkin emas, masalan, yaqin qarindoshing o‘lsa marsiya yozish mumkin emas, muhabbating baxtsiz bo‘lsa, nadomat chekish gunoh va hokazolar. Endi o‘ylasam, hamma xalqlar katta bir yilqi uyuri singari bitta qamchining ishorasiga bo‘ysunib yashar ekan... Men bu o‘rinda boshimdan o‘tgan turli mayda-chuyda tazyqlarni eslab o‘tirmayman. Lekin bir gapni aytmasam bo‘lmas. Mening ijodimda yolg‘izlik, mahzunlik tuyg‘ulari ko‘p uchraydi, deya dakki berishgan va buning sababini turlicha sharlashgan ham. Aslida esa mening tabiatim o‘zi shunaqaroq bo‘lsa kerak. Ikkinchidan, meni qiyanagan savollarga javob topolmay o‘rtangandirman; uchinchidan, shu hasad degan baloning hujumiga juda erta duch keldim. Bularning barchasi satrlarimda qandaydir shaklda aks etgan bo‘lsa, ajab emas. Chunonchi, hajviy ruhdagi she’rlar ham qandaydir sun’iy ravishda yaratilgan emas. Ko‘p qatori meni ham laqil-latgan, aldagan odamlarning son-sanog‘i yo‘q. Haliday ach-chiqroq she’rlarning yozilishiga, albatta, o‘shalar sabab bo‘lgan.

Men tarjimachilik bilan ham shug‘ullandim. Ushbu mashg‘ulotimning eng asosiysi Dantening «Ilohiy komediya»si deb bilaman. Tarjima jarayoni men uchun eng ulug‘ mifik bo‘ldi. Agar qog‘oz ustida eng ko‘p ter to‘kkani bo‘lsam, o‘sha tarjima ustida to‘kkanman. Ona tilimizning naqadar boy ekanligiga imon keltirgan bo‘lsam, o‘sha tarjima jarayonida imon keltirganman. Ishondimki, bizning tilimiz hech bir mubolag‘asiz jahondagi eng go‘zal va eng badavlat tillardan biridir...

Mening inson va ijodkor sifatida baxtim – O‘zbekistonimning Mustaqilligini ko‘rdim va nebaxtkim, ozod Vatanimga baholi qudrat xizmat qilib yuribman.

2000-yil 23-yanvar

«MUNOJOT»NI TINGLAB

Qani ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag‘rimni, ohang.
Nechun kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g‘am!

Eshilib, to‘lg‘anib ingranadi kuy,
Qaylardan kelmoqda bu oh-u faryod.
Kim u yig‘layotgan, Navoymikin,
Va yo may kuychisi Xayyommikin, dod!

Bas, yetar, cholg‘uchi, bas qil sozingni,
Bas, yetar, ko‘ksimga urmagil xanjar,
Nahotki dunyoda shuncha g‘am bordir...
Agar shu «Munojot» rost bo‘lsa agar.

Agar aldamasa shu sovuq simlar,
Gar shul eshitganim bo‘lmasa ro‘yo.
Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!

Eshilib, to‘lg‘anib ingranadi kuy,
Asrlar g‘amini so‘ylar «Munojot».
Kuyi shunday bo‘lsa, g‘amning o‘ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod!

«MUNOJOT»NI TINGLAB» SHE’RI HAQIDA

Siz «Munojot» kuyini hech tinglaganmisiz? «Munojot» so‘zining lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?

Bu she’rda shoirning «Munojot» kuyini tinglagandan keyingi kayfiyati juda teran ifodalangan. She’r shoirning kuya, rubob va chalg‘uvchiga murojaati uslubida yozilgan. Munojot – g‘amli kuy.

«Munojot» so‘zi arabcha bo‘lib, yordam so‘rash, yolvorish, yalinish, najot so‘rash ma’nolarini anglatadi.

Ma’lumki, «Munojot» – o‘zbek mumtoz musiqasi tarixida juda katta o‘rin tutadigan asarlardan biri. Uning ohangida g‘amginlik, inson qalbiga mahzunlik beradigan dard bor. Shu

dard tufayli lirik qahramon ko‘ziga yosh keladi, bag‘ri tilka-lanadi.

Kuy shoirga kimlarningdir yig‘isi, oh-u faryodi bo‘lib eshi-tiladi. Shunda Navoiy, Xayyom bejiz eslanmaydi. G‘am ko‘la-mi katta, u kecha yo bugun paydo bo‘lgan emas, uning yu-kini odamzod ko‘tarishi oson emas. Kuy shunchalar mahzun bo‘lsa, asil dard-u g‘amning o‘zi qanday ekan?

Kuyi shunday bo‘lsa, g‘amning o‘ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod!

Shoir shuni mulohaza qiladi. O‘quvchini fikrga chorlaydi.

Asrlardan oshib kelgan g‘am va alamlardan kuy paydo bo‘lgan. Kuy, qo‘sish va she‘r hamisha inson dardi, qalb ho-latining in’ikosi tarzida dunyoga keladi. «Munojot»ni tinglab» shulardan biriga juda yaxshi misol bo‘ladi.

YURTIM SHAMOLI

Yo‘llarda yildirim misoli yeldim,
Ellar vodisiga boshladi havas.
Elvagay Hisorning boshiga keldim,
Sen esding – taraldi siym tanda atlas,
Sen esding – ochildi yorning jamoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Men-ku, bu dunyoda bir zori visol,
Karbalo dashtida Majnun sifatman.
Shamollar ichida men ham bir shamol,
Chechaklar atridan men ham sarmastman.
Lekin sen ruhimning mangu xayoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Qancha shamollarga yuzimni burdim,
Ulardan esdilar turfa xil nafas.
Ularda goh qayg‘u, goh shodlik ko‘rdim,
To‘xtamay o‘tdilar bari ham birpas.
Faqat qayg‘ulardan sen o‘zing xoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Shamollar esgandir ushbu dunyoda,
Shamollar goh quyun, gohida dovul.
Ular goh oshkora, goho ro'yoda
Qancha bo'stonlarni sovurgan butkul.
Lekin sen bo'limgan bog'lar zavoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Esgin-ey bog'larning jamoli kulsin,
Moviylar nafas bilan to'lsin etaklar.
Uchqur qo'shiqlarga bu olam to'lsin,
Sha'ningga shoirlar aytsin ertaklar.
Esgin, Vatanimning taralsin boli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Meni chorlayotir oliy bir jamol,
Bilmasman, oh, unga qachon yeturman.
Bu gulshan vodiyda men ham bir shamol,
Shamol kabi keldim, shunday keturman.
Lekin Abdullaning boqiy kamoli –
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

«YURTIM SHAMOLI» SHE'RI HAQIDA

Badiiy ijod namunalarini o'qigan o'quvchilar yaxshi bila-diki, tabiat shoirlarga ilhom beradi. Shuning uchun tabiatning quyosh, oy, yulduz, yomg'ir, qor, shamol kabi unsur va hodisalari she'riy matnlar tarkibida uchraydi. Abdulla Oripov she'ridagi asosiy obraz – bu shamol. Shamolning esishi shoirning lirik qahramoniga o'zgacha ruhiy kayfiyat bag'ishlaydi. Shamoldan fikr va his-tuyg'ular oqimi maydonga keladi. Shoир o'zini turli makon va holatlarda kuzatadi.

Qancha shamollarga yuzimni burdim,
Ulardan esdilar turfa xil nafas.

Ushbu misralarda shamolni ramz sifatida ijtimoiy talqin qilish o'rini bo'ladi. Turli holat, vaziyat, ko'rsatma, o'zgarish, har xil qayg'u-g'am va shodlik – barcha-barchasi «shamol» metaforasi

vositasida ifoda qilinadi. Shamol goh quyun, goh dovuldek shiddatli, ba'zida oshkora, ba'zan yashirin esadi. Shamol tufayli bog'lar barbod bo'lishi, bo'stonlar zavolga yuz tutishi mumkin. Hatto inson umr yo'llarida noo'rin paydo bo'lgan «shamol» – tuhmat yo bo'hton – uning hayotini izdan chiqaradi. Shoir shamolga har band oxirida: «O, yurtim shamoli, yurtim shamoli», – deb xitob qilar ekan, fikr yo'nalishini «qayg'ulardan xoli» saodat va bunyodkorlik yo'llariga boshlaydi.

Shoir shamol sha'niga bag'ishlagan ushbu she'rida juda muhim bir falsafani ilgari suradi. Insonning dunyoga kelishi va ketishini:

Bu gulshan vodiya men ham bir shamol,
Shamol kabi keldim, shunday keturnan, –

deb shamol obrazi vositasida ifodalaydi. Hayot – gulshan vodiylari; inson – shamol. Bu gulshanga inson shamolday keladi va shunday tez ketadi. Ammo shoir falsafasining o'z ma'naviy-ruhiy borlig'iga taalluqli bo'lgan muhim qirrasi bor. Bu «Abdullaning boqiy kamoli» birikmasida mujassam, ya'ni yurt shamollari esib turar ekan, shoir o'z ma'naviy olamining barkamol bo'lishiga umid qiladi.

Abdulla Oripovning ijodiy merosida asrlardan asrlarga oshib o'tadigan va o'quvchilar qalbini zavq-shavqqa to'ldiradigan she'rlar ko'p. «Yurtim shamoli» ham shular jumlasiga kiradi.

BIRINCHI MUHABBATIM

Kecha oqshom falakda oy bo'zarib botganda,
Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda,
Ruhimda bir ma'yuslik, sokinlik uyg'otganda,
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim.
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.

O'tdi yoshlik zavq bilan, gohi to'polon bilan,
Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan,
Ayri ham tushdim ba'zan qalb bilan, imon bilan,

Lekin seni yo‘qotdim, birinchi muhabbatim,
Mangu g‘aflatda qotdim, birinchi muhabbatim.

Dunyo degan shundayin anglab bo‘lmas sir ekan,
Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan.
Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan...
Nechun bilmovdim avval, birinchi muhabbatim,
Parvo qilmovdim avval, birinchi muhabbatim.

Holbuki, orzulardan judo ham bo‘lganim yo‘q,
Yulduzday kulganim yo‘q, oy kabi to‘lganim yo‘q.
Erta xazon gul kabi sarg‘ayib so‘lganim yo‘q,
Seni eslab yig‘layman, birinchi muhabbatim,
Eslab bag‘rim tig‘layman, birinchi muhabbatim.

Yo‘lin yo‘qotsa odam – muhabbatga suyangay,
G‘ussaga botsa odam – muhabbatga suyangay.
Chorasiz qotsa odam – muhabbatga suyangay,
Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim.
Faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.

Nido bergil, qaydasan, sharpangga quloq tutdim,
Sirli tushlar ko‘rib men bor dunyoni unutdim.
Tongda turib nomingga ushbu she’rimni bitdim,
Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yolg‘iz Ollohim mening, birinchi muhabbatim.

«BIRINCHI MUHABBATIM» SHE’RI HAQIDA

Hazrat Alisher Navoiyning «So‘zki, ma’nosida ishq o‘ti nishoni bo‘lmaq‘ay, Bir taharruksiz badan onglaki, joni bo‘lmaq‘ay», ya’ni agar so‘zda ishq to‘g‘risida gap bo‘lmas ekan, uni jonsiz jism hisoblagin, degan mazmunda hikmatli bayti bor.

Abdulla Oripovning «Birinchi muhabbatim» she’ri inson qalbidagi bebahो ma’naviy javhar bo‘lgan hisni bayon qiladi. Unda «ishq o‘ti»dan nishon borki, she’r shoirning badiiy jihat-dan eng pishiq, ta’sirli, jonli va tirik asarlari jumlasiga kiradi.

She’rda visolga erishmagan oshiq nolasi, g‘aflatda qolib muhabbat tuyg‘usiga beparvo bo‘lgan lirik qahramonning

ichki dard va kechinmalari o‘z aksini topgan. Bu kayfiyat xayolga tolish, eslash uslubida ifodalangan. Osmondag'i oy, charaqlab chiqqan yulduz ma'yus tortgan lirik qahramonga birinchi muhabbatini eslatadi. Eng qadrli narsalarini odam g‘aflatda qolgan pallada yo‘qotadi. Yo‘qotish esa pushaymonlikka olib keladi. Bu she’rda lirik qahramonning afsus-nadomati, pushaymonligi ham yaqqol sezilib turadi; u: «Nechun bilmov-dim avval», – deb yozg‘iradi. O‘z vaqtida beparvo qaralgan voqelikni qayta idrok etishda har qanday inson o‘zi va bosh-qalar uchun juda muhim hayotiy xulosalar chiqarishi mumkin.

O‘tdi yoshlik zavq bilan, gohi to‘polon bilan,
Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan.

She’riy matn tarkibidagi shu ikki misraning birinchisida yoshlikka xos ikki sifat keltirilgan: «zavq» va «to‘polon». Bu tuyg‘uni anglash sizga nisbatan oson. Biroq yaxshi va yomon-larga duch kelish – bu uzoq hayotiy tajribaga ega odamlar qismati. She’riy banddan murod g‘aflatda qolgan odamning o‘z muhabbatini eslashidir.

She’rda dunyoning sirliligi, «tuynuksiz qasr»ligi, muhabbat tuyg‘usi inson umriga suyanch, yo‘lini yoritadigan chiroq ekani bayon qilinadi. Bularning barchasi odamning peshonasiga biltigani va hayotdan olgan saboqlaridir. She’rning beshinchi bandida «muhabbatga suyanish»ning uch bora takroridan keyin kelgan «Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim» misrasidagi oh-u faryoddan, qalb nolasidan o‘quvchining butun vujudi larzaga keladi. She’r so‘ngida shoир armonli muhabbatining «dildagi ohi» ekanini ochiq yozadi. «Yolg‘iz Ollohim mening, birinchi muhabbatim» degan oxirgi misrada she’rning yana bir fazilatlari qirrasi ochiladi. Ollohga muhabbat tushunchasining ifodasi shoирni o‘z salaflari, ya’ni mumtoz o‘zbek shoirlarining estetik olami bilan bog‘lashga imkon beradi.

Umuman olganda, Abdulla Oripovning ushbu betakror «Birinchi muhabbatim» she’ri odamga «hamisha bir hisga asir»likni eslatib turadi; bunday go‘zal his-tuyg‘uga nisbatan hech kim aslo beparvo bo‘la olmaydi.

QO'RIQXONA

Asrayoutiz o'simlik xillarin tayin,
Asrayoutiz hayvonlar kamyob zotini.
Hatto atroflarin o'rabi atayin
Qo'riqxona deymiz so'ngra otini.

Sayoq ovchilarga u yon yo'l bo'lsin,
Jarima solamiz, qamaymiz hatto.
To u jonzotlarni tinchiga qo'yisin,
Qirilib bitmasin tirik dunyo to.

Munis mavjudotga mehr-u shafqat bu,
Bu inson qalbida balqqan hamiyat.
To yashar qaydadir bu yanglig' tuyg'u,
Har nechuk qirilib ketmas tabiat.

Olamda ko'p narsa kamyob bir qadar,
Ne-ne tuyg'ular ham kamyobdir, alhol.
Men derdim sof qalbni uchratgan safar,
Darhol o'rabi atrofin, darhol.

Insof yo'qolmasin, o'rang mustahkam,
To uni yuzsizlik etmasin xarob.
Ezgulikni asrang, olamda u ham
Tojdar turna kabi bo'lmasin kamyob.

Oqibatni asrang, oqibat go'yo
Ayiqday qaydadir topmasin zavol.
Hayoni asrangiz, kuymasin hayo
Otashga duch kelgan polapon misol.

Imonni asrangiz, u doim tanho,
Undadir mujassam inson matlabi.
Avlodlar axtarib yurmasinlar to,
Uni allaqanday Qor odam kabi.

Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,
Yagona zaminni asragansimon.
Bobolardan qolgan noyob bu tortiq
Toki avlodlarga yetolsin omon.

Ezgu, latif hislar bo‘lmasin tahqir,
Bulbulni boyqushga topshirmang zinhor.
Xudbin va dilozor kimsaning, axir,
Og‘zi qon yirtqichdan qanday farqi bor?!

To‘qayga o‘t ketsa yongay bus-butun,
Adolat borliqqa yolg‘iz onadir.
Dunyo ham, insonlar qalbi ham bugun
Yovuzlikdan zada Qo‘riqxonadir.

«QO‘RIQXONA» SHE’RI HAQIDA

Abdulla Oripov she’rlarida insoniy fazilatlarni ulug‘laydi; inson tabiatini bilan tabiat hodisalarini qiylaslab xulosalar chiqaradi. Odatda, eng noyob hayvon, qush va o‘simgilik turlarining yo‘qolib ketmasligi uchun maxsus qo‘riqxonalar tashkil etiladi. Bunday maskanlarning qo‘riqchi egalari bo‘ladi. Ular qo‘riqxona jonivorlarini yovuz odamlardan himoya qiladi.

Shoirning maqsadi qo‘riqxona to‘g‘risida xabar berish emas. U she’riga har kimga tanish va ma’lum bo‘lgan «Qo‘riqxona» degan sarlavhani qo‘yib, uning qisqacha ta’rifini keltirgach, boshqa yana ham muhim narsa – insoniy qadriyatlar va fazilatlar haqida so‘z ochadi. Ulardan birinchisi sof qalb. Pok niyatli, toza yurakli odamni topish hamma zamonalarda qiyin bo‘lgan. Shoir sof qalbli insonni albatta asrash kerakligiga urg‘u beradi. Insonlararo munosabatlar uchun insof ham juda zarur fazilatdir. «Insof yo‘qolmasin» – niyat shunday olivjanob. Ezgulik va oqibatni ham asrash lozim.

Imonni asrangiz, u doim tanho,
Undadir mujassam inson matlabi.
Avlodlar axtarib yurmasinlar to,
Uni allaqanday Qor odam kabi.

Imon haqida yozilgan ushbu bandga alohida diqqat qaratish kerak. Chunki imon insoniy fazilatlarning barchasini o‘zida mujassam etadi. Allohgaga, farishtalarga, ilohiy kitoblariga, payg‘ambarlarga, qiyomat kuniga, o‘lgandan keyin qayta tirilishga ishonchdek juda ulkan haqiqat «imon» tushunchasi

bilan ifodalanadi. Imonni asrash – bu dunyo va oxiratni asrash degan ma’noni anglatadi. Shuningdek, shoir vijdon, «ezgu, latif hislar» ham himoyaga muhtojligiga urg‘u beradi.

Yovuz qarashlar, yovuz kimsalar jamiyatni yemiradi. Xotirjam hayot uchun esaadolat zarur. She’r bamisoli dunyoni ham, inson qalbini ham yovuzlikdan asrashga oid ogohnomadek taassurot qoldiradi. «Qo’riqxona» she’rini o’qishda moddiy dunyo bilan ma’naviy tushunchalar yonma-yon tavsiflanadi. Hayotiy tajribalardan kelib chiqadigan bunday falsafiy mushohadalar Abdulla Oripov she’riyatining o’ziga xos qirralaridan birini tashkil etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Shoirning o’zi haqida yozgan «Ko’rgan-bilganlarim» nomli avtobiografik maqolasining to’liq matnini topib o‘qing?
2. Shoir «Munojot»ni tinglab» she’rida nega «Sen beshik emassan, dorsan, tabiat, Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!» xulosasiga keladi. Kuy lirik qahramonning qaysi tuyg‘ulariga qattiq ta’sir qildi deb o‘ylaysiz?
3. «Yurtim shamoli» she’rida «Meni chorlayotir oliv bir jamol, Bilmasman, oh, unga qachon yeturman» misralari orqali shoir nimaga ishora qilmoqda.
4. «Yurtim shamoli» she’rining asosiy badiiy xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Inson qachon muhabbatga suyanadi? Nega?
6. Abdulla Oripovning «Birinchi muhabbatim» she’ridagi qaysi misralar dilingizga yaqin?
7. Shoir «qo’riqxona» deganda nimani nazarda tutadi?
8. Globallashgan zamonda, aslida, nimalarni qo’riqlay olishimiz kerak deb hisoblaysiz. So‘zingizni aniq dalillar bilan asoslang.
9. Olam qachon go‘zal bo‘ladi? Ushbu savolga Abdulla Oripovning barcha she’rlarini umumlashtirgan holda munosabatingizni bildiring.
10. Abdulla Oripov she’rlari bilan aytilgan qo’shiqlarni tinglab, «Qo’shiq sehri» mavzusida ijodiy matn yarating.

O'TKIR HOSHIMOV (1941–2013)



MASHAQQATLI SAFAR

Kitobxon bilan ikki og'iz suhbat

«Balaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi...» «Dunyoning ishlari» kitobining bir bobi shunday so'zlar bilan boshlanadi. Chindan ham bu asar – deyarli hasbi-hol qissa. Faqat undagi ba'zi odamlarning ismi o'zgargan. Aslida, har qanday badiiy asarda ham ma'lum ma'noda muallif tarjimayi holining bir bo'lagi bo'ladi. Sababi, yozuvchi o'z asariga qalbini bag'ishlaydi.

Menga qolsa, badiiy ijodda qandaydir ilohiy jarayon bor, degan bo'lur edim. Xudo ko'ngliga solmaguncha haqiqiy ijodkor qo'liga qalam olmaydi! Haqiqiy asar shunchaki yozi-lavermaydi, haqiqiy asar farzand kabi tug'iladi! «Dunyoning ishlari» va «Qalbingga quloq sol», «Nur borki, soya bor» va «Bahor qaytmaydi», «Ikki eshik orasi» va «Tushda kechgan umrlar» asarlari, qator hikoya va sahna asarlari ham shu tarzda tug'ilgan...

Har kim o'z ajdodlari bilan faxrlanishga haqli. Mening ota-bobolarim ham o'z zamonining mashhur kishilari bo'lishgan. Jumladan, bobokalonim – bobomning otalari Abulqosim-

xon eshon Turkiston tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan ulug‘ shaxslardan biri bo‘lganlar.

Toshkentda, «Xalqlar do‘sligi» saroyi (hozirgi «Istiqlol» san‘at saroyi) yaqinida qadimiy obida – madrasa bor. Bu dargohda o‘tgan asr boshlarida Abdulla Qodiriy, Munavvarqori, G‘ulom Zafariy va boshqa ulug‘ zotlar ta’lim olgan.

Obida bir yarim asr avval Abulqosimxon eshon tomonidan bunyod etilgan. Bu zukko inson o‘zbek tilidan tashqari arab, fors, rus va boshqa tillarni mukammal bilgan.


Otam Atulloxon Hoshimov tazyiqlardan bezor bo‘lib qishloqqa – Do‘mbirobodga ko‘chib kelgan, xarobagina kulbada tirikchilik qila boshlagan. Biroq bu yerda ham tazyiqlar to‘xtamagan. Dehqonchilik qilgan. To‘qimachilik kombinatida, so‘ng shu kombinatga qarashli bolalar oromgohida ishlagan.

... Eski kitoblarni ham, zamонавијада adabiyot va gazetalarни ham o‘qib borar, o‘ta haqparast, nohaqliknı ko‘rsa yonib ketar edi.


Onam – Hakima Hoshimova esa otamning aksicha, ni hoyatda yuvosh, juda mehribon edi. Ko‘chada biron bola yig‘lab o‘tigan bo‘lsa, albatta, tepasiga borib boshini silar, biron sabab bilan biz bolalarni koyisa, o‘zi ham yig‘lab yuborar, o‘sha zahoti ko‘nglimizni olishga harakat qilardi. Oyim qancha sodda bo‘lsalar, shuncha donishmand ham edilar! Iloji boricha hammaga yaxshilik qilishni xohlar, o‘ta oqko‘ngil, gina-kuduratni bilmaydigan ayol edi («Dunyoning ishlari»da qanday tasvirlangan bo‘lsa, onam xuddi shunday edi).

Men 1941-yil 5-avgustda Toshkent biqinidagi Do‘mbirobod qishlog‘ida tug‘ilganman. Qishloqda, tag‘in, poytaxt biqinidagi qishloqda tug‘ilganim taqdирning hadyasi bo‘lsa ajab emas. Negaki ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli bo‘lishi kerak. Oyim bir gapni ko‘p aytardi: «Sen tug‘ilganingda qiyomat qoyim bo‘lgan edi. O‘ris xotinlar urush boshlanibdi, deb yig‘lagan, men – ammamning buzog‘i hayron bo‘lgandim. Urush allaqayoqda bo‘layotibdi-yu, bular nega dod soladi, degandim. Keyin aqlim yetdi».

«Ikki eshik orasi» romanida Qora amma ham urush haqidagi xabarni shunday qabul qiladi. O‘g‘li Kimsan front-



Ikki eshik orası



O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanı (2013)
va «Dunyoning ishlari» qissasi (2016) muqovalari

ga ketmoqchi bo‘lganidan keyingina vahimaga tushib qoladi. Ba’zi do’stlarim roman qo‘lyozmasining muhokamasida «urush boshlangani haqidagi xabarni bu qadar soddalashtirib tasvirlamaslik kerak edi», degan mulohazani aytdi. Biroq men uchun bu hodisa kinolarda tasvirlanganidan ko‘ra, onam ayтиб bergen hikoyada hayotga yaqinroq ko‘rindi.

Oilamizda bir qiz, to‘rt o‘g‘il edik. Men uchinchi o‘g‘il edim (otamning birinchi oilasidan yana bir opam borligi, onam ikkalamiz ko‘p ovorayi sarsonliklardan keyin to‘ng‘ich opamni ham topib olgammiz. «Dunyoning ishlari»da yozilgan).

Otamdan qattiq hayiqar edik. Otam biron marta ham biron-tamizni chertgan emas. Otani qattiq hurmat qilishni onam o‘rgatgan: «Hozir adang keladila, uyni supurib qo‘y», «Adangi jahllari yomon, tinch o‘tiringlar», «Adangi ketmoniga tegma», «Adangi soatiga qo‘l tegizma...»

Bilmadim, balki hozirgi oilalarga bu holat «feodallik» bo‘lib tuyular. Ammo bizning oilamizda otaga sig‘inish farzandlarga ziyon keltirganini eslay olmayman.

Birinchi kitobim 3-kursda o‘qiyotganimda chiqqan. Bu «Po‘lat chavandoz» degan ocherklar to‘plami edi. Birinchi badiiy asarim – «To‘rt maktub» hikoyasi esa 1963-yil 17-aprel kuni «Toshkent haqiqati» gazetasida bosilgan (shundan beri har yil 17-aprelni o‘zimcha nishonlayman). Shu hikoya asosida «Cho‘l havosi» degan qissa yozildi. «Sharq yulduzi»-da bosildi (To‘rtinchı kursda o‘qirdim). Qissaga atoqli adib Abdulla Qahhor nihoyatda xayrixohlik bilan xat yozganidan keyingina o‘zimga ishonch paydo bo‘ldi. Mendan yozuvchi chiqishi mumkin ekan, degan xayolga bordim.

Toshkent zilzilasidan keyin – 1966-yildan 1982-yilgacha «Toshkent oqshomi» gazetasida bo‘lim mudiri bo‘lib ishladim. Bu davr men uchun eng hayajonli, eng sermahsul damlar bo‘ldi. «Bahor qaytmaydi», «Qalbingga qulq sol», «Kvazarlar» qissalari, «Nur borki, soya bor» romani, «Inson sadoqati», «Vijdon dorisi», «To‘ylar muborak» sahna asarlari, ko‘plab hikoya va hajviyalar, publisistik maqolalar shu yillarda yozilgan.

Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini onamga taqdim etardim, «birinchi ustozim Oyimga» deb yozib berardim.

1980-yili onamning to‘satdan vafot etishi menga juda og‘ir ta’sir qildi. Farzandlik burchimni qay darajada ado etdim, degan o‘kinchli xayol vujudimni larzaga soldi. «Dunyoning ishlari» kitobi shu iztirobli tuyg‘ular tufayli tug‘ildi.

Uch yil davomida G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida ishladim. «Ikki eshik orasi» romani, qator hikoyalari, qissalar shu yillarda dunyoga keldi.

1985-yildan 1995-yilgacha «Sharq yulduzi» jurnalida bosh muharrir bo‘lib ishladim. 1995-yildan 2005-yilgacha Oliy Majlisda ishladim. Qonun yaratish ham ijod. Murakkab ijod.

Yaratganga shukr. Qirq besh yil davomida 60 ga yaqin kitobim turli tillarda ikki milliondan ko‘proq nusxada nashr etildi. Ular orasida kitobxon uzoq vaqt eslab yuradigan asarlar bo‘lsa, o‘quvchi qaysidir satrlarni o‘qiganda ko‘ziga yosh kelsa, qayerdadir mazza qilib kulta, hayajonga tushsa, men uchun bundan ortiq quvonch yo‘q.

Inson haqida yozishga, xalqimizning sodda-donishmandligi, sabr-qanoatini tasvirlashga urindim.

Yaratganga shukr, oilam ijod mashaqqatini chuqur anglaydi. Umr yo‘ldoshim – pedagog. Ikki farzandim, besh nabiram bor.

Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o‘qigan kitobxon, hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o‘qib bo‘lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to‘lg‘onib chiqsa. Oradan yillar o‘tib asarni qaytadan qo‘liga olganda tag‘in hayajonlansa... Eng katta orzum – shu.

IKKI ESHIK ORASI

(*Romandan parcha*)

I k k i n c h i b o b

«QORA AMMA» HIKOYASI

Bechora chora istar

Peshindan keyin nuqlu o‘ng qovog‘im uchaverdi. Qurib ketsin! Shu ko‘zim uchsa xafa bo‘lamon. O‘zimni chalg‘itish uchun tappi qildim, hovlini chalib chiqqan bo‘ldim. Dilim o‘lgur hech yorishmaydi. Dardimni aytay desam, Robiya ham ishda. Qizim bechoragayam qiyin. Erta ketadi, kech keladi. Qiz bola boshi bilan traktor haydaydi. Bashoratxon o‘zi yaxshi juvon-ku, jahli tezroq. Achchig‘i chiqsa, eriniyam nari oborib, beri opkeladi. Nima qilsayam brigad-da! Qolaversa, Oqsoqoldek odam yarim kechagacha daladan chiqmaganidan keyin o‘zini u yoqqa-bu yoqqa tashlashga uyaladi-da kishi...

Xayolim bo‘linarmikin deb, tomorqadagi jo‘xorisordan si-girga o‘t yulayotganimda ertalab Muzaffar «jo‘xori kabob yeymen» degani esimga tushdi. Ukam ham juda kajbahs-da! Bolani tashlab keta qol, desam ko‘nmaganini ko‘rmaysizmi? Yosh bola kun bo‘yi dalama-dala yuradi. Og‘ziga bir qoshiq obiyovg‘on tutadigan onasi bo‘lmasa! Peshinda obshi qozondan sho‘rva ichadi – shu!

Shomurodning fe’li cholimga o‘xshaydi. Cholim ham o‘z kindigini o‘zi kesgan xilidan edi. Kolxoz bo‘larmish degan gap chiqqanida Orifxo‘ja boyning odamlari kechasi uyimizga bostirib kirgan. «Ichagingni boshingga salsa qilib ketamiz», – deb qo‘rqiitgan. Cholimning jussasi kichkina bo‘lsayam, yuragi otning kallasidek edi. «Bir boshga bir o‘lim, qo‘lingdan kelganini qil», – deb turavergan.

Bola narsa, sevina qolsin deb jo‘xorining sutlirog‘idan tanlab, qo‘rga ko‘mdim. Robiyaning kelishini kutishgayam sabrim chidamay yo‘lga tushdim.

Alvasti ko‘prikdan o‘tayotganimda yuragim yana hovliqid. O‘lsin! Xosiyatsiz joy! Urush paytida Robiyaga ham shu ko‘prikda ajina daf qilgan...

Yong‘oqzordan o‘tib ketayotsam, oldimdan Olimjon chiqib qoldi. Komil tabibning o‘g‘li. Baraka topgur, xo‘pam yaxshi bola. Urush paytida Robiyaning traktoriga suv tashib yurardi. Hozir Toshkentdagи katta o‘qishda o‘qiydi. Oqsoqol bilan cholim poyiz tagida qolganida qandoq chirqillagan edi, bola bechora... Umri uzoq ekan, Oqsoqol tirik qoldi. Ammo cholim...

– Shomurod akamnikiga ketyapsizmi? – dedi salom berib. – Tezroq bora qoling.

Yuragim bir qalqib tushdi.

– Tinchlikmi?

– Tinchlik. Xavotir olmang... – dedi-yu ketaverdi.

Xavotir olmaganim qursin. Eshikdan kirib kelsam, bu hangoma. Qovog‘im bekorga uchmagan ekan-da...

Muzaffar bechora qattiq qo‘rqan ekan. Dadasidan bir qarich jilmaydigan bola etagimga osilib yalindi:

– Ammajon, ketmang, sizminan yotaman!

Qiziq, soat necha bo‘ldiykin? Oy peshtoqqa kelib qopti.

Chigirtka chirillarydi... Hammayoq suv quygandek jim-jit. Bolani bag‘rimga bosib o‘tiribman. Ichkarida Shomurod xo‘rsinadi. O‘qtin-o‘qtin: «Baribir o‘ldiraman!» deb alahlaydi. Muzaffar, qo‘li og‘riyotgan bo‘lsa kerak, ingraydi. Uyqusida cho‘chib pinjimga kiradi. Ana, yana seskanib tushdi. Ko‘zini ochib, atrofga olazarak qaradi.

– Qo‘rqib ketyapman...

– Qo‘rqma, bolam, men borman-ku. Uxla...

Juvongina o‘lgur noinsof! Bolaning uvoli tutgur, imonsiz! Eringni birovdan kam joyi yo‘q edi-ku! Cho‘loq bo‘lsa devor oshib o‘g‘rilik qilib bo‘lmaqandir! To‘rt yil qon kechib kel-di-ku! Eri urushda o‘lgan qanchadan qancha guldai juvonlar yuribdi sabr qilib. Aqalli bolangni o‘ylasang bo‘lmasmidi, imonfurush!

Oy havolab ketdi. Ayvon qop-qorong‘i bo‘lib qoldi. Uyqu qani? Xayol ming ko‘chaga olib kiradi. Kimsanim... Oltitasini yerga qo‘yib, bittagina tutgan bolamniyam Xudo ko‘p ko‘rdi.

Dukur-dukur ot keldi,
Ot boshida xat keldi.
Xatini o‘qib ko‘rsam,
Voy-voy bilan dod keldi...

– Qayoqdasan, bolam? Qaysi yurtlarda yuribsan?! Joning sog‘mi o‘zi? Mayli, oyoq-ko‘lsiz bo‘lsang ham, birov zambilda ko‘tarib kelsayam jon derdim! Kaftimda olib yurardim! Otang yo‘lingga termula-termula o‘tdi. Endi aqalli meni o‘z qo‘ling bilan tuproqqa qo‘ysang-chi! Yo‘q, yig‘layotganim yo‘q, bolam! Yig‘lamayman. Mabodo yig‘lasam ham... Yo‘q, o‘g‘lim. Men yig‘lasam, sen bezovta bo‘lasan. Robiya kuyadi. Qizimning ikki ko‘zi haliyam eshikda. Kutyapti. Seni kutyapti. Boshqa qiz bo‘lsa, etagini qoqardi-yu, bor-e deb bittasiga tegardi-ketardi. Ne-ne joylardan sovchi chiqmadi. Tuqqandan-mi-tug‘ishgandanmi deb shuni aytadi-da! Bir qiz bo‘lsa shunchalik bo‘lar.

– Shunaqa deyman-u...

– Voy, o‘lmasam! Yana o‘sha shum xayolga boryapmani? Kimsanim, jon bolam, kechir gunohkor onangni! Bilaman, Xudo ko‘rsatmasin, shahid ketgan bo‘lsang, arvoching chirqillaydi. Tirik bo‘lsang, ertaga kelib yoqamdan olasan. «Nima qilib qo‘yding, shum kampir, senam onamisan, imonsiz», deysan! Nima desang haqqing bor. Qaysi ona o‘z yuragini o‘zi sug‘urib tuproqqa tashlaydi? Qaysi ona o‘z bolasi-ga o‘zi xiyonat qiladi?

– Qandoq qilay, jonim bolam? O‘zing o‘yla, axir. Robiyam, sening Robiyang, qovjiragan guldek ko‘zimning oldida so‘lib boryapti. Yoshi o‘ttizga qarab ketyapti, o‘g‘lim! Sovchilar «qari qiz» deb qadamini uzib qo‘yanigayam ancha bo‘ldi.

– Onangning gunohidan o‘t, Kimsan! Bu niyat xayolimga kelganiga ancha bo‘lgandi. Ammo birovga aytish u yoqda tursin, o‘ylashgayam qo‘rqib yuruvdim. Bugun tog‘angnikida-gi mana bu «tomosha»ni ko‘rib... Aqalli shu norasida go‘dak hurmati, onangdan o‘pkalama, bolajonim!

Xo‘roz qichqirdi. Salqin tushdi. Tong bo‘zarib, yong‘oqning uchidagi shoxlar silkina boshladi. Men bo‘lsam Muzaffarni quchoqlagancha muk tushib, haliyam Kimsanim bilan gaplashyapman. Bilmadim, savob ish qilyapmanmi, gunohmi? Bilmadim...

* * *

Ertalab Shomurodni ishga jo‘natib Muzaffarni o‘zim bilan uygaga olib kelgandim. Bola-da! Qo‘lining og‘rig‘ini unutib chopqillab ketdi. Kechasi bezovta bo‘lib chiqqani uchun vaqtlikkina yotib qoldi. Robiya ishdan keladigan payt yaqinlashgan sayin ko‘nglim alg‘ov-dalg‘ov bo‘la boshladi. Mayli, Shomurod-ku, qaysarmi, balomi, bir amallab ko‘ndiraman. Lekin Robiyaga qay yuz bilan aytaman bu gapni! Nima deyman? Tilginam tanglayimga yopishsa bo‘lmaydimi?

... Robiya kech keldi. Ayvon burchagida uxlab yotgan Muzaffarni ko‘rib suyundi.

– Iye, yana nima qildi? – dedi bolaning taxtakachlangan qo‘liga ko‘zi tushib.

– Yiqilib, qo‘li sinibdi.

– Voy, bechora! – U Muzaffarning peshonasidan o‘payotganida yuragim qalqib ketdi.

Keyin ozroq kir chaydi. Yarim kecha bo‘lib ketganiga qaramay, boshini yuvdi. Yettinchi lampani xontaxtaga qo‘yib ko‘k qiyiqchaga gul bosa boshladi. Pilik chirsillaydi, hovli-da qurbaqalar qurillaydi. Robiya qizil ipak qatini chaqqon-chaqqon tonib kashta tikyapti. Uzun kipriklari oppoq yuziga to‘kilib turibdi.

– Robiya! – dedim sekin. – Bola sho'rlik qo'lini yomon sindiribdi. Chumchuq olaman deb sadaga chiqqan ekan.

U achinib Muzaffar tomonga qaradi.

– Tabib ko'rdimi?

– Ha, Komil tabib taxtakachlab qo'yibdi.

– Joni og'rigandir.

– Bo'lmasa-chi!

Yana jimlik cho'kdi. Robiya afsuslanib bosh chayqadi-da, ishini qilaverdi.

– Robiya... – dedim yana. – Shu bolagayam jabr bo'lib ketdi. Ona bo'lmanidan keyin shu ekan-da!

U qiyiqchani tizzasiga yoygancha boshini ko'tardi.

– Avvalam aytuvdim-ku, oyijon. Adamga tushuntiring, Muzaffar biznikida turaversin.

«Adamga tushuntiring!» Yuragim uvishib, boshim xam bo'lib qoldi. Men noinsof, men yuzi qaro qaysi yuz bilan?.. Kimsanim, jon bolam, kechir gunohkor onangni!

– Robiya, – dedim yig'lagudek iljayib, – sovchi keldi!

U menga qaramay kulimsiradi.

– Muborak bo'lsin!

Doim shunaqa maynavozchilik qiladi. Yig'lab-siqtasa, «Uyingizga sig'may qoldimmi», – deb shovqin solsayam go'rga edi. Kuladi.

– Unaqa dema, qizim! – Ovozim titrab ketdi. – Kimsan akang tirik bo'lsa, shu kungacha daragi chiqardi.

U ishini xontaxta ustiga qo'yib ko'zimga ta'nali qaradi. Chirolyi ko'zlarida «shu gapni siz aytyapsizmi?» degan ma'no bor edi.

– Men-chi, oyijon? – dedi xotirjam ohangda.

Tushunmadim.

– Nima sen? Senga nima bo'pti, qizim? Hali o'n guling-dan...

Robiya «voy, sodda oyim-a» degandek kulimsiradi.

– Men borman-ku, – dedi sekin. – Men tirikman-ku! Bundan chiqdi Kimsan akam ham tiriklar. – U gap tamom degandek yana qatim tortishga tushdi.

Damim ichimga tushib ketdi.

– Sovchi kim deb so‘ramaysanam, qizim, – dedim ichim-dan toshib kelayotgan yig‘ini arang bosib.

Robiya ensasi qotib kuldi.

– Kavushini ayamasa kelaversin... Sizga nima?

– O‘shasovchi – menman!

Bu gap qandoq og‘zimdan chiqib ketganini bilmayman, Robiyaning qo‘lidagi qiyiqcha sirg‘alib yerga tushdi. Rangi o‘chib, yuzimga hayratlanib qaradi.

– A?!

– Shomurodga...

– Nima?! – U chayon chaqqandek sakrab o‘rnidan turdi.

Etagining shamoli tegib lampa o‘chib qoldi.

Jonholatda oyog‘iga yopishib, changallab oldim.

Yo‘q, men yig‘lamayman deb ahd qilgan edim. Kimsa-nimning mozorini topmagunimcha, go‘rini o‘z ko‘zim bilan ko‘rib, tuprog‘ini o‘z qo‘lim bilan quchoqlamaguncha bir tom-chi ham yosh to‘kmayman deb qo‘ygandim. Hozir bolamning azasiga yig‘ib yurgan o‘sha yoshlar birdan ko‘zimdan tirqirab chiqdi.

– Bolam! Jon bolam, – dedim iltijo qilib. – Kimsanni sen kutsang, men kutmayapmanmi! O‘z bolamning ko‘ziga o‘zim cho‘p solgandan ko‘ra, o‘lganim yaxshimasmi! Nima qilay, jon qizim, ilojim qancha!

– Axir... axir... – U madori quriganday yonimga cho‘kkalab qoldi. Nami ketmagan sochlari yuzimga yoyilib tushdi.

Boshimni ko‘tarib qarasam, ko‘zлari hayratdan katta-katta ochilgancha hamon cho‘kkalab o‘tiribdi. Yuzi oy nurida yanayam oqarib ketgan, entikib nafas olyapti.

– Oyi... – dedi pichirlab. – Axir u kishi... adam-ku...

– Nima qilay, jon qizim... – Nami qurimagan sochlardan, oppoq, tekis yuzlарidan o‘pa boshladim.

– Kimsan aka... – Uning bo‘g‘zidan ojiz nido otilib chiqdi. – Kimsan aka... Oyijon! Nima deyapsiz? Nima qilmoqchisiz?

IKKINCHI QISM

Uchinchibob **ROBIYA HIKOYASI**

Dadamni yo'qotib qo'ydim

Agar oyim «hozir sen o'lasan» desa, bunchalik vahimaga tushmasdim. Bu qandoq bedodlik? Shomurod tog'ani kichkinligimdan «ada» deb o'rganib qolganman-ku. Uyam meni «qizim» deydi-ku. Uyga borib, kirini yuvGANIMDA, Muzaffarni cho'miltirGANIMDA, ovqat pishirib bergenimda... Hech qachon menga unaqa ko'z bilan qaragan emasdi-ku.

Yo'q, bobom bo'lsa bunaqa gap chiqmasdi. «Ovozingni o'chir, pakana!» – deb bir musht ko'tarsa, oyim pildir-pis bo'p qolardi.

Nima deyotganini o'zi biladimi oyim? Axir... Kimsan akam mening qaylig'im bo'lsa, oyimning o'g'li-ku! Kimsan akam hammadan ko'ra oyimga yaqin-ku. Nima jin urdi?

Bilaman. Shomurod tog'amga osonmas. Muzaffargayam qiyin. Lekin menga begona odam emas, kelib-kelib o'zimning oyim shu gapni aytsa, qandoq chidayman?! «Oyi» deb shu xotinning etagidan ushlagandim-ku axir!

* * *

... O'z onamni elas-elas xotirlayman. Pastak shiftli uyda, deraza tagida nuqlu osmonga qarab yotar edi. Rangi sarg'a-yib, ikki chakagi ich-ichidan kirib ketgan. Ko'zlari qop-qora, chiroyli. Uzun-uzun kipriklari qilt etmaydi. Derazadan allaqanday madrasaning kungurador peshtoqi ko'rinish turadi. Peshtoq chekkasida sherlar tasvirlangan. Kiyikni quvib ketayotgan dahshatli sherlar... Onam bir nuqtadan ko'z uzmay yotadi. Ba'zan ko'zi ochiqligicha uxlاب qolganga o'xshaydi. Ammo uxmlamaydi. Otamning eshikdan kirib kelishini kuta-kuta charchayman. Dadam – o'qituvchi. Men tengi qizlar dadamning maktabiga qatnaydi. Men bormayman, onamga ko'z-qu-loq bo'lib o'tiraman. Dadam ishdan kelib, oyimga qaraydi. Keyin patnisning orqasiga harf yozib, meni o'qitadi.

– O‘qi, qizim, o‘qi! – deydi tajang bo‘lib. – Yoshing to‘qqizga chiqdi. Sen tengi bolalar yaqinda uchinchi sinfga ko‘chadi, o‘qi!

Nima qilay? Kunbo‘yi onamga qarasam, qornim och bo‘lsa, nima qilay?

– Non... – deyman, yalinib. – Dadajon, non!

Onam yotgan joyida ingraydi.

– Qiynamang bachamni. Payti kelib o‘qib olar. – Shu gapni aytguncha ham charchab qoladi. Entikib-entikib nafas oladi. – Men-ku qiltomoqman. Aqalli Robiyajonga bir burda non topib bering...

Dadam noilojlikdan battar tajanglashib hovonchada talqon tuyadi. Bir qoshig‘ini onamga, bir qoshig‘ini menga tutadi. Onamdan talqon o‘tmaydi. Ko‘zi bilan menga imo qiladi.

– Bachamga bering...

... Bir kuni ertalab uyimizga ancha odam yig‘ildi. Olacha to‘n kiygan kishilar, oppoq ko‘ylak kiyib, boshiga oq ro‘mol o‘ragan xotinlar... Hamma uvvos soldi. Dadam boshimni ko‘ksiga bosgancha xo‘rsinib-xo‘rsinib yig‘ladi.

Keyin onamning to‘sangi bo‘sab qoldi. Yosh bola emasman-ku, onam o‘lganiga allaqachon aqlim yetgan edi. Bir kuni dadam qo‘lida katta chamadon ko‘tarib, meni vokzalga olib chiqdi. G‘ishtin binoga kirib kelaverishda, zinada dumalab yotgan xotinni ko‘rib, qo‘rqib ketdim.

– Dada! Anavi semiz xotin nimaga zinada uxbab yotibdi?

Dadam boshimni siladi.

– Semiz emas, shishib ketgan. Qarama, Robiyajon. Yur. Poyezdga minib, Toshkentga boramiz.

Poyezdnning taraqa-turuq ovozi, odamlarning shovqin-suro-nidan boshim aylanib, uxbab qolibman... Ertalab pastga tush-dik. Tramvayga o‘tirdik. Tramvayning jiring-jiring qilib yuri-shi qiziq tuyulsa ham, qornim ochgan, non yegim kelardi.

– Dada, non... – dedim yalinib.

– Shoshma, bacham, shoshma.

Dadam tekis qilib dazmollangan oppoq ityoqa ko‘ylak ki-yib, chuchvaranusxa bo‘yinbog‘ bog‘lab yuradigan odam edi. Po‘rim ko‘ylak kiyadi-yu, noni yo‘q...

Bir joyga kelib tramvaydan tushdik. Dadam: «Qimirlamay o‘tir», – deb meni chamadon ustiga o‘tqizdi-da, o‘zi g‘ishtin zinalardan ko‘tarilib, oynaband eshik ichiga kirib ketdi. Anchadan keyin oppoq, uzun yaktak kiygan, ko‘krak cho‘ntagida soat zanjiri yaltirab turgan chol bilan boshlashib chiqdi. Cholning soqol-mo‘ylovi, ko‘zi ustiga qayrilib tushgan qoshi, hatto quloqlarining ichidan chiqib turgan tuklar ham ko‘kimir oppoq edi. U gavdasini g‘oz tutib kelarkan, yo‘l-yo‘lakay ko‘krak cho‘ntagidan uzun zanjirli soatini chiqarib, shiq etib qopqog‘ini ochdi.

– O‘h-ho‘, vaqt ketib qopti-ku, ma’lim! – dedi bosh chay-qab.

Dadam yaqin kelishi bilan yalindim:

– Non. Dada, no-o-on!

Boyagi chol yarq etib menga qaradi. Barkashdek kaftini dadamning iyagi oldida paxsa qilib baqirdi:

– O‘v, ma’lim! «Ko‘chada qizim qoldi, och o‘tiribdi», – desang o‘lasanmi?

Chol dadamni uradi, deb qo‘rqib ketdim. Yo‘q, dadam choldan cho‘chimadi, ma’yus jilmaydi.

– Ko‘rib turibsiz, Oqsoqol. Zamon shunaqa: oltin-kumush kul bo‘lgan, arpa-bug‘doy pul bo‘lgan.

– Pul bo‘ladimi, kulmi, padariga la’nat, lokin norasta bolani och qoldirma! – Cholning ovozi gumburlab chiqar, unga sayin ko‘nglim ozib, boshim aylanar edi. – Shoshma, men hozir! – Chol shunday dedi-da, qaytarma qo‘njli etik kiygan oyoqlarini katta-katta tashlab allaqayoqqa ketdi. Dadam yonimga, chamadon zixiga cho‘kib boshini quyi soldi. Jingalak sochini changallab, menga qaramay uzoq o‘tirdi.

Bir mahal orqa tomondan gumburlagan ovoz keldi:

– Ma, qizim, yeb ol, buvang aylansin!

Qarasam, boyagi chol sedana sepilgan oppoq kulchani ushatyapti. Jonholatda qo‘limni cho‘zdim. Chol kulchani ikkiga bo‘lib, yarmini menga, yarmini dadamga berdi.

– Bundanam og‘ir yillarni ko‘rganmiz, ma’lim! – dedi yana shang‘illab. – Bu kunlaram o‘tadi-ketadi. Bu yil – o‘ttiz uchinchi yilmi? Esingda bo‘lsin, ma’lim, nasib etsa, o‘ttiz

to‘rtinchi yilda, uzog‘i bilan o‘ttiz beshinchi yilga borib hammasi oppon-soppon bo‘p ketadi.

Nonimni birpasda yeb bo‘ldim. Qarasam, dadam hali yarmisiniyam yemabdi. Har luqma tomog‘iga tiqilib qolayotgandek zo‘rg‘a yutinadi.

– Non! – dedim qo‘limni cho‘zib. – Dadajon...

Dadam qo‘lidagi nonning qolganini uzatdi. Chol qarab turganini ko‘rib, non burdasini qo‘rqa-pisa qo‘limga oldim.

– Mayli! – Cholning soqoli titrab ketdi. – Nasib etsa, hammasi yaxshi bo‘ladi. Qani, ma’lim, ketdikmi? Tura qol, qizim! – U tagimdagi chamadonni yulqib ko‘tardi. Nariroqda ot-arava turgan ekan. Nafsim qonib, endi suv ichgim kelardi. Lekin dadamning jiddiy ko‘zlariga qarab, suv so‘rashdan qo‘rqdim.

Dadam aravaga o‘tirib, meni bag‘riga olarkan, cholga qaradi.

– Yo‘l olismi, Oqsoqol?

– Olis... No‘g‘ayqo‘rg‘onga boramiz!

– Soat necha bo‘ldi? – dedi dadam quyosh botib borayotgan ufqqa qarab.

– Soat? – Chol dadamga bir qarab qo‘ydi-da, arava ichida yotgan qamchini oldi. – Soatni boshingga urasanmi!

Qarasam, cholning ko‘krak cho‘ntagida boyagi yaltirab turgan soat zanjiri ko‘rinmayapti.

Dadam uning ko‘ziga tikilib, sekin xo‘rsindi.

– Rahmat... Tirik bo‘lsam, shu yaxshililingizni...

– Chu! – Chol qovurg‘asi sanalib qolgan ot ustida qamchi aylantirdi. – Chu, og‘ayni! – Keyin dadamga qarab kulimsradi. – Sani tappa-tuzuk ma’lim desam, g‘irt jinni ekansan-ku! Chu!

Arava tosh bosilgan yo‘ldan taraqlab yurib ketdi. Kap-katta qiz dadamga suyangancha yana uxbab qopman.

Gumburlagan ovozdan uyg‘onib ketdim.

– Husanboy! Ho, Husanboy!

Ko‘zimni ochsam, hamon aravada, dadamga yonboshlab o‘tiribman. Qandaydir qishloqqa kelib qolibmiz. Tolzor tor

ko‘cha, tomsuvoq qilingan uylar... Boyagi chol pastak eshikni taqillatib, birovni chaqiryapti.

Zum o‘tmay eshik ochildi. Koptokdek yumaloq, past bo‘yli qop-qora xotin chiqdi. Tavoze bilan ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib salom berdi.

– Yumushingiz bormidi, Oqsoqol?

– Chaqir Dumani! – Bizni olib kelgan chol qora xotinni jerkip berdi. – Erkaklarning ishiga aralashishga balo bormi?

Qora xotin hovli ichkarisiga pildirab kirib ketdi.

– O‘v, ma’lim! – Chol dadamga qo‘lini paxsa qildi. – Tushmaysanmi? Nima, senga asobiy taklif kerakmi?!

Dadam jilmayib, meni quchog‘idan bo‘shatdi. Yerga sakrab tushdi.

– Kel, bacham! – dedi pastdan qo‘lini cho‘zib.

– O‘zim... – arava yondoriga osilib yerga tushdim. Dadam aravaga qaytib chiqib, chamadonni olib tushdi.

Bir chekkada yotsirab turar, uyimizga qaytib ketgim kelardi. Pastak eshik tag‘in ochildi. Boyagi qora xotinga o‘xshagan past bo‘yli, ammo baquvvat, ixcham soqolli kishi chiqib keldi. Qo‘li go‘ngga belangan ekan, bizni olib kelgan cholga bilagini tutdi.

– Bahay, Oqsoqol, tinchlikmi?

– Tinchlik! Gap bundoq, Duma! – Oqsoqol dadamga imo qildi. – Samarqanddan mehmon obkeldim.

– Bahay! Mehmon otangdan ulug‘, – pakana kishi pildirab borib dadamga tirsagini tutdi. – Xush kepsiz, mehmon!

Dadam iymanibroq so‘rashayotgan edi, Oqsoqolning azamat ovozi yana guldiradi:

– O‘rtoq Samadov – ma’lim. Bolalarimizni o‘qitishga kelgan, uqdingmi?

Chamasi, pakana kishi hech nimaga tushunmasa ham, iljaydi.

– Ma’qul, Oqsoqol!

– Mulozamatingni yig‘ishtir, Duma! – Oqsoqol ovozini baralla qo‘yib, qo‘lini paxsa qildi. – O‘rtoq Samadovning ma’limligini uqdingmi?

- Uqdim! Mehmon kelsa bosh ustiga, dedim-ku!
- E, mehmon emas, ovsar! – Oqsoqol jahl bilan qo‘l siltadi. – Nosingdan ol!

Pakana kishi yo‘l chetidagi otqulolojni yulib olib qo‘lini artdi. Pochasi qayrilgan shiminining cho‘ntagini kavlab, nosqovoq chiqardi. «Ma, chek zaharingga» degandek Oqsoqolga zarda bilan uzatdi.

Oqsoqol kaftini to‘ldirib nos otdi.

- Mehmon emas, mezbon! – dedi, nosqovoqni egasiga qaytarib. – Ko‘rib turibsang: zamon og‘ir. Qahatchilik bitib, yurt qaddini ko‘tarib olguncha sanikida turadi. Keyin ma’limga shunaqangi uy sobberaylikki, ko‘rgan odamning og‘zi ochilib qolsin. Tushundingmi?

Pakana kishi «ma’qul» degandek bosh irg‘adi. Biroq bizni olib kelgan chol unchalik qanoatlanmadni, shekilli, tag‘in shang‘illadi:

- O‘zimiznikiga oborardim-u, xabaring bor, kelinlarimning chillasi chiqqani yo‘q. Qani, gapning po‘skallasini ayt: nima deysan?!

Pakana kishi sen chekkanda men qolamanmi degandek, nosqovoqning tagiga jahl bilan uch-to‘rt urdi-da, Oqsoqoldan ham ko‘proq nosni kaftiga to‘kib og‘ziga otdi.

- Turgan-bitganing vahima-ya, Oqsoqol! – dedi chiyilab. – Shuni oldinroq aytsang o‘lasanmi? Bitta uyni bo‘shatib qo‘yardim.

– Bo‘shatasan-a, bo‘shatasan! Ko‘chada bir tiyin tushib yotgan bo‘lsa, keting bilan qisib olasan-ku!

Pakana kishining jahli yomon ekan. Avval dadamga, keyin cholga rangi o‘chib qaradi-da, chopib borib, Oqsoqolga xezlandi.

- O‘v! – dedi bo‘ynini xo‘rozdek cho‘zib. – Raisman deb ja o‘zingdan ketma! Husan Dumani endi ko‘ryapsanmi, ahmoq!

– Bo‘ldi, do‘stim, bo‘ldi! – Oqsoqol ro‘parasiga turib olib yoqasiga yopishmoqchi bo‘layotgan pakana kishining yelkasi-ga shapatiladi. – Hazilniyam bilmaysanmi, nima balo, Duma!

Ma'lim No'g'ayqo'rg'onda maktab ochmoqchi. Katta maktab. Ishonganimdan senikiga opkeldim-da, o'rtoq!

Pakana kishi yana birpas xezlanib turdi-da, nari ketdi. Pastak eshikni oyog'i bilan tepib, hovli ichkarisiga qarab g'azabnok chinqirdi:

– Chaqqon bo'l. Hoy! Katta uyni bo'shat!

– Ma'lim! – Oqsoqol nosini tupurib, kaftining orqasi bilan soqol-mo'ylovini artdi. – Duma – mening qadrdonim. Meni aytdi dersiz: narisi bilan bir yilda quling o'rgilsin uy qurib beramiz. O'shangacha shu xonadon sizniki. Qani, pajalista!

Oqsoqol «pajalista» deyishga dedi-yu, ko'z qiri bilan pakana kishiga xavotirlanib qarab qo'ydi.

Dadam chamadonni ko'tarayotgan edi, pakana kishi kelib qo'liga yopishdi.

– Siz ko'tarsangiz uyat bo'ladi, ma'lim...

Hovliga kirishimiz bilan bo'yi mendan tikroq, kir ko'ylak kiygan, qop-qora kallaxum bola chopib kelib, boshimdagi do'ppimni olib ochtdi.

– Ibi, ber! – dedim chinqirib.

– Oyi! Do'ppi! Zar do'ppi! – dedi kallaxum bola hovli etagiga yugurib.

Ayvondan boyagi qora xotin chopib tushdi.

– Kimsan! Nomusga o'ldirding-ku! Zar do'ppi kiysang qiz bola bo'p qolasan!

– Dada, do'ppim... do'ppim! – dedim yig'lamsirab. – Ber-sin. O'zimning do'ppim...

Dadam negadir xotirjam kului. Qora xotin chopib kelib, meni bag'rige bosdi.

– Beradi, jon qizim. Bermasin-chi, naq qulog'ini kesib olaman. Voy, bu qizning shirinligini! Oting nima?

U mening javobimni ham kutmay, shataloq otib tomorqa eshigi tomonga qochib ketayotgan bolaga mushtini do'laytirdi.

– Kimsan! Uyalmaysanmi, toyloqdek bo'lib qiz bolani yig'latishga! Go'shingni bir burdadan qilmasam, yurgan ekan-man!

Dadam meni yupatdi.

– Beradi, yeb qo‘ymaydi do‘ppingni.

Pakana kishi bir do‘q qilgan edi, kallaxum bola darrov qaytib keldi. Do‘ppimni qo‘limga tutqazdi. Avvaliga qora xotin: «Kimsan», – deganida kallaxum bolaning kimligini bilmagani uchun shunaqa deyapti, degan xayolga borgan edim. Yo‘q, oti Kimsan ekan. Qorong‘i tushganida atala ichdik. Hech qachon bunaqa shirin ovqat ichmagandim. Atalani ichishdan ko‘ra yog‘och qoshiqni yalash mazza bo‘larkan. Buniyam kallaxum bola o‘rgatdi.

– Menga qara, ey! – dedi. – Avval qoshiqning orqasini yalaysan. Keyin ichini, bildingmi?

Ertalab uyg‘onsam, qora xotinning quchog‘ida yotibman.

– Dada! – deb g‘ingshigan edim, qora xotin yuzimdan o‘pib yupatdi.

– Otang hozir keladi, qizim. Idoraga ketdi. Gap bundoq, Robiyaxon. Endi sen mening qizim bo‘lding. Men – oyingman. Husan buvang – buvang. Yosding to‘qqizdam? Akangni yoshi o‘n birda. Bundan chiqdi, Kimsan – akang. Akangni «siz» deb gapirgin, xo‘pmi, qizim!

Qora xotin choyga zog‘ora to‘g‘rab ichirdi. Nima qilishimi ni bilmay hovliga tushsam, pushtalarda qip-qizil qalampirlar pishib yotibdi. Kallaxum – Kimsan qalampirlarni uzib olib bemalol eb yuribdi.

– Jinni! – dedim kulib. – Qalampir yeyapti.

– O‘zing qalampir! – Kimsan qizil qalampirlardan yana ikkitasini uzib og‘ziga soldi. – Qulupnay-ku bu! Yeb ko‘r!..

Kimsan uzatgan «qalampir»dan bittasini qo‘rqa-pisa tishlab ko‘rdim. Shunaqa shirinki!

– Yana! – dedim yalinib.

– O‘zing uzib yeyver! – Kimsan iljaydi. – Qulupnayni bilmaydi-ku!

Ayvon tomondan qora xotin ovoz berdi:

– Kimsan, singlingga qulupnay terib ber, o‘g‘lim...

– Nima, o‘zining qo‘li yo‘qmi? – Kimsan menga iljayib qaradi-yu, pushtadan chiqib nari ketdi.

* * *

Biz ko‘chib kelgan hovli katta edi. Qator qilib solingan ikki uy, bir ayvon. Etak tomonda bostirma, molxona. Hovli sathi keng bo‘lgani bilan, kaftdek bo‘s sh joy yo‘q. Yarmisiga piyoz sepilgan, yarmi qulupnayzor. Undan narida gultojixo‘-rozlar ochilib yotibdi. Nok, giros, behi daraxtlari tartib bilan ekilgan.

Bu xonadonning g‘alati udumlari bor ekan: tong otgandan kun botguncha qimirlagan jon borki, bekor turmaydi. Bobom saharlab eshak minib dalaga chiqib ketadi. Oyim molga qaraydi, non yopadi, kir yuvadi, cho‘nqayib o‘tirib, hovlidagi piyozlarni o‘toq qiladi, qulupnay pushtalarini chopadi, tert¹ qoradi. Ikki hafta ichida ko‘p narsalarni bilib oldim. Bu xonadonda hech nima bekor ketmas ekan. Oyim (qora xotinni shunaqa deyishga o‘rgandim) piyoz archsa, «soqolini» tashlab yubormaydi. Yerga suqadi: shunaqa qilsa, yana piyoz o‘sib chiqarkan. Kimsan akam (oyim tayinlagani uchun «aka» deb sizlayman) o‘rik yesa, danagini tashlamaydi. Chaqib mag‘zini olib qo‘yadi. Tandirdan chiqqan kul piyoz pushtasiga sepi-ladi. G‘unajinning tezagi tappi qilib, devorga yopiladi. Hatto hojatxonadagi kesaklar ham bekorga ketmaydi. Tomorqadagi toklarning tagi kavlanib, ildiziga solinarkan.

Kimsan akam men o‘ylagandek yomon bola emas ekan. Ba’zan rahmim keladi unga.

Ertalab bobom dalaga ishga chiqib ketarkan, supada ux-lab yotgan Kimsan akamning tepasiga kelib, ustidan ko‘rpani uloqtirib tashlaydi.

– Tur o‘rningdan! – deydi dag‘dag‘a bilan. – Mo‘ylovi chiqib qolgan bola yalpayib yotishingni qara? Bo‘l tez, go‘ng-ni tashib qo‘y.

Kimsan akaning mo‘ylovi bormikin deb qarab qo‘yaman. Yo‘q, ko‘rinmaydi. Bechora dik etib o‘rnidan turadi-da, ko‘zini ishqalab molxonaga kirib ketadi. Birpasdan keyin zam-bilg‘altakka go‘ng ortib, chirani-chiranib g‘ildiratgancha to-

¹ Tert – somon, xashak va shu kabi dag‘al ozuqalarga maydalangan kunjara, kepak kabi to‘yimli ozuqlalar aralashtirib, qorib tayyorlangan yem.

morqaga olib chiqadi. Kechgacha tinim bilmaydi. Hamma ish qo‘lidan keladi. Tomorqada yer chopadi, molga qaraydi, o‘tin yoradi.

Kechqurun endi ovqatga o‘tiramiz deb turganimizda uzoq-dan eshak hangragani eshitiladi.

– Tura qol, Kimsanjon! – deydi oyim. – Dadang kelyapti.

Kimsan akam darrov obdastada iliq suv tayyorlaydi. Ko‘chadan kirib kelgan bobomga suv quyib turadi. Bobom rahmat deyish o‘rniga jerkadi:

– Eshakni sug‘ormaysanmi!

Ertalab hammasi qaytadan boshlanadi.... Bora-bora men ham uy yumushlariga kirishib ketdim. Hovli supuraman, idish-tovoq yuvaman, oyim kepak aralash undan xamir qilsa, suv isitaman.

Kuzda pochtaxona yonida allaqanday eski binoga joylash-gan maktabga qatnay boshladik. Men birinchi sinfga, Kimsan akam to‘rtinchi sinfga.

Bolalar ichida eng kattasi menman. Bir marta o‘qituv-chi opa dadamdan iltimos qilganini eshitib qoldim. «O‘rtoq Samadov, Robiyaxonning savodi allaqachon chiqqan ekan, bemalol uchinchida o‘qiyversa bo‘ladi», – degan edi, dadam siltab tashladi: «Hamma qatori qonuniy o‘qisin!» Shunday qilib, kap-katta qiz ukam tengi bolalar bilan dadam allaqachon o‘rgatgan «Alifbe»ni, hisobni qaytadan o‘rganishga tushdim.

... Uzundan uzun qish kechalari dadam bilan bobom narigi uyga kirib qiroatxonlik qiladigan odat chiqarishdi. Lampa bit-ta. Oyim, men, Kimsan akam berigi – qorong‘i uyda sandal chetida o‘tiramiz.

Oyim norozi bo‘lib chirqillaydi:

– Lampamoy anqoning urug‘i bo‘lmasa ekan! Ertaga nima qilamiz?

Ammo «zinqa» bobom lampamoyni ayamaydi.

– O‘qing, ma’lim, – deydi shang‘illab. – Otabekni o‘qing.

Dadamning osoyishta ovozda kitob o‘qishiga qulq solib yetamiz. Berigi uyga bemalol eshitilib turadi. Otabek... Ku-mushbibi... Hasanali...

Bir kuni dadam kitob o‘qishdan to‘xtab, bobomga gapirib goldi:

– So‘raganning aybi yo‘q, Husan aka, nega sizni Duma deyishadi?

Bobomning kulgani eshitildi.

– E, ma’lim, o‘zimam anig‘ini bilmayman. Oqposhsho zamonini edi. Bir kuni butun No‘g‘ayqo‘rg‘on dahasi choyxonaga yig‘ilib maylis qildi. Nodirxo‘ja degan ellikboshi bo‘lardi. Insolfi odam edi, rahmatli. Qulqoq bo‘p ketdi. O‘sha va’z aytdi. «Oranglarda ishbilarmon bir odamni dumaga saylamasalaring bo‘lmaydi. Oqposhsho hazrati oliylarining farmoni – shu», – dedi. Odamlar chuvillashib meni ko‘rsatishdi. Saylasa-saylay qolsin desam, ketida bir arava g‘alvasi bor ekan. O‘qtin-o‘qtin shaharga tushib, Dumasiga borish kerak bo‘larkan. Bu yoqda ish qolib ketyapti... Duma degani kattakon bir mahkama ekan. Devoriga ko‘kragi ochiq xotinlarning surati osib qo‘yilgan hayhotday xona. Lak-lak odam... Chuvir-chuvir qilib allanimalarini gaplashishdi. «Qo‘l ko‘taringlar», – dedi. Qarasam, hamma qo‘l ko‘taryapti. Menam ko‘taraverdim... Keyin bormay qo‘ydim. Orada inqilob bo‘ldi, Duma-pumasiyam suvga urib ketdi.

Dadam kului.

– Siz, Husan aka, haqiqiy dehqonsiz. Yer ilmini yaxshi bilasiz. Ammo, kechirasiz-ku, savodingiz... – dadam andisha qildi, shekilli, tutilib qolgan edi, bobomning o‘zi aytib qo‘ya goldi:

– Yo‘q-da, ma’lim, bizda savod nima qilsin! Esimizni tanibmizki, yer kavlab yotibmiz.

Tag‘in dadamning ovozi keldi:

– Shuni aytaman-da! O‘shanda sizni saylashga saylashib-di-yu, buyog‘ini o‘ylashmabdi-da. Duma degan davlat masalarini hal qilishi kerak. Siz...

– Oqposhshoyam anoyimas! – Bobom xixilab kului. – Menga o‘xshab, qo‘l ko‘tar desa oyog‘iniyam qo‘shib ko‘taradigan soddalarni tanlagan-da!.. Qo‘ying bu gaplarni! Yaxshisi, Kumushbibini o‘qing. Ja qiziq joyida to‘xtab qoldik.

Men to'rtinchi, Kimsan akam yettinchi sinfga ko'chganida bir vaqtlar Oqsoqol buva bizni aravada No'g'ayqo'rg'on-ga olib kelayotganida va'da qilgan to'kinchilik zamon keldi. To'g'ri, bir yilda emas, uch yilda... Endi bayramlarda tong-sahardan nog'oralar taka-tum qiladigan, doshqozonlarda osh damlanadigan bo'ldi. Kech kuzda bobom qo'y so'yib kalla soladi, qolgan go'shtni tuzlab xumga tiqadi...

Bir kuni Oqsoqol dadamga gapirib qoldi:

– Mana, ma'lrim, o'lman qul, sen je-men je kunlargayam yetdik. Endi sizga o'n ikki vassali uy qurib beramiz. Odamlar ni hasharga aytib qo'ydim. Belida belbog'i bori kelaveradi.

Dadam xijolat chekibroq bobomga qaradi.

– Agar Husan akani qisib qo'yman bo'lsak, hasharchilar ni maktab qurishga solsakmikin... Bizga-ku uy topilar, maktab kerak.

– Nega qisilarkanman! – Bobom Oqsoqolga yuzlanib chiyilladi. – Ma'lum to'g'ri aytyaptilar. Eng avval maktab kerak. Raisman deb kerilasan-u, shunga aqling yetmaydi.

Shu gap gap bo'ldi. Ertaloydan dadam «katta maktab» qurilishiga sho'ng'ib ketdi. Kolxozchilar u yoqda tursin, yuqori sinf o'quvchilari ham hasharga solindi. Bo'yi cho'zilib, ovozi do'rillab qolgan Kimsan aka ertalabdan razyezdga – maktab qurilayotgan joyga yuguradi.

Kechqurun qorong'i tushganida oyim qo'limga bir tovoq ovqat, to'rtta non tutqazadi.

– Bora qol, qizim, hammasining ichi uzilib ketgandir...

Tugunni ko'tarib razyezd tomonga chopqillayman.

Tumonat odam! Har yoqda mash'ala gurillaydi. Daladan to'ppa-to'g'ri hasharga kelgan kolxozchilar biri loy otib, biri lo'mboz bosib, maktab devorini ko'taradi.

Kimsan akam yalangoyoq loy tepadi. Orif oqsoqol ishboshi bo'lib, u yoqdan bu yoqqa yuguradi. Dadam po'rim shimming pochasini qayirib, handaq ichida pildirab yuradi. Bobom devorga minib olib chiyillaydi:

– Kuching bormi, hov! Otsang-chi mundoq!

Loy otishda Oqsoqolning ikki norg‘ul o‘g‘li – Shokir aka bilan Zokir akaning oldiga tushadigani yo‘q... Oyimning aytishicha, Shokir aka bilan Zokir aka traktor haydarkan. Traktoring omochi shunaqa zo‘rmishki, bir yo‘la yigirma-ta qo‘spresso kizning o‘rniga yer ag‘dararmish. Ikkovlari ha-sharniyam boplaydi. Paxsakurakka loyni to‘ldirib bir otganda bobomning qo‘liga borib tushadi. Hech kim charchadim demaydi. Askiya, qiyqiriq... Kuzga borib yangi maktab bitdi hisob.

... Qumsuvoqqa tushishgan kuni ham hasharchilar oldiga borgan edim. Bir kosa qovurdoq uch kishiga nima bo‘lardi! Dadam, buvam, Kimsan akam bir qoshiqdan yesa-yedi, bo‘lmasa yo‘q. Shundayam nolishmadi. Peshinda Oqsoqol buva qo‘y so‘yib qaynatma qilib bergen ekan. Hammalari yana ishga sho‘ng‘ib ketishdi. Oqsoqol buvaning Zuhra kelini bilan uyga qaytdik...

... Tinch, to‘kin zamonning allaqanday osoyishta zavqi bo‘ladi. O‘sanda bu zavjni tushunmagan ekanman. Boshimizga kulfat yog‘ilganidan keyin qadriga yetdim. O‘sha kecha charchab barvaqt uxbab qopman. Bir mahal yonimda yotgan oyim, «voy o‘lmasam, tinchlikmi», deb sapchib turganidan uyg‘onib ketdim. O‘sha zahoti ko‘cha eshikning qattiq taqil-lagani, ketidan:

– Duma, och! – degan ovoz keldi.

Oyim: «Kimde-e», – deb ayvonga yugurdi.

Negadir yuragimga vahima o‘rmaladi. Nimqorong‘i burchakda bermalol xurrak otib yotgan Kimsan akamni ilg‘ab, ko‘nglim joyiga tushdi.

Bundan chiqli, dadam bilan bobom ham kelishgan.

Eshik yana tiqilladi.

– Duma!

... Oqsoqol buvaning ovozini tanib, tinchlandim. Ish bilan kelgan.

Oyimdan oldin bobom borib eshikni ochdi, shekilli, o‘sha tomonda erkaklarning g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir gaplashgani qulog‘imga chalindi. Butunlay xotirjam bo‘ldim. Endi joyimga yotgan edim, deraza oldidan birov gursillab o‘tdi.

Dadam yotgan uy tomonda bobomning chaqirgani eshitildi:

– Ma’lim, turarkansiz.

Narigi uyda dadam yo’taldi.

– Tinchlikmi, Husan aka?

– Sizni so‘rashyapti... – Bobomning tovushida xavotir borligini qandaydir ichki tuyg‘u bilan sezdim-u, tag‘in o‘rnimdan turib ketdim.

– Kim? – dedi dadam.

– Bilmadim, rais bilan yana ikki kishi.

Dadamning hovliga tushganini bildim. Shap-shup yurib eshik oldiga bordi-yu, o‘scha zahoti qaytib keldi.

– Robiya, – dedi ostonada to‘xtab.

Qorong‘ida ovozi titrab ketganini sezdim.

– Dada! – Yuragim yomon bir narsani his etib, chopib oldiga bordim. – Dada!

– Men ertaga kelaman, qizim. – Dadam shunday dedi-da, ildam yurib narigi uyga kirdi. Bir zumda kiyinib chiqdi. Etigini topolmay kalovlanib turgan edi, bobom oyimga o‘shqirib berdi:

– Chiroqni yoqsang-chi, pakana!..

Oyim shosha-pisha chiroq yoqib, piligini ko‘tardi. Dadam ayvon burchagida turgan etigini, nihoyat, topdi. Paytava o‘rayotganida qo‘llari qaltirab ketganini ko‘rdim. Battar qo‘rqib ketdim.

– Dada, – dedim titrab. – Qayoqqa ketyapsiz?

Dadam rangi quv o‘chgancha muzdek labi bilan peshonamdan o‘pdi.

– Qo‘rqma, qizim, ertaga kelaman, – dedi-yu, bobomga yuzlandi. – Tushunmovchilik bo‘lganga o‘xshaydi, Husan aka. – Keyin negadir oyimga iltijoli termildi. – Mabodo bir oy, yarim oy kelmay qolsam, Robiyani sizga topshirdim. Onalik qilasiz.

– Voy o‘lmasam, ma’lim! – Oyim titrab meni quchoqlab oldi. – Nimaga unaqa deysiz?

Dadam hovliga tushgan joyida qaytib ayvonga chiqdi. Ikki yuzimdan qattiq o‘pdi-da, sakrab pastga tushdi. Qaddini g‘oz tutib, eshik tomonga yo‘naldi.

Darvoza tomonda gurillagan mashina ovozi eshitilganidan keyingina hushim o‘zimga keldi.

Oyimning quchog‘idan chiqdim-u, chinqirgancha hovliga otildim.

– Dada! Dadajon!

Ko‘cha eshik oldida turgan bobomni turtib o‘tib, tuproq yo‘ldan yugurib ketdim. Hammayoqni chang-to‘zon qoplagan, havodan benzin hidi kelar, olisda allaqanday mashinaning qizil chirog‘i uzoqlashib borardi.

– Dada! – Yalangoyoq chopib borarkanman, entikib qichqirdim: – Dadajon!

Mashina chirog‘i ko‘rinmay ketdi. Men bo‘lsam hamon yugurib borardim. Nafasim qisilib qolgan, tomog‘im achishar, ammo to‘xtamasdim. Oxiri toshgami, kesakkami qoqilib yuztuban yiqilib tushdim. Og‘zimga tuproq kirib yig‘lab yubordim. Bir mahal kimdir yelkamni siladi.

– Tur, Robiya, turgin. Uyga boraylik.

Kimsan akamning do‘rillagan ovozi qulog‘imga yoqimsiz eshitildi.

Yerni mushtlagancha qichqirdim:

– Bormayman!

– Shunaqa qilmagi-in. O‘zing yaxshisan-ku, Robi, ketaylik.

– Bormayman! – Alam ustida dodlab yubordim. – Bormayman! Dada! Dadajon!

Kimsan akam yonimga cho‘nqayib boshimni siladi.

– Dadang keladilar. Nega yig‘laysan, keladilar. Mana meni aytdi dersan, yur, uyga ketamiz.

Dadamning qo‘llari qaltiraganicha paytava o‘rayotgani, oyimga iltijoli termilgani, «Robiyani ehtiyyot qiling», degani ko‘z oldimga keldi, yosh bolalardek chinqirib yubordim:

– Yo‘qol! Dadam! Dadamga boraman!

... Oyim «halizamon dadang keladi» deb harchand yupatgani bilan anchagacha hiqillab yotdim. Narigi uyda hamon chiroq yoniq turar, bobom bilan Oqsoqol buva allanima-ni maslahatlashishar edi. Tong bo‘zarganda uxlab qolibman. Hovli tomondan kelayotgan qattiq-qattiq ovozdan uyg‘onib ketdim...

– Tushuntirdingmi axir? Ma’lim – yaxshi odam, Samarqandda o‘qigan, bolalarimizga ilm beryapti, kattakon maktab qurdi, dedingmi?

Bobomning ovozini eshitib, kechasi bo‘lgan voqeа, dadamning: «Robiyani ehtiyyot qiling» degani yana esimga tushdi. Ko‘zimni ishqalab ayvonga chiqdim.

Vaqt peshinga yaqinlashib qolgan, behi tagida bobom bilan Oqsoqol buva gaplashib turishar, nariroqda Kimsan akam ketmon sopidan tutgan ko‘yi talmovsirab turib qolgan, oshxona eshigining ostonasiga o‘tirib olgan oyim ikkala choldan ko‘z uzmas edi.

– Aytdim! – Oqsoqol buva birovga o‘chakishgandek jahл bilan qo‘lini paxsa qildi. – «Bolsheviklik vijdonimni o‘rtaga qo‘yib, kafolat beramanki, bitta-yarimta imonsiz ma’limga tuhmat qilgan», – dedim!

– Xo‘sh, nima deyishdi?

Oqsoqol buva bobomga arazlagandek xo‘mrayib qarab qo‘ydi.

– «Tekshiramiz», – dedi.

– Gunohi nima ekan demaysanmi, ovsar! – Bobom hammasiga Oqsoqol buva aybdordek, shang‘illadi. – Menga Kallinin Oqsoqol o‘z qo‘li bilan ordin bergen, kerak bo‘lsa eng katta Oqsoqolning oldigacha boraman demadingmi?!

– Dedin! – Oqsoqol buvaning mo‘ylabi titrab ketgandek bo‘ldi. – Aybi shumishki, darsni programma bo‘yicha o‘tmasmish. «Hisob ilmini Xorazmiy yaratgan», – deb maqtagannish. Bolalarga Bobur poshshoning she’rlarini o‘qitgan mish. – U qovog‘ini solib xo‘rsindi. – Rayondan beruxsat maktab qurban mish...

– Iye? – dedi bobom hayratdan ovozi ingichkalashib. – Maktab qursa yomonmi? Maktabni hashar bilan soldik-ku!

– Zamonni ko‘rib turibsan... – Oqsoqol buva ovozini pa-saytirdi. – Menimcha, bu ishda Xo‘jaqulovning ham qo‘li bor.

– Kim u Xo‘jaqulip?

Oqsoqol uf tortdi. Anchagacha jim qoldi.

Hamon ayvon ustuniga suyanib turardim. Bobom ham, Kimsan akam bilan oyim ham Oqsoqol buvaning og‘ziga termilishar, hech kim menga e’tibor bermas edi.

– Ma’lim senga gapirmaganmidi? – dedi Oqsoqol buva bobomning ko‘ziga qattiq tikilib.

Bobom ingichka yelkalarini uchirdi.

– Nimani?

– Menga bir aytgandek bo‘luvdi, – dedi Oqsoqol o‘ychan ohangda. – Ma’lim Samarqandda ishlab yurbanida Xo‘jaqulov degan tergovchi bilan qattiq to‘qnashadi. Temir yo‘lda katta o‘g‘rilik ochiladi. Tergovchi ishni yopti-yopti qilib yubormoqchi bo‘lganida, stansiyada ishlaydigan qo‘snnisi ma’limga chiqib arz qiladi. Ma’lim avval gazetaga, keyin obkomga xat yozadi. Gunohkor jazosini oladi. Tergovchi ariza berib ishdan bo‘sheydi. Farg‘onagami, Qo‘qongami ketadi. Aylanib-aylanib Toshkentga kelib qoladi. Ana o‘sha Xo‘jaqulov hozir prokuror. – Oqsoqol buva uzoq timirskilanib nos otdi. Bobom ikkovlari yerga tikilib, o‘y surib qolishdi. Nazarimda, nima qilishiga ikkovi ham hayron edi.

Oqsoqol buva yarq etib men tomonga yuzlandi.

– San, qizim, xapa bo‘lma! – dedi salmoqlab. – O‘qishingga boraver. Ma’limni aybi yo‘q. Haq joyida qaror topmaguncha qo‘ymayman. Meni kim deb yuribdi Xo‘jaqulovlar!

Oyim ayvonga chiqib, yelkamga qoqdi. Ketmon sopidan tutib turgan Kimsan akam goh Oqsoqolga, goh menga qarab iljaydi. Oqsoqol buvaning gapi «ertaga dadangni obkeb beraman» degandek tuyulib, o‘zimning ham ko‘nglim yorishdi. Ammo indiniga yomon ish bo‘ldi. Rangi zahil, qulog‘ining orqasida danakdek so‘gali bor begona odam kelib, dadamning kitob-daftarlarini rosa titkiladi. Ancha-muncha narsalarni olib ketdi. Bobom o‘rtaga tushmoqchi bo‘lgan edi: «Yo‘qol, unsur!» – deb ko‘zini ola-kula qildi... Bir haftadan keyin maktabga borsam, o‘qituvchi xotin yomon gap aytди. Bir vaqt-lar dadamga: «Robiyaning savodi allaqachon chiqqan ekan, bir yo‘la uchinchi sinfga boraversa bo‘ladi», – degan xuddi o‘sha o‘qituvchi xotin endi butunlay boshqacha gap qildi. «Otang xalq dushmani ekan. Sen sovet maktabida o‘qishni xohlamaganing uchun ataylab o‘qishga kechikib kirgansan!» Yig‘lagim keldi-yu, yig‘lamadim. Hatto oyimga ham dardimni

sezdirmadim. To'satdan tushgan g'am yosh bolani bir kunda katta odamga aylantirib qo'yarkan.

«IKKI ESHIK ORASI» ROMANIDAN OLINGAN PARCHA HAQIDA

«Ikki eshik orasi» romani 1986-yilda yozilgan bo'lib, O'tkir Hoshimov adabiy merosida asosiy o'rirlardan birini egallaydi. Romanda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi zo'r mahorat bilan tasvirlanadi. Adib, birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni qoralaydi; uning g'ayri-insoniy mohiyatiga urg'u beradi. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-onal qalbini jarohatlagani, ko'ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari vositasida oddiy odamlarning fazilatlari – mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshini ko'rsatadi.

Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o'rgangani uchun har bir epizod o'quvchini ishontiradi; qalbiga jiddiy ta'sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar, ularning diologlari, shuningdek, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Yetti qism, qirq yetti bobdan tarkib topgan roman kompozitsion qurilishi jihatidan ham o'ziga xoslik kasb etadi. Undagi voqeа-hodisalar bayonida qatnashgan to'qqizta personaj hikoyalarini adib bir-biriga ustalik bilan bog'laydi. Tasvir uchun tanlangan bunday poetik usul yozuvchidan yusak mahorat talab qiladi, albatta. Aks holda, syujet zanjirida uzilish yuz berib, voqealar sochilib ketgan bo'lar edi. Biroq romanning ta'sir quvvati, ichki intizomi o'quvchida juda yaxshi taassurot qoldiradi.

«Ikki eshik orasi» romanidagi Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib kabi obrazlar o'z individual qiyofasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko'rk bag'ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro'-e'tibori, eng og 'ir damlarda qiyinchiliklarni yengib o'tishga kuch

topishi bilan o‘quvchi xotirasiga muhrlanadi. U donishmand, tajribali, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan o‘zbek qariyalariga o‘xshab har bir ishda tashabbuskorlikni o‘z qo‘liga oladi. Orif oqsoqol haqiqatgo‘yligi bois o‘zi anglab yetgan bor haqiqatni yuzga aytishdan cho‘chimaydi. Undagi jasorat va shijoat boshqalarga ilhom beradi. U odamlarga baho bergenida xalqona ta’bir bilan «mard odamning belida belbog‘i bo‘lishi kerak» degan taomilga rioya qiladi. Atrofidagi odamlarning ruhiy butunligini, jo‘mardligi va odamiyligini sadoqat, va’daga vafo, ezgu amallar bilan o‘lchaydi. Ba’zan ayollarga ham shu o‘lchov bilan yondashadi.

Romanda ayollar obrazi ham zo‘r mahorat bilan tasvirlangan bo‘lib, ular orasida Qora amma o‘ziga xos tabiatini bilan ajralib turadi. Qora amma obrazining aksariyat sifatlari romanining «Qora amma hikoyasi» qismida namoyon bo‘ladi. Qora amma – mehribon, sodda, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o‘zbek onalarining siymosi mujassam topgan. U boshiga tushgan barcha ko‘rgilklarni sabr-bardosh bilan yengib, o‘zida yashashga kuch-qudrat topadi.

Ukasi Shomurodning xotini Ra’no eriga xiyonat qilib, Umar zakunchining hiyla-nayrangiga uchadi. Ukasining oilaviy tashvishlari ham Qora ammaning yelkasiga tushadi. Kelini Ra’noning qilmishlaridan norizo bo‘lgan Qora amma uni aslo kechira olmaydi. «Juvongina o‘lgur, noinsof! Bolaning uvoli tutgur imonsiz! Eringni birovdan kam joyi yo‘q edi-ku! Cho‘loq bo‘lsa devor oshib o‘g‘rilik qilib bo‘limgandir! To‘rt yil qon kechib keldi-ku! Eri urushda o‘lgan qanchadan qancha gulday juvonlar yuribdi sabr qilib. Aqalli bolangni o‘ylasang bo‘lmasmidi, imonfurush!» – Qora amma shu zaylda yozg‘iradi. Asarda Ra’noning taqdiri badbaxtlikka borib taqaladi, u baxtsiz bo‘ladi.

Aziz o‘quvchi! Shunday o‘rinlarda adib bu dunyoning kayf-u safosiga uchmasdan, har kim o‘z qalbiga nazar solib, insof bilan yashamog‘i kerak degan ta’lim-tarbiyani berayotgandek tuyuladi.

Bir tasavvur qiling: Qora amma olti farzandini yerga berib, bittagina Kimsanini yer-u ko‘kka ishonmasdan katta qildi.

Yurtda mudhish urush boshlangach, miq etmay, el-yurt ishiga kamarbasta bo'lsin degan niyatda yolg'iz farzandi – Kimsanni urushga kuzatdi. Kimsanning peshonasiga urushda halok bo'lish bitilgan edi. Biroq Qora amma o'g'lining urushda o'lganiga ishonmadni; farzandining bir kunmas bir kun ota uyiga kirib kelishiga umid qilib yashadi. Shuning uchun aza ham ochgani yo'q. Bunday o'rirlarda ona qalbining naqadar bebaholigiga tan berasiz. Bag'ri kuygan mushtipar ona kecha-yu kunduz: «Qayoqdasan, bolam? Qaysi yurtlarda yuribsan?! Joning sog'mi o'zi? Mayli, oyoq-ko'lsiz bo'lsang ham, birov zambilda ko'tarib kelsayam jon derdim! Kaftimda olib yurardim! Otang yo'lingga termula-termula o'tdi. Endi aqalli meni o'z qo'ling bilan tuproqqa qo'ysang-chi!» – deb o'g'lini yo'qlaydi.

Qora ammaga taqdirning bu ko'rguliklari ham kamlik qildi. Yolg'izgina farzandi Kimsanning sevgilisi, o'zining o'gay qizi Robiyani ukasi Shomurodga xotin qilmoqchi bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirish unga qanchalar qiyin kechadi, uning ichki his-tuyg'ulari, ruhiy holati har qanday insonni larzaga soladi. O'g'li Kimsanning oldida, qizi Robiyaning oldida ham o'zini gunohkor sezadi, ulardan tinimsiz kechirim so'raydi: «Yuragim uvishib, boshim xam bo'lib qoldi. Men noinsof, men yuzi qaro qaysi yuz bilan?.. Kimsanim, jon bolam, kechir gunohkor onangni!»

Romandagi yana bir ayol obrazi bor – Robiya. Unga ham taqdir kulib boqmadi. Yoshligidan onasidan yetim qolgan Robiya otasi tarbiyasida ulg'ayadi. Onasining o'limidan so'ng ular Samarqanddan Toshkentga, No'g'ay qishloqqa ko'chib kelib, Husanboy ismli kishining hovlisida yashay boshlaydi. Otasi o'qituvchi bo'lgani uchun qishloq bolalarini o'qitadi. Robiya Husanboy Dumani bobo, uning xotini Qora ammani oyi, ularning o'g'li Kimsanni aka, Qora ammaning ukasi Shomurodni ada deb katta bo'ldi. Robiya sofdil, mehnatkash qiz bo'lib ulg'ayadi. U Kimsanga ko'ngil qo'ydi. Kimsan va Robiyaning sevgisi bir guli ochilmay so'ldi. Yurtda urush boshlangach, urushga ketgan sevgilisi qaytmadi. Robiya uni

yillar davomida kutdi. Urush tugaganiga bir necha yil bo‘lsa-da, uni sadoqat bilan kutishdan charchamadi.

Qora amma, ya’ni oyisi ungasovchi bo‘lib, ukasi Shomurodga so‘raganida, Robiya aql-u hushidan ayrildi: «Nima deyotganini o‘zi biladimi oyim? Axir... Kimsan akam mening qaylig‘im bo‘lsa, oyimning o‘g‘li-ku! Kimsan akam hammadan ko‘ra oyimga yaqin-ku. Nima jin urdi?»

Bechora Robiya taqdirning achchiq qismatiga ilojsiz ko‘nadi. Insonlarning murakkab taqdirini maromiga yetkazib tasvirlagan roman katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Muhtaram o‘quvchi, romanda tasvirlangan voqe-hodisalarni o‘zlarigiz yashab turgan davr bilan xayolan qiyoslab ko‘rishingiz foydadan xoli emas.

Savol va topshiriqlar

1. O‘tkir Hoshimovning o‘zi haqida yozgan «Mashaqqatli safar» nomli avtobiografik hikoyasining to‘liq matnini topib o‘qing?
2. Adib «Mashaqqatli safar» nomli tarjimayi holida ota-onasini qanday xotirlaydi?
3. Yozuvchining bolalik va talabalik yillari haqida nimalarni bilasiz?
4. «Ikki eshik orasi» romanini to‘liq o‘qib chiqing va taqdimotga tayyorlaning.
5. Asardagi Qora amma kim va unga xos bo‘lgan sifatlarni matnga tayangan holda izohlang?
6. Orif oqsoqol, Husan Duma, muallim obrazlariga tavsif berling.
7. Robiya o‘z hikoyasida bolaligi va «yangi qarindoshlari» haqida nimalarni eslaydi?
8. Robiyaning bolaligi bilan o‘z bolaligingizni qiyoslab, munosabat bildiring?
9. Asardagi sizni hayajonga solgan o‘rlinlarni belgilang va ularga munosabat bildiring?
10. «Mening bolalik xotiralarim» mavzusida ijodiy matn yozing.

JAHON ADABIYOTI



JEK LONDON

(1876–1916)



Jahon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Jek London Kaliforniya shtatinning San-Fransisko shahrida fermer oilasida tug‘ildi. U yoshligidan ko‘plab kasblar bilan mashg‘ul bo‘lib, hayotda turli mashaqqatlarni boshidan kechiradi. Kaliforniya universitetida o‘qiydi, oradan biroz vaqt o‘tib o‘qishni tashlashga majbur bo‘ladi.

Yozuvchining adabiy faoliyati 1893-yilda boshlangan. Butun ijodiy faoliyati davomida yigirmaga yaqin roman, yuz ellikdan ortiq hikoya yozadi. «Bo‘ri bolasi», «Izg‘irin bolalari» kabi asarlarida, asosan, mamlakatning shimoliy o‘lkalari to‘g‘risida hikoya qilinadi. «Qor qizi», «Hayot uchqуни», «Insonga ishonch» kabi asarlarida sarguzasht motivi yetakchilik qiladi. Jek London qahramonlari har doim erkka intiladilar, o‘z burch va majburiyatlarini har xil sharoitlarda chin dildan bajaradilar, hayot mashaqqatlarda toblanadilar. Adibning qahramonlari har qanday holatda ham insoniylikka xiyonat qilmaydi. Ayrim hikoyalarda tabiat bilan uyg‘unlashib ketgan kurashchan, zahmatkash insonlarning hayoti tasvirlanadi.

Yozuvchining «Dengiz bo‘risi», «Martin Iden» va «Uch qalb» romani dunyo adabiyotining nodir namunalari sanaladi.

Jek London 1916-yil vafot etadi.

HAYOTGA MUHABBAT

(*Hikoya*)

Ular oqsoqlanib soyga tomon tushib borardilar. Hamrohlaridan biri, oldinda borayotgani toshloq yerda qoqilib gandiraklab ketdi. Ikkalasi ham charchab holdan toygan va tishlarini-tishlariga qo'yib taqdirga tan bergenliklari yuzlaridan ko'rini turardi – bu uzoq vaqt chekkan qiyinchiliklari oqibati edi. Orqalaridagi qayish bilan tortib bog'langan og'ir yuklari yelkalarini ezardi. Ikkalasida ham bittadan miltiq. Ikkalasi ham bukchayib ko'zlarini yerdan uzmay borardilar.

– Qani endi yashirib qo'ygan joyimizdagi o'qlardan hozir ikkitaginasi bo'lsa, – deb qo'ydi ulardan biri.

Azbaroyi madorsizlikdan ovozi zaif chiqdi. U juda behaf-salalik bilan gapirardi. Toshlarga urilib, ko'piklanib oqayotgan sutdek oppoq suvga endi oyoq bosgan sherigi esa unga hech narsa deb javob bermadi.

Ikkinchisi ham sherigi orqasidan suvga tushdi. Suv muzdek sovuq bo'lishiga qaramay, ular oyoq kiyimlarini yechmadilar. Suv shu qadar sovuq ediki, oyoqlari barmoqlarigacha uvishib qoldi. Ba'zi joylarda suv tizzadan kelardi. Shunda suv shitob bilan urganda, ular o'zlarini tutolmay, gandiraklab ketardilar.

Orqada kelayotgan yo'lovchi silliq toshga tiyg'anib ketib, yiqilishiga oz qoldi, og'riqdan qattiq ixrab yubordi, ammo yiqilmadi. Boshi aylandi, shekilli, munkib ketib, xuddi havodan madad so'raganday, bo'sh qo'lini oldingga cho'zdi. O'zini o'nglab oldi-da, oldinga qadam bosdi, lekin yana toyib ketib, yiqilishiga sal qoldi. Shundan keyin, to'xtab o'z sherigiga qarab qo'ydi: sherigi esa orqasiga ham qaramay, hamon oldinga qarab ketmoqda edi. Orqada qolgan bir narsani o'ylagandek birpas qimirlamay turdi, keyin:

– Menga qara, Bill, oyog'imni chiqarib oldim, shekilli! – deb qichqirdi.

Bill oyoqlarini sudrab, sutdek oppoq suvdan kechib borardi. U orqasiga biror marta ham qayrilib qaramadi. Sherigi uning orqasidan qarab turardi. Uning yuzi avvalgidek hech

narsani ifoda qilmasa-da, ko‘zlarida yaralangan bug‘u singari chuqur qayg‘u ifodasi aks etdi.

Mana Bill qarshi qirg‘oqqa o‘tib oldi-da, kalovlanib yurib ketdi. Suvning o‘rtasida turgan hamrohi undan ko‘zini olmay qarab turdi. Uning lablari shu qadar titrar ediki, o‘sinq sariq mo‘ylovi uchib-uchib ketardi. U tilining uchi bilan qovjiragan lablarini bir yalab oldi-da:

– Bill! – deb qichqirdi.

Bu falokatga yo‘liqqan odamning jon achchig‘idagi qichqirig‘i edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi. Ketib qolgan sheringining orqasidan uzoq vaqt qarab turdi: sherigi lapang-lab, oqsoqlanib, qoqilib-suqilib, tepalikda ko‘ringan egri-bugri chiziqlar tomon asta-sekin ko‘tarilib borardi. Bill to tepalikni oshib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha, sherigi orqasidan qarab turdi. Shundan keyin u tarafdan ko‘zini uzdi-da, Bill ketgandan keyin yolg‘iz o‘zi qolgan yerni bir-bir ko‘zdan kechirib chiqdi.

U butun og‘irligini bir oyog‘iga solib turib, soatini oldi, soat to‘rt edi. So‘nggi ikki hafta ichida u hisobni yo‘qotib qo‘ydi: iyulning oxiri yoki avgustning boshlari bo‘lganligi sababli quyosh shimoli-g‘arbda bo‘lishi kerak edi. U janub tomonga qaradi. Mana shu ko‘rimsiz tepalik orqasida, allaqayerdadir, Katta Ayiq ko‘li bor, xuddi o‘sha tomonda Kanada sahrosidan mudhish Shimoliy Qutb doirasi o‘tadi, deb o‘ylab qo‘ydi. U turgan soy Kappermayn daryosining irmog‘i, Kappermayn esa shimol tomonga oqib, Koronatsiya ko‘rfaziga, Shimoliy Muz dengiziga quyiladi. Uning o‘zi u yerkarta hech qachon bormagan, lekin buning hammasini Gudzon ko‘rfazi kompaniyasining xaritasida ko‘rgan edi.

U o‘zi yolg‘iz qolgan joyini yana bir marta ko‘zdan kechirdi. Tevarak-atrof jimjit, ko‘rimsiz edi. Na daraxt, na buta, na o‘t-o‘lan ko‘rinadi – poyonsiz va dahshatli sahrodan boshqa hech narsa yo‘q. Uning ko‘zlarida qo‘rquv ifodalari ko‘rindi.

– Bill! – deb pichirladi. – Bill! – deb takrorladi u yana ketidan. Poyonsiz sahro go‘yo qudratli kuchi bilan bosayot-ganday, o‘zining mudhish sokinligi bilan ezayotganday bo‘ldi: u loyqalanib oqayotgan soy o‘rtasida cho‘qqayib o‘tirib qoldi.

U xuddi bezgak tutayotgandek qaltirab ketdi, shu payt miltig‘i shalp etib suvga tushdi. Bu uni o‘ziga keltirdi. U qo‘rquvni yengib, es-hushini yig‘di, keyin qo‘lini suvga tiqib, paypasla-di-da, miltig‘ini topdi. So‘ng mayib oyog‘iga og‘irlik kamroq tushsin deb, yukni chap yelkasiga oldi-da, og‘riqdan bashara-sini burishtirib, juda ehtiyyotlik bilan asta-sekin qirg‘oqqa to-mon yurdi.

U to‘xtamay yuraverdi. Og‘riqqa sira parvo qilmay, Bill oshib o‘tgan tepalik ustiga shosha-pisha dadil chiqaverdi. Te-palikka chiqib qarasa, vodiyya hech kim ko‘rinmadni. Uni yana qo‘rquv bosdi, keyin qo‘rquvni yengib, qopini chap yelkasiga yana ham ko‘proq surib, oqsoqlanib-oqsoqlanib pastga tusha boshladni.

Vodiyning pastligi chalchiqzor bo‘lib, chimliq jiqliq suv edi. U har qadam bosganda suv sachrar, nam chimliqdan oyog‘ini har ko‘targanida, shalop-shulip etgan tovush chiqardi. U Billning izidan yurishga intilib, ko‘loblarni aylanib o‘tar yoki chimliqlarda xuddi orol singari cho‘qqayib turgan toshlar ustidan borardi.

U yolg‘iz qolgan bo‘lsa ham, yo‘lidan adashmadi. Yana biroz yurganidan keyin atrofini pastakkina, nimjon, quruq pixta va archalar o‘rab olgan kichikkina Titchinichili ko‘liga yetib borishini bilardi, bu ko‘lning nomi mahalliy tilda «Kichik og‘ochlar o‘lkasi» degan ma’noni anglatardi. Shu ko‘lga bir ariq kelib quyiladi, suvi ham loyqa emas. Ariq bo‘ylarida qamish o‘sadi. Buni u yaxshi eslaydi – lekin u yerda daraxt yo‘q. Shu yerdan g‘arbgaga tomon boshqa bir ariq oqadi, shu ariq yoqalab u Diz daryosiga qadar boradi. Xuddi o‘sha yerda to‘nkarib, ustiga tosh bostirib qo‘yilgan qayiqni topadi. O‘sha qayiqning ostida miltiq o‘qi, qarmoq, qarmoq iplari, kichik bir to‘r, umuman, ovqat topish uchun zarur bo‘lgan narsalarning hammasi yashirib qo‘yilgan. Bundan tashqari, o‘sha yerda oz bo‘lsa ham un, bir parcha go‘sht, loviya ham bor.

Bill uni o‘sha yerda kutib turadi, keyin ikkisi Diz daryosi bilan Katta Ayiq ko‘liga boradilar, undan keyin ko‘ldan o‘tib janubga, to Makkenzi daryosiga yetib olguncha, janubga qarab boraveradilar. Janubga, hamma vaqt janubga qarab boraveradi-

lar, qish esa ularni quvib boradi. Tez oqar soy va jilg‘alar muz bilan qoplanadi, sovuq tushadi, ular esa janubga, Gudzon ko‘rfazidagi faktoriyalardan biriga yetib oladilar, u tomonlarda baland-baland azamat daraxtlar o‘sadi va oziq-ovqat ham istagancha topiladi.

Zo‘rg‘a sudralib borayotgan yo‘lovchi mana shular haqidagi o‘ylar edi. Lekin yurish qanchalik og‘ir bo‘lmisin, Bill uni yolg‘iz tashlab ketmaydi degan fikrga ishonish undan ham qiyin edi. Bill hech shubhasiz uni narsalar yashirilgan joyda kutib o‘tiradi. U shunday deb o‘ylashi kerak, aks holda, bundan keyin kurashni davom ettirishning hech hojati yo‘q – unda oyoqni cho‘zish-u, o‘lib qo‘ya qolishdan boshqa iloj yo‘q. Quyoshning xira gardishi shimoli-g‘arb tomonaga sekin-asta yashirinayotgan qishdan qochib, janub tomonga qo‘yiladigan har qadamini bir necha bor hisoblab chiqdi. U narsalar yashirilgan joydagi va Gudzon kompaniyasining omboridagi oziq-ovqat zaxirasini qayta-qayta o‘z xayolidan kechirdi. Ikki kundan beri u hech narsa yegani yo‘q, lekin undan ilgari ham to‘yib ovqat yemagan edi. U tez-tez egilib, rangsiz botqoq mevalarini uzib og‘ziga solar va chaynab yutib borardi. Mevalar juda sersuv, suvi ichiga ketib, og‘zida faqat taxir va qattiq urug‘largina qolardi. Bu mevalar qorin to‘yg‘izmasligini u bilardi, shunday bo‘lsa ham, ularni sabr bilan chaynar, chunki umid achchiq haqiqat bilan hisoblashishini istamas edi.

Soat to‘qqizlarda u oyog‘ining katta barmog‘ini o‘tkir tosh qirrasiga urib oldi. Charchoq va darmonsizlikdan gandiraklab, yiqilib tushdi. Bir yonboshiga ag‘nab, anchagacha qimirlamay yotdi. Birozdan keyin orqasidagi qop qayishini yelkasidan chiqarib, ixrab-ixrab o‘tirib oldi. Hali uncha qorong‘i tushgанича yo‘q edi, g‘ira-shirada toshlar orasini paypaslab, quruq xas-cho‘p yig‘a boshladи. Bir tutam xas-cho‘p yig‘ib, o‘t yoqdi, keyin kotelokka suv solib, burqsib yonayotgan o‘tga qo‘ydi.

U qopini ochib hammadan burun gugurtlarni sanab ko‘rdi. Hammasi bo‘lib oltmish yetti dona gugurt cho‘pi bor edi. U yanglishgan bo‘lmay deb, gugurt cho‘pini uch marta sanab

chiqdi. Gugurtni uch bo'lakka ajratib, har bir bo'lagini bir qog'ozga o'radi. Bir bo'lagini bo'sh hamyonga solib qo'ydi, ikkinchisini ohori to'kilgan shapkasingning astariga tiqdi, uchin-chisini esa ko'kragiga yashirib qo'ydi. Shundan keyin uni bordan qo'rquv bosdi: uch bo'lak gugurtni yana qaytadan ochib sanab ko'rdi. Gugurt cho'plari avvalgidek oltmish yetti dona edi.

Oyoq kiyimini o'tga tutib quritdi, mokasini julduri chiqib ketgan, odehyaldan tikilgan paypoqlari teshik, oyoqlari bo'lsa qontalash bo'lib ketgandi. To'pig'i shishib, xuddi tizzasidek yo'g'on bo'lib ketgandi. U odehyallardan bittasining chetidan uzun qilib yirtib oldi-da, to'pig'ini mahkam siqib bog'ladi. Keyin yana bir necha parcha yirtib, mokasini va paypoq o'rni-ni bosar deb, oyog'iga aylantirib o'radi-da, qaynagan suvdan ichib oldi, soatni buradi, so'ng odehyalga o'ranib yotdi.

U dong qotib uxladi. Yarim tunga borib qorong'i tushdi, lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. Shimoli-sharqdan quyosh ko'tarildi, to'g'rirog'i, o'sha tomondan tong yorisha boshladni, chunki quyosh yuzini quyuuq tuman qoplagan edi. Soat oltida u chalqancha holda uyqusidan uyg'ondi, kulrang osmonga qaradi va och qolganini sezdi. Tirsagiga suyanib, qaddini ko'targan edi, qulog'iga qattiq pishqirgan tovush eshitildi. Qarasa, unga hushyorlik va qiziqish bilan bir bug'u qarab turibdi. Bug'u undan ellik qadamcha narida turardi. Shu on-dayoq tovada jizillab qovurilayotgan bug'u go'shtining hidi dimog'iga urilgandek, o'zi go'sht mazasini totgandek bo'ldi. Beixtiyor o'qi yo'q miltig'ini olib o'qtaldi, tepkisini bosib yubordi. Bug'u cho'chib bir chekkaga tashlandi va tuyoqlarini tapillatib qochib ketdi.

U so'kinib, miltig'ini uloqtirib tashladi, ixrab-ixrab o'rni-dan turishga urinib ko'rdi, ancha uringandan keyin zo'rg'a turib oldi. Bo'g'inlari xuddi zanglab qolgandek edi, qaddini rostlash yoki bukish juda mashaqqatli edi. Nihoyat, u oyoq bosganidan keyin ham odamga o'xshab tik turib olish uchun rosa bir minutcha urindi.

U chog'roq bir tepalik ustiga chiqib, atrofga nazar tashladi. Bo'zrang chimliq dengizdan boshqa hech narsa – na daraxt, na

biron buta – hech narsa ko‘rinmasdi. Osmon bo‘z rangda edi. Quyosh na nur sochadi, na yilt etgan shu’lasini ko‘rsatadi. U shimol qayoqda ekanini, kecha kechqurun bu yerga qaysi tomondan kelganini eslay olmadi. Lekin u yo‘ldan adashmagan edi. Buni u yaxshi bilardi. U tezda Kichik og‘ochlar o‘lkasiga yetib oladi. U o‘lka shu yaqin orada, chap tomonda bo‘lishi kerak, ehtimol, xuddi mana shu ko‘rinib turgan tepalikning narigi tomonidadir.

U tepalikdan qaytib tushib, yo‘lga otlandi. Tugunini tugdi, uch bo‘lak qilib yashirgan gugurtlari turibdimi, yo‘qmi deb paypaslab ko‘rdi, lekin sanab o‘tirmadi. U bug‘uning terisidan tikilgan xaltachaga qarab turib, xayol surib qoldi. Xalta uncha katta emas, ichidagi narsalari bilan bir hovuch kelardi. Lekin og‘irligi o‘n besh qadoq bo‘lib, boshqa yukning og‘irligidan qolishmasdi – uni mana shu tashvishga solardi. U xaltani bir tomonga surib qo‘yib, boshqa narsalarni o‘ray boshladи. Keyin xaltachaga qaradi-da, uni shartta qo‘liga oldi, xuddi sahro uning qo‘lidan oltinni tortib olayotgandek, atrofga xo‘mrayib qaradi. Yana o‘rnidan turib yo‘lga tushganida, boshqa narsalar qatori xaltacha ham uning orqasida edi.

U chapga burildi. Ahyon-ahyonda to‘xtar va botqoq mevalaridan terib yer edi. Uning oyog‘i butunlay qotib qoldi, o‘zi borgan sari kuchliroq oqsar, lekin oyoq og‘rig‘i qornidagi og‘riqqa qaraganda hech gap emasdi. Ochlik azobi uni ko‘proq qiynar, qornidagi og‘riq esa unga ich-ichdan azob berardi. Endi u Kichik og‘ochlar o‘lkasiga yetib olish uchun qaysi tomonga yurishni bilmasdi. Mevalar uni ochlik azobidan qutqarolmas, til va tanglaylarini lovullatib achitardi. Kichikroq bir soylikka yetib borganida, toshlar orasidan qanotlarini qoqib, qirqirlashib bir to‘p oq kaklik ko‘tarildi. U kakliklarga qarab tosh otdi, lekin tegizolmadi. Keyin u yukini yerga qo‘yib, xuddi chumchuq poylagan mushukdek, kakliklarning orqasidan pusib-o‘rmalab bora boshladи. Shimi o‘tkir tosh qirralarga tegib yirtilib ketdi, tizzalaridan oqqan qon iz qoldirib borardi. Lekin ochlik azobi shu qadar kuchli ediki, u boshqa hech qanday og‘riqni sezmasdi. U chalchiqzor chimliqlar ustidan o‘rmalab borar, kiyimlari shalabbo bo‘lib ketgan, badani sovuqdan dir-dir titrardi-yu,

lekin u faqat ovqat haqida o‘ylar, boshqa hech narsani sezmasdi. Atrofidan ha deganda par etib uchib ketayotgan kakliklarning qir-qiri endi uni masxara qilayotgandek tuyuldi. U kakliklarni so‘kib qo‘ydi-da, ularga qarab qichqirmoqqa boshladi. Bir gal u kaklikka juda yaqin kelib qoldi, qush chamasi uxlab yotgan bo‘lsa kerak. U qush toshlar orasidan uyasidan parillab uchib chiqmaguncha, odam uni ko‘rmadi. Kaklik bexosdan parillab chiqib qolganiga qaramay, odam changal soldi. Qo‘li-da qushning uchta pati qoldi. U uchib ketayotgan qush orqasidan uzoq qarab turdi, kaklik go‘yo uning boshiga katta halokat keltirgandek, odam ko‘nglida qushga nisbatan cheksiz nafrat uyg‘ondi. Keyin orqasiga qaytib, yukini ko‘tarib oldi.

Choshgohda u bir botqoqqa yetib keldi, bu yerda ov ko‘proq edi. Xuddi unga o‘chakishganday, oldidan yigirmatacha bug‘u o‘tib ketdi, ular shunday yaqindan o‘tdiki, miltiq bilan bemalol otib olsa bo‘lardi. Bug‘ularni quvlagisi keldi, quvlasa ushlab olishiga juda ishonardi. Uning oldidan kaklik tishlagan bir qora tulki ham o‘tib ketdi. U qichqirib yubordi. Shunday qattiq qichqirdiki, cho‘chib ketgan tulki o‘zini bir chetga urdi, ammo kaklikni og‘zidan tushirmadi.

Kechqurun u qamishlar orasidan oppoq ohakdek loyqalanib oqayotgan ariqcha yoqalab borardi. Bir qamishning ostidan mahkam ushlab, xuddi piyozga o‘xshagan bir narsani sug‘urib oldi. Qamishning tomiri yumshoq bo‘lib, chaynaganda qars-qars ovoz chiqarar edi. Lekin mazasi taxir, xuddi chalchiqzor mevasiga o‘xshagan sersuv bo‘lib, och qorinni to‘yg‘izmasdi. U yukini yerga tashladi-da, xuddi kavsh qaytarayotgan molga o‘xhab kavshana-kavshana qamishlar orasidan o‘rmalab ketdi. U juda charchagan, biroz orom olgisi, yotib uxlagisi kelardi, lekin Kichik og‘ochlar o‘lkasiga yetib olish orzusi, undan ham zo‘rroq bo‘lgan ochlik azobi unga tinchlik bermasdi. U bunday uzoq shimolda qurt va qurbaqa bo‘lmasligini bilsa ham, chuqurchalardan qurbaqa axtarar, oyoqlari bilan yerni titkilab, qurt qidirar edi.

U har bir ko‘lmakni sinchiklab qaradi. Nihoyat, qosh qorayganida bir chuqurda bittagina baliq suzib yurganini ko‘rib qoldi. U qo‘lini yelkasigacha suvgaga tiqdi. Lekin baliq-

cha qo‘lidan sirg‘alib chiqib ketdi. U baliqni ikki qo‘llab tutmoqchi bo‘lib suvni loyqalatib yubordi. Esi-dardi baliq bilan bo‘lib, hayajondan suvga tushib ketdi, beligacha suvga botdi. Suvni shunday loyqalatib yubordiki, baliqni ko‘rib bo‘lmay goldi. Shundan keyin u suvning tinishini kutib turdi.

U yana baliqni tutish bilan ovora bo‘ldi, suvni yana loyqalatib yubordi. Ortiq kutishga toqati qolmadi. Yukka qo‘shib bog‘langan paqirchanı oldi-da, chuqurdagi suvni chetga olib to‘ka boshladi. Avvaliga u zo‘r berib ishladi, usti-boshi shalabbo bo‘lib ketdi, shoshganidan suvni chuqurga shunday yaqin to‘kar ediki, suv yana qaytib chuqurga oqib tushardi. So‘ngra u qo‘lining titrashi va yuragining qattiq urishiga qaramay, xotirjam ishlashga qaror berdi. Yarim soatdan keyin chuqurchada bir hovuch ham suv qolmadi. Biroq baliq yo‘q bo‘lib qolgandi. Uning ko‘zi toshlar orasidagi bir yoriqqa tushdi. Baliq shu yoriqdan katta bir chuqurga o‘tib ketibdi, u chuquarda suv shu qadar ko‘p ediki, uning suvini bir kecha-yu bir kunduzda ham tamom qilib bo‘lmasdi. Yoriq borligini ilgari bilganida, hammadan burun uni tosh bilan berkitib qo‘ygan bo‘lardi, shunda baliq uning qo‘lidan qochib qutulolmasdi. Odam chalchiq yerga o‘tdi-da, alamiga chidayolmay yig‘lab yubordi. Boshda sekin-sekin yig‘ladi. Keyin atrofni o‘rab olgan shafqatsiz cho‘lni uyg‘otmoqchi bo‘lganidek ovozining boricha ho‘ngrab yig‘layverdi. A’zoyi badani titrab, uzoq yig‘ladi.

U o‘t yoddi. Qaynagan suvdan ancha ichib, biroz isidi, yotish uchun tosh ustiga kechagidek joy qildi. Yotishdan avval gugurtning ho‘l, quruqligini tekshirib ko‘rdi va soatini burab qo‘ydi. Odeyal ho‘l va muzdek edi. Og‘riqdan oyoqlari o‘tday yonar, lekin u faqat ochlik azobini sezар edi, xolos. Kechasi har xil ziyofatlar, mehmondorchiliklar va dasturxonga tortilgan turli noz-ne’matlarni tushida ko‘rib chiqdi.

U sovuq qotib uyg‘ondi, tobi qochgandi. Quyosh ko‘rinmasdi. Yer-u ko‘kning bo‘zrang tusi yana ham quyuqlashgan, qattiq shamol esar, birinchi qor tepaliklarni oppoq libosga burkagan edi. U o‘t yoqib suv qaynatguncha havo yana ham quyuqlashgandek, yana ham sovuqlashgandek tuyuldi. Lay-

lakqor yog‘a boshlagan edi. Qor avvaliga yerga tushishi bilan eriyverdi, lekin bora-bora ko‘payib, yer betini qoplab oldi-da, quruq xas-cho‘plarni ho‘l qilib, o‘tni o‘chirdi.

Bu unga yukini orqasiga ko‘tarib, boshi og‘gan tomon-ga qarab yo‘lga chiqish uchun signal bo‘ldi. U endi Kichik og‘ochlar o‘lkasi haqida ham, Bill haqida ham, Diz daryosi sohilida qayiq ostiga yashirilgan narsalar haqida ham o‘ylamasdi. Uning xayoliga ovqatdan bo‘lak narsa kelmasdi. Ochlik uni aqldan ozdirdi. U qayoqqa ketayotganini ham o‘ylamay qo‘ydi. Unga endi ikki dunyo bir qadam bo‘lib qolgandi. Ishqilib, tekis yerda yursa bo‘lgani edi. Yo‘lda ketarkan, u mazasi achchiq bir o‘simlik topdi, giyohdan qancha topsa, hammasini yedi. Lekin bu giyoh juda oz ekan, u yerga yoyilib o‘sganidan, qor tagida qolgan edi.

Shu kecha u o‘t yoqmadi, suv ham qaynatmadni, odeyal ichiga kirib oldi-da, ochligicha yotib qoldi. Qor asta-sekin sovuq yomg‘irga aylandi. Yuziga yomg‘ir tomchilari tushayotganini sezib tez-tez uyqusidan uyg‘onardi. Tong otib, yana quyoshsiz, bulutli kun boshlandi. Yomg‘ir tingan. U endi ochlik to‘g‘risida o‘ylamay qo‘ygandi. Qorni sal-pal og‘riddi, xolos, ammo bu og‘riq unga unchalik azob bermasdi. Uning fikri biroz ravshanlashdi. Endi u yana Kichik og‘ochlar o‘lkasi haqida, Diz daryosi bo‘yiga yashirib qo‘yan narsalar haqida o‘ylay boshladi.

U yirtiq odehyaldan qolgan qismini yana uzunasiga yirtib, shilinib qontalash bo‘lib ketgan oyog‘ini bog‘ladi, chiqqan to‘pig‘ining lattasini yangiladi-da, yana yo‘lga tushishga hozirlandi. Yukni ko‘tarib olishdan oldin bug‘u terisidan tikilgan xaltaga uzoq tikilib turdi-yu, yana xaltani o‘zi bilan olib ketdi.

Yomg‘ir qorni eritib yuborgandi, tepachalarining cho‘qqilarigina oqarib turardi. Quyosh ko‘rinib qoldi, bundan foydalaniib yo‘lovchi dunyoning to‘rt tomonini belgilab oldi, yo‘ldan adashganligi aniq bo‘ldi. So‘nggi kunlarda chap tomonga ko‘proq ketib qolgan bo‘lsa kerak, endi u to‘g‘ri yo‘lga tushib olish uchun o‘ng tomonga qarab yura boshladi.

Ochlik azobi unga kor qilmay qolgan edi-yu, lekin u o‘zining holdan ketganini sezdi. Dam olgani tez-tez to‘xtar,

yerdan meva terar va qamishlarni tomiri bilan sug‘urib olardi. Uning tili qaqrab, shishib ketdi. Og‘zida ham achchiq va bemaza ta’m bor edi. Hammadan ko‘proq uni yuragi bezovta qilardi. U bir necha qadam bosmasdan, yuragi duk-duk urib ketar, qinidan chiqib ketay deb dukkillab ura boshlardi-da, nafasi bo‘g‘ilib, boshi aylanar, o‘zidan ketib qolay derdi.

Tush paytida u katta bir chuqurda ikkita tanga baliq suzib yurganini ko‘rib qoldi. Chuqurning suvini quritib bo‘lmasedi. Lekin u o‘zini ancha bosib olgandi, paqirchasi bilan baliqlarni tutib oldi. Baliqlar jimjiloqdek-jimjiloqdek kichkina edi. Lekin uning uncha ovqat yegisi yo‘q edi. Qorin og‘rig‘i ancha pasaygandi. U baliqlarni xomligicha og‘ziga solib, hafsala bilan chaynay boshladidi. Ishtahasi bo‘lmasa ham, ovqat yeishgaga o‘zini majbur qildi, chunki yashamoq uchun ovqat yeish zarurligini yaxshi bilardi.

Kechqurun u yana uchta tanga baliq tutdi, ikkitasini yeb, uchinchingisini ertalabga olib qo‘ydi. Quyosh onda-sonda uchrab turgan xashaklarni quritgandi, u suv qaynatib ichib, biroz isidi. O‘scha kuni u o‘n mildan¹ ortiq yo‘l bosolmadi. Ertasiga yuragi qattiq urib, besh milga yaqin yo‘lni bosib o‘tdi. Qorni ortiq og‘rimay qo‘ydi. Endi u notanish yerlardan borardi, bug‘ular tez-tez uchrar, hatto bo‘rilar ham ko‘rinib qolardi. Uning qu-log‘iga ularning uvillagani tez-tez chalinardi. Bir marta u pusib yo‘lni kesib o‘tayotgan uchta bo‘rini ko‘rib qoldi.

Yana tun kirdi. Tongda u biroz o‘ziga kelib, xaltaning qayishini yechdi-da, ichidagi oltinni yerga to‘kdi. Oltinni bab-baravar ikki qismga bo‘ldi. Bir bo‘lagini lattaga o‘rab, uzoqdan yaxshi ko‘rinib turadigan bir tepalikka, toshlar orasiga yashirib qo‘ydi. Ikkinci qismini yana xaltaga solib, og‘zini bog‘ladi. Keyin u bitta-yu bitta odeyalini yirtib, oyoqlarini o‘radi. Lekin u hamon miltig‘ini tashlamasdi, chunki Diz daryosi bo‘yida yashirib qo‘yilgan narsalar orasida patronlar bor, axir.

Bugun hamma yoqni quruq tuman qopladi. Shu kuni u yana ochlik azobini tortdi. Yo‘lovchi juda zaiflashib qolgan,

¹ M i l – qadimdan qo‘llab kelingan, turli davlatlarda har xil qiymatlarga ega bo‘lgan uzunlik o‘lchovi. Geografik milya – 7420 m; dengiz milyasi – 1852 m.

tez-tez boshi aylanar, vaqtı-vaqtı bilan hech narsani ko'rmay qolardi. U endi tez-tez qoqilar, yiqlar edi. Bir marta u kaklik uyasi ustiga yiqlib tushdi. Uyada endigina tuxumni yorib chiqqan kaklik bolalari bor ekan. U shoshib-pishib ularni tiriklayin og'ziga sola boshladi. Kaklik bolalarining suyaklari uning tishlari orasida xuddi tuxum po'stlog'i singari qasirlar edi. Ona kaklik uning tepasida charx aylanib, uchib yurar va achchiq-achchiq faryod qilardi. Odam miltiq qo'ndog'i bilan kaklikni urib tushirmoqchi bo'ldi, lekin qush chap berib qochdi. Keyin u kaklikka tosh ota boshladi, qanotini sindirdi. Kaklik yaralangan qanotini sudrab, bir tomonga qarab qochdi. Odam uning orqasidan quvlashga tushdi.

Kaklik bolalari uning ishtahasini yana ham ochib yubordi. U kalovlanib, oqsoqlanib, goh kaklikka tosh otib bo'g'iq tovush bilan qiyqirar, goh har yiqliganda chidam bilan o'rni dan turib, qovog'ini solib, indamay qadam tashlar edi, boshi aylanganda hushidan ketmaslik uchun ko'zlarini ishqalar edi.

Kaklik orqasidan quvib borayotib, pastlikdagi bir chal-chiqzorga duch keldi. Uning ko'zi ho'l chimliqdagi odam iziga tushdi. Bu izlar uniki emasligi ravshan edi. Billning izlari bo'lsa kerak. Lekin u to'xtab turolmasdi, chunki kaklik tobora undan uzoqlashar edi. U qushni quvlay berib charchatdi, lekin o'zining ham tinkasi quridi. Kaklik yonboshiga ag'darilib og'ir-og'ir nafas olib yotardi, lekin odam ham o'n qadamcha berida entikib yotar, qushga yetib olishga sira ham madori qolmagandi. Odam biroz dam oldi, lekin qush ham nafasini rostlagandi. U qo'l uzatish bilan qush tipirlab qochdi. Yana quvishga tushdi. Qosh qorayib, qush ko'zdan g'oyib bo'ldi. Odam juda charchaganligidan madori qurib qoqildi va orqasidagi yuki bilan yiqlidi-da, yuzlari shilinib ketdi. U anchagina qimirlamay yotdi, keyin yonboshiga ag'darilib, soatini burab qo'ydi-da, tong otguncha shu holatda yotib qoldi.

Yana tuman bosdi. Odeyalning yarmisi oyoqni o'rashga ketdi. Billning izini u qaytib topolmadidi. Endi unga baribir edi. Ochlik uni tinmay olg'a haydardi. Bordi-yu... Bordi-yu, Bill ham adashib qolgan bo'lsa-chi? Tushga borib u juda ham holdan toydi. U yana oltinni ikkiga bo'ldi. Bu gal o'lchab

o‘tirmay, yarmisini yerga to‘kib qo‘ya qoldi. Kechga borib, odehyalning yarmini, paqircha va miltiqni olib qolib, oltinning hammasini yerga to‘kib tashladi.

Ba’zi bir fikrlar uning miyasini juda chulg‘ab olgandi. Tasavvurida miltiqda xuddi bir o‘q bordek, u esa buni ko‘rmay qolgandek edi. Shu bilan bir vaqtida miltiqda o‘q yo‘qligini yaxshi bilardi. Lekin bu xom xayol uni sira tinch qo‘ymasdi. Pirovardida miltig‘ini qarab, o‘qning yo‘qligiga ishonch hosil qildi. Shunday hafsalasi pir bo‘ldiki, go‘yo u, haqiqatan ham, o‘q borligini kutgan edi.

Yarim soat o‘tdi. Keyin miyasiga yana o‘sha fikr keldi, u bu fikrni miyasidan chiqarib tashlayolmadi-da, o‘zini biroz ovutish uchun miltig‘ini yana tekshirib chiqdi. Ahyon-ahyonda miyasi ishlamay qolar, o‘zi esa jonsiz narsadek beixtiyor kalovlanib borar edi; g‘alati xayollar va bema’ni tasavvular uning miyasini qurtday kemirar edi. Lekin u tez o‘ziga kelardi, chunki ochlik uni hamma vaqt haqiqatga qaytishga majbur qilardi. Bir marta uning ko‘z oldida shunday bir ajib manzara paydo bo‘ldiki, hushidan ketib qolishiga sal qoldi. Uning oldida bir ot turardi. Ot! U ko‘zlariga ishonmadi. Ko‘z oldi jimirlashib, atrofni tuman bosganday bo‘ldi. U zo‘r berib ko‘zini ishqaladi, ko‘z oldi ravshanlanganda qarasa, qarshisida ot emas, kattakon bir targ‘il ayiq turibdi. Ayiq unga o‘grayib-o‘grayib qarardi. U miltig‘ini yelkasidan oldi-yu, shu ondayoq esini yig‘di. Miltiqni qo‘yib, munchoq qadalib tikilgan qinidan pichog‘ini sug‘urdi. Uning oldida go‘sht va hayot turardi. Bosh barmog‘i bilan pichoqning tig‘ini tekshirib ko‘rdi. Pichoqning tig‘i ham, uchi ham o‘tkir edi. U hozir ayiqqa tashlanib, uni o‘ldiradi. Lekin uning yuragi xuddi xavfdan ogohlantirayotgandek, duk-duk ura boshladи. Keyin birdan yuragi qinidan chiqar darajada sakrab ketdi; miyasi xuddi iskanjaga olgandek qattiq og‘ridi, ko‘z oldi qorong‘ilashdi.

Hozirgina jo‘sh urib turgan botirlik o‘rnini qo‘rquv egaladi: u shu qadar zaif tortib ketdiki, ayiq hujum qilsa, nima bo‘ladi? U mumkin qadar haybatliroq bo‘lib ko‘rinish uchun qaddini rostladi, pichoqni qo‘liga olib, to‘g‘ri ayiqning ko‘zlariga tikildi. Yirtqich lapanglab oldinga bir qadam bosdi, ikki

oyog‘ini ko‘tarib o‘kirib yubordi. Odam qochganida, ayiq uning orqasidan quvgan bo‘lardi. Lekin odam qo‘rquvni bosib, o‘rnidan qimirlamadi; u ham yirtqich hayvonday dahshat bilan o‘kirib yubordi, bu o‘kirik qo‘rquv ifodasi edi, chunki qo‘rquv yashash uchun kurash bilan chambarchas bog‘liq.

Ayiq undan qo‘rqmay tik turgan mana shu sirli maxluqdan hayiqib, o‘kirkancha bir tomonga chekindi. Lekin odam o‘rnidan qimirlamadi. U xavf o‘tib ketguncha qaqqayib turaverdi, keyin xuddi bezgak tutgandek, titrab-qaqshab ho‘l chimliqqa yiqildi.

U biroz o‘ziga kelib, qo‘rquv ichida yana yo‘lga tushdi. U endi ochlikdan o‘lishdan emas, balki hayot uchun kurashning so‘nggi intilishlari so‘nguncha yirtqich hayvonlar panjasida o‘lib ketishdan qo‘rqardi. Atrofida bo‘rilar izg‘ib yuribdi.

Bo‘rilar ikkita-ikkitadan, uchta-uchtadan bo‘lib, tez-tez uning yo‘lini kesib o‘tishardi. Lekin ular odamga yaqin keshmasdi. Ular juda ham ko‘p emasdi. Bundan tashqari, ular qarshilik ko‘rsatmaydigan bug‘ularni ovlashga o‘rganishgan edi, ikki oyoqli g‘alati maxluq esa chang solib qolsa ham, tishlab olsa ham ajab emasdi.

Kechga borib u yerda sochilib yotgan suyaklarni ko‘rib qoldi. Bo‘rilar xuddi mana shu yerda ovni qo‘lga tushirishgan edi. Bir soat ilgari bu bug‘ucha sakrab-sakrab, ma’rab yurgandi. Odam top-toza qilib qo‘yilgan, yarqiroq qizg‘ish suyaklarga qarab turdi. Suyaklarning rangi qizg‘ish edi, chunki undagi hayot hali so‘nmagandi. Kechqurunga borib, ehtimol, uning taqdiri ham shunday bo‘lar. Hayot shunaqa, hayot bevafo va bebaqo. Lekin hayot alam chektiradi, o‘limda esa qiyinalish yo‘q. O‘lmoq uxlamoqdir, o‘lim orom olmoqdir. Bo‘lmasa nima uchun u o‘lishni istamaydi?

Lekin u uzoq o‘ylab o‘tirmadi. Ko‘p o‘tmay u cho‘kka tushdi-da, suyaklarni kemira boshladи, suyaklarga qizg‘ish tus berib turgan hayotning oxirgi nishonalarini so‘rmoqqa tutindi. Go‘shtning o‘tmishdan qolgan xotira singari bo‘lib tuyulgan sezilar-sezilmas mazasi uni o‘zini yo‘qotar darajada hayajonga soldi. Suyakni tishlari orasiga olib, g‘ajiy boshladи. Goh suyak sinar, goh uning tishi sinardi. Keyin u suyakni tosh

bilan yanchib, ochko‘zlik bilan yuta boshladи. Shoshilganidan toshni barmoqlariga urar, ammo qancha hovliqmasin, nima uchun og‘riqni sezmayotirman deb ajablanib qo‘yardi.

Qor va yomg‘irli kunlar yetib keldi. U endi qachon yotib, qachon yo‘lga tushganini eslay olmasdi. Vaqt ni surishtirmay, kechasi ham, kunduzi ham yo‘l bosdi, yiqilgan yerida dam oldi, undagi so‘nayotgan hayot uchquni alangalandi deguncha yana oldinga qarab o‘rmaladi. Odam endi hayot uchun kurashmay qo‘ydi. Undagi hayotning o‘zi o‘lishni istamas, shuning uchun ham uni ilgariga haydardi. U ortiq azob chekmasdi. Uning asablari uyushib qolgan, miyasi esa g‘alati xayollar, shirin tushlar bilan to‘la edi.

U yo‘lda borarkan, bitta qo‘ymay yig‘ishtirib olgan suyaklarni tinmay so‘rar va chaynar edi. U ortiq tepaliklarga ko‘tarilmas, ariqlarni kechib o‘tmasdi, u endi keng vodiydan oqib o‘tayotgan anhor yoqalab borardi. Uning ko‘ziga xayoliy manzaralar ko‘rinardi. Uning tani bilan joni birga borardi-yu, shunday bo‘lsa ham, ular bir-biridan ajralgandek edi: ularni bir-biriga bog‘lab turgan hayot rishtasi shu qadar ingichka edi.

Bir kuni u yassi tosh ustida yotganida hushi o‘ziga keli-
di. U uzoq vaqtgacha qimirlamay yotdi. Quyosh saxiylik bilan nur sochib, uning ayanchli badanini isitar edi. U ming azob-uqubat bilan bir yonboshiga ag‘darildi. Pastda katta sokin bir daryo oqib yotardi. Bu daryo odamga notanish edi: bu uni ajablantirdi. U notanish daryoning oqimini shoshmasdan, sovuqqonlik bilan to ufqqa qadar kuzatdi-da, daryoning uzoqda yarqirab turgan dengizga quyilayotganini ko‘rdi. Shunday bo‘lsa ham, bu narsa uni sira hayajonlantirmadi. «Qiziq, – deb o‘yladi u. – Ko‘zimga shunday ko‘rinyaptimi yoki miyam aynib qoldimikin?» Dengiz o‘rtasida langar tashlab turgan kemani ko‘rganida bu fikrning to‘g‘ri ekanligiga yana bir bor ishondi. U bir zumga ko‘zlarini yumib yana ochdi. Qiziq, o‘sha narsalar yana ko‘rindi. Bunga ajablanmasa ham bo‘lar-di. Miltig‘ida patron bo‘lmaganidek, mana shu sahroning qoq o‘rtasida dengizning ham, kemaning ham bo‘lishi mumkin emasligini bilardi u.

Orqadan xirillagan bir tovush eshitildi, bu xo'rsinishmi, yo'talmi – bilib bo'lmas edi. G'oyat zaiflik va karaxtlikni juda sekinlik bilan yengib, u ikkinchi yonboshiga ag'darildi. Yaqinida hech narsa ko'rinnadi. U sabr bilan kuta boshladi. Yana xirillagan va yo'tal tovushi eshitildi. Yigirma qadamcha narida o'tkir qirrali ikki toshning orqasidan bir bo'rining kulrang boshi ko'rindi. Uning quloqlari boshqa bo'rilarniki singari tik emas, ko'zlar xira va qon quyilgan, boshi solingan. Bo'ri kasal bo'lsa kerak: u tinmay aksa urar va yo'talar edi.

«Hech bo'limganda bunisi haqiqatdir» deb o'yładi u va sarob pardasi bilan qoplanmagan, haqiqiy dunyoni ko'rish uchun boshqa yonboshiga ag'darildi. Lekin dengiz hali ham ilgarigidek uzoqda yaltirab turar, kema ham aniq ko'zga chalnardi. Ehtimol, bu rostdan ham haqiqatdir. U ko'zlarini yumib o'ylay boshladi. Pirovardida hamma narsa ayon bo'ldi. U shimoli-sharqqa qarab yurgan va Diz daryosidan uzoqlashib, Kappirmayn daryosi vodisiga kelib qolgan. Sokin oqayotgan shu daryo Kappirmayn daryosining xuddi o'zginasi. Yaltirab turgan dengiz Shimoliy Muz dengizi. Bu kema kit ovchilarining kemasi bo'lib, Makkenzi daryosi dengizga quyiladigan joydan sharq tomonga ancha ketib qolgan. Bu kema Koronatsiya ko'rfazida turibdi. U bir vaqtlar ko'rgan Gudzon ko'rfazi kompaniyasining xaritasini esladi-yu, shunda bor gap ravshan va tushunarli bo'lib qoldi.

U yerga o'tirib oldi-da, eng zarur ishlar haqida o'ylab ketdi. Oyoqlarini o'rab bog'laganodeyal parchalari titilib ketganidan oyoqlari shilinib qip-qizil go'sht bo'lib qolgandi. Eng so'nggiodeyalni ham ishlatib bo'lgan. Miltiq bilan pichoq yo'qolgan. Qalpog'i ham tushib qolibdi, qalpoq bilan birga astariga yashirilgan gugurt ham yo'qolgandi, lekin qog'ozga o'rab, hamyoniga yashirib qo'ygan gugurt hali ham turibdi. U soatiga qaradi, soati yurib turar va o'n birni ko'rsatardi. Soatni burab turgan bo'lsa kerak.

U xotirjam, aqli joyida edi. Juda ham holdan toyganiga qaramay, og'riqni sezmas, ovqat yegisi ham kelmasdi. Ovqat haqida o'ylagisi ham kelmasdi. U nima qilmasin, hammasini idrok hukmi bilan qilardi. U shimining pochasidan to tizzasi-

gacha yirtib oldi-da, to‘pig‘ini o‘rab bog‘ladi. Chelakchasini nima uchundir tashlamagan edi. Kemaga qarab yo‘l solishdan avval suv qaynatib ichish kerak – bu safarning juda og‘ir bo‘lishini u oldindan bilardi.

U juda sekin qimirlar, shol odamdek qaltirar edi. Quruq xashak yig‘moqchi bo‘ldi-yu, lekin o‘rnidan turolmadidi. Bir necha marta o‘rnidan turishga urinib ko‘rdi, bo‘limgach, emaklab ketdi. Bir gal hatto kasal bo‘rining oldiga juda yaqin borib qoldi. Bo‘ri istar-istamas o‘zini chetga oldi va zo‘rg‘a tilini qimirlatib, tumshug‘ini yaladi. Uning tili sog‘lom bo‘rinikidek qizil emas, kulrang, sarg‘ish bo‘lib, yelim singari quyuq shilliq bilan qoplangan. Odam qaynagan suvdan ichdi-da, deyarli kuch-quvvatdan qolgan bo‘lsa ham, o‘rnidan turishga, hatto yurishga ham madori yetishini his qildi. Daqiqa sayin to‘xtab dam olardi, bazo‘r qadam tashlar, bo‘ri ham uning orqasida xuddi shu yo‘sinda sudralib borardi.

Qorong‘i tushib, yarqirab turgan dengiz zulmat ichiga g‘arq bo‘lganida, u oraliqdagi masofa ko‘p emas to‘rt milga qisqarganini anglatdi.

Tun bo‘yi kasal bo‘rining yo‘talishi va ba’zan bug‘u bolalarining ma’rashi eshitilib turdi. Atrofda hayot qaynamoqda, u kuch-quvvatga to‘la, sog‘lom hayot. U esa orqasidan kasal bo‘ri ergashib kelayotganini, kasal odam avval o‘ladi degan umidda ekanligini tushunar edi. Ertalab turib qarasa, bo‘ri unga g‘amgin va ochko‘zlik bilan tikilib turibdi. Bo‘ri dumini qisib, xuddi tinkasi qurigan it kabi boshini quyi solib turardi. Bo‘ri sovuq shamolda qaltirar, odam xirillagan tovush bilan unga so‘z qotganida, tishini ko‘rsatib irillar edi.

Ufqdan yorqin quyosh ko‘tarildi. Odam choshgohga qadar yiqilib-surilib yaltiroq dengizda turgan kemaga qarab yurdi. Tushdan keyin u bir izga duch keldi. Bu boshqa bir odamning izi bo‘lib, u odamning emaklab yurgani bilinib turardi. «Ehtimol, bu Billning izidir» deb o‘yladi u xotirjam. Unga baribir edi. To‘g‘risi, u hech narsani sezmay, hech narsadan hayajonlanmay qo‘ygan edi. U hatto og‘riqni ham sezmasdi. Qorin bilan asablari go‘yo mudrab qolgandek. Lekin hali so‘nmagan hayot uchquni uni olg‘a boshlardi. U juda char-

chagan, lekin sira o'lgisi kelmas edi. Shuning uchun ham u chalchiqzordan meva terib yer, tanga baliq ovlar, suv qaynatib ichar va olazarak bo'lib kasal bo'rini kuzatar edi.

U o'rmalab o'tgan boshqa odamning izidan borardi. Ko'p o'tmay, o'zidan oldingi odamning manziliga yetib keldi. Ho'l chimliq ustida kemirib tashlangan suyaklar va bo'rining iziga ko'zi tushdi. Yerda xuddi o'zinikiga o'xshash, o'tkir tishlar tortqilab yirtgan bug'u terisidan tikilgan xalta yotardi. Bunday og'ir yukni ko'tarishga madori kelmasa ham, kuchsiz barmoqlari bilan qopni yerdan ko'tarib oldi. Bill oltinlarini so'nggi daqiqalarga qadar tashlamagan. Ha-ha-ha! U hali Billning ustidan masxara qilib kuladi, tirik qoladi va xaltani yarqirab turgan dengizdag'i kemaga olib ketadi. U xuddi qarg'aning qag'illashiga o'xshagan bo'g'iq ovozda dahshatli qilib kular-di. Kasal bo'ri ham unga jo'r bo'ilb xirillagan tovush bilan uvilladi. Odam darhol jim bo'ldi. Agar mana shu suyaklar Billniki bo'lsa, shu toza kemirilgan, qizg'ish suyaklar Billniki bo'lsa, qanday qilib uning ustidan kulyapti-ya!

U yuzini o'girib oldi. Nima qilsin, Bill uni tashlab ketdi, lekin u Billning oltinlarini olmaydi, uning suyaklarini kemirmaydi. «Agar mening o'rnimda Bill bo'lganida shunday qilgan bo'lardi» deb o'ylab qo'ydi va kalovlanib yo'lga tushdi.

U kichkina bir ko'lga duch keldi. Baliq yo'qmikan deb chuqurchaga engashib qaradi-yu, xuddi ilon chaqqandek ses-kanib o'zini orqaga tashladi. Suvda u o'z aksini ko'rib qoldi. Basharasi shu qadar qo'rqinchli ediki, bu diydasi qotib qolgan odamning ko'ngliga vahima soldi. Ko'lchada uchta baliq suzib yurardi, lekin ko'lcha kattagina bo'lib, suvni quritishga uning qurbi yetmasdi. U baliqlarni chelakcha bilan tutishga urinib ko'rdi, keyin bu fikrdan qaytdi. O'lgundek charchaganidan suvga yiqilib, cho'kib ketaman deb qo'rqli. Cho'kib ketishidan qo'rqlib, u qumloq sohilda yog'och xodalar ko'p bo'lsa ham, sol yasab, daryodan suzib ketishga jur'at qilolmadi. O'sha kuni u kemagacha bo'lgan masofani uch milga qisqartdi. Er-tasiga esa ikki mil yo'l bosdi. Endi u xuddi Billga o'xshab o'rmalab borardi. Beshinchi kun kechqurun kemaga yetish uchun yana yetti mil yo'l qolgan edi; endi bir kunda bir mil



yo'l bosishga ham madori qolmadi. Erta kuzning iliq kunlari hali tugamagan edi, u esa goh o'rmalar, goh hushidan ketib yiqilardi, kasal bo'ri esa yo'talib, aksa urib, uning orqasidan qolmay sudralib borardi. Odamning tizzalari qip-qizil go'sht bo'lib ketgan, tovonlari bundan ham badtar edi. Ko'ylagidan yirtib olib tizza va tovonlarini o'rabi bog'lagan bo'lsa ham, orqasidan chimliq va toshlar ustiga qonli iz qoldirib borardi. U bir marta orqasiga qayrilib qarab, bo'rining ochko'zlik bilan qonli izlarini yalayotganini ko'rib qoldi. Agar bo'rini bir yoqliq qilmasa, holi nima kechishini juda yaxshi bilardi. Shundan keyin hayotda uchrashi mumkin bo'lgan kurashlarning eng shiddatlisi boshlandi: emaklab borayotgan kasal odam, uning orqasidan sudralayotgan kasal bo'ri – ikkisi ham chala o'lik holda bir-birini poylashib, sahrodan sudralib bordilar.

Bo'ri sog' bo'lganida, odam bunchalik qarshilik ko'rsatib o'tirmagan bo'lardi, lekin mana shu badburush, deyarli o'laksa bo'lib qolgan razil maxluqning qorniga tushishini o'ylasa, ko'ngli aynir edi. U yana alahlay boshladidi, yana ko'ziga allanimalar ko'rina boshladidi, bu safar uning o'ziga kelishi ancha qiyin bo'ldi.

Bir marta xuddi qulog'i ostida kimdir tez-tez nafas olayotganini eshitib, hushiga keldi. Tepasida turgan bo'ri o'zini orqaga tashladi va qoqilib ketdi-da, nimjonligidan yiqilib

tushdi. Bu juda kulgili edi, lekin odam kulmadi. U hatto qo‘rqmadi ham. U endi qo‘rqish nimaligini ham sezmay qolgan edi. Uning ongi bir daqiqaga ravshanlashdi, u o‘ylab ketdi. Kemaga qadar endi ko‘pi bilan to‘rt mil yo‘l qolgandi. U tuman bosgan ko‘zlarini ishqalab, kemani juda ravshan ko‘rdi, yarqirab turgan dengizni kesib o‘tayotgan oq yelkanli qayiqchani ham ko‘rdi. Lekin bu to‘rt millik masofani bosib o‘tishga holi qolmagan edi. Odam buni bilardi, shuning uchun ham bezovtalanmadidi. Yarim mil ham yo‘l bosa olmasligiga aqli yetardi. Shunday bo‘lsa ham yashashni istardi. Shuncha azob-uqubatlardan keyin o‘lib ketish bema’nilik bo‘ldi. Taqdir undan juda ko‘p narsa talab qilardi. Joni halqumiga tiqilganda ham u o‘limga bo‘ysunishni istamasdi. Ehtimol, bu aqlsizlik edi, lekin u o‘lim changaliga tushib qolgan bo‘lsa ham, uning changalidan qutulib chiqish uchun jon-jahdi bilan kurashaverdi.

U ko‘zlarini yumib, bor kuchini to‘pladi. Xuddi to‘lqin singari uning vujudini bosib olayotgan alahsirashga yon bosmaslik uchun o‘zini tetik tutishga urinardi. Bu to‘lqin o‘qtin-o‘qtin ko‘tarilib, uning ongini xiralashtirardi. Ba’zan u chorasziz tipirchilab, o‘zini bilmay qolar, keyin yana bir amallab hushini yig‘ar edi.

U qimirlamasdi, chalqancha yotganicha kasal bo‘rining xirillagan tovushi tobora yaqinroq eshitilayotganiga qulq soldi. Bo‘rining nafasi juda yaqindan eshitila boshladi-yu, qurg‘ab qolgan til xuddi shildiroq qog‘oz singari uning yuzini timdaladi. Qo‘llari yuqoriga cho‘zildi, barmoqlari xuddi changak singari bukildi, lekin mehnati zoye ketdi. Tez va ishonch bilan harakat qilish uchun kuch kerak, unda esa kuch yo‘q.

Bo‘ri sabrli edi, lekin odam undan ham sabrliroq edi. U hushdan ketib qolmaslik uchun urinib va bo‘rini poylab, yarim kun qimirlamasdan yotdi. Bo‘ri uni yemoqchi edi, qo‘ldan kelsa, odam ham bo‘rini yemoqchi edi. Vaqt vaqt bilan u hushidan ketib qolar, shunda u uzoq-uzoq tushlar ko‘rar edi; lekin tushida ham, o‘ngida ham mana hozir bo‘ri tili bilan meni yalaydi deb kutib yotardi.

Nafas tovushini eshitmadi, lekin bo‘ri uning qo‘lini ya-
layotganligini sezib o‘ziga keldi. Odam kutib yotdi. Bo‘ri
uning qo‘lini tishlari orasiga olib kuchining boricha qisdi,
keyin u shuncha vaqt kutgan g‘animatiga tishlarini qattiqroq
botiraverdi. Lekin odam ham shu paytni sabrsizlik bilan kut-
gandi, uning tishlangan qo‘llari bo‘rining jag‘ini qisdi. Bo‘ri
bazo‘r o‘zini himoya qilardi, odam bir qo‘li bilan uning jag‘ini
qisardi, ikkinchi qo‘lini ham uzatib bo‘rining tomog‘idan
bo‘g‘a boshladи. Besh daqiqadan keyin odam o‘zining butun
og‘irligi bilan bo‘rini bosib tushdi. Bo‘rini bo‘g‘ib o‘ldirish
uchun uning kuchi yetmas, shunda odam tishi bilan bo‘rining
tomog‘iga yopishdi, uning og‘zi yungga to‘ldi. Yarim soat
o‘tdi, odam o‘z tomog‘iga issiq qon quyilayotganini sezdi.
Xuddi uning og‘ziga eritilgan qo‘rg‘oshin quyilayotgandek,
uni yutish bir azob edi. Lekin u o‘zini chidashga majbur
qildi. Keyin odam chalqanchasiga ag‘darildi-da, uyquga ketdi.

Kit ovlovchi «Bedford» kemasida ilmiy ekspeditsiya
a’zolari bor edi. Ular kema palubasida turib, qirg‘oqda g‘alati
bir maxluqni ko‘rib qolishdi. Bu maxluq qum ustida zo‘rg‘a
o‘rmalab dengiz tomonga kelardi. Olimlar buning nima ekan-
ligini bilolmadilar, tabiatshunos bo‘lganliklari uchun qayiqcha-
ga o‘tirib qirg‘oqqa suzib ketdilar. Ular tirik bir maxluqni
ko‘rdilar, lekin uni odam deb bo‘ladimi?! U hech narsani
eshitmas, hech narsani tushunmas, qum ustida ulkan qurt
singari buralar edi. U oldinga deyarli siljimas, lekin orqasiga
ham qaytmasi, buralib-buralib oldinga qarab harakat qilar va
soatiga yigirma qadamdan yo‘l bosardi.

Uch hafta o‘tgandan keyin u «Bedford» kemasida karavotda
yotgan holda ko‘z yoshlarini oqizib, o‘zining kimligi va qan-
day mashaqqatlarni boshidan kechirganini hikoya qilib berdi.
U onasi, serquyosh janubiy Kaliforniya apelsin daraxtlari va
gullar orasiga ko‘milgan uyi haqida poyma-poy gapirib berdi.

Bir necha kun o‘tgandan keyin u olimlar va kapitan bilan
birga kayut-kampaniyada o‘tirar edi. U ovqatning mo‘lligidan
quvonar, boshqalarning og‘ziga tushib yo‘q bo‘lib ketayotgan
har bir luqma uni zo‘r tashvishga solardi. Uning aqli joyida,
lekin stol atrofida o‘tirgan odamlarga nafrat bilan boqardi.

Ovqatning tamom bo‘lib qolishidan qo‘rqib, bezovta bo‘lardi. U hadeb oshpazdan, xizmatchi boladan, kapitandan ovqat zaxirasini surishtirardi. Ular yuz martalab tasallli bersalar ham ishonmas, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani ovqat omboriga tez-tez tushib turardi.

Kemadagilar uning o‘nglanayotganini sezib qoldilar. U kun sayin semiraverdi. Olimlar bosh chayqab turli taxminlar qilishardi. Unga ovqatni kamroq bera boshladilar, lekin shunda ham semirib, qorin sola boshladi.

Matroslar bunga kulishardi, ular gap nimada ekanligini bilishardi. Olimlar uning orqasidan poylab, sirni bilib oldilar. Ertalab nonushtadan keyin u bakka chiqar va matroslarga xuddi tilanchiday qo‘l cho‘zardi. Matros kulib, unga suxari berardi. U ochko‘zlik bilan suxarini olar va xuddi oltunga ko‘zi tushgan xasisdek, nonni qo‘ltig‘iga urardi. Boshqa matroslar ham yo‘lini topib, uni quruq qo‘ymasdi.

Olimlar indamay uni o‘z holiga qo‘yib qo‘ydilar. Ular o‘ziga bildirmay uning karavotini tekshirdilar. Karavotning osti suxari bilan to‘la edi. To‘sakning ichiga ham suxari to‘ldirgan ekan. Har bir burchakka suxari yashirilgan. Lekin uning miyasi joyida edi. U faqat, yana och qolguday bo‘lsam deb shuning chorasini ko‘rardi, xolos. Olimlar bu kasallik tez o‘tib ketadi degan fikrda edilar. Haqiqatan ham, «Bedford» kemasi San-Fransisko gavaniga langar tashlamasidanoq bu kasal o‘tib ketdi.

«HAYOTGA MUHABBAT» HIKOYASI HAQIDA

Jek London «Hayotga muhabbat» hikoyasida insonni tabiat kuchlari bilan yonma-yon, unga basma-bas tarzda tasvirlaydi. Insonning kurashuvchanligi va umidiga urg‘u beradi. Hikoya qahramonining hayotga bo‘lgan muhabbatni o‘lim ustidan g‘alaba qozonadi.

Hikoya o‘ziga xos syujet qurilishiga ega. Boshida yo‘lga chiqqan, aniqrog‘i borgan yo‘lidan iziga qaytayotgan ikki yo‘lovchining holati tavsirlanadi. Ulardan biri – Bill oyog‘i cho‘loqlanib qolgan sherigini tashlab ketadi. Shundan keyin

bepoyon kengliklarda bittagina qahramonning o‘zi qoladi. Yo‘lda boshidan kechirgan mashaqqatlari, ochlikdan sillasi qurib, tabiatning turli ne’matlaridan tatib ko‘rishlari, atrofidagi hayvon va qushlarni tutib yeyishga urinish va boshqalari juda ta’sirli va aniq tasvirlanadi.

Ortda qolgan yo‘lovchini Jek London negadir nomlamaydi. Oddiygina qilib «odam» deb qo‘ya qoladi. Bu bilan adib nima demoqchi bo‘lgan? Balki muallif mana shu birgina obraz misoldida butun insoniyatning matonatini, sabr-bardoshini aks ettirib bermoqchi ham bo‘lgandir?

Odatda, Jek London asarlarida oltin izlovchilar, oltinni qo‘lga kiritish yo‘lida turli mashaqqat va sarguzashtlarga duch kelgan insonlar taqdiridan hikoya qiladi.

«Hayotga muhabbat» hikoyasining ikki qahramoni ham kerak manzilga yetib borib, xaltalariga keraklicha – o‘zлari ko‘tarishga kuchi yetguncha oltin solib olgan ikki kimsa. Shu ikki inson oltin bilan sinaladi.

Hikoya mazmunida inson uchun bu olamda oltindan ko‘ra muhimroq narsa, ya’ni tirik qolish, halovatda yashash va o‘z maqsadiga erishish yo‘lida tinimsiz intilish muhimligiga doir fikrlar mujassam topgan.

O‘zi istamagan holda Billdan ajralib qolgan yo‘lovchi olib kelayotgan zil-zambildek oltinlardan avval yarmini, keyingi safar hammasini tashlab yuboradi. Kimsasiz joyda yeyishga bir burda noni, yordamga cho‘ziladigan birorta qo‘l bo‘lmagan odam uchun oltinning aslo qadr-qiymati yo‘q. Och qolgan va hayot uchun kurashayotgan kimsaga oltin foyda bermaydi.

Yo‘lovchi bir manzilga yetganida uni tashlab ketgan sheri-gi Billning oltin solingan xaltasi va bo‘rilar ship-shiydam qilib tozalagan suyaklariga duch keladi. Hamrohini yolg‘iz tashlab ketgan, oltinga muhabbat qo‘yan odamni qanday ayanchli oqibatlar kutib turganini kitobxon ko‘rib, to‘g‘rilik, sadoqat, insof kabi bebaho insoniy tuyg‘ular ustida mulohaza yuritadi.

Yozuvchi tiriklik qadriga urg‘u berish uchun «o‘lim chan-galiga tushib qolgan» qahramonini turli to‘sqliarga ro‘baro‘ qiladi; kimsasiz sahro, suv, ko‘lmak, ayiq, bo‘ri – bular yo‘lovchiga hayotga muhabbatini oshirish uchun vosita vazi-

fasini bajaradi. Yo'lovchi yo'lida davom etib, to'siqlarga duch kelganida siz ham o'zingizni go'yoki u bilan birga his etasiz. Ba'zida yonginangizdan bug'ular yugurib o'tganida, noiloj o'kinasiz, gohida esa bahaybat targ'il ayiq qarshisida turgan-dek kalovlanasiz; yo'lovchining taxir, nordon botqoq mevalarini yeb afti burishgani ham beixtiyor sizga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa jahon adabiyotining betakror adibi Jek Londonning o'ziga xos qalam tebratish uslubidan darak beradi.

«U juda charchagan, lekin sira o'lgesi kelmas edi. Shuning uchun ham u chalchiquzordan meva terib yer, tanga baliq ovlar, suv qaynatib ichar va olazarak bo'lib kasal bo'rini kuzatar edi». U o'z yo'lida davom etar ekan, butun o'y-xayoli tirik qolish bilan band. Hayoti so'nib borayotgan tinimsiz aksa urib, yo'talgan kasal bo'ri odamga ergashib yuribdi. Kasal bo'rining quvvati ketgan, hujum qilishga madori yo'q. Bo'ri odamning harakatsiz qolishini, o'limini kutadi. Adib o'quvchiga o'lim va hayot chegarasida yurgan odam bilan bo'rini qiyoslashga imkon beradi. Odam bo'rini, bo'ri esa odamni yenishga tayyor. Biroq har ikkovida ham mador yo'q. Odamda esa yashashga umid bor. Shuning uchun uncha uzoq bo'lмаган masofadan ko'ziga ko'rriburgan dengiz va undagi kemaga yetib olish uchun harakat qiladi. Bir mahal ko'zi ilinganda och, kasal bo'ri tishlarini uning qo'liga botira boshlaydi. Odam bo'rining jag'iga yopishadi, kuchi yetmasligini bilgach, u tishi bilan bo'rining tomog'iga yopishadi. Odam g'olib keladi. Hikoya tugashida «g'alati maxluq»ni kit ovlovchi ilmiy ekspeditsiya a'zolari o'limdan qutqargani bayon etiladi.

Siz hikoya qahramonining o'limdan qutulgani uchun mam-nun bo'lasiz; kemadagilarga o'z boshidan o'tganlarini so'zlab bergan, pokiza taomdek ne'mat qadrini bilgan bu kimsaning kelgusida saodatlilaydi kechirishiga ishonasiz. Lek Londonning mahorati shundaki, hikoyadagi harakatlanayotgan qahramon tegrasidagi har bir narsa-predmatni, jonli va jonsiz narsalarni, yemish uchun turli o'simlik, mayda baliqchalar va hasharotlarni tatib ko'rayotgan odam holini juda real-aniq tasvirlaydi.

Har kim o‘zini ushbu hikoya qahramoni o‘rniga qo‘yib ko‘rishi tabiiy. Shu ma’noda Jek Londonning mazkur asari o‘quvchida tinch-xotirjam hayot to‘g‘risida o‘ylantiradi; ko‘nglida ezgu hislar kuchayishiga yordam beradi.

Aziz o‘quvchi, bu hikoya sizda katta taassurot uyg‘otishi tabiiy. Hikoya sizda Alloh bergen ne’matlarga nisbatan shukronalik, do‘stga sodiqlik va, eng asosiysi, hayotga muhabbat tuyg‘ularini orttirsa, yozuvchi o‘z muxlislari oldidagi adabiy vazifasini tugal bajargan bo‘ladi, albatta.


Savol va topshiriqlar

1. Matndan inson va tabiat munosabati tasvirlangan epizodlarni qayta o‘qing, ularga munosabat bildiring.
2. Bill hamrohini qachon, qayerda va nima uchun tashlab ketdi? Matndan aynan o‘sha joyni topib o‘qing va Billga baho bering?
3. Yo‘lovchi nima sababdan xaltasidagi oltinlardan voz kechdi?
4. Hikoya qahramoni yo‘l bo‘yi qorin to‘ydirish g‘amida qanday mashaqqatlarni boshdan kechiradi?
5. Adib o‘z hikoyasiga kasal bo‘ri obrazini nima sababdan kiritgan?
6. Kasal bo‘ri bilan yo‘lovchi holatini o‘zaro qiyoslab, fikr bildiring.
7. Hikoya qahramoni qanday qilib tirik qoldi?
8. Ushbu asarning tarbiyaviy qiymatini tushuntirib bering.
9. Jek London asarlari asosida suratga olingan filmlarni ko‘rganmisiz?
10. Shu hikoya mazmuniga yaqin film tomosha qilgan bo‘lsangiz, badiiy asar va filmga xos xususiyatlarni qiyoslang.



ALFONS DODE

(1840–1897)



Mashhur adib Alfons Dode o‘zining roman va hikoyalari bilan fransuz adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirdi. U 1840-yil 13-mayda Fransiyaning Nim shahrida tug‘ilgan. Yoshlik yillari maktablarda muallim bo‘lib ishlaydi. O‘n yetti yoshida Ernest ismli akasi bilan Parijga ko‘chib borishadi. Ularning maqsadi jurnalistika bilan mashg‘ul bo‘lish va shu orqali tirikchilik o‘tkazish bo‘ladi. Yoshi yigirmaga yetmasidanoq bir qancha jurnallar bilan muxbir hamda teatr tanqidchisi sifatida hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. «Tegirmonimdan xatlar» (1869) deb nomlangan birinchi kitobida hikoyalari jamlangan edi. Bu hikoyalarda oddiy insonlar hayoti tabiat bilan uyg‘unlikda, shuningdek, ularning halol mehnat bilan turmush kechirishlari xalq og‘zaki ijodidagi hikoyat va ertaklarga o‘xshash uslubda tasvirlanadi.

Yoshlikdagi mashaqqatli yillari to‘g‘risida avtobiografik xarakterga ega bo‘lgan «Kichkintoy» (1868) nomli roman yozadi. Dastlabki ikki kitobi bilan A. Dode fransuz adabiy muhitida shuhrat topadi. O‘z davrining Gyustav Flober, Emil Zolya, shuningdek, o‘sha yillarda Parijda yashagan rus adibi Ivan Turgenev bilan yaqin munosabatda bo‘ladi. «Tarasonlik Tartaranning sarguzashtlari», «Kichik Fromon va katta Risler», «Roza va Ninetta» kabi bir qancha romanlar yozadi.

Adabiyotshunoslar uning ijodidagi ikki qirraga alohida urg‘u berishadi. Birinchisi – humor, kinoya hamda tasvirdagi aniqlik. Ikkinchisi esa kuzatishlaridagi teranlik hamda adibning voqelikni naturalistik uslubda tasvirlaydigan yozuvchilarga usluban yaqinlashganidir.

A. Dodening XIX asr 80-yillarida yozgan asarlarida psixologik tahlil yetakchilik qiladi.

1867-yilda adib uylanadi. Undan uch farzand dunyoga keladi.

A. Dode 1897-yil 17-dekabrda Parijda vafot etadi.

SO‘NGGI SABOQ¹

(Hikoya)

O‘sha kuni ertalab mакtabga juda ham kech qolayotgan edim. Muallimdan tanbeh eshitishimni o‘ylasam yuragim orqaga tortib ketardi. Ustiga-ustak mosye² Amel bizdan avvalgi dars mavzusini – sifatdoshlarni so‘ramoqchi edi. Men esa yarimta so‘z ham yodlamaganman. Bir zum xayolimga darsga kirmasdan sayr qilib yurish fikri keldi.

Havo juda ochiq va iliq edi...

O‘rmon chetida sayroqi qorayaloqlarning kuylayotgani, taxta yo‘nish zavodi ortidagi River o‘tlog‘ida nemislarning safda yurish mashg‘ulotlarini bajarayotganliklari eshitilib turardi. Bularning bari meni darsdagi sifatdosh qoidalaridan ko‘ra ko‘proq o‘ziga jalb qildi, lekin men o‘zimni qo‘lga olib, maktabga yugurdim.

Meriya³ yonidan o‘tayotib, e’lonlar taxtasi oldida to‘planib turgan odamlarga ko‘zim tushdi. So‘nggi ikki yil ichida biz u yerda barcha ko‘ngilsizlikdan xabardor bo‘lar edik: boy berilgan janglar, rekvizitsiyalar, kommendant buyruqlari; o‘ylanib qoldim: «Yana qanday noxushliklar bo‘lishi mumkin?»

Shu payt shogirdi bilan e’lonlarni o‘qib turgan temirchi Vaxter meni chaqirib qoldi:

¹ Hikoya «Yoshlik» jurnalining 2015-yildagi 9-sonida nashr qilingan. (Rus tilidan Saidjalol Saidmurodov tarjimasi).

² Mosye – «janob» ma’nosida.

³ Meriya – shahar boshqarmasi binosi.

– Shoshma, bolakay, ulgurasan o’sha maktabingga.

U ustimdan kulyapti deb o’yladim va halloslagancha moye Amelning uyi oldidagi gulzor tomonga yugurdim.

Odatda, dars boshida ko‘chaga eshitilarli darajada shovqin ko‘tarilardi. Bolalar qulqlarini qo‘llari bilan yopgancha o‘tilgan mavzularni g‘o‘ng‘illab takrorlashar, partani do‘mbira qilib chalishar, muallimimiz esa chizg‘ichi bilan tinchlantirishga urinardi:

– Sekinroq, sekinroq, bolalar!

Men mana shu shovqin-suron ostida joyimga sezdirmasdan o‘tirishni mo‘ljallagandim, ammo shu bugun yakshanba tongidek jimjit edi.

Ochiq oynadan o‘rtoqlarim allaqachon joy-joylarida o‘tirganini, mosye Amel esa vahimali chizg‘ichini qo‘ltiqlagancha u yoqdan bu yoqqa borib kelayotganini ko‘rdim. Bu jimjilikda qanday qilib eshikni ochib kirsam ekan? Qo‘rquvdan qanchalik qizarib, qaltirayotganimni tasavvur qilib ko‘ring.

Xavotirim o‘rinsiz ekan, mosye Amel menga muloyim qaradi va erkalab dedi:

– Qani, Frans, o‘g‘lim, kira qol. Biz sensiz darsni boshlamoqchi bo‘lib turgandik.

Men stulni hatlab o‘tib o‘z joyimni egalladim. Shundagina, qo‘rquvim bosilganidan keyin, muallimning egnidagi dabdabali yashil syurtuk¹, burama galstuk va boshidagi qora ipak taxyani ko‘rdim. U faqat inspektor tashrif buyurganida yoki mukofotlar taqdim etilayotganida shunday kiyinardi. Butun sinf ko‘zimga ajib va dabdabali bo‘lib ko‘rindi. Ammo meni boshqa holat hayron qoldirdi: ko‘pincha bo‘s turadigan orqa o‘rindiqlarda qo‘lida uchburchak musiqa asbobi bilan qariya Xauzer, uning yonida sobiq mer, pochtachi va boshqa qishloq kishilari o‘tirardi. Ularning yuzi g‘amgin, Xauzerning tizzasida chetlari tililgan eski alifbe, uning ustida esa katta ko‘zoynak turardi.

Mosye Amel avvalgiday muloyim, lekin jiddiy ohangda hammamizga murojaat qildi:

¹ Syurtuk – uzunligi tizzagacha keladigan ustki kiyim.

– Bolalar, bugun sizlar bilan so‘nggi bor dars o‘tishimiz. Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqat nemis tili o‘qitilishi haqida buyruq keldi. Yangi o‘qituvchi ertaga keladi. Bugun fransuz tilidan oxirgi mashg‘ulotimiz. Iltimos, e’tiborliroq bo‘linglar!

Mana shu ikki og‘izgina so‘z meni larzaga soldi. Ax, ra-zillar! Meriya devoriga ilingan e’lon nima haqida ekanligiga endi tushundim.

So‘nggi fransuz tili darsi!..

Men bo‘lsam zo‘rg‘a yoza olardim! Demak, endi yozishni yaxshi o‘rganolmayman! Butun umr savodsiz bo‘lib qolaman! Darsga kirish o‘rniga qush uyasini axtarib yurganim, muzlagan Saara ko‘li ustida sirpanchiq uchib yo‘qotgan vaqtimga shunchalar achinib ketdimki! Biroz oldin zerikarli bo‘lgan kitoblar endi men uchun qadrdon do‘sstardek bo‘lib tuyuldi. Ulardan ajralish men uchun og‘ir edi. Mosye Amel-chi?! Xayolimda uni boshqa ko‘rolmaydigandek edim. Bir lahzada uning tanbehlari, chizg‘ich bilan jazolashlarini ham unutdim.

Bechora! U oxirgi dars sharafiga o‘zining bayramona liboslarini kiygandi. Orqa o‘rindiqlardagi qishloq odamlarining nima uchun bu yerda o‘tirishganlarini endi tushundim. Ular tez-tez bu yerga – maktabga kelib turmaganliklaridan afsusda edilar. Ularning bari muallimning qirq yillik halol xizmati uchun minnatdorlik bildirayotganga o‘xshab ko‘rinardi.

Ism-familiyam yangraganini eshitib xayolim bo‘lindi. Javob berish navbatni meniki edi. Qaniydi, sifatdosh qoidalarini band ovozda, tutilmasdan, dona-dona qilib gapirib bera olsam. Biroq men hammasini chalkashtirib yubordim, og‘irligimni u oyog‘imdan bu oyog‘imga tashlab, ko‘zimni yerdan uzolmay turaverdim. Mosye Amel menga tikilgancha so‘zlay boshladi:

– Men seni koyimayman, Frans, o‘g‘lim, shundoq ham jazolanganligingni bilsang kerak. Har safar «Qayoqqa ham shoshildim, ertaga yodlayman» deb o‘ylaysan. Oqibati nima bo‘ldi? Biz elzasliklar o‘qishni doimo ortga suramiz – fofiamiz ham ana shunda. Sizlar o‘zingizni fransuz deb bilasiz, vaholanki, o‘z ona tillaringda to‘g‘ri gapirishni ham, yozishni ham eplay olmaysiz. Bunda sening aybing boshqalarnikidan



kam emas, Frans, o‘g‘lim. Biz o‘zimizdan o‘pkalashimiz kerak. Ota-onalarimiz o‘qishlarimiz haqida ko‘p ham qayg‘urav-erishmaydi. Maktabga jo‘natish o‘rniga qo‘srimcha aqchaga ega bo‘lish maqsadida sizlarni dalaga yoki fabrikaga ishlash uchun yuborishadi. Men o‘zim-chi? Men emasmi sizlarga bilim berish o‘rniga bog‘dagi gullarni parvarishlashni zimma-nigizga yuklagan? Men emasmi, baliq ovlagim kelib qolganida sizlarni tap tortmay darsdan ozod qilgan?

Shundan so‘ng mosye Amel fransuz tili dunyodagi eng ajoyib til ekanligini, bu tilni asrashimiz lozimligini, chunki mustamlaka xalq o‘z ona tili yordamidagina yorug‘likka chiqo olishini uqtirdi... So‘ngra muallim grammatikadan ma’ruza o‘qidi. Darsni yaxshi tushunayotganidan o‘zim ham hayratda edim. Mosye Amel mavzuni juda ravon tushuntirardi. Avvalulari darsni bunchalik diqqat bilan tinglamagandim. Muallimimiz ketish oldidan bor bilimini bizga qoldirmoqchidek edi go‘yo.

Grammatikadan so‘ng yozuvga o‘tdik. Mosye Amel namuna sifatida doskaga chiroyli husnixat bilan quyidagi so‘zlarni yozib qo‘ydi: «Fransiya, Elzas. Fransiya, Elzas».

Sinf suv quygandek jimjit, faqat qog‘oz ustida yugurayotgan qalamning qitirlashigina eshitilardi...

Maktab tomida kaptarlarning g‘uv-g‘uvlagani qulog‘imga chalindi. O‘ylanib qoldim: «Hali ularni ham nemischa kuylashga majburlash kerakdir?»

Ko‘zimni daftardan uzganimda mosye Amelning maktab bilan qayta ko‘risholmaydigandek har bir narsaga sinchiklab qarayotganini ko‘rdim. O‘ylab ko‘ring-a, u qirq yillik umrini shu maktabga baxshida etdi. Eski stul va partalar kirlanib yaltirar, hovlidagi kashtan daraxtлari osmon qadar bo‘y cho‘zgan, ularning tagiga o‘tqazilgan xmel¹ butun derazani to‘sib turardi. Uning uchun bularning hammasi bilan xayrlashish og‘ir edi. Axir, u ertaga bu yerlarni butunlay tark etadi.

Mosye Amel darsni oxirigacha yetkazishga o‘zida kuch topa oldi.

Yozuv-chizuvdan so‘ng tarix darsiga o‘tdik; keyin bar-chamiz xor bo‘lib harflarni qaytardik: ba, be, bi, bo, bu. Orqa o‘rindiqdagi qariya Xauzer ham ko‘zoynagini taqib, alifboni qo‘lida tutgancha bizga jo‘r bo‘ldi: uning ovozi hayajondan titrab chiqardi; uni eshitib yig‘lashni ham, kulishni ham bilmasdik. O, yo‘q! Bu dars sira ham yodimdan ko‘tarilmaydi...

To‘satdan cherkov soati kun yarim bo‘lganini, ibodatga shoshilish kerakligini eslatgandek bong ura boshladi. Shu onda deraza tagidan mashg‘ulotdan qaytayotgan pruss askarlarining trubalari jarangladi. Mosye Amelning rangi bo‘zdek oqardi va o‘rnidan turdi.

– Do‘sstarim, – dedi u, – do‘sstarim, men, men...

Uning bo‘g‘ziga nimadir tiqilganday bo‘ldi. Shunda u qo‘liga bo‘rni olib, katta harflar bilan kuchining boricha quyidagi so‘zlarni yozdi:

«Yashasin Fransiya!»

Keyin u boshini eggancha, stulga o‘tirib qotib qoldi va qo‘li bilan bizga ishora qildi:

«Endi tamom... Ketinglar!»

¹ Xmel – o‘simlikning bir turi.

«SO'NGGI SABOQ» HIKOYASI HAQIDA

Fransuz adibining ushbu hikoyasi yosh bola tilidan bayon qilinadi. Uning ismi Frans. Adib Frans nazari bilan kichkinadek tuyulgan milliy-madaniy hodisaga nazar tashlaydi; baho beradi. Ayniqsa, hikoyada fransuz tili muallimi mosye Amelning g‘amginlikka uyg‘un jonkuyarligi va qat’iyati, o‘z ona tili va yurtini yurak-yurakdan sevishi sezilib turadi.

To‘g‘risi, hikoyani tushunish uchun XIX asr Fransiya tarixini, ma’lum bir muddat qaysi mamlakatga qaram bo‘lgani kabi ma’lumotlarni ham bilish lozim. Hikoyada Fransiyaning Elzas va Lotaringiya hududi o‘z vaqtida nemislar tomonidan ishg‘ol qilinganiga ishora bor. Undagi «... nemislarning safda yurish mashg‘ulotlari» degan jumla, shuningdek, muallimning o‘quvchilarga: «Bolalar, bugun sizlar bilan so‘nggi bor dars o‘tishimiz. Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqat nemis tili o‘qitilishi haqida buyruq keldi. Yangi o‘qituvchi ertaga keladi. Bugun fransuz tilidan oxirgi mashg‘ulotimiz. Iltimos, e’tiborliroq bo‘linglar!» degan murojaati hamda «Maktab tomidha kaptarlarning g‘uv-g‘uvlagani qulog‘imga chalindi. O‘ylanib qoldim: «Hali ularni ham nemischa kuylashga majburlash kerakdir?» degan e’tiroznomasi ham shundan dalolat beradi.

Hikoyada sinf xonasasi, undagi har bir predmet birma-bir aniq tasvirlanadi. Ushbu darsga har kungidan boshqacharoq kiyinib kelgan muallimning ust-boshini batafsil ta’riflaydi. Ubamisol bayramdagidek kiyingan. Bu, tabiiyki, adibning badiy mahoratini ko‘rsatadi. Ammo fransuz xalqi bu yerda og‘ir musibatni boshidan kechirayotganiga, xuddi o‘z ona tillarini qabrga qo‘yayotgandek bo‘lganiga, ayni paytda sinf xonasida yoshi ancha katta kishilar ham o‘tirganlariga urg‘u beradi.

Hikoyadagi «biz fransuzlar doim o‘qishni orqaga suramiz» degan gap ham har kimni o‘ylantiradi. Hozirgi zamonga xolis baho beradigan bo‘lsak, nafaqat fransuzlar, balki butun dunyo yoshlari ham ko‘pincha yalqovlik bilan o‘qishni, bilim olishni orqaga suradi.

Hurmatli o‘quvchi! Siz ushbu hikoyani o‘qish jarayonida dilingizda bir marotaba bo‘lsa ham «iye, men ham shunday qilgandim, darsga kirishni istamay qish kunlari ko‘cha-

da sirpanchiq uchgandim, bahor kunlari esa daraxtlarga tir-mashardim» kabi o‘ylar kechgan bo‘lishi mumkin. To‘g‘risi, o‘tib borayotgan har bir daqiqqa bir tomchi suvgaga o‘xshaydi, u yerga tushishi bilan singib yo‘qoladi. Uni qaytarib bo‘lmaydi. Guvohi bo‘lganiningizdek, hikoya qahramoni Frans ham vaqtini behuda o‘tkazib, so‘nggi fransuz tili darsida o‘z qilmishlaridan pushaymon bo‘lib o‘tribdi.

Aziz o‘quvchi! Agar bu hikoyani jon-u dilingiz bilan berilib, hikoyadagi qahramonlar holatiga tushib o‘qisangiz, ta’sirlanib beixtiyor o‘yga tolishingiz tabiiy. Muallimga ham, hikoya qahramoni Fransga ham hamdard bo‘lgingiz keladi.

Hikoyadagi bayonga ko‘ra, mosye Amel o‘z mashg‘ulotini yuksak bir pafosda, dars o‘quvchilari va boshqa tinglovchilar eslab yuradigan bo‘lishini, shu bilan birga ular tasavvuriga butun umr «Yashasin Fransiya» degan yozuv muhrlanib qolishini istaydi. Muallimning «fransuz tili dunyodagi eng ajoyib til ekani», uni asrash lozimligi, «chunki mustamlaka xalq o‘z ona tili yordamidagina yorug‘likka chiqa olishi» to‘g‘risidagi fikrlari bevosita o‘zbek tilining yaqin o‘tmishdagi taqdiriga ham taalluqli, albatta.

Fransuz adibi Alfons Dode har bir millat uchun beqiyos o‘rin tutadigan milliy til taqdiri to‘g‘risida ana shunday ta’sirli hikoya yozgan.

Savol va topshiriqlar

1. Alfons Dode hayoti va ijodi to‘g‘risida so‘zlang.
2. Hikoya tasvirlangan davrga munosabat bildiring?
3. Mosye Amelga tavsif bering.
4. Frans nima uchun so‘nggi saboqda muallimning barcha fikr-mulohazalarini yaxshi tushuna boshladi?
5. Fransning «Hali ularni ham nemischa kuylashga majburlash kerakdir?» degan gapini izohlab bering.
6. Hikoya vogelarini o‘zbek tilining yaqin o‘tmishdagi taqdiri bilan qaysidir jihatdan bog‘lash mumkinmi?
7. «Ona tilim, sen borsanki...» mavzusida ijodiy matn yarating.

XULOSA



Muhtaram o‘quvchi! Xayrlashadigan pallamiz yaqinlashib qoldi. Mana bir yil davomida adabiyot – so‘z san’atining nodir namunalaridan bahra oldingiz. Darslikda berilgan mavzularni pishiq va puxta o‘qib o‘zlashtirgan, ayrim she’rlarни chin dildan yod olgan bo‘lsangiz, albatta, sizga tasanno aytamiz.

Umrboqiy, go‘zal badiiy asarlar sizga kelgusi hayotingiz uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Odamlar bilan munosabatingizni yaxshilashga, ular bilan badiiy asarlarni o‘qib uqqan, ma’nan yuksak darajadagi bir inson sifatida muomala qilishingizga yordam berishi tabiiy.

Zero, siz o‘qib o‘rgangan mumtoz adabiyot tarixi va zamonaviy adabiyot namunalari, xalq og‘zaki ijodi va dunyo adabiyoti namunalari mazmuni har bir o‘quvchini yuksak ma’naviyatli inson sifatida tarbiyalashga qaratilgandir. Badiiy asarni o‘qish malakasiga ega ma’naviyati baland inson o‘zining kelgusi hayot yo‘lini kitobsiz tasavvur qilmaydi. Har qanday sohada yetuk mutaxassis bo‘lib yetishmoq uchun, albatta, o‘qish kerak. O‘qish tafakkurni o‘tkirlashtiradi. Oybek «Kitob – tafakkur qanotidir» deb aytganki, kitob vositasida inson tafakkuri parvoz qiladi. Ayniqsa, badiiy asarlar o‘quvchini Yer yuzining turli mamlakatlarigagina emas, balki koinotning boshqa sayyoralariga han sayohat qildirishi mumkin.

Kitob – bu insoniyat tomonidan bunyod qilingan, kashf etilgan bebaho qadriyat, tunganmas xazina. Bu xazinadan ma’naviy ozuqa olinadi, biroq boylik aslo tugamaydi. O‘qiganlar bilan o‘qimaganlarni, oqillar bilan johillarni hech qachon tenglashtirib bo‘lmaydi. Shu jihatdan kitob odamlarni o‘zarо farqlashga yordam beradi. Baland va hashamatli binolarni mohir ustalar quradi; tirik odamlar yashnatadi. Ayni damda bunday uylarga olimlar, oqillar, donishmandlar va ularning kitoblari nur olib kiradi. Ilmdan bebahra ko‘ngil – ojiz, ki-

tobsiz uy – qorong‘i. Inson vujudini ruhidan ajratish mumkin emas. Ruhsiz tanada jondan asar yo‘q. Shunga o‘xshab pokiza jamiyatni, fozil odamlar muhitini yaxshi va foydalı kitobsiz, kitobxon va kutubxonalar tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ming yillik ma’naviy javohirlar jamlangan kutubxonalar har qanday jamiyatning ma’naviy ko‘rki sanaladi. Yaxshi kitob – ma’nilar maxzani. Zotan, dunyodagi turli tilli minglab, millionlab odamlar go‘zal va boqiy kitoblar vositasida bir tilda so‘zlashadi. Umrboqiy kitoblar o‘z muallifini, ayni choqda, o‘zi mansub millatni dunyoga tanitadi. Kitoblar turli xalqlar orasidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-adabiy, madaniy-ma’rifiy aloqalarni kuchaytiradi. Ma’rifattalab o‘quvchilarning dillarini, ko‘ngillarini o‘zaro mustahkam bog‘laydi. Yaxshi kitob – yolg‘iz odamga eng ishonchli hamroh, beminnat do‘sst; nasihatga zarurati bo‘lgan odamga eng dono maslahatgo‘y...

O‘qish qadrini baland bilgan olimlardan biri kitoblar dunyosini ummonga o‘xshatadi. Bu «ummon» bag‘riga sho‘ng‘ib, dur-u javohirlar yig‘ish, o‘ziga munosib yo‘l topish, chin dilidan bahramandlik baxtiga erishish, tabiiyki, odamning pokiza didiga va kitobxonlik madaniyatiga bog‘liq. Aslida, umr bo‘yi mutolaa qilganda ham aniq bir soha yo‘nalishidagi kitoblarni o‘qib tugatish qiyin bo‘ladi. Lekin madaniyatli kitobxon vaqtini g‘animat bilib, o‘z milliy va jahon adabiyotining go‘zal namunalarini, shoh asarlarni, albatta, tanlab o‘qiydi. To‘g‘risi, bugungi shiddatli zamonda turli saviyada bosilayotgan ilmiy-nazariy, tarixiy-badiiy kitoblar ana shunday tanlash ehtiyojini taqozo etadi. Ushbu darslik kitobi sizga shunday madaniyatdan ham saboq bergan bo‘lsa ajab emas.

Kelgusi o‘quv yilida yana diyordi ko‘rishguncha xayr!



MUNDARIJA



Yangi o‘zbek adabiyoti

Mahmudxo‘ja Behbudiy	3
Padarkush.....	4
«Padarkush» dramasi haqida	18
Abdulla Qodiriy	23
O‘tkan kunlar	26
«O‘tkan kunlar» romanidan olingen boblar haqida	65
Hamid Olimjon	71
O‘rik gullaganda	73
«O‘rik gullaganda» she’ri haqida	74
Chimyon esdaliklari	76
«Chimyon esdaliklari» she’ri haqida	78
G‘azal	79
Shoirning «G‘azal»i haqida	80
Said Ahmad	82
Qorako‘z majnun	83
«Qorako‘z majnun» hikoyasi haqida	99
Abdulla Oripov	103
Ko‘rgan-bilganlarim	103
«Munojot»ni tinglab	106
«Munojot»ni tinglab» she’ri haqida	106
Yurtim shamoli	107
«Yurtim shamoli» she’ri haqida	108
Birinchi muhabbatim	109
«Birinchi muhabbatim» she’ri haqida	110
Qo‘riqxona	112
«Qo‘riqxona» she’ri haqida	113
O‘tkir Hoshimov	115
Mashaqqatli safar	115
Ikki eshik orasi	119
«Ikki eshik orasi» romanidan olingen parcha haqida	142

Jahon adabiyoti

Jek London	146
Hayotga muhabbat	147
«Hayotga muhabbat» hikoyasi haqida.....	167
Alfons Dode.....	171
So‘nggi saboq	172
«So‘nggi saboq» hikoyasi haqida	177
Xulosa	179

O‘quv nashri

Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova

ADABIYOT

O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va
o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining
o‘quvchilari uchun darslik-majmua

Birinchi nashr

O‘zbek tilida

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent–2017

Tahririyat mudiri *Anvar Zulfiqorov*
Muharrir *Jahongir Qo‘nishev*
Badiiy muharrir *Asqar Yoqubjonov*
Musahhihlar: *Lola Fattoyeva*
Laylo Hasanova
Sahifalovchi *Akbar Qo‘nishev*

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009-y.

Bosishga ruxsat etildi 14.09.2017. Bichimi $60 \times 90^{1/16}$.
Offset qog‘oziga bosildi. «Times New Roman» garniturası.
Shartli bosma tabog‘i 13,45. Nashr hisob-tabog‘i 12,00.
Adadi 428 121 nusxa. Buyurtma № 17-589.

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi, familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahba- rining imzosi	Darslikning topshiril- gandagi holati	Sinf rahba- rining imzosi
1						
2						
3						
4						

**Darslik ijara berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda
yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash
mezonlariga asosan to‘diriladi**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q
Qoniqarli	Muqova ezligan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.